2011-yilda Clintondale High School da Michigan shtatida katta eksperimental tadqiqotlar o’tkazildi. Tadqiqotni o’qituvchi Andy Scheel tashkil etdi. Talabalar bir xil mazmunga ega bo’lgan materialni oldilar ammo ta’lim jarayonini tashkil etish shakli sezilarli darajada farq qildi, chunki bir gurux talabalar flipped learning texnologiyasi mantig’ida ishladi. Tajriba 20 hafta davomida amalga oshirildi va an’anaviy texnologiya bo’yicha talabalarning 13% o’quv materiallarini qoniqarli darajada o’zlashtirmagan. Flipped learning texnologiyasidagi talabalarning xech biri salbiy natija ko’rsatmagan. Ularning bilimlarini C+darajasidan kamroq baholagan. Tajriba shuni ko’rsatdiki ta’lim tasirining eng yaxshi omili ko’p vaqt davom etadigan barcha o’quv mashg’ulotlarining yozuvlari emas, balki davomiyligа 3-6 daqiqadan oshmaydigan kichik video kliplardir. Flipped learningning muvaffaqqiyatlari universitet ta’lim tizimida ham amalga oshirilmoqda. Bunda Turkiyaning xususiy MEF universiteti yetakchi o’rinni egallaydi. Bu Flipped learning modelini amalga oshiradigan va ushbu muqobil texnologiya bo’yicha umumiy tajribani amalga oshiradigan birinchi universitetdir. Xodimlar tomonidan o’tkazilgan MEF universitetida Flipped learning modelini amalga oshirish amaliyotini tahlil qilish shuni ko’rsatdiki, ushbu metod juda muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Flipped learning texnologiyasi oliy o’quv yurtlari talabalarining o’ziga xos xususiyatlari va ta’lim ehtiyojlariga mos ravishda o’zgartirildi. Talabalar uchun qulay tarzda ishlab chiqilgan raqamli o’quv materiallarini o’rganish bilan bir qatorda, o’qituvchi bilan auditoriyadan oldindan savollar berish, sharh va tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Texnologiyani amalga oshirish natijasida pedogogik va ijtimoiy ta’sir tahlili ostida ta’lim oluvchilar va tadqiqotchi talabalar o’quv materiallarini chuqur o’rganadilar, professional mahorat, muloqat ko’nikmalari, o’z-o’zini aks ettirish, o’z bilim faolioyatini rejalashtirish qobilyati rivojlanadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida aralash ta’limning Flipped learning modeli asosida tashkil etilgan darslar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o’stirishda, bilim, ko’nikma, malakalarini mustahkamlashda, talabalarda fanga bo’lgan qiziqishni oshirishda yordam beradi.

Talabalar uchun qulay tarzda ishlab chiqilgan raqamli o’quv materiallarini o’rganish bilan bir qatorda, o’qituvchi bilan auditoriyadan oldindan savollar berish, sharh va tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Texnologiyani amalga oshirish natijasida pedogogik va ijtimoiy ta’sir tahlili ostida ta’lim oluvchilar va tadqiqotchi talabalar o’quv materiallarini chuqur o’rganadilar, professional mahorat, muloqat ko’nikmalari, o’z-o’zini aks ettirish, o’z bilim faolioyatini rejalashtirish qobilyati rivojlanadi

Shunday qilib, mazkur ta’lim texnologiyasining o’quv jarayonida qo’llanilishi oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning zamonaviy bosqichida mavjud pedagogik tizim funksiyalarini tubdan o’zgartirish, jumladan,o’qituvchi rolini bir shakldan boshqa shaklga o’tkazish, innovatsion va kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy qilish, aralash va masofaviy ta’lim shakllarini keng yoyish, talabaning mustaqil o’quv faoliyatini oshirish va uzluksiz ta’limga yo’naltirish, talabaning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish yo’llarini izlab topishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ta’limda Flipped learning texnologiyasidan foydalanish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy foyda beradi. Shuning uchun ham bu boradagi nazariy, uslubiy va va boshqa jihatlar davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari” to’g’risidagi farmoni.2020.
2. Is‘hoqova Z., Mustaqil ish qanday yoziladi Toshkent “ Yangi nashr “ 2014
3. O.D.Fedotova, E.A.Nikolayeva “Alternativnaya obrazovatelnaya texnologiya Flipped”-2017
4. Rustamova, Sh. A. (2022). INTERFAOL METODLAR ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(11), 41-46.
5. Rustamova, S. A. (2022). MATEMATIKANI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O’RNI. Uzbek Scholar Journal, 10, 169-173.
6. www.ziyonet.uz
7. https://mitc.uz/uz/pages/Documents/623/

TALABALARNING MUSTAQIL O’QUV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAXSUS TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Rustamova Sh.A

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi, Chirchiq, O’zbekiston

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasining 3-bob 1-§ da “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” masalalarida talabalaring mustaqil ta’lim olishlarini, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz rivojlantirish orqali bo’lajak mutaxassislarining zaruriy kompententsiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan [1].

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish ta'limning zamonaviy bosqichining eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu o'qituvchining shaxsiyatini kasbiy shakllantirish uchun zarur bo'lgan kognitiv

mustaqillikni shakllantirish uchun asos bo'lgan yangi bilimlarni muntazam ravishda olish bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muammosini hal qilishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Uning murakkabligi va ko'p omilliligi shuni ko'rsatadiki, ushbu muammoni an'anaviy ta'lim shakllaridan foydalanish orqali hal qilish juda qiyin. Shunday qilib, yangi bilimlarni mustaqil ravishda olishni aktuallashtirish zamonaviy ta'lim tizimida qarama - qarshilik mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, u bir tomondan bilimlarni tez sur'atlar bilan olish zarurligidan iborat bo'lib, o'quv sub'ekti tomonidan bilimlarni o'zlashtirish va an'anaviy o'qitish usullari bilan yangi bilimlarni olishning cheklangan imkoniyatlari bilan bog'liq.

Talabalarning o'qish paytida mustaqil ishlarining roliga e'tiborni kuchaytirish, shubhasiz, universitetda o'quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishga olib keladi, uning maqsadi talabaning o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish, bilimlarni ijodiy qo'llash va zamonaviy dunyoda moslashishning turli usullarini o'zlashtirishdir. O'z-o'zidan ma'lumot olish darajasining oshishi talabalarning bilim darajasiga bo'lgan talablarning oshishi, inson faoliyatining turli sohalariga zamonaviy tushunchalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun ta'limning kasbiy va pedagogik yo'nalishiga rioya qilish, shu jumladan sinf va mustaqil ish hajmining mutanosib kombinatsiyasini ta'minlash, talabalarning auditoriyada va undan tashqarida mustaqil ishlarini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish, talabalarni zarur uslubiy va o'quv materiallari bilan ta'minlash va mustaqil ishlarning borishini nazorat qilish zarur.

Ta'limni axborotlashtirish jarayonining jadal rivojlanishi axborot texnologiyalarini qo'llash doirasini kengaytirishga, uning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini o'zgartirishga olib keladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini kiritish ta'lim sifatini oshirish uchun haqiqiy sharoitlarni yaratadi.Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlaridan biri o'quv vositasi sifatida o'quv dasturlari mahsulotlarining imkoniyatlarini amalga oshirishdir. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi ta'lim shakllarining rivojlanishi turli xil elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalarining paydo bo'lishiga olib keldi, ular ma'ruza kontekstida ham, talabalarning mustaqil ishlashi uchun materiallar sifatida ham ishlatilishi mumkin. Zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli xil tizimlar va axborot muhitlari ishlab chiqilmoqda va foydalanilmoqda. Bunday tizimlardan foydalanish samaradorligi o'zaro bog'liq ikkita tarkibiy qismga bog'liq: ta'limning haqiqiy axborot tizimi va o'quv jarayoni sub'ektlari faoliyatini tashkil etishning tegishli metodologiyasi. Bundan tashqari, o'quv-uslubiy materiallarni elektron shaklda taqdim etishning tuzilishi va usuli nafaqat mumkin, balki ulardan foydalanishning o'ziga xos shakliga qarab osongina o'zgarishi kerak. Mumkin bo'lgan eng ko'p foydalanuvchilar uchun katta miqdordagi o'quv-uslubiy manbalarga kirishni ta'minlash, shuningdek individual yondashuv va faol o'qitish usullarini qo'llab-quvvatlash kerak.

Mustaqil ta'lim ko'pincha talabaning ehtiyojlariga moslashtiriladi va loyihalar kursning barcha asosiy mavzularini qamrab olishini ta'minlash o'qituvchining ma'suliyati hisoblanadi. Mustaqil ta'limni mohiyatan asosiy ikkita turga ajratish maqsadga muvofiq-o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi(O'RTMI) va talabaning mustaqil ishi (TMI). Hozirgi kunda vaqt me'yorlarida O'RTMI (masalan hisob-grafik ishiga, kurs ishiga, kurs loyiha ishiga, malakaviy amaliyotga, malakaviy bitiruv ishiga, magistrlik dessertatsiyasiga va talabaning ilmiy-tadqiqot ishiga, talabaning ilmiy-pedagogik faoliyati va ilmiy analiyotiga(stajirovkasiga) rahbarlik, doktarantga, mustaqil izlanuvchiga rahbarlik va h/k) uchun muayyan o'quv yuklamalari belgilab qo'yilgan [2].

Mustaqil ish - talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, sinfda ham, sinfdan tashqarida ham turli darajadagi murakkablikdagi o'quv vazifalarini mustaqil ravishda bajarishga

qaratilgan maxsus tashkil etilgan faoliyati. Talabaning o'z ustida (o'qituvchi nazoratisiz) ishlashini tashkil qilish uchun ko'plab usullar mavjud. Masalan talaba mustaqil o'qib-o'rganishi uchun pedagoglar tomonidan unga quyidagi zamonaviy tarqatma o'quv materiallarini taqdim qilish mumkin.

- Fanga doir o'quv adabiyotlarining elektron variantlari-bu fanni ilmiy asoslangan ishonchli manbalardan elektron tarzda o'rganishi uchun zarur;
- Fanning sillabusi –bu fanning krediti, o'qish davri, maqsad va vazifalari, kurs siyosati, fan mavzulari, mashg'ulot turlari, mustaqil ish turlari, o'qitish usullari, baholash mezonlari, adabiyotlar, yakuniy nazorat savollari va boshqalar bilan tanishish uchun zarur;
- Fanga doir glossariy- fan atamalarini va mazmuni tez o'zlashtirib olish uchun zarur;
- Ma'ruzalar matni – fanni mavzularini o'qib o'rganishi uchun zarur;
- Ijtimoiy tarmoqlar va elektron platformalarda fanga doir forumlar tashkil qilsih - bu mavzular va topshiriqlar bo'yicha talabalarning o'zaro fikr almashishi, fanga aloqador yangiliklardan xabardor bo'lishi uchun zarur;
- Videoyozuvlar, vodkastlar, fanga doir internetdan olingan videolar - fan mavzularini videoyozuvlar orqali o'rganishlari uchun zarur;
- Fanga doir dayjestlar, ya'ni internet havolalari - talabalarning internet havolalaridan foydalanib, mavzuni o'rganishlari uchun zarur;
- Multimediali trenajorlar, o'rgatuvchi testlar, amaliy dasturlar, virtual laboratoriya stendlarimobil quriulmasi orqali mashq qilib amaliy ko'nikmalkarni egallash uchun;
- Fanga doir MOOC lar - bu fan kontentlarini talaba tomonidan onlayn o'rganish uchun; Fanga doir keyslar namunasi- bu muammoli vaziyatlarni yechish va ular bilan tanishish uchun;
- Ilmiy-izlanish mavzulari - mustaqil ravishda fan doirasida ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy maqolalar yozish uchun.

Mustaqil ta'limni sifatli tashkil etish fan o'qituvchisining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lib, shaffof baholashni talab qiladi. Shu sababli talabalarni baholashda sub'yektiv omillarni kamaytirish va baholashning avtomatlashtirilgan, taqdimot, loyiha, test shakllarini joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5847-son farmoni.

2. G.Turdiyeva. Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etish metodikasi.//Monografiya. Durdona nashriyoti -2020y

3. Rustamova, Sh. A. (2022). INTERFAOL METODLAR ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(11), 41-46.

4. Rustamova, S. A. (2022). MATEMATIKANI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. Uzbek Scholar Journal, 10, 169-173.

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВАМИ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Исломов С. М.

Чирчикский государственный педагогический университет,

Желание получать современные знания, быть просвещенным и иметь высокую культуру следует стать жизненно важная потребность для всех нас.

Для устойчивого развития мы должны глубоко овладеть цифровыми знаниями и информационными технологиями, что позволит нам следовать кратчайшим путем к добиться всестороннего прогресса. В современном мире цифровые технологии играют решающую роль во всех сферах. Технология в переводе с греческого означает искусство, умение или способность, а это не что иное, как процессы. А процесс следует понимать как определенный набор действий, направленный на достижение поставленной цели. Процесс должен быть определятся стратегией, выбранной человеком и осуществляться с помощью сочетания различных средств и методы. Информационные технологии – это процесс, в котором используется совокупность средств и методов сбора, обработки, и передачу данных (первичной информации) для получения новое качество информации о состоянии объекта, процесс, или явление (информационный продукт).

Информационные технологии используются для достижения следующие педагогические цели:

1. Развитие личности школьника, подготовка его к самостоятельной продуктивной деятельности в условиях информационного общества, в том числе развитие заложенных в нем знаний и передача информации:

- развитие конструктивного, алгоритмического мышления благодаря особенностям работы на компьютере;
- развитие творческого мышления за счет сокращения доля репродуктивной активности;
- развитие коммуникативных навыков через реализация совместных проектов;
- формирование умения принимать оптимальные решения в сложной ситуации (при компьютерном деле игры и работа с программами-симуляторами);
- развитие исследовательских навыков (при работе с программами моделирования и интеллектуальными системами обучения);

Средствами дистанционного образования являются все виды информационные технологии, средствами которых являются компьютеры, компьютерные сети, мультимедийные системы и телекоммуникации. Рассмотрим преимущества дистанционного образования:

1. Доступность – учиться можно где угодно в компьютере с доступом в Интернет (дома, в работе, с ноутбуком в поезде), и не зависит от местоположении учебного центра.

2. Социальность – снимает социальную напряженность, обеспечивая равные возможности получить образование независимо от место жительства, материальные условия, возраст и состояние здоровья.

3. Качество – позволяет учиться и консультироваться с высококвалифицированными преподавателями, постоянно контролируют усвоение знаний, поддерживают постоянный контакт с другими студентами.

4. Индивидуальность – позволяет реализовать для ученика индивидуальный учебный план, индивидуальный график занятий и последовательность изучения предметов.

5. Мобильность – информация проверяется учителем каждый день.

Таким образом, дистанционное образование дает учащимся доступ к нетрадиционным источникам информации, повышает эффективность самостоятельной работы, обеспечивает совершенно новые возможности для творчества и позволяет учителям реализовать принципиально новые формы и

методы обучения с использованием концептуального и математического моделирования явлений и процессов. Цифровая образовательная среда (ДИО) – это открытый набор информационных систем, предназначенных для поддержки различные задачи образовательного процесса. Использование цифровых технологий практически во всех сферах нашей жизни перешла в фазу фронтального наступления. Главное сегодня в том, что при использовании цифровых технологий в образовании должна быть гарантирована безопасность ребенка: его физическое и психическое здоровье, полноценная социализация и успешное обучение. Использование цифровых технологий приносит позитивные инновации в нашу жизнь. Многие учебные материалы, классные журналы и дневники, переходя в категорию онлайн-версии, студент может учиться не выходя из дома. После этого, электронные ресурсы помогут найти необходимое информация как для школьников, так и для студентов. Чтобы обеспечить таким доступом, общеобразовательные школы и средние и высшие профессиональные учебные заведения активно оснащаются современными технологиями, широкополосным доступом в Интернет и т. д. Использование цифровых технологии меняет сам процесс обучения и побуждает учителей осваивать новые методы обучения.

Использованные литературы

1. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю., Моисеева М. В. Петров А. Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования:

Учеб. разрешение. - М., Академия, 2000.

2. Митин А.Н. Компетентностный подход впреподавание информационных технологий с использованием электронных образовательных ресурсов // Балтийский гуманитарный журнал. 2014. № 4. С. 93-96.

3. Деденева А.С., Аксюхин А.А. Информация технологии в гуманитарном высшем профессиональном образовании // Педагогическая информатика.

Научно-методический журнал ВАК. 2006. С. 8-16.

4. Интернет - https://www.novye-informacionnye-tehnologii-v-obrazovanii/

THE ROLE OF NEW DIGITALS IN TEACHING PROCESS

Tenelbayev R.

English teacher of Chirchiq SPU

The development of information technology, the Internet, directs the history of educational digitals in the new groove. Online services in the education of both degree and non-degree are basically providing educational services to users using the Internet as a medium. Online services can be composed of various stages of the process of educational programs such as: registration, test entry, payment, learning, case assignments, case discussions, exams, assessments, discussions, and announcements. Nothing the positive impact of various studies on the use of ICT to support learning in the school, it is a must if the school is not excessive in this country also have the prospect of a future that allows for deploying ICT in supporting learning and they are:

Electronic Books

Electronic book or e-book is one that utilizes computer technology to deliver multimedia information in the form of a compact and dynamic. In an e-book can be integrated impressions sound, graphics, images, animations, and movie so that the information presented is richer than conventional books. Type e-book of the simplest is a mere transfer of conventional books into electronic form displayed by the computer. With this technology, hundreds of books can be stored in a single piece of solid disc "CD" or "compact disk" (capacity of about 700MB), DVD or digital versatile disc (capacity 4.7 to 8.5 GB) and "flash" (currently available capacity up to 16 GB). A more complex and require more rigorous designs such as the Encyclopedia Britannica and Microsoft Encarta encyclopaedia which is in multimedia format. Multimedia format allows e-book provides not only written information but also sound, images, movies and other multimedia elements. A description of the type of music, for example, can be accompanied by footage of the sound of music so that the user can clearly understand what is meant by the renderer.

E-learning

Various definitions can be found for the" e-learning". Victoria L. Tinio, for example, states that" e-learning" includes learning at all levels, formal and informal, which uses a computer network (intranet and extranet) for the delivery of teaching materials, interaction, and / or facilitation. For most of the process of learning that takes place with the help of the Internet is often referred to as online learning. Broader definition proposed in the working paper SEAMOLEC, the e-learning is learning through electronic services.

Although a variety of definitions but basically agreed that the e-learning is learning by using electronic technology as a means of presenting and distributing information. Included in the definition of educational television and radio broadcasts is a form of e-learning. Although radio and television education is a form of e-learning, it is generally agreed that e-learning reaches peak form after synergize with internet technology.

Internet-based learning or web-based learning in its simplest form is the" website" are used to present learning materials. This method enables learners to access learning resources provided by the speakers or facilitators whenever desired. If it is necessary that may also be provided mailing list specifically for the learning website that serves as a forum for discussion.

E-learning facility" complete" provided by a special software called software or learning management LMS (learning management system). Current running LMS-based Internet technology so it can be accessed from anywhere over the available access to the internet. Facilities provided include the management of students or learners, learning materials management, learning management, including management of learning evaluation and management of communication between learners with facilitators.

This facility enables the learning activities are managed in the absence of face-to-face between the parties involved (administrators, facilitators, learners or learners). 'Presence' the parties involved are represented by e-mail, chat channel, or via video conference. In today's era where information and communication technology is rapidly developed and turns to be a lifestyle for people throughout ages and places, its literacy has undoubtedly become a prior necessity. The sensitivity of the technology helps one in attending a more important task and in attaining a higher achievement in the area of education, professional career, and social relationship at which its literacy is a major requisite. ICT which stands for Information and Communication and Technology, is elaborated as follows.

a. ICT

ICT covers any product that will store, retrieve, manipulate, transmit or receiving information electronically in a digital form. For example, personal computers, digital television, email, robots. So ICT

is concerned with the storage, retrieval, manipulation, transmission or receipt of digital data. Importantly, it is also concerned with the way these different uses can work with each other.

• Information

Information means the processed data in a meaningful and purposeful form according to Shore in Hartoyo [2012:2]

• Communication

According to Potts, communication is defined as a process by which we assign and convey meaning in an attempt to create shared understanding. Brown (2011) stated communication is transfer of information from one person to another,whether or not it elicits confidence. But the information transferred must be understandable to the receiver.

• Technology

Technology derived from the word 'techno' which means technique, art or skill, and 'logos' which means science. Therefore, technology can be defined as a scientific knowledge of art or skill.

Based on the definitions of the three components, ICT as a whole can be described as the utility of technology to support the effort of conveying information and communication particularly in the area of education. The technique includes digital technologies mostly of electronic information – processing technologies, such as computers, internet, mobile phones, networks, broadband, and so on.

b. The benefits of ICT in general

ICT is found to be advantageous in several ways as mentioned by Herington (2002), (1) technology facilitates exposure to authentic language; (2) technology provides the access to wider sources of information and varieties of language; (3) technology gives the opportunity to people to communicate with the world outside; (4) technology allows a learner – centered approach; (5) technology develops learner's autonomy. ICT help people in order to get information and to communicate each other in wider range.

c. ICT Tools in Language Context

There are some kinds of technologies classified into information and communication technology commonly used in language context, such as:

• Interactive multimedia

Interactive media is the integration of digital media including combinations of electronic text, graphics, moving images, and sound, into a structured digital computerized environment that allows people to interact with the data for appropriate purposes. The digital environment can include the Internet, telecoms and interactive digital television. [Finney, 2011:2]

• Computer

Computer can be utilized with other multimedia learning devices or it can stand alone (a standard PC) and still serves its basic purpose as an electronic medium of language learning. [Hartoyo, 2012:29].

Computer is an electronic device which is capable of receiving information (data) and performing a sequence of logical operations in accordance with a predetermined but variable set of procedural instruction (program) to produce results in the form of information or signals based on Oxford dictionary. It is consist of CPU, monitor, keyboard and some other apparatus.

• Audio devices

Audio devices can be used with other media to form an interactive multimedia. However, it can also be utilized separately as independent tool. Audio devices include speaker, earphone, CD, and etc.

• Internet

Internet can be used as a medium of language learning through email, www (world wide web), text, audio and video conferencing.

• Television

According to Oxford dictionary, television is a system for converting visual images (with sound) into electrical signals, transmitting them by radio or other means, and displaying them electronically on a screen.

• Telephone

This telephone medium has not been widely used for language teaching because of the poor quality of analogue transmissions. However, there is new invent of digital quality and lower connection cost which potential for conference calls.

• Mobile gadget

Mobile gadgets such as cell phone and smart phone which are equipped with programs like computer, which enable it to perform as mini personal computer. By using this gadget and its internet connection, everybody could enjoy chatting, browsing, and discuss each other with the wider range. The advancement of science and technology makes the size and price of those gadgets are getting cheaper and reachable.

REFERENCES

1. Davi U.K. Ltd.es, B. Dan Ellison, L. (1992).School Development Planning.Essex: Longman Group

2. Hartoyo (2008). Individual Differences in Computer-Assisted Language Learning. Semarang: Pelita Insani Semarang

3.Victoria L. Tinio, (1999). Modificating teaching through ICT. The American journal. 12, 56-63

4.http:// www.rambler.ru.

5.http:// www.education. Ru.

WI-FI QAMROVINI UZAYTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Rizayev Odiljon Baxtiyor o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
o.rizayev@cspi.uz

ANNOTATSIYA: So'nggi yillarda kompyuter tarmoqlarining funksionalligi va texnik xususiyatlari juda tez o'sib bormoqda va ularning narxi doimiy ravishda pasayib bormoqda, bu esa ularni ommaviy foydalanuvchilarga tobora ko'proq kirish imkonini beradi. Bu imkoniyatlar hozirda jamiyatning ulardan samarali foydalanish uchun talab qilinadigan tayyorgarlik darajasidan ancha oldinda bo'lib, ta'lim oldiga yangi muammo tug'dirmoqda. Keling ana shu hozirgi kunda deyarli barcha foydalanuvchilar foydalana olishi mumkin bo'lgan tarmoqqa ulanish usullarini biroz ko'rib chiqamiz. Quyida sizmsiz tarmoqdan foydalanish usullari, turlari va simsiz tarmoq texnologiyasi va qurulmalari xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: simsiz tarmoq, tarmoq texnologiyalari, tarmoq qurulmalari, Wi-Fi texnologiyasi, Wi-Max texnologiyasi, Ethernet texnologiyasi.

KIRISH

Hozirgi davrda axborot texnologiyalari jadal tarzda rivojlanib borayotgan bir vaqtda aloqa, axborot almashinuvi ham juda katta tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Aloqalarning qulayligi oshirishda aloqa vositalarini ham o'rni beqiyosdir. Chunki aloqaning sifatliligi aloqa vositalariga chambarchas bog'liq. Dastlab aloqalarni faqat sim ulagichlar orqali amalga oshirilar edi. Ushbu simlar foydalanuvchilarni aloqa

markazlari orqali bir-biri bilan bo'glagan va shu tariqa shaxarlar, davlatlar orasida aloqa o'rnatilgan. Hozirgi kunda bunday simlarni zamonaviy ko'rishdagi maxsulotlaridan foydalaniladi. Bularga misol qilib optik tolali simlarni keltiramiz. Bu bir qancha qulayliklarga ega. Lekin shunday tolali aloqalar ham zamon talablariga javob bera olmayapti. Chunki bu sim orqali aloqasining o'ziga bog'liq bir qancha noqulayliklari bor.

ASOSIY QISM

Axborot uzatishning simsiz texnologiyalari tarixi XIX asrning oxiriga kelib birinchi radiosignal uzatilishi bilan boshlangan va XX asrning 20-yillarida amplitude modulyatsiyali radio qabul qilgichlar paydo bo'lishi bu texnologiyalarni rivojlanish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatdi. 1970-yillarga kelib tovushni radioto'lqinlar orqali uzatuvchi birinchi simsiz radiotelefonlar yaratildi. Dastlab bular analog tarmoqlarda ishlagan bo'lsa, 80-yillar boshida raqamli standartlarga o'tish boshlanganligini anglatuvchi, spektrni yaxshi taqsimlashini, eng yaxshi sifatli signalni va eng yaxshi xavfsizlikni ta'minlovchi GSM standarti ishlab chiqildi. XX asrning 90-yillarida simsiz tarmoqlar holatini mustahkamlash jarayonlari yuz berishi, bu texnologiyalarni jadallik bilan rivojlanishiga olib keldi. Bugungi kunda simsiz texnologiyalar kundalik hayotimizga mustahkam joylashib bormoqda, yuqori tezlikni ta'minlash bilan birga ular yangi qurilma va xizmatlarni taqdim etmoqda. 1. Dial-Up. Telefon liniyasi orqali kommutatsiyalangan ulanish. Ushbu texnologiya ulanishdagi oddiylik sababli yaratilganidan buyon ishlatilib kelinmoqda. Ikki modem bir-biri bilan telefon liniyasini ishlatgan holda aloqa o'rnatadi. Oddiy holda ulanish birga-bir amalgam oshiriladi hamda ma'lumot uzatish uchun barcha mavjud ovoz diapazoni chastotasidan foydalanadi. Lekin ushbu texnologiyaning ko'pgina kamchiliklari mavjud. Masalan: ma'lumot uzatishdagi past tezlik, tashqi ta'sir tufayli yuborilayotgan paketlarning qismi yo'qolish extimoli, ulanishning uzilib qolish extimoli hamda ulanish davrida telefon liniyasining butunlay band bo'lishi. 2. Keng polosali ma'lumot uzatish texnologiyasi xDSL. Ushbu texnologiya statsionar obyektlar uchun juda ham maqbuldir. Mavjud telefon tarmog'idan foydalangan holda bemalol ushbu texnologiya orqali yuqori tezlikka ega bo'lish mumkin, Lekin liniyalar mavjud bo'lmasachi? Yangi liniyasini foydalanuvchi manziligacha olib borish, juda ham qimmatga tushishi aniq. Uning ustiga ushbu texnologiyani har bir yangi foydalanuvchiga o'rnatish uchun ham foydalanuvchi ham uzatuvchi liniyasi tomonda ma'lum o'rnatish va tuzatishlar amalgam oshirilishi lozim. 3. Ethernet texnologiyasi. Local tarmoq texnologiyasining eng keng tarqalgan turi bo'lib, 10 Mbit/s, 100 Mbit/s (Fast Ethernet), 1 Gbit/s hattoki 10 Gbit/s tezlik bilan ulanib turish imkoniyatiga egadir. Ethernet ning yutug'I tarmoq strukturasi tanlanishidagi qulayligidir. Ammo ushbu texnologiya kamchiligi, bu uning ma'lum masofadagina ishlay olishidir. Agarda vitaya para kabelini oladigan bo'lsak, u holda tarmoq masofasi 100 metrdan oshmasligi aniq. Uzaytirish uchun esa har 100 metrda qurilma qo'yishga to'g'ri keladi yoki optik toladan foydalanish zarur. Lekin qo'shni binolarni 1 tarmoqda jamlash uchun bu juda qiyin hamda qimmatga tushishi mumkin.

4. Wi-Fi texnologiyasi orqali ma'lumot uzatish. Ushbu texnologiya Wi-Fi (802.11a/b/g/n standartida) ishlab, bino ichida 45 metr uzoqlikda, 100 metr ochiq joyda bemalol katta tezlikda stabil tarmoqqa ulanish imkonini beradi. Lekin katta hududda sifatli tezlikni ta'minlash uchun esa juda ham ko'p Wi-Fi nuqtalari o'rnatilishi lozim bo'ladi. Bu esa texnologiyaga bo'lgan harajatni oshishiga olib keladi. Muammolardan yana biri shuki, abonent, yani foydalanuvchini bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chganida, ma'lumot almashinish hamda ulanishda to'xtovlar vujudga kelishidir. Yuqorida ko'rib chiqilgan tarmoq texnologiyalari bugungi kunda qo'yilayotgan yuqori o'tkazuvchanlik, ishonchlilik hamda mobillik darajalarini o'zida qizman yohud to'liq aks ettira olgani bilan, narh bo'yicha bugungi operatorlarga to'g'ri kelmaydi. Aynan ushbu muammoni simsiz texnologiyaning yangi avlodi bo'lmish IEEE 802.16 standartli WiMAX (Worldwide Interoperability for Microwave Access) texnologiyasi hal

qilishi mumkin. WiMAX texnologiyasini rivoji hamda ko'tarilishi uchun 1999 yili IEEE 802.16 bazasi qoshida WiMAX-forum tashkil qilingan edi. Forumga Nokia, Harris Corporation, Ensemble, Crosspan hamda Aperto kabi mashhur kompaniyalar qo'shilishgan. 2005 yil may oyiga kelib ushbu forumda 230dan ortiq qatnashchilarni birlashtirgan. O'sha yiliyoq WSIS (World Summit on Information Society) tomonidan WiMAX texnologiyasiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'ygan.

1. WiMAX yordamida kichik qishloqlar, uzoq regionlarda information hamda kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish (ko'pgina chekka hududlarda telefon hamda kabel tarmoqlarning umuman mavjud emasligini hisobga olgan holda).

2. WiMAX yordamida yer sharining yarim aholisini information hamda kommunikatsion texnologiyalarga yo'lni ochish. WiMAX sistemasi ikki asosiy qismdan iborat.

1. WiMAX baza stansiyasi (yuqori qavatli binolar yohud maxsus ustinga o'rnatilishi mumkin).

2. WiMAX qabul qilgich (qabul qilgichli antenna, PC card yoki tashqi kartalar form faktori asosida). Baza stansiya hamda foydalanuvchi qabul qilgich qurilmasi oralig'idagi bog'lanish past chastotali diapason (2-11GHz) orqali amalgam oshiriladi. Bunday bog'lanish eng yaxshi sharoitlarda 20 Mb/s tezlikda ma'lumot uzatishga imkon beradi va to'g'ridan to'g'ri signal ko'rishni talab etmaydi. Shuni yodda tutish lozimki, WiMAX texnologiyasi nafaqat "so'nggi milya", balki regional tarmoqlar (ofis hamda rayonlar)ni bir biri bilan bog'lashda bemalol qo'llash mumkin. Qo'shni baza stansiyalari bilan O'YCh (o'ta yuqori chastota 10-66 GHz) to'g'ridanto'g'ri radioaloqa rejimida doimiy bog'lanish o'rnatiladi. Bunday bog'lanishlar 120 Mb/s tezlikda ma'lumot almashish imkonini beradi. Albatta baza stansiyalarining to'g'ridan to'g'ri ko'rish orqaligina bir biri bilan ma'lumot almashinishi bu WiMAX ning minus tomoni. Lekin yuqori qavatli binolarda joy olgan baza stansiyalariga nima ham yuqorida bir-biri bilan bog'lanishga orada to'siq bo'la olardi. Har bir baza stansiyasi yuqori polosali tezkor bog'lanish orqali (T3 va shunga o'xshash) provayder bilan doimiy bog'lanib turadi. Bu bilan yuklanmani uyali aloqa topologiyasi asosida teng baza stansiyalariga taqsimlash mumkin. IEEE 802.16 tarmog'i strukturasi odatiy mobil aloqa tarmog'iga o'xshab ketadi. Bu yerda ham baza stansiyalari 50 km radiusda hizmat ko'rsata oladi. WiMAX da quyidagi rejimlar mavjud. Fixed WiMAX – fiksatsiyalangan aloqa Nomadic WiMAX – seansli aloqa Portable WiMAX – siljish rejimidagi aloqa Mobile WiMAX – mobil aloqa. Fixed WiMAX fiksatsiyalangan aloqa 10-66 GHz chastota diapazonini ishlatadi. Ushbu chastotali diapason kuchli so'nish tufayli uzatuvchi hamda qabul qilgichlarning to'g'ridan to'g'ri bir biriga ko'rish orqali signal uzatishni talab etadi. Boshqa tomondan esa ushbu chastotali diapazon radioaloqadagi eng asosiy muammo bo'lmish signalning ko'pnurli tarqalishini oldini oladi va signal uzatish tezligini 120 Mb/s gacha ko'tarilishiga olib keladi. Nomadic WiMAX. Seansli aloqa orqali foydalanuvchi bemalol joydan joyga ko'chib yurishi hamda aloqaning uzilgan joyidan ulanib, foydalanishda davom etishi mumkin. Ushbu rejim asosan portative qurilmalar uchun keng qo'llaniladi. Portable WiMAX. Portable rejimida foydalanuvchining baza stansiyalar aro aloqani uzmagan holda avtomatik ravishda ulanishi imkoni mavjud. Lekin ushbu rejimda foydalanuvchining joydan-joyga ko'chish tezligi 40 km/soat dan oshmasligi lozim. To'g'ri, ushbu rejimdan shaxarda foydalanish mumkin, lekin avtomobillarda foydalanish biroz muammoni tug'diradi. Mobile WiMAX. 802.16e-2005 standartida ishlab chiqilgan bo'lib, foydalanuvchining joydan-joyga ko'chib yurish tezligini maksimal 120 km/soatgacha bo'lganda sifatli aloqani taminlay oladi. Mobile rejimning yutuqlarini quyidagi keltirilganlar orqali sanab o'tishimiz mumkin.

1. Ko'pnurli signal tarqalishi hamda shaxsiy xalaqitlarga bardoshliligi.

2. Kanalning yuqori o'tkazuvchanligi.

3. Time Division Duplex (TDD) texnologiyasi yordamida assimetrik traffikni qayta ishlab, kanallarning estafeta shaklidagi sessiyasi orqali antenalarning boshqaruvini osonlashtiradi.

4. Hybrid-Automatic Repeat Reqest (H-ARQ) texnologiyasi esa foydalanuvchining tezkor joydan-joyga ko'chishidagi aloqani stabilligini tamillab beradi.

5. Yuklanmaning kattaligida ham foydalanuvchi qurilmasidan kanalning yuqori tezlikdan eng maksimal darajada foydalana olishi.

6. Kutish rejimida energiyaning minimal darajadagi sarf harajati

7. Network-Optimized Hard Handoff (HHO) texnologiyasi kanaldan kanalga ulanishdagi vaqtni 50 millisekund va undan kam vaqtni tashkil etishida.

8. Multicast and Broadcast Service (MBS) texnologiyasi DVB-H, MediaFLO hamda 3GPP E-UTRA fuksiyalarini o'zida jamlagani. 9. Smart Antenna texnologiyasi kanallar aro sessiyalarning ulanishida subkanallar hamda estafeta shaklidagi yuborishni ta'minlaydi.

10. Fractional Frequency Reuse texnologiyasi kanallarning qayta ishlashidagi minimal yo'qotishlarni boshqara olishni ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosada shuni takidlab o'tishimiz lozimki, hozirda WiMAX texnologiyasi yer yuzasining oz bo'lsada ba'zi bir shaxarlarda ishlatilmoqda hamda sinovdan o'tkazilmoqda. Simsiz aloqa texnologiyasi rivojlanishi natijasida qimmat bo'lgan simli va sun'iy yo'ldoshli aloqa tizimlaridan kam foydalanilib, iqtisodiy jihatdan tejamkorlikka erishish mumkin. Bunday texnologiyalarni qo'llash orqali foydalanuvchi mobil va statsionar holatda, ixtiyoriy geografik muhitda ham aloqa almashinuvini va boshqa aloqa xizmatlaridan samarali foydalana oladi va vaqtdan ham, iqtisodiy jihatdan yutuqqa erishiladi. Shularni e'tiborga olib, biz ham Wi-Fi, WiMax va Wi-Bro texnologiyalarining ochilmagan qirralarini o'rganish, ularni qo'llash choralarini topish, parametrlarini optimallashtirish va yangi ko'rinishdagi tarmoq topologiyalarini loyihalashtirish oldimizga qo'yilgan dolzarb va muhim masaladir.

REFERENCES

1. Goldenberg L. M., Matyushkin B. D., Polyak M. N. Tsifrovaya obrabotka signalov. Spravochnik. - M.: Radio i svyaz, 1985.

2. Tojiyev M., Salaxutdinov R., Barakayev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent, 2001.

3. Muhammad Amin Yaxyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o'quv qo'llanma. Toshkent, 2016.

4. Hamdamov R., Begimqulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun. Toshkent, 2010.

TA'LIM JARAYONIDA SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tolibayeva Q.Q.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Global dunyoda "kerakli" bilimlarni sifati, zamonaviyligini ilmiy tanlash zarur. Smart ta'lim o'z maqomiga ko'ra: hayot davomida o'z-o'zini o'zi rejalashtirish, shaxsning o'zini o'zi anglashi, muvaffaqiyatli shaxsiy martaba, shuningdek, jamiyat va ishlab chiqarish manfaatlari yo'lida kasbga ega bo'lishdan iborat. XXI asr axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan asrdir[1]. Smart ta'lim ko'p miqdordagi manbalar, multimediyaning (audio, video, grafik) maksimal xilma -xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi [2].

Bu mutlaqo yangi ta'lim muhiti bo‘lib, unda ta'lim faoliyati Internetda umumiy standartlar, texnologiyalar va ta'lim muassasalari tarmog‘i o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi va umumiy tarkibdan foydalaniladi. Bu turdagi ta'limning o‘ziga xos xususiyati - yashash joyidan va moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik, ya'ni "hamma joyda" ta'lim olish imkoniyatidir [3]. Axborotlashgan jamiyatda yashayotganligimiz barchaga ayon. Bugungi davrda hayotimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvr qila olmaymiz. Shunday ekan dars jarayonlarni ham turli texnologialardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu haqida fikrlar juda ko‘p aytilmoqda.

Smart-ta'limning mazmuni va ta'lim texnologiyalari ilg'or ta'limga qaratilgan bo‘lib, unda bitiruvchilarning kasbiy mahorat darajasi, ularning shaxsiyatining rivojlanish darajasi universitet va korxona o‘rtasidagi hamkorlikda mehnat bozorini hisobga olgan holda ishlab chiqarish, uning texnologiyalari rivojlanish darajasidan oldinda bo‘lishi va uni shakllantirishi, tuzilishini belgilashi kerak. Bugungi kunda multimedia taqdimotlaridan foydalangan holda talabalar bilan trening mashg'ulotlarini o‘tkazish odatiy holga aylanmoqda. Biroq, odatiy taqdimot texnologiyalari bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yangi, interaktiv texnologiyalar kirib kelmoqda. Smart ta'lim-bu insonning turmush tarziga tabiiy ravishda kiritilgan, ijtimoiy institutlar doirasi bilan cheklanmagan, ijodiy, universal, umrbod, cheksiz ta'limdir.[4] Talabalar uchun interfaol doska diqqatni jamlashni yaxshilaydi, o‘quv materiali tezroq o‘zlashtiriladi va buning natijasida har bir talabaning muvaffaqiyati oshadi. Ta'lim sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish bilimlarni reproduktiv o‘tkazishning eski sxemasidan ta'limning yangi, ijodiy shakliga o‘tishga olib keladi.

Z. K. Bekturova, N. N. Vagapovalarning fikriga ko‘ra smart ta'lim muhitini yaratish uchun bir qator muhim faktorlar zaruriy hisoblanadi. Ular jumlasiga: yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion usullar orqali o‘rganish; texnologiyalarning yaqinlashuvi, ta'lim sharoitlarini optimallashtirish; individual o‘quv maqsadlariga, mavjud bilim va ko‘nikmalarga, ijtimoiy muhitga avtomatik moslashish kabilar kiradi [3].

Ta'limdagi Smart texnologiyalar allaqachon ko‘plab mamlakatlarda standart hisoblanadi. Bugungi kunda bilim nafaqat o‘qituvchidan talabaga, balki talabalar o‘rtasida ham o‘tkaziladi, bu esa bilimning yangi darajasini yaratish imkonini beradi. O‘z navbatida, ta'lim texnologiyalari faol qo‘llanila boshlandi va o‘qituvchilar bilimlarni nafaqat darsda olib borishlari mumkin. Smart - ta'lim texnologiyalari-bu umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida Internetda birgalikda ta'lim faoliyati uchun ta'lim muassasalari va professor-o‘qituvchilarning birlashmasi. Ya'ni, bu qo‘shma tarkibni yaratish va ishlatish, hamkorlikdadir. Bunga Yevropa tizimidagi keyingi o‘n yillikdagi loyiha misol bo‘la oladi. Yana misol qilib keltirish mumkunki, ta'limdagi Smart texnologiyalar dunyo bo‘ylab bepul mavjud bo‘lgan kontentdan foydalangan holda interfaol ta'lim muhitida moslashuvchan ta'limdir. Smar texnologiyalarni tushunishning oson usullari bilimlarning keng mavjudligidir. Universitetda SMART ta’lim ilmiy va pedagogik xodimlar uchun muhim ahamiyatga ega. Uni amalga oshirish uchun mavjud intellektual texnologiyalarga qat'iy rioya qilinadi, ular shaxsiy talablarni va shaxsiy talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Buning uchun individual mashg'ulotlar jadvalidan foydalanish, o‘qituvchi bilan talaba doimiy aloqada bo‘lish, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga erishish, o‘qish uchun qulay vaqt va joydan foydalanish.

Ayni paytda elektron ta’limdan Smart (inglizcha – aqlli, zukko, baquvvat) elektron ta’lim va SmartEducation (aqlli ta’lim) ga o‘tilmoqda. Smart ta'lim kontseptsiyasi moslashuvchanlik bo‘lib, u juda ko‘p manbalarning mavjudligini, multimedianing maksimal xilma-xilligini, tinglovchining darajasi va ehtiyojlariga tez va oson moslashish qobiliyatini nazarda tutadi. [5]

Barcha fikrlarni umulashtiradigan bo‘lsak ta’lim jarayonida Smart texnologiyasidan foydalanish darsning izchilligini oshiradi. Bu fikrlar bilan eski davr darslarini qoralashdan yiroqdamiz. Hozirgi davr bilan hamnafas fikrlaydigan bo‘lsak yosh avlodimiz faqatgina gap so‘zlar yoki doska bilan chegaralanib qolmayabdi. Har bir yosh avlodning qo‘lida mobil telefonlar, planshetlar mavjud ularni mobil telefon, planshetlardan yiroqlashtirish uchun ularning etiborini torta oladigan yangicha bir texnologiyalardan foydalanish lozim. Biz Smart texnologiyasini tavsiya etamiz.

Adabiyotlar:

1. Лапчик М. П. Дистанционные технологии в системе инновационного педагогического образования // Инновации в непрерывном образовании. 2011 №2. С. 5-10
2. Дмитриевская Н.А. Смарт образование. Режим доступа: http://www.myshared. ru/slide /72152/
3. Бектурова З.К., Вагапова Н.Н., Филиал АО «НЦПК «Өрлеу» ИПК ПР по г. Астане, г. Астана 3 (2015)
4. Тихомиров В.П. Мир на пути к SmartEducation. Новые возможности для развития // Открытое образование. 2011 №3. С. 22-28.
5. Khakimova Sanobar TA'LIMDA SMART TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH//International scientific-practical conference on the theme: «INFORMATION TECHNOLOGY, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS ITN&T-2023» S. 735-737

NAZORAT ISHLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Usmonova R.B.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Chirchiq, O‘zbekiston

O‘quvchining fan bo‘yicha olgan bilimini sinovdan o‘tkazish va yozma savodxonligini baholash jarayonida nazorat ishlarining samarali natija berishi an’anaviy talim texnologiyasida bir necha bor o‘z isbotini topgan. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan umumta’lim maktablarida ingliz tili fanidan chorak yakuni yoki nimchoraklarda nazorat turi sifatida matn yaratish o‘quv dasturi asosida yo‘lga qo‘yilgan. Yozma ish o‘quvchining imloviy va punktuatsion nutq me’yorlarini o‘zlashtirish darajasini tekshirishga mo‘ljallangan nazorat turi hisoblanadi. Ko‘zlangan maqsadiga ko‘ra yozma ishlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. Orfografik xarakterdagi yozma ishlar;
2. Nazariy bilimlarni mustahkamlaydigan yozma ishlar;
3. Nutq o‘stirish xarakteridagi yozma ishlar;
4. Ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishga yo‘naltirilgan yozma ishlar.

An’anaviy ta’limda o‘qituvchilarga nazorat ishlarini o‘tkazish uchun “Diktant va bayonlar to‘plami” kitoblari manba sifatida xizmat qiladi. Tanlangan yozma ish matni ingliz adabiy tili qoidalariga to‘la mos, mantiqiy jihatdan tugallangan, ma’lum yosh doirasidagi o‘quvchi uchun tushunarli, semantik va grammatik jihatdan shakllangan, bog‘lanishli matn bo‘lishi shart. O‘qituvchi matnni sintagmalarga bo‘lib, ifodali tarzda o‘qiydi, o‘quvchilar esa ayni shu matnni qog‘ozga tushiradilar yoki matnga ijodiy yondashgan holda o‘z munosabatlarini bildiradilar.

Bu usulda nazorat yozma ishlarini tashkil etish hozirgi rivojlanayotgan ta’lim tizimida joriy etilgan ilg‘or pedagogik metod talablariga javob bera olmaydi:

Birinchidan, boshlang‘ich sinfni bitirgan o‘quvchilarining yozish ko‘nikmasi shakllangan bo‘ladi.

O‘qituvchidan yozma ishni o‘qish jarayonida so‘zlarni aniq va ravon talaffuz qilish talab etiladi. Shuning uchun ham an’anaviy usulda nazorat ishlarini tashkil etish o‘quvchining imloviy savodxonligiga u qadar katta ta’sir o‘tkazmaydi. Nazorat ishi o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsadlardan biri, aynan o‘quvchi husnixati ustida ishlash va orfografik xatolarni bartaraf etishdan iboratdir.

Ikkinchidan, 9-sinf o‘quvchilarining mantiqiy va kreativ fikrlash doiralari ancha keng bo‘lgani sababli yozma ish matnini yozish ular uchun zerikarli mashg‘ulotday tuyilishi mumkin. Chorak yakunida o‘tkaziladigan tekshiruv yozma ishlari bilan bir qatorda ijodiy yozma ishlar ham borligini unutmaslik lozim. Ijodiy yozma ishlar o‘quvchidan tanlangan mavzu bo‘yicha mustaqil fikrlashni talab etadi. Ijodiy yozma ishlar o‘tkazish o‘quvchilarning ongli ravishda fikrlashlariga yordam beradi, faolligini oshiradi, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllanishiga, lug‘at boyligining oshishiga, nutqni to‘g‘ri va aniq tuza olish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ko‘maklashadi. Sinf taxtasiga yozma ish matnida qo‘llash uchun kalit so‘zlar yozib qo‘yiladi. Har bir o‘quvchi ma’naviy dunyoqarashi va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda yozma ish matnini shakllantiradi. Yozma ishning bu turi yuqori sinf o‘quvchilari uchun ayni muddao.

Ta’lim tizimida joriy etilgan yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda nazorat ishi darslarini tashkil etishning yana bir turi sifatida quyidagi texnologiyadan foydalanishni tavsiya etgan bo‘lar edik. Sinfdagi o‘quvchilarga kamida ikki variantda oldindan tayyorlangan matnlar beriladi, yoki maktabning informatika xonasida mavjud kompyuterlarga o‘qituvchi tomonidan tayyor matnlar avvaldan kiritib qo‘yiladi. Matnda ataylab bir nechta o‘rinlarda imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yiladi. Gaplar orasidagi mazmuniy bog‘lanish buzilgan holatlar kuzatiladi. Matndagi ayrim so‘zlarning ranglari qora qalin harflar bilan yoziladi. Matn oxirida esa o‘quvchining shaxsiy xulosasi uchun joy qoldiriladi.

Har bir o‘quvchi matn bilan tanishib chiqqach, ularga grammatik topshiriqlar beriladi.

1. Matndagi qaysi so‘zlar imlosida xatoga yo‘l qo‘yilgan?
2. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalarining sinonimini toping?
3. Globallashuv davrida inson ma’naviyatida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda?
4. Matndan kelib chiqib, o‘z shaxsiy mulohazalaringizni yozma bayon eting.

O‘quvchilar yozma ish matnini diqqat bilan o‘qib chiqqandan so‘ng, topshiriqlarni ketma-ketlikda bajarishlari talab etiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, yozma ishni tekshirish jarayonida o‘qituvchi asosiy e’tiborni 3 va 4-topshiriqlarga qaratishi lozim. Chunki o‘quvchining ijodiy fikrlash qobiliyati, ma’naviy dunyoqarashi va imloviy savodxonligi aynan ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida yaqqol ko‘rinadi.

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, darsga noan’anaviy usulda zamonaviy yondashuvlar o‘qituvchini ham zamonaviy fikrlashga, o‘quvchidan doimo bir qadam oldinda yurishga undaydi. Darslarni bu tarzda tashkil etish o‘quvchidan ijodiy munosabat bildirishni, keng dunyoqarashni va, albatta, imloviy savodxonlikni talab etadi. Axborot kommunikatsiyalari rivojlangan bir davrda nazorat darslarini bu tarzda tashkil etish odatiy darslarga qaraganda samaraliroq bo‘ladi, degan umiddamiz. Bu bilan darsda o‘qituvchining vazifasini kamaytirib, o‘quvchining faolligini oshiramiz.

Biz yuqorida noan’anaviy usulda nazorat ishi yozishning eng sodda usullarini ko‘rsatib o‘tdik. O‘quvchilarning aqliy salohiyati va o‘qituvchining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda darsga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Masalan, topshiriqlarni murakkablashtirish yoki o‘tilgan mavzularga moslashtirish, ularni og‘zaki tarzda bajariladigan topshiriqlarga almashtirish, savollar sonini ko‘paytirish kabi bir qancha amallarga almashtirsa bo‘ladi.

Yozma ish darslaridan keyingi soatda o‘quvchilar bilan xatolar ustida ishlash darslari o‘tkaziladi.

O‘quvchilar imloviy, ishoraviy xatolar bilan bir qatorda nutqiy xatolarga ham yo‘l qo‘yadilar. Nutqiy xatolarga noo‘rin tanlangan so‘zlar, mantiqan to‘g‘ri shakllanmagan gaplar, morfologik shakllarni noto‘g‘ri qo‘llash kabi holatlar kiradi. Bunday nutqiy xatolarni o‘rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar, asosan, quyidagi uch turga bo‘linadi: lug’aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy.[6]

1. Lug’aviy-uslubiy xatolar. a). Bir so‘zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o‘quvchi so‘zni ishlatishga kam e’tibor beradi va faol lug‘atidagi so‘zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o‘quvchining so‘z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so‘zlar o‘rniga olmoshlardan foydalana olmaydi. b). So‘zning ma’nosini yoki ma’no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma’nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so‘z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi. Leksik xatolar xilma-xil bo‘lgani uchun uni to‘g‘rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo‘li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, ko‘proq badiiy asar o‘qish, leksik bazani boyitish, lug‘atlar ustida ishlash darslarini tashkil etish, so‘zlarni yangi ma’no qirralarini o‘quvchilarning faol nutqida qo‘llashiga erishishdir.

2. Morfologik-uslubiy xatolarga so‘z shaklini, so‘z o‘zgartuvchi va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi. Bunday xatolar, asosan, sheva ta’sirida vujudga keladi. Shuning uchun dars davomida o‘qituvchining ham, o‘quvchining ham adabiy tilda muloqot qilishiga erishish bunday xatolarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

3. Sintaktik-uslubiy xatolarga so‘z birikmasi va gap tuzishga oid xatolardir. O‘quvchilar insho yozish davomida so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan belgilardan juda ko‘p foydalanishadi. Esse yozishda, asosan, ilmiy va badiiy uslubga xos bo‘lgan ifoda yo‘sinidan foydalanish zarurligini o‘quvchi ongiga singdirish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, nazorat ishlari faqat o‘quvchining olgan bilimini sinovdan o‘tkazish va baholash bilan chegaralanmay, o‘quvchining lingvistik va nutqiy kompetentligini ham oshirishga xizmat qilsin. Yozma ishlarni faqat ma’lum muddat oralig‘ida emas, balki har bir darsning 5 daqiqasini aynan o‘quvchining mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiruvchi matnlar yaratishga ajratish lozim. Chunki zamonaviy gadjetlar hayotimizni har bir jabhasiga kirib kelgan ayni zamonda savodsizlik avj olayotgani yashirib bo‘lmaydigan haqiqat ekanligini barchamiz bilamiz. O‘quvchilarning ko‘p vaqti ijtimoiy tarmoqlarda o‘tishi ham bor gap. Ular o‘zlari yaratgan “sun’iy alifbo”da o‘zaro muloqot qiladilar. Amaldagi imlo qoidalarini o‘quvchi ongiga singdirish va undan kundalik turmushimizda maqsadli foydalana oladigan avlodni shakllantirish esa ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бонк Н. А., Котий Г. А., Лукянова Н. А. Учебник английского языка. – М.: Деконт, 1999. – 456 с.

2. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М.: Педагогика, 1981. –186 с.

3 Щерба Л.В. Фонетика французского языка. –М.: Просвишение,1948.– стр. 190–199.

4 Usmanova Z.I. Zamonaviy ta’limning negizi. Til va adabiyot ta’limi. Toshkent, - 2022. №2, 15-17.

5. Achilova, E. S. (2022). ARTISTIC PSYCHOLOGY ON THE EXAMPLE OF THE WORK

[6] К.Қосимова, С.Матчонов, Х. Ғуломова, Ш.Йўлдошева, Ш. Сариев Она тили ўқитиш методикаси Т., 2009. 231 б.

ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТЛАРИ

Жолдасов Ихтиёр Суюндикович
Чирчиқ Давлат Педагогика Университети

Аннотация: Мақолада халқ педагогикасининг ёш авлодни тарбиялашдаги тушунчаси ва аҳамияти очиб берилган. Халқ педагогикасида инновацион технологияларидан фойдаланиш бўйича ўқитувчи фаолияти мазмунининг тавсифи берилган.

Калит сўзлар: таълим, халқ педагогикаси, халқ педагогикасининг кўрсатмалари.

Аннотация: в статье раскрывается концепция и значение народной педагогики в воспитании подрастающего поколения. Дано описание содержания деятельности учителя по использованию инновационных технологий в народной педагогике.

Ключевые слова: образование, народная педагогика, наставления по народной педагогике.

Annotation: the article reveals the concept and importance of folk pedagogy in the upbringing of the younger generation. A description of the content of the teacher's activities on the use of innovative technologies in folk pedagogy is given.

Keywords: education, folk pedagogy, instructions of folk pedagogy.

Замонавий жамиятда инсоннинг аҳлоқий фазилатларини шакллантиришга тўсқинлик қиладиган ва ёшлигидан бошлаб одамларнинг ижтимоий тажовузкорлигини оширишга ёрдам берадиган салбий тенденциялар мавжуд. Ўтмиш мафкурасининг рад этилиши "замон алоқаси" нинг парчаланишига, ўз ватанлари тарихига дахлдорлик туйғусига олиб келди. Шу муносабат билан кекса авлод тажрибасидан фойдаланиш, халқ педагогикаси ва унинг анъаналарига мурожаат қилиш масаласи долзарбдир. Ўқитувчининг мақсади ҳар доим нафақат таълим, балки болаларни тарбиялаш ҳам бўлган. Тарих ёки математика, физика ёки адабиёт дарси бўладими, ўқув жараёнлари ҳар қандай дарсда бўлиши керак. Ҳозирги вақтда мактаб ўқувчиларининг ахлоқий ва ахлоқий тарбиясига имкон қадар кўпроқ эътибор бериш керак. Бу, таълим Академияси академиги А. Новиковнинг сўзларига кўра, биринчи навбатда, нафақат ёшларнинг, балки бутун жамиятнинг замонавий таназзули билан боғлиқ. Ҳозирги вақтда болаларга асосан атрофдаги ҳақиқат таъсир қилади. Шунинг учун ўқитувчилар мактаб ўқувчиларининг маданий ривожланишига, уларнинг ахлоқий тарбиясига имкон қадар кўпроқ эътибор беришлари керак. Халқ педагогикаси томонидан Т. Ф. Кузина ва Г. И. Батурина "болаларни тарбиялаш ва ўқитишнинг тарихан шаклланган тажрибаси, дастлаб авлоддан-авлодга оғзаки равишда етказилган, сўнгра ёзма ёдгорликларда фолклор, қаҳрамонлик эпоси, афсоналар шаклида қайд этилган, қоидалар ва тарбия тўплами, хулқ-атвор қоидалари, ва ҳоказо.". Халқ педагогикаси таълимнинг идеаллари ва мақсадларини ўз ичига олади, дунёқарашни, оила, шахс ҳақидаги ғояларни акс эттиради[3]. К.Д. Ушинский ўқитувчи, "халқ педагогикаси"атамасини биринчи марта ишлатган, у :" халқнинг ўзи томонидан яратилган ва оммабоп тамойилларга асосланган таълим мавҳум ғояларга асосланган энг яхши тизимларда мавжуд бўлмаган таълим кучига эга. "У инсон авлодларнинг урф-одатлари ва анъаналарини ҳурмат қилса ва ўтмиш ва ҳозирги кун ўртасидаги алоқани сақлаб қолган тақдирдагина таълим олиши мумкинлигига ишонган, шунинг учун халқ анъаналарига риоя қилиш тарбия жараёнининг ажралмас қисмидир[4]. Халқ педагогикасининг кўрсатмалари эртаклар, достонлар, ўйинлар,

қўшиқлар, мақоллар ва байрамларда ўз аксини топган. Халқ педагогикасининг етакчи қоидаси инсонда ватанпарварликни тарбиялашдир. Болаларда ўз халқининг тарихи ва маданияти билан танишиш ўз халқига ҳурмат, ғурур, ўз миллатининг муносиб вакили бўлиш истагини уйғотади. Ватанпарварлик ғояси халқ оғзаки ижодининг барча шаклларига: мақоллар, эртаклар, қўшиқлар, қаҳрамонлик достонларига кириб боради ва халқ қаҳрамонлари образларида, табиат гўзаллигини тасвирлашда ўз ифодасини топади. Инновация бу маълум бир ижтимоий бирлик-ташкилот, аҳоли пункти, жамият, гуруҳга янги, нисбатан барқарор элементларни киритадиган мақсадли ўзгариш"[5]. Инновациялар педагогик амалиётда қўлланиладиган, талабанинг шахсига, унинг қобилиятларини ривожлантиришга қаратилган янги усуллар, шакллар, воситалар, технологияларни белгилайди. Инновацион технологиялардан фойдаланишнинг самарали шартларига қуйидагилар киради:

- талабаларнинг социализацияси,

. -умуминсоний қадриятлар негизида унинг шахсий қадриятларини шакллантириш учун ўқитувчиларнинг талаба онгига таъсирининг бадиий воситалари ва усуллари,

- ўқув жараёнининг миллий йўналиши,

- талабаларнинг маънавий ривожланиши ва бошқалар.

Бугунги кунда кўплаб ўқитувчилар таълим самарадорлигига эришиш учун мактабда ўқитишнинг замонавий технологиялари ва инновацион усулларидан фойдаланадилар. Ушбу усуллар ўқитишда қўлланиладиган фаол ва интерактив шаклларни ўз ичига олади. Фаол талабанинг ўқитувчига ва у билан бирга таълим оладиганларга нисбатан фаол позициясини таъминлайди. Дарслар давомида уларни қўллаш билан дарсликлар, дафтарлар, компютер, яъни ўқитиш учун ишлатиладиган индивидуал воситалар қўлланилади. Интерфаол усуллар туфайли бошқа талабалар билан ҳамкорликда билимларни самарали ўзлаштириш мавжуд. Ушбу усуллар ўқитишнинг жамоавий шаклларига тегишли бўлиб, унинг давомида бир гуруҳ талабалар ўрганилган материал устида ишлайди. Интерфаол усуллар янги материални сифатли ўзлаштиришга ёрдам беради. Буларга қуйидагилар киради:

- ижодий характердаги машқлар;

- гуруҳ вазифалари;

- таълим, рол ўйнаш, бизнес ўйинлари, тақлид;

- дарслар-экскурсиялар;

- ижодий ривожланиш, ижро дарслари, кино яратиш, газета нашр этишга қаратилган дарслар;

- видео материаллардан фойдаланиш, интернет, кўриш;

- "қарорлар дарахти", "ақлий ҳужум" усулларидан фойдаланган ҳолда мураккаб масалалар ва муаммоларни ҳал қилиш;

Мактабда ўқитишнинг инновацион усуллари ўқувчиларда когнитив қизиқишни ривожлантиришга ёрдам беради, уларни ўрганилган материални тизимлаштириш ва умумлаштиришга, муҳокама қилишга ўргатади. Олинган билимларни тушуниш ва қайта ишлаш, талабалар уларни амалда қўллаш кўникмаларини эгаллайдилар, мулоқот тажрибасини тўплайдилар. Шубҳасиз, ўқитишнинг инновацион усуллари анъанавийларга нисбатан афзалликларга эга, чунки улар талабанинг ривожланишига ҳисса қўшади, уни билиш ва қарор қабул қилишда мустақилликни ўргатади. Халқ педагогикасининг муҳим вазифаси маънавий-ахлоқий фазилатларни тарбиялашдир: инсонпарварлик, ҳалоллик, севги, бағрикенглик. Инсон мавжудлигининг асоси сифатида меҳнат таълимига бўлган эҳтиёжни халқ педагогикаси анъаналарида кузатиш мумкин. Меҳнат таълимнинг бошланиши ва унинг якуний натижаси

меҳнатсеварликдир. Халқ педагогикаси ўз олдига вазифа қўяди меҳнатсеварликни шакллантириш, болада ёшлигидан ахлоқий меҳнат мотивларини ривожлантириш. Меҳнат таълими ғояларини мақолларда топамиз: "ҳовуздан балиқни қийинчиликсиз ушлай олмайсиз", "ётган тош остидан сув оқмайди" ва бошқалар. Анъаналарни "тарихан шаклланган ва авлоддан-авлодга ғоялар, қарашлар, урф-одатлар, буйруқлар ва хулқ-атвор қоидалари" деб тушунишга асосланиб, халқ педагогикаси анъаналари мақсадлар, қоидалар ва узатиладиган тажриба сифатида тушунилади. Халқ педагогикасининг донолиги ва тажрибаси замонавий таълим тизимларининг асоси бўлиши керак, чунки болалар боғчалари, мактаблар, қўшимча таълим муассасаларида асосий вазифа нафақат ўқитиш, балки болаларни тарбиялашдир. Ўқитувчи халқ педагогикаси анъаналаридан фойдаланган ҳолда мактаб ўқувчиларининг миллий ўзига хослигини шакллантиради. Ўзини ўтган авлодларнинг меросхўри сифатида англаш ўз халқининг маънавий ва моддий маданияти қадриятларига муҳаббат уйғотади. Мактаб ўқитувчилари ўз она тилини яхши билишлари, рус ва жаҳон маданиятини билишлари, мактаб ўқувчиларини ҳар қандай миллат, ҳар қандай дин ва маданият вакилларига бағрикенглик ва ҳурмат билан тарбиялашлари керак. Халқ педагогикаси материалидан ўқитувчилар синфда ҳам, дарсдан ташқари соатларда ҳам фойдаланишлари керак. Талабаларни халқ оғзаки ижоди асарлари, декоратив ва амалий санъат турлари: ёғоч ўймакорлиги, каштачилик, тўр тўқиш билан таништириш муҳимдир. Ўқитувчи ўқувчиларни миллий ўйинлар ва спортга жалб этишга кўмаклашади, уларни халқ урф-одатлари ва маросимлари билан таништиради. Тақвим байрамлари халқ маданиятининг ажралмас қисмидир. Улар ўтган авлодлар авлодларга қолдирган яхши нарсаларни эслашга ёрдам беради. Шундай қилиб, халқ педагогикаси анъаналаридан фойдаланиш болаларни ўқитиш ва тарбиялашнинг тасдиқланган ва сифатли усули ҳисобланади. Халқ педагогикасининг салоҳияти жуда катта, у болада ватанпарварлик, катталарга ҳурмат, халқингизга ва маданий ёдгорликларга муҳаббат ва эҳтиром каби фазилатларни шакллантиришга имкон беради. Халқ педагогикаси ёрдамида ўқув жараёнида баъзи инновацион усуллардан фойдаланиб, улар шахсни шакллантиришда қулай шароитлар яратадилар. Халқ педагогикасининг аҳамияти жуда катта ва уни камситиб бўлмайди. Халқ педагогикаси педагогиканинг асосидир. Барча таълимнинг асосини халқ педагогикаси ташкил этади. Шундан келиб чиқиб, халқ педагогикасини ўрганиш ва амалиётга татбиқ этишга эътибор қаратиш лозим. Бунинг учун шахсни тарбиялаш билан боғлиқ барча муассасаларда, таълим олувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, оғзаки халқ ижодиёти асарларидан иложи борича кенгроқ фойдаланинг, халқ анъаналари, урф-одатлари, байрамлари ва халқ қўшиқларига ҳурмат ва муҳаббатни сингдириш лозим. Шундай қилиб таълим жараёни ёшларни миллий туйғулар ва миллий ғурур ҳақида тарбиялашга имкон берадиган материалларни ўз ичига олиши керак.

Адабиётлар рўйхати

1. Арабов.И.А., Нагорная. Г.Ю. Этнопедагогика. К, 1999. Б-215.

2. Булатова.З.А. Кўп маданиятли шахсни шакллантиришда халқ педагогикасининг маънавий-ахлоқий салоҳияти. Б. 2007. 4-сон. Б-259-262.

3. Кузина.Т.Ф., Батурина.Г.И. Россия халқларининг кўнгилочар педагогикаси: маслаҳатлар, ўйинлар, маросимлар. М. 1998. Б-144.

4. Ушинский.К.Д. Халқ таълимида миллат ҳақида. М. 1988.Б-194-256 5. Ковалева. Т.М. Инновационная школа: аксиомы и гипотезы.-М.2003. С-63

ДАВЛАТ ИНСТИТУТЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ИНСОН ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Илмуродова Феруза Шокировна
Чирчиқ давлат педагогика университети

Аннотация: Ушбу мақолада рақамли технологияларнинг ҳозирги кундаги ҳолати ва бошқарувда жорий этишнинг хориж тажрибаси чуқур таҳлил қилиб ўрганилган. Бошқарув фаолияти самарадорлигини оширишда рақамли технологиялардан фойдаланиш афзалликлари илмий жаҳатдан тадқиқ этилган. Бошқарувда рақамли технологияларни қўллаш ва уларнинг самарадорлигини баҳолаш имкониятлари назарий жиҳатидан ёритиб берилган.

Калит сўзлар: рақамли технология, бошқарув, бошқарув фаолияти, самарадорлик, иқтисодий самарадорлик, рақобат, менежмент, давлат хизматлари, рақамли эгизаклар, мослашув, рақамли ҳукумат.

Аннотация: в данной статье с углубленным анализом изучается происхождение цифровых технологий, их текущее состояние и зарубежный опыт внедрения в менеджмент. Научно исследованы возможности использования цифровых технологий и их преимущества в повышении эффективности управленческой деятельности. В менеджменте возможности применения цифровых технологий и оценки их эффективности рассматриваются в теоретическом плане.

Ключевые слова: цифровые технологии, менеджмент, управленческая деятельность, результативность, экономическая эффективность, конкуренция, затраты.

Annotation: in this article, the origin of digital technologies, its current state and the foreign experience of implementation in management are studied with an in-depth analysis. The possibilities of the use of digital technology and its advantages in improving the effectiveness of management activities have been scientifically researched. In management, the possibilities of applying digital technologies and assessing their effectiveness are covered in theoretical terms.

Keywords: digital technology, management, management activities, efficiency, economic efficiency, competition, cost.

Давлат бошқаруви ва давлат хизматларини кўрсатиш соҳаларида рақамли технологиялар ва платформа ечимларини жорий этиш масалаларини кўриб чиқиш, шунингдек, жамиятда давлат бошқарувининг асосий моделлари эволюциясини таҳлил қилиш ва давлат институтларини рақамлаштиришни ривожлантириш истиқболларини баҳолаш, мавжуд қийинчиликлар ва таҳдидларни ҳисобга олган ҳолда. Давлат бошқаруви анъанавий равишда ижтимоий-иқтисодий тизимнинг энг консерватив институтларидан бири бўлиб, у учун ҳар қандай инновацияларни қабул қилиш узоқ вақт мослашиш ва ўз функцияларини бажариш учун зарур бўлган янгиликларни тан олиш билан боғлиқ. Давлат ва жамият бошқаруви, ижтимоий соҳада ҳам рақамли технологияларни кенг жорий этиб, натижадорликни ошириш, бир сўз билан айтганда, одамлар турмушини кескин яхшилаш мумкин”, -дея таъкидлаб ўтган эди [1]. Сўнгги йилларда юртимизда давлат органлари ва ташкилотларининг фаолиятларини ҳамда аҳолига кўрсатилаётган давлат хизматларини рақамлаштириш, олис ҳудудларда мобил алоқа ва мобил интернет қамровини кенгайтириш, шунингдек мобил инфратузилмани ривожлантириш юзасидан кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.[2] Камбағалликни камайтиришга қаратилган махсус дастурнинг ишлаб чиқилиши, ҳали-ҳануз энг оғриқли нуқталардан бири бўлган коррупцияга қарши курашувчи махсус идора ташкил этилиши ҳам бу борада алоҳида аҳамиятга эга[3]. Рақамли иқтисодиёт – иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларнинг рақамли технологияларини қўллаш асосида

амалга ошириш мумкин бўлган тизим[4]. 2020 йилнинг “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб номланиши Ўзбекистоннинг ривожланиш тарихидаги илк инқилобий давр бошланиши десак, муболаға бўлмайди. Мамлакатимизда соғлиқни сақлаш тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар самарадорлигини янада ошириш, соҳага илғор ва рақамли технологиялар ҳамда сифат менежментини жорий этиш, тиббиёт муассасалари имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш мақсадида ПҚ-4847-сонли қарори қабул қилинди [5]. Рақамли иқтисодиётнинг келиб чиқиши, назарий асослари А. Форк, Л.В. Лапидус, Д.Белл, М.Кастелс, В.Десоуза, Д.Макконаз, М.Линч, С.Дирикан, С.Халфорд, М.Саваж М.А.Шнепс-Шнеппе, Д.Е. Намиот, П.Виня, М.Кейн, Н.Поппер, Е.Филиппов сингари хорижлик иқтисодчи олимларнинг илмий тадқиқотларида атрофлича ёритилган. Добролюбова, Е.И., Южаков, В.Н., Ефремов ва бошқалар “Рақамли технологияларни давлат бошқарувидаги роли” номли методик қўлланмада давлат бошқарувини натижаларга йўналишини таъминлаш учун рақамли технологиялардан фойдаланиш имкоинияти ва зарурлигига эътибор қаратганлар [6]. Мамлакатимиз электрон ҳукуматининг асосий тизими – Ягона интерактив давлат хизматлари портали (my.gov.uz) ишга туширилгач, ушбу соҳада, давлат бошқарувида янги технологияларни жорий этиш ва рақамлаштиришда салмоқли ютуқларга эришилди. [7] Ўзбекистонда интернетдан фойдаланувчиларнинг умумий сони эса жорий йил бошида 27,2 миллионга етган[8]. Банк соҳасида рақамли трансформациялар бўйича ишлар, автоматлаштирилган банк тизимлари ва хизматларини ривожлантириш, хизмат кўрсатиш сифатини таҳлил қилиш ва баҳолаш учун замонавий технологиялардан фойдаланилмоқда [9]. Ҳукумат органлари ва жамоат ташкилотлари ва жойларида терминаллар ўрнатилган бўлиб, ҳукумат хизматлари ҳақидаги маълумотни олиш мумкин[11]. Давлат бошқарув идоралари интерактив хизматларининг ҳозирги кунда бир неча тури мавжуд бўлиб, улардан қуйидагиларни мисол сифатида келтириш мумкин: пул курсининг бошқа бир курсларга нисбатан фарқини «online» режимда аниқлаш хизмат тури, фойдаланувчиларга маълум бир тўловларни бошқа бир валютада тўлашда мазкур пул бирлигининг амалдаги пул бирлигига нисбатан қанча бўлишини тез ва аниқ ҳисоблаб беради [12]. Хулоса қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, интерактив хизматлар электрон тижорат тизимини амалда жорий этилиши мижоз ёки буюртмачи учун бир қатор афзалликларни яратса, хизматни ёки маҳсулотни таклиф қилувчи корхона ва ташкилот учун ҳам иқтисодий самара келтиради. Демак, навбатдаги масала ўртача ва йирик иқтисодий битимлар ҳамда молиявий операцияларни рақамли технологиялар орқали амалга оширишни ривожлантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил 24 январь. // Манба: www. president.uz/uz/lists/view/3324

2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2021 йил 29 декабрь // Манба:www. president.uz

3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 464 б.

4. https://lex.uz

5. Лапидус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.:ИНФРА-М, 2018. -381 с

6. Mustafoqulov Sh. Raqamli iqtisodiyot – yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri. http://tsue.uz/?m=20200225

7. Файзуллаев Ж.С. Замонавий транспорт-логистика тизимининг бошқарув самарадорлигини ошириш. Мақола. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INFORMARIKA O’QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY TIZIMI.

Maxkamova Madina Ulfatjonovna
ChDPU “Informatika o‘qitish metodikasi”
Kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi o‘quvchilarining kompetentligini shakllantirish va uning mazmun-mohiyati, tayanch kompetensiyalar ularning o‘qish faoliyatiga tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, pedagogik va texnik bilimlar asosida ularning kompetentligini rivojlantirish mexanizmi hamda unga integrativ differensial yondashuv kabi masalalar yoritilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar, kompetensiya, kompetentlik, fanlararo integratsiya, integrativ differensial yondashuv.

Ta'limning yakuniy mahsulotiga kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni yo'naltirish bilan bog'liq holda, mutaxassis kompetentsiyalari tarkibini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning nazariy amaliy tayyorgarligining birligi vazifasini bajaradi. Pedagogik mahorat mualliflar tomonidan to‘rt guruhga birlashtirilgan.

1. Ta'limning ob'ektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati: shaxs va jamoaning yangi bilimlarni faol o'zlashtirishga tayyorlik darajasini aniqlash va shu asosda rivojlanishni loyihalash. jamoa va individual talabalar; ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi vazifalar majmuasini ajratish, ularni konkretlashtirish va ustun vazifani aniqlash.

2. Mantiqiy tugallangan pedagogik tizimni qurish va harakatga keltira olish: ta’lim vazifalarini kompleks rejalashtirish; ta'lim jarayonining mazmunini oqilona tanlash; uni tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini optimal tanlash.

3. Tarbiyaning tarkibiy qismlari va omillari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o‘rnatish, ularni amalda qo‘llash qobiliyati: zarur shart-sharoitlarni yaratish (moddiy, ma’naviy, psixologik, tashkiliy, gigiyenik va boshqalar); o'quvchi shaxsini faollashtirish, uning faoliyatini rivojlantirish, uni ta'lim ob'ektidan ta'lim sub'ektiga aylantirish; birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish; maktabning atrof-muhit bilan aloqasini ta'minlash, tashqi dasturlashtirilmagan ta'sirlarni tartibga solish.

4. Pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash ko'nikmalari: o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini o'z-o'zini tahlil qilish va tahlil qilish; dominant va bo'ysunuvchi pedagogik vazifalarning yangi majmuasini aniqlash.

Pedagogik kompetentsiya tarkibida o'qituvchi faoliyatining turli yo'nalishlarini tahlil qilish asosida aniqlanadigan kognitiv, psixologik, kommunikativ, ritorik, kasbiy-texnologik, kasbiy-axborot kompetentsiyasini belgilaydi.

Kasbiy-pedagogik kompetentsiyaning mazmuni, birinchi navbatda, mutaxassisning asosiy kompetentsiyalari va asosiy fazilatlari to'plamidan kelib chiqadi, ular odatda tayanch hisoblanadi, ularda o'qituvchining ham kompetentsiyalari, ham kasbiy kompetentsiyalari birlashtiriladi. : pedagogika, turdosh fanlar sohasidagi umumiy va maxsus bilimlar majmui; mazmuni, o'qitish va tarbiyalash usullari, o'quvchilar shaxsini o'rganish masalalari bo'yicha uning malakasi darajasi; mikro va makro muhitning ta'limga ta'sirini boshqarish usullarini bilish.

Psixologik kompetentsiya deganda muallif hissiy madaniyat va psixologik hushyorlikni tushunadi.

Madaniyat deganda muallif shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, jamiyat tomonidan ma'naviy, axloqiy, moddiy boyliklar yig'indisini o'zlashtirish jarayonini (o'z-o'zidan tashkil etilgan) va natijasini aks ettiruvchi, uyg'unlikni ta'minlaydigan qadriyatlar tizimini tushunadi. jamiyatdagi munosabatlar, shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, shaxsni hamma narsaning eng oliy qadriyati va o'lchovi deb bilish.

Muallif o'qituvchining hissiy madaniyatini professional psixologik-pedagogik nuqtai nazardan belgilaydi:

• hissiy ko'rinishlarda o'lchovga rioya qilishning tarbiyalangan ehtiyoji sifatida;

• hissiyotni adekvat og'zaki va faoliyat ko'rinishlari bilan uyg'unlashtirish qobiliyati va qobiliyati sifatida;

• kasbiy faoliyat doirasidagi hissiy ko'rinishlarning umumiy gumanistik yo'nalishi sifatida.

Hissiy madaniyatning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

• sezgilar va hislar madaniyati.

• So'z va hissiy holatlar madaniyati.

• Hissiy sezgirlik.

Shunday qilib,hissiy madaniyatni insonga o'z atrofidagi dunyoni butun ma'naviy va moddiy boyliklari bilan idrok etishga, o'zida eng yaxshi, olijanob tuyg'ularni topishga, ularni etkazishga imkon beradigan fikrlar, hislar, in'ikoslar, his-tuyg'ular, g'oyalar qotishmasi deb tushunadi. o‘quvchilariga o‘z-o‘zini takomillashtirishga undash, odamlarga, jamiyatning ma’naviy boyliklariga hurmatli munosabatda bo‘lishni, yovuzlikka toqat qilmaslikni, ezgulik g‘alabasi uchun kurashishga tayyorlikni shakllantirish.

Hissiy madaniyat o'z mahoratida o'z ifodasini topishi uchun u yana bir muhim fazilatga ega bo'lishi kerak - psixologik hushyorlik (umuman shaxsning va xususan, o'qituvchi-ustaning hissiy madaniyatining jamlangan namoyon bo'lishi).

Kommunikativ kompetentsiya ostida muallif muloqot madaniyati va o'qituvchining pedagogik taktini tushunadi, shuningdek, o'qituvchi-o'qituvchi (kommunikator) dan talabaga (qabul qiluvchiga) ma'lumotlarni semantik idrok etishni ta'minlaydigan pedagogik funktsiyalar to'plamini o'zlashtirishni nazarda tutadi va aksincha. Ritorik kompetentsiya deganda muallif nutqning professional madaniyatini tushunadi, u pedagogik nuqtai nazardan notiqlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilish, so'zlarni, jargonlarni istisno qilish, begona so'zlardan foydalanishga faol qarshilik ko'rsatish va boshqalar. ifodalar; o'quvchilarda o'z ona nutqining sofligini asrash, uni buzadigan barcha narsadan qochish zarurligini tarbiyalash.

Professional va texnologik kompetentsiya. Kundalik ongda texnologiya inson qo'li kuchi va boshqa energiya manbalari bilan harakatga keltiriladigan asboblar, mexanizmlar, qurilmalardan foydalanish jarayoni shaklida bo'ladi. Lekin bu holatda ham pedagogika ishlab chiqarish bilan bog'liq, chunki har qanday mexanizm, har qanday vosita faqat o'qitilgan, tajribali qo'llarda mehnat quroliga aylana oladi. Demak, pedagogikasiz texnologiya shunchaki foydasiz yoki xavfli materiallar to‘plami bo‘lib qolaveradi.

Axborot kompetensiyasini axborot makonida tezkor harakatlanish, uni shakllantirishda ishtirok etish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma, malaka darajasi sifatida izohlaydi. Bu ta'lim jarayonida olingan ma'lumotlarni qidirish, baholash, foydalanish va saqlash sohasidagi professional kompetentsiyani aks ettiradi.

TALIM JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNLI TUZILMASI.

Yuldasheva Gulshad Tileuovna
ChDPU “Informatika o‘qitish metodikasi”
Kafedrasi v.b. dotsenti
Muxammadieva Bashorat Islomboevna
IO‘M 19/5 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi o‘quvchilarining kompetentligini shakllantirish va uning mazmun-mohiyati, tayanch kompetensiyalar ularning o‘qish faoliyatiga tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, pedagogik va texnik bilimlar asosida ularning kompetentligini rivojlantirish mexanizmi hamda unga integrativ differensial yondashuv kabi masalalar yoritilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar, kompetensiya, kompetentlik, fanlararo integratsiya, integrativ differensial yondashuv.

Jahonda amalga oshirilayotgan islohatlarning ta’lim taraqqiyotidagi pirovard maqsadi – har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali xalqlarning farovonligini oshirishdan iborat bo‘lmoqda. Fan va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshiriladigan islohotlar ilmiy texnik axborotning jadal rivojlanishi va yangilanishi, pedagogik faoliyat mazmunini uzviylik tamoyillari asosida muntazam dinamik o‘zgarishi bilan ifodalanadi. Zamonaviy ilmiy-amaliy tajribalar pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada aks ettirish yo‘llari bilan belgilanadi, bir qator umummadaniy, umumkasbiy va kompetentliliklarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shunga ko‘ra, uzluksiz oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvapdagi “2022-2026 yillapga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tapaqqiyot strategiyasi topshirig‘i” PF-60-sonli Farmonida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish, ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” kabi vazifalar belgilab olindi. Mazkur vazifalarning “ijrosini ta’minlashda ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur” ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va mehnat bozori talabi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Davlatimiz rahbari tomonidan sohada islohotlarni amalga oshirish, takomillashgan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha ustivor vazifalar belgilanganligi ta’lim tizimini modernizasiya qilishni taqozo etmoqda. Chunki, “iqtisodiyotning liberallashtirilishi va diversifikasiya qilinishi, globallashuv, raqamlashtirish, mobillashuv, sanoatlashuv jarayonlarining shiddati har bir soha uchun raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashni, xalqaro talablarga mos yangi ta’lim tizimini talab qilmoqda”.

Zamonaviy o‘quv jarayonidagi asosiy maqsad “bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy qobiliyatlari bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan”. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish lozim va ular nafaqat akademik bilimlarga ega bo‘lishi, balki o‘z sohalaridagi turli muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur sanaladi.

Mamlakatimizdagi ta’lim islohotlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxsning eng ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlari: muloqotchanlik, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, tadbirkorlikka ijodiy yondoshuv, “qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb”hisoblanadi. Bunday fazilatlarni bo‘lajak mutaxassislarda shakllantirish, ularga kelajakda o‘zlarining ish faoliyatlarini samarali va sifatli olib borishga imkon yaratadi.Muammo shundaki, nutq mas’uliyatini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar uchun yuqori sifatli samarali muloqot o‘rnatish, so‘zni o‘zlashtirish qobiliyati, so‘z yordamida professional muammolarni hal qilishga o‘rgatish eng dolzarb muammolardan biridir.

“Kompetentlik” tushunchasining nazariy asoslari o‘tgan asrning 60-chi yillarida paydo bo‘lgan bo‘lib, u insonning ijtimoiy hayoti va kasbiy faoliyatining bilimga asoslangan, intellektual va shaxsiy tajribasi sifatida talqin qilingan. Shu bilan birga, “kompetentlik”, “kompetensiya” tushunchalari ilgari - kundalik hayotda, adabiyotlarda keng qo‘llanilgan bo‘lib, uning talqini lug‘atlarda ken yoritilgan. Masalan, “Xorijiy so‘zlar izohli lug‘ati”da “kompetensiya” atamasiga quyidacha ta’rif berilgan: “kompetensiya (lotinchadan competens, competentis- qobiliyatli) - ma’lum sohada ilg‘or, tajribali, bilimdon; faoliyatni mustaqil amalga oshirish yoki hal qilish huquqiga ega, o‘z bilimi doirasida biror narsani yechimini hal qilishga qodir shaxs” sifatida tavsiflangan.

Bugungi kunda kompetensiyalarni rivojlantirish tahlili mutaxassisning asosiy kompetensiyalari va ularning komponentlari hajmini taqqoslashda tadqiqotchilar murakkablik va noaniqlarga duch kelganliklarini ko‘rsatadi va bu esa o‘z o‘rnida, ta’lim natijasida ularning baholash uchun yondashuvlarni (mezon, tartib, vositalar) rivojlanishini qiyinlashtiradi. Shuningdek, pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida “kompetentlik” tushunchasining mazmuniga oid alohida maxsus konsepsiya mavjud emas. Tadqiqotchilar tomonidan kasbiy kompetensiyalar quyidagi komponentlarga ajratib ko‘rsatilgan: mazmunli, faoliyatli va shaxsiy komponentlarga bo‘linadi.

Hozirgi kunda ko‘plab adabiyotlarda hali kompetentli yondoshuvni tavsiflovchi konseptual apparat ishlab chiqilmagan, “kompetensiya” va “kompetentlik” atamalarini ta’riflashning turli xil talqinlari mavjud.

Masalan, J.Ravenning fikriga ko‘ra, “kompetensiya” tushunchasi ma’lum bir sohada muayyan bir harakatni amalga oshirishga qaratilgan maxsus bir qobiliyat sifatida tavsiflanadi, unda yuqori malakali ko‘nikmalar va bilimlar, mas’uliyat va harakatlar uchun fikrlash usullari tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, kompetensiyaning asosiy komponenti shaxsning ma’lum qobiliyatlarida ifodalangan operasion va faoliyat komponentidir.

“Kompetensiya” tushunchasining eng to‘liq ta’rifi A.V.Xutorskoy tomonidan berilgan bo‘lib, unda shaxsning belgilangan jarayonlar va ob’ektlar doirasiga nisbatan ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liq fazilatlari to‘plami kiritilgan va unga qarshi samarali harakat qilish kerak.

Kasbiy kompetensiya - kasbiy ta’lim, tajriba va shaxsning individual qobiliyatlari darajasi, uning uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan intilishi, biznesga ijodiy va mas’uliyatli munosabatidir.

Hozirgi vaqtda davlat ta’lim standartlari joriy etilib, “bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta’lim mazmuni va texnologik innovasiyalar keng joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Юлдашева Г.Т. Талабаларда ўзини-ўзи ривожлантириш компетенциясини шакллантириш жараёнининг педагогик асослари. /Муғаллим ҳам узликсиз билимдендириу. № 3/1 – 2022.Илимий-методикалық журнал.Нукус,2022. ISSN 2181-7138. 26-28 бет.

2. Юлдашева Г.Т. Коммуникатив компетенция тушунчаси ва унинг мазмун моҳияти // “ЎзМУ хабарлари “Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети илмий журнали. – Тошкент, 2022. – № 1/5/1 – В. 228-231.

3. Юлдашева Г.Т. (2022). Компетенциявий ёндошувга асосланган таьлим // Journal of innovations in social sciences (Ўзбекистон).Таьлимни рақамлаштириш: асосий тенденциялар ва устувор вазифалар -2022 ISSN:2181-2594.57-61 бет.

4. Юлдашева Г.Т. Применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в начальном образований. Замонавий узлуксиз таълим сифатини ошириш: инновация ва истиқболлар. Халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 24 апрель, Тошкент-2020. 527-531 бет.

5. Юлдашева Г.Т. Влияние компьютерных технологий на изменение средств коммуникации. Международная конференция посвещённая к 180- летию И.Алтынсарина “Великий учитель казахского народа и великое знание”,Чимкент, 2021. 36-39 стр.

6. Юлдашева Г. Т. Таьлимда иннаватцион технологияларнинг роли ва аҳамияти. Информатика фанининг долзарб муаммолари. Илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент - 2018. 266-бет.

TALIM JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Yuldasheva Gulshad Tileuovna
ChDPU “Informatika o‘qitish metodikasi”
Kafedrasi v.b. dotsenti
Ziyayeva Muhayyo Ibrohimjon qizi
IO‘M 19/1 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi o‘quvchilarining kompetentligini shakllantirish va uning mazmun-mohiyati, tayanch kompetensiyalar ularning o‘qish faoliyatiga tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, pedagogik va texnik bilimlar asosida ularning kompetentligini rivojlantirish mexanizmi hamda unga integrativ differensial yondashuv kabi masalalar yoritilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar, kompetensiya, kompetentlik, fanlararo integratsiya, integrativ differensial yondashuv.

Zamonaviy ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarda o‘zini-o‘zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to‘liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeer tomonidan o‘rganilgan. U kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi.

T.M.Sorokinaning tadqiqotlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligi-bu uning pedagogik faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida talqin etiladi. Uning

fikriga ko‘ra, o‘qituvchilik kompetensiyasi o‘qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo‘lgan professionallikning bosqichlaridan biri hisoblanadi.

V.N.Vvedenskiyning fikricha, “kasbiy kompetensiya” tushunchasi tarkibining kengligi, “professionallik”, “malaka”, “kasbiy malakalar” kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Biroq, u kompetensiya bilan birgalikda ko‘rib chiqilayotgan konsepsiyani identifikasiyalash hollari hali ham tez-tez uchrab turadi. Kompetentlik – bu shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasidir.

M.I.Lukyanovaning fikriga ko‘ra, kompetenlik -bu o‘qituvchining psixologik- pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o‘quv jarayonida talabalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Psixologik va pedagogik kompetensiyalarning tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo‘nalishlarning bloklarini ko‘rib chiqadi.

A.V.Xutorskoy “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini orasidagi farqni ko‘rsatib berdi. Kompetensiya – shaxsning o‘zaro bog‘liq xususiyatlarini (bilim, ko‘nikma, faoliyat metodikasi), ma’lum mavzular va jarayonlar uchun belgilanadigan va ularga nisbatan sifat jihatidan samarali ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan kompleks.

G.M.Kodjaspirova “o‘qituvchi malakali o‘qituvchi bo‘lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak”, deb hisoblaydi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarida yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini bilan birgalikda, bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topishni, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini qisqacha yoritib o‘tamiz. Ularga:

1) ijtimoiy kompetentlik; 2) maxsus kompetentlik; 3) shaxsiy kompetentlik; 4) texnologik kompetentlik; 5) ekstremal kompetentliklar kiradi.

N.A.Muslimov va K.Abdullaevalarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi, bu talabaning amaliyot jarayonida va oliy ta’limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi.

Kompetensiya tushunchasi ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilimni, malakani, shaxsiy fazilatlarni va amaliy tajribani qo‘llash qobiliyatidir. “Kompetensiya – bu ta’lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir.Kompetentlik – bu olim yoki o‘qimishli odam bo‘lishni anglatmaydi. Kompetensiya va ko‘nikma o‘rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko‘nikma – bu muayyan vaziyatdagi harakat, kompetensiya – xatti-harakatlar ko‘nikmalarning kuzatuvlaridan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko‘nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Kompetensiya, mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetensiya ongli faoliyat natijasida shakllanadi. Davlat ta’lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya’ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar belgilab qo‘yilgan. Ularga asosiy kasbiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkin. Dasturning variativ qismi ta’lim muassasasining, mintaqaning o‘ziga xosligini, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi. Bizning nazarimizda, aynan integrativ ta’lim (ta’lim integrasiyasi) bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi shakllanishi jarayoni va kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Юлдашева Г.Т. Талабаларда ўзини-ўзи ривожлантириш компетенциясини шакллантириш жараёнининг педагогик асослари. /Муғаллим ҳам узликсиз билимдендириу. № 3/1 – 2022.Илимий-методикалық журнал.Нукус,2022. ISSN 2181-7138. 26-28 бет.

2. Юлдашева Г.Т. Коммуникатив компетенция тушунчаси ва унинг мазмун моҳияти // “ЎзМУ хабарлари “Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети илмий журнали. – Тошкент, 2022. – № 1/5/1 – В. 228-231.

3. Юлдашева Г.Т. (2022). Компетенциявий ёндошувга асосланган таьлим // Journal of innovations in social sciences (Ўзбекистон).Таьлимни рақамлаштириш: асосий тенденциялар ва устувор вазифалар -2022 ISSN:2181-2594.57-61 бет.

4. Юлдашева Г.Т. Применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в начальном образований. Замонавий узлуксиз таълим сифатини ошириш: инновация ва истиқболлар. Халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 24 апрель, Тошкент-2020. 527-531 бет.

5. Юлдашева Г.Т. Влияние компьютерных технологий на изменение средств коммуникации. Международная конференция посвещённая к 180- летию И.Алтынсарина “Великий учитель казахского народа и великое знание”,Чимкент, 2021. 36-39 стр.

6. Юлдашева Г. Т. Таьлимда иннаватцион технологияларнинг роли ва аҳамияти. Информатика фанининг долзарб муаммолари. Илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент - 2018. 266-бет.

7. Юлдашева Г. Т. Эффективность использования ИКТ на уроках начального класса. Труды научной конференций “Современные кластерные системы в контексте образовательных инноваций реформ: проблемы события и перспективы”.2019. 24-стр.

8.Юлдашева Г.Т. Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни ривожлантириш. “Замонавий тараққиётда илм-фан ва маданиятнинг ўрни” номли Республика илмий-амалий конференцияси. www.academics.uz 18.08.2022, 20 сон, 54- бет.

9. Dilfuza Melievna Makhmudova, 2Bakhrom Ruzievich Tadjibaev, 3 Gavhar KholboevnaDusmurodova, 4 Gulshad Tileuovna Yuldasheva. Information and communication technologies for developin gcreative competence in the process of open teaching physics and maths. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation / Vol.24, Issue 09, 2020 ISSN: 1475-7192. (Scopus).

10. Юлдашева Г.Т. Методологические основы использования медиа технологий в повышении эффективности обучения / "Экономика и социум", №5(84), часть 2, http://www.iupr.ru1129-1133. (2021).

KLASTERLI YONDOSHUV ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Yuldasheva Gulshad Tileuovna
ChDPU “Informatika o‘qitish metodikasi”
Kafedrasi v.b. dotsenti
Abduqaxxorov Muxriddin Qaxramon o’g’li
IO‘M 19/1 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi o‘quvchilarining kompetentligini shakllantirish va uning mazmun-mohiyati, tayanch kompetensiyalar ularning o‘qish faoliyatiga tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, pedagogik va texnik bilimlar asosida ularning kompetentligini rivojlantirish mexanizmi hamda unga integrativ differensial yondashuv kabi masalalar yoritilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchilar, kompetensiya, kompetentlik, fanlararo integratsiya, integrativ differensial yondashuv.

Zamonaviy mehnat bozori, bugun ta’lim sifatiga oshayotgan talablarni taqdim etib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va kasbiy tayyorgarligi, o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan texnik oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari o‘rtasida raqobat kuchayishiga olib keladi. Agar mutahassisning dastlabki malakasi faqat ish o‘rinlariga muvofiqligi va tor axborotni egallashni nazarda tutsa, “kompetentlik” nafaqat umumiy turdagi, balki, xususan keng sohada bilimlarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Mutaxassisning o‘z ko‘nikmalarini muvoffaqiyatli amalga oshirishda tayyorgarligi va qobiliyatliligi, o‘zining faoliyati samaradorligi va sifatini yaxshilashni nazarda tutadi”.

Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan “samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko‘plab olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sosiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o‘zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ hatti-harakatlarini nazariy o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Biroq, odamning ijtimoiy funksiyalarni bajarishda uning nutqiy tayyorligini ham amaliy o‘rganish zarur hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentlik tushunchasi, bizning fikrimizcha, ijtimoiy-gumanitar bilimlarni talabalarning barcha hayotiy jarayonlarida barkamol aloqa qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish va shuning uchun ularning ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun amaliy harakatlari bilan bog‘lashga yordam beradi”. Shunga ko‘ra, turli xil ta’lim islohotlarini amalga oshirishda, xususan, ta’lim tizimining yangi standartlarga o‘tishida va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda e’tiborga olinishi mumkin bo‘lgan ilmiy tavsiyalarning ahamiyati o‘sib bormoqda.

Psixolog olimlarning fikriga ko‘ra, kompetentlikning tarkibiy tuzilmasiga doir yana bir nuqtai nazar mavjud. Unga ko‘ra, bilim, xulq-atvor va hissiy sohalarga mos keladigan “fikrlash”, “muomala” va “munosabat”da turli xil kompetensiyalar mavjud.

Kasbiy kompetentlikka yondashuvlardagi barcha farqlarga qaramasdan, barcha mualliflar o‘z doirasiga kommunikativ kompetentlikni kiritadilar.

Hozirgi davrda mutaxassisning kasbiy kompetentligi uning kommunikativ kompetentligini, ya’ni kasbiy faoliyat sharoitida muloqot qilish qobiliyatini ham nazarda tutadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasiga Yu.M.Jukov tomonidan qo‘yidagicha tarif berilgan “kommunikativ kompetensiya bu insonning shaxs sifatida psixologik xarakteristikasi bo‘lib, u odamlar bilan muloqot qilishda yoki odamlar bilan kerakli aloqalarni o‘rnatish va saqlash qobiliyatida namoyon

bo‘ladi”. Kommunikativ kompetensiya tarkibiga insonda aloqa jarayonlarining muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami kiradi.

Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetensiya odatda ta’lim oluvchilar bilan kerakli aloqalarni o‘rnatish va saqlash qobiliyatini anglatadi. Kompetensiya samarali muloqotni ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi kompetensiya aloqa chuqurligini va doirasini o‘zgartirish, aloqa sheriklari tomonidan tushunish va tushunish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Buning uchun kalitlarning axborot ledlari qo‘shimcha ravishda raqamli va analog ma’lumotlarni kirish chiqish elementlari bo‘lgan elektron platani o‘z ichiga olgan laboratoriya stendiga kiritiladi; servo dvigatel tomonidan boshqariladigan o‘zgaruvchan qarshilik; laboratoriya stendini masofadan kuzatish uchun veb-kamera; shaxsiy kompyuterga ulangan va masofadan boshqarish pultini ta’minlaydigan ikkita Arduino UNO kontrolleri, laboratoriya stendini masofadan boshqarish.

Masofaviy rejimdagi laboratoriya stendi yordamida talabalar mikrokontrollerni dasturlash va boshqarish bo‘yicha quyidagi laboratoriya ishlarini bajarishlari mumkin [3]:

- ma’lumotlarning raqamli chiqishi (led va mikroelektromotorni boshqarish);
- axborotni raqamli kiritish (kalit holatini aniqlash);
- ma’lumotlarning analog chiqishi, raqamli-analog konversiya (ledlarning yorqinligini va mikroelektromotorning aylanish tezligini o‘zgartirish);
- axborotni analog kiritish, analog-raqamli konversiya (potensiometr milining holatini aniqlash);
- yetti segmentli indikatorni boshqarish.

Shunday qilib, mikrokontrollerlarni masofadan o‘rganish uchun laboratoriya stendi mikrokontroller dasturlash texnologiyalarini masofadan o‘zlashtirishga, boshqaruv moslamalari va ko‘rsatkichlarining ishlashini tahlil qilishga imkon beradi. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning ushbu shakli o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishni ta’minlaydi, mikrokontrollerlarni dasturlash asoslarini o‘zlashtirish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Raqamli texnologiyalarni o‘rganayotganda talabalar raqamli boshqaruv mashinalari bilan ishlashga juda qiziqishadi. Bunday mashinalardan loyiha faoliyatida ayniqsa samarali foydalanish

mumkin. Masofaviy interaktiv laboratoriya ishlarining texnologiyalari, shuningdek, raqamli boshqaruvga ega mashinalarni masofadan boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Евдокимов, Ю.К. Дистанционные автоматизированные учебные лаборатории и технологии дистанционного учебного эксперимента в техническом вузе / Ю.К. Евдокимов, А.Ю. Кирсанов, А.Ш. Салахова // Открытое образование. – 2009. – № 5. – С. 101-116.
2. Зимин, А.М. Автоматизированный лабораторный практикум с удаленным доступом в техническом университете / А.М. Зимин // Информационные технологии. – 2002. – № 2. – С. 39-43.
3. Китайгородский, М.Д. Дистанционное программирование Arduino [Электронный ресурс]: учебно-методическое пособие : текстовое учебное электронное издание на компакт-диске / М.Д. Китайгородский, И.Н. Смольянинов. – Сыктывкар: Изд-во СГУ им. Питирима Сорокина, 2016. – 1 опт.компакт-диск (CD-ROM).

UZLUKSIZ TA’LIM MAZMUNINING FAN TARMOQLARI BILAN UYG‘UNLASHISHIDA TEXNOLOGIK XARITALARINING O‘RNI

Muxammadiyev Qaxramon Sodiqovich
Chirchiq davlat pedagogika universitetining katta oqituvchisi

Annotatsiya: Uzluksiz ta’limni fan tarmoqlariga uyg‘unlashtirish texnologiyalariga oid olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz uning quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi orqali ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Kalit so’zlar: Uzluksiz, texnologiya, tarmoq, predmet, uyg‘unlashtirish texnologiya, pedagogika, tarbiya, ta’lim..

Uzluksiz ta’limni fan tarmoqlari bilan uyg‘unlashtirish bilan o‘quv predmeti, dasturi, rejasi va adabiyotlariga aniq yo‘nalish berish mas’uliyatini bir-biri bilan bog‘lash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zero, o‘quvchining ilm-fan va amaliyotga uyg‘unlashish texnologiyalarini faqat o‘quv predmetlari yechish lozim. Chunki o‘quvchilarning hayotiy qarashlarini pedagog kadrning yakka o‘zi to‘la shaklllantira olmasligini amaliyot allaqachon isbotlagan. Yosh avlodning mavjud narsalar xususida o‘z xulosasiga kelishini to‘liq ta’minlash, tashkil etilayotgan dars jarayonlarining asosiy maqsadi ekanini ta’lim muassasalari faoliyatidan payqasa bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv adabiyotlari o‘quvchilar faoliyatiga mos ravishda va sifatli yozilishi o‘ta muhim.

Uzluksiz ta’limni fan tarmoqlariga uyg‘unlashtirish texnologiyalariga oid olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz uning quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi orqali ijobiy natijalarga erishishi mumkinligini isbotladi. Ular,

a) o‘quv predmetlarining turli xil asossiz nomlanishini bartaraf etish va bu maqsadda o‘quv fanlarining o‘qitilishida alohidalik bilan umummilliylikni ta’minlash;

b) ma’lum kasb-hunarlarni egallash uchun bosh yetakchi “o‘qish” (o‘quvchining ichki imkoniyati) tushunchasi ekanligini darsliklarda keng va siftli ifodalanishiga erishish;

c) kasb-hunar o‘rgatish uchun shakllantirilgan tarqatma va didaktik

materiallar mazmunidan kelib chiqib, harbir kasb hunar uchun alohida o‘qish jarayonini shakllantirish va nihoyat,

d) o‘qishga moyillikni kuchaytiradigan kasb-hunar haqida qiziqarli axborot jamg‘armasini shakllantirishdan iborat.

Takror bo‘lsa-da, yana bir bor, o‘quvchi-yoshlarning sobiq hunar-texnika ta’lim muassasalariga ommaviy jalb etilishi yoki soxta shiorlar ketidan quvish boshqa dolzarb sohalarni o‘qib o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilganligini, hatto o‘zining keng dunyoqarashi, savodxolik salohiyati tufayli moddiy farovonlikka erishish yo‘lini topishga ham yo‘l berilmaganligi, o‘zi egallayotgan kasb-hunar to‘g‘risida bilim hosil qilish mumkin bo‘lgan o‘quv fanlarini o‘qish nazarda tutilmaganligini yana bir marotaba ayrim foydali holat deb o‘ylaymiz. Darhaqiqat, yangi taraqqiyot bosqichida fan tarmog‘iga uyg‘unlashish jarayonida konkret ta’lim yo‘nalishidagi mutaxassis yoki biror zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lishni maqsad qilib olgan shaxsni kamol toptirish ishlarini amaliyotda ko‘rish puxta o‘ylangan islohotni taqozo etmoqda. Qolaversa, o‘quvchi-yoshlarni zamonaviy ishlab chiqarish sohalariga tayyorlash ishlari ta’lim muassasalarini tashkil etishdan oldin o‘ylab ko‘rilishi, kasb hunar o‘rgatish jarayonini tubdan yangicha mazmunda shakllantirish lozim.

Ma’lumki, fanga uyg‘unlashish jarayonida o‘quvchilarni amaliy ko‘nikma va malakalar talab etadiigan sohalarga yo‘naltirish, ularda mavjud salohiyatni izlash va uni topishga intilish bilan bog‘liq. Bu ilmiy-tadqiqot sohiblari zimmmasiga muhim vazifa yuklaydi. Zero, fan tarmoqlariga uyg‘unlashtirishdagi faoliyatdan asosiysi – o‘quvchi-yoshlarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar talab etadigan sohalarga yo‘naltirilishi dolzarbligicha qolmoqda. Fanga uyg‘unlashish jarayonini izchil va mukammmal tashkil etish uning zamonaviy shakl va yo‘llarini ochib berish, dars jarayonini tshkil etish metadalogiyasini yangicha tushuntirishda muayyan atamalardan foydalanishdan boshlanadi.

O‘quvchida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar shaklllanishini ta’minlash hamda uzluksiz ta’lim mazmunini fan tarmoqlari bilan uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutadigan kategoriyalar sirasiga pedagogika, ta’lim, tarbiya, ma’lumot, mantiq kabi, shuningdek, ularni to‘g‘ri talqin etish, uyg‘unlashtirish texnologiyasi tushunilishiga aniqlik kiritish maqsadini quyidagicha izohlashni lozim topdik. Jumladan,

Pedagogika – shaxsni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan tizimning faoliyat hamda ta’lim-tarbiya berish mazmunining shakli va metodlari haqidagi fan.

Tarbiya – o‘quvchi-yoshlar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvoffiq ravishda tarkib toptirish, shaklllantirish va yo‘naltirish jarayoni, shaxning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy hayotda faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta’sirlar majmui. U ta’lim bilan uzviy bog‘liq va u orqali ta’lim vositasida yuzaga chiqadi.

Ta’lim – bilim berish, amaliy ko ‘nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, shaxsni hayotga, faoliyatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya beriladi. Ta’lim mazmuni, mohiyati va salohiyati jamiyatning moddiy hamda madaniy taraqqiyoti darajasi bilan uzviylik asosida belgilanadi.

Ma’lumot – pedagogika fani nuqtai nazaridan shaxsning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma va malakalari majmui. Ma’lumot inson dunyoqarashining shaklllanishi shaxsning har tomonlama kamolga yetishishi, bilimi va ijodiy qobilyatining negizi bo‘lib, u davlat namunasidagi hujjat bilan tastiqlanadi.

Holbuki, bugun uzkuksiz ta’lim jarayoniga fan tarmoqlarini uyg‘unlashtirish jarayonining tub maqsadi bo‘lgan malakali mutaxassis kadrlarni shakllantirish, sohta va noaniq tushunchalarga barham berish vaqti keldi. Aynan shu, afsuski besamar, amaliy asossiz qarashlarning tadqiqot obyekti sifatida dars

jarayoniga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib kelishi, ijobiy natijalarning dars jarayoni va uning amaliyoti hisoblangan o‘qishga kirib kelishini chegaralaydi, fan bilan uyg‘unlashish texnologiyalarini nechog‘lik mukammal shakllanishiga qaramasdan yo‘qqa chiqaradi.

Logika (mantiq) muhokama yuritishning qonun-qoidalari, uslublari, usullari, shakllari haqidagi fanligi aytilgan. “Logika” tushunchasining bir mecha ma’nolari bor. An’anaviy qo‘llanishiga ko‘ra, logikaning uch tomoni mavjud: birinchisi – ontologik, substansial jihatdagi tomoni ham bo‘lib, u obyektiv dunyodagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro zarur aloqani o‘rganadi; ikkinchisi – bu gnoseologik tomoni bo‘lib, “bilimlar logikasi” tarzida tushunchalar o‘rtasidagi zarur aloqani ifoda etadi; uchunchisi esa sof logik tomonda iborat (isbotlash va rad etish logikasi) bo‘lib, muhokama yuritishda (xulosa chiqarish) hukmlarning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etadi. Logikanig dastlabki ikki tomoni falsafa, qolaversa dialektik logikaga mansub bo‘lsa, uchunchi tomoni logikaning o‘zini, ya’ni formal logikani tashkil etadi.

“Etika” tushunchasiga kelsak, manbalarda u (xulq, odob) – ijtimoiy ong shakli, inson hayotining eng muhim tomonlaridan biri hisoblangan ahloq, odob masalalarini o‘rganuvchi falsafa fanlari tarmoqlaridan biri hisoblangan. Mazmunan to‘g‘ri shakllantirilgan haqiqiy dars jarayoni, uning tashkil etilish tartib-qoidalari nuqtai nazari bilan qaraganimizda, dars jarayonida etika fani ilmiy xulosalari amaliy samaradorligining yakunida yetakchi soha sifatida o‘zini nomoyon etadi. Xususan, belgilangan talablarga muvoffiq tashkil etilgan uzluksiz ta’lim mazmunini fan tarmoqlari bilan uyg‘unlashtirishga oid tadqiqot ishlarida etikaviy prinsiplar yuqori baholanadi. Etika bilan bog‘liq yana shunim qo‘shimcha qilish kerakki, u uyg‘unlashtirish jarayonida dars o‘tish va uni amaliyotda qo‘llash natijasida erishiladigan ma’naviy-moddiy manfaatdorlik bilan bog‘liq. Negaki, uyg‘unlashtirish jarayonidagi sinfning – dars o‘tish talablari asosida sigfatli mutaxassis bo‘lib shakllanishi, shuning barobarida erishilgan moddiy manfaatdorlikdan foydalanish qachon ijodiy talqin etilsa, shunda haqiqiy ma’rifat va ma’naviyat o‘z ta’sir doirasini jiddiy tarzda kengaytiradi.

O‘quvchilar o‘rtasida, ta’lim muassasalari faoliyatining o‘zgarishi ma’naviyat va ma’rifatning ma’suliyatli ahamiyati ortishi natijasida, uyg‘unlashtirishdagi g‘oyaviy sohtaliklar barham topadi. Shunday ekan, dars jarayonining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olish va uyg‘unlashtirish jarayonida ulardan foydalanib, dars mazmunini yanada boyitish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanobnxalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 488 b.
2. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Istiqlol, 1994. – 173 b.
3. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig ‘i. – Toshkent, 2009
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism. Pedagogika nazariyasi. Prof. M.X.Toxtaxodjaebaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2006.
5. Рубинштейн, С.Л. Избранные философско-психологические труды: Основы онтологии, логики и психологии / С.Л. Рубинштейн. - М.: Наука, - 463 с.
6. Сазонова, З.С. Интеграция образования, науки, производства /З.С. Сазонова // Высшее образование в России. 2006. № 10. - С. 23-31.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RAQAMLI PEDAGOGIKA ORQALI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Tilavova Sayora Bekmuratovna
tilavovasayora@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* Steam yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) asosida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshlang‘ich ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini yaxshilashga bag‘ishlangan. *STEAM ta’limida fanlararo* ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, raqamli, texnologiya, ekologiya, kompetentlik, Steam ta’lim, takomillashtirish.

Bunday sharoitda ekologik ta’lim ta’lim tizimining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayd etib, Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganini ko‘rsatib o‘tdi [7]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini takomillashtirish atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar bizga o‘quv muhiti va ekologik jihatdan tegishli amaliyotni birlashtirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta’lim muhitida keng e’tirof etilgan ushbu yondashuvlardan biri steam deb ataladi.

STEM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) yondashuvi turli ilmiy va texnologik fanlarni san’at va matematika bilan birlashtirib, o‘quv fanlariga ijodiy va hal qiluvchi yondashuvni olib keladi. Steam ta’limi g‘oyalarining tug‘ilishi va rivojlanishiga turtki bo‘lgan birinchi yirik ta’lim faylasuflaridan R.Dekart, G. Yakman [3] o‘z nashrlarida ta’kidlagani va o‘zlarining fan metodologiyasiga oid “barcha fanlar bir-biriga shunchalik bog‘langanki, ularni bir vaqtning o‘zida o‘rganish ularni boshqalardan ajratishdan ko‘ra osonroqdir. Demak, har kim narsaning haqiqatini jiddiy tekshirmoqchi bo‘lsa, u alohida fanni tanlamasligi kerak: axir, ularning barchasi bir-biriga bog‘langan va bir-biriga bog‘liqdir”. Raqamli texnologiyalar ushbu maqsadlarga erishishda kuchli vositaga aylanmoqda. Ular o‘quvchilarga boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarning yangi shakllarini taklif qilishadi.

STEAM yondashuviga asoslangan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini yaxshilash orqali erishish mumkin bo‘lgan, kutilayotgan natijalarga quyidagilar kirishi mumkin:

Atrof-muhit muammolari bo‘yicha bilimlarni oshirib borish bilan bo‘lajak o‘qituvchilar iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikni yo‘qotish va atrof-muhitning ifloslanishi kabi ekologik muammolarni yaxshiroq tushunishadi. Natijada ular bolalarga ekologik muammolarni yanada samarali o‘rgatish va ularga kerakli bilimlarni berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish natijasida, raqamli texnologiyalar kelajakdagi o‘qituvchilarga ekologiya sohasida tadqiqotlar olib borish va zamonaviy vositalar va ma’lumotlar

bazalaridan foydalangan holda haqiqiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Bu ularning tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Samarali hamkorlik olib borish bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar kelajakdagi o'qituvchilarga turli sohalardagi hamkasblari va mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, bilim va tajriba almashish, ekologiya bo'yicha qo'shma loyihalar yaratish imkonini beradi. Bu professional tarmoqni rivojlantirishga hissa qo'shadi va o'quv jarayonini boyitadi.

STEAM ta'limiga ekologik yondashuvni kuchaytirish boshlang'ich ta'limda steam dan foydalanish kelajakdagi o'qituvchilarga ekologik ta'limni birlashtirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Steam yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiradi va u boshlang'ich ta'limda ekologik ta'lim uchun samarali xizmat qiladi. Kelajakdagi professor-o'qituvchilarning ekologik malakasini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli xil raqamli vositalar va texnologiyalar haqida so'z yuritilishi mumkin. Bunga interaktiv dasturlar, o'quv dasturlari, sensorlar, virtual haqiqat va geoaxborot tizimlaridan foydalanish kiradi. steam yondashuvi va raqamli texnologiyalarga asoslangan ekologik ta'lim tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va aloqa kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qanday hissa qo'shadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlilini urganishda ekologik ta'limning keng steam kontekstiga qo'shilishi o'quvchilarning o'quv materialiga bo'lgan motivatsiyasi va qiziqishini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini steam yondashuv asosida takomillashtirishga oid maqolalar, jurnallar tahlil etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Steam yondashuvi asosida boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini oshirish metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Ekologik ta'limni o'quv dasturiga kiritish: o'quv dasturiga o'quvchilarning yoshi va qobiliyatiga mos keladigan ekologik mavzular va tushunchalar

Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va resurslarni tejash masalalariga alohida e'tibor berish zarur

- Raqamli resurslardan foydalanish: interaktiv dasturlar, veb-saytlar, ta'lim dasturlari va simulyatsiyalar kabi raqamli resurslarning keng doirasidan foydalaning. Ushbu manbalar o'quvchilarga ekologik muammolarni o'rganish va ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradigan o'quv materiallari, o'yinlar, vizualizatsiya va interaktiv vazifalarni taqdim etishi mumkin.

- Virtual sayohatlar va vizualizatsiya: o'quvchilarga turli xil ekotizimlar, energiya tizimlari va tabiat hodisalarini o'rganishga imkon berish uchun virtual sayohatlar va vizualizatsiyadan foydalaning. Buni virtual haqiqat, veb-kameralar yoki o'quvchilarga virtual muhitda atrofdagi dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradigan maxsus dasturlar yordamida amalga oshirish mumkin.

-. Hamkorlik va tajriba almashish: o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish, shuningdek, boshqa maktablar va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislar bilan tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish. Raqamli texnologiyalar Internet yoki videokonferensiyalar orqali aloqa o'rnatish va fikr almashish, tadqiqot va resurslarni osonlashtiradi.

- Uzluksiz malaka oshirish: o'qituvchilarga kasbiy ta'lim ,ekologik ta'lim va raqamli texnologiyalar sohasida rivojlanishiga yordam beradigan manbalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu veb-seminarlar, onlayn kurslar yoki konferensiyalarni o'z ichiga olishi mumkin, bu yerda ular hamkasblari bilan bilim almashishlari va o'z amaliyotlari uchun yangi g'oyalarni olishlari mumkin.

Ushbu texnika va yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarga boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar yordamida ekologik kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Steam yondashuvi asosida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligi amalga oshirish natijsida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”[2] gi farmoni natijasida, ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o‘quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jithozlari, darsliklar va o‘quv uslubiy materiallar, komp’yuter va mul’timedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutadi. Steam yondashuvi o‘qituvchilarga ekologiya, barqaror rivojlanish va resurslarni tejash sohasidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

Ular yaxshi ma’lumotga ega va bilimdon bo‘lishlari uchun ta’lim resurslari, tegishli tadqiqotlar va eng yaxshi amaliyotlardan foydalanishlari mumkin:

- raqamli vositalar o‘qituvchilarga interaktiv va samarali usullar orqali ta’lim berish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi

- raqamli texnologiyalar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqot kabi ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilarni faol va amaliy o‘rganishga jalb qilishi mumkin. Shuningdek, ular haqiqiy ekologik muammolarni o‘rganish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini taqdim etadi.

- raqamli texnologiyalar va steam yondashuvi o‘quv jarayonini o‘quvchilar uchun yanada jozibali va qiziqarli qilishi mumkin. O‘yin elementlari, vizual effektlar va interfaol vazifalardan foydalanish ta’lim motivatsiyasiga hissa qo‘shishi va ekologiya ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi.

- atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish: raqamli vositalar o‘qituvchilarga amaliy vaziyatlar va simulyatsiyalarni yaratishga imkon beradi, shu jumladan o‘quvchilar atrof-muhit bilan mohirona munosabatda bo‘lishadi. Konstruktorlarning tarkibi statik va dinamik modellarni qurish uchun ulanishning har xil turlari va tamoyillaridan foydalangan holda strukturaviy elementlarni o‘z ichiga oladi[4,5,6].

Xulosa va takliflar. Steam yondashuviga (fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika) asoslanib, boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish kelajakdagi o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini yaxshilashga yordam beradi.

Ekologiya bo‘yicha maxsus modullar yoki darslarni yaratish o‘quvchilarga atrof-muhit muammolari sharoitida fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar ekologiyani o‘qitish uchun raqamli manbalar, ilovalar va vositalardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari kerak. O‘qituvchilar haqiqiy ekologik muammolarni so‘rashlari, guruh loyihalarini o‘tkazishlari va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro ta’sir va fikr almashishni osonlashtirishlari mumkin. O‘quvchilarni o‘qitishdan tashqari, ekologik kompetensiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish sohasida o‘qituvchilarni doimiy ravishda tayyorlash uchun imkoniyatlar yaratish muhimdir. Ekologik ongni rivojlantirish va raqamli vositalarni o‘zlashtirishga qaratilgan seminarlar, kurslar va vebinarlar o‘qituvchilarga ushbu sohada yanada malakali bo‘lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son **farmoni** Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5538-сон фармони, 05.09.2018 йил.

[3]. Yakman, G. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education [Electronic resource] / G. Yakman // STEAM Education. – Mode of access: https://steamedu.com/research/. – Date of access: 12.05.2019.

4. Kuchkinov A. Yu. Technologies of Interdisciplinary Approach in the Development of Eco–Steam Educational Competencies of Future Teachers. https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE

5. Yuldashovich K. A., Kholi y. a model for the formation of primary education students’careful attitude to nature in extra-curriculum activities //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 68-74.

6. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

7. https://president.uz/uz/lists/view/6679

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANIB MATEMATIKANI O‘QITISH METODIKASI

Arifova Muxlisa Uktamovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Biz dunyoda matematika sohasida bo’layotgan ilmiy yangiliklarga munosib hissa qo’shish uchun yetarli ilmiy salohiyatga egamiz. Shuning uchun O’zbekistonda matematika fanini rivojlantirib, jahon standartlari darajasida saqlash bizning asosiy maqsadlarimizdan biridir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori yurtimizda matematika taraqqiyoti uchun mustahkam zamin hozirlaydigan muhim hujjat bo’ldi, deb bemalol ayta olamiz.

Mobil ta’lim o‘quv jarayonini joy va vaqtdan qati’y nazar, tashkil etish uchun ham alohida, ham boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birgalikda mobil texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Ta’lim turli shakllarda bo‘lishi mumkin: mobil qurilmalar yordamida o‘quvchilar ta’lim resurslariga kirishlari, boshqa foydalanuvchilar bilan bog‘lanishlari, sinfda va sinfdan tashqari ishlarni yaratishlari mumkin.

Bugungi kunda mobil qurilmalardan (ayniqsa, mobil telefonlar, keyinchalik planshet kompyuterlar) ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchilar tomonidan foydali ma’lumotlar olish, o‘quv jarayonini takomillashtirish va yangi ilg’or usullar yordamida boshqarish uchun keng foydalanilmoqda. Mobil ta’lim – “Ta’lim hamma uchun” tamoyilini amalga oshirishning noyob imkoniyatidir.

Mobil texnologiya o‘quv natijalarini baholash jarayonini tezlashtirish hamda o‘quvchilar va o‘qituvchilarga taraqqiyotni tezroq kuzatish imkonini beradigan bir qancha loyihalarda namoyish etilgan. Ushbu loyihalardan biri Nokia Life xizmatining ishga tushirilishi bo‘lib, uning doirasida foydalanuvchilar axborot va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ilgari o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholashga asoslangan tavsiyalarni uzoq vaqt kutishlari kerak edi. Endi mobil qurilmalarning interaktiv imkoniyatlari tufayli javobni deyarli bir zumda olishlari mumkin. Bu o‘quvchilarga ta’lim muammolarini tezda aniqlash va asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Smartfonlar va asosiy mobil

qurilmalar uchun mavjud matematik ilovalarning ba’zilari o‘quvchi bajara olmagan muammolarni qanday hal qilishni bosqichma-bosqich ko‘rsatib beradi.

Matematika darslarida mobil qurilmalar ko‘pincha o‘quv ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan tovush, matn, video va grafik fayllarni ijro etish vositasi sifatida ishlaydi. Matnli hujjatlar, taqdimotlar, elektron jadvallar, audio va video pleyerlar kabi ilovalardagi fayllarni ko‘rsatishga qodir bo‘lgan mobil qurilmalar platformalari uchun maxsus dasturlardan foydalanishni taqozo etadi. Mobil texnologiyalarni o‘quv jarayoniga moslashtirish haqida tabiiy savol tug‘iladi. O‘qituvchiga mobil ilovalar va ularning xizmatlarni tanlash va foydalanish, o‘quvchilarning ta’lim natijalarini hisobga olgan holda o‘qitish shakllari va usullarini tanlash va sozlash qobiliyati kerak.

Matematika darslarida mobil ilovalar va xizmatlardan foydalanish tajribasini tavsiflovchi nashrlar tobora ko‘payib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi tayyor mobil ilovalardan foydalanadi, lekin ular har doim ham o‘quv jarayonida hal qilinishi kerak bo‘lgan barcha vazifalarni qamrab olishga imkon bermaydi. Masalan, joriy nazoratni tashkil qilishda o‘qituvchi mobil ilova yoki xizmatni tanlashi, uning imkoniyatlarini o‘rganishi va didaktik materialni mustaqil ishlab chiqishi kerak. Ta’lim jarayonida nazorat muhim rol o‘ynaydi, bu o‘quv materialini o‘rganayotgan o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishdan iborat.

Ushbu maqsadlar uchun V.V.Datsuk 1-6-sinflarda matematikadan dars berishga qaratilgan **Matific** mobil ilovasini ko‘rib chiqadi. Ushbu mobil ilovada o‘quvchi bonuslar oladigan darajalardan o‘tadigan o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. **Matific** o‘yinining tuzilishi 1-6-sinflarda matematikani o‘qitish bo‘yicha o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi.

Geometrik masalalarni samarali yechish uchun tekislikda geometrik figuralarni to‘g‘ri tasvirlay bilish kerak. O‘zining maqolasida A.A.Bondar GeoGebra mobil ilovasi yordamida nuqtalarning joylashuvini topish muammolarini ko‘rib chiqadi. Ushbu ilovada chizmalar yaratish va yangi qiziqarli geometrik faktlarni kashf qilish imkonini beruvchi buyruqlar to‘plami mavjud.

Beshinchi sinf misolida matematika darslarini “Flipped classroom” modelidan foydalangan holda loyihalashda A.G.Bormotova va R.F.Mamaligalar dars davomida foydalaniladigan vizual materiallar va amaliy vazifalarni joylashtirish vositasi sifatida **Google** xizmatlaridan foydalanishni taklif qilishdi. Masalan, **Google diski** ba’zi o‘quv materiallarini saqlash joyi sifatida ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda o‘quv jarayonidagi muammolarni hal qilish uchun foydalaniladigan mobil ilovalarlarning keng doirasi mavjud. Lekin shu bilan birga, adabiyotlarni va ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘quvchilarning sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarida mustaqil ishlarni tashkil etish bilan bog‘liq amaliy tadqiqotlar mavjud emas.

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish uchun mobil ilovalar imkoniyatlarini o‘rganish bugungu kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раскина И.И., Курганова Н.А. Основные способы применения мобильныхустройств на уроках математики и информатики // Информатика в школе.- 2019. - №6 (149). - С. 48-50.

2. Стариченко Б.Е. Педагогический подход к оценке результативности использования ИКТ в решении образовательных задач // Педагогическое образование в России. 2018. № 8. С. 153-162.

3. Рекомендации по политике в области мобильного обучения // Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании URL: https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214738.pdf (датаобращения: 19.04.2020).

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYaTLARI

Badalova Barno
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqola millatlararo totuvlik haqida, milliy go’yamiz, diniy bag’rikenglik haqida gap borgan.

Kalit so‘zlar: chidamlilik, bardoshlik, toqatlilik, o‘zgacha qarashlar va xarakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, muruvvatlilik, kechirimlilik, mexribonlik, xamdardlik.

Bugungi kunda xavfsizlik masalalari butun dunèda eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Yil sayin davlatlar tomonidan mudofaa tizimi va xarbiy sohaga ajratilaètgan xarajatlarining oshib borishi fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq, faqatgina zamonaviy qurol-yarog‘ga ega bo‘lishning o‘zigina xavfsizlikni ta’minlamaydi. Chunki , guvoh bo‘lib turganimizdek, zamonaviy buzg‘unchi kuchlar jang qilmay, balki to‘satdan qo‘poruvchilik amaliètlarini qo‘llash, xarbiy emas , balki tinch, aholini nishonga olish kabi qabih usullardan foydalanadi. Bunda esa, milliy va diniy nizolarni keltirib chiqarish asosiy maqsad hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida davlat huquqiy, etno xududiy va etnodemografik zaminda 300 dan ortiq katta-kichik nizolar qayd qilingani ham ushbu fikrning o‘rinli ekanini tasdiqlaydi.

Millatlar mavjud ekan, ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlar xam bo‘ladi. Shunday ekan, bugun globallashu- vining bu jaraènga o‘tkazaètgan salbiy ta’sirining oldini olish haqida bosh qotirish va samarali mexanizmlarni topish o‘z mustaqilligini, erkini, o‘ziga xosligini qadrlashga qodir bo‘lgan barcha millatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa xisoblanadi.

Mamlakatizmida ham millatlararo totuvlikni ta’minlash orqali tinchlik va hamjixatlikni mustaxkamlab borish g‘oyasi davlatimiz birinchi rahbarlarining doimiy diqqat markazida bo‘lib qelgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirzièev keyinchalik barcha nutq va ma’ruzalarida tinchlikni ta’minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo‘llab-quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi aèvsiz kurash masalalarini asosiy tamoyil sifatida olg‘a surib kelmokda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ―2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi‖ ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo‘nalish sifatida «Xavfsilik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi sièsat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar» [1[belgilandi. Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag‘rikenglikka berilaètgan ulkan e’tibordan dalolat beradi.

―Bag‘rikenglik‖ tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy haètning turli sohalari, jumladan, sièsat va sièsatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohièt, ijtimoiy ahloq, qièsiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. Lotincha «tolerare» ya’ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma’nosini anglatkan ―tolerantlik‖ so‘zi, asosan biror narsani, o‘zgacha fikr èki qarashni. O‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’iy nazar.

Imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Hususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil èki bir-birini to‘ldiruvchi ma’no kasb etib, ―chidamlilik‖, ―bardoshlik‖, ―toqatlilik‖, o‘zgacha qarashlar va xarakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish‖, ―muruvvatlilik‖, ―kechirimlilik‖, ―mexribonlik‖, ―xamdardlik‖ kabi ma’nolarga ega.

Taraqqiètning asosiy omillaridan biri bo‘lgan bag‘rikenglik borasida 1995 yil 16 noyabrda BMT tizimida Fan, ta’lim va madaniyat sohasida ihtisoslashgan tashkilot (YuNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida ―Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi‖ qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat’i nazar, bag‘rikenglikni tag‘rib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan.

1998 yil 6 noyabrda Toshkentda o‘tkazilgan YuNESKO Ijroiya Kengashining 155- sessiyasida ―Tinchlik madaniyati va YuNESKOning a’zo davlatlaridagi faoliyati‖ deklaratsiyasi qabul qilindi.

YuNESKOning ―Tinchlik madaniyati‖ konsepsiyasi BMT tomonidan ma’qullanib, 2000 yil ―Xalqaro tinchlik madaniyati yili‖, 2001 yil esa ―Xalqaro madaniyatlaro muloqot yili‖ deb elon qilindi.

O‘zbekiston dièrida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilmaxil e’tiqod va dunèqarashlar ènma-èn yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko‘chib kelgan kelib, o‘rnashib qolgan emas. Bu zamin – ota-bobolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin – Sharq va G‘arbning, Shimol va Janubning, qadim o‘tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osièning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko‘hna ochoqlaridan biri. 3000 ming yillik tariximiz shundan guvoxlik bermoqdaki oliy janoblik va insonparvarlik, millitlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an’analar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

―Bundan 100 yil avval mamlakatimiz xududida 70 yaqin millat vakillari istiqomad qilgan. 1926 yilda yurtimizda 90 millat va ellat yashagan bo‘lsa, 1959 yilda ularning soni 113 taga, 1979 yilda 123, 1989 yildan to xozirgi kunga qadar esa 130 taga yetdi‖

O‘zbekiston televideniyasi orqali qator xorijiy tillardagi ko‘rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilaètgani xam diqqatga sazovor. Bugungi kunda, 12 (o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirgiz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshkird, koreys, uyg‘ur) tillarida teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekistonning millatlararo sièsati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo‘lgan sièsatning xar qanday ko‘rinishlarini to‘liq va mutloq rad etishga asoslangan.

Ko‘rinib turganidek, millatlararo munosabatlarni tug‘ri yo‘lga qo‘yish borasida O‘zbekiston o‘ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asras-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga, erishish tamoyiliga amal qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qurilgan bu sièsat:

ko‘p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lgan omil sifatida tan olish;

fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, shahsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat’i nazar, fuqarolarning mamlakat sièsiy va ijtimoiy haètidagi teng xuquqli ishtirokini kafolatlash;

milliy til, urf-odat, va an’analar xurmat qilinishini ta’minlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;

ijtimoiy haèt, sièsiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta’minlash;

fuqarolarning konstitutsiyaviy xuquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan milliy, irqiy, diniy adovat va nizoni targ‘ib qiluvchi faoliyatiga yo‘l qo‘ymaslik;

-millatlar va elatlar xukuk va erkinliklarini muxofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olib, kabi tamoyillarga, tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, qaerda miilatlararo totuvlik g‘oyasining axamiyati anglab yetilmasa, jamiyat xaètida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi.

Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo‘laètgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siq - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g‘oya tuzog‘iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda xalokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarihdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g‘oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko‘ra ko‘proq kulfat, ofat-balolar èg‘dirib, oxir-oqibatda o‘zi xam xalokatga uchradi. Lekin xanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g‘oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, xamjixatlik g‘oyasiga qarshi «salib yurishi» uyushtirishga urinaètgan kuchlar borligi barchamizni xushèr tortirishi lozim.

Adabiyotlar:

1. —2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi. T. —Ma’naviyat‖ 2017 B 210.
2. Yunesko xalqaro me’èriy hujjatlari. Konvesiyalar, bitimlar, protokollar, tavsiyanomalar, deklaratsiyalar. (To‘
3. Husniddinov bag‘rikenglik va jamiyat taraqqièti. – Toshkent: —Akademiya‖, 2005. – 116-17 b;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi diniy ishlar qo‘mitasining joriy arxivi. 1991 – 2015 yillaridagi hisobotidan.
5. Boboxadjaev M. Respublika Uzbekistan: Ocherki mejnatsionalnix i mejkonfesionalnix otnosheniy, vneshnoekonomicheskix svyazey. – Toshkent: —Sharq‖, 1996. – S. 35.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamidov Jamshid Abdisamiyevich
Chirchiq davlat pedagogika universitetining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinfga qadam qo‘ygan o‘quchilarni ijodiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, va ijodiy faoliyat bilan o‘zaro aloqadorlik tuzilmasi tarkibi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich, o‘quchilar, ijodiy faoliyat, aloqadorlik, qobiliyat, muxit, qarama-qarshiliklar.

Ta’limning dastlabki kunlaridanoq kichik yoshdagi maktab o‘quvchisining rivojlanishini harakatga keltiradigan turli ziddiyatlar hamda qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi ruhiy kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. O‘qituvchilar tomonidan beriladigan vazifalarning ortib borishi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ruhiy jihatdan to‘xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi va shu rivojlanish tizimining uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Ta’lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o‘quvchining o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish his-tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu his – tuyg‘u o‘qituvchining rag‘batlantirishi bilan namoyon bo‘ladi va o‘quvchida ko‘proq ishlash mayli, istagi, ehtiyojini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida paydo bo‘lgan faxrlanish, o‘z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o‘zlashtirish va malakalarni

mustahkamlash uchun xizmat qiladi. O‘z navbatida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni rag‘batlantirish va jazolash meyorida bo‘lsagina, ularning tarbiyaviy ta’siri ortadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o‘qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o‘qituvchining o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati juda kattadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘qituvchini aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi. O‘qituvchi siymosida o‘zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg‘ularini ruyobga chiqaruvchi mu’tabar shaxsni ko‘radi. O‘qituvchining obrusi oldida ota-onalar, oilaning boshqa a’zolari, qarindosh-urug‘lar, tanish – bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o‘qituvchisining har bir so‘zini qonun sifatida qabul qiladilar.

To‘g‘ri tashkil etilgan o‘qish faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aql – idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, o‘quvliligi, esda saqlab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi hamda o‘quvchilarda o‘qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinfga qadam qo‘ygan har bir kichik yoshdagi o‘quvchi qaytarilmas dunyo, u o‘z sifatlariga ega va uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. O‘quvchi shaxsining individual xususiyatlariga uning xarakteri, irodaviy sifatlari, xissiyotlari va qobiliyatlari kiradi. Pedagogik faoliyatda individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta bo‘lib, ular bizning jamiyatdagi o‘rnimiz, obro‘ – e’tiborimiz, ishdagi va o‘zimizdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni kerak bo‘lsa o‘zligimizni belgilaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida individual xususiyatlarga e’tibor berilsa kafolatlangan natijaga erishishimiz mumkin bo‘ladi. Aks holda texnologiyamiz samarasiz bo‘ladi. Individuallikning eng muhim psixologik xususiyati bu qobiliyatdir.

Qobiliyat bu **–** inson ruhiyatining individual xususiyati bo‘lib, u barcha ruhiy jarayonlar va holatlarning yig‘indisi hisoblanadi. U turli jarayonlarda faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shaxsdagi qobiliyatlar tug‘ma va orttirilgan bo‘lib, bular bir – biri bilan chambarchas bog‘liqdir.


Tug‘ma qobiliyatlar **–** nasliy ota-onadan genetik tarzda o‘tadi. Tug‘ma alomatlari bor individual sifatlari layoqat deb yuritiladi.

Orttirilgan qobiliyatlar – bolani o‘rab turgan muhit, muloqat uslublari, so‘zlashish madaniyati kabi qobiliyatning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan shart – sharoitlar maxsuli hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf texnologik ta’limda ijodkorlik qobiliyati va uning ijodiy faoliyat bilan o‘zaro aloqadorlik tuzilmasi tarkibini quyidagilarga bo‘lish mumkin.

1. Ta’lim maqsadi (motivsiyali) kichik yoshdagi o‘quvchi faoliyatiga shaxs sifatida munosabatda bo‘lish. Bunda kichik yoshdagi o‘quvchilarning qiziqishlari, maqsadlari, intilish ehtiyojlarini hisobga olish lozim.
2. Ta’lim mazmuniga ko‘ra kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilimlari, malaka va ko‘nikmalari hamda qobiliyatlarini hisobga olish.
3. Tashkiliy qismda kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashda tashkiliy-metodik faoliyatni amalga oshirish.
4. O‘z faoliyatini baholash - o‘z tasavvurida o‘z-o‘zini, o‘z ijodiy faoliyati va uning natijalarini baholash orqali o‘z imkoniyatlarini aniqlash.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib, boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish tuzilmasini quyidagicha tasvirlash mumkin.



Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga dasturlarda ifodalangan ta’lim mazmunini saralashni taqozo etadi. Chunki, hozirgi davrda umumiy o‘rta ta’lim dasturi va darsliklari o‘quvchining ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga doir talabga javob bermaydi. Vaholanki, amaliy fanlar ayniqsa texnologiya darslari o‘quvchilar ongiga ta’sir etadi hamda ularda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga turtki beradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari tinimsiz va uzluksiz mehnat natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qitish va tarbiya jarayonida ijodiy ta’lim mazmuni (o‘quv-biluv, tashkiliy, pedagogik hamkorlik kabi pedagogik texnologiyalar) asosida shaxsga yo‘naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-sonli qarori.

2. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dokt. diss. – Toshkent: 2004. – 314 b.

3. Барканова О.В. “Методики диагностики одаренности и креативности: психологический практикум”**.** – Вип. 3. – Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П.Астафера. – Красноярск, 2011.

4. Хамидов Ж.А. “О некоторых формах, методах трудового воспитания младших школьников”.// Academic research in educational sciences scientific journal. Volume 1, Issue 3, 2020

5. Xamidov J.A. “O‘quvchilarni kreativ tadqiqotchilik va kasbiy ko‘nikmalarini tanqidiy fikrlash orqali rivojlantirish”.// «Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘» jurnali №1/1, 2022.

TEXNOLOGIK TA’LIM TALABALARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA AKSEOLOGIK YONDASHUV

Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna
Chirchiq davlat pedagogika universitetining katta oqituvchisi

Annotatsiya: Maqolada texnologik ta’lim talabalarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishga akseologik yondashuv masalalari yoritilgan

Kalit so’zlar: akseologiya, qadriyatlar, ijtimoiy faoliyat, mutafakkir, olimu-ulamolar, sivilizatsiya

Texnologik ta’lim talabalarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishga akseologik yondashuv orqali ham erishmog‘imiz mumkin. Bunda akseologiya nima va uni kasbiy kompetentlik va naqshbandiya tariqatiga nima aloqasi bor degan savollarga javob berishimiz kerak.

Qadriyatlar falsafasining tarixi uzoq bo‘lsada, bu to‘g‘ridagi fan aksiologiya o‘tgan asrning o‘rtalarida shakllandi, Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o‘tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to‘g‘risidagi fan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qadriyatshunoslik, deb atash mumkin. Har bir fanga o‘z nomini bergan asosiy tushunchalar bo‘lgani kabi qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G‘arbda bu atama grekcha “axio” (qadriyat) va “logos ”(fan, ta’limot) tushunchalariga asoslanadi.[1]

Sobiq Sho‘rolar davrida aksiologiya fan sifatida tan olinmagan va hattoki Stalin tomonidan taqiqlangan edi. Sovet ittifoqining asosiy shiori bo‘lmish kommunizm qurish g‘oyasi qadriyatlarni eskilik sarqiti sifatida ko‘rib uni porloq kelajak qurishga to‘sqinlik qiluvchi omil deb hisoblashga olib keldi va buning natijasida ushbu sohada hech qanday tadqiqotlar olib borilmadi.

Mustaqilligimizning ilk yillarida halqimiz ongida juda katta ma’naviy bo‘shliq hosil bo‘ldi. Bu kommunistik g‘oyalarning tanazzulga yuz tutganligi va uning o‘rnida hosil bo‘lgan katta bo‘shliqni to‘ldirish va shu asosda halqning kommunistik g‘oyalarini qadriyatlar bilan almashtirish zaruratini tug‘dirdi.

Mustaqillik qadriyatlarimizga qaytishni taqozo etdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan halqimizning ma’naviyatini qadriyatlar orqali oshirishga katta ahamiyat berildi. Negaki inson o’tmishini bilmas ekan unda rivojlanish va komillik sari intilish tuyg‘ulari yuzaga kelmaydi. Ushbu omillar aksiologiya fanini yurtimizda rivojlanishiga va bu mavzuda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilishiga olib keldi.

Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan xudud va u bilan bog‘lik tuyg‘ular, millatning o‘tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy

boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘lik qadriyatlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiy bo‘lib hisoblanadi. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi xalqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog‘liq jihatlarni xam nazarda tutadi.

Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulugbek kabi mutafakkirlar, Al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Axmad Yassaviy, Bahouddin Nakshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari,

Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta'siri beqiyos.

Jamiyat rivojining muayyan davriga aksiologik nuqtai nazaridan qarash shu davrning ijtimoiy tuzilishiga biror bir umumiy qadriyatlar tizimi mos kelishini va u ijtimoiy voqealar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatadi, Umuminsoniy, milliy, diniy, sinfiy, shaxsiy va boshqa qadriyat shakllari ushbu tizimda muayyan o'rinni egallaydilar. Ular orasidagi farq, tafovut va munosabatlarga ko'ra ushbu tizimdaga umumiy o'zgarishlarga bog'lik bo'ladi. Hozirgi davrga kelib olim va mutaxassislar har kanday jamiyat qadriyatlar majmuasining o'ziga xos, tegishli tizimni yaratishini aloxida ta'kidlamoqdalar.

Har bir millat o'z qadriyatlarini asrab-avaylab kelajak avlodga qoldirish uchun ma'suldir. Bunga yashab turgan jamiyat, uning har bir fuqarosi birdek javobgar bo'lmog'i lozim. Dunyodagi ba'zi rivojlangan davlatlarni misol qilsak, masalan Yaponiya shu darajada fan va texnologiyasi rivojlanishiga qaramasdan azaliy qadriyatlarini saqlab kelmoqda. Bunga yana ko'p davlatlarni misol qilishiimiz mumkin. Bunga sabab u yoki bu davlatni rivojlangan yoki qoloqligi emas, balki ma'naviy darajasi yuqoriligida. Insonlar ongidagi ma'naviy bo'shliq ularda ajdodlar merosi, madaniy yodgorliklar, urf-odatlar, millat tarixi haqidagi fikrlarga joy qoldirmaydi.

Millatning o'z qadriyatlarini o'rganishi, tahlil qilishi va keng ommaga yoyishi tarixiy rivojlanish jarayonida o'tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil kilishga imkon yaratadi.

Milliy qadriyatlar:

-kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda tasir qiladi;

-kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlananib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad,ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi;

- moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari ham mumkin;

- ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zgarib, takomillashib rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o'tadi, meros qoladi.

Buyuk allomalarimiz, millatimizning fahri bo'lgan olimu-ulamolarimizning hayot yo'llarini o'rganadigan bo'lsak ularning ma'naviy kamoloti, ilm olishga bo'lgan fidoiyligini, tanlagan sohalariga bor vujudlari bilan o'zlarini baxshida etganligini ko'rishimiz mumkin. Zero ularning ko'pchiligi dunyoviy bilimlardan oldin diniy bilimlarni egallaganlar. Masalan dunyoga mashhur Abu Ali Ibn Sino 10 yoshida Qur'oni Karimni yoddan bilgan va matematika, falsafa, tibbiyotga oid asarlar bilan birga juda ko'p diniy asarlar yozganlar. Nega endi hozir biz diniy bilimlar: shariat, tariqat haqidagi bilimlarni o'rganishni va ularni talabalarga yetkazishni lozim topmaymiz?

Hozirgi kunda dunyoning juda ko'pgina mamlakatalarida Naqshbandiya tariqati chuqur o'rganib kelinmoqda. Lekin afsuski bizning mamlakatimizda o'zimizning yurtimizdan chiqqan shunday ulug' avliyo haqidagi ma'lumotlarga juda kam insonlar egadirlar. Buning sababi ushbu ma'lumotlar keng jamoatchilikka va uning bir bo'lagi bo'lmish bo'lg'usi pedagoglarga o'rgatilmayotganidir. Chunki bir oddiy inson olgan bilim ungagina tegishli bo'ladi, lekin o'qituvchining bilimidan yuzlab va minglab o'quvchilar bahramand bo'ladilar. Kelajak avlodni tarbiyalash eng avvalo bo'lg'usi pedagog ya'ni talabani tarbiyalashdan boshlanadi. Talaba oliy o'quv yurtida kasbiy bilimlarini egallash bilan bir qatorda ma'naviyatini oshirishi lozim, bu esa dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlarni ham egallashni taqozo etadi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda ularga qadriyatlar orqali yondashuv o‘quv jarayonini yaxlit ifodalash va uni to‘liq tasavvur etish imkonini beradi. U ta’limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochishda qulaylik tug‘diradi. Jumladan naqshbandiya tariqatida

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiyom Nazarov “Qadriyatlar falsafasi” (Aksiologiya) T-2004.c-4

2. Naqshbandiya tariqati vositasida texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish Monografiya. – T.: «MALIK PRINT CO», 2022. UDK: 373: 159.9 KBK: 74.00

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Mamirova Jasmina Ne'matulla qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi
E-mail: jasminamamirova02@gmail.com
+998932794249

Annotatsiya.o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro‘yobga chiqarilishi va ularning samaradorligi. O'quvchilar o'zlari ko'rib turgan har bir narsaga tanqidiy fikr bildirishni rivojlantirishimiz kerakligi yoritilgan

Kalit so’zlar: Tanqidiy fikr, jarayon, metod, vosita.

KIRISH.

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi[1]. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta’riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me’yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizma sotsosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi.Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grek. fikrlashning „tanqidiy“ shakli sifatida yuritiladi. = kritikos = "tanqid", „baholash“, „imtihon“ va boshqalar. ko‘p ma’noli so‘zdan kelib chiqqan;bu yerda „tanqid“ tushunchasi kundalik hayotda „ayblash“ ma’nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma’nosini bildiradi va „baholash“, „aniqlash“, „hukm qilish“, „ajratish qobiliyati“ kabi ma’nolarga ega.Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya’ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o‘qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o‘z g‘oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ savodxon ligi, go‘zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog‘lom bo‘lish, milliy urf-odatlarni o‘ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o‘z navbatida kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amalda to‘g‘ri qo‘llay olishlarini ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy

fikrlashlarini rivojlan tirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

XXI asr pedagogikasi tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, kreativ muhit, kreativ shaxs, o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda. Bugungi olib borilayotgan tadqiqotlar insoniyatning zamonaviy bilimlarni egallashlari va ularni amalda qo‘llash uchun maxsus qobiliyatlarni shakllantirish uchun muhim ekanligini isbotlamoqda.

Tanqidiy fikrlashning ijodiy manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Uning faolligi yaxshi xotiralashga imkon yaratishi, narsalar, jarayonlar va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam berishi ko‘hna zamonlardayoq ma’lum bo‘lgan.

Sharq mutafakkirlarimizning ilmiy merosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning ilm-aql, fikrlash tanqidiy tafakkurning mezoni sanalishini o‘zlarining asarlarida batafsil yoritganlar.Darhaqiqat inson kamolotga erishishida aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishining o‘rni beqiyosdir. SHu o‘rinda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: “Tanqidiy tahlil,qatiiy tarib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.(Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar.)

Oilada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish Agar bola savollar bermasa, tanqidiy fikrlash haqida unutsa bo‘ladi. Savollarning sifati haqida keyinroq gaplashamiz. Keling, avvalo bola oxirgi marta bizga qachon savol berganini eslaylik.Aniqki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko‘rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o‘z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko‘p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to‘xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste’molchisiga aylanishadi, ammo ular bilimlarning yaratuvchisiga aylanishi kerak.

Ota-onalarga savol: siz bolalaringizga savollar berasizmi? Bu ishni qilish juda muhim, chunki bolalar avvalo oilada, ota-onadan yoki aka-uka va opa-singillardan, va faqat keyin maktabda savol berishni o‘rganadilar.Nima uchun hech narsa qilmay o‘ritibsan?” — “Siz menga nima qilishimni aytmadingiz”. Biz bolani ma’lumot bilan oziqlantirdik, u uning boshida “turdi” va ketdi, bu qisqa muddatli xotira.

Nima uchun bola maktabda nimanidir qilishni unutdi? Chunki miya butun kuchini eslab qolishga sarfladi. O‘z ustida ishlash emas, tushunish emas, anglash emas, o‘zi uchun rejalashtirish emas, faqat eslab qolish kerak.Axborot qancha tez takrorlansa, uni eslab qolish istagi shunchalik pasayadi. Biz 30-marta “To‘shagingni to‘g‘irla”, “Bajar” deganimizda, miya “Men buni oldinroq eshitganman”, deb javob beradi. Gap shundaki, biz birinchi urinishdayoq kerakli harakatlarni ko‘nikmaga aylantirmadik.

Agar ong uyda rivojlanmasa, keyinchalik u ishni qanday qilish kerakligini aytishlarini kutadigan xodimlarga aylanadi. Agar ularga buni qanday qilish kerakligi aytilsa, ular buni qilishadi. Agar aksi bo‘lsa — “Axir siz aytmadingizku” deyiladi. Robot darslikdagi hamma narsani boladan ko‘ra yaxshiroq amalga oshirishi mumkin, tag‘in bola hammasini eslab qolmaydi ham. Shuning uchun, asosiy e’tiborni ko‘nikmalarga qaratish kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

o‘qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib borish;
ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
o‘quvchi tashabbusi va majburiyatini qo‘llab-quvvatlash;
amaliyot orqali o‘rganish;
ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashinuvini tashkil qilish;

Xulosa. Vaziyatga qarab o‘zgarib turadigan fikrlashni tasavvur qilamiz. Bola ma’lum bir vaziyatga tushib qoladi va u darhol kuzatishga, tahlil qilishga, ma’lumotlarni qayta ishlashga kirishadi, xulosalar chiqaradi, qarorlar qabul qiladi, mas’ulitga ega bo‘ladi. Bu tanqidiy fikrlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. III. –
Toshkent: Fan, 1984. – b. 201.
2. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: “O‘qituvchi”,1996.
3. Hasanova A. O‘quvchi yoshlar tarbiyasida rag‘batlantirish va tanbeh mezoni. – T.:“O‘zbekiston”, 1996
4.Hasanova A. O’quvchi yoshlar tarbiyasida rag’batlantirish va tanbeh mezoni. – T.: «O’zbekiston», 1996.
5. Bespalko V.P.Slagayemыe pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. –192 s.
6. Adizov B.R. Boshlang’ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. – T.: T.N. Qori Niyoziy nomli O’zPFITI, 2002. – 276 bet.

СТРОЕНИЕ РУССКОГО СЛОВА. СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ СЛОВ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Научный руководитель: **Юлдашева Т.А.**
Старший преподаватель ЧГПУ
Нормирзаев С.
Студенг ЧГПУ
Юлдашев О.
Студенг ЧГПУ

Аннотация: Статья посвящена описанию основных способов образования слов со значением деятеля. Особое внимание уделяется анализу современных способов словообразования – суффиксального, сложения и аббревиации.

Ключевые слова: словообразование, дериватология, номинация, способы словообразования, аббревиация.

Приступая к рассмотрению основных способов образования слов со значением имя деятеля, приведем слова В. Г. Костомарова, который отмечает, что «XX век называют веком окказионализмов и аббревиации в русском языке, когда имеет место «номинативный взрыв», «словообразовательный взрыв», что подтверждается интересом многих лингвистов к аббревиатурным неологизмам, или «абронеологизмам», не только в работах отечественных, но и зарубежных ученых [1, с. 271].

Целый ряд исследований, написанных на материале русского, немецкого, английского, французского языков, посвящен изучению слов со значением деятеля. Некоторые работы были посвящены изучению семантических особенностей слов со значением лица (Белоусова 1981,

Бухмастова 1987), другие – изучению особенностей образования новой лексики (Максимова 2000), целью третьих работ было изучение семантики и структуры отглагольных имен деятеля (Коляда 1985, Шмелева 1983), некоторые работы описывали семантические и социолингвистические особенности образования имен лица (Лапшина 1985).

Некоторые зарубежные лингвисты рассматривают неологизмы по сферам деятельности, в которых они появляются (Гордишевская 2005) или в связи с определенными событиями, которые повлекли за собой образование новых слов. Во многих языках, включая современный русский, новообразования имеют ярко выраженный антропоцентрический характер (Белоусова 1981, Бухмастова 1987, Земская 1996, 2000, Лапшина 1985, Максимова 2000, Потапова 2004, Тобулток 2005). Среди новообразований антропоцентрического характера имена деятеля занимают одно из центральных мест, как по количеству единиц, так и по числу используемых способов и моделей образования.

Исследования неологизмов со значением деятеля сохраняют свою актуальность в силу двух основных причин – экстралингвистической и внутри лингвистической. Суть первой заключается в том, что в социально и технологически быстро меняющемся обществе у членов языкового коллектива есть непрерывная потребность создавать самим новые обозначения для себя в новых социальных ролях и профессиональных функциях. Внутрилингвистическая причина состоит в постоянной необходимости систематизировать продуктивные способы образования новых единиц, устанавливать синхронические отрезки наибольшей активности тех или иных словопроизводных моделей и отмечать противоположные тенденции к утрате продуктивности.

В настоящей статье объектом исследования являются слова, как производные, так и сложные, и словосочетания, обозначающие деятеля в соответствии с различными характеристиками. Деятель понимается и как субъект, совершающий действие, и как объект, на который направлено действие. Под неологизмом понимается новое слово или словосочетание, которое появляется в языке в результате любого из существующих в языке способов обогащения лексико-семантического состава. Неологизмы всегда ограничены некоторым временным периодом. В данной статье изучаются неологизмы, появившиеся на рубеже XX и XXI веков. Граница эпох всегда вызывает интерес со стороны самых разных исследователей – именно в эти периоды нагляднее всего проявляются результаты предшествующего развития и острее ощущаются новые тенденции. Язык способен бесстрастно фиксировать и то, и другое, предоставляя, таким образом, обширное поле для анализа.

Рассмотрим основные способы образования слов со значением имя деятеля. Как известно, словообразование – раздел науки о языке, который изучает строение слов и процесс их образования. Например, слово пиарщик состоит из трех значимых частей: пиар- (корень), щик- (суффикс), О (нулевое окончание). Данное существительное образовано от существительного пиар с помощью словообразовательного суффикса -щик и обозначает имя деятеля.

Словообразование (дериватология) тесно взаимодействует со всеми уровнями языка – лексикой, морфологией и синтаксисом. С лексикой словообразование связывает тот факт, что дериватология направлена на создание слов, то есть лексических единиц языка, и служит процессу номинации. Номинация в таком случае понимается как обозначение языковыми средствами объектов реальной действительности [2].

Основная функция словообразования заключается в пополнении словарного состава. В последнее время в русском языке стали активными номинации, отражающие изменения социально-экономической жизни, например: предприниматель, компьютерщик, телохранитель, бизнесмен и др.

Способ словообразования более широкое понятие, чем словообразовательный тип. Он определяется словообразовательной базой и формантом, которые непосредственно участвуют в

создании слов. Так, в русском языке новые слова могут образовываться с помощью суффикса и относятся к суффиксальному способу словообразования. Например, существительные – интернетчик, граффитчик образованы с помощью суффикса -чик- (со значением «профессия»), присоединенного к основам интернет, граффити; слово рекламщик с помощью суффикса -щик, слова страхователь, арендодатель образованы с помощью суффикса -тель- (со значением «предмет»), существительные – флорист, стилист, программист образованы с помощью суффикса -ист-, соединенного с основой (флор, стил, программ) [3, с. 166–167].

Способ сложения заключается в том, что новые слова образуются путем соединения слов (статс-секретарь – одна из высших государственных должностей, саунд-продюсер – административный и финансовый организатор выступлений певцов), сложением основ слов без соединительных гласных (клипмейкер, имиджмейкер) или с помощью соединительных гласных (рекламораспространитель, языковед). Имена существительные в русском языке имеют только им присущие способы образования, с помощью которых создаются слож носокращенные слова: сложение слогов или частей слов полного названия: спецкор (специальный корреспондент), генсек (генеральный секретарь), политтехнолог (политический технолог) [4].

Аббревиация – это один из специфических субстантивных способов словообразования имен существительных (самой богатой в словообразовательном отношении части речи). Она выполняет компрессивную функцию – функцию уплотнения текста, создавая более краткие, чем соотносительное словосочетание, номинации [5, с. 251].

Образование новых слов со значением имя деятеля – процесс непрерывный, заметно активизировавшийся в последние годы в связи с общественно-политическими и социально-экономическими переменами, происходящими в российском обществе, с внедрением компьютерных технологий, взаимодействием с западной культурой и влиянием других экстралингвистических факторов. В русском языке XX–XXI в. количество слов со значением категории деятеля неуклонно растет, о чем свидетельствуют, в частности, словари новых слов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Прохорова С. Р. Особенности образования неологизмов со значением деятеля в современном английском языке. Дис. ... канд. филол. наук. Москва, 2005. 271 с.

2. Кильдибекова Т. А., Колоколова Л. П., Миниярова И. М. Функциональный аспект словообразования русского языка: Учебное пособие для фил. фак. Вузов. Уфа: РИЦ БашГУ, 2007. 135 с.

3. Неологизмы // Энциклопедический словарь юного филолога / Сост. М. В. Панов. М.: Педагогика, 1984. 166–167 с.

4. Толковый словарь русского языка начало XXI века. / Под ред. Г. Н. Скляревской. М.: Эксмо, 2008.

5. Стахеева А. В. Аббревиация: словопроизводство и словотворчество: на материале русского языка конца XX – начала XXI века: дис. ... канд. филол. наук. Ростов-на-Дону, 2008. 251 с.

“MUSIQA MADANIYATI” DARSLARI JARAYONIDA BOLALAR OVOZINI RIVOJLANTIRISH ORQALI XONANDALIK ASARLARINI O‘RGATISH USULLARI

Qayumov Javohir Sodiqxo‘ja o‘g‘li
jovoxirqayumov@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa madanyati dars jarayonida bolalarning ovozini rivojlantirish, innavatsion faoliyati hamda psixologik bilimdonligi va madaniyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan hamda xonxndalik asarlarini o‘rgatish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: musiqa o`qituvchisi, kasbiy mahorat, xonanda, ma’naviyat, musiqa madaniyati.

METHODS OF TEACHING SINGING WORKS BY DEVELOPING CHILDREN'S VOICE IN THE PROCESS OF "MUSIC CULTURE" LESSONS

Kayumov Javohir Sadiqkhoja ugli
jovoxirqayumov@gmail.com
Teacher of Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This article discusses the development of children's voices, innovative activities, and psychological knowledge and culture in the course of the music culture lesson, as well as information about the teaching of Korean works.

Key words: music teacher, professional skill, singer, spirituality, music culture.

Musiqa mohiyatiga ko‘ra inson omilini tadqiq qilish va dunyoni badiiy o‘zlashtirishning muhim usullaridan hisoblanib, inson ruhiy, axloqiy kamoloti va ma’naviyatining shakllanishida, yoshlarning ma’naviy tarbiyasida yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Inson kamolotida muhim o‘rin tutuvchi ma’naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishida shakllanadi.

Bundan ko‘rinadiki, oilada tashkil etiladigan mashg‘ulotlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo‘shish bilan birga, kelgusida jamiyat mustahkamligini ta’minlashga, ya’ni jamiyatning keng dunyoqarashga ega, ongli a’zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bu jarayonda avvalo, hamkorlikni maqsadli yo‘lga qo‘yish, samarali ish shakl va usullaridan foydalanish o‘quvchilarni madaniyat va san’atning muayyan sohalariga izchil bog‘lanib qolishlari, kelajakda yetuk xonanda, sozanda, bastakor-kompozitor bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi. Buning uchun avvalo:

- musiqa o‘qituvchilari har bir o‘quvchining oilasi bilan yaqindan tanishishi, doimiy aloqani yo‘lga qo‘yishi;

- o‘quvchilarni musiqa san’atining muayyan turlariga qiziqishi, qobiliyatiga qarab, ularning ota-onalarini bu haqda xabardor qilish, maktabda va oilada mustaqil qo‘shimcha shug‘ullanishlari uchun shart-sharoit yaratishi;

- musiqa darslariga, to‘garaklar, ijodiy markazlarga qatnashishlarini ota-onasi tomonidan ham nazorat qilib borilishiga e’tibor qaratish;

- o‘quvchilar ishtirok etadigan turli madaniy-ommaviy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar, konsertlarga ularning ota-onalarini taklif qilish;

- ota-onalar uchun maxsus ma’ruza konsertlar, madaniyat, san’at wakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

- o‘quvchilarga individual topshiriqlar berish, mustaqil shug‘ullanishlari va topshiriqlarni bajarilishi yuzasidan ota-onalar fikrlarini so‘rab turish kerak bo‘ladi.

Fikrimizcha, bunday hamkorlik bo‘yicha tashkil etiladigan vaoliyat o‘quvchilarni musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishlarini, ularning musiqa bo‘yicha individual qobiliyat va iqtidorlarini o‘stirishga, iste’dod kurtaklarini keng ochishga, asosiysi, komil inson bo‘lib shakllanishida katta o‘rin tutadi.

Ayniqsa, insoniyat shiddatkor taraqqiyot asrida yashayotgan bugungi globallashuv davrida yoshlarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta’siridan himoyalashda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, inson ma’naviy kamolotini yuksaltirishda musiqa tarbiyasining hayotimizdagi o‘rni va qadr-qimmati benihoya ortib bormoqda.

Musiqa pedagogikasida o‘quvchilarning musiqiy madaniyatining shakllantirishda qiziqish muammosi eng muhim muammo hisoblanadi. Birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarni musiqaga qiziqtirib borish uchun o‘qituvchi bolalarni sevishi, darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi, musiqa o‘qitishning barcha metod va tamoyillaridan to‘g‘ri foydalana olishi, so‘z mahoratiga usta bo‘lishi, bolalarga xos bo‘lgan qo‘shiqlarni chiroyli, mayin, bolalar ovoziga moslab yoqimli ijro etib ku‘ylar mazmunini ochib berishi zarur.

Ta’kidlash o‘rinliki, yurtimizda nafaqat milliy musiqa ijrochiligi, balki jahon musiqa san’tining ko‘plab yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish, o‘zlashtirish borasida katta yutuqlarga erishilmoqda. San’atkorlarimiz, ayniqsa, yosh ijrochilarimiz sozanda va xonandalarimizning nufuzli xalqaro tanlov va festivallarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritayotgani barchamizga g‘urur baxsh etadi.

Kelajagimiz bo‘lgan bugungi kun o‘quvchilarining badiiy va estetik tarbiyalashning takomillashitirish umumta’lim maktablari, akademik litsey va kollejlar oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan iborat etilganligi muhtaram

Musiqa ta`limi jarayonida xonandalik asarlarini kuylashga o`rgatish usullarini takomillashtitishda 1-sinfdan boshlab xonandalik mahoratini shaklantirish maqsadga muvofiqdir.

Maktabda musiqa madaniyati darslari pedagogika-psixologiya fanlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu esa, maktab va o‘qituvchilari oldiga qo‘yiladigan talablar, o`quvchilarning yosh xususiyatlari, musiqiy ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning rivojlanish istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi.

O‘quvchilarning ovoz apparatlariga putur yetkazmaslik, ovozni saqlashning muhim sharti birinchi sinfdan boshlaboq ovoz diapazonini aniqlash, ishchi diapazonlaridagi notalardan tashqariga chiqmaslik va uni kengaytirib borishga alohida e’tibor berish lozim.

Boshlang`ich sinfda kuylash malakalarini shakllantirish bevosita musiqiy eshitish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq. Sof intonatsiyada kuylash, aniq idrok etib, tinglangan tovushni toza ijro etishdan iborat. Gohida musiqiy tovushlarni to‘g‘ri idrok etadigan, biroq to‘g‘ri kuylay olmaydigan o‘quvchilar ham uchrab turadi. Sinfda turli xususiyat va odatlarga ega bolalar bo‘lganligi tufayli, o‘qituvchi barcha bolalarga mos keladigan usullarni qo‘llashi kerak.

Kuylash borasida, birinchi sinf o‘quvchilari maktabgacha bo‘lgan davr musiqiy tayyorgarliklariga bog‘liq. Tayyorgarligi bo‘lmagan bolalarning ovoz diapazoni 2-3 tovushdan, tayyorgarligi bor bolalarda bir oktavagacha ovoz diapazoni rivojlangan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi bolalarning kuylatish jarayonida

ovoz apparati to‘liq shakllanmagan, nozik, ovoz paychalari ingichka bo‘lishini e`tiborga olgan holda baqirmasdan, yumshoq ovozda kuylatishi kerak. Bu davrda bolalalarning (7 yoshli) ovoz diapazoni re-lya birinchi oktavagacha bo‘ladi. Lekin dars jarayonida bu diapazon ayrim hollarda birinchi oktavaning “si” va ikkinchi oktavaning “do” va “re” tovushlarigacha ko‘tarilishi mumkin.

Biroq o‘quvchilar birinchi oktava “do” tovushi va undan quyiroq tovushlarni kuylay olmaydilar. Chunki ularning ovozlari tabiatdan jarangdor va yorqindir.

O‘quvchilarning musiqa san’atiga qo‘shiq kuylash orqali olib kirish, musiqiy estetik tarbiyasining yangi yo‘llarini izlash, uni nazariy jihatdan asoslab berish, musiqiy pedagogikaning doimo diqqat markazida bo‘lgan muammolaridir.

Hozirgi davrda bolalar vokal tarbiyasi asosan umum ta’lim maktablarida ”Musiqa madaniyati” darslarida jamoaviy (xor) aytish faoliyati sinfdan tashqari xor, maqom, folklor ansamllari shu asosida olib boriladi. Pedagogik amaliyot o‘tish jarayonida biz bolalar qo‘shiqchiligining zamonaviy holati, ish taamoyillari, shakllari, usullari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O‘quvchilarda ayniqsa, o‘smirlikka qadam qo‘ygan bolalarda musiqa madaniyatini tarkib toptirish, ularning aqliy va ahloqi, jismoniy rivojiga ijobiy ta’sir etishida xonandalik asarlarini kuylashga o`rgatishni takomillashtirishni pedagogik amaliy ahamiyatini kasb etishini chuqurroq his etdik.

Birinchi o‘rinda qo‘shiqning she’riy matn mazmuni, unda ifodalangan obrazlarni ijrochi-talabalar yaxshi tushunib olishi zarur. Har bir qo‘shiq ma’lum bir kompozitsion tuzilishga ega. Bu kompozitson tuzilish she’riy mazmun bilan bog‘langan bo‘lib, ko‘p qo‘shiqlarning shakli ikki qismli, ya’ni «bandli» («kuplet») – «naqarotli» shaklda yozilgan. Naqarotda qo‘shiqning asosiy g‘oyasi muxtasar shaklda berilgan. «Naqarot» qo‘shiqda markaziy o‘rin egallaydi, chunki, matnning asosiy g‘oyasi «naqarotda» mujassamlangan.

Biz xonandalik asarlarini kuylashga o`rgatish metodikasini takomil-lashtirishimizda 5-7 sinf o`quvchilari oldiga, bugungi davr talabiga binoan malaka-ko‘nikmalar yuzasidan ancha jiddiy bo‘lgan talablar qo‘yishimiz zarur, deb bilamiz. Yosh ijrochi o‘zining individual, boshqa xonandalardan ajralib turadigan ijro yo‘lini, ya’ni faqat o‘z ovozi, iqtidoriga xos va yarashgan yangi estrada «imidjini» yaratishga harakat qilishi talab etiladi.

Yuqorida aytilgan masalalar bilan birga o‘qish jarayonida egallab olishlari zarur bo‘lgan quyidagi malakalar ham turadi:

a) xonandalik nafas yo‘llarini vujudga keltirib, tirgakli nafas («опорное дыхание») ustida ishlash;

b) pastki, o‘rta va yuqori tessituradagi tovushlarni silliqlash (выравнивание);

v) ovozni kuychan darajada («kantilena») yo‘naltira bilish malakalarini shakllantirish;

g) milliy va zamonaviy estrada ritmik usullarini ichidan his qilib kuylash malakalarini rivojlantirish;

d) ijro paytida badan mushaklarini erkinlashtirib qo‘shiqdagi usulga mos harakatlantirish.

O‘quvchilarda xonandalik asarlarini kuylashga o`rgatishni takomillashtirish, odatda, mumtoz ashulalarni, maqomlarni ijro etish xonandalardan juda katta iste’dod va mahorat, keng diapozonga ega bo‘lgan ovoz hamda keng nafas yo‘liga ega bo‘lishni talab qiladi. O‘zbek an’anaviy ijrochiligidagi yana bir muhim omil bu – uning tabiiyligini ifoda eta bilish va musiqiy asarni milliy bezaklar bilan ijro etishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov, J. S. "Life in the Shashmaqom." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 98-105.

2. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 1(3).

O‘QUVCHILARDA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Arzimova Sayora Nagmet qizi
"Fakultetlararo rus tillar" kafedrasi o‘qituvchisi
CHDPU, O’zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchilarning ijodiy tafakkur qilishga o‘rgantish yo‘llari va ularni madaniy-ta’limiy muhitni rivojlantirishda qo‘llash, o‘quvchini mustaqil ijodiy fikrlash, izlanishga o‘rgatishning evristik metodlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni, ijodiy izlanishlarni rivojlantirish uchun turli ijodiy faoliyatlar tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: umum ta’lim maktablari, madaniy muhit, o‘quvchilar, ijodiy tafakkur, ijodiy faoliyat, evristik metodlar, kognitiv metodlar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ta’limiy-madaniy muhitni shakllantirish natijasida o‘quvchilar asta-sekin ijod olamiga kira boshlaydilar. Bu esa o‘quvchilarning ta’lim muhitida yashashlari, so‘zlardan ko‘proq foydalanishlari, ya’ni ularning lug‘at boyligini oshirishga ko‘maklashadi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘z-o‘zlari va atrofdagilarga savollar bera boshlaydilar. Hissiyotlari doirasida mavjud voqelikni idrok etish, tushunish, ko‘rishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda tug‘iladigan fikrlar, his-tuyg‘ular o‘quvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijasi hisoblanadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlardan turib voqelik haqida fikrlash va ularni tushunish layoqatini shakllantiradi. O‘quvchi o‘zining bilish jarayoniga nafaqat aqliy, balki hissiy natijalarni ham uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quvchilarning ijodiy tafakkur yo‘li ularning individual rivojlanishini hisobga olishni taqozo qilib, bu o‘z navbatida, ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari, mayllaridan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tabaqalashtirishni talab qiladi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi o‘zining kasbiy mahorati doirasida o‘quvchilarga nisbatan individual yondashuvni tatbiq eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Evristik metodlar kognitiv metodlar bilan uyg‘un tarzda qo‘llaniladi. O‘qitishning kognitiv metodlari ham evristik topshiriqlar kabi o‘quvchini mustaqil ijodiy fikrlash, izlanishga undaydi. Bunday metodlar sirasiga:

- o‘quvchilarni ijodiy faollikka undovchi metodlar;
- fikriy faoliyatga olib kiruvchi metodlar;
- o‘quvchilarni obrazli hamda ramziy belgilar yordamida ishlashga jalb qiluvchi metodlar;
- evristik savollar bilan murojaat qilish metodi;
- qiyoslash metodi;
- dalillarni dalillardan farqlash metodi;
- evristik kuzatish metodi;
- evristik tadqiqot metodi;
- tushunchalarni loyihalash metodi;
- qoidalarni loyihalash metodi;
- farazlarni ilgari surish metodi;
- bashorat qilish metodi;
- xatolar ustida ishlash metodi;
- nazariyalarni loyihalash metodi kabilar kiradi.

Biz quyida ularning ba’zilari ustida batafsil to‘xtalamiz:

Empatiya, ya’ni o‘quvchilarni ijodiy faollikka ruhlantiruvchi metodlar o‘quvchining atrofdagilar odamlar, narsa va buyumlarning holatini his etishlariga ko‘maklashadi. Hissiy-obrazli tasavvurlar yordamida o‘quvchilar o‘rganilayotgan ob’ektni anglashga muvaffaq bo‘ladilar, uning ichki o‘ziga xos

jihatlarini his etadilar va tushunadilar. Mazkur metodni muvaffaqiyatli qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning holatini aniqlash, ularning tuyg‘ularini his etishga erishadilar. Dastlab bu metod o‘yin tarzida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar quvonch, zavqlanish hissini tuyadilar. Ta’lim natijalari olinib, uning mohiyati anglangandan keyin esa o‘quvchilar ushbu metodga o‘qitish metodi sifatida jiddiy yondasha boshlaydilar. Mazkur metod yordamida o‘quvchilar dunyoni, hayvonot va o‘simliklar olamini anglaydilar, ularning dunyoqarashida tub o‘zgarish yuz beradi. Tabiatga nisbatan alohida muhabbat bilan qaraydilar. Bu esa ularning ertaklar to‘qishlariga zamin hozirlaydi. Bolalar asta-sekin ijod olamiga kira boshlaydilar. Bu esa o‘quvchilarning ta’lim muhitida yashashlari, so‘zlardan ko‘proq foydalanishlari, ya’ni ularning lug‘at boyligini oshirishga ko‘maklashadi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘z-o‘zlari va atrofdagilarga savollar bera boshlaydilar. Hissiyotlari doirasida mavjud voqelikni idrok etish, tushunish, ko‘rishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda tug‘iladigan fikrlar, his-tuyg‘ular o‘quvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijasi hisoblanadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlardan turib voqelik haqida fikrlash va ularni tushunish layoqatini shakllantiradi. O‘quvchi o‘zining bilish jarayoniga nafaqat aqliy, balki hissiy natijalarni ham uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu metod o‘qituvchilar tomonidan kam qo‘llaniladi, biroq u evristik ta’limning samarali metodi bo‘lib, o‘quvchilarning foydalanmayotgan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan biri kuzatgan voqeliklarini his etish, ular asosida o‘z kechinmalarini boyitish, o‘zlarini o‘rab turgan muhitni bilish va his etishga intilishdir.

O‘quvchilarni obrazli ko‘rish orqali faollikka undovchi metod ob’ektlarni hissiy-obrazli tadqiq etishlariga ko‘maklashadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ob’ektlarning belgilari, shakliga nazar tashlash, ularda ko‘rgan obrazlarini chizish, ularning nimaga o‘xshashligini tasvirlash haqida topshiriq beradi. Yoki o‘quvchilarga o‘zbek mumtoz musiqasiga oid asarlarni tinglash vazifasini topshiradi. Ular mazkur topshiriqlarni bajarib bo‘lganlaridan keyin o‘qituvchi savollar beradi. “Bastakor ushbu musiqa orqali nima demoqchi bo‘lgan?”, “Siz ushbu musiqani tinglaganda nimalarni his etdingiz, tasavvuringizda nimalar paydo bo‘ldi?”, “Ushbu musiqaning ohangi qanday: tezmi yoki sokinmi?”. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘quvchilarga musiqani tinglaganlaridan keyin tasavvurlarida qanday obraz gavdalanganligini chizib ko‘rsatish haqida topshiriq beradi.

Fikriy faoliyatga olib kiruvchi metodlar o‘rganilayotgan ob’ektga bir vaqtning o‘zida o‘quvchining ko‘rish va fikrlash faoliyatini jalb etish imkonini beradi. Shu asosda ular ob’ektda mujassamlashgan fikrni, uning o‘ziga xosligini anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarda faollik ko‘rsatish kayfiyatini hosil qilishi lozim. Bu esa faol hissiy-fikriy bilish faoliyati natijasida vujudga keladi. O‘qituvchi o‘quvchilarda fikriy faollikni hosil qilish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin: “Muayyan hodisa yoki predmetning belgilari yoki kelib chiqish sabablarini aytib bering?”, “Muayyan narsa yoki buyumlar qanday tuzilgan, uning o‘ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?”. Ushbu metodni qo‘llash natijasida o‘quvchilarda noan’anaviy bilish sifatlari tarkib topadi.

Ramziy ko‘rish metodi haqiqatni chuqur anglashning o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Mazkur metod haqiqatni kuzatish va bilish jarayoni mazmunini o‘zida mujassamlashtiradi. Ramziy ko‘rish metodi o‘quvchilarga ob’ektlar va ularning ramzlari orasidagi aloqadorlikni anglash imkonini beradi. Ramzlar va uning ob’ektlari orasidagi aloqadorlikning xarakterini tushuntirgandan keyin o‘qituvchi muayyan ob’ektni kuzatish va uning o‘ziga xos belgilarini chizmalar, belgilar, so‘zlar yordamida tasvirlashga oid topshiriqlar beradi.

Evristik kuzatish metodi o‘quvchilarga kuzatish yordamida bilimlarni o‘zlashtirishga erishish, ularni konstruksiyalash imkonini beradi. Kuzatish maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat turi sifatida o‘quvchilarning idrokini charxlab, turli yo‘nalishdagi ob’ektlar haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga ularni tayyorlaydi. Kuzatish bilimlar manbai, ularni o‘zlashtirish yo‘li hamda turmushdagi voqelikni

anglash usuli hisoblanadi. Kuzatish faoliyatini amalga oshiradigan o‘quvchilar shaxsiy natijalarni qo‘lga kirita oladilar. Bunday natijalar sirasiga:

- kuzatish jarayonida o‘zlashtirilgan axborotlar;
- shaxsiy harakatlar va his-tuyg‘ular majmui kiradi.

O‘quvchining ijodiy faoliyat darajasi uning kuzatishlari jarayonida mavjud bo‘lgan natijalar bilan qo‘lga kiritilgan natijalarni o‘zaro qiyoslash asosida aniqlanadi. O‘qituvchi bergan ma’lumotlar bilan bir qatorda aksariyat o‘quvchilar o‘z kuzatishlari davomida muayyan ob’ektlar haqidagi ko‘plab qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Shu asosda ular kuzatish yordamida yangi axborotlarni egallaydilar va o‘z faoliyatlarini loyihalash imkoniyatini qo‘lga kiritadilar.

“Atrofimizdagi olam” darslarida ekskursiya jarayonida o‘quvchilar jonli va jonsiz tabiatni kuzatishga muvaffaq bo‘ladilar. Kuzatish – axborotlarni o‘zlashtirish, ular ustida kichik tadqiqotlar o‘tkazishning eng qulay metodi hisoblanadi. Masalan, 2- sinf o‘quvchilari bilan “Qushlar nima uchun qishda issiq o‘lkalarga uchib ketadilar” mavzusida evristik suhbat o‘tkazish mumkin. Dastlab, o‘quvchilar bilan muayyan reja asosida maktab bog‘iga sayohat uyushtiriladi. Kuzatish rejasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Siz qaysi qushlarni ko‘rdingiz?
- Ular haqida bilganlaringizni yozing?
- Bu qushlar nima bilan oziqlanadilar?
- Nega ular orasidan bitta qush uchmay qoldi?
- Qaysi qushlar uchdilar?
- Ucha olmay qolgan qushga qanday g‘amxo‘rlik qilish mumkin? kabi.

Keyingi mashg‘ulotda o‘quvchilarga maxsus ensiklopediyalar yoki Internet saytidan qushlar haqida ma’lumot to‘plash vazifasi topshiriladi. Bunday topshiriqlar mashg‘ulotlar, ularning bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘qituvchining topshirig‘iga ko‘ra o‘quvchilar qushlar haqida topishmoqlarni izlab topadilar yoki ularni o‘zlari to‘qiydilar. Ob’ektiv voqelikni kuzatish va tahlil qilish natijasida o‘quvchilar muammolarni ko‘ra boshlaydilar.

Evristik savollar bilan murojaat qilish metodi ham o‘quvchilarni aqliyintellektual jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod yordamida o‘quvchilarda muloqot, o‘zini o‘zi rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash kabi kompetensiyalar tadrijiy asosda muayyan uzviylikda rvojlanadi. O‘quvchilarga muayyan voqeliklar, narsa-buyumlar haqidagi ma’lumotlarni izlab topishlari va tahlil qilishlari uchun o‘qituvchilar quyidagi savollar bilan murojaat qiladilar. “Kim qushlar haqida g‘amxo‘rlik qiladi?”, “Qushlar qanday himoya qilinadilar?”, “Qushlar nima bilan oziqlanadilar?”, “Ular nima uchun qishda issiq o‘lkalarga, yozda O‘zbekistonga uchib keladilar?”, “Qushlar qachon ko‘payadilar?”, “Qushlar tabiatda qanday vazifalarni bajaradilar?”. Ushbu savollarga javob topish uchun o‘quvchilar mantiqiy fikrlaydilar, izlanadilar va tahliliy faoliyatni amalga oshiradilar.

REFERENCES

1. Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fan. nom.dis. Avtoreferati.– Toshkent: 2009. – 26 b.

2. Mahmudov M. Ta’limni didaktik loyihalash. T.: Fan, 1999.-179 bet.

3. Safarova R.G., Abdullaeva B.S., A.Bahromov va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi.. RTM, –T.: 2015.

РОЛЬ ВОСПИТАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО СОГЛАСИЯ

Юсупова Ш.О.

Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы воспитания культуры межнационального общения и его значение в обеспечении общественного согласия. Автор подчёркивает, что воспитание и укрепление толерантности среди студенческой молодежи является одним из важнейших приоритетов и одним из лучших качеств узбекского народа. Для этого создана в стране правовая основа для сохранения и развития обычаев и традиций, языка и культуры всех наций и народов. Так же в статье автор останавливается на практических примерах и реформах, которые осуществляется государством на благо развития многонационального и поликультурного государства.

Ключевые слова: воспитание, культура, сплочённость, добродушие, толерантность, права, свобода, религия, глобализация, духовность.

Abstract. This article examines the issues of fostering a culture of interethnic communication and its importance in ensuring social harmony. The author emphasizes that the education and strengthening of tolerance among students is one of the most important priorities and one of the best qualities of the Uzbek people. For this purpose, a legal basis has been created in the country for the preservation and development of customs and traditions, language and culture of all nations and peoples. Also in the article the author dwells on practical examples and reforms carried out by the state for the benefit of the development of a multinational and multicultural state.

Key words: education, culture, cohesion, goodwill, tolerance, rights, freedom, religion, globalization, spirituality.

Обеспечение социальной сплоченности является важным условием межэтнической толерантности. Лучшие человеческие качества добродушие веками впитывалась в кровь нашего народа из поколения в поколение. Во все времена межнациональное согласие и перемирие становилось важным достоянием народов Центральной Азии.

Воспитание и укрепление толерантности среди студенческой молодежи является одним из важнейших приоритетов и одним из лучших качеств узбекского народа. В нашей стране создана правовая основа для сохранения и развития обычаев и традиций, языка и культуры всех наций и народов.

Статья 8 Конституции Республики Узбекистан гласит, что «народ Узбекистана, независимо от его национальности, является гражданином Республики Узбекистан». Статья 18 Конституции гласит, что «Все граждане имеют одинаковые права и свободы и равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, религии, социального происхождения, убеждений, личности и социального положения». Это свидетельствует о ярком, современном, политико-правовом выражении толерантности многонационального государства Узбекистан.

«Декларация принципов терпимости» была принята 16-ноября 1995 года на 28-сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО). И с этого дня эта дата отмечается во всем мире как «Международный день толерантности». Эта декларация служит обеспечению мира и согласия во всем мире, гарантирует приоритет прав и свобод человека, развитию отношений равноправия и взаимного сотрудничества. В нашей стране, независимо от национальности и вероисповедания, молодые люди и студенты разных конфессий дружно учатся и творят, и эффективно работают на благо развития нашего общества.

В 2018 году 12-декабря на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН по инициативе Президента нашей страны Шавката Миромоновича Мирзиёева была принята специальная резолюция под названием «Просвещение и религиозная толерантность». В её основе лежало предложение Президента, направленное на обеспечение терпимости и свободы вероисповедания для всех жителей планеты, ликвидация безграмотности и искоренение невежества. Оно поддерживает международные усилия по продвижению прав человека, уважению религиозной свободы и убеждений, поощрению терпимости и мира и содействию глобальному диалогу. Глобальный мир требует, чтобы все нации и народы объединились вокруг идеалов толерантности и гуманизма. Это наглядно показано на примере различных конфликтов, споров, происходящих в мире. В этом отношении значение студенческого союза и солидарности, безусловно, возрастает.

На данном мероприятии Президент подчеркнул также, что толерантность является неотъемлемой частью духовности и культуры узбекского народа. Сегодня в Новом Узбекистане, как и в любой сфере, ведется конкретная практическая работа по дальнейшему укреплению дружеских связей между различными национальностями и народами, проживающими в нашей стране, утверждению принципов веротерпимости. В то же время эти аспекты находят свое отражение и в реформах, проводимых во всех сферах в нашей стране. В частности, тот факт, что пятое направление Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах посвящено вопросу обеспечения веротерпимости и межнационального согласия, свидетельствует о том, что Президент и правительство нашей страны уделяет большое внимание общечеловеческим задачам, определенным в международных декларациях.

Мировоззрение толерантности у человека формируется и развивается, прежде всего, в семье, а также в дошкольных учреждениях, школах, лицеях, высших учебных заведениях. Для того чтобы человек глубоко понимал многообразие мира, природы, культур, религий, а вместе с тем и народов, и чтобы все они были достойны уважения, в первую очередь он должен уметь познать свою Родину, ее народ, его язык, религию, вековых традиций и культурной самобытности.Только тогда человек сможет правильно оценить, уважать и ценить другие народы, религии, национальности, культуры. Проводимая работа по обеспечению общественного согласия и солидарности между представителями разных народов, наций и религиозных конфессий в нашей стране, разумные реформы и практические меры по поддержанию мира и стабильности, деятельность национально-культурных центров, родной язык, история нации, уместно информировать студентов и молодежь о проводимой ими широкомасштабной работе по изучению их ценностей и культуры.

Представители разных национальностей, называющие Узбекистан своей Родиной и самоотверженно трудящиеся для ее развития, гордятся расцветом своих культурных ценностей. Многонациональность и поликультурность – наше вечное духовное богатство. Сегодня 60 процентов населения нашей страны составляют молодые люди в возрасте до 30 лет. Неслучайно это исследование проводится среди студентов и молодежи. Потому что именно молодежь будет передавать наше богатое духовное наследие и традиции следующему поколению.

По мнению С.Отамуратова, ученого, занимаюшегося проблемами молодежи, «Сегодня, в условиях глобализации, защита нации становится глобальной проблемой. Потому что этот процесс увеличивает риск присоединения народов (наций) «малых» и «менее развитых стран» к большим и развитым странам и народам (нациям), проживающим в них. В таких условиях наличие собственного государства будет иметь важное значение для защиты стран от этой опасности».

Вопреки мнению аналитиков о том, что процессы глобализации ведут к интеграции наций и в конечном итоге к исчезновению национальности, положение нации не изменилось кардинальным образом даже в XXI веке. Быть нацией остается самой важной законной ценностью в политической жизни нашего времени. Пока нация существует, она испытывает потребность в развитии своей культуры и удовлетворении своих культурных потребностей. Безусловно, культурное развитие и удовлетворение культурных потребностей является одним из условий общественного развития. Сегодня национальный вопрос имеет особое значение не только во внутренней и внешней политике государства, но и во всех сферах жизни общества.

Сегодня в области исследований национальной политики и закрепления межнациональных отношений, в изучении вопросов, связанных с их научным анализом и теоретико-методологичекими основами имеет особое значение научные исследования таких современных философов, политиков, педагогов, культурологов и историков как И.Муминов, Э.Юсупов, К.Хоназаров, И.Эргашев, С.Отамурадов, А.Очилдиев, Н.Маманазаров, С.Сафаев, В.Кучкоров, А.Пулатов, А.Аскаров, И.Жабборов.

В настоящее время в нашей стране издаются множество книг о развитии межэтнических отношений, печатаются монографии современных исследователей. Но особенности новой этнополитической парадигмы, отсутствие научных исследований по воспитанию студенческой молодежи и молодежи в духе межнационального диалога требуют активизации исследований в этом направлении.

Используемая литература:

1. Отамуратов С. Глобализация и национально-духовная безопасность. – Ташкент: «Узбекистан», 2013. – Б. 77.

2. Валетова Г.В. Формирование культуры международного общения и толерантности будущих специалистов сельского хозяйства: учеб.-метод. пособие для студ. и специалистов сельского хозяйства [Текст]/ Г.В. Валетова, - Работа: Изд-во ИГПИ им. П.П. Ершова, 2008. - 124 с.

3. Карабоев У.Х. Традиционное народное искусство: проблемы возрождения. - Ташкент: «Фан», 1991.

4. Кучкоров В. Национальное самосознание и общественно-политические процессы. - Ташкент: «Академия», 2007.

5. Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису о важнейших приоритетных задачах развития нашей страны в 2019 году. Халк сузи, 29 декабря 2018

КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД В ПОДГОТОВКЕ МУЗЫКАНТА

Халилова Махфуза Махамаджоновна
Старший преподаватель кафедры «Музыкальное образование»
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: в статье рассматривается комплексный подход в подготовке музыканта.
Ключевые слова: музыка, педагогика, преподавание, музыкальный инструмент, подготовка.

AN INTEGRATED APPROACH IN PREPARING A MUSICIAN

Khalilova Mahfuza Makhamajonovna
Senior Lecturer at the Department of Music Education
Chirchik State Pedagogical University

Darhaqiqat, mustahkam va sifatli zamonaviy ta’lim — bu barqaror iqtisodiy o’sish, fan, texnika va texnologiyalarning rivoji, ijtimoiy xizmatlar sifatini ta’minlashning garovi bo’lib kelgan. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta’limga davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratish kundan-kun kuchayib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sohani rivojlantirish davlatimiz siyosatining bosh maqsadi sifatida qaralmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilayotgan ekan, bunday islohotlar zamirida rivojlanayotgan ta’limning oldiga ham muhim vazifalarni yuklash taabiiy albatda. Bu borada pedagog olim M.M.Xolmuxammedov o’zining “Professional ta’lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish” mavzusidagi maqolasida: “Tizim o’z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo’sha oladigan o’rta bo’g’in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o’z hayot farovonligini ta’minlashga o’rgatish, o’z mehnat faoliyatiga innovatsion va keriativ yondashish, yaratuvchanlik, intelektual, ma’naviy potensialni rivojlantirish kabi vazifalarni qo’yadi”,-deb yozadi. Pedagog olim M.M.Xolmuxammedov tomonidan ilgari surilgan yuqoridagi vazifalarga tayangan xolda, ta’lim tizimining asosiy maqsadlarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, bugungi Yangi O’zbekiston sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifalari mazmunan boyib borishi, ijtimoiy vazifalarining takomillashib borishi taabiiy xolatdir. Ana shunday ijtimoiy vazifalardan biri, ta’limda raqamli texnologiyalarni qo’llash va ulardan foydalanish bo’yicha o’quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishning barcha komponentlarini o’zida mujassamlashtiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish, bugungi axborot asrida tizimining bosh maqsadini tashkil etmog’i zarur. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari va davlatimiz rahbarining farmon va qarorlari qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Respublikamiz oliy ta`lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadi qo'yilgan bo'lib, unda raqamli texnologiyalarning ta`lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta`limda raqamli texnologiyalarni

joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi. Yurtimizdagi nufuzli xususiy o'quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta`limni yo'lga qo'ymoqda. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta`lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Ta`lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta`limni "raqamlashtirish" muammolari, uning shakllanishiga ta`siri bo'yicha birorbir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir [2]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta`sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma`ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya`ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e`tiborga olib, raqamli rivojlanish bo'yicha barcha soha rahbarlarining o'rinbosarlari lavozim tarkibiga kiritilmoqda [3]. Raqamlashtirish yo'nalishi bo'yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda "tajovuzkor", ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo'llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta`limini rivojlantirish bo'yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta`lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo`llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi. Demak, raqamli ta'limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko`taradi;
- vaqt va mablag` sarfini keskin kamaytiradi;
-"raqamli dunyo"da yo`qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo`lishgi kabilar.

Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o`stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o`z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo'l kelsa, katta hajmli ma'lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

TALABALARNING KO‘P TANLOV JAVOBLI TESTLAR YORDAMIDA YARIM ADDITIV FUNKSIONALLARGA OID TUSHUNCHALARI HAQIDAGI BILIMLARINI BAHOLASH

Qurbanov Hamidjon Xujaniyozovich
TAQU, “Raqamli texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
qhamid_83@mail.ru

Pedagogik o‘lchovning asosiy maqsadi qiziqtirayotgan bilim darajasini ifodalovchi miqdoriy ekvivalentga ega bo‘lishdan iborat. Bu jihatdan pedagogik test eng haqqoniy o‘lchov usuli hisoblanadi. Bilimlarni o‘lchash va baholash o‘quv jarayonining hamma tomonlari uchun eng muhim muammolardan biri sifatida baho berish muammosi zamonaviy ta’limning eng muhim nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi talabalar bilimini aniqlash va uning sifatiga baho berishning maqsad va vazifalari bilan bog‘liq [3] .

Baho - o‘quv jarayonini boshqarish va unda sodir bo‘ladigan chetlanish va kamchiliklarning oldini olishga asos bo‘ladigan ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

B.T.Ananaev so‘zi bilan aytganda pedagogik baho o‘quvchiga uning bilimi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manba hisoblanadi. Pedagogik baho juda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan o‘lcham obyektning haddan tashqari murakkabligi va xilma-xilligi tufayli bilim sifatini miqdoriy o‘lcham va sifatigi baho berish juda qiyin va yetarli darajada tadqiq qilinmagan muammo hisoblanadi [2].

Pedagogik adabiyotda talabalar bilimini o‘lchash va baholash uchun turli usullar mavjud bo‘lib, ko‘p tanlov javobli test topshiriqlari natijalarini baholash usuli B.Toshpo‘latov, A.Normatov, O.Mavlonov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$x = \frac{2c - \sum_{i=1}^{n}(a_i + b_i)}{2c} \cdot D \text{ [1].}$$

Bu formuladagi x-talaba bilim sifatini ballar asosida ifodalangan miqdoriy ko‘rsatkichi, n-testdagi topshiriqlar soni, C-test bo‘yicha jami to‘g‘ri javoblar soni, a_i-talaba i-topshiriqda noto‘g‘ri ko‘satgan javoblari soni va b_i-talaba i-topshiriqda ko‘rsata olmagan to‘g‘ri javoblari soni, D-talaba olishi mumkin bo‘lgan eng yuqori ballni ifodalaydi. Formula to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni teng 1:1 nisbatda bo‘lgan topshiriqlar uchun mo‘ljallangan. Formula $c_1 = \sum_{i=1}^{n} a_i$, $c_2 = \sum_{i=1}^{n} b_i$ bo‘lishiga asoslangan.

Faqat to‘g‘ri javoblarni shakllantirish uchun zarur tushunchalardan iborat bo‘lgan rasmlarni o‘qish va ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni quyidagi formula orqali baholash mumkin: [4]

$$x = \frac{c - \sum_{i=1}^{n} b_i}{c} \cdot D$$

Xatolar soni bo‘yicha baholash ko‘p tanlov javobli test topshiriqlardan tuzilgan testlar uchun mo‘ljallangan.

1. $A: C[-1,1] \to C[-1,1],\ (Af)(x) = \int_{-1}^{1} xyf(y)dy$ operator yadrosini toping.

A) $KerA = \{f : f(x) = const\}$ B) $KerA = \{f : f(x) = \alpha + \beta x\}$

C) $KerA = \{f: \int_{-1}^{1} yf(y)dy = 0\}$ D) $KerA = \{f: \int_{-1}^{1} xf(x)dx = 0\}$

2. Noto‘g‘ri tasdiqni toping.

A) Agar A chiziqli operator bo‘lsa, A^{-1} ham chiziqli operator bo‘ladi.

B) Agar $A \in L(X,Y)$ bo‘lsa, u holda $A^{-1} \in L(Y,X)$ bo‘ladi.

C) Agar $A \in L(X)$ bo‘lsa, u holda $A^{-1} \in L(Y)$ bo‘ladi.

D) Agar $A \in L(X,Y)$ bo‘lsa, u holda $A^{*} \in L(Y^{*}, X^{*})$ bo‘ladi.

3. A operator chiziqli bo‘lishini ta’minlaydigan shartlarni ajrating:

A) $A(x+y) = Ax + Ay$ B) $A(\alpha x) = \alpha Ax$

C) $A(\alpha x) = \overline{\alpha} Ax$ D) $A(x-y) = Ax - Ay$

4. Chiziqli bo‘lmagan $A: C[a,b] \to C[a,b]$ operatorni toping.

A) $(Af)(x) = f'(x+1)$ B) $(Af)(x) = f(x)$

C) $(Af)(x) = 0$ D) $(Af)(x) = f(x)+1$

5. Quyidagilar ichidan A chiziqli chegaralangan operator normasini hisoblash formulalarini ajrating:

A) $\|A\| = \sup_{\|x\|=1} \|Ax\|,$ B) $\|A\| = \sup_{x \neq 0} \frac{\|Ax\|}{\|x\|},$

C) $\|A\| = \inf_{\|x\|=1} \|Ax\|.$ D) $\|A\| = \inf_{\|x\|=1} \frac{\|Ax\|.}{\|x\|}$

6. Quyidagilar ichidan to‘g‘ri tasdiqlarni ajrating:

A) Operatorlarni qo‘shish kommutativ.

B) Operatorlarni ko‘paytirish kommutativ.

C) Operatorlarni ko‘paytirish assotsiativ.

D) Operatorlarni bo‘lish kommutativ

7. Quyidagilar ichidan to‘g‘rilarini ajrating:

A) $\|A+B\| \le \|A\| + \|B\|,$ B) $\|A \cdot B\| \le \|A\| \cdot \|B\|,$

C) $\|A \cdot B\| = \|A\| \cdot \|B\|,$ D) $\|A \backslash B\| = \|A\| \backslash \|B\|$

8. $C[-1,1]$ fazoda normasi 1 bo‘lgan operatorlarni ko‘rsating.

A) $(Af)(x) = xf(x)$ B) $(Bf)(x) = f(x)$

C) $(Cf)(x) = 0.$ D) $(Af)(x) = f(x)$

Ushbu test bo‘yicha to‘g‘ri javoblar soni c=16 bo‘ladi. Talabaning test topshiriqlariga javobi quyidagicha bo‘lgan deb faraz qilaylik: 1. B,C; 2. B,C; 3.B,C; 4. A,D; 5. B,C; 6. A,C; 7. D,C; 8. B,D. U holda Talaba yozgan javoblarni to‘g‘ri javoblar bilan solishtirganimizda quyidagi hol kuzatiladi.

Savollar tartibi	1	2	3	4	5	6	7	8	Jami
Noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblar	C	-	C	-	C	-	D,C	D	6
Ko‘rsatilmagan to‘g‘ri javoblar	A	-	A	-	A	-	AB	A	6

Demak, noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblar va aniqlanmagan to‘g‘ri javoblar soni bir xil, ya’ni 8 ga teng bo‘ladi. Talabaning javobi bo‘yicha topshiriqda noto‘g‘ri ko‘satgan javoblari –a va topshiriqda ko‘rsata olmagan to‘g‘ri javoblari soni - b bo‘lib, ya’ni umumiy xatolar soni a+b=12 ga teng bo‘ladi. Talabaning javobini 100 ballik sistema asosida formula bo‘yicha baholaymiz. U holda talaba

$$x = \frac{32-(6+6)}{32} \cdot 100 = \frac{2000}{32} = 62{,}5 \text{ ball to‘plagan bo‘ladi.}$$

Formula bo‘yicha $c - \sum_{i=1}^{n} a_i$ yoki $c - \sum_{i=1}^{n} b_i$ bo‘lganidan testdagi to‘g‘ri javoblar soni 2 ga ko‘paytirilgan. Demak, Talabaning yuqorida keltirilgan test topshiriqlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bilimi 62,5 ballga teng bo‘ladi. Bu esa talabaning tushunchasi qoniqarli darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyot

1. B.Toshpo‘latov, A.Normatov, O.Mavlonov. Ko‘p javobli test savollari bo‘yicha to‘plangan ballarni hisoblash formulasi. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlarida fizika – matematika fanlarini o‘qitishni takomillashtirish istiqbollari . Respublika ilmiy- amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. –T.: 75-78 b. 2000 y.
2. Ананьев Б.Г. Психология педагогической оценки. Избранные психологические труды. В 2-х томах, Т.2. М.: «Педагогика», 1980.128-268 стр.
3. Аванесов В.С. Формы тестовых заданий. М.: 1991. 1-33 стр.
4. Mavlonov O.M., Matyaqubova Z.N. Mustaqil bilim olish va bilimni baholashning ko‘p axborotli test uslubi. T.: Universitet. 1995.-56 b.

ANIQMAS INTEGRAL VA UNING XOSSASI. ASOSIY FORMULALAR JADVALI

Gayipov Mansur Yangibayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada “Integral. Boshlangich funksiya. Anikmas integral va uning xossasi. Asosiy formulalar jadvali ” “Bumerang” texnologiyasi yordamida o`qitish usuli yoritilgan. Bumerang texnologiyasi turli mazmun va harakaterga (muommoli,munozarali, turli mazmunli)ega bo`lgan mavzularni o`rganishda qulay bo`lib, o`z ichiga og`zaki va yozma ish shaklilarini qamrab oladi, hamda bir mashg`ulot davomida har bir mashg`ulot davomida har bir ishtirokchininfg turli topshiriqlarni bajarishi navbat bilan talaba yoki o`qituvchi rolida bo`lishi, kerakli ballni to`plashiga imkon beradi. Talabalarni mashg`ulot jarayonida darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o`rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so`zlab berish fikrini aniq bayon eta olish hamda bir dars davomida talabalarni baholay olishga qaratilgan.

**Kalit so`zlar:** Integral, boshlang`ich funksiya, aniqmas integral, dars, talaba, o`qituvchi, mavzu, baholash, guruh, o`quv material.

Abstract: In the article "Integral. Initial function. Anikmas integral and its property. The table of basic formulas” The method of teaching with the help of "Boomerang" technology is explained. Boomerang technology is convenient for learning topics with different content and movement (problematic, controversial, different content) and includes oral and written forms of work. and during one session, during each session, each participant performs different tasks, alternately in the role of a student or a teacher, and allows him to collect the necessary points. During the training, students are

directed to work with various literatures and texts outside of class, to keep the learned material in mind, to be able to express their thoughts clearly, and to be able to evaluate students during one lesson.

1. Boshlangich funksiya. Aniqmas integral va uning xossasi.

y-f(x) funksmya (a, v) integralda berilgan bulsin.

F(x) esa shu oralikdadifferensiallanuvchi funksmya bulsin.

1-Ta'rif. Agar F(x) funksiyaning xosilasi F`(x) berilgan f(x) funksiyaga teng bo`lsa, F` ( x ) = f ( x ) yoki d F(x)=f(x) dx bo`lsa, u holda F(x) funksiya f(x) funksiyaning boshlang`ich funksiyasi deb ataladi.

Misolllar: 1. $F(x) = x^2$ bo`lsin. Bu funksiyaning boshlangich funksiyasi

$\overline{F(x)} = \frac{1}{3}x^3 + c$ bo`ladi.

2. f (x) = cosx bo`lsin. Bu funksiyaning boshlang`ich funksiyasi F(x) = Sinx bo`ladi, chunki $F`(x) = (sinx)` = cosx = f(x)$

Agar f(x) funksiya (a, b) da uzluksiz bo`lsa, u holda bu funksiya shu oraliqda boshlang`ich funksiyaga ega bo`ladi. f(x) funksiya ( a, b ) da berilgan bo`lib, u shu oraliqda ikkita F(x) va F(x) boshlang`ich funksiyalariga ega bo`lsin.

Ta'rifga binoan $F`(x) = f(x)$ , $F`(x) = f(x)$ bo`ladi.

Demak, $F`(x) = f(x)$ , u holda yuqorida keltirilgan natijaga ko`ra F(x) va F(x) funksiyalar bir-biridan o`zgarmas songa farq qiladi.

f(x)=F(x)+C (C -const)

Demak, berilgan f(x) funksiyaning boshlang`ich funksiyalari cheksiz ko`p bo`lib, ular bir-biridan o`zgarmas songa farq qiladi. Agar F(x) funksiya f(x) funksiyaning boshlang`ich funksiya bo`lsa, unda f(x) ning istalgan funksiyasi

F(x) +C (C-const) ko`rinishda bo`ladi.

2-ta'rif: Agar F(x) funksiya f(x) funksiyaning boshlangich funksiyasi bulsa, u xolda F(x) +C ifoda f(x) funksiyaning anikmas integrali deyiladi va ∫f(x) dx kabi belgilanib,

∫f(x)dx=F(x)+C, (C-c'nst) ko`rinishda yoziladi.

Bu yerda f(x) – integral ostidagi funksiya

F(x) dx – integral ostidagi ifoda

∫ - integral belgisi

x – integralning uzgaruvchisi

f(x) – oshlangich funksiyasini topish amali funksiyani integrallash deyiladi .

Aniqmas integralning xossalari.

1. Aniqmas integralning hosilasi integral ostidagi funksiyaga tengdir

(∫f(x) dx) = f(x)

2. Aniqmas integralning differensiali integral ostidagi ifodaga tengdir:

d∫f(x) dx = f(x) dx

1va2 xossalar aniqmas integral ta'rifidan kelib chikadi.

3. Funksiya differensialining aniqmas integrali u funksiyadagi ixtiyoriy o`zgarmasni qo`shilganiga tengdir ∫ d[F(x)] = F(x) + C

Isbot: ∫d[F(x)] = ∫ F'(x) dx + C

4. O`zgarmas ko`paytuvchini integral belgisi oldiga chiqarish mumkin, ya'ni ∫ a f (x) dx = a ∫ f(x) dx

Isbot: integral ta'rifiga asosan

$[\int a\, f(x)\, dx\,]' = a\, f(x)$

Ikkinchi tomondan $[a \int f(x)dx]' = a[\int f(x)\, dx\,]' = af(x)$

Shunday qilib $\int af(x)\, dx = a\int f(x)dx$

5. Bir nechta funksiyaning algebraik yig`indisidan olingan aniqmas integral shu funksiyalardan olingan integrallarning algebraik yig`indisiga teng, ya'ni

$\int [f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)]\, dx = \int f_1(x)\, dx - \int f_2(x)\, dx - \int f_3(x)\, dx$

Isbot : ta'rifga asosan

$(\int[f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)\,]\, dx)' = f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)$

Ikkinchi tomondan $(\int[f_1(x)dx + \int f_2(x)dx - \int f_3(x)dx' =$

$= (\int f_1(x)\, dx)' + (\int f_2(x)\, dx)' - (\int f_3(x)\, dx)' = f_1(x) + f_2(x) - f_3(x)$

Natija. X o`zgaruvchidan boshqa u o`zgaruvchiga o`tilganda integral ko`rinishi o`zgarmaydi, ya'ni

$\int f(x)\, dx = F(x)+C$

$\int f(u)du = F(u) + C$

Integrallash usullari.

1. Bevosita integrallash usuli.
2. Differensial belgisi ostiga kiritish usuli.

$x = \varphi(u)$, $dx = \varphi'(u)\, du$ deb olsak

$\int f(x)\, dx = \int f[\,\varphi(u)\,]\, \varphi' du$ buladi

Bunday usul o`zgaruvchini almashtirish usuli deb ataladi. Sodda xollarda integral belgisi ostidagi differensial ifodani kuyida kursatilganidek:

$dx = (1/a)\, d(ax + b)$; $2xdx = d(x^2)$ $Cosx\, dx = d(Sinx)$ $dx/x = d\,(lnx)$

va shunga o`xshash almashtirib va kavslar ichidagi ifodalarni u deb faraz qilish asosida yangi o`zgaruvchi u ni kiritish amalini ko`ngilda bajarish tavsiya qilinadi.

Bu usul bilan integrallash bevosita integrallash deyiladi.

1-misol: $\int \frac{dx}{1+9x^2} = \frac{1}{3}\int \frac{d(1+(3x)^2}{1+(3x)^2} = \frac{1}{3} arctg3x + c$

Bo`laklab integrallash.

Bu usul ikki funksiyaning ko`paytmasini differensiallash formulasidan kelib chiqadi. Faraz qilaylik, u(x) va v(x) –x ning differensiallanuvchi funksiyalari bo`lsin. Bu funksiyalar ko`paytmasining differensialini topamiz:

$d(u\, v) = v\, d\, u + u\, d\, bv$

bundan $udv = d(u\, v) - vdu$

Oxirgi tenglikning ikkala qismini integrallab, quyidagini topamiz:

$\int udv = \int d(uv) - \int vdu$ yoki $\int udv = uv - \int vdu$

Bu formula bo`laklab integrallash formulasi deyiladi.

Ushbu I $\int x^m Sinx\, dx$; $\int x^m Cosx\, dx$; $\int x^m e^x\, dx$

Tipidagi integrallar uchun $x^m = u$

qolgan ko`paytuvchilar $= dv$ belgilash qulaydir

II $\int x^m \ln x\, dx$; $\int x^m arccsinx\, dx$; $\int x^m arccosx\, dx$;

$\int x^m arctgx\, dx$; $\int x^m arcctgx\, dx$;

tipidagi integrallar uchun

transsendent ko`paytuvchi = u
qolgan kupaytuvchilar = dv deb } belgilash qulaydir.
III. $\int e^{ax} \sin bx\, dx$; $\int e^{ax} \cos bx\, dx$
Tipidagi integrallar uchun
$e^{ax} = u$
kolgan kupaytuvchilar = dv } deb olish kulaydir.
lnx = u du = dx/x
Misol: $\int \ln x\, dx =$
dx = dv v=x
Xulosa

$$= x\ln x - \int x \bullet (1/x)\, dx = x\ln x - \int dx = x\ln x - x + C$$

Demak, integrallashni bo`laklab ishlash mumkin. Integrallashning usullari bevosita integrallash usuli va differensial belgisi ostiga kiritish usullari mavjud. Aniqmas integrallash jadvali asosida misollar bajariladi.

Adabiyotlar:

1. Кутлимуротов, А. Р., Усмонов, Б. З., & Дармонова, А. (2021). РЕШЕНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ЗАДАЧ МЕТОДОМ КОМПЛЕКСНЫХ ЧИСЕЛ. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 2181-1385.
2. Махмудова, Д. М., Дармонова, А., & Санақулов, У. М. (2021). КОМПЛЕКС СОНЛАР МАВЗУЛАРИНИ ЎҚИТИШДА МУАММОЛИ ВАЗИЯТЛАРНИ ЯРАТИШ. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 21-26.

MAPLE TIZIMIDA GRAFIKLAR BILAN ISHLASH

Abdullayev Sherali Abduqodir o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Algebra va matematik analiz" kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: sheraliabdullayev1995@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Maple tizimida oshkor, parametrik, oshkormas ko'rinishda berilgan bir va ikki o'zgaruvchili funksiyalarning grafiklari o'rganilgan. f(x) oshkor funksiyani Ox o'qining kesmasida va Oy o'qining kesmasida grafigini chizish uchun plot(f(x),x=a..b, y=c..d, parametrs) komandasi ishlatilgan, bu yerda parametrs-tasvirni boshqarish uchun ishlatiladigan parametrlar ko`rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Plot komandasi yordamida y=f(x) funksiya parametrik ko'rinishda x=x(t),y=y(t) berilsa ham grafigini chizish mumkin: plot([y=y(t),x=x(t),t=a..b], parametrs).

KIRISH

Maple-bu kompyuterda analitik va sonli hisoblashlarni bajaruvchi, 2000 dan ko'proq komandalarni o'z ichiga olgan va algebra, geometriya, matematik analiz, differensial tenglamalar, diskret matematika, fizika, statistika, matematik fizika masalalarini dastur tuzmasdan yechish imkoniyatini beruvchi matematik tizim (sistema)-paketdir. Aytish mumkinki, Maple bu yuqorida sanab o'tilgan sohalardigi matematik masalalarni yechib beruvchi katta kalkulyatordir. Maple yadrosidan Mathematika, MATLAB, Mathcad va boshqa tizimlar simvolli hisoblarni amalga oshirishda foydalanmoqdalar. Marle tizimini Kanadaning Waterloo Marle Inc firmasi yaratgan va u uzoq davom etgan rivojlanish va sinovdan o'tish

davrini bosib o‘tgan. Albatta, Maple tizimi hali juda qudratli emas, u ayrim sohalarda boshqalar kabi oqsamoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

I. Maple da grafiklar yasash.

N	Komandalar	Grafigi chiziladigan funksiya
1	plot(f(x),x=a..b, y=c..d, parametrs)	f(x),x=a..b, y=c..d
2	plot([y=y(t),x=x(t),t=a..b], parametrs)	y=y(t),x=x(t),t=a..b
3	implicitplot(F(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2)	F(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2
4	implicitplot(F(x,y)=0,G(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2)	F(x,y)=0,G(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2)
5	inequals({f1(x,y)>c1,…,fn(x,y)>cn}, x=x1…x2, y=y1..y2, options).	f1(x,y)>c1,…,fn(x,y)>cn
6	plot3d(f(x,y), x=x1…x2, y=y1…y2, options)	f(x,y), x=x1…x2, y=y1…y2
7	plot3d([x(u,v), y(u,v), z(u,v)], u=u1..u2, v=v1..v2)	x(u,v), y(u,v), z(u,v), u=u1..u2, v=v1..v2
8	implicitplot3d(F(x,y,z)=c, x=x1..x2, y=y1..y2, z=z1..z2);	F(x,y,z)=c, x=x1..x2, y=y1..y2, z=z1..z2

1-jadval: Maple da grafiklarning komandalari.

II. Ikki o‘lchovli grafiklar

Maple da oshkor, parametrik, oshkormas ko‘rinishda berilgan bir va ikki o‘zgaruvchili funksiyalarning grafiklari nihoyatda chiroyli chizish mumkin. f(x) oshkorfunksiyani Ox o‘qining kesmasida va Ou o‘qining kesmasida grafigini chizish uchun plot(f(x),x=a..b, y=c..d, parametrs) komandasi ishlatiladi, bu yerda parametrs-tasvirni boshqarish uchun ishlatiladigan parametrlar. Ular quyidagilardan iborat:

№	parametr	ma’nosi
1	title=”text”	Tasvirga nom berish, nom lotincha bo‘lsa probelsiz
2	coords=polar	Qutb koordinatlariga o‘tish, yozilmasa dekart k.s.
3	axes=NORMAL axes=BOXED axes=FRAME axes=NONE	-oddiy o‘qlar \\ Koordinata o‘qlarini berish -shkalali o‘qlar -o‘qlarning boshi quyi chap burchakda -o‘qlar yo‘q
4	asaling=CONSTRINED asaling=UNCONSTRINED	-o‘qlarga bir xil masshtab berish - o‘qlar masshtabi oyna o‘lchamiga mos
5	style=LINE style=POINT	-chiziqlar bilan chiqarish -nuqtalar bilan chivarish
6	numpoints=n (n=49 berilmasa)	-hisoblanadigan nuqtalar soni
7	color=rang nomi (yellow,...)	-chiziqlarga rang berish
8	xticmarks=nx, yticmarks=ny	Ox va Ou o‘qlarda nuqtalar sonini berish
9	thickness=n, n=1,2,…	-chiziq qalinligini berish
10	linestyle=n (n=1-uzluksiz)	-chiziq tipini berish, uzluksiz, punktir
11	symbol=s (BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND)	- nuqtani beradigan simvol tipini berish

2-jadval: Plot komandasi yordamida y=f(x) funksiya parametrik ko‘rinishda x=x(t),y=y(t) berilsa ham grafigini chizish mumkin:

plot([y=y(t),x=x(t),t=a..b], parametrs).

III. Oshkormas ko‘rinishda berilgan funksiya grafigini chizish

oshkormas ko‘rinishda berilgan funksiya grafigini chizish uchun plots paketidan impliciplot komandasi ishlatiladi:

>implicitplot(F(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2).

IV. Tasvirga komentariylar berish

plots paketida textplot([xo,yo,’text’], options) komandasi yordamida tasvirda

xo,yo koordinatali nuqtadan boshlab ’text’ komentariysini chiqariladi.

V. Bitta tasvirda bir necha grafikni chiqarish

Ba’zan bitta grafikda bir necha grafik ob’ektlarni joylashtirish zarur bo‘ladi. Masalan:

> e:={x^2+y^2-10=0,x*y^3-y-4=0}:

with(plots):implicitplot(e,x=-10..10,y=-10..10);

Bunday grafiklar chizish tenglamalar sistemasini yechishda kerak bo‘ladi.

Yana plot komandasi bilan chizilgan grafikka textplot komandasi bilan yaratilgan yozuvni qo‘shish kerak bo‘lsin. U holda komandalarning natijalari o‘zgruvchilarga beriladi, so‘ng plots paketining komandasi display orqali ekranga chiqariladi:

>p:=plot(…): t:=textplot(…):

> with(plots): display([p,t], options);

VI. Tengsizliklar bilan berilgan sohani chizish

tenshsizliklar bilan berilgan sohani chizish uchun plots paketidan inequal komandasini ishlatish kerak:

inequals({f1(x,y)>c1,…,fn(x,y)>cn}, x=x1…x2, y=y1..y2, options).

– optionsfeasible=(color=red) – ichki sohaga rang berish;

– optionsexcluded=(color=yellow) – tashqi sohaga rang berish;

– optionsopen(color=blue, thickness=2) – sohaning ochiq chegarasini chizig‘i uchun rang va chiziq qalinligini berish;

--optionsclosed(color=green,thickness=3) – sohaning yopiq chegarasini chizig‘i uchun rang va chiziq qalinligini berish;

VII. Sirtni chizish.Oshkor ko‘rinishda berilgan sirtni chizish

z=f(x,y) oshkor ko‘rinishda berilgan sirtni chizish uchun plot3d(f(x,y), x=x1…x2, y=y1…y2, options) komandasi ishlatiladi. Parametrlarning ma’nolari quyidagicha:

№	Parametr nomi	Ma’nosi
1	x=x1…x2, y=y1…y2	grafik chizilayotgan soha
2	light=[angl1, angl2, c1, c2, c3]	(angl1, angl2)-nuqtaning sferik koordinatalari, bu nuqtadan ranglari (c1, c2, c3) ga teng bo‘lgan yorug‘lik nuri tovlanadi
3	style=opt	chizmaning stilini beradi, POINT –nuqta uchun, LINE – chiziq uchun, HIDDEN – chiziqlari o‘chirilgan to‘r uchun, PATCH – to‘ldiruvchi, WIREFRAME – chiziqlari ko‘rinmas to‘rni chiqarish, CONTOUR – Sirtning o‘zgarmas qiymatlari sohasi, PATCHCONTOUR –to‘ldiruvchi va Sirtning o‘zgarmas qiymatlari sohasini berish.
4	shading=opt	to‘ldiruvchining intensivlik funksiyasini beradi, uning qiymati odatda xyz ga teng
5	NONE	bo‘yalmagan sirtni berish

3-jadval: Sirtni chizish.Oshkor ko‘rinishda berilgan sirtni chizish

VIII. Parametrli ko‘rinishda berilgan sirtni chizish

Parametrli x=x(u,v), y=y(u,v), z=z(u,v) ko‘rinishda berilgan sirtni chizish uchun quyidagi komanda mavjud:

plot3d([x(u,v), y(u,v), z(u,v)], u=u1..u2, v=v1..v2);

IX. Oshkormas ko‘rinishda berilgan sirtni chizish

Oshkormas F(x,y,z)=c ko‘rinishda berilgan sirtni chizish uchun plot paketiga qarashli quyidagi komanda mavjud:

implicitplot3d(F(x,y,z)=c, x=x1..x2, y=y1..y2, z=z1..z2);

X. Fazoviy chiziqlarni chizish


Fazoviy x=x(t), y-y(t), z-z(t), t1<= t<=t2, chiziqlarni chizish uchun plot paketiga qarashli quyidagi komanda mavjud:

> spacecurve([x(t),y(t),z(t)],t=t1..t2);

TAHLILLAR VA NATIJALAR

1. funksiya grafigini chizing.


```
> plot(1+cos(x), x=0..2*Pi,
title="Cardioida",
coords=polar, color=coral, thickness=2);
```



1-funksiyani grafik qismi.

2. funksiya grafigini chizing..

```
> plot([ln(3*x-1), 3*x/2-ln(2)], x=0..6,
scaling=CONSTRAINED,
color=[violet,gold],
linestyle=[1,2], thickness=[3,2]);
```



2-funksiyani grafik qismi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дьяконов В.П. Maple 6: учебный курс. СПб.: Питер, 2001.

2. Дьяконов В.П. Математическая система Maple V R3/R4/R5. М.: Солон, 1998.

3. Манзон Б.М. Maple V Power Edition. М.: Филинъ, 1998.

4. Говорухин В.Н., Цибулин В.Г. Введение в Maple V. Математический пакет для всех. М.: Мир, 1997.

5. Прохоров Г.В., Леденев М.А., Колбеев В.В. Пакет символьных вычислений Maple V. М.: Петит, 1997.

“MATHCAD” DASTURI YORDAMIDA FUNKSIYALARNING UCH O‘LCHAMLI GRAFIGINI QURISH

Abdullayev Sherali Abduqodir o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Temirova Momagul Erkinovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Matematika va informatika fakulteti talabasi

Ta`limda yillar davomida yangiliklar takomillashib bormoqda. Insonlar qadimda matematikani hisoblay oladigan va grafiklarini chiza oladigan dasturlar haqida tasavvurga ham ega bo‘lishmagan. Ushbu dasturlar ichida eng ommalashgan dastur bu MathCAD dasturi hisoblanadi. Bugungi kunda rus va ingliz tillarini mukammal bilgan har bir insonlar hech qanday qiyinchiliklarsiz MathCAD dasturidan foydalana oladilar. Ushbu dastur bizga matematikaning barcha sohalaridagi misollarni ishlash bilan birga turli xil murakkab grafiklarni ham chiza olish va tasavvur qila olish imkonini beradi. Ushbu dasturda geometrik shakllarni har tomondan qurish mumkin. Bu esa harbiy kadrlarning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi [1].

MathCad dasturi yordamida funksiyalarning uch o‘lchamli grafigini qurish uchun quyidagi protseduralarni bajarish kerak.

1.Ikki o‘zgaruvchili funksiya nomini keyin (:=) yuborish operatori va funksiya ifodasini kiritish.

2.Grafik qurish kerak bo‘lgan joyga kursor qo‘yiladi.

3.Matematik panelining ***График*** panelidan ***График поверхности.***

(uch o‘lchamli grafik) tugmasi bosiladi. Shu joyda uch o‘lchamli grafik shabloni paydo bo‘ladi.

Shablon maydonidan tashqarisida sichqoncha bosiladi va grafik quriladi.

Ikki o‘zgaruvchili funksiya bo‘yicha grafik sirtini qurishning boshqa usul ham mavjud va u ayrim hollarda funksiya sirtini tuzishda funksiya massiv sonli qiymatlarini ishlatadi, masalan, 2-rasm chap tomon. Bunday grafikni qurish uchun quyidagi protseduralarni bajarish kerak [2]:

diskret o‘zgaruvchilar yordamida ikki funksiyaning o‘zgaruvchisi uchun ham qiymatlarini kiritish.


massiv kiritish, uning elementlari funksiya qiymatlari bo‘lib, ular berilgan funksiya argumentlari qiymatlaridan tashkil etiladi.

kursor qaysi joyga grafik qurish kerak bo‘lsa shu joyga qo‘yiladi.


grafik shabloniga funksiya nomini kiritish.

shablon maydonidan tashqarisida sichqoncha bosiladi va grafik quriladi.

Grafik formatini qayta o‘zgartirish va unga ranglar berish uchun grafik maydonini ikki marta tez-tez sichqonchani ko‘rsatib bosish va ochilgan muloqot oynasidan kerakli o‘zgarishlarni qilish kerak. Agar grafikni uning xossalaridan foydalanib o‘zgartirmoqchi bo‘lsak kontekst menyudan ***Свойства***… bo‘limidan foydalanamiz. Bu o‘zgartirishlar muloqot oynasi rasmda ko‘rsatilgan [1, 2].




1-rasm



2-rasm

Natijada ***Свойства компонента*** nomli darcha ochiladi.



3-rasm. MathCad dasturi *«Свойства компонента»*

Rasmda:

График поверхности–garfik sirti;


Линии уровня – grafik chizig‘i darajasi;

Точки данных – grafikda faqat hisob nuqtalarini tasvirlash;

Векторное поле – vektor maydoni grafigi;

Столбчатая диаграмм – uch o‘lchovli grafik gistogrammasi;

Лоскутный график – hisob qiymatlari maydoni.



4-rasm. MathCad dasturida grafik formatini o‘zgartirish oynasi

Bulardan tashqari yana bir qancha boshqarish elementlari mavjud. Ular grafikni formatlashda keng imkoniyatni beradi. Masalan, grafik masshtabini o‘zgartirish, grafikni aylantirish, grafikga animatsiya berish va boshqa.


Grafikni boshqarishning boshqa usullari quyidagilar:

Grafikni aylantirish uni ko‘rsatib sichqoncha o`ng tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi [2].

Grafikni masshtablashtirish Ctrl tugmasini bosib sichqoncha orqali bajariladi.

Grafikga animatsiya berish Shift tugmasini bosish bilan sichqoncha orqali amalga oshiriladi.

Grafik formatini qayta o‘zgartirish va unga ranglar berish uchun grafik maydonini ikki marta tez-tez sichqonchani ko‘rsatib bosish va ochilgan muloqot oynasidan kerakli o‘zgarishlarni qilish kerak. Bu o‘zgartirishlar muloqot oynasi rasmda berilgan [3].



5-rasm. Uch o‘zgaruvchili funksiya grafigini qurish

Xulosa. Mathcad dasturidan foydalanish ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish matematika va informatika fanlarining asosiy komponentalaridan biridir. Harbiy sohada kadrlarni o‘qitishda murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtirish orqali matematikani o‘rganishda asabiy siqilishni oldini oladi hamda uni qiziqarli va juda oddiy jarayonga aylantiradi. Mathcad dasturi yordamida funksiyalarning uch o`lchamli grafigini qurish kursanlarning fazoviy tasavvurini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.В.Алябева, Э.П.Борматова, М.В.Данилова, Э.Э.Семенова. MATHCAD для студентов. Петрозаводский государственный университет.

2. John's Tutorial on Everyday Mathcad (Version 14 June 2010), Math Cad User’s Gude, USA Cambridge, 2006 7-32, 33-54, 97-107

3. Aripov M.M., Muhammadiev J.O’. Informatika, informastion texnologiyalar: OO’Yu talabalari uchun darslik. -T.: Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasining bosmaxonasi, 2004.-276 b.

4. Nguyen M.A. MathCAD Professional Tutorial-Colorado State University 2013-312p.

5. Banker Hans. Practical Use of MathCAD; Solving mathematical problems with a computer algebra system. Translated by Anthony Rudd.-springer 1999-505p.

6. Solodov A.U.Ochkov V.N. Differential models: An Introduction with MathCAD. springer 2012-324p.

7. http://matematika88888.blogspot.com/2009/07/MathCAD.html

8. http://www.MathCAD.org/cms/

BOLALAR BOG'CHASIDA BOLA TILINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

Adilbaeva G.E.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili xalq boyligining bitmas-tuganmas merosi, kelajak avlodning ma’naviy ozuqasi, ta’lim-tarbiya tayanchidir. Ma’lumki, bunday xalq boyligini egallash ona tarbiyasidan boshlanadi. Til o'rgatish maktabgacha ta'limning asosi haqida aytilgan.

Kalit so’zlar: ona tili, bola, nutq, ijod, maktabgacha, tarbiyachi, lug’at, gap, til.

Ona tili xalq boyligining bitmas-tuganmas merosi, kelajak avlodning ma’naviy ozuqasi, ta’lim-tarbiya tayanchidir. Ma’lumki, bunday xalq boyligini egallash ona tarbiyasidan boshlanadi. Til o'rgatish maktabgacha ta'limning asosidir. Chunki bolaning so‘z boyligining mustahkamlanishi uning bilish qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Bola o'z ona tilida gapirishni o'rganadi, tabiat mo"jizalarini tan oladi va qabul qiladi. U so'zlar orqali ko'rgan va bilgan boshqalar bilan muloqot qiladi. Buning o'zi uning bilimi kengayib, kundalik hayot haqidagi taassurotlari mustahkamlanadi.

Til bola shaxsini shakllantirish, uning mustaqil harakatlarini rivojlantirish, tafakkurini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirishning eng muhim vositasidir.

Respublikamiz suvereniteti to‘g‘risidagi deklaratsiyada xalqimizning til madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzini rivojlantirish, milliy qadr-qimmatimizni mustahkamlash eng muhim vazifalardan biri ekanligi alohida ta’kidlangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda 7 xil vazifa qo'yilgan.

1. So‘z boyligini rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagi odamlar bilan muloqotda atrof-muhitga qarab asosiy so'zlardan foydalanadilar. Ayniqsa, atrof-muhit.

2. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish.

Lug'at tilning tarkibiy materialidir. Grammatika - gapdagi so'zlarning o'zgarishini shakllantiradi. Shu bilan birga, u tilning konstruktiv modelini belgilaydi.

Bola atrofidagi odamlardan grammatik jihatdan to'g'ri gaplarni eshitadi, ular orqali u tildagi so'zlarning qolipini o'rganadi. O'qituvchi o'qitish orqali bolaning nutq qobiliyatini hayotdan o'rgatadi. Shu bilan birga, bolalarga yangi so'zlar o'rgatiladi, ular grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzishga va gapirishga o'rgatiladi.

3. Tilning tovush madaniyatini tarbiyalash.

Bola tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi kerak. Gapdagi tovushlarning to`g`riligi bilan ishlashda tarbiyachi fonetika va orfografiya qonunlariga tayanadi.

Bola o'z ona tilida gapira olishi va gaplardagi urg'uni ajrata olishi kerak. Bolani bir-biri bilan gaplashganda xushmuomala va tartibli bo'lishga o'rgatish juda muhimdir. Bunga quyidagilar kiradi: salomlashish, gaplashayotgan odamga iliq ko'zlar bilan e'tibor berish, jamoat joylarida o'zini qanday tutishni bilish. Bolani xushmuomalalik bilan gapirishga o'rgatish kerak.

4. Suhbat shaklida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

Bu bolaning tinglash va tushunish, suhbatlarda ishtirok etish, savollarga javob berish va savol berish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bundan bolaning qancha grammatik so‘zlarni to‘g‘ri aytganini, lug‘at boyligi

qanchalik kengayganligini aniqlash mumkin. Suhbat davomida bola o'zini xushmuomalalik bilan tuta olishi kerak.

5. Hikoyani aytib berish orqali gapirishni o'rganish - monolog shaklida.

Bolaning maktabga borganida ko'rganlari va bilganlari haqida gapirishlari juda muhimdir. Maktabda bu qobiliyatni qanday mustahkamlash mumkin. Bolaning nutqidan gap yoki so'z bilan gapira oladimi yoki yo'qmi, so'zlarning mazmuni va lug'atni qanchalik yaxshi o'zlashtirganligini aniqlaymiz. Biz bolalarga og'zaki hikoyalarni tanlashni o'rgatamiz va keyin ularni takrorlaymiz.

Shu bilan birga, biz suhbat va ijodiy faoliyatni yaratamiz. Bolaning bu faoliyati bog'cha ta'tillarida kattalar oldida gapirish yoki boshqa guruhlar oldida gapirish qobiliyatini oshiradi.

6. Badiiy adabiyotga kirish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar adabiyotining eng sara asarlari o‘qiladi va guruhlarga bo‘linadi.

O'qituvchi bolalarni badiiy asarni tinglashga va tushunishga, asardagi qahramonlarni tasvirlashga o'rgatadi. Bolalar yod olgan she’rning mazmunini tushunib, ma’noda gapira olishlari kerak. Ularning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuzatish, kitob ichidagi rang-barang rasmlarga qarash, kitobdan puxta va to‘g‘ri foydalanishni kuzatish muhimdir.

7. Bolalarni savodxonlikka tayyorlash. Bolalar bog'chasida tilni rivojlantirish ishlari bolani maktabga tayyorlaydi, bola yaxshi gapira olishi va boshqa odamlarni tinglashi kerak. Yaxshi tayyorlangan bola quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

1) O'qituvchining aytganlarini tinglang.

2) O‘z fikr va mulohazalarini grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar bilan yetkazish, to‘g‘ri gapira olish. Bu fazilatlar maktabgacha tarbiya guruhida yoki kattalar guruhida shakllanadi. Bu vaqtda bolalar 2-4 so'zdan gaplar tuzib, gapira oladilar. Bu 7 ta vazifa bolalarning tilini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Yana shuni aytishimiz mumkinki, har bir ishning o‘quv-tarbiyaviy tomoni bor, aqliy tarbiya rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar tizimi:

1. М.Қ.Бапаева. Даму психологиясы. – Алматы, 2014.
2. Ж.Қ.Дүйсенова, Қ.Н.Нығметова. Балалар психологиясы. – Алматы, 2012.
3. С.Н.Цейтлин. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. – Москва, 2000.
4. А.А. Леонтьев. Слово в речевой деятельности. –Москва, 2006.
5. Ж.Аймауытов. Бес томдық шығармалар жинағы. 4 том. - Алматы, 1998.
6. Ташпулатович, Қ. Н., & Рустемов, А. Т. (2023). ТОЛЕРАНТЛИК ТУШУНЧАСИ КЕЛИБ ЧИҚИШИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Conferencea*, 64-66.
7. Rustemov, A. T. (2022). XALQ OGZAKI IJODI HAQIDA BIROR SOZ. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 1(1), 159-160.
8. Rustemov, A. T. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA FOLKLOR. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 1(1), 157-158.
9. Rustemov, A. T. (2022). Methodology of Education of Children in Preschool Educational Institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 12, 3-4.

BOLALARNING KOGNITİV KONAKLIKLARINI DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Adilbaeva G.E.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning bilish organlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kognitiv-ijodiy o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.Kognitiv va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda o'quvchilarning atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabati uchun zarur bo'lgan oddiy bilish va tadqiqot ko'nikmalarini egallash ko'rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: kelajak, bola, kognitiv, ijod, maktabgacha, didaktik.

Bola bizning kelajagimiz bo'lsa, bolaning kelajagi bizning qo'limizda. Shuning uchun ham bog‘chada yosh avlodni har tomonlama barkamol va bilimli qilib tarbiyalash maqsadida zamon talablari asosida bilim tushunchasiga nazar tashlab, uning ishlanmalaridan kundalik faoliyat jarayonida foydalanilmoqda. Bolalarning bilish organlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kognitiv-ijodiy o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.Kognitiv va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda o'quvchilarning atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabati uchun zarur bo'lgan oddiy bilish va tadqiqot ko'nikmalarini egallash ko'rib chiqiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit, tabiat bilan tanishtirishda kognitiv va ijodiy o'yinlar juda muhim rol o'ynaydi. Kognitiv-ijodiy o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim organlarini (eshitish, ko'rish, fikrlash, gapirish), shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ajralmas o'yindir. O`quv-ijodiy o`yinlarni ixtiro qilish va ulardan o`quv faoliyatida unumli foydalanish tarbiyachining mahoratiga bog`liq. Shuning uchun men o‘z amaliyotimda ko‘pincha o‘quv va ijodiy o‘yinlardan foydalanaman: ko‘pincha maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish uchun o‘quv o‘yinlaridan foydalaniladi. O'quv o'yinlari barchamizga ma'lum bo'lgan kognitiv organlarni rivojlantirish, atrof-muhit va atrofdagi dunyo bilan tanishtirish uchun maqsadli qo'llaniladi. O'quv ijodiy o'yinlar bolalarga atrof-muhitdagi o'zgarishlarni, tabiat hodisalarini va ularning qanday ko'rinishini, qiziqishlarini unutmasliklari uchun idrok etish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o'ynaladigan birinchi o'yin ajoyib ajoyibotga o'xshaydi. Chunki o‘sha paytdagi bolalar yangi dunyoni, birinchi marta ko‘rgan narsalarni hech qachon unutmaydilar. Didaktik o'yinlardan muloqot qobiliyatlarini shakllantiradigan xatti-harakatlar qoidalari va normalarini o'rnatish vositasi sifatida foydalanish, kuzatish va e'tiborni rivojlantiruvchi o'yinlar, ob'ektlarning belgilarini tanishtirish uchun topishmoqlar, xotirani rivojlantirish uchun o'yinlar, guruh tadbirkorligini rivojlantirish, mantiqiy o'yinlar, va boshqalar. Shuning uchun didaktik o'yin bolalarning atrof-muhit haqidagi tushunchalarini kengaytiradi, bolani o'yinga o'rgatadi, aqliy faoliyatini shakllantiradi, axloqiy tarbiya vositasidir. Bu bolalarning izlanuvchanligini oshiradi, so‘z boyligini kengaytiradi, o‘qish va o‘rganishga qiziqishini oshiradi. Bolalarning fikrlash va xotirasini yaxshilaydi va til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Umuman olganda, kognitiv o'yinlarga kelsak, kognitiv o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda katta yordam beradi. O'quv o'yinlari ko'pincha atrof-muhitni tanishtirish uchun ishlatiladi. O'quv o'yinlari atrofdagi dunyoni tan olish, bilish, idrok etish va idrok etishdan boshlanadi. Ularning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, atrof-muhitdan xabardorlik

shunchalik yuqori bo'ladi. “Tan, ismini qo‘y”, “Ajoyib gullar”, “Aqlli bo‘lsang, bahs yo‘q”, “Kim tez?”. bunday turli intellektual o‘yinlar bolaning tasavvurini rivojlantiradi, ularning imkoniyatlarini ochadi,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Жарықбаев А «Жалпы психология» А 2014

2 «Бала мен балабақша «журналы №5 2019 (3)

3 Зулкарнаев А.Т «Тәрбие мен білім» Республикалық педагогикалық журнал №1 (қаңтар-наурыз) 2015ж

4 Баймуханова Г «Бала мен балабақша»

MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANITISH USULLARI VA TURLARI

Adilbaeva G.E.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiat bilan tanishtirish usullari Pedagogikada metod kattalar va bolaning birgalikdagi harakat vositasi sifatida qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida tabiat bilan tanishish jarayonida turli xil usullar vizual (kuzatish, rasmlarni ko'rish, filmlar yoki videolarni ko'rsatish), amaliy (o'yin usuli, ish, oddiy tajribalar), lug'at (o'qituvchining hikoyasi, adabiy asarlarni o'qish, suhbat). haqida aytilgan.

Kalit so’zlar: tabiat, bola, kuzatish, ijod, maktabgacha, monitoring, vizual.

Tabiat bilan tanishtirish usullari Pedagogikada metod kattalar va bolaning birgalikdagi harakat vositasi sifatida qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida tabiat bilan tanishish jarayonida turli xil usullar vizual (kuzatish, rasmlarni ko'rish, filmlar yoki videolarni ko'rsatish), amaliy (o'yin usuli, ish, oddiy tajribalar), lug'at (o'qituvchining hikoyasi, adabiy asarlarni o'qish, suhbat). Vizual usul Kuzatish - bu muhitdagi hodisa va narsalarni maqsadli idrok etish. Bu sezgi, fikrlash va nutqni o'z ichiga olgan va doimiy e'tiborni talab qiladigan murakkab kognitiv faoliyatdir. Tabiatda kuzatishni tashkil qilishda tarbiyachi ko'plab vazifalarni hal qilishi mumkin: u bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini shakllantiradi, kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Monitoringning ikki turi mavjud - qisqa muddatli va uzoq muddatli. Qisqa muddatli kuzatish - ob'ekt yoki hodisaning sifati va xususiyatlari to'g'risida bilimlarni shakllantiradi, bolalar zarrachaning shakli, rangi, o'lchami, kosmosdagi joylashishi, uning sirtining xarakteri, hayvonlar bilan tanishishda - ularning harakat xususiyatlari, ular chiqaradigan tovushlar va boshqalar. Murakkab kuzatish - uzoq kuzatish, bolalar oldin sodir bo'lgan hodisani solishtirish va hokazo. Monitoring alohida belgilarda ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan: qozondagi gulning tuprog‘i orqali suv quyib quyish kerakligini aniqlash, akvariumdagi baliqlarning xatti-harakatiga ko‘ra suvni o‘zgartirish yoki yaxlit rasm hosil qilish (qordagi izlardan kim chiqqanini aniqlash, suvni to‘kish yoki yo‘qligini aniqlash) berryning rangi bo'yicha pishgan yoki etmagan). Ushbu kuzatish bolalarga hodisalarni tahlil qilish, individual ma'lumotlarni solishtirish va oddiy tushunchalarni yaratish ko'nikmalarini o'rgatadi. Kuzatish bolalarni o'simlik va hayvonlar, ob-havo, kattalarning tabiatdagi

mehnati bilan tanishtirganda tashkil etiladi. Kuzatish darsda, ekskursiyada, sayrda, tabiat burchagida, tabiatda amalga oshiriladi. Kuzatish barcha bolalar bilan umumiy yoki yarim guruh, bir nechta bolalar bilan tashkil etilishi mumkin. Bu nazorat mazmuniga va pedagogning o‘z oldiga qo‘ygan vazifasiga bog‘liq. Lekin har qanday holatda ham bolaning kuzatish faolligi yuqori darajada bo‘lishi, uni fikrlashga, savollarga javob izlashga, xohish-istaklarini rivojlantirishga, tabiatga qiziqish va mehrli munosabatda bo‘lishga tarbiyalash zarur. . Nazoratga tayyorgarlik. Kuzatishga tayyorgarlik o'qituvchi uchun ob'ekt tanlashdan boshlanadi. Tanlangan hayvon yoki o'simlik yaxshi holatda bo'lishi kerak. Agar guruhda bo'lsa, unda nazorat qilinadigan ob'ektning joylashishini to'g'ri aniqlash yaxshiroqdir, u barcha bolalarga ko'rinadigan bo'lishi kerak. Nazorat bo'yicha ko'rsatma. Kuzatishdan oldin, ayniqsa, agar u birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, siz bolalarga topshiriq va savollar berishga shoshilmasligingiz kerak. Bolalarga 1-2 daqiqa davomida ob'ektga mustaqil qarashga imkon berish yaxshidir. Bolalarning ko‘rgan narsalari haqidagi ilk taassurotlarini, ularning xohish-istaklarini qanoatlantirgandan keyingina tarbiyachi turli usullardan (savollar, topishmoqlar, predmetlarni o‘rganish, taqqoslash, o‘yin va mehnat faoliyati) foydalanadi. Ko‘rganlarini bolalarga tushunib yetishlari uchun tushuntiradi. suhbatlar. Qiziqish, hissiy bog'lanish, narsalarni estetik idrok etishni ta'minlash uchun o'qituvchilar o'rta guruh bolalari uchun she'rlarning qisqa shakllaridan foydalanishlari va hatto kattalar guruhlarida kuzatish oxirida adabiy asarlarni o'qishlari mumkin. Nazorat ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak. Hayvonni tomosha qilganda, tarbiyachi birinchi navbatda bolaning diqqatini uning xatti-harakatiga qaratadi: "U nima qiladi? Qanday harakat qiladi? Nima yeydi?" Qanaqasiga?". Keyin borib, tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi: "Uning tanasi nima bilan qoplangan?" Oyoqlar uzunmi, uzunmi yoki qisqami? Ko'zlar qanday (shakli, rangi)?" O'simlikka qarash - u gul, barg yoki hatto poya - uning eng ko'zga ko'ringan xususiyatidan boshlanadi. Keyin uning tashqi tuzilishining asosiy xususiyatlari: gul, o'simlik, poyaning kattaligi va hajmi asta-sekin aniqlanadi. Bunday izchillik zarur, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tibori beixtiyor va unchalik qattiq emas. Faqat oxirida, nazorat paytida o'z tushunchangizni tartibga solish yaxshiroqdir. Bu izchillikdan doimo foydalanish yaxshidir, chunki bolalar o'z fikrlarini ifoda etishlari osonroq. Bolani tabiat bilan tanishtirganda, har bir kuzatish muayyan kichik vazifani hal qiladi. Shuning uchun tarbiyachi kuzatishni o`tkazayotganda oldingi kuzatish bilan bog`lanishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim va malaka talablari:

• Bolalarni ona tabiatini sevishga, uning go‘zalligini chuqur his etishga tarbiyalash.

• Bog‘chada tabiat to‘g‘risida oddiy bilimlar berish va shular asosida tirik va o‘lik tabiat hodisalari haqida aniq umumiy tushunchalarni shakllantirish. • Qiziqarli kechinmalarda ishtirok etgan holda bolalarning o‘z mehnati natijalarini ko‘rish istagini oshirish.

• bolalarni muzeyga olib borish, hududimiz tabiati haqidagi tushunchalarini kengaytirish, bolalarning tabiatga qiziqishini uyg‘otish.

Foydalanilgan adabiyotlar tizimi:

1. Көбеева Н «Бала және табиғат» Алматы 2007 ж.
2. Құлмағамбетов Т. «Табиғат тануды оқыту әдістемесі» Алматы 2008 ж.
3. Керімбаева Р «Табиғат. Бала. Тәрбие» Отбасы және балабақша. 1997. №3.
90-yillarning o‘rtalarida raqamlashtirishning birinchi to‘lqini kompyuter savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, maktablar va universitetlarda birinchi kompyuter sinflarining paydo bo‘lishini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda, 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab, ular o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish haqida gapira boshladilar - raqamli qurilmalar va formatlar nafaqat informatika darslarida qo‘llanila boshlandi.

Uchinchi – zamonaviy bosqichda, taxminan, 2019-yildan boshlab, biz raqamli transformatsiya – ta’limning barcha jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish haqida bormoqda.

Ta'limning raqamli transformatsiyasi jarayonida hamma narsa yangilanadi:

rejalashtirilgan ta'lim natijalari va ta'lim mazmuni - zero, insonlar hayotda raqamli kompetensiyalarga qanchalik ko‘p ehtiyoj sezsa bo‘ladi (masalan, davlat organlari bilan deyarli barcha o‘zaro aloqalar endilikda elektron “Yagona darcha” orqali, banklar bilan esa raqamli ilovalar orqali amalga oshiriladi; ko‘pchilikning ishi endi raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas). Bu esa maktabda bolalarni raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish muhimligini anglatadi;

pedagogik usullar va o‘qitish texnologiyalari, chunki raqamli muhitdagi darslar an'anaviy sinf sinflaridan ko‘p jihatdan farq qiladi (hatto raqamli didaktika tushunchasi paydo bo‘ldi);

ta'lim ishlarini tashkil etish, uning uchun vositalar (texnik vositalar) va bu jarayonni boshqarish.

Keling, butun dunyoda ta'limga yondashuvlarni bunday keng ko‘lamli qayta loyihalash nima uchun zarur bo‘lib qolganini, shuningdek, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga harakat qilaylik.

Nima uchun raqamli texnologiyalar ta'limga joriy etilmoqda

Ko‘pgina ekspertlar bizning asrimizda ta'limni raqamlashtirishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi degan fikrga qo‘shiladilar. Raqamli Internet muhiti hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, ko‘plab jarayonlarni osonlashtirgani uchun.

Biz boshqa dunyoda yashashni boshladik! Raqamli endi kelajak emas, balki muqarrar haqiqat va unga alternativa yo‘q, shuning uchun universitetlarni qayta qurish va raqamli etuklikka erishish kerak. Ta'limning kunduzgi formati o‘zgartirilmoqda, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi masofaviy aloqaning ba'zi elementlari abadiy qoladi.

Muntazam jarayonlarni avtomatlashtirishga, sinf darslari va uy vazifalarini diversifikatsiya qilishga yordam beruvchi raqamli yechimlar va vositalar. Boshqacha qilib aytganda, raqamli vositalardan foydalanish moda masalasi emas, balki shoshilinch zaruratdir.

XV asrda matbaa ixtirosi ta’lim sohasiga ta’sir qilganidek (bundan oldin qo‘lda yozilgan kitoblarning qimmatligi tufayli jonli ma’ruzalar bilim olish va tarqatishning eng keng tarqalgan usuli edi), ta’lim va raqamli texnologiyalar ham o‘zgarmoqda. Va o‘sha paytda yangi imkoniyatlar va yangi vositalar paydo bo‘lishi haqida bo‘lgani kabi, hozir ham shunday.

Bir paytlar odamlar faqat qo‘lda yozishgan, keyin yozuv mashinkalari, keyin matnli dasturlarga ega kompyuterlar paydo bo‘ldi. Bir vaqtlar uzoq masofada joylashgan boshqa odam bilan faqat harflar orqali biror narsani muhokama qilish mumkin edi, keyin telegraf va telefon paydo bo‘ldi, keyin esa ko‘p imkoniyatlarga ega Internet.

Bularning barchasi asosan sanoat inqiloblari konsepsiyasiga mos keladi. Birinchi sanoat inqilobi bug‘ dvigatelining ixtiro qilinishi bilan sodir bo‘ldi, bu ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va temir yo‘l transportini rivojlantirishga turtki bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida 18-asr oxirida zavod va fabrikalarning tez o‘sishiga olib keldi.

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida ikkinchi sanoat inqilobining texnik sababi elektr energiyasi va ichki yonuv dvigatelining ixtirosi edi. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari paydo bo‘ldi, telegraf va telefon,

avtomobillar, chekka hududlardagi odamlar tezda xabar almashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, shaharlar o‘rtasidagi harakat tezlashdi.

Nihoyat, raqamli texnologiyalar paydo bo‘lgan va elektronika, telekommunikatsiya va shaxsiy kompyuterlarning tarqalishi boshlangan yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi odatda uchinchi sanoat inqilobi deb ataladi[2].

Internetning rivojlanishi yangi sanoat inqilobining boshlanishi - to‘rtinchisi deb ishoniladi. Sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar, kengaytirilgan reallik, narsalar interneti va boshqalarga asoslangan texnologiyalar rivojlanishi kutilmoqda.

Bu inqiloblarning barchasi u yoki bu darajada ta’lim jarayonlariga ta’sir qildi. Agar sodir bo‘lgan texnologik o‘zgarishlarga qaramay, maktab va universitetlarda darslar hali ham kerosin lampalari ostida o‘tkazilsa va talabalar siyohga botirilgan qalam bilan yozishsa, juda g‘alati bo‘lar edi. Xuddi shunday, endi raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan voz kechish ham g‘ayritabiiy bo‘lar edi.

Maktab va universitet qanchalik konservativ bo‘lmasin, jamiyatga mos kelishi kerak. Maktab bitiruvchisi va ayniqsa, universitet bitiruvchisi zamonaviy dunyoda hayotga tayyor bo‘lishi kerak, chunki raqamli texnologiyalar endi hayot va faoliyatning barcha sohalarida mustahkam o‘rnashib oldi[3].

Boshqa tomondan, boshlang‘ich maktabda (va hatto bolalar bog‘chasida) o‘quvchilar allaqachon raqamli texnologiyalar bilan tanish. “Raqamli aborigen” va oldingi avlodlar o‘rtasidagi farqlar, umuman olganda, juda bo‘rttirilgan bo‘lsa ham (masalan, butun dunyo bo‘ylab universitet talabalari hali ham elektron kitoblardan ko‘ra qog‘oz kitoblarni afzal ko‘rishadi), haqiqat shundaki, har bir yangi avlod tobora ko‘proq raqamli muhit bilimiga singib bormoqda. Ta'lim tizimlari esa allaqachon talabalarning kundalik odatlariga moslashishi kerak, zero bu odatlarning aksariyati raqamli.

Ammo ta’limni raqamlashtirish elektron vositalar butun ta’lim muhitini, ayniqsa, o‘qituvchilarni almashtiradi, degani emas. Tadqiqot natijalari bunga qarshi dalolat beradi - o‘rganish oflayn va qisman onlayn rejimda o‘tkaziladigan formatlar, qoida tariqasida, to‘liq masofaviy ta'limdan ham, zamonaviy raqamli vositalardan butunlay voz kechishdan ko‘ra samaraliroqdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sifatli ta'lim doimo o‘qituvchi va kursdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarning jonli tajribasini o‘z ichiga oladi - ham hech qanday fikr-mulohazasiz onlayn kurs va zerikarli ma'ruzadan keyin hech kim savol bermaydi.

Raqamlashtirish ta’limda qanday foyda keltirishi mumkin?

Bugungi kunda ta’limda raqamli texnologiyalarning samaradorligi kamida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tasdiqlangan:

Boshqa barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham raqamlashtirish tashkiliy vazifalarni soddalashtiradi. Maktabning elektron kundaligida ma'lumotlarni yozib olish va uzatish (masalan, o‘qituvchidan talabaning ota-onasiga va aksincha) qulayroqdir va universitetlar uchun zamonaviy vositalar minglab talabalarning har biri uchun individual jadval yaratishga imkon beradi (shuningdek, uning shaxsiy tanlovini ham hisobga oling).

Raqamlashtirish maktab o‘quvchilari va talabalar uchun ta’limni yanada qulay qiladi. Shunday qilib, gibrid o‘qitish imkoniyatlari, ba'zi talabalar o‘qituvchi bilan sinfda bo‘lsa va ba'zilari uydan masofadan bog‘langanda, maktab o‘quvchilari va talabalarga jismoniy jihatdan qatnasha olmaganlarida (masalan, kasallik tufayli) darslarni qoldirmaslikka imkon beradi. Raqamli texnologiyalar odatiy sinf formati bilan bir qatorda qo‘llanilganda aralash ta’lim imkoniyati o‘rganishni individuallashtirishga yordam beradi: ko‘proq qobiliyatli o‘quvchilarga murakkabroq mavzular va mashg‘ulotlar beriladi, zaif o‘quvchilarga esa ular uchun eng qiyin mavzular ustida ishlashga yordam beradi. . To‘liq onlayn dasturlar bilan siz jismoniy jihatdan istalgan joydan o‘rganishingiz va imtihon topshirishingiz mumkin.

Onlayn odatdagi formatga qaraganda ancha kengroq ta'lim mazmuniga kirish imkonini beradi. Dunyoning yetakchi universitetlarining ommaviy kurslarini o‘tkazadigan yirik onlayn platformalar (Coursera va boshqa shunga o‘xshash loyihalar) dunyoning istalgan burchagidan kelgan odamga, masalan, Garvard yoki Moskva davlat universitetidan ma'ruzalarni tinglash imkonini beradi. Bunday platformalar paydo bo‘lgunga qadar faqat tegishli universitetlar talabalari bunday imkoniyatga ega edi, lekin hamma ham u yerga o‘qishga kirish imkoniga ega emas. Hozirgi kunda turli universitetlar o‘z dasturlariga boshqa yetakchi universitetlarning tayyor ma'ruza kurslarini kiritishlari mumkin[4].

Internetdagi ta'lim mazmunining xilma-xilligi onlayn kurslar bilan tugamaydi. Mavzu noaniq bo‘lib qolsa, maktab o‘quvchilari uchun ham, talabalar uchun ham boshqa o‘qituvchining tushuntirishini ko‘rish yoki o‘qish, shuningdek, turli mashqlar, masala va misollar yordamida bilimlarni mashq qilish foydalidir. Raqamli echimlar har bir talaba uchun alohida ko‘plab yangi, takrorlanmaydigan vazifalarni yaratishga imkon beradi[5].

Virtual muhit xavfsiz muhitda haqiqiy hayot ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. Agar biror narsani darhol "hayotdagidek" qilish xavfli, imkonsiz yoki juda qimmat bo‘lsa (masalan, siz darhol shifokor talabasini haqiqiy bemor bilan operatsiya stoliga qo‘ya olmaysiz va siz darhol talaba uchuvchini qo‘yolmaysiz. haqiqiy samolyot boshqaruvida), keyin VR texnologiyalari kelishiga yordam beradi.

Raqamli muhitda o‘rganish ma'lumotlarni to‘plash va keyinchalik ta'lim jarayonini yaxshilash uchun ularni tahlil qilish imkonini beradi. O‘rganish analitikasi nafaqat keng ko‘lamli ta'lim tizimlarida boshqaruv vositasi, balki bir nechta sinflar bilan ishlaydigan o‘qituvchi uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Maxsus onlayn test o‘qituvchilarga o‘z sinfidagi qiyinchiliklarini yoki aksincha, ilgari ko‘rmagan muvaffaqiyatlarini ko‘rishga imkon berganiga misollar mavjud. Bu ma'noda texnologiya xolisdir. Va, masalan, oliy ta'limda, katta ma'lumotlar talabalarni haydab chiqarish ehtimolini baholashga yordam beradi va hozirgi abituriyentlarning kelajakda qanday o‘qishini bashorat qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, raqamlashtirish o‘qituvchi va u bilan jonli muloqotda bo‘lgan an'anaviy ta'lim formatini almashtirmaydi. Bu, bir tomondan, an'anaviy formatga muqobil bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uni qo‘llab-quvvatlash, yangi qulay vositalar.

PEDAGOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Bo'riyev Sardor Murotjon o'g'li
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: **Kadirova Xosiyat Nazarovna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: maqolada ta’lim jarayonida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalanish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, konflikt, ta’lim, raqamlashtirish, imkoniyat, yondashuv, ko‘nikma.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026 yilga qadar mamlakatimizda sifqatli ta’lim ko‘rsatkichlariga erishish vazifalari qo‘yilgan [1]. Ta’lim sifatiga erishish uchun bu jarayondagi muammolarni aniqlash va o‘z vaqtida hal etib borish muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ta’lim sifatiga erishishning muhim omillaridan biridir [2]. Bu o‘rinda e’tiboringizni raqamli pedagogik ta’limning pedagogik konfliktlarni bartaraf etishdagi imkoniyatlari masalalasi tahliliga tortamiz.

Pedagogik konfliktlar xususiyatlari. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchilararo va o‘quvchi hamda ota-onalar o‘rtasida muddatli kelishmovchiliklar yoki o‘zaro tushunmovchiliklar muntazam ro‘y berib turadi. Ana shu holat pedagogik konfliktlar sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarning quyidagi xususiyatlarini idrok etish taqoza etiladi:

1) ta’lim jarayoni “tirik organizm” bo‘lganligi uchun pedagogik konfliktlar tabiiy hodisa hisoblanadi;

2) pedagogik konfliktlar ta’lim jarayoniga nafaqat salbiy, ba’zan maxsus tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini paydo qilishi bilan ijobiy xususiyatga ega bo‘ladi;

3) ta’lim jarayonida ro‘y beradigan pedagogik konfliktlar muddatli, uni hal etish mumkinligi va keskinlikdan xoli komponentlarga asoslanadi;

4) pedagogik konfliktlarni turli vositalar yordamida hal etish imkoniyati mavjud.

Pedagogik konfliktlarga xos bo‘lgan bu xususiyatlar ularni hal etish jarayonida turli shakllar va vositalarga asoslanishini taqoza etadi. Shu jihatdan raqamli pedagogik ta’limga asoslangan “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim jarayonidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga egadir.

“Raqamli pedagogika”ning pedagogik konfliktlarni hal etishdagi o‘rni. Raqamli pedagogik ta’lim jarayonida ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar keng imkoniyatlarga ega bo‘lishadi. Chunki kompyuter kabi axborot-kommunikasion texnik vositalarga asoslangan ta’lim ta’lim oluvchilarning qiziqish va layoqatlarini ro‘yobga chiqarishga ustuvor darajada ahamiyat beradi[3]. Shu jihatdan “Raqamli pedagogika”ning pedagogik konfliktlarni hal etishdagi quyidagi imkoniyatlarini ta’kidlab o‘tish joiz:

1) raqamli pedagogik ta’lim axborot-kommunikasion texnik vositalarga tayanganligi uchun uning ta’lim muammolarini hal etishdagi virtual imkoniyati mavjud;

2) raqamli texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar asosan mustaqvil ishlanganligi uchun pedagogik konfliktogenlar ko‘lami kamayadi;

3) raqamli pedagogik ta’lim ta’lim oluvchilarni o‘ziga jalb etuvchanligi bilan ularda o‘zining o‘zligini anglash va mustaqillikka intilish ko‘nikmalarini tarkib toptiradi, bunday ko‘nikmalar pedagogik konfliktlarning paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi;

4) ta’lim oluvchilarning ta’lim beruvchilarga nisbatan munosabatlarida ishonchlilik paydo bo‘lishi raqamli pedagogik ta’limning keng imkoniyati bo‘lib, u pedagogik konfliktogenlarni bartaraf etadi;

5) raqamli pedagogik ta’lim o‘zgalardan yordam olish xususiyatiga ega va shu sababli ta’lim oluvchilar o‘zaro munosabatlarda ijobiylikka amal qilishga intiladi.

“Raqamli pedagogika”ning bunday imkoniyatlaridan foydalangan holda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, raqamlai pedagogik ta’lim ta’lim oluvchiga erkinlik berish xususiyati bilan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ta’lim oluvchining o‘zini faollashtirishga asoslanadi. Buning ma’nosi shuki, konfliktga kirishgan ta’lim oluvchilarning o‘zlari uni bartaraf etish tashabbuskori bo‘ladi.

“Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalanishni tashkil qilish. Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pel\dagogik konfliktlarni bartaraf etishda raqamli pedagogik ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun quyidagilarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) kompyuterli dasturga asoslangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasini ishlab chiqish;

2) masofadan turib pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning kompyuterli texnologiyasini yaratish va joriy etish;

3) oliy pedagogik ta’limning mutaxassislik va tanlov fanlarini pedagogik konfliktlarni “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalangan holda bartaraf etish mavzusi va o‘quv materiallari bilan boyitish;

4) oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli pedagogik ta’lim metodlari asosida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bilan qurollantirish;

5) oliy pedagogik ta’lim muassasalarining “Talabalar akademiyasi” tuzilmasida pedagogik konfliktlarni raqamli pedagogik ta’lim imkoniyatlaridan foydalanib bartaraf etish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Bunday yondashuv ta’lim jarayonida pedagogik konfliktlarni “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydaloangan holda metodik jihatdan to‘ri bartaraf etish imkoniyatlarini beradi.

“Raqamli pedagogika” nisbatan nazariy, metodik va amaliy jihatdan yangi fan sifatida tarkib topayotgan hodisadir. Shu sababli bu jarayonda pedagogik konfliktlar muammosi bo‘yicha ham yondashuvlarning ifodalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, “Raqamli pedagogika” metodologiyasi asosida pedagogik konfliktlar kabi ta’lim muammolarini o‘rganib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli bu borada o‘ziga xos yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish lozim.

Shunday qilib “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalangan holda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish o‘ziga xos yangi yo‘nalishlardan biridir. Mazkur yangi yo‘nalish bo‘yicha ilmiy, metodik va

amaliy ishlanmalarni yaratish taqoza etiladi hamda bu “Raqamli pedagogika”ning *istiqbolli yo‘nalishlaridan* biridir.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Robertson S.A. The teaching of English in schools which study no foreign language. The journal of education. 1907.
3. World economic forum. New vision for education: Unlocking the potential of technology. Vancouver, BC: British Columbia teachers federation, 2015

АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Уринбаева Нафиса Бахтиёт кизи
Студентка факультета Гуманитарных наук

Научный руководитель: **Кадирова Х.Н.**
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: Статья содержит теоретический и практический материал и методический инструментарий, который можно использовать на уроках русского языка и литературы и во внеурочной деятельности.

Ключевые слова: творческое мышление, совокупность методов и приемов, рефлексивная деятельность, технология творческого письма.

Активные методы обучения – совокупность методов и приемов, направленные на развитие у обучающихся творческого мышления и активизирующие познавательную деятельность творческого характера, на тесную связь теории с практикой, развивающую рефлексивную сферу мышления… (Из «Психолого-педагогического словаря»). В современной педагогике применяются разные образовательные технологии, эффективно используемые в разных предметных областях. Некоторые активные методы, которые «помогают» учителю сделать урок творческим, интересным будут представлены в данной статье.

На уроках русского языка и литературы в 5 классе можно использовать метод «Артикуляционные разминки». Цели такой разминки – это и знакомство (или повторение) с новой скороговоркой, прибауткой, небылицей; учимся четко произносить определенные звуки и звукосочетания (как индивидуально, так и коллективно).

Например,

Стоит стопочка на окошечке, ни подъявлена, ни выявлена;

Пошел хват подъявить, подъявил и выявил.

«Рабочие» звуки пара по глухости-звонкости (д)-(т), пара по твердостимягкости (в)-(в*), звонкий (й).

Или,

Летят три пичужки, через три пустых избушки. «Рабочие» звуки (з)-(с), (ш). Можно связать с темой урока «Символика волшебной сказки».

– Как вы думаете, почему мы сегодня работаем именно с этой скороговоркой? Как она связана с темой урока? (В волшебной сказке существует магическое число «три». Многие события происходят по три раза; у героев по три попытки и в скороговорке встречается число «три»).

На уроках литературы в 5 – 7 классах хорошо «работает» метод под названием «Недавно я прочитал…». Цель – побудить к чтению, рассказать, написать о любимых книгах, каждый делится своим « книжным» открытием. Активизирует мыслительную деятельность детей (на любом уроке)

приём «В гостях у Мнемозины» (Мнемозина – в греческой мифологии богиня памяти). Это метод последовательной «долгосрочной» работы над развитием памяти, в котором можно выделить некоторые приемы: визуализация (зрительное представление описанного в тексте), ритмическое скандирование и коллективное проговаривание (от урока к уроку проговариваем что-либо сложное: новые термины, понятия). В технологии формирующего оценивания представлен прием «Верные – неверные утверждения» или «Согласен – не согласен». Можно проводить каждый урок, времени тратится мало, продуктивность высокая, обучающимся интересно работать, оценить свою деятельность на уроке. На уроке литературы в 8 классе после прочтения повести «Бедные люди» Ф.М. Достоевского: приём «Согласен – не согласен»:

1. Произведение «Бедные люди» эпистолярного жанра (да).
2. В произведении прослеживаются гоголевские традиции (да).
3. Ф.М. Достоевский в своём произведении устами героя ведет полемику с повестью Н.В. Гоголя «Шинель» (да).
4. Повесть «Бедные люди» написана о московских нищих кварталах (нет).
5. Главные герои продолжают в литературе тему «маленького человека» (да).
6. Переписка в повести происходит между Варенькой и Быковым (нет).
7. Главный герой повести – человек мечтательный и робкий (да).

Вывешиваются правильные ответы, критерии оценивания, по которым обучающиеся проверяют свои знания и ставят оценки.

На уроках литературы в старших классах целесообразна, с моей точки зрения, технология творческого письма, а это весьма важно для подготовки к написанию сочинения. При изучении романа «Обломов», на одном из уроков «Обломов – главный герой романа: его сущность, характер, судьба» одна из целей: определить воспитывающее значение особенностей характера главного героя в общефилософском контексте. Обращаем внимание на эпиграф, выделяем ключевые слова: «Мне давно совестно жить на свете, все знаю, все понимаю, но силы и воли нет». Отвечаем на вопрос, как вы понимаете эпиграф, объясните? Какую особенность характера вы бы отметили? Запишите в тетрадь. (Отмечают, записывают слово «лень»). Дайте развернутое определение выражению «русская лень». Зачитывают по желанию. Составляем сочинение-коллаж. (Из работ десятиклассников).

Что такое «русская лень».

На мой взгляд, русская лень – нечто большее, чем просто лень – это психологический признак русской ментальности, выработанный за долгие годы эволюции механизма интуитивного распознания бессмысленности выполняемой работы. Ленивые люди не хотят себя развивать, так как им это неинтересно, и они не хотят себя ничем утруждать.

Русская лень – это откладывание каких-либо дел на «потом», она исходит из души русского человека. Но до крайности русский человек не доходит никогда, он знает, когда нужно проявить характер, и не обязательно он лежит и ничего не делает. Хотя нет ничего приятнее, чем лежать, не думая о времени, о заботах, просто находясь с самим собой. Человеку с русской ленью трудно делать какую-либо работу, вкладывать в неё себя, максимально стараясь. Возможно, это происходит из-за того, что он видел « родительскую лень». Лень можно сравнить с плотом, который неспешно плывет по течению и мешает человеку жить, лень – это сладкий сон, это пропасть, из которой не так легко выбраться. Хотя и произносится слово «лень» мягко, даже «размылисто», оно гадкое и липкое.

Но русская лень – это всё-таки национальная черта каждого русского человека, это стереотип, причем зарубежный и исторически сложившийся. А если заглянуть глубже, это барьер мешающий развитию человека как духовно, так и физически. Страшно подумать, что было бы со страной и миром в целом, если бы каждый из нас не боролся с собственной ленью. Возможно, русской лени способствовала и русская природа, которая так и манит своим спокойствием, так и просит остановиться и прилечь с травинкой в зубах, когда солнце прячется за горизонт и лениво обволакивает небо алым закатом, а прохладный ветерок навевает тишину и умиротворение… Лень

может быть и плюсом, ведь ленивый человек не станет выполнять бессмысленную работу. Если ты чего-то не хочешь делать – значит не делай. А вообще в каждом из нас живет Обломов!

Читаем на следующий урок сочинение в классе, обсуждаем и приходим к выводу, что перед нами роман-размышление о русском характере, о России, о судьбе. Один из этапов подготовки к сочинению прошел успешно.

Литература:

1. Петров А.А. (2010) Русский язык и литература. Конференция, 7(8), 19-22.
2. Русский язык и литература, 10-класс, Россия. 2017.
3. Коджаспирова Г.М. Педагогический словарь / Г.М. Коджаспирова, А.Ю. Коджаспиров. – М.: Академия, 2000. – 176 с.
4. Рабочая программа внеурочной деятельности по литературе и историческому краеведению. 5 – 8 классы / Сост. Т.Н. Трунцева. – М.: ВАКО, 2014. – 32 с.
5. Гончаров И.А. Обломов. – М.: АСТ, 2015. – 640 с.

ИСКУССТВО КАК КУЛЬТУРНОЕ ЯДРО В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА

Абдукаххоров Улугбек Хусан ушли
Студент факультета Гуманитарных наук

Научный руководитель: **Кадирова Х.Н.**
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: в статье рассматривается влияние видов искусства на предметные дисциплины в общеобразовательных школах и их незаменимая роль в формирование личности каждого школьника. Также, если исходить что, искусство является одним из сильнейших инструментов, у которого базовое, основное влияния на сознание школьников, открытие в них творческого начала при получении знании, то необходимо будет сконцентрировать искусство в единое ядро и тем самым способствовать тому, чтобы оно имело возможность благотворно влиять на качества получаемых в школе знании.

Ключевые слова: Тема искусства, морально-этический план, кризисное состояние, модернизация, интеллектуальные игры

Цели. Проанализировать и выявить насколько искусство в предметах рисования и музыки может притягивать в целях улучшения качества освоения других предметов. Сли рассматривать искусство как притягательную силу, то насколько оно способствует творческому подходу учащихся к другим дисциплинам.

Методология. Во первых необходимость поднять престиж предметов искусства среди других школьных дисциплин, важнейшая задача для каждого педагога, даже для педагогов других предметов. Для сосредоточения внимания педагогов на предметах искусства, нужно будет использовать методы для необходимого просвещения учителей других дисциплин.

Результаты. Если исходить из современного состояния отношении к дисциплина искусства, то можно с уверенностью констатировать тот факт, что все дисциплины преподаваемые в общеобразовательных школах, не имеют той силы притяжения ы освоении предметов. Пока нет таких дисциплин, которые смогли бы сыграть роль ядра, центра всех обучаемых предметов.

Выводы. Можно будет добиться успехов, только при привлечении всех педагогов интересующихся повышением качества преподаваемых предметов и естественно самих учащихся.

Введение

О развитии творческого потенциала школьников, формирование их духовной культуры в современном мире, писалось и говорилось предостаточно. Но воз, и ныне там. Очевидно настало время не только говорить об усилении эстетического воспитания школьников, но и решительно действовать. Говоря об искусстве как о прекрасном явлению в педагогике и в воспитании в целом, необходимо вспомнить древнегреческого философа,

«Ни искусство, ни мудрость не могут быть достигнуты, если им не учиться," - прекрасно сказал древний Демокрит. Греческий философ живший до нашей эры, даёт верное направление, что в воспитании человека, основным и базовым началом, является – учение, то ест предметам нужно учится. Из этого следует, что без обучения, невозможно достигнуть необходимых результатов.

Гений на все времена Леонардо да Винчи: "И астрономия и другие науки невозможны без деятельности рук, хотя первоначально они и начинаются в мысли, подобно живописи, которая сначала существует в мысли своего созерцателя и без деятельности рук не может достичь своего совершенства",

... наша наука - дело творческое, как искусство, как музыка,,," - заметил великий П.Л.Капица (физик).

Притягательная сила искусства

При освещении темы искусства в средних общеобразовательных школах, появляется необходимость сосредоточения основных принципов педагогики на более широкомасштабном использования единственных по школьной программе дисциплин искусств, коими являются урок изобразительного искусства и урок музыки. Сразу хочу отметить, очень похвально и своевременно, что с 2021 года, во всех общеобразовательных школах Узбекистана, дополнили уроки музыки ещё одним новшеством, об обязательном обучении игре на национальных музыкальных инструментах.

Сейчас, исходя из кризисного состояния нравственности в обществе, наверно появилось необходимость ещё раз вспомнить и проанализировать достижения, проблемы и какое место занимает искусство на данном этапе в средних школах и какие причины тормозят педагогов в достойном воспитании школьников в морально- этическом плане.

Естественно то, что первичное нравственное воспитание дети получают дома, в кругу семьи, при этом основным учителем морали, является мать! Естественно и то, что вторым по ответственности и значимости звеном в нравственном воспитании школьника, является – школа. А второй мамой – классный руководитель!

Если семья, выполняет основную работу в воспитании человека, то школа без перерыва сразу следует за семьёй и продолжает благородное дело родителей, но уже в стенах школы. Хочу заметить, что в воспитании детей, основной силой остаются родители, которые ни в коим случае не должны передать воспитательную часть своего чада только учителям, а бесперебойно должны продолжать вместе с педагогами. Только так, сообща - семья и школа, появится возможность более качественнее воспитать детей, в будущих нравственно и морально выдержанных молодых людей общества.

При этом, роль искусства огромно! Оно в действительности является базовым началом всех направлении идей гуманизма, правил морали и т.д.

На современном этапе преподавания предметов искусства в общеобразовательных школах, само преподавание носит скорее всего второстепенный характер. Такое отношение не только к предметам искусства, но и к педагогам данных дисциплин тоже. Поэтому в общеобразовательных школах Узбекистана необходимо провести модернизацию, по более качественному и справедливому урегулированию дисциплин искусства, которые несомненно являются ключевыми решениями, не только в духовно-нравственном плане, но и в цельном воспитании учащихся.

Не только в общеобразовательных школах, но и во всех учебных заведениях, основным средоточием всех точных наук, для более полного освоения этих предметов, должно являться именно – искусство. Именно оно, как магнит, должно собрать вокруг себя представителей предметов школьных программ, и своим благородным началом вдохновлять и педагогов и учащихся к более плодотворному взаимодействию между предметами, для выявления и

воспитания творческого, креативного подхода, не только по задачам предметов школьных программ, но и при решении проблем в различных жизненных ситуациях.

Следует отметить, что и в древней Греции, и в Римской империи, и в древнем Китае, основополагающую роль играло – Искусство! Искусство живописи, ваяния, пения, искусство танца, искусство каллиграфии, искусство зодчества составляли первопричинные предметы обучения, остальные как-бы были сопутствующими.

Как же поступить и что же необходимо делать, для возвращения искусства на своё заслуженное веками, исконное место?

Во первых, - педагоги искусства (музыки и рисования)в первую очередь, сами должны серьёзнейшим образом осознать место и степень необходимости этих дисциплин, при обучении другим предметам.

Во вторых – донести до школьников, насколько эти предметы искусства необходимы в освоении других дисциплин.

В третьих – донести до родителей, о всяческой поддержке своих детей в освоении музыкальных и изобразительных дисциплин в школе.

В четвёртых – естественно широко использовать эти предметы в различных конкурсах и соревнованиях и интеллектуальных играх.

Из всего вышесказанного следует заключение, что при правильном подходе к решению проблем связанных с определением места искусства в общеобразовательных школах, является одним из основных задач в воспитании подрастающего поколения. Используя предметы искусства, как связывающее звено между всеми предметами преподающие в школах, можно с уверенностью сказать, что появится вполне реальная картина показывающая насколько сильно влияние искусства на освоение остальных школьных предметов.

Использованная литература.

1. Детская возрастная психология. Л.Ф. Обухова. Москва. «Российское педагогическое агентство», 1996.

2. Познавательный процесс и способности в обучении. О.Н. Никифорова. Москва. 1991.

3. Коробкова Е.Н. Искусство в школе: перезагрузка (к проблеме развития стратегии предметной области «Искусство») // Педагогический журнал. 2016. Том 6. № 6А. С. 162-174.

АШТАРХОНИЙЛАР ДАВРИДА БУХОРО ХОНЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИНГ БАЪЗИ БИР МУАММОЛАРИ

Баротов Сирожиддин Баҳридинович
Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Аштархонийлар даврида Бухоро хонлиги иқтисодиётининг асоси бўлган қишлоқ хўжалигининг аҳволи, ер эгалиги муносабатлари, мамлакат фуқароларининг ижтимоий турмуш-тарзи, уларнинг кундалик машғулотлари, шунингдек, ўзаро ички курашлар ва сиёсий парокандаликнинг деҳқончилик билан шуғулланувчи аҳолининг ижтимоий ҳаётига ўз таъсири таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *Аштархонийлар, “амлоки подшоҳи”, “мулки султони”, обикор ерлар, Жўйбор шайхлари,*

Бухоро хонлигида ҳукмронлик қилган Аштархонийлар даврида ички ва ташқи сиёсий вазият барқарор бўлмаган. Доимий урушлар, ўзаро тожу-тахт учун курашлар, феодал тарқоқлик, кўчманчилар ва Хива қўшинларининг ҳалокатли босқинлари мамлакат иқтисодий ҳаётини издан чиқарди.

Бу жараёнлар мамлакат иқтисодиётининг асоси бўлган қишлоқ хўжалигига ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Бухоро хонлигида аҳолининг асосий қисми қишлоқларда яшаб, деҳқончилик билан

шуғулланишган. Қишлоқ хўжалиги хонлик иқтисодиётининг асосини ташкил этган.[15] Аштархонийлар даврида обикор ерларнинг асосий қисми давлатга тегишли бўлиб, бундай ерлар “амлоки подшоҳи” ёки “мулки султони” деб номланган.[16] Аштархонийлар сулоласи вакиллари, йирик саркардалар, нуфузли дин уламолари, беклар ва бой хонадон вакиллари ҳам катта-катта ер-мулкларни бошқаришган.[17] Бундай ерларда хонлик аҳолисининг катта қисмини ташкил қилувчи деҳқонлар меҳнат қилишган. XVII асрнинг биринчи ярмида Бухоро хонлигининг йирик вилоятларидан бири бўлган Самарқанд ҳудудидаги катта-катта ер-мулклар амир Ялангтушбийга тегишли бўлган. У бу ерларни узоқ вақт давомида идора қилган.[18] Оддий зироаткор аҳоли сон жиҳатидан кўпчиликни ташкил этсада, катта бўлмаган ерларга эгалик қилишган. XVII асрнинг бошларига келиб кўплаб суғориладиган ерлар жўйбор шайхларига берилган. Жўйбор шайхларига тегишли мол-мулк ва ер-сув миқдорини ҳисоб-китобини юритиш мумкин бўлмаган.[19] Шариат қонунларига кўра, сув сотилмаслиги ва сотиб олиниши мумкин бўлмаса-да, бой амалдор ва руҳоний ер эгалари суғориш каналларининг хўжайинлари эдилар. XVII асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Бухоро хонлигида марказий ҳокимиятнинг заифлашуви кузатилади. Аста-секин ўзбек қабила ва уруғ бошлиқлари ва йирик ер эгаларининг мавқейи ошиб, ҳукмрон сулола вакиллари реал ҳокимиятни йўқота бошлайди. Натижада хонлик ҳудуди майда-майда мулкларга бўлиниб кетади. Бундай шароитда ҳамма замонларда бўлгани каби меҳнаткаш халқнинг аҳволи оғирлашиб бораверади. Қашшоқлик ва йирик ер эгаларининг зулмлари оқибатида 1681-йилда ўрта Зарафшон воҳаси аҳолиси қўзғолон кўтаради. Қўзғолон бостирилган бўлсада, халқ норозилик ҳаракатлари давом этаверади.[20] XVI-XVIII асрлар мобайнида Мовароуннаҳр аҳолисининг асосий қисмини олдинги даврлардагидек, ўтроқ аҳоли ташкил қилган бўлиб, айтиб ўтилган асрлар давомида аҳолининг аксарият қисми қишлоқларда яшаган. Қишлоқларнинг кўпчилиги воҳаларда жойлашган.[21] Юқорида айтиб ўтилганидек, ўзаро ички курашлар, сиёсий парокандалик деҳқончилик билан шуғулланувчи аҳолининг турмуш тарзига ўз таъсирини ўтказди. XVIII асрга оид айрим манбалар Зарафшон ва Фарғона водийсидаги деҳқонларнинг ўз ерларидан қочиб кетиши ҳолатлари ҳақида ҳам маълумотлар беради. Ҳукмдорлар солиқ ва ўлпонларни ўз вақтида ва доимий йиғиб олиш учун ҳам мамлакат иқтисодиётини кўтаришга ҳаракат қилсаларда, бу ҳаракатлар аксарият ҳолларда самарасиз тугарди. XVII асрнинг 80-йиллари охирларида Хива хонлиги ҳукмдорларининг тинимсиз ҳужумлари натижасида келиб чиққан суғориш тизими билан боғлиқ муаммолар ва сув таъминотининг бузилиши оқибатида Аштархонийлар давлатининг кўпгина вилоятларида, айниқса, Самарқанд, Қарши, Фарғонада аҳолининг турмуши оғирлашади. Манба тили билан айтилганда, “деҳқонларда тариқ ва буғдой нони ҳам йўқ эди”.[22] Бу даврдаги Бухоро ва Хива хонлиги қишлоқ аҳолисининг аҳволи оғир бўлганлигини рус подшосининг элчиси Борис Пазухин ҳам таъкидлаб ўтган. Борис Пазухин Бухоро, Балх ва Хива аҳолиси ўз эҳтиёжи учун ҳам буғдой экишга қурби етмаслиги ва хонадонларида кейинги йилгача зарур бўладиган заҳира донлари камлиги ҳақидаги маълумотларни ёзиб қолдирган.[23] Оқибатида хонликнинг кўплаб вилоятларидаги аҳоли очарчиликка дучор бўлади. Давлатнинг Самарқанд, Бухоро ва Балх каби шаҳарлари аҳолиси нисбатан тинчроқ бўлган чекка вилоятларга кўчиб кетишга мажбур бўлишади. Шаҳарлар ҳувиллаб қолади. XVII асрнинг ўрталарига қадар хонликнинг иқтисодий ва маданий

[15] Ахмедов Б. А. История Балха. (XVI-первая половина XVIII в.) Т., «Фан», 1982. -С. 126.
[16] Замонов А. Бухоро хонлиги тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент. 2021. -Б. 248.
[17] Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 2. Душанбе. “Ирфон” 1989. -С. 318
[18] Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 2. Душанбе. “Ирфон” 1989. -С. 318
[19] Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент., “Ўқитувчи”. 1994. –Б. 25.
[20] Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии.(XVI – середина XIX в.) Издательство Восточной литературы. Москва., 1958. -С. 69.
[21] Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент., “Шарқ”. 2001. –Б. 405.
[22] Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. Тошкент., 2016. –Б. 219.
[23] Наказ Борису и Семену Пазухиным, посланным в Бухару, Балх и Юргенчъ, 1669 г. / Издано под редакцией А. Н. Труворова. 1894. –С. 61.

маркази сифатида гуллаб яшнаган Самарқанд аҳолиси дахшатли очарчилик туфайли узоқ вақт ўзига кела олмайди.

Хулоса қилиб айтганда, Аштархонийлар даврида Бухоро хонлигидаги сиёсий беқарорлик, ташқи душманларнинг тинимсиз тазйиқлари қишлоқ хўжалиги ва аҳоли турмуш тарзига салбий таъсирини ўтказмасдан қолмади. Аҳоли манзиллари харобага айланди. Кўплаб хонлик аҳолиси бошқа жойларга кўчиб кетишга мажбур бўлди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ахмедов Б. А. История Балха. (XVI-первая половина XVIII в.) Т., «Фан», 1982.
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент., “Ўқитувчи”. 1994.
3. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 2. Душанбе. “Ирфон” 1989.
4. Замонов А. Бухоро хонлиги тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент. 2021.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии.(XVI – середина XIX в.) Издательство Восточной литературы. Москва., 1958.
6. Наказ Борису и Семену Пазухиным, посланным в Бухару, Балх и Юргенчъ, 1669 г. / Издано под редакцией А. Н. Труворова. 1894.
7. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент., “Шарқ”. 2001.
8. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. Тошкент., 2016.

TA’LIM TIZIMIDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASH USULLARI

O’rishov A.N.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola sun’iy intellekt tizimlarining tarixi, insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni va sun’iy intellekt tizimlarini hayotga tatbiq qilishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya, dasturiy ta’minot, sun’iy intellekt, hayotiylik. IBM.

2021 yilning 17 fevral kuni “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarordan ko‘zlangan maqsad “Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir [1].

Sun’iy intellekt tarixidagi keyingi muhim davr 80-yillardir. Ushbu segmentda sun’iy intellekt qayta tug’ilishni boshdan kechirdi. Uning katta salohiyati tadqiqotlarda ham, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ham keng e’tirof etildi. Taxminan oltmish yil davomida SI barqaror sur'atda rivojlanib bormoqda. Uning evolyutsiyasi mashinani o‘rganish va sun'iy intellektni dasturlash kabi sun'iy intellekt texnologiyalarini takomillashtirishda, lekin asosan sun'iy intellekt ilovalarining rivojlanayotgan intellektda namoyon bo‘ladi. 1958-yilda Lisp dasturlash tili MITda Jon Makkarti tomonidan ixtiro qilingan. Lisp SI ilovalarini ishlab chiqish uchun eng mos tillardan biri hisoblanadi [2]. Oradan yillar o‘tib, 1968 yilda Richard Greenblatt ismli dasturchi bilimga asoslangan shaxmat o‘ynash bo‘yicha aqlli dasturni yaratdi va turnir o‘yinlarida C toifasidagi reytingga erishdi. Ushbu shaxmat o‘ynash dasturi boshqa bir qator sun'iy intellekt dasturlari, jumladan, shaxmat bo‘yicha jahon chempionini mag’lub etgan dasturlar uchun ham oldingi o‘rinni egalladi.

SI uchun yana bir muhim bosqich 1979 yilda INTERNIST tashxisga erishish uchun klinik bilimlardan foydalanishi mumkin bo‘lgan bilimga asoslangan tibbiy diagnostika dasturi ishlab chiqilganida bo‘ldi. Bu tibbiyot sohasidagi birinchi ekspert tizimlaridan biri edi. Tibbiyot va o‘yin

ilovalaridan tashqari, Allstar Advice Inc. 1987 yilda yaratilgan birinchi tijorat strategik va boshqaruv maslahat tizimini ishlab chiqdi. Tizim Alacrity deb nomlangan va 3000 dan ortiq qoidalar to‘plamiga asoslangan moliyaviy modellar va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va sharhlash imkoniyatiga ega edi. Yana bir yo‘l ochuvchi lahza 1997-yilda bo‘ldi, o‘shanda dunyo IBM kompaniyasining Deep Blue shaxmat mashinasi yordamida shaxmat bo‘yicha o‘sha paytdagi jahon chempioni Garri Kasparovni mag’lub etdi. O‘sha yili 40 ga yaqin robotlar jamoasi ishtirokida birinchi rasmiy RoboCup futbol turniri tashkil etildi. Bu muhim bosqich 522 murakkab robotlarning paydo bo‘lishi va ulardan turli xil ilovalarda foydalanishni ko‘rsatdi. 2005 yilgacha Honda's ASIMO roboti, sun'iy aqlli gumanoid robot, inson kabi tez yura oladigan birinchi mashina edi. ASIMO restoranlarda mijozlarga tovoqlar yetkazib berish uchun ishlatilgan. Ikki yil o‘tgach, shashka o‘yini yutqazib bo‘lmaydigan shashka o‘ynaydigan kompyuter dasturi yaratildi. Bu Kanadaning Alberta universiteti tadqiqotchilari guruhi tomonidan yaratilgan. Shu bilan birga, Google 2009-yilda rasman e'lon qilingan o‘zini o‘zi boshqaradigan avtomobil yaratish borasidagi sa'y-harakatlarini boshladi. Hozirgi zamon: biz hozirgi SI innovatsiyalari va ilovalari bilan birgamiz. Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt korporativ miqyosdagi keng ko‘lamli ilovalarda allaqachon qo‘llanilmoqda. Ta’lim. Ta’limdagi sun’iy intellekt hozirgi paytda o‘quv mashg’ulotlari va o‘quvchilarning avtonom va mustaqil ta’limlari o‘rtasidagi to‘siqni yumshatishga intiladi. Maqsad yoshlarga o‘rgatilgan vazifalardagi ortiqcha miqdorni minimallashtirishdir, bilimlarni qurish va avtonomiyani rag’batlantirishda hamkorlikdagi metodologiyalarni targ’ib qilish. Buning uchun shaxsiy aloqa tizimlari (internet, mobil qurilmalar va boshqalar) o‘qitish-o‘qitish jarayoni rivojlangan an’anaviy joylardan tashqarida ishlatiladi [3]. Sun’iy intellekt talabalarning ish faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borish va o‘quv vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni taxmin qilish, talablarni optimallashtirish va o‘qituvchilarga ushbu holatlar to‘g’risida ma’lumot berish orqali doimiy baholash tizimiga hissa qo‘shishi mumkin. Shuningdek, bu maxsus ta’lim ehtiyojlarini va hatto o‘ziga xos ta’lim buzilishlarini erta aniqlashda ularni davolash bilan shug’ullanadigan turli mutaxassislar (terapevtik pedagogika, psixologiya, nutq terapiyasi va boshqalar) tomonidan tezroq va samaraliroq yechimlarni bayon qilishga imkon beradi. Sun’iy intellekt qo‘llaniladigan sohalar hozirgi kundagi insoniyat faoliyatidagi muhim sohalar desak mubolag’a bo‘lmaydi.Sun’iy intellect nafaqat sanab o‘tilgan sohalarda balki boshqa yo‘nalish va sohalarda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak sun’iy intellektning jamiyatda, sanoatda, fanda va inson hayot faoliaytida tutgan o‘rni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. https://strategy.uz/index.php?news=1238&lang=uz
2. https://www.itexchangeweb.com/service/artificial - intelligence - evelopment
3. "Science and Education" Scientific Journal June 2021 / Volume 2 Issue 6 www.openscience.uz 272)
4. https://zenbo.asus.com/

TALABALARNING KO‘P TANLOV JAVOBLI TESTLAR YORDAMIDA YARIM ADDITIV FUNKSIONALLARGA OID TUSHUNCHALARI HAQIDAGI BILIMLARINI BAHOLASH

Djamirzayev A.A.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogik o‘lchovning asosiy maqsadi qiziqtirayotgan bilim darajasini ifodalovchi miqdoriy ekvivalentga ega bo‘lishdan iborat. Bu jihatdan pedagogik test eng haqqoniy o‘lchov usuli hisoblanadi. Bilimlarni o‘lchash va baholash o‘quv jarayonining hamma tomonlari uchun eng muhim muammolardan biri sifatida baho berish muammosi zamonaviy ta’limning eng muhim nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi talabalar bilimini aniqlash va uning sifatiga baho berishning maqsad va vazifalari bilan bog‘liq [3] .

Baho - o‘quv jarayonini boshqarish va unda sodir bo‘ladigan chetlanish va kamchiliklarning oldini olishga asos bo‘ladigan ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

B.T.Ananaev so‘zi bilan aytganda pedagogik baho o‘quvchiga uning bilimi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manba hisoblanadi. Pedagogik baho juda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan o‘lcham obyektning haddan tashqari murakkabligi va xilma-xilligi tufayli bilim sifatini miqdoriy o‘lcham va sifatigi baho berish juda qiyin va yetarli darajada tadqiq qilinmagan muammo hisoblanadi [2].

Pedagogik adabiyotda talabalar bilimini o‘lchash va baholash uchun turli usullar mavjud bo‘lib, ko‘p tanlov javobli test topshiriqlari natijalarini baholash usuli B.Toshpo‘latov, A.Normatov, O.Mavlonov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$x = \frac{2c - \sum_{i=1}^{n}(a_i + b_i)}{2c} \cdot D$$ [1].

Bu formuladagi x-talaba bilim sifatini ballar asosida ifodalangan miqdoriy ko‘rsatkichi, n-testdagi topshiriqlar soni, c-test bo‘yicha jami to‘g‘ri javoblar soni, a_i-talaba i-topshiriqda noto‘g‘ri ko‘satgan javoblari soni va b_i-talaba i-topshiriqda ko‘rsata olmagan to‘g‘ri javoblari soni, D-talaba olishi mumkin bo‘lgan eng yuqori ballni ifodalaydi. Formula to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni teng 1:1 nisbatda bo‘lgan topshiriqlar uchun mo‘ljallangan. Formula $c_1 = \sum_{i=1}^{n} a_i$, $c_2 = \sum_{i=1}^{n} b_i$ bo‘lishiga asoslangan.

Faqat to‘g‘ri javoblarni shakllantirish uchun zarur tushunchalardan iborat bo‘lgan rasmlarni o‘qish va ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni quyidagi formula orqali baholash mumkin: [4]

$$x = \frac{c - \sum_{i=1}^{n} b_i}{c} \cdot D$$

Xatolar soni bo‘yicha baholash ko‘p tanlov javobli test topshiriqlardan tuzilgan testlar uchun mo‘ljallangan.

9. $A: C[-1,1] \to C[-1,1]$, $(Af)(x) = \int_{-1}^{1} xyf(y)dy$ operator yadrosini toping.

A) $KerA = \{f : f(x) = const\}$ B) $KerA = \{f : f(x) = \alpha + \beta x\}$

C) $KerA = \{f: \int_{-1}^{1} yf(y)dy = 0\}$ D) $KerA = \{f: \int_{-1}^{1} xf(x)dx = 0\}$

10. Noto‘g‘ri tasdiqni toping.

A) Agar A chiziqli operator bo‘lsa, A^{-1} ham chiziqli operator bo‘ladi.

B) Agar $A \in L(X,Y)$ bo‘lsa, u holda $A^{-1} \in L(Y,X)$ bo‘ladi.

C) Agar $A \in L(X)$ bo‘lsa, u holda $A^{-1} \in L(Y)$ bo‘ladi.

D) Agar $A \in L(X,Y)$ bo‘lsa, u holda $A^{*} \in L(Y^{*}, X^{*})$ bo‘ladi.

11. A operator chiziqli bo‘lishini ta’minlaydigan shartlarni ajrating:

A) $A(x+y) = Ax + Ay$ B) $A(\alpha x) = \alpha Ax$

C) $A(\alpha x) = \overline{\alpha} Ax$ D) $A(x-y) = Ax - Ay$

12. Chiziqli bo‘lmagan $A: C[a,b] \to C[a,b]$ operatorni toping.

A) $(Af)(x) = f'(x+1)$ B) $(Af)(x) = f(x)$

C) $(Af)(x) = 0$ D) $(Af)(x) = f(x) + 1$

13. Quyidagilar ichidan A chiziqli chegaralangan operator normasini hisoblash formulalarini ajrating:

A) $\|A\| = \sup_{\|x\|=1} \|Ax\|$, B) $\|A\| = \sup_{x\neq 0} \frac{\|Ax\|}{\|x\|}$,

C) $\|A\| = \inf_{\|x\|=1} \|Ax\|$. D) $\|A\| = \inf_{\|x\|=1} \frac{\|Ax\|.}{\|x\|}$

14. Quyidagilar ichidan to‘g‘ri tasdiqlarni ajrating:

A) Operatorlarni qo‘shish kommutativ.

B) Operatorlarni ko‘paytirish kommutativ.

C) Operatorlarni ko‘paytirish assotsiativ.

D) Operatorlarni bo‘lish kommutativ

15. Quyidagilar ichidan to‘g‘rilarini ajrating:

A) $\|A+B\| \le \|A\| + \|B\|$, B) $\|A\cdot B\| \le \|A\| \cdot \|B\|$,

C) $\|A\cdot B\| = \|A\| \cdot \|B\|$, D) $\|A\backslash B\| = \|A\| \backslash \|B\|$

16. $C[-1,1]$ fazoda normasi 1 bo‘lgan operatorlarni ko‘rsating.

A) $(Af)(x) = xf(x)$ B) $(Bf)(x) = f(x)$

C) $(Cf)(x) = 0.$ D) $(Af)(x) = f(x)$

Ushbu test bo‘yicha to‘g‘ri javoblar soni c=16 bo‘ladi. Talabaning test topshiriqlariga javobi quyidagicha bo‘lgan deb faraz qilaylik: 1. B,C; 2. B,C; 3.B,C; 4. A,D; 5. B,C; 6. A,C; 7. D,C; 8. B,D. U holda Talaba yozgan javoblarni to‘g‘ri javoblar bilan solishtirganimizda quyidagi hol kuzatiladi.

Savollar tartibi	1	2	3	4	5	6	7	8	Jami
Noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblar	C	-	C	-	C	-	D,C	D	6
Ko‘rsatilmagan to‘g‘ri javoblar	A	-	A	-	A	-	AB	A	6

Demak, noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblar va aniqlanmagan to‘g‘ri javoblar soni bir xil, ya’ni 8 ga teng bo‘ladi. Talabaning javobi bo‘yicha topshiriqda noto‘g‘ri ko‘satgan javoblari –a va topshiriqda ko‘rsata olmagan to‘g‘ri javoblari soni - b bo‘lib, ya’ni umumiy xatolar soni a+b=12 ga teng bo‘ladi. Talabaning javobini 100 ballik sistema asosida formula bo‘yicha baholaymiz. U holda talaba

$$x = \frac{32-(6+6)}{32} \cdot 100 = \frac{2000}{32} = 62{,}5 \text{ ball to‘plagan bo‘ladi.}$$

Formula bo‘yicha $c - \sum_{i=1}^{n} a_i$ yoki $c - \sum_{i=1}^{n} b_i$ bo‘lganidan testdagi to‘g‘ri javoblar soni 2 ga ko‘paytirilgan. Demak, Talabaning yuqorida keltirilgan test topshiriqlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bilimi 62,5 ballga teng bo‘ladi. Bu esa talabaning tushunchasi qoniqarli darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyot

1. B.Toshpo‘latov, A.Normatov, O.Mavlonov. Ko‘p javobli test savollari bo‘yicha to‘plangan ballarni hisoblash formulasi. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlarida fizika – matematika fanlarini o‘qitishni takomillashtirish istiqbollari . Respublika ilmiy- amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. –T.: 75-78 b. 2000 y.
2. Ананьев Б.Г. Психология педагогической оценки. Избранные психологические труды. В 2-х томах, Т.2. М.: «Педагогика», 1980.128-268 стр.
3. Аванесов В.С. Формы тестовых заданий. М.: 1991. 1-33 стр.
4. Mavlonov O.M., Matyaqubova Z.N. Mustaqil bilim olish va bilimni baholashning ko‘p axborotli test uslubi. T.: Universitet. 1995.-56 b.

TALABALARDA KREATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Jumanazarova D.S.
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sultanxo'jayeva G.S**
CHDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kooperativ ta'lim asosida talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish hamda shakllantirish to'g'risida fikr mulohazalar bayon etilgan. Bundan tashqari, muallif maqolada kooperativ ta'lim, kooperativ metodlar haqida to'liq va batafsil ma'lumot bergan.

Kalit so'zlar. Koopertaiv ta'lim, kreativ qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, kooperativ metodlar.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. Shulardan biri hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalangan holda darslarni loyihalashtirish haqida fikr yuritamiz. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam berishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Jamoada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina

o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga intiladi.

Hamkorlikda o‘qitish yoki kichik guruhlarda saboq berish pedagogikada gumanistik yo‘nalishdagi texnologiyaga mansub bo‘ladi. Bunday texnologiyaning asosiy maqsadi – bolalar uchun turli o‘quv vaziyatlarda faol birgalikdagi o‘quv faoliyatini yuritish uchun sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Hamkorlikda o‘qishning asosiy g‘oyasi – bir nimalarni birga bajarishgina emas, balki birgalikda o‘qishdir! Guruh bo‘lib ishlashning texnologik jarayoni quyidagi elementlardan shaklanadi:

–Bilim olish bo‘yicha vazifani (muammoli vaziyatni) qo‘yish;
–Maqsadlariga muvofiq bo‘lgan guruhlarga bo‘lish;
–Didaktik materialni tarqatish;
–Guruhdagi ishni rejalashtirish;
–Topshiriqni individual ravishda bajarish, natijalarni muhokama qilish;
–Guruhning umumiy vazifasini muhokama qilish (e’tirozlar, qo‘shimchalar, aniqlashtirishlar);
–Guruh ishining natijalari to‘g‘risida xabar berish;
–Guruhlar ishlari va qo‘yilgan vazifaga erishish to‘g‘risida umumiy xulosa chiqarish.

Hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan, o‘quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o‘rganish, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish, o‘zining va boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini lo‘nda, puxta va aniq bayon qila olishga o‘rgatishga qaratilgan interfaol o‘qitish usullari tez rivojlanib, ijobiy samara bermoqda.

Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi

Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqni ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to‘liq bajarilish natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari-komandani taqdirlash, o‘quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Erkin fikrlash darslari

Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag‘ishlanadi.

Erkin fikrlash darslaridan ko‘zda tutilgan maqsad:

1. O‘quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.

2. O‘quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish.

3. O‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo‘llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati qo‘yidagi masalalarni to‘g‘ri hal etishga bog‘liq:

–o‘quvchilarning darsga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishiga;
–ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;
–o‘quvchilarning o‘z fikr-mulohazalarini to‘liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;
–o‘quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko‘nikmalarining hosil qilinganligiga;
–o‘qituvchining iqtidori, e’tiqodi, o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko‘nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” 2 - deb ta’rif beradi.

Kreativ shaxs bo‘lish, bizning misolimizda esa, kreativ o‘quvchi bo‘lish – bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo‘lish, masalan, boshqa o‘quvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo‘lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir.

Har bir o‘quvchidagi kreativlikning rivojlanishi individual hisoblanadi. Kreativlik rivojlanishining sistemalilik faktori ta’limning ijtimoiylashuvi bo‘lib hisoblanadi. Kreativlikning dastlabki ko‘rinishlari har bir insonga xos. Biroq, u o‘sayotgan, tarbiyalanayotgan, ta’lim olayotgan muhitdagi turli xil ta’qiqlar, sotsial shablonlar ijodiy faoliyatning blokirovka (yopilish)siga olib keladi. O‘quvchida kreativlikning rivojlanishi uchun psixologik bosimlardan ozod qilib, ijobiy turtki berish lozim.

Inson taffakkurini o‘rganish psixologiyada asosiy e’tibor qaratiladigan muammolardan biri bo‘lib, u juda murakkab jarayon hisoblanib, shu sababdan doimiy ravishda ilmiy-tadqiqotlarni olib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraimov Kh. I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018. – no. 3 (27). - P. 44-46.

2. Ibragimovich Kh.I. Peculiarities of using credit-module technologies in the higher education system of Uzbekistan //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - P. 209-214.

3. Ibraimov Kh. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Eshpulatov B.B.
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sultanxo’jayeva G.S**
CHDPU o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonining ta’siri va asosiy tashkiliy-pedagogik omillari tahlil qilingan. Ta’lim sifatini oshirishda texnogiyalarning o‘rni muhim ekanligi xususida qayd etilgan

Kalit so‘zlar: ta’lim, texnologiya, raqamlashtirish, innovatsiya, integratsiya, modernizatsiya, o‘qituvchi, o‘quvchi

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg’or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o’qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimini orqali har tomonlama rivojlangan shaxs - fuqaroning tashkil topishni ko’zda tutadi. U ushbu ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining istemolchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi. Ta’lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so’ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodkor, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o’z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o’z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo’llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki, uni amalga oshirmay turib qo’llangan har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi. Bugun kunda o’qitishning an’anaviy ko’rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo’llash, o’qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

Raqamli texnologiyalar tariximizdagi har qanday innovatsiyaga qaraganda tezroq rivojlandi. Bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida rivojlanayotgan dunyo aholisining qariyb 50 foizini qamrab oldi va jamiyatni o‘zgartirdi. Raqamli texnologiyalar moliya, savdo va davlat xizmatlaridan foydalanishni kuchaytirish orqali tizimli ekvalayzer sifatida namoyon bo‘ldi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasiga ham kundan kun yangi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarning kirishi soha mutaxassislariga katta

mas’uliyat yuklamoqda. Chunki, bo‘lajak mutaxassisga zamonaviy jahon standartlari talablariga mos keladigan bilimlarni berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida tayyorlashda o‘qituvchilarning o‘rni benihoya kattadir. Bu, o‘z-o‘zidan o‘qituvchilarni izlanishga, o‘z ustida tinmay mehnat qilishga, yangiliklarni tez o‘zlashtirib, o‘quvchilarga yetkazishlarida sidqidildan mehnat qilishlarini talab etadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida kundan-kunga ko‘payib borayotgan axborotlarni o‘quvchilarga yetkazish, ularni tez o‘zlashtirishga yo‘naltirish va bilimlarni to‘la, mukammal egaliklari uchun sharoit yaratish shartdir.Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar respublikamizning deyarli barcha sohalarini keng qamrab olishi natijasida ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Yildan-yilga raqamli texnologiyalari va uning texnik vositalari rivojlanib, mukammallashib bormoqdaki, Internet tarmog‘i kirib bormagan va qo‘llanilmaydigan sohani topish mushkul bo‘lib bormoqda.

Mamlakatimizda ta’limning mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish tadqiqotlari takomillashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish asosida raqamlashtirish, multimedia va tarmoq tizimlari yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish yotadi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda o‘qituvchilarga ko‘makchi vazifasini bajaradi. O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishi bo‘yicha mavjud holat, muammolarni o‘rganish natijalari bo‘yicha statistik tahlil natijalari haqida ma’lumot beriladi. Maktab tizimi, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarni o‘z ichiga olgan o‘zaro bog‘liq murakkab ta’lim ekotizimdir.

Raqamli texnologiyalar va vositalar yordamida bog‘langan kommunikativ onlayn va yuzma-yuz o‘quv maydonlarini yaratish o‘quv innovatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarni jalb qilish va rag‘batlantirish, o‘quvchilarga kelajak kasblarga tayyor bo‘lishi uchun hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon berishi mumkin. O‘quvchilarga ta’lim berish uchun o‘qituvchilar o‘qitish amaliyotida kasbiy rivojlanishga muhtojligi ta’kidlangan. OECD mamlakatlarida o‘rganilgan boshqa raqamli strategiyalar[2], davlat siyosatining muhimligi, o‘qitish va o‘rganishni yaxshilash va ta’lim beruvchilarni malakasini oshirish uchun maxsus raqamli strategiyalarni ishlab chiqishni ta’kidlaydi.

Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qabul qilish va integratsiyaga erishish uchun o‘qituvchilarni yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash va malakasini oshirishga ehtiyoj mavjud [3]. Sinfda raqamli texnologiyadan samarali foydalanishning asosiy to‘siqlariga vaqt yetishmasligi, rag‘batlantirish, texnologik yordam va raqamli texnologiyani amaliy tarzda qanday amalga oshirishni bilmaslik kiradi. O‘qituvchilarni innovatsion malaka oshirishni ta’minlash ularning loyihalash va ijro etish jarayoniga jalb qiladigan bilimlarini shakllantiradi va o‘z amaliyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.Hargis va Wilcoxlar o‘qituvchilarning ish samaradorligini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ba’zi bepul resurslarni, shu jumladan onlayn hamkorlik vositalarini (masalan, Skype, Google hujjatlari, Second Life) muhokama qildi [4]. Ushbu vositalar o‘qituvchilar faoliyati samaradorligini darsni kengroq auditoriyaga, masalan, boshqa maktabda yoki maktab ichidagi boshqa sinfda taqdim etish; Sinfdan tashqarida bo‘lgan o‘quvchilarga yordam berish orqali oshirgan.

“Teaching and Learning International Survey” (TALIS) ma’lumotlariga ko‘ra, o‘qituvchilarning taxminan 60% o‘qitish uchun AKT bo‘yicha o‘rtacha yoki yuqori rivojlanish ehtiyojlarini qayd etgan. O‘qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarligining yetishmasligi o‘qituvchilarni o‘z ta’lim amaliyotlarida undan samarali foydalanishga tayyor emasligiga olib kelishi mumkin [5].

Petersonning fikriga ko‘ra o‘qituvchilarni tayyorlashda aralash ta’limdan (onlayn va yuzma-yuz) foydalanish sinfda raqamli texnologiyadan foydalanishning ko‘payishiga olib kelishi mumkin [6].

Xuddi shunday, Masters va boshqalar nazorati ostida o‘tkazilgan tadqiqotda o‘qituvchilar uchun onlayn trening boshqa yondashuvlar bilan solishtirganda, keyinchalik ular o‘qitgan o‘quvchilar uchun sinfda yaxshi natijalarga olib kelishini aniqladilar [7].

Cheok va Vong o‘zlarining tahlillarida o‘qituvchilarning darsga munosabati, darsning samaradorligi ularning texnologiyalardan faol foydalanishi bilan chambarchas bog‘liqligini aniqladilar va: “muassasani o‘qitish, texnik va boshqaruv nuqtai nazaridan qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchilarni yangi innovatsiyalarni o‘zlashtirishga undashda zarur bo‘lgan muhim omillardir” deb ta’kidladilar [8].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta’limni modernizatsiya va isloh qilish jarayonlari xalq ta’lim tizimida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tizimda dars berish jarayonida yangi texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda joriy etib borilishi zarur. Yuqoridagi statistik ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda uzluksiz kasbiy salohiyatni oshirishni tashkil etish uchun malaka oshirishning an’anaviy, masofaviy hamda gibrid shakllariga mos keluvchi malaka oshirish modelini ishlab chiqish; zamonaviy ta’lim metodlari, fan bo‘yicha zamonaviy yangiliklar, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda innovatsion texnologiyalarni o‘rgatuvchi milliy tildagi o‘quv kurslarini ishlab chiqish; ushbu o‘quv kurslarida o‘qituvchilarni ta’lim olishini tashkil etish uchun zamonaviy platformalar yaratish; internet orqali ta’lim olishda muammosi bor o‘qituvchilar uchun optik disklarga o‘quv kurslari yozish va ularni yetkazish; klaster shaklidagi master klasslar va mahorat darslarini tashkil etish bugungi kun talabiga javob beruvchi zamonaviy pedagogni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda ta’lim sifatini ta’minlashda ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Makhmutovna T. K., Ibragimovna T. I. Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth //Asian Journal of
Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 6. – C. 165-171.
2. OECD (2021). What schools for the future? Schooling for tomorrow. OECD Publishing, Paris.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNI MAKTABGA TA’LIM TASHKILOTLARIDA QO‘LLANISHNING DOLZARBLIGI

Ibragimov A.S.
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sultanxo’jayeva G.S**
CHDPU o’qituvchisi

Hozirgi kunda kasbiy faoliyatida yoki kundalik hayotida raqamli texnologiyalardan, zamonaviy axborot qurilmalaridan foydalanmaydigan insonlarni topish qiyin. Raqamli texnologiyalardan hozirgi kunda foydalanishdan asosiy maqsad shundan iboratki, bu texnologiyalar shunchaki vosita sifatida emas, balki yangi imkoniyatlarni ochadigan muhit sifatida qaraladi. Istalgan vaqtda o‘rganish, uzluksiz ta’lim, ta’lim yo‘nalishlarini loyihalash qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish hozirgi kunda o‘qish va yozish qobiliyati kabi juda muhimdir.

Ta’lim tizmini takomillashtirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini mustaqil jarayon sifatida raqamlashtirishni ushbu jarayonning bir qismi sifatida ko‘rish mumkin Bugungi kunda ta’lim sohasida yagona axborot muhitini yaratish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarurati zamon talablaridan biridir. Zamonaviy ta’lim ko‘p bosqichli, jadal rivojlanayotgan, murakkab ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni qamrab olgan tuzilmadir. Ta’lim sohasi o‘suvchan va shuning uchun doimiy o‘zgarishlarga duch keladi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish deganda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, virtual reallik vositalaridan foydalanish asosida yuqori ta’lim ko‘rsatkichlariga erishish, shuningdek, internet tarmog‘idan keng foydalanishni ta’minlash va shaxsiylashtirilgan ta’lim uchun raqamli ta’lim muhitini yaratish tushuniladi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Dunyo miqyosida yangi raqamli avlod texnologiyalari allaqachon ishlab chiqildi. Yangi raqamli texnologiyalar paydo bo‘ldi, ta’lim texnologiyalari o‘zgardi - ta’lim tizimini raqamlashtirish boshlandi. Bu raqamli va ta’lim texnologiyalarining bir biriga uzviy yaqinlshishi bilan bog‘liq.

Barcha mamlakatlarda jumladan O‘zbekistonda ham bolaning o‘sib-ulg‘aygan muhiti bilan ota-onasi o‘sgan muhit va sharoit bir biridan farq qiladi. Bularning barchasi uzluksiz ta’limning birinchi bo‘g‘ini maktabga ta’lim tizimi oldiga – zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishni tashkil qilishga yangi talablar qo‘yadi.

Bugun tadqiqotchilar innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish zarurati haqida gapirishmoqda. Ta’lim texnologiyalari, birinchi navbatda, ta’lim sifatini oshirish, bolalarning yangi bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish va allaqachon olgan bilimlarini o‘zlashtirish jarayonini tezlashtirish uchun mo‘ljallangan. Innovatsion yo‘nalishlardan biri bu multimedia va kompyuter texnologiyalaridir. Multimedia qurilmalaridan foydalanish bolalarni maktabga tayyorlashga yordam beradi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar hayoti haqida maslahatlar, video va filmlar taqdim etish imkonini beradi, chunki bolalar rasm chizish va loydan buyumlar yasash, turli xil o‘yinlar o‘ynashi va qo‘shiq aytishi, raqsga tushishi va sahnalashtirish, bayramlar va o‘yin-kulgilarda qatnashishlari kun davomida turli xil mashg‘ulotlar bilan shug‘illanishlari mumkin. Oddiy qilib aytganda, ular bu mashg‘ulotlardan hech qachon zerikmaydilar.

Tarbiyachilar doimo o‘z ustida ishlashlari kerak, chunki hozirhi kunda 2-3 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar allaqachon smartfon va planshetlardan mohirona foydalanishadi. Ularning ota-onalari ham tabiiyki bu qurilmalar orqali muloqot qilishga odatlanishgan.

Barchamizga ma’lumki, bola uchun birinchi va asosiy tarbiaychilar ota-onalardir. Mamlakatimizning hozirgi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitida oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qoyish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ota-onalar va pedagoglarning o‘zaro hamkorligi mas’uliyat talab qiladigan faoliyatidir. Bugungi kunda ota-onalar ta’lim tashkilotlarida hurmatni talab qiladilar. Ular bilimli, ma’lumotli bo‘lishilariga qaramay juda band bo‘lishadi. Shuning uchun ular keraksiz va ortiqcha ma’lumotlarni xohlamaydilar. Ota-onalarning bandligi maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi asosiy muammolardan biridir. Shu munosabat bilan ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotining hamkorligida eng samarali shakllari va usullarini izlash, ularning o‘z farzandini tarbiyalashdagi rolini kuchaytirish va ta’lim jarayoniga ta’sir qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy raqamli ta’lim muhitini yaratishning dolzarbligi, bir tomondan, O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati, boshqa tomondan, pedagoglar, bolalar va ota-onalarning manfaatlari va ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Raqamli texnologiyalar axborotni ijodiy, rang-barang taqdim etish uchun ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar bolaga materialni o‘yin orqali, uni ortiqcha yuklamalarsiz yetkazish, real sharoitda tasavvur qilish qiyin bo‘lgan jarayonni tadqid qilish imkonini beradi.Bolaning yoshi va individual rivojlanishiga qarab tanlangan o‘quv materiallari, kompyuter o‘yinlari yaxshi o‘yinga aylanadi va o‘z-o‘zini tarbiyalash usuli, maktabgacha yoshdagi bolaning ixtiyoriy xotirasini va diqqatini jamlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari multimedia qurilmalari, internet resurslari, raqamli proyektorlar, interfaol doskalar bilan faol ishlamoqda. Mavzuni tushunish va aniqlikni oshirish uchun tarbiyachilar o‘z ishlarida videolar, taqdimotlar, animatsiyalar, illyustratsiyalar va boshqa ma’lumotlarni vizual tarzda taqdim etish uchun ushbu vositalaridan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Raqamli va multimedia vositalari materialni taqdim etish sifatini yaxshilaydi, bolaga fikr-mulohaza bildirishga, individual va jamoaviy ishlarni tashkil etishga imkon beradi, tarbiyalanuvchilarning g‘oyalarini rag‘batlantiradi va bolani tarbiyachi yoki ota-onalar bilan birgalikda izlanish va tadqiqot ishlariga undaydi.

Raqamli muhit maktabgacha ta’lim jarayonini yanada jonlantiradi, bolaning axborot madaniyatini shakllantiradi, fikrlash, tahlil qilish va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Raqamli texnologiyalar insonlarning faoliyatidagi eng muhim vositaga aylanib bormoqda va maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari mavzu tayyorlashda yordam beradi, ma’lumot izlash ishini osonlashtiradi, audio-video va animatsiya effektlaridan osongina foydalanishga imkon beradi va ularni amalga oshirishga imkon beradi. Bugungi kunda ompyuterlar va hatto kompyuter xonalari bilan jihozlangan maktabgacha

ta’lim tashkilotlari mavjud, biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning yagona ish uslubi hali ham mavjud emas. Kompyuter maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim muhitining bir qismiga aylandi.

Zamonaviy pedagog an’ana va innovatsiyalarni, avvalgi metodlarni va yangi pedagogik yo‘nalishlarni uyg‘unlashtira olishi kerak. Maktabgacha ta’lim muhitining kelajagi qanday ish olib borishi noma’lum, ammo maktabgacha ta’lim tashkilotlari zamonaviy jamiyatdagi raqamli o‘zgarishlarning faol ishtirokchilariga aylanib bo‘lgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar muammosi va xavfi haqidagi savol haligacha ochiq qolmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

-maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim jarayonida didaktik vosita sifatida kompyuter va interfaol texnologiyalardan foydalanish, yanada muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishi mumkin;

-Ko‘rgazmali materialni ko‘rsatish vositasi sifatida kompyuterdan foydalanish bolalarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bundan tashqari, bu usul tarbiyalanuvchilar tomonidan yaxshi tushuniladigan har xil turdagi ma’lumotlarni beradi.

Ta’lim tizimida pedagoglar qanday muammolarga duch kelishmoqda? Ular texnologiya qanday ishlashining barcha tafsilotlarini bila olmaydi. Ular raqamli dunyo olamining kichik bir qismidan foydalanadilar. Bolalar raqamli texnologiyalarning yangi dunyosiga tegishli va tarbiyachilar uni o‘rganishlari kerak. Ammo axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishda xavf mavjud. Kattalar kam baholaydigan eng muhim xavf bu raqamli texnologiyalarga qaramlikdir. Raqamli taexnologiyalarga qaramlik o‘zini aniq namoyon qiladi va agar u kichik maktabgacha yoshda rivojlansa, yanada jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bolalar juda tez virtual olam, gadjetlar va kompyuter o‘yinlariga qaram bo‘lib qolishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning sog‘liq uchun zararli tomonlari ham mavjud. Hech kimga sir emaski, hozirgi kunda bolalar televizor, kompyuter va boshqa qurilmalarni tomosha qilish uchun ko‘p vaqt sarflaydi, bu esa asab tizimiga, umurtqa pog‘onasiga va ayniqsa ko‘rish qobilyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, stressni kuchaytiradi. Shuning uchun o‘quv jarayonini axborot va ta’lim texnologiyalari asosida olib borish belgilangan satndartalar va me’yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Raqamli texnologiyalardandan pedagoglar faqat “vosita” sifatida foydalanishlari mumkin, pedagogik tajribasiz birorta ham “texnologiya” ishlamaydi. Har kuni tarbiaychi pedagoglar yangi imkoniyatlardan foydalangan holda ish jarayonini boyitib borishlari zarur. Aytish mumkinki, raqamlashtirish samarali texnik vosita bo‘lib, uning yordamida maktabgacha ta’lim tashkiloti ishida sezilarli darajada samaradorlikkka erishish mumkin. Bugun biz ta’lim tizimida raqamlashtirishni joriy etishning dastlabki bosqichida turibmiz. Bu jarayon uzoq vaqt talab qilishi mumkin, lekin oxir-oqibat texnologiya yangi tajribalar, kashfiyotlar va pedagoglar va boalarning hamkorlik qilish yo‘llari uchun yangi eshiklarni ochishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish maktabgacha ta’limda innovatsion jarayonlarni joriy etish, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim sohasidagi boshqaruvning barcha darajalarini takomillashtirish, kompyuter savodxonligini rivojlantirish va ijodkorlik va tasavvurni oshirish zarur. Shubhasiz zamonaviy sharoitda raqamlashtirish zarurati mavjud. Ammo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida undan oqilona foydalanish haqida jiddiy o‘ylash kerak va har safar bu bolaga nima berishini jiddiy tahlil qilish kerak.

Foydalanilgan adaboyotlar

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.Q., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Toshkent. Navro‘z. 2016.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARNING AXBOROT XAVSIZLIGINI TA’MINLASH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Qilichev J.N.
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sultanxo'jayeva G.S.**
CHDPU o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada **a**xborot ko'lamining globallashuvi jarayonida raqamli texnologiyalar davrida **yosh** avlodni manan yetuk barkamol shaxs sifatida shaxs kamol topishida ularning axborot xavfsizligini ta'minlash pedagogik muammo sifatida qaralgan. Uning ilmiy-nazariy asoslari pedagogik muammo sifatida berilgan.

Tayanch so'zlar: axborot, xavfsizlik, raqamli texnilogiya, axborot xavfsizligi, ma'naviy bo'shliq.

Hozirgi axborot almashinuvi global rivojlanayotgan bir davrda insoniyat taraqqiyoti bugungi bosqichining mahsuli, uning o'zi «mavhum», u faqat insonning aql-zakovati, iste'dodi va tinmay qilgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiya yutuqlari ta'sirida moddiy kuchga (real voqelikka) aylandi va jarayon sifatida rivojlanmoqda. Bugun jamiyat hayotining turli sohalarida ham axborot xavfsizligining globallashish jarayoni dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Axborot xavfining salbiy ta'siridan bugungi kun kelajak avlodni himoya qilishda ta'lim sohasi xodimlari, ota-onalar va jamiyat vakillarining ogohligi, sergakligi va o'zligini asrashda o'zida mavjud bo'lgan imkoniyatdan samarali foydalanishi, o'zgarayotgan zamondan orqada qolmaslik uchun vaqtdan yutish zarurligini anglib yetish talab etilmoqda.

Bu borada Respublikamizda alohida etiborga loyiq bo'lgan «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22-oktyabrda 848-son qarori qabul qilindi.Ushbu Qonunga muvofiq bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish uchun axborot mahsulotini yoshga oid tasniflashda yoshga oid tasniflash mezonlari va axborot mahsuloti ekspertizasini amalga oshirish tartibi belgilandi.

Ammo «Xavfsizlik» tushunchasi ijtimoiy hayotning g'oyat muhim hodisasi sifatida qadim o'tmishdan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Turli tarixiy davrlar va zamonlarda insonlarning xavfsizlik masalasiga turlicha qaralib kelingan. Insoniyat turmushining dastlabki bosqichlarida xavfsizlik asosan insonni tabiiy hodisalarning xavfli ta'sirlaridan, atrofdagi hayvonot dunyosidan himoya qilishni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Insoniyatning doimiy taraqqiy topishi, hayot tarzining o'zgarib borishi insonni nafaqat tabiiy xavf-xatardan, balki ularning o'zlari tomonidan yaratilayotgan xavflardan himoya qilish talab qilina boshlandi. Bu esa xavfsizlik tushunchasiga bo'lgan turli davrlarda turlicha yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Dastlabki yondashuvlardan biri, miloddan oldingi 427-347 yillarda yashagan Platon xavfsizlik holatini «zararning oldini olish» sifatida ko'rib chiqishni taklif qilgan.

Sharqda saltanat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan fikrlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ulardan Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Amir Temur kabi mutafakkirlarning asarlariga tuxtalib o'tamiz.

O'z davrining ensiklopedik olimi bo'lgan Forobiyning «Urush va tinch turmush haqida», «SHaharni boshqarish», «Fozil odamlar shahri», «Fazilatli xulqlar» kabi asarlarida adolatli jamiyat qurish, mamlakat xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Nizomulmulkning (1018-1092 yy.) «Siyosatnoma» (yoki «Siyar ul mulk») asrida mamlakat obodligi, uning aholisini faravonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash yo'llari yozilgan. Shuningdek, mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligi, davlat boshlig'i va elchilarning xavfsizligini ta'minlash masalalari mualifning 30 yillik davlat boshqaruv tizimidagi ish faoliyati natijasida ortirgan tajribalari asosida maslahatlar tarzda berilgan.

Sohibqiron Amir Temurning (1336-1405 yy.) «Temur tuzuklari»da saltanatni tiklash, mustahkamlash, rivojlantirish bir so'z bilan aytganda saltanat xavfsizligini qanday ta'minlash masalalari yoritilgan.

«Xavfsizlik» tushunchasi XIX asrning 80-yillarida qo'llanila boshlangan va g'oyat o'ziga xos yo'nalish kasb etdi. 1917 yilda amalga oshirilgan revolyutsiyaga qadar chop etilgan ishlarda «xavfsizlik» atamasiga tahdid keltirib chiqaradigan xavf-xatarning oldini olish sifatida qaralgan. Jumladan,

M. Speranskiyning ta’kidlashicha, shaxslar va ularning mulkini umumiy xavfsizligi barcha huquqiy tartibga solinadigan narsalar uchun umumiy mavzu bo‘la oladi. SHaxs va uning mulkini xavfsizligi jamiyat a’zosi bo‘lgan har bir insonning birinchi va hech kim daxl qilolmaydigan boyligi hisoblanadi. Davlatda xavfsizlikni ta’minlash tizimining mavjud emasligi esa, A. Gradovskiyning fikricha, uni halokatga olib boradi.

Jumladan, ilmiy adabiyotlarda va lug‘atlarda «axborot xavfsizligi» atamasi paydo bo‘ldi. Mazkur atamaning mazmunida axborot xavfsizligidan tashqari, shaxs va jamiyatning mavjudligi hamda rivojlanishining qulay sharoitlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijtimoiy institutlarning eng maqbul faoliyatini ta’minlovchi holatlarga ham urg‘u berilgan.

Axborot xavfsizlik tushunchasining mohiyat va mazmunini yoritishga qaratilgan turlicha yondashuvlar bo‘lib, quyidagi bo‘limda ularni tizimli tahlili berilgan.

«Axborot xavfsizlik» tushunchasi mazmunini yoritishda uning tarkibiy qismi bo‘lgan «xavfsizlik» tushunchasiga tayanamiz. V.Dalning izohli lug‘atida «xavfsiz» atamasi xavfli bo‘lmagan, xavf solmaydigan, zarar yetkazmaydigan, bezarar, ishonchli deb keltirilgan. Xavfsizlik esa – xavf-xatarning yo‘qligi, xavfdan saqlanganlik, ishonchlilik deb izohlanadi. Xavfsizlikka shuningdek, xavf solmaydigan holat, xavf-xatarga qarshi himoyaning mavjudligi sifatida qaralgan.

Yuqoridagi tahlilardan kelib chiqib, «axborot xavfsizlik» tushunchasiga bo‘lgan turli yondashuvlarni quyida tahlili berildi. Xush bolalarning axborot xavfsizligi nima o‘zi? Ushbu tushuncha belgilangan qonunda qo‘yidagicha izohlanadi: bolalarning axborot xavfsizligi - bu bolalarning jismoniy, ruhiy, ma’naviy hamda axloqiy rivojlanishiga axborot orqali zarar yetkazilish xavfidan xoli, himoyalanganlik holatidir

«Axborot xavfsizlik» tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud bo‘lib, ulardagi ayrim yondashuvlarni quyidagicha tahlil kilamiz.

Xorijiy adabiyotlarda xususan M.Gaithisburgning fikricha axborot xavfsizligi axborotga ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o‘zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo‘q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal konsepsiya ma’lumotlar qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar (masalan, yelektron yoki, jismoniy) amal qiladi. Jumladan J.Andress M.Gaithisburgning fikrini tuldirgan holda uning fikricha axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy maqsadi ma’lumotlarning konfidensialligi, yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli, qo‘llashning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda va tashkilot faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir. Bunga, birinchi navbatda, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, tahdid manbalari, zaifliklar, potensial ta’sirlar va mavjud xavflarni boshqarish imkoniyatlarini aniqlaydigan ko‘p bosqichli xavflarni boshqarish jarayoni orqali yerishiladi. Bu jarayon xavflarni boshqarish rejasining samaradorligini baholash bilan birga olib boriladi deya o‘zining ilmiy qarashlarini bayon qiladi. Shuningdek, M.Gaithisburg axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini saqlash haqiqiylik, javobgarlik, rad yetmaslik va ishonchlilik kabi boshqa xususiyatlar ham bu qatorga kiritilishi mumkinligini ta’kidlaydi va maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlikni ta’minlash maqsadida axborot va axborot tizimlarini ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o‘zgartirish yoki yo‘q qilishdan himoya qilish kabi tushunchalar negizida axborot xavfsizligi tushunchasining mohiyatini ochib beradi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarda xususan S. Ganiyev., K.Karimov va K.Tashiyevlar muallifligidagi adabiyotda bu tushuncha - axborotning nomaqbul (axborot munosabatlarining tegishli subyektlari uchun) oshkor qilinishidan (konfidensialligining buzilishidan), buzilishidan (yaxlitligining buzilishidan), sirqib chiqishidan, yo‘qotilishidan, modifikatsiyalanishidan yoki foydalanuvchanlik darajasining pasayishidan hamda noqonuniy tirajlanishidan himoyalanganligi deya izohlanadi. Ammo zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalari yordamida axborotlarni yaratish, qayta ishlash hamda ulardan foydalanish davomida axborot tizimlari tarkibidagi axborotlarni hamda axborot resurslarining o‘zining xavfsizligini ta’minlash, ya’ni axborotlarni himoya qilish va axborotlardan foydalanuvchilarni ularning ongi va dunyoqarashiga yaratuvchan bunyodkorlik intilishlariga, milliy qadriyatlarimizga, davlatimiz Konstitutsiyasi hamda amaldagi qonunlarimizga zid ravishda buzg‘unchilik g‘oyalarini tarqatishni o‘z ichiga olgan axborotlardan himoya qilish bizning nazdimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni raqamli texnologiya davrida mustaqil fikrini o‘zgartirishga

yo‘naltirilgan har qanday tabiiy yoki sun’iy xossali tasodifiy va qasddan ta’sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga asoslanadi**.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Платон.Соченения. V 3 t. – M., 1971; T.3. ch. I. – S. 112.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. – 171 b;
3. Nizomimulk. Siyosatnoma (Siyar ul-mulk). Ikkinchi to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashri. T.: «YAngi asr avlodi», 2010. – 240 b.

ЦЕЛИ ОБРАЗОВАНИЯ С ПОЗИЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Кувондиков Ш.Т.
Студент факультета Гуманитарных наук
ЧГПУ

Научный руководитель: **Султанхужаева Г.С.**
ЧГПУ

Аннотация. Современный заказ общества на образовательные услуги изменяется. Повышение качества образования является одной из актуальных проблем не только России, но и всего мирового сообщества. Решение этой проблемы связано с модернизацией содержания образования, оптимизацией способов и технологий организации образовательного процесса, а также переосмыслением цели и результата образования.

Ключевые слова: образование, традиционный подход, цель, коммуникация, компетентность.

Как известно, под целями понимаются ожидаемые результаты деятельности, в данном случае — образовательной. Различие подходов к определению целей школьного образования заключается в понимании сущности ожидаемого результата. При традиционном подходе под образовательными целями понимаются личностные новообразования, которые формируются у школьников.

Однако определение образовательных целей через описание личностных новообразований учащихся вступает в противоречие с новыми социальными ожиданиями в сфере образования. Традиционный подход к определению целей образования ориентирует на сохранение экстенсивного пути развития школы. С позиций этого подхода чем больше знаний приобрёл ученик, тем лучше, тем выше уровень его образованности.

Но уровень образованности, особенно в современных условиях, не определяется объёмом знаний, их энциклопедичностью. С позиций компетентностного подхода уровень образованности определяется способностью решать проблемы различной сложности на основе имеющихся знаний. Компетентностный подход не отрицает значения знаний, но он акцентирует внимание на способности использовать полученные знания. При таком подходе цели образования описываются в терминах, отражающих новые возможности обучаемых, рост их личностного потенциала. В первом случае цели образования моделируют результат, который можно описать, ответив на вопрос: что нового узнает ученик в школе? Во втором случае предполагается ответ на вопрос, чему научится ученик за годы обучения в школе. [1, с. 112]

И в первом, и во втором случаях в качестве «конечных» результатов образования рассматривается развитие определённых личностных качеств, прежде всего, нравственных, формирование системы ценностей. С позиций компетентностного подхода основным непосредственным результатом образовательной деятельности становится формирование ключевых компетентностей.

Компетентностный подход к определению целей школьного образования даёт возможность согласовать ожидания учителей и обучаемых. Определение целей школьного образования с позиций компетентностного подхода означает описание возможностей, которые могут приобрести школьники в результате образовательной деятельности.

Цели школьного образования, с этой точки зрения, заключаются в следующем:

• Научить учиться, т.е. научить решать проблемы в сфере учебной деятельности, в том числе: определять цели познавательной деятельности, выбирать необходимые источники информации, находить оптимальные способы добиться поставленной цели, оценивать полученные результаты, организовывать свою деятельность, сотрудничать с другими учениками.

• Научить объяснять явления действительности, их сущность, причины, взаимосвязи, используя соответствующий научный аппарат, т.е. решать познавательные проблемы.

• Научить ориентироваться в ключевых проблемах современной жизни — экологических, политических, межкультурного взаимодействия и иных, т.е. решать аналитические проблемы.

• Научить ориентироваться в мире духовных ценностей, отражающих разные культуры и мировоззрения, т.е. решать аксиологические проблемы.

• Научить решать проблемы, связанные с реализацией определённых социальных ролей (избирателя, гражданина, потребителя, пациента, организатора, члена семьи и т.д.).

• Научить решать проблемы, общие для различных видов профессиональной и иной деятельности (коммуникативные, поиска и анализа информации, принятия решений, организации совместной деятельности и т.п.).

• Научить решать проблемы профессионального выбора, включая подготовку к дальнейшему обучению в учебных заведениях системы профессионального образования. [2, с. 98]

Главное же состоит в постановке таких целей школьного образования, чтобы они ориентировали на повышение уровня образованности выпускников школы. С позиций компетентностного подхода определение целей предмета должно предшествовать отбору его содержания: сначала надо выяснить, для чего нужен данный учебный предмет, а затем уже отбирать содержание, освоение которого позволит получить желаемые результаты. При этом необходимо учитывать, что какие-то результаты могут быть получены лишь при взаимодействии учебного предмета с другими составляющими образовательного процесса, а каких-то результатов можно достичь только в рамках предмета и их невозможно (или трудно) получить за счёт изучения других предметов. Первая группа целей предмета может быть охарактеризована как цели — интенции, иначе говоря, как цели, определяющие направление движения, но не как цели, определяющие результат, достижение которого гарантируется изучением предмета. Это цели формирования ценностных ориентации, мировоззренческих установок, развития интересов, формирования потребностей и достижения других личностных результатов, которые зависят от множества различных факторов, в том числе и «внешкольных».

Вторая группа целей предмета включает цели, описывающие «станцию назначения», те результаты, достижение которых школа может гарантировать (естественно, при определённой познавательной активности самого ученика и ряда других условий). В составе этой группы можно выделить четыре вида целей:

• цели, моделирующие метапредметные результаты, которых можно достичь при взаимодействии ряда предметов (например, формирование общеучебных умений и навыков, коммуникативных и других ключевых навыков, некоторых функциональных навыков);

• цели, определяющие метапредметные результаты, которых можно достичь в рамках предмета, но можно использовать при изучении других предметов или в иных видах деятельности (например, формирование читателя как цель изучения литературы);

• цели, ориентированные на усвоение знаний и умений, обеспечивающих общекультурную компетентность учащихся, их способность разбираться в определённых проблемах и объяснять определённые явления действительности;

• цели, ориентированные на усвоение знаний и умений, имеющих опорное значение для профессионального образования определённого профиля. [3, с. 90]

Реализация компетентностного подхода в образовательном процессе требует серьезных изменений в содержании образования, в осуществлении учебного процесса и в практике работы педагога. Во-первых, целью обучения становится не процесс, а достижение учащимися определенного результата. Содержание материала внутри предмета подбирается преподавателем под сформулированный результат. Меняются так же и подходы к оценке — в процедуру оценивания включается рефлексия, сбор портфеля доказательств, наблюдение за деятельностью учащихся. Во-вторых, меняются формы и методы организации занятий — обучение приобретает деятельностный характер, акцент делается на обучение через практику, продуктивную работу учащихся в малых группах, выстраивание индивидуальных учебных траекторий, использование межпредметных связей, развитие самостоятельности учащихся и личной ответственности за принятие решений.

Литература

1. Бережнова, О. В. Повышение профессиональной компетентности педагога дошкольного образования. Выпуск 1. Учебно-методическое пособие /. - М.: Педагогическое общество России, 2013. **- 96** с.

2. Тимофеева, Л. Л. Повышение профессиональной компетентности педагога дошкольного образования. Выпуск 4. Учебно-методическое пособие /. - М.: Педагогическое общество России, 2013. - 96 с.

3. Хузеева, Г. Р. Диагностика и развитие коммуникативной компетентности дошкольника. - М.: Владос, 2014. - **65 с.**

ВЛИЯНИЕ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННОЙ ИНФОРМАЦИОННО- ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ НА РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хасанбоева С.К.
Студентка факультета Гуманитарных наук
ЧГПУ

Научный руководитель: **Султанхужаева Г.С.**
ЧГПУ

Аннотация: в данной статье представленно влияние высококачественной информационно-образовательной среды на развитие методической компетентности педагога профессионального образования их основы, необходимые ресурсы и перспективы.

Ключевые слова: информационные технологии, коммуникационные технологии, педагог профессионального образования, методическая компетентность педагога.

На сегодняшний день система профессионального образования является одной из самых обширных сфер человеческой деятельности. Во всем мире возросла социальная роль образования. От его направленности и эффективности во многом зависят перспективы развития человечества. «Ныне общепризнано, - говорится в одном из важнейших документов ЮНЕСКО, - что политика, направленная на борьбу с бедностью, защиту окружающей среды, укрепление прав человека, улучшение международного взаимовлияния и обогащение национальной культуры не дадут эффекта без соответствующей стратегии в области образования»

Образование сегодняшнего дня получило новый виток своего развития Для достижения задач поставленных перед системой образования в условия открытой образовательной системы необходимо активное внедрение информационных ресурсов и создания информационно среды для педагогов и обучающихся профессионального образования.

Создание высококачественной высококачественной информационно- образовательной среды влияющей на развитие методической компетентности педагога профессионального образования рассматривается в основном как достаточно сложная техническая задача, позволяющая коренным образом модернизировать технологическую основу системы образования, осуществить переход к открытой образовательной системе, отвечающей требованиям постиндустриального общества. Вместе с тем нельзя отрицать, что создание данной среды это не только чисто техническая задача. В широком смысле, образовательная среда подсистема социокультурной среды, совокупность исторически сложившихся фактов, обстоятельств, ситуаций. Она выражается в целостности специально организованных педагогических условий развития личности.[1]

Информационно-образовательная среда изучалась во многих аспектах. Из них стоит выделить следующие три.

Во-первых, как одна из сторон деятельности. Человек при этом рассматривается, как участник коммуникационного процесса, т.е. в основном с точки зрения своей способности представить личное знание в той форме, в какой это знание может быть отчуждено, т.е. в форме информации. А, восприняв информацию, вновь превращать ее в свое личное знание.

Во-вторых, как система исторически сложившихся форм коммуникации.

В-третьих, как созданная всем обществом информационная инфраструктура, позволяющая осуществить коммуникативную деятельность в масштабах, соответствующих уровню развития этого общества: издательства, библиотеки, информационные центры, банки данных, средства массовой информации и т.п.

Одной из особенностей информационной среды является то, что любая информационная среда предоставляет возможность получения необходимых для него данных, сведений, гипотез, теорий и пр., умение же получать информацию и преобразовывать ее необходимо воспитывать, вырабатывать, оно приобретается в процессе обучения. Ю. А. Шрейдер выражает это так: "В книгах можно прочесть о многом, но из них нельзя получить умения читать. Информационно-образовательная среда может сохранить многие знания, но не может сохранить в себе умения пользоваться ею

Информационно среда создается усилиями отдельной группы людей. Исследователи отмечают, что информационная среда учебной деятельности формируется:

преподавателем (он определяет содержание программы курса, выбор учебной литературы, методы преподавания, стиль общения и т.д.);

педагогическим коллективом учебного заведения (он определяет общие требования к учащимся, сохраняемые традиции данного учебного заведения, форму взаимоотношений педагогического и ученического коллективов и пр.);

государством как общественным институтом (оно определяет материальное обеспечение образования в целом, социальный заказ на формирование той или иной системы знаний и взглядов).

Анализ достоинств и недостатков, существующих образовательной среды, дидактических традиций национальной системы образования, а также современного состояния информационных технологий и средств телекоммуникаций, позволяет сформулировать следующие принципы, на которых должны строиться проектируемые в настоящее время информационно-образовательные среды.[2]

Сформулированные принципы построения информационной образовательной среды делают необходимым рассмотрение информационно-образовательной среды, с одной стороны, как части традиционной образовательной системы, а, с другой стороны, как самостоятельной системы, направленной на развитие активной творческой деятельности учащихся с применением новых информационных технологий

Дидактика применения информационной образовательной среды в образовательной системе исходит из того, что наличие преподавателя в системе обучения является обязательным и его основная функция состоит не в передаче информации, а в управлении процессом обучения.

Информационной образовательная среда, организованная в сети Интернет, на web-сайте, представлена как совокупность субъектов информационного взаимодействия или воздействия; собственно информации, предназначенной для использования субъектами информационной среды; информационной инфраструктуры, обеспечивающей возможность осуществления обмена информацией между субъектами; отношений, складывающихся в связи с формированием, передачей, распространением и хранением информации. [2]

Однако большая часть педагогов профессионального образования не осознает необходимости в повышении уровня своей информационной культуры. Часть же педагогов убеждены в необходимости обучения.

Таким образом, можно подвести итог что вопрос совершенствования информационной культуры и компетентности педагога профессионального колледжа является весьма актуальным и требует дальнейшего изучения.

Использованная литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису-Ташкент. Узбекистан,2020 г.

ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ В ШКОЛЕ

Назарова Г.К.
Студентка факультета Гуманитарных наук
ЧГПУ

Научный руководитель: **Султанхужаева Г.С.**
ЧГПУ

Аннотация: в данной статье идет речь использования цифровой педагогики в школе, о проблемах, которые возникают и методах их решения. Широкое использование информационной коммуникационной технологии в школе.

Ключевые слова: цифровая технология, цифровизация, технология, цифровое образование, цифровая педагогика.

Современные школьники используют технологии (мгновенные сообщения, Телеграмм, ВК, Facebook и т.д.), чтобы быть постоянно на связи — с друзьями, семьей, информацией и развлечениями. Технологии позволяют им общаться с большим количеством людей, большим количеством способов, все чаще и чаще… Нынешнее поколение плавно переходит от "реальной" жизни к цифровой.

Преподаватели сталкиваются с постоянной задачей совершенствования методов преподавания и обучения, чтобы соответствовать растущим требованиям и ожиданиям студентов, которых мы называем "ожидающими цифровых технологий".

Учащиеся ожидают, что преподавание и усвоение знаний, с которыми они столкнутся за годы обучения в формальной школе, будут насыщены цифровыми технологиями. Это ожидание основано на личных предпочтениях студентов и их развлечениях. Не связанная с учебой часть их жизни богата цифровыми технологиями: они смотрят цифровое телевидение; слушают цифровое радио; пользуются смартфонами; свободно владеют Web 2.0, социальными сетями, цифровыми изображениями и редактированием, мэшапами, Wii, Xbox, iPad, электронным текстом... список бесконечен.

Когда новые технологии выходят на рынок, они с энтузиазмом подхватываются. Нынешнее поколение охотно называют "Поколением C", "Поколением I", "Сетевым поколением", "Поколением Y", "Поколением Z", "Интернет-поколением', 'цифровыми аборигенами' и так далее.

Но действительно ли они свободно владеют цифровыми технологиями во всех сферах своей жизни?

Все большее число преподавателей и исследователей считают, что эти учащиеся свободно владеют цифровыми технологиями в своей жизни вне школы, но заметно менее свободно в образовательном контексте [1].

Характеристики и поведение этих школьников заметно отличаются от таковых у их сверстников. Учителя в большинстве своем напоминают "цифровых иммигрантов"— они принадлежат к группе тех, кто пытался использовать информационно-коммуникационные технологии (ИКТ). Для тех, кто еще не освоил использование ИКТ в учебном процессе. Большинство учителей, как правило, являются самоучками или обучаются у коллег. Их технологические навыки, как правило, ограничены тем, что есть в их домашней и рабочей среде. Большинство учителей используют технологии каждый день, но используемые ими типы технологий могут быть не такими современными, как нужно их ученикам или даже их требованиям к преподаванию. Технологические навыки не являются определяющим фактором для эффективной цифровой педагогики. В этой статье не утверждается, что всем нам нужно стать опытными программистами или создателями веб-страниц [2]. Цифровая педагогика — это скорее отношение к цифровым технологиям и умение ими пользоваться. Речь скорее идет о

готовности эффективно использовать их в классе и понимать, как и почему их следует использовать.

Необходимо учитывать не только ожидания уча. Все чаще родители, работодатели и общество в целом ожидают, что система образования подготовит студентов, свободно владеющих технологиями, — студентов, которые могут использовать широкий спектр цифровых технологий и которые обладают поведением и знаниями, которые позволят им использовать новые технологии.

Давайте подробнее рассмотрим эти ожидания. Родители осознают, что мир, в котором живут их дети, становится все более цифровым. Для родителей было бы нормально предположить, что преподавание и обучение, которым занимаются их дети, включает в себя цифровые технологии [3]. Школам все чаще предлагается преодолеть разрыв между тем, что родители могут позволить себе иметь в своих домах для использования своими детьми, и типами технологий, которые они хотели бы, чтобы их дети испытали на себе или в совершенстве владели ими.

Независимо от того, являются ли сотрудники учащимися средних школ, работающими неполный рабочий день, или студентами, выходящими из системы образования, работодатели ожидают, что они смогут использовать

цифровые технологии. Эти ожидания включают свободное владение базовыми программами, которые обычно используются, но некоторые ожидания могут быть специфичными для конкретного предмета в зависимости от типов предметов, которые изучают учащиеся. Наконец, есть ожидания от более широкого сообщества. Это был бы быть общепринятым мнением о том, что школы используют широкий спектр цифровых технологий в своем преподавании и обучении. Средства массовой информации часто сообщают о школах, которые реализуют тот или иной проект с использованием цифровых технологий, люди видят, как учащиеся используют цифровые инструменты, и существуют правительственные инициативы, такие как как программа для ноутбука, которая создает в сознании более широкого сообщества ощущение того, что школьное образование становится все более цифровым [4-5].

До сих пор мы исследовали некоторые причины, которые обусловливают потребность в цифровой педагогике. В основном, все они связаны с чувством ожидания, и все они социальные, они вовлекают людей. Социальные императивы, изложенные до сих пор, включают студентов, родителей, работодателей и общество в целом.

Но как насчет учителей? Чувствуют ли они цифровое ожидание? У учителей чувство ожидания может быть иным. Безусловно, существует ощущение цифрового давления. Новые программы, такие как laptop roll новые технологии в классе, такие как интерактивные доски или цифровые проекторы, безусловно, усиливают ощущение цифрового давления [6]. Учителя хотят иметь возможность эффективно использовать новые технологии, и они хотят знать способы,

которые приведут к положительным результатам обучения. Вот тут-то и появляется цифровая педагогика. Это дает учителям возможность знакомиться с новыми цифровыми технологиями и эффективно использовать их в своих классах.

Список использованной литературы

1. Mamarajabov M. E. TECHNOLOGIES OF DIGITAL DIDACTICS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 04. – С. 78-84.

2. Yusupova, G. (2021). Model of development of model competences of a future teacher of informatics. Экономика и социум, 9(88), 1022-1031.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Tog'aynazarova X.O'.
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sultanxo'jayeva G.S.**
CHDPU o'qituvchisi

Hozirgi davr pedagogik amaliyotida fanlararo bog‘lanish asosida ta’limni integratsiyalash yo‘lidagi o‘rganishlar davom etmoqda. Bu vazifa g‘oyat murakkab va ayni paytda katta samara beradi. Ayni damda, ta’lim jarayonlarini integrativ tashkil etish, integratsion ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish, konsentrlangan va modulli ta’lim talablari asosida o‘qitish mazmuni va metodikasini aniqlashtirishni taqozo etadi. Integratsiya bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir -biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Pedagog Yan Amos Komenskiy bir biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, bog‘liq holda o‘rganilishi kerak, deb ta’kidlaydi.

So‘ngi yillarda pedagogik yo‘nalish talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalar kompetensiyalarini shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy mahorat darajasini aniqlashda axborot kompetentligi atamasi qo‘llaniladi. Kompetentsiya-ma’lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni qo‘llash qobiliyatini belgilaydi. Zamonaviy o‘quv kurslarini tahlil qilish, modellashtirish, maqbul qarorlar qabul qilish, bilimlarni egallash qobiliyatini o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarini ta’minlashi kerak. Shu munosabat bilan axborotlarni tashkil etishning turli modellaridan foydalanish maqsadga muofiqdir. Rivojlantiruvchi, faoliyatga asoslangan va muammoli ta’lim texnologiyalarida aynan shu yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi eng avvalo, axborot tayyorlash, unga “ishlov berish”, saqlash va jamiyat a’zolariga yetkazish bilan bog‘liq bo‘ladigan ishlarga sharoit yaratish hisoblanadi. Bu borada jamiyatning faol tashkil etuvchilaridan biri shubhasiz bo‘lajak o‘qituvchilardir. Shunday ekan, o‘quvchining axborot bilan ishlash tizimini to‘g‘ri tashkil etish o‘rinli sanaladi.

“Kompetentlik” atamasi (lotincha competentio intilaman, loyiqman, munosibman, layoqat) - chuqur bilim va tajribaga egalik, yuksak mahorat, xabardorlik, omilkorlik deganidir. Kompetentli yondashuv dunyoda ta’limning konseptual asosiga aylanmoqda. Ayni paytda kompetentlik bu nafaqat bilimlarga ega bo‘lish, balki ularni amaliyotga moslashtira olish imkoniyati hamdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – pedagokning egallangan ilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy o‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim hisoblanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalarga to‘xtalish muhim. Chunki pedagog axborot tizimi bilan ishlay olganda ya’ni to‘g‘ri ish tizimini yarata olganda bilim, ko‘nikma, malakalarni amaliyotga qo‘llay olish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi. Muhimi o‘qituvchining dars samaradorligiga erishish miqdori yuqori bo‘lishini tajribalarda kuzatish mumkin.

Kompetensiya-bu mutaxassisning kasbiy vazifalar ma’lum turkumini hal eta olish shaxsiy qobiliyati, kompetensiya talqiniga amal qilib “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini ehtimoliy – dolzarb, kognitiv – shaxsiy asosi bo‘yicha farqlab, “kompetentlik” so‘zini shaxsning dolzarb, rivojlantiriladigan xislati, insonning bilimlariga asoslanadigan, intellektual va shaxsiy jihatdan shartlangan ijtimoiy-kasbiy tavsifi sifatida tushunilishini A.R.Xodjayev o‘zining ilmiy ishlarida keltirgan.

S.Ye. Shishovning fikriga ko‘ra kompetensiya – bu o‘qish tufayli egallangan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat bo‘lib, uni bilim va vaziyat o‘rtasida aloqani o‘rnatish imkoniyati sifatida yoki, yana ham kengroq ma’noda, muammo uchun mos keladigan protsedurani (bilim va harakatni) topish, aniqlash qobiliyati sifatida qabul qilish kerak. Qolaversa, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash bilan birga ta’lim jarayonini malaka integrasiyasi asosida tashkillashtirish muhimligini isbotlaydi.

S.Kazakbayevaning takidlashicha kompetensiya shaxsga turli harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar yig‘indisi tushuniladi. Ular turli xil sharoitlarda muammolarga yechim taklif qilish, muayyan mavzular va aloqa sohalari bo‘yicha matnlarni ishlab chiqarish va yoki tushunish va tegishli strategiyalarni qo‘llash uchun turli chegara shartlarini ko‘rib chiqish, tadqiqot faoliyat va harakatlarda amalga oshiriladi.

Axborot kompetentligi darajasini shaxsning ichki kechinmalar ma’nosi sifatida anglash individual sotsializatsiya jarayonida sodir bo‘ladi. Boshqacha aytganda, talabalar boshqa odamlar bilan muloqotda hamkorlik qilish orqali muloqot tajribasiga ega bo‘ladilar va jamiyatning axborot kompetentligi rivojlantiradilar. Axborot kompetentligiumumiy xususiyatlariga ega, lekin ayni paytda u shaxs ichki madaniyatining namoyon bo‘lishidir.

Axborot kompetentligi darajasini shaxsning ichki kechinmalar ma’nosi sifatida anglash individual sotsializatsiya jarayonida sodir bo‘ladi. Boshqacha aytganda, talabalar boshqa odamlar bilan muloqotda hamkorlik qilish orqali muloqot tajribasiga ega bo‘ladilar va jamiyatning axborot kompetentligi rivojlantiradilar.

Axborot kompetentligi bajaradigan vazifasiga ko‘ra ko‘p qirrali va ko‘p funksiyali bo‘lib, rivojlanishning tegishli darajasi bilan belgilanadi va ijtimoiy guruh birgalikda va shu ijtimoiy guruh orqali jamiyat va boshqa madaniyatlar bilan ma’naviy aloqa vazifasini bajaradi.

Integrativ yondashuv asosida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda nazariy, shaxsiy, personologik, texnologik, individial, emotsional, produktiv, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va kompitesiyaviy yondashuvlari muhim.

Integrativ yondashuv asosida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishni amaliy ko‘rib chiqilgan holda, integrativ yondashuvga yo‘naltirilgan o‘qitish usuli bilan bog‘liq. Integrativ yondashuv asosida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv ta’limning asosiy natijasi bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar tizimi o‘z holicha emas, balki davlat tomonidan e’lon qilingan aqliy, ijtimoiy-siyosiy, kommunikatsiya, axborot va shu kabi sohalardagi asosiy kompetensiyalar majmui bo‘lishi lozim. Samaradorlikka yo‘naltirilgan yondashuvda ta’limning birlamchi natijasi o‘z-o‘zidan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi emas, balki intellektual, ijtimoiy-siyosiy, axborotlar bilan ishlash, axborot bilan bog‘liq va shunga o‘xshash sohalardagi asosiy kompetensiyalar yig‘indisidir. Integrativ yondashuv asosida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish faqat tayanch bilimlarni rivojlantirish va axborotni bir tildan boshqa fandagi malakalarini rivojlantirish bilan cheklanmaydi, bu jarayonni shaxsni umumiy rivojlantirishdan ajratish mumkin emas. Ta’lim tizimida harakatlarini boshqarish vositalari inson madaniyatining ajralmas qismidir va ular o‘zlashtirish va boyitish ham umuman madaniy merosni o‘zlashtirish va ko‘paytirish qonuniyatlari bo‘yicha yuz beradi. Integrativ yondashuv asosida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida inson madaniyat muhitidan kommunikatsiya vaziyatlarini tahlil qilish vositalarini oladi.

TA’LIM TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI

Yo’ldoshev A.R.
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sultanxo'jayeva G.S.**
CHDPU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligi jarayonida mustaqil ta'lim olishni shakllantirish mexanizmi va uni amalga oshirish bo'yicha yondashuvlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, axborot, zamonaviy ta'lim, ijodiy ish, mustaqil ta'lim, individual, intellektual, texnologiya, ta'lim.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilarning mustaqil tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va topish, aqliy mehnat madaniyatini, mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez suratlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat shaxs – tushuntiruvlar va namoyishlar yordamida balki, mustaqil faoliyat va amaliy ta'sirlar jarayonida shakllantirilishi kerak. Talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil bilim olish uchun yo'llanma bersh oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

"Doimiy va tez o'zgarib boruvchi texnologiyalar, bilimlarning yangilanishi zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lish hamda yangi bilimlarga intilishni talab etadi. Buning uchun o'quvchilarni yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish kerak". Ana shu davr talablari va muammolardan kelib chiqib biz o'z tadqiqotlarimizning dastlabki bosqichlarida mustaqil bilim olish kabi tushunchalarni o'rganish hamda fikr yuritishga harakat qildik. S.S.G'ulomov tahriri ostida oliy ta'lim lug'atida berilgan mustaqil ta'lim tushunchalari ta'riflari bilan tanishib chiqdik. Shunga ko'ra:

Mustaqil ta'lim - mutaxassis yordamida yoki uning yordamisiz vaqti vaqti bilan konsultatsiya olib biror masala yoki muammoni mustaqil o'rganish asosiga quriladigan tadrijiy o'quv faoliyati. Mustaqil ta'limning samarasi intellektual rivojlanganlikka, shuningdek o'quv faoliyati ko'rsatmalariga, bilimga bo'lgan munosabatga, irodaviy va boshqa sifatlarga bog'lik. Mustaqil ta'lim individual va guruhiy shaklga ega, keyingisi birgalikdagi intellektual faoliyatga bo'lgan o'quv va malakalarni shakllantiradi. Uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil ta'lim tashkillashtirilgan o'quv bo'g'inlari va bosqichlari o'rtasida bog'lovchi vazifasini o'taydi, ta'lim jarayoniga yaxlitlik va yuqoriga harakatlanish tavsifini beradi.

Mustaqil o'rganish – bu shaxs tomonidan bilimlarni o'zlashtirishda vujudga keladigan hukmlar va xulosalarni o'zining sub'ektiv fikri hamda anglanganlik tufayli e'tiqodni aylantirish qobiliyatidir.

Mustaqil ta'lim – belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir[1].

Shu jumladan, ta'lim oluvchilarning "Mustaqil ta'lim" tushunchalarini olimlar talqinida o'rganadigan bo'lsak, mustaqil ta'lim – tafakkur jarayoning sharti hamda aqlning hislati, mustaqil ta'lim – bu aqliy faoliyat usullarini egallashning natijasi hamda shartidir (D.B.Bogoyavlenskiy)[2].

N.N.Azizxo'jayevaning fikricha, mustaqil ishda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi[3].

Yuqoridagi fikrlar mazmunan o'xshash bo'lsada har birida o'ziga hos yondashuv bor. Bizning fikrimizcha, mustaqil ta'lim – bu ta'lim oluvchining muammo yoki topshiriq yechimiga qaratilgan mustaqil va ijodiy faoliyati natijasidir.

Ba’zi tadqiqotchilar o‘quvchilarning bilim saviyasi ularning mustaqil ta’lim olish yoki o‘rganish faoliyatining hajmi va muntazamligiga bevosita bog‘liqdir, deb ta’kidlaydilar. Chunki hech bir inson mustaqil faoliyatsiz kelishgan maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun mustaqil faoliyatni bilim olish vositasi va uning natijasi sifatida qarash mumkin. O‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari,ularning tadqiqot ishlari izlanishlari natijasi ekanligini ko‘rsatish uchun bunday natijani tashkil etish va boshqarish lozim. Bu esa o‘quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantiradi.

Mustaqil ta’lim – o‘quvchilarning o‘quv maqsadlari kafolatli erishishlarini, shuningdek fan dasturlari doirasidagi o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishlari bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarishlarni nazarda tutadi. O‘qituvchilar esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishga intilishlarini rag‘batlantirishlari va to‘g‘ri yo‘naltirishlari lozim. Mustaqil ta’limning asosiy mohiyati ham shundaki, o‘quvchilarning bilim manbai faqatgina o‘qituvchi tomonidan mashg‘ulotlarda berilayotgan bilimlar bo‘lishi kerak emas.

Mustaqil ta’lim olishning ustuvor omillaridan biri o‘quvchining bilim olishi uchun o‘zi ma’sul bo‘lishi, javobgarlikni his qilishidadir. U o‘qituvchiga qaram emas, u o‘zi mustaqil ravishda nimani va qanday qilib o‘rganishni hal qila oladi. Bunda o‘quvchining o‘zi kamchiliklarni o‘zi tuzatishi uchun mustaqil ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Олий таълим луғати. С.С.Ғуломов таҳрири остида. – Т. – Молия. 2003й. 203 б.
2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностейю – М.: Академия.-2002. – 67 с.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: 2006й. 16-б.

ИНСТРУМЕНТЫ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Турсуналиева Д.Ш.
Студентка факультета Гуманитарных наук
ЧГПУ

Научный руководитель: **Султанхужаева Г.С.**
ЧГПУ

Аннотация: Использование цифровых технологий считается основным требованием во многих профессиональных областях. Это, конечно, относится и к образованию. Теперь, с помощью цифровых технологий, учителя более эффективно представляют материал, поэтому шансы на обучение более развиты.

Ключевые слова: цифровизация, образование, цифровые технологии, облачные технологии, цифровая грамотность.

В современных условиях возникла острая необходимость в оптимизации процессов обучения. Сегодня учителя могут общаться с друзьями со всего мира, с остальной частью института. Они уже давно покинули оффлайн-пространство, конференции и встречи и с удовольствием присоединяются к семинару, видеоконференции и чату онлайн.

Глобальное внедрение компьютерных технологий во все сферы деятельности, формирование новых коммуникаций и высокоавтоматизированной информационной среды стали не только началом преобразования традиционной системы образования, но и первым шагом к формированию информационного общества [1].

Цифровые технологии в образовании – это способ организации современной образовательной среды, основанной на цифровых технологиях.

Цифровые технологии развиваются с огромной скоростью. Многие сферы деятельности перешли на цифровую систему: больницы, предприятия общественного питания, учебные

заведения. Эксперты все чаще говорят о переходе образовательной программы на электронный формат. Когда идея воплощается в жизнь, меняется не только система образования, но и смысл и цель. Современная формулировка образования, которая отличается от старой. Цифровизация образования - так называется процесс перехода к электронной системе.

Пока сложно подробно говорить о грядущих изменениях, но уже сейчас можно сказать, что она изменится. Раскрываются подходы к пониманию и определению специфики образовательных технологий, принципы и методы проектирования, а также анализируется опыт их применения. Изучение материалов, планов, классов, журналов и дневников - все это перейдет в онлайн-версию. Студенты смогут проводить уроки в Интернете, не выходя из дома. Будут созданы электронные ресурсы, где учащиеся смогут найти подробную информацию для занятия. Дут Белшоу определил элементы цифровой грамотности, такие как понимание культурного контекста интернет-среды, умение коммуницировать в онлайн сообществах, создавать и распространять контент, саморазвиваться [2].

Главный плюс от цифровизации - это подготовка к независимости, так как будущая система предполагает самостоятельную работу. Без излишней заботы преподавателя обучающиеся добьются более высоких результатов.

Так же большим плюсом станет отсутствие бумажной работы. Обычно обучающимся нужно взять с собой сразу несколько книг и ноутбук, который занимает большое количество места и очень много весит в сумке. Цифровое образование спасает человека от гор бумаг и книг. Компьютер будет содержать все учебники и руководства, а планшет заменит книжную работу.

Так же цифровизация предполагает облегчение работы преподавателей. Преподавание считается одним из самых сложных профессий. Для воспитания детского ума требуется много энергии и нервов. В цифровой системе задача преподавателей – просто помогать. Преподаватель задает направление, в котором развиваются обучающиеся.

Переход к цифровому образованию – это большой шаг в будущее, к созданию технологии Интернета. Сейчас наука развивается с большой скоростью, и новая структура появляется каждый день. Цифровизация образования поможет обучающимся лучше ориентироваться в информационном мире в будущем. Викисловарь раскрывает содержание понятия «цифровизация» как «цифровой способ связи, записи, передачи данных с помощью цифровых устройств»[3].

Классифицируют несколько типов цифрового образования:

- текстовая информация (электронные учебники, статьи);
- визуальная информация (иллюстрации, видеоматериалы);
- аудио информация (запись лекций, аудиокниг)
- интерактивные модели (виртуальные лаборатории, интерактивы);
- аудио и видео информация (онлайн-лекции, запись мастер-класс);

В перечень недостатков онлайн образования можно внести такие пункты, как:

Риск негативных исходов. Эти изменения будут радикальными. Нельзя с уверенностью сказать, будут ли такие нововведения положительными. Эта система будет использоваться впервые, поэтому вы не сможете сравнить ее с чем-то подобным.

Отсутствие креативности. Ученые доказали, что цветовое оформление помогает людям лучше запоминать информацию. Даже взрослым рекомендуется вносить свои собственные с незначительными изменениями. Это также способствует развитию творческих способностей. Однако информационные технологии исключают возможность самовыражения. Электронная версия «сухого» характера. Обучающийся быстро привыкнет к скучной истории.

Снижение умственной активности. Это явление можно наблюдать уже сейчас. Человеку не нужно думать о чем-то, он перестал получать свою собственную информацию. Достаточно иметь доступ в Интернет, чтобы найти нужную информацию.

Плохая социализация. Когда ученик впервые приходит в учреждение, есть лишь небольшой шанс, что он встретит там своего друга. В учебном заведении он получает не только знания, но и находит друзей, учится взаимодействовать с сообществом. Компьютерная информация снижает уровень социализации человека.

Проблемы с физическим развитием. Зрение и мелкая моторика будут изменены в первую очередь. Длительное пребывание на экране приводит к усталости глаз.

Функция преподавателей. После цифровых технологий концепция преподавателя действительно изменится. Профессионалы, которых заменят роботы и виртуальные системы. Люди потеряют свою работу.

Таким образом, использование информационных технологий открывает новые перспективы для карьерной и социальной самореализации студентов среднего профессионального образования в будущем, а модернизация художественного образования с помощью информационных технологий способствует реализации одной из целей обучения и воспитания, то есть формированию у студентов новых компетенций для жизни в высокоразвитой информационной среде.

Список использованной литературы

1. Голицына И. Н. Технология Образование 3.0 в современном учебном процессе // Образовательные технологии и общество. 2014. Т. 17. № 3.

2. Классов А. Б., Классова О. В. Использование системы дистанционного обучения в учебном процессе // Научный альманах. 2016. № 3- С. 165-169.

3. Абдуллаева, Б. С., & Сулейманова, Р. М. (2022). Цифровая образовательная среда в формировании профессиональных качеств педагога. Journal of new century innovations, 10(1), 63-67.

TALABALARDA INTELLEKTUAL-IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLI YONDASHUVNING MAZMUNI

Raxmanova Dilfuza Uchkunovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Odilova Xurshida Rustam qizi
Amaliy psixologiya sirtqi yo'nalishi 1-kurs talabasi
Saidmurodov Umid Dilmurod o'g'li
Amaliy psixologiya sirtqi yo'nalishi 1-kurs talabasi
Rixsibayeva Gulnora Jasurovna
Amaliy psixologiya sirtqi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada intellekt tushunchasining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, talabalarning intellektual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, aql, aqliy faoliyat, tafakkur, intellektual operatsiyalar, malaka, ko'nikmalar, falsafa, psixologiya, pedagogika.

Аннотация В данной статье раскрывается смысл и сущность понятия интеллект. Также обсуждаются психолого-педагогические особенности интеллектуального развития учащихся

Ключевые слова: интеллект, разум, мыслительная деятельность, мышление, интеллектуальные операции, компетентность, умения, философия, психология, педагогика.

Kirish

Kasbiy faoliyatga bo'lajak pedagoglarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, o'quv faoliyat jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini yaratish zarur. So'nggi yillarda ta'limning klasterlanishi asosiy masalaga aylandi. Klaster bu- ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan va umumiy faoliyat bilan tavsiflanadigan va bir-birini to'ldiruvchi tashkilotlar guruhi hisoblanadi. Ta'lim klasteri tashkilotlar bilan hamkorlikda birlashtirilgan ta'lim muassasalarining yig'indisi. Shu bilan birga, ta'lim klasteri-bu fan-

texnikaning innovatsion zanjir ichidagi gorizontal bo‘g‘inlarga asoslab o‘qitish, o‘zaro o‘rganish va o‘z-o‘zini o‘qitish vositalari tizimidir. Ta’lim klasteridagi muassasalar orasida oliy ta’lim yetakchilik qiladi. Chunki bugungi kunda pedagogika sohasining o‘rni mintaqada gumanitar salohiyatni rivojlantirishda muhim sub’ekt sifatida tobora kuchayib bormoqda. Natijada uzluksiz ta’lim turlari bilan hamkorlikda oila va mahallani birlashtirish tizimi vujudga kelmoqda. Klaster yondashuvning ilmiy nazariyasi va amaliyotiga bog‘liq xususiyatlari xorijiy olimlar M.Porter , M.Enrayt, D.Xard va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Oliy ta’lim tizimiga klaster yondashuvining kirib kelishi innovatsion jarayon bo‘lib, uzluksiz ta’lim turlari (oliy, umumiy o‘rta va maktabgacha ta’lim) bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yondashuvlar asosida o‘zaro manfaatli aloqadorlik deb ta’riflash mumkin. T.V.Sikan fikricha “klaster-ma’lum bir ilmiy muassasa (ilmiy-tadqiqot institutlari) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tegishli tarmoqlar doirasidagi iqtisodiy faoliyatning mintaqaviy cheklangan shakllaridir”

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotimizda ta’lim klasteri tarkibi OTM+ ilmiy tadqiqot institutlari+ umumiy o‘rta ta’lim maktabi+ maktabgacha ta’lim boshqarmasi+ kasb-hunar maktablari+ professonal ta’lim+ maktabgacha ta’lim tashkiloti+ oila+ mahalladan iborat bo‘lishini ko‘zda tutganmiz. Bu esa talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish imkonini yanada kengaytiradi. Rus olimlari M. Tereshin va V. M. Volodin tomonidan “Klaster” tushunchasiga tarmoq yondashuvi nuqtai nazaridan qaraladi. Klaster-bu tarmoq guruhi asosan mustaqil, geografik jihatdan qo‘shni, asosan rasmiy bo‘lmagan o‘zaro bog‘liq munosabatlar tizimi”-deb ta’riflanadi Keltirilgan mulohazalari asosida “klaster” tushunchasi umumiy xususiyatga ega bo‘lib, geografik jihatdan birlashgan hamda o‘zaro yaqin joylashgan tashkilot va ijtimoiy institutlar yaqinligidir deyish mumkin. Yagona maqsadga erishishda kuchli yetakchiga yega bo‘lgan keng doiradagi ishtirokchilar jamoasi deyish mumkin. F.R. Karaeva klaster yondashuvini tizimli va maxsus tamoyillarga ajratgan. Olima tizimli tamoyillarni klasterlashga qo‘yiladigan umumiy talablardan kelib chiqib ishlab chiqqan. Ya’ni izchillik, majmuaviylik, ilmiylik, sinergetik, natijaviylik, dinamik muvozanat, moslashuvchanlik, motivatsion. Maxsus bunda- ixtiyoriylik, sheriklik, klasterlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va klasterning korporativ strategiyasini birlashtirish, ishtirokchilarning strategik maqsadlarini shakllantirilayotgan mintaqaviy klaster maqsadlariga muvofiqligi, shaxsiy imtiyozlar, resurslar xavfsizligi va maksimal darajada mavjud salohiyatdan foydalanishni nazarda tutgan . T.I.Shamova fikricha “klaster yondashuvi raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo‘lgan tashkilotlar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmidir”. Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda OTM+MTT-Maktab+O‘rta maxsus ta’limi+Malaka oshirish markazlarida tashkil etiladigan ta’lim jarayonlari mazmunini e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq. Vaholanki, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2 gi qarorda “Maktabgacha, xalq ta’limi, hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda Finlyandiyaning ta’lim sohasidagi ijobiy tajribasini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga hamda Dasturga joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi belgilangan”. Mazkur qarorda ijtimoiy buyurtma zanjiri uzviylik, uzluksizlik, izchillik tamoyillari asosida bajarilishi ko‘zlangan. Ta’lim klasteridagi ijtimoiy buyurtma masalasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ta’lim turlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq jamiyat talablariga javob beradigan shaxsni ta’minlash hisoblanadi .

MUHOKAMA VA NATIJALAR

S.Toshtemirova “ta’lim klasteri–jamiyat ehtiyojidagi ijtimoiy buyurtmani maqsad umumiyligi va manfaat xususiyligi tamoyili asosida ta’minlovchi, ilmiy-texnologik infrastuktura hamda inson resurslari integratsiyalashuvini, tezkor muloqot tizimini taqdim qiluvchi, turli darajalarda (davlat,mintaqa, hudud,muassasa) raqobat muhitini shakllantiruvchi, innovatsion loyihalarni samarali ommalashtiruvchi tuzilma”- deb ta’riflaydi. Klaster yondashuvi o‘quv va ilmiy-innovatsion jarayon majmuasidir. Majmuaning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar uchun mutaxassislarni ko‘p bosqichli tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishdan iborat. Shuningdek, ta’lim tashkilotlari bilan xamqorliqda muammoni topish, ta’lim ishtirokchilarini faollashtirish turli mavzularda seminarlar tashkil etish va rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, mutaxasislarni tayyorlashni moslashuvchan tizimini yaratish lozim. Mazkur faoliyat talabalarda intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda klasterli yondashuv dolzarb hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, talabaning nazariy bilimlari turli sub’ektlar

munosabati asosida amaliyotga tatbiq etiladi. Mazkur yondashuv ishtirokchilari har tomonlama rivojlangan bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning ko‘p siklli tizimini tashkil etadi, moslashtiradi, muvofiqlashtiradi va tartibga soladi. Ushbu jarayonda intellektual darajasi yuqori, ijodkor, zamonaviy bilim va kompetensiyaga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim yetakchilik qilsa, buyurtmachilar, maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professional ta’lim, kasb-hunar maktablari o‘z manfaatidan kelib chiqib, jarayonda faol ishtirok etadi. Klaster yondashuvi oliy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi, mutaxasislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi ishlarni, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishni nazarda tutuvchi ikki tomonlama sheriklik shartnomalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar natijasida ilmiy-tadqiqot institutlari nazariy bilimlarni, amaliyot bilan uyg‘unlashtirib, o‘z ehtiyojlari va rivojlanish istiqbollariga muvofiq, ilmiy va o‘quv bazasida mutaxassisni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Oliy ta’lim mazmunini optimallashtirish, ta’lim sifatini oshirish klaviametriyaga murojat qilish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, samarali texnologiyalarni yaratish ta’lim sub’ektlari integratsiyasini ta’minlash imkonini berish bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bevosita umumiy maqsadlarga erishish, ta’limiy jarayonda yuz beradigan muammolarni bartaraf etish, innovatsion yechimlarni topish va amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Kolloborativ hamkorlik doirasida ta’lim mazmuni va sifatini oshirish, talabalarda aqliy -ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish hamda integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan. Tadqiqotimizda klasterli yondashuv mexanizmlari ishlab chiqildi va ta’lim turlarining yaxlit tizimda va umumiy maqsad atrofida birlashishi ta’minlandi.

XULOSA Konsentratsiyalashgan jarayon hamda ta’lim sub’ektlari integratsiyalashuviga ustuvorlik berildi. Ta’lim tizimiga nisbatan ushbu yondashuv tatbiq etilsa, hamda rivojlanish jarayonining mantig‘iga mos kelsa samaradorlik ortadi. Klaster tarkibidagi ta’lim muassasalari va tashkilotlarda talaba shaxsini tarbiyalashga oid mavjud muammolarga nisbatan munosib innovatsion yondashuvlar joriy etilsa vertikal kesishmalar ro‘y beradi. Shuningdek, mavjud vaziyatni oldindan prognozlash hodisalarning rivojlanishini tashxislash, o‘z vaqtida choralar ko‘rish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga tuzatishlar kiritish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Tadqiqotimizda maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim bosqichlari kesimida talabaning sifatli ta’lim olishi, individual va intellektual xususiyati, qiziqishlari e’tiborga olindi. Talabalar oliy ta’lim tashkilotida o‘zlashtirgan bilim va kompetensiyalari orqali belgilanadi. Tadqiqotimizda talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqildi . Bunda klasterli yondashuvda muammolarning yechimiga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni qaror toptirish maqsad qilib belgilangan. Zero, mazkur jarayonlar ma’naviy, moddiy, texnologik, informatsion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha ta’lim resurslari jalb qilinganligi bilan ham samarali mexanizm sanaladi. Shu o‘rinda ta’lim klasteri mexanizmda ijtimoiy buyurtma yetkazib beruvchilari va iste’molchilari o‘rni galma-gal bilan ketma-ketlikda almashib turadi. Oila ijtimoiy buyurtmani maktabgacha ta’lim va umumta’lim maktablariga yetkazib beruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Э.Ғ.Ғозиев Тафаккур психологияси Т: “Ўқитувчи” 1991, 122-123-б.

2. В.М.Каримова, “Психология” Ўқув қўлланма Т. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002. 121-б.

3. В.М.Каримова, Р.И.Суннатова, Р.Н.Тожибоева. Мустақил фикрлаш. “Шарқ” Т: 2000, 50-бет.

4. И.П.Иванов, М.Е. Зуфарова, “Умумий психология” Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Т: 2009, 376-б.

KASB TANLASH FAOLIYATINING ASOSIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya”kafedrasi o’qituvchisi
Radjabova Zuxra Mirzotilloyevna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Pedagogika”fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo’yicha)
ta’lim yo’nalishi 23/1 talabalari
Sadullayeva Tabassum Sadullayev
Soliyeva Nodira Murod qizi

Kalit so‘zlar: O‘spirin, kasbiy moslashish, irodaviy sifatlar, kasbiy yo‘nalganlik, diagnostik vazifalar, kasbiy yaroqlilik, o‘spirinlar kasbiy tasavvurlari

Keywords: Adolescent, professional adaptation, willpower, professional orientation, diagnostic tasks, professional suitability, adolescent professional perceptions

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihati psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik tamoyillar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq hatti – harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr – muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub’ektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi.

Kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad shundaki, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuni, ya’ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o‘z o‘zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko‘rib chiqishimiz zarur bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy o‘z o‘zini aniqlash beshta bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Shunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya’ni kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladigan bosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta’sirida jamiyat rivoji jadallashadi.

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o‘zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o‘zining keskin pallasiga kirganligini e’tirof etishimiz kerak. Chunki ko‘pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi va h.z.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M.Belokrilova, A.E.Golomshtok, V.I.Jukovskaya, Ye.A.Klimov, M.X.Titma, P.A.Shavir, M.G.Davletshin, N.Sh.Shodiev,B.R. Qodirov, E.G‘.G‘oziev va boshqalar.

Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalishlarda M.X.Titma, Ye.A.Klimov, V.G.Maksimov, A.P.Chernyavchkaya, Ye.A.Golomshtok, K.M. Gurievich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Kasbiy o‘zlikni aniqlash borasidagi izlanishlarning tahlilidan kasbiy faoliyatning har bir bosqichiga tizim sifatida qarash kerak, degan xulosani chiqarish mumkin. T.M.Buyakas, N.D.Levitov, O.N.Rodinalar o‘z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e’tibor qaratib, uni shaxsning ma’lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonida yo‘naltiruvchi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog‘lab tushuntiradilar.

Biz o‘z izlanishimizda bugungi kunda o‘quvchilar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo‘luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta’sir ko‘rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e’tibor qaratdik. Shunday bo‘lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan.

O‘spirinlarning kasbiy o‘zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma’lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta’lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta’siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Mazkur o‘zaro ta’sir jarayonlaridagi dialektik bog‘liqlikning o‘ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o‘zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma’lumot bosqichida shaxs o‘zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta’lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma’lumotlar oladi.

b) diagnostik bosqichda shaxsning o‘z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o‘rganiladi;

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o‘quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og‘ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi;

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o‘z tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi.

P.A.Shavirning mulohazalariga ko‘ra, shaxsning kasbiy o‘zligini aniqlashi qobiliyatning bo‘lg‘usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbga yaroqliligi bo‘yicha o‘zini to‘g‘ri baholashi, irodaviy sifatlar saviyasini o‘stirishi, mehnatga muhabbatli bo‘lishi va hayotiy tajriba singari shaxslilik asoslari talab etilar ekan. Kasb muammosini o‘rganish jabhalarining keng ko‘lamdagi o‘z tadqiqot predmetiga egaligi bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarning bir necha yil davomida olib borilganligi va ulardan olingan natijalar ko‘lamining kengligi e’tiborga molikdir. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo o‘spirinlar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta’siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan. Mazkur masalalarga biz quyida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Demak, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo‘linadi. Quyida ularga alohida-alohida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-

tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi.

Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatsak bo‘ladi:

Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish nazarda tutiladi.

Iqtisodiy fuksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.

Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma’lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog‘liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi.

Shunday qilib kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayonininng muhim komponentlaridan biri hisoblangan - kasbiy yo‘nalganlikni hisobga olmaslik insonning noto‘g‘ri, o‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlashga olib kelishi mumkin. Bundan shaxsning o‘zi ham, jamiyat ham manfaatdor emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Asomova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.....dis.-T., 2002. -137 b. 7.

2.Ismogilova F.S. Professionalniy opit spesialistov i upravlenie im v usloviyax formirovaniya rinochnoy ekonomiki. Avtoref. dis. …doktor. psixol. nauk. -Moskva, 2000.-41 s 8.

3. Kondakov I.M. "Individualno - psixologicheskie osobennosti podrostkov v vibore professii" Moskva, 1989.

4.Magzumov P.T. va boshqalar. O`quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. –T.: O`qituvchi, 1991y.

ESHITISH QOBILIYATI ZAIF O’SPIRINLAR IJTIMOIY INTELLEKTINING TABIATI

Ravshanova Xanifa Akmaljon qizi
Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti
“Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi
ravshanovaxanifa3@gmail.com

“Ijtimoiy intellekt” tushunchasini birinchi marta 1920-yilda E.Torndayk psixologiya fanida qo‘llagan. U bu tushuncha yordamida shaxslararo munosabatlarni oldindan ko‘ra bilishlikni tasvirlaydi va uni insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga davr nuqtai nazari bilan yondashishni qiyoslaydi. E.Torndaykning ta’kidilashiga ko‘ra, intellektning quyidagi turilari mavjud: abstrakt intellekt - bu abstrakt, verbal va matematik belgilarni tushunish va ularning yordami bilan turli aqliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir, ijtimoiy intellekt - odamlarni tushunish va ular bilan munosabatlarga kirishish qobiliyatidir.

1937-yili G.Ollport ijtimoiy intellektni odamlarni to‘g’ri baholay bilish, ularning xulqini to‘g’ri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan xolda ular bilan munosabatga kirishish qobiliyati deb tavsiflaydi. U boshqa odamlarni yaxshi tushunishni ta’minlovchi bir qator sifatlarni ajratib ko‘rsatgan: bu sifatlar tarkibiga ijtimoiy intellekt alohida qobiliyat sifatida kiritilgan. 1960-yillarda ijtimoiy bilish va kommunikativ kompetentlikka oid ishlar paydo bo‘la boshladi. Shu yillarda umumiy persepsiya muammosiga odamlarning bir-birlarini tushunishlariga katta e’tibor qaratilgan va hosil bo‘lgan ijtimoiy intellektning tabiati va tarkibi to‘g’risidagi konseptual tasavvurlar asosida uni o‘rganishning metodik apparatini yaratishga uringanlar.

Ijtimoiy intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan birinchi ishonchli testni yaratgan Dj.Gilford uni umumiy intellekt omilidan mustasno bo‘lgan va eng avvalo hulq-atvorga oid bo‘lgan axborotlarni

tushunishi bilan bog’liq bo‘lgan intellektual qobiliyatlar tizimi sifatida o‘rgangan[1]. 80-yillarda D.Kiting tomonidan yaratilgan testlar ahloqiy yoki odob bilan fikrlashni baholashga mo‘ljallangan edi. M.Ford va M. Tisak intellektni baholashning negizida muammoli holatlarning to‘g’ri yechimini topish yotishini ta’kidlaydilar. Ular ijtimoiy intellekt axborotlarni qayta ishlash bilan bog’liq bo‘lgan mental qobiliyatlarning aniq va mutanosib guruhini o‘z ichiga olishini ko‘rsata bildilar. Bu qobiliyat guruhi esa o‘z o‘rnida “formal” tafakkur asosini tashkil qiluvchi va “akademik” intellekt testlari bilan tekshiriluvchi qobiliyatlardan tubdan farq qiladi.

N.Kentor ijtimoiy intellektni odamlardagi hayotida bo‘layotgan hodisalarni avvaldan ko‘ra bilish va ulardan unumli foydalanish imkoniyatini beradigan kognitiv kompetentlikka tenglashtiradi.

Aynan ijtimoiy intellektni tashkil etuvchi hodisalar va ularni talqin qilish insonlarni kelajakdagi xodisalarga avvaldan tayyor turishlariga yordam beradi. Amaliy masalalarni hal qila olish qobiliyati, verbal va ijtimoiy kompetentlik ijtimoiy intellektning tarkibini tashkil etuvchi asosiy komponentlar hisoblanadi.

Ijtimoiy intellekt to‘g’risida oddiy odamlar qanday tasavvurga ega ekanliklarini tushunish maqsadida R. Shternberg (1981) tadqiqot o‘tkazgan va natijada insonlar umumiy intellekt tushunchasiga quyidagilarni kiritishlarini ko‘rsatib o‘tgan:

Amaliy masalalarni hal qilish qobiliyati. Odam mantiqiy fikr yuritadi, muammoning barcha tomonlarini ko‘ra biladi; to‘g’ri yechimga kela oladi, zarur axborotlarning original manbalariga murojaat etadi; barcha dalillarni eshitadi.

Verbal qobiliyat. Aniq va ravon tilda gapiradi; o‘qiganini yaxshi tushunish, lug’at boyligi kuchli va yaxshi; yozma nutqida muammolarga duch kelmaydi; odamlar bilan oson va samimiy muomalaga kirishadi va xokazo.

Ijtimoiy kompetentlik. Boshqa odamlarni qanday bo‘lsalar, shundayligicha qabul qiladi; uchrashuvlarga kechikmaydi; to‘g’ri xulosa va qarorlarga kela oladi; boshqalarning xohish va ehtiyojlarini seza biladi; qiziquvchan va hokazo.

V.Shternberg tadqiqotlarining natijasiga ko‘ra, shaxslarning “akademik intellekt”ni tasvirlash jarayonida keltirilgan tavsiflari “kundalik intellekt” ni tasvirlaganlarida keltirilgan tavsiflaridan farq qiladi. Umumiy intellektni juda ko‘p hollarda donolik deb biladilar.

Ijtimoiy intellekt mustaqil hodisami?

E.Torndayk ijtimoiy intellektni oddiy intellektdan farqli deya ta’kidlagan. Ko‘plab mualliflar (Kiting, Dj.Gilford) ijtimoiy intellektni akademik va formal intellekt qobiliyatlaridan farq qiluvchi mental qobiliyatlarning mustaqil guruhi sifatida tavsiflaydilar.

Ijtimoiy intellektning funksiyalari quyidagilardan iborat:

1.O‘zgaruvchan sharoitlarda adekvatlikni va moslashuvchanlikni taminlashi;

2.Taktik va strategik yo‘nalishlarda o‘zaro muvaffaqiyatli mutanosiblik dasturlari va rejalarini shakllanishi , joriy masalalarni hal qilish;

3.Shaxslararo munosabatlardagi voqealarni rejalashtirish va ularni rivojlanishini prognoz qilish;

4.Motivatsion funksiya;

5.Ijtimoiy raqobatbardoshlikni kengaytirish (IR);

6.O‘z-o‘zini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘ziga saboq berish.

Ijtimoiy intellektning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdir. O‘zaro munosabatlarning darajasi va xarakterini tushungan holda kelajakda bir-biriga ijobiy ta’sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir.

Ijtimoiy intellekt muayyan vaqt uchun asab-psixik xolatni, ijtimoiy muhit omillarini va ijtimoiy munosabatlarning qanchalar muvaffaqiyatliligini aniqlaydi, emotsional zo‘riqish, stress noqulayliklari, favqulotda holatlarda hamda shaxs inqirozi holatlarida saqlash imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy intellektning favqulotda yuz beradigan inqirozlar, uzoq cho‘ziladigan stresslar, o‘z-o‘ziga bo‘lgan xurmatni tushunib yetishi xolatlarida yordam beruvchi mobilizatsion funksiyasi juda muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy intellekt insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda sodir bo‘ladigan xodisalarni prognoz qilish va ularga tayyor turish imkoniyatini beradi hamda psixologik zo‘riqishlarga bo‘lgan bardoshni mustahkamlaydi.

Umumiy intellektning tarkibidan farqli ravishda ijtimoiy intellektning tarkibida o‘z-o‘zini anglashning shaxsga oid xususiyatlari va harakteristikalari katta rol o‘ynaydi. Bunda o‘z-o‘zini anglash “mashaqqatli”, komplekslar va psixologik himoya to‘siqlari bilan to‘lib-toshgan bo‘lmasligi kerak. Shuning uchun ham avtoritar shaxsda ijtimoiy intellektning yuqori ko‘rsatkichlari juda kam uchraydi. Bunday shaxs odamlar bilan muomalaga kirishganda ko‘zga tez tashlanmaydigan qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, odamlarni yomon tushunadi, (masalan, boshqa jinsdagilarni), ular bilan chiqishib keta olmaydi, bazida esa u odamlardan umuman qo‘rqadi. Bunday kishining o‘z-o‘zini anglashi rivojlanmaganligi sababli komplekslarga to‘la bo‘ladi. Shaxsiy qiziqishlari kam bo‘ladi yoki bo‘lmaydi, o‘zini anglamagan xolda agressivlikka beriluvchan bo‘ladi.

Agressivlik odamlar bilan risoladagidek munosabatga kirishishda to‘siqdir. Negativlik, tanqidiy fikrlar, birovning yutug’ini ko‘rolmaslik, tez-tez hafa bo‘lish, bunday toifa odamlarga xosdir. Avtoritarlik va agressivlik – kommunikativ bilimlarning kamligi va tajribasizlik, uyalish va yopiqlikka nisbatan odamlar bilan til topishish va o‘zaro munosabatlarga kirishishni to‘sib qo‘yuvchi nisbatan kuchliroq omillardir.

Ijtimoiy intellekt “inson-inson” sohasidagi kasblarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagoglar, psixologlar, psixoterapevtlar, jurnalistlar, menejerlar, huquqshunoslar, shifokorlar, siyosatchilar, tadbirkorlar faoliyatini prognoz qila olish imkoniyatini beradi.

Mahalliy psixologlar tomonidan olib borilgan izlanishlar asosan ijtimoiy intellektning (SI) kommunikativlik kompetentlik sohasiga oid muammolarga bag’ishlangan (N.Aminov, N.M. Molkanov, M.I.Bonyova, Yu.N.Emelyanov, A.A.Kidron, A.L.Yujaninova). Shuningdek, ular ijtimoiy intellektning taxminiy tarkibi va funksiyalarini tasvirlaydi. Mahalliy metodik qo‘llanmalarning kamligi sababli ijtimoiy intellekt kam miqdordagi maxsus tadqiqotlarning predmeti bo‘la olgan.

Ijtimoiy intellektga ilk bora Yu.N. Yemelyanov ta’rif berishga uringan va u bu tushunchani “ijtimiy senzitivlik” tushunchasi bilan bog’lagan. U odamlarda intuitsiya negizida individual “evristikalar” shakllanadi va shaxs boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabatlariga oid xulosalarga kelishda ulardan unumli foydalanadi, deb ta’kidlanadi. Ular ishonchli bo‘lib, prognoz qilish jarayonida qo‘l keladi.Uning negizida maxsus va doimiy tafakkur jarayoni yotadi.

Ijtimoiy bilishni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, odamlar ko‘pincha voqea-hodisalarga o‘zining shaxsiy manfaatlariga asoslangan, lekin har doim ham boshqalarning niyatlari kabi ijtimoiy xulosani hisobga olmaydi (Herzog va Hertvig, 2009). Bu noto‘g‘ri va kognitiv illyuziyalardan olingan fikrlashning tizimli xatolariga olib keladi (Xertvig va gersog, 2009). Bu xatolar ijtimoiy mish-mishlar asoslangan ishonch tarafkashlik bilan riddled ijtimoiy taxminlar va xatti taxmin keladi noto‘g‘ri talqinga olib keladi. SI darajasi yuqori bo‘lgan odam suhbat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni, shuningdek suhbatning katta qismi eshitilmaydigan bo‘lsa, suhbat ma’nosini idrok etish orqali ijtimoiy maqsadlarni tushunishga qodir. Ijtimoiy ishonchni saqlab qolish uchun eshitish qobiliyatini yo‘qotgan odam vaziyatni tartibga soladi boshqa odamlarning ruhiy holatini aniqlash uchun ijtimoiy tushunish usulini moslashtirishi kerak (Conzelmann, Vays va Sub, 2013).

SI ning moslashuvchan tomoni odamlarning va ularga moslashishlari bilan bog‘liq ijtimoiy muhit qanday yengishlariga bog‘liq. SI ning moslashuvi kuzatuvlardan boshlanadi atrof-muhitva hozir bo‘lganlarning jinsi, yoshi va millati to‘g‘risida ijtimoiy protokol tuzadi. SI insonning o‘ziga xos shaxsiyatining bir qismidir va ijtimoiy ta’lim asosida moslashtirilgan yoki rivojlangan ijtimoiy muhitda adekvat javob berishga olib keladi.

Sun’iy intellekt hozirda robotning ijtimoiy xulq-atvor va shovqinli muhitda ijtimoiy adekvat javob bera olish uchun SI qobiliyati bilan dasturlashtirilmoqda. Bu hozirgi tadqiqotga tegishli eshitish qobiliyatini yo‘qotadiganlar, tinch va shovqinli muhitda shaxsan muloqotni odamlarning o‘zaro ta’siriga tushunish uchun ko‘nikmalarni moslashtirish zarurati tufayli ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Eshitish qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar SI ko‘nikmalarini qoidalarga yo‘naltirilgan tarzda o‘rganishlari va moslashtirishlari mumkin (sun’iy intellektga o‘xshash) passiv o‘rganishdan tashqari,

eshitish qobiliyatini yo‘qotmaydiganlar, ehtimol, faqat shug‘ullanishadi. Shunday qilib, eshitish qobiliyatini yo‘qotadiganlar SI yordamida ayniqsa moslashuvchan bo‘lishi mumkin.

Shaxsda qisqa yoki uzoq muddatli eshitish qobiliyatini yo‘qotish hayotning ijtimoiy-emotsional sifatiga ta’sir qiluvchi aloqa nogironligini va izolyatsiya tuyg‘usini keltirib chiqarishi mumkin (Dalton, 2011). Ushbu izolyatsiya hissi, ayniqsa, yaqinda (besh yil ichida) eshitish qobiliyatini yo‘qotganlarga tegishli (Dalton, 2011).

Eshitish qobiliyatini yo‘qotgan odamlar tomonidan og‘zaki muloqot va nutqni idrok etishni tushunmaslik oqibatlariga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud.

Adabiyotlar:

1. Yegorova T.V. Osobennosti pamyati i mishleniya mladshix shkolnikov, otstayuщix v razvitii. - M.: Pedagogika, 1973. -149 s.
2. Marschark, M. va Spenser, P. E. (2011). Oksford karlarni o‘rganish, til va ta'lim bo‘yicha qo‘llanma. Oksford universiteti matbuoti.
3. Lubovskiy V.I. Psixologicheskie problemi diagnostiki anomalnogo razvitiya detey. -M.: Pedagogika, 1989. -100 s.

TALABALARDA PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tojiboyev Marat Normadovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha)
ta’lim yo‘nalishi 23/1guruh talabalari
Xamitova Zebinisa Baxtiyor qizi
Suleymanova Arujan Bauirjan qizi
Tovmurodov Botirjon Shavkat o‘g‘li

Oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar sirasida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini alohida o‘rin tutadi. Binobarin, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, ularni psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga yo‘naltirish, ularda kasbiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, xalq ta’limining turli sohalariga malakali kadrlarni yetkazib berish masalalarining ijobiy hal etilishi, eng avvalo, o‘z fanining bilimdoni, mahoratli pedagoglarning sa’yi-harakatlariga bog‘liq.

Islohotlar davrida oliy ta’lim tizimidagi ta’lim mazmunining yangilanishiga erishish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kabi vazifalarning hal etilishi bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Yangilangan ta’lim mazmuni hamda mavjud talablarga ko‘ra talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar:

- ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish;
- mavjud vaziyatlarni to‘g‘ri baholash;
- pedagogik munosabatlar jarayonida o‘quvchining yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlariga muvofiq ish ko‘rish;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish;
- istiqbolni bashoratlash kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari zarur. Bu kabi holatlarning mavjudligi esa ularning o‘ziga xos pedagogik tafakkurga ega bo‘lishlarini taqozo etadi.

Pedagogik tafakkur - maxsus pedagogik bilimlarga ega hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy o‘rin tutuvchi mutaxassis aqliy faoliyatining yuqori darajasi hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni shakllantirish ularga chuqur nazariy bilimlarni berish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda faol qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hisobiga kechadi. Ta’lim muassasalarining amaliyotida kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan muammoli vaziyatlarning oldini olish va mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishda o‘qituvchining aqliy faoliyati yetakchi o‘rin tutadi. [1].

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tafakkurini to‘laqonli shakllantirish bir qadar murakkab jarayon hisoblanadi. Binobarin, pedagogik turkum fanlari o‘zida yirik hajmli pedagogik bilimlarni qamrab olgan bo‘lib, talabalar tomonidan ularning puxta o‘zlashtirilishi muayyan vaqt va intellektual kuchni talab etadi. Ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan quyidagicha yondoshuv talabalik yillaridayoq bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni yetarli darajada o‘zlashtirishlariga imkon beradi:

1. Pedagogik turkum fanlarini o‘qitish jarayoniga noan’anaviy yondoshuv.
2. Mashg‘ulotlar chog‘ida talabalarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun sharoit yaratish.
3. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yuzaga keltirish.
4. Talabalarning ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish.
5. Mashg‘ulotlarning qizg‘in munozaralar asosida qiziqarli bo‘lishiga erishish.
6. Imkon qadar guruh talabalaridan iborat kichik guruhlarni shakllantirgan holda har bir mashg‘ulotda guruhlardan birining mashg‘ulotlarni boshqarishlarini yo‘lga qo‘yish.
7. Mashg‘ulotlar yakunlari bo‘yicha talabalarning faol ishtiroklari asosida muayyan xulosalarga kelish.

«Pedagogika universiteti» talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Ijtimoiy va gumanitar hamda Umumkasbiy fanlarni – «Umumiy pedagogika», «Umumiy psixologiya», «Boshqaruv psixologiyasi» bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarida belgilangan nazariy bilim (tushuncha) larni o‘zlashtirish;

2-bosqich: o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish;

3-bosqich: mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish;

4-bosqich: uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlaridagi ta’lim muassasalarida pedagog sifatida ish olib borish jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish.

Talabalarda pedagogik tafakkurni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Ta’lim jarayoni mohiyatini ochib beruvchi tushunchalarni o‘zlashtirish (masalan: ta’lim, ta’lim jarayoni, ta’lim mazmuni, ta’lim tamoyillari, ta’lim shakli, ta’lim usuli, ta’lim metodi, ta’lim vositasi, sinf, dars, o‘qituvchi, o‘quvchi, bilish, bilish faoliyati, bilish faoliyati bosqichlari, sezish, idrok, tasavvur, tafakkur, induktiv tafakkur, deduktiv xulosa, tushuncha, analiz, sintez, taqqoslash, teskari aloqa, bilish, ta’lim ziddiyatlari, bilim, ko‘nikma, malaka, ma’lumot, aqliy kamolot, o‘quv rejasi, o‘quv dasturi, darslik, o‘quv materiali, og‘zaki bayon, ko‘rsatmalilik, amaliy mashg‘ulot, ma’ruza, o‘zlashtirish, o‘zlashtirish darajalari, nazorat, nazorat turlari, baholash, baho va boshqalar).
2. Tarbiya jarayoni mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o‘zlashtirish (tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tarbiya mazmuni, tarbiya tamoyillari, tarbiya shakli, tarbiya usuli, tarbiya metodi, tarbiya vositasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, ta’lim muassasasi rejimi, ijtimoiy ong, aqliy tarbiya, aqliy tarbiya asoslari, dunyoqarash, bolalar jamoasi, ijtimoiy-foydali mehnat, ijtimoiy topshiriq, ijtimoiy faollik,axloq, axloq asoslari, ma’naviy-axloqiy sifatlar, komil inson, jinsiy tarbiya, jinsiy tarbiya asoslari, mehnat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi asoslari, kasbga yo‘naltirish, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya asoslari, jismoniy madaniyat, gimnastika, sport gimnastikasi, o‘yin, sport, estetik tarbiya, estetik tarbiya asoslari, estetik did, estetik madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy tarbiya asoslari, huquqiy madaniyat, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya asoslari, iqtisodiy tafakkur, integratsiya, ekologik tarbiya, ekologik tarbiya asoslari, ekologiya, ekologik madaniyat, sinfdan va maktabdan tashqari ma’naviy-

ma’rifiy ishlar, to‘garak, ilmiy jamiyat, oila tarbiyasi, oila tarbiyasining asoslari, xalq pedagogikasi, kun tartibi, ota-onalar qo‘mitasi, ota-onalar yig‘ilishi, sinf rahbari, ta’lim muassasasi, metodik ishlar va hokazolar.

3. Pedagogik fikr taraqqiyoti tarixi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi tushunchalarni o‘zlashtirish (masalan, qadimgi yodgorliklar, pedagogik fikr, pedagogik fikr taraqqiyoti, «Avesto» asari, zardushtiylik ta’limoti, yozma ma’rifiy yodgorliklar, Urxun-Yenisey yozuvlari, «Irq yozuvlari» («Ta’birnoma»), islom dini g‘oyalari, musulmon maktablari, islom axloqi, Hadis ilmi, hadislar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, ishonarli to‘plam, so‘fiylik ta’limoti, komil inson, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Sharq Uyg‘onish davri, Naqshbandiya tariqati, Sharq mutafakkirlari va jadidchilik harati namoyandalarining pedagogik qarashlari, ta’lim tizimi rivoji, uzluksiz ta’lim tizimi, jahon pedagogika fani rivoji va boshqalar.

4. Ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuv mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o‘zlashtirish (masalan: ta’lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, an’anaviy yondoshuv, tizimli yondoshuv, pedagogik tizim, texnologik yondoshuv tamoyillari, ijodiy yondoshuv, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, ta’lim jarayoni, ta’lim jarayonini loyihalash, loyihalash bosqichlari, ta’lim motivlari, o‘quv-bilish faoliyati, o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish, bixeviorizm ta’limoti, ta’lim maqsadlari, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, B.Blum taksonomiyasi, o‘quv vazifalari tizimi, o‘quvchilar faoliyati, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, nazorat turlari, test, test turlari, ta’lim natijasi, ta’lim natijasini baholash va hokazolar).

5. Pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish jarayoni to‘g‘risida ma’lumot beruvchi tushunchalarni o‘zlashtirish (masalan: pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsi, pedagogik ta’sir, pedagog odobi, muloqot madaniyati, mimika, pantomimika, pedagogik takt, faoliyat uslublari, pedagogik tajriba, pedagogik mahorat, ijodkorlik, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi va boshqalar. [2].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yuqorida sanab o‘tilgan beshta yo‘nalish bo‘yicha nazariy tushunchalar majmuining talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishi ularda pedagogik tafakkurning shakllanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Davletshin. M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi.-T.: O‘zbekiston, 1999.-30 b.

[2] Stolyarenko L.D. Pedagogicheskaya psixologiya. Rostov na-Donu: «Feniks», 2006.-544 s.

ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН МУНОСАБАТЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Мирзаева Сайёра Рустамовна
ЧДПУ Психология кафедраси доценти, п.ф.ф.д

Sobirova Ruhiya,
Iskandarova Ruxshona,
Pardaboyeva Mohinur
Психология (фаолият турлари бўйича) йўналиши 1 босқич талабалари

Оила давлат ва жамият таянчи, балки унинг асосий негизи ҳамдир. Ҳар бир давлат ва жамият соғлом турмуш-тарзига интилар экан энг аввало, бу масалани оила тимсолида кўришади. Шу нуқтаи назардан олиб қрайдиган бўлсак, бугунги кунда оила институти жамиятнинг барқарорлик кафолати бўлиб қолмасдан балики унинг келажак истиқболини таъминлаб бервчи омилдир. Унинг муқаддаслигини эътироф этиш, дахилсизлигини таъминлаш ҳар бир инсон онги ва тафаккурида, фаолият турида, ҳиссий муносабатарида биринчи ҳаётий зарурат эканлигини инсон омили нуқтаи назарида ёндошмоқлиги зарур.

Оила муносабатлари деганда биз, ижтимоий психологик жиҳатдан маълум гуруҳ муносабатини яъни яқин қариндошлар ўртасидаги мулоқот жараёнини тушунамиз. Бунга энг аввало, ота-она ва фарзанд, эр ва хотин, қайнона ва келин ҳамда шу каби оила аъзолари ўртасидаги мулоқот муносабатлари тушунилади. Тарихий турмуш тажрибаларидан маълумки оиладаги энг нозик ва зиддиятли масалалардан бири бу қайнона ва келин муносабатлардир.

Оиадаги ижтимоий психологик муҳитнинг барқарорлиги кўп жиҳатдан қайнона ва келин муносабатларини қайси даражада ташкил этилганлигига боғлиқ десак масалага тўғри ёндашган бўламиз. Ушбу масалани илмий жиҳатдан тадқиқ этар эканмиз, оила деган муқаддас даргоҳ айнан мана шу қайнона ва келин функционал ролни бажарувчи инсонларнинг характер хусусияти ва дунё қараши тимсолида, соғлом ёки носоғлом муҳитни юзага келтириши ойдинлашмоқда. Бугунги кун жамиятимиз оилаларида маълум зиддиятли муносабатлар, носоғлом психологик муҳит қайнона ва келин диологларида акс этмоқда. Бунинг оқибатида оила аъзолори ўртасида конфиликт юзага келиб, муқаддас аталмиш оила даргоҳи тақдири хавф оситида қолиши оритиб бормоқда. Таъбир жоиз бўлса айтиш мумкинки, оилаларнинг бузилишига сабаб бўлувчи ижтимоий психологик омиллардан бири бу - айнан қайнона ва келин ўртасида юзага келаётган муносабатлардаги зиддиятдир.

Статистик маълумотларга мурожаат этилганда оилавий ажримлар сони йилдан – йилга ортиб бораётганлигининг сабабларидан бир, айнан қайнона ва келин муносабатлари носоғлом ва ностандарт психологик муносабатлар негизида шаклланаётганлигидан эканлиги таъкиданган [1] (эр-хотин оилавий муносабатлари ва уларнинг шахсий ҳаётига бошқаларнинг аралашуви ва улар ўртасидаги ўзаро можаролар 15,0%).[2] Ушбу масалани диний ва психологик томонларини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Диний билимлар билан тўйинга миллий қадриятимиз оилада ота-она ва қайнота – қайнонанинг ўрни беқиёс эканлигини барча даврларда авлоддан-авлодга сингдириб келган. Бугунги кунда инсонни малоҳазага чорлайдиган масалалар кун тартибида турибди. Нега олдинги даврларда оилада қайнона бир нечта келин билан аҳил яшаган, ҳозирга кунда қайнона билан биттагина келин ҳам зиддиятли муносабатлар исканжасида қолиб кетаётганлиги кузатилмоқда? Ушбу даврда келинларнинг барчаси қайнонасига итоатда бўлиб ҳурмат кўрсатган бўлса, айни вақтда якка-ю ягона келин унинг тескарисини амалага оширмоқда.

Масалага шу нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак, ёшларда юзаки фикрлаш тарзининг вужудга келганлиги, оила муқаддаслиги борасида етарли психологик билим ва тушунчанинг саёзлиги, диний билимларнинг етишмаслиги, хусусан шариат қоидалари ва ахлоқ нормаларига нопсанд ёндашувни кузатиш мумкин.

Қайнона ва келин ўртасидаги муносабатларга путур етишининг асосий омилини мана шу факторлар билан изоҳлаш айни ҳақиқатни юзага чиқаради. Ушбу масалани яна бир томони борки, оилага ташқи аралашув жумладан эр ва хотин муносабатини қайнона ўғлининг хотинига ижобий муомаласини нотўғри талқин қилган ҳолда уни танқид қилиши, баъзи оилаларда ўғлини келиндан “қизғониш” ҳолатларига эга бўлган потологик ёндашувларнинг мавжудлигидир. Оқибатда келинга нисбатан қайнонада душманлик ҳиссининг пайдо бўлиши, унга нотўғри муносабатда бўлган ҳолда, ҳар бир ҳаракатидан камчилик излаш борган сари ортиб боради ҳамда оналик фитратига путур етказади.

Бугунги кунда ёшларни оилага тайёрлаш юзасидан бир қатор дастур ва лойиҳалар ишлаб чиқилаётганлиги барчамизга маълум. Қатор давра суҳбатлари ва оммавий равишда телекўрсатувлар намунали тарзда кенг жамоатчиликка етказилиб борилмоқда. Албатта бу таҳсинга сазовар масала. Бироқ бир аччиқ ҳақиқатни тан олиш ва ушбу масалага психолог нуқтаи назаридан қараш мутахассислар эътиборидан четда қолиб кетмоқда.

Оила муносабатидаги муаммоли масалаларни илмий жиҳатдан тадқиқ этиш давр талабидан келиб чиқиб, амалга ошириш лозимлиги юзасидан соҳа вакиллари Ж.Усаров, Н.Эшнаев, Т.Маратовлар ушуб масалада тўхталиб: “Мамлакатимизда оилани мустаҳкамлаш, оила билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш, айниқса, ёш оилаларни қўллаб-қувватлаш борасида кенг кўламли маънавий-маърифий тадбирлар ташкил этилиб, ижтимиоий-сиёсий

дастурлар ишлаб чиқилмоқда. Бироқ оилавий ажримлар сони ортиб бораётгани бу йўналишдаги ишлар янгича ёндошув, қолаверса илмий тадқиқ этишни тақозо этади”-деган илмий қарашни илгари сурган.[3]

Шу нуқтаи назарда янги келинларга хонадон соҳиблари қандай муносабатда бўлиш юзасида диярли умуман психологик ёндашув йўқлиги юзасидан фикримизни билдирмоқчимиз. Бу масалага бефарқ ёндашув нафақат қайнон-келин муносабатларида балки оила аъзолари билан исталган вақтда зиддиятли вазиятни юзага келтирувчи ижтимоий психологик муҳитга замин бўлиши мумкин.

Келин бўлиш ҳар бир қизнинг орзуси бўлгани каби, бошқа хонадонга кириб бориш ва ундаги ижтимоий психологик муҳитга адаптация қилиш ҳақидаги ички ховотир барча нарсадан устун эканлигини бир ўйлаб кўрсак мақсадга мувофиқ бўларди. Биз бу масалада бирорта билим ва тушунчага эгамизми? Янги келинда кечаётган кучли руҳий ҳолатни ҳисобга оляпмизми? Унинг адабтация жараёнига муносиб шароит яратиб беряпмизми? Ундаги кучли депрессион ҳолатни юмшатиш борасида қандай самарали психологик муносабатни амалга оширяпмиз? Янги муҳит, ҳар хил одамлар, хар хил характерларни ўрганиш ва улар билан муносабатнинг мувозанатли нуқтасини топиш учун қанча вақт керак? Бу ҳолат келинларда кучли яширин стресс ҳолатни юзага келтириши, асабийлашиши, ўзини бошқаришда қийналиши ва оқибатда ўзига боғлиқ бўлмаган ҳолда нотўғри гапириши ёки хатога йўл қўйиши масаласида бирор бир мутахассис гапирдим? Йўқ! Бу борада бирорта йўл – йўриқ ишлаб чиқлдими? Йўқ! Янги келин тушаётган хонадон соҳиблар бу масалада билим ва тушунчага етарли даражада эгами? Йўқ!

Масалага ойдинлик киритиш вақти етиб келгандир. Оддий қилиб айтганда бу мсасалани мажозий маънода тушунтиришни мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз. Тафаккур қилинг келин ёш ниҳол, келин борган хонадон у ўниб ўсиши лозим бўлган замин? Хуш ниҳолни томир отиб яшнаб кетиши ва ҳосилга кириши учун ниҳолни ўзига ишлов бериш керакми ёки заминни яхшилаб тайёрлаш керакми? Албатта заминни!

Хулоса қилиб айтганда биз қайнона – келин муносабатларини бир томонама ва нохолис ўрганаётганлигимиз туфайли, фаолиятимиз самарасиз натижа бераётганлигини кўришимиз мумкин. Ушбу масалани янада кенгроқ ва ҳар томонлама ўрганиш лозим деб ўйлаган ҳолда қуйидаги таклифларни илгари сурамиз:

-Бўлажак келинлар билан тўйдан олдин янги муҳитга мослаштириш юзасидан психотренинг ўтказиш;

-бўлажак келинлардаги ички ховотир ва депрессон ҳолатни бартараф этиш юзасидан, қайноналар учун психолог тавсия ва таклифларига асосланган замонавий оммабоп ўқув қўлланмаларни яратиш;

-келин тушираётган оила вакилларини келин билан муносабатини психологик омиллар асосида йўлга қўйиш;

-бўлажак қайноналар мактабини ташкил этиш ва психологик билимлар беришнинг мақсадли дастурини ишлаб чиқиш;

-келинларни янги хонадонга тез мослашиши юзасидан соғлом психологик муҳитни юзага келтириш;

-кенг жамоатчиликни ушбу масала қайнона ва келин муносабатларидаги зиддиятни келтириб чиқарувчи асосий омил эканлиги тўғрисидаги тарғибот ва ташвиқот билан яқиндан таништириш;

-бу масалада давра суҳбатлардан воз кечга ҳолда, оммавий ахборот воситалари орқали психолог мутахассис тавсия ва таклифларини мунтазам етакиз беришни йўлга қўйиш;

-оммавий ахборот воситалари орқали оилавий муносабатлар юзасидан хонанда, актириса ҳамда кино ва санъат соҳа вакилларини фикр билдириш учун жалб этишдан воз кечиш ва фақат психолог фикр-мулоҳазаларини кенг жамоатчиликка етказиш;

-бу борада (жамиятимизда оилашунос психолог ва сациологлар борлигини унитиб қўйган) журналистлар саводхонлигини ошириш ва қаршларини тўғри тарбиялаш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - T.Sharq, 2007.

PSIXOLOGIK FAROVONLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi
N.Sh.Ruzmatova

Z.Avlaqulova, R. Shodiyeva
Psixologiya yo’nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: ushbu maqola psixologik farovonlikning mazmun mohiyati yoritilgan bo'lib, shuningdek, turli olimlarning psixologik farovonlik, uning tarkibiy qismi haqidagi fikrlarining tahlili ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so’zlar: farovonlik, faollik, salomatlik, shaxsiy o’sish, qadriyatlar

Аннотация: в данной статье объясняется значение психологического благополучия, а также показан анализ мнений различных ученых о психологическом благополучии и его компонентах.

Ключевые слова: благополучие, активность, здоровье, личностное развитие, ценности.

Annotation: this article explains the meaning of psychological well-being, and also shows the analysis of the opinions of various scientists about psychological well-being and its components.

Key words: well-being, activity, health, personal development, values.

Psixologik farovonlik ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab psixologiyada ancha keng tarqaldi. Shaxsning psixologik farovonligi muammosini o'rganishga qiziqish ijobiy psixologiyaning paydo bo'lishi bilan kuchaydi - bu yo'nalish ruhiy kasalliklar va buzilishlarni o'rganishga emas, balki shaxsning resurslari va salohiyatiga, uning ijobiy xususiyatlariga e'tibor berishni taklif qiladi[24]. Zamonaviy psixologiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson o'zini farovon va baxtli his qilishi uchun yoqimsiz holatlar va muammolardan xalos bo'lishning o'zi yetarli emas va optimal, farovon hayot va faoliyat shakllarini o'rganish kerak ekanligi psixologik tadqiqotning alohida sohasini ifodalaydi.

Zamonaviy psixologiya yetakchilaridan biri I.Bonivel farovonlikni o‘rganishga qiziqish ortishiga bo’lgan sabablarning uchta asosiy guruhini qayd etadi: “mamlakatlar farovonlik darajasiga yetganki, bunda omon qolish va iqtisodiy ko‘rsatkichlar muhim, lekin odamlarning hayot sifati asosiy vazifaga aylanadi; individualizmga moyillik kuchayishi shaxsiy baxtni muhimroq o’ringa qo’ydi; farovonlikni o'lchashning bir qator ishonchli usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ular tufayli bu soha jiddiy va tan olingan ilmiy intizomga aylana oldi[25]”

G'arb psixologiyasida “farovonlik” tushunchasi keng ma'noda madaniy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy, iqtisodiy va ma'naviy omillarning murakkab o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ko'p omilli konstruktsiya sifatida ta'riflanadi [161]. Xususan, M.Seligmanning fikricha, insonning farovonligi - bu faollik bilan birgalikda ijobiy ta'sirchanlikdir[26].

Rus tilidagi “farovonlik” so'zining semantik ma'nosi - bu muvaffaqiyatsizliklar va zarbalarsiz, baxtsizliklar bilan bezovtalanmagan ishlar va hayotning tinch oqimi. Farovonlikning sinonimi baxtdir, sub'ektiv ravishda barcha ne'matlarga erishish hisoblanadi[27].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mutaxassislari salomatlikni aniqlashning asosiy mezoni sifatida farovonlik atamasidan foydalanganlar: “Salomatlik nafaqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yo'qligi,

[24] Аргайл, М. Психология счастья [Текст] / М. Аргайл/ Под ред. М.В. Кларина; Пер. с англ. – М.: Прогресс, 2007. – 403с.
[25] Бонивелл, И. Ключи к благополучию: Что может позитивная психология [Текст] / Пер. с англ.М. Бабичевой.–М.: Время, 2009. –192 с.
[26] Селигман, М. В поисках счастья. Как получать удовольствие от жизни каждый день[Текст] / М. Селигман/ Изд-во «Манн, Иванов и Фербер», 2010. – 320 с
[27] Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений [Текст] / под ред. Н. Абрамова. – М.: Русские словари, 1999.

balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir". Shu bilan birga, ushbu tashkilot mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu tananing biologik funktsiyalaridan ko'ra ko'proq o'zini o'zi qadrlash va ijtimoiy mansublik hissi bilan belgilanadi va insonning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq.

"Psixologik farovonlik" atamasi N.Bredbern[28] tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan bo'lib, uni baxtning sub'ektiv hissi va hayotdan umumiy qoniqish sifatida ta'riflagan. Shu bilan birga, muallif psixologik farovonlik deganda ego kuchi, o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini hurmat qilish, avtonomiya kabi keng qo'llaniladigan bir qator boshqa tushunchalarni nazarda tutmagan, ammo bu tushunchalar o'zaro ta'sir doirasiga ega bo'lishi mumkinligini inkor etmagan.

Chet el adabiyotida psixologik farovonlik sub'ektiv va psixologik tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan, shuningdek adaptiv (sog'lom) xatti-harakatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsning dinamik xususiyati sifatida ta'riflanadi. Psixologik farovonlik kontseptsiyasi muallifi K. Rieff uni shaxs imkoniyatlarining cho'qqisi nuqtai nazaridan o'z faoliyatini idrok etish va baholashni aks ettiruvchi asosiy sub'ektiv konstruktsiya deb hisoblaydi.

Psixologik salomatlik, o'z-o'zini anglash, optimal faoliyat ko'rsatish, yetuklik, hayotni rivojlantirish, shaxsning o'zini o'zi belgilash sohasidagi nazariy tamoyillarni umumlashtirgan K. Rieff psixologik farovonlikning asosiy konstruksiyalarini aniqladi, buning uchun vosita yaratdi. Ularni o'lchash, shu bilan shaxsning psixologik farovonligi mezonlariga aniqlik kiritildi.

Shunday qilib, K. Rieff tomonidan psixologik farovonlikning tarkibiy modeli quyidagi parametrlarni o'z ichiga olgan[29]: o'z-o'zini qabul qilish (shaxsning barcha jihatlarini anglash va qabul qilish, o'zini va butun hayotini ijobiy baholash), shaxsiy. o'sish (rivojlanish, yangi narsalarni o'rganish istagi, o'z taraqqiyot tuyg'usi); avtonomiya (ijtimoiy bosimga dosh berish qobiliyati, o'zini va xatti-harakatlarini baholashda mustaqillik, o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati), atrof-muhitni boshqarish qobiliyati (xohlagan narsaga erishish qobiliyati, o'z maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarni yengish qobiliyati); boshqalar bilan ijobiy munosabatlar (uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni o'rnatish qobiliyati, empatiya qobiliyati, boshqalar bilan munosabatlarda moslashuvchanlik), hayotiy maqsadlarning mavjudligi (o'z hayotining ma'nosi, o'tmish, hozirgi qadriyatlar tajribasi va kelajak).

K. Rieff tomonidan ishlab chiqilgan psixologik farovonlik nazariyasi psixoterapiyaning o'ziga xos usulini yaratish va so'rovnomani tuzish uchun asos bo'lib xizmat qildi, bu psixologiyaning turli sohalarini o'rganishda keng e'tirof etilgan va qo'llanilgan.

Yuqoridagi materialni umumlashtirgan holda, biz "psixologik farovonlik" tushunchasining mazmunini shaxsning uyg'unligi, uning yaxlitligi sifatida tushunish tendentsiyasi haqida gapirishimiz mumkin, bu aniq maqsadlarning mavjudligiga, erishish uchun resurslarning mavjudligiga bog'liq. Xususan, maqsadlar, kishining rejalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyat, shaxslararo munosabatlardan qoniqish va ijobiy his-tuyg'ularning mavjudligi. Shunday qilib, L.A. Kulikov shaxsning uyg'unligi - bu individ mavjudligining asosiy jihatlarining mutanosibligi: shaxsning makonining, shaxsning vaqti va energiyasining, potentsial va amalga oshirilishi[30]. Ammo uyg'unlik yo'li uzoq va unga ma'lum bir tartibsizlik, ya'ni psixologik iztirobsiz erishib bo'lmaydi. Biror narsaning etishmasligisiz baxtni his qila olmaysiz, deb yozadi A.A. Milts - dissonans farazi xilma-xillikni uyg'unlikka olib keladi, chunki statik, yopiq tartibga solish tizimi faqat ideal va haqiqat o'rtasidagi farq tufayli rivojlanishi mumkin.

[28] Bradburn, N.M. The structure of psychological well-being. Chicago: Aldine. 1969.

[29] Ryff, C.D. Keyes C.L.M. The structure of psychological well-being revisited //Journal of Personality and Social Psychology.–1995. Vol. 69. –P. 719– 727.

[30] Куликов, Л.В. Характеристики гармонии личности[Текст] / Л.В. Куликов //Ежегодник российского психологического общества. Материалы III всероссийского съезда психологов. – СПб.:Изд-во СПбГУ, 2002. –С. 646-676.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK MADANIYAT HAQIDAGI QARASHLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tojiboyev Marat Normadovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha)
ta’lim yo‘nalishi 23/2 guruh talabasi
O‘ktamova Gulnoza Farhod qizi
Pedagogika va psixologiya
ta’lim yo‘nalishi 21/2 guruh talabasi
Abduvaliyeva Zulhumor Baxtiyor qizi

Kalit so‘zlar: madaniyat, ilm, pedagogik madaniyat, ta’lim, tarbiya, mutafakkir, didaktika.

Dolzarbligi umumiy madaniyatning muhim tarkibiy qismlari sirasiga pedagogik madaniyat kiradi. Pedagogik madaniyat – bu pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o‘zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt va texnikani namoyon qila olishning yuqori darajasi sanaladi.

O‘z navbatida pedagogning umumiy madaniyati, u tomonidan e’zozlanadigan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, ijodiy pedagogik faoliyati, pedagog shaxsining tavsifi, kasbiy bilimlar va pedagogik tafakkur madaniyati, kasbiy malaka va pedagogik faoliyatning ijodiy xususiyati, shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va pedagogning kasbiy hatti-harakatlari kabi xususiyatlar pedagog madaniyatining asosini tashkil etadi.

Pedagogik madaniyat bir qator elementlar asosida yagona tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimning tarkibiy elementlari sirasiga pedagogik odob, loyihalash, kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, dunyoqarash, fikrlash, his etish, baholash, muloqot va kiyinish madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati kiradi.

Mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan didaktik asarlarda pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari to‘g‘risidagi qimmatli fikr-mulohazalarni uqib olish mumkin. Abu Rayhon Beruniy “... bugunning chorasini ko‘rib ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir”, deb pedagogik loyihalash madaniyatiga ishora qildai. Uning asarlaridagi ta’lim-tarbiya brish borasidagi didatik talablardan shuni anglash mumkinki, loyihalash madaniyati pedagog tomonidan o‘zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istaklarni o‘zaro uyg‘unlashtira olgan holda maqsad hamda vazifalarni to‘g‘ri belgilay olish, pedagogik jarayonni bosqichlar bo‘yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasiga egalikni tavsiflaydi. Shuningdek, faoliyatga ijodiy yondashishni, yangiliklarni yaratishni, qat’iy belgilangan me’yor va talablar doirasidagina emas, balki erkin ijod qilish qobiliyatiga ham egalikni bildiradi. Beruniy loyihalash madaniyatini “...har bir insonning qadr-qiymati o‘z ishini qoyil qilib bajarishida”, deb biladi. [1].

Maqsadi bugungi kunda insoniyat ulkan hajmga ega pedagogik bilimlarga ega. Mazkur madaniyat zamonaviy pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o‘zlashtirish yo’lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligini anglatadi. Imom Buxoriyning “Al-jomi’ ac-cahih” asarining “Ilm kitob” bo‘limida ilm egallash odobining 54 haqida hikoyat qilinadi. Ularda Muhammad payg‘ambarimizning ilm o‘rganish va o‘rgatishga doir ko‘rsatmalari bayon etilgan. Islom dini qabul qilingan mamlakatlardagi maktab va madrasalarda saboq bergan mudarrislar bir necha asrlar davomida kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyatiga oid ushbu didaktik talablarga amal qilganlar:

-ilm o‘rganish va o‘rgatish uchun ma’lum kunlarni qat’iy belgilab qo‘yish;
-ilm fahmlab, teran tushunib anglab o‘rganish, esda mustahkam saqlash;
-teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilmlarni yod olish;
-ilm o‘rganish jarayonida bolaga, lozim hollarda, tanbeh berish mumkinligi;
-kishi ilmni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatishi, ilmga o‘zi amal qilishi zarurligi;
-ilmning susayishi, ilmga e’tiborsizlik jamiyatni muqarrar inqirozga yetaklashini tushunish;

-ilmni oson, yengil qilib odamlarni bezdirmay o‘rgatish;

-ilmni so‘rab bilib olish, bilim o‘rganishda uyalmaslik, o‘zi uyalsa boshqa birov orqali so‘rab bilib olish zarurligi;

-ilmga doir savol bergan odamga so‘raganidan ko‘ra ko‘proq javob qaytarish;

-bilim tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun har bir gapni bir necha marta (3 bor) qaytarishning afzalligi.

Pedagogik dunyoqarash ham pedagogik madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyoqarashga egalik barcha soha mutaxassislarda bo‘lgani kabi pedagog hayoti, faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik dunyoqarashning muayyan darajasi pedagog va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonining mazmuni, natijalarini belgilaydi. Jaloliddin Davoniyning ta’biri bilan aytganda, ”...har bir masalaga muayyan va chuqur yondashishni talab qiladi, uni hal qilishda ma’lum nuqtai nazardan turish lozim, toki, muhim masalalar qolib ketib, ikkinchi darajalilari hal qilinmasin”.

Husayn Voiz Koshifiy sozlash odobi haqida to‘xtalib,“Bil, odaming sharafi va iftixori uning qanday so‘zlashidadir. Kimki, so‘zlash odobiga rioya qilmasa, u insoniylik sharafidan bebahra qoladi”, deb ta’kidlaydi. Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbatidir.

Natija pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta’lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi. Pedagogik odob – bu pedagog (o‘qituvchi) oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi:

“Suhbat vaqtida qo‘l siltash, qo‘lni hadeb boshga yoki sochga tegizaverish, boshni qashiyverish, barmoq bilan burun uchini ushlayverish-shu kabi odatlar atrofdagi odamlarni norohat qiladi. Qoshlarni chimirish yoki uchirish orqali biron ishorani amalga oshirish-boshqa kishilarni tahqirlashdir” **(**Mustafo Homiy Poshsho). [2]

Xulosa ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ham pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shu sababli har bir pedagog tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Ibn Sino ta’limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib ko‘ymaslik;
- ta’limda engildan qiyinga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- maktabda jamoa bo‘lib o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning xoxishi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan ko‘shib olib borish.

Kiyinish madaniyati haqida ham mutafakkirlarimiz qarashlarini bayon etishgan. Husayn Voiz Koshifiy liboslarning rangi turlicha bo‘lishini hamda har biri o‘ziga xos ma’noni ifodalashini ta’kidlaydi. Jumladan, “… oq kiyim kunning rangidadir. Shuning uchun bunday libos yuragida gina va adolati bo‘lmagan kishilarga yarashadi. Oq kiyim kiygan kishi huddi ton kabi kishilarga nur ulashishi kerak. [3]

Ko‘k rang-suv rangidir. Shu bois bu rangda kiyingan kishi saxiy va xayotni sevuvchi bo‘lishi kerak. Kim agar bu rangni maqul ko‘rsa, u xuddi suvdek toza va musaffo, har bir qalbga yaqin bo‘lishi lozim”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Abu Rayhon Beruniy. 100 Hikmat.-T.: Fan, 1993.-24 b.

[2] Hikmatnoma. – T.: Cho‘lpon, 1992. – 112-bet.

[3] Husayn Voiz Koshifiy. Kim bilan do‘stlashish kerak(“Axloqi Muhsiniy”dan)- T.: Cho‘lpon, 1992. – 32-bet.

AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHNING ASOSIY YONDASHUVLARI

Iskandarova Ruxshana
23-2 PEP guruh talabasi
CHDPU
Ilmiy rahbar: **Burteshova Aliya**
CHDPU

Annotatsiya: Jahon psixologiyasida bolalar va yoshlar orasidagi agressiv xulq-atvor muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada agressivlikning biologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik determinantlari va agressiv xulq atvor reprezentatsiyasiga xos xususiyatlari o'rganilgan

Kalit sўzlar: Agressiya, xulq-atvor, o'smirlik davri, motivlar, psixologiya.

Agressiya va agressivlik tushunchatarini bir-biridan ajratib tahlil qilish lozimdir. Agressiya - bu odamlar, yoki insonlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yegkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui bўlib hisoblanadi. Agressivlik — shaxsning nisbatan barkaror xususiyati bўlib, u tajovuzkorlikka tayyorgarlikni ifodalash bilan birga, dushmanlik asosida boshqalarping xulk-atvori, xatti- harakatini qabul qilish va tushunishga moyillikni bildiradi. Agressivlik barqarorlik kuchi hamda shaxs tuzilishining bir qismi sifatida xulk-atvorning umumiy tendensiyasini oldindan aniqlash imkoniyatiga ega buladi. Psixologiyada "agressiya" tushunchasi turlicha yondoshuv asosida tahlil qilingan bulib, bir guruh tadqiqotchilar agressiyani salbiy xulq-atvor modeli sifatida baholasalar, yana bir guruh tadqiqotchilar bu xulq- atvorning ijobiy tomonlari ham mavjudligini ta'kidlaydilar. "Bizlar, - deb yozadi R. Kratchfild va N.Livsonlar - agressiya axloqiylikning aksi demoqchi emasmiz: zotan agressiyaning ba'zi bir shakllariga axloqsizlik sifatida karalmaydi. Biroq, u aksariyat xollarda axloqsizlikdir, shuning uchun axloqiylikni ўzlashtirilnshiga ma'sul mexanizmlar agressiv impulslar ijtimoiylashuvi negizida ham yotadi". Ular agressiyaning ikki birbirini inkor etmaydigan va birday maqbul tavsiflarini berganlar.

Agressiyaning biologik va psixologik asoslari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan (K.Lorens etologik yondashuv; U.Deyli va K.Uilson, D.Bass va S.Sheyklford evolyusionistik yondashuv; Z.Freyd, Di Lalla va Gottesman genetik yondashuv; L.Berkovis, Le Paj, S.L.Miller frustratsiya agressiya yondashuv). Bolalik va o'smirlik davridagi psixik xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari xulq-atvor, jumladan, agressiv xulq muammosini tadqiq etishga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Shaxsning hissiy-emotsional sohasini tadqiq etishga qaratilgan ishlarda (G.A.Bogdalova, G.V.Xrulnova, B.M.Umarov, L.V.Nazirova, M.Sh.Rasuleva, A.B.Sabirova) agressiya muammosiga yaqin masalalar tahliliberiladi. Jumladan, M.Dalimovaning ilmiy tadqiqot ishi bolalardagi tobe axloq va uning psixologik mohiyati, kompyuter o'yinlariga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillar, kompyuter o'yinlariga tobelik o'smirlarda verbal va jismoniy agressiyaning ortishini, bu bilvosita agressiyaning hamtug'ilishiga turtki bo'lganligini aniqlangan. Tojikiston olimlari tomonidan o'smirlik davrida hissiy holatlar, o'smir shaxsi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar muammolari xaqida tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ammo, agressiv xulq-atvor muammosi maxsus psixologik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmaganligi ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O'smirlar agressiv xulq-atvori motivlari xaqida pedagoglarda shakllangan tasavvurlarni aniqlash maqsadida o'qituvchilarda "Agressiv xulq motivlarini aniqlash" so'rovnomasidan foydalanilgan. So'rovnoma paytida o'qituvchilar turli yosh guruhlarida (5, 7, 9-sinflar) o'g'il bolalarning bir-biri bilan hamda qiz bolalarning o'zaro munosabatlarida agressiv hulq-atvor yuzaga kelishini taqozo.

Pedagoglar fikricha, agressiv xulq-atvor ijtimoiy-guruhiy tavsiflar (guruhda yuqori mavqe uchun kurashish, guruhdagi past mavqeni oshirish istagi, guruhda o'zining ustunligini ko'rsatishga intilish), guruhiy identifikatsiya(begona guruh oldida o'z guruhi manfaatlarini himoya qilish), g'oyaviy qarama-qarshiliklar(qiziqishlar, qadriyatlar, fikrlar to'qnashuvi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish) motivlari ta'sirida namoyon bo'lar ekan. 5 va 7-sinf o'quvchilarida ichki guruhiy mavqe darajasi ahamiyatining

oshishi nafaqat guruhga mansublik hissining kuchayishi hisobiga, balki katta bo‘lish istagi kuchayishi sababli ham yuzaga keladi. 7-sinfdan9-sinfga o‘tish birinchi navbatda shaxslararo o‘zaro munosabatlarning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Bu o‘smirlarning agressivligini keltirib chiqaruvchi gijgijlashga qarshi reaksiya, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qiziqishlar, qadriyatlar va fikrlar to‘qnashuvi, qarama-qarshi jinsni e’tiboriga tushish, raqibga nisbatan rashk hissini namoyon etish sabablarining ahamiyati oshishida o‘z aksini topdi.

O‘qituvchilarning baholashi bo‘yicha mazkur yosh davrida o‘quvchi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan “Biz hissi” ni namoyon qilishga emas, balki o‘z mavqeini belgilab olishga va shaxsiy identifikatsiyaga yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar va o‘zaro individual to‘qnashuvlar bilan bog‘liq o‘quvchilar agressiv hulqatvorining sabablari aniqlandi. Shunday qilib, mazkur yosh davridagi o‘quvchilar agressiv xulq-atvorining sabablarini o‘qituvchilar tomonidan baholanishida pubertat bosqich bilan bog‘liq yosh xususiyatlarini aks ettiruvchi sifatlar hamda o‘smir shaxsi shakllanishini tavsiflovchi o‘z mavqeini belgilab olish, shaxsiy identifikatsiya xususiyatlari bilan bog‘liq kompleks sabablar muhimligi qayd etildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘smirlarda agressiv xulq-atvor ijtimoiy-guruhiy tavsiflar (guruhda yuqori status uchun kurashish, guruhda past mavqeni ko‘tarish, guruhda o‘zining ustunligini ko‘rsatishga intilish), guruhiy identifikatsiya (begona guruh oldida o‘z guruhi qiziqishlarini himoya qilish), g‘oyaviy qarama qarshiliklar (qiziqishlar, qadriyatlar, fikrlar to‘qnashuvi, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish) kabi motivlar ta’sirida yuzaga keladi.

2. Agressiv xulq-atvorning yosh xususiyatlaridagi o‘ziga xos mikroyosh dinamikasi aniqlanib bunda agressiya 5-sinf o‘quvchilarida bilvosita agressiya, jizzakilik hamda jismoniy agressiya ko‘rinishida, 7-sinf o‘quvchilarida jismoniy, verbal agressiya, negativizm, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik, aybdorlik hissi shaklida, 9-sinf o‘quvchilari ham jismoniy, verbal agressiya hamda jizzakilik shaklida ifodalanadi.

3. Miqdoriy tahlilda o‘rta o‘smirlik davrida(12-13 yosh) agressiyani namoyon etish bo‘yicha boshqa yosh davrlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkich aniqlanib bu“o‘tish inqiroz”ining eng shiddatli kechayotgan davri xususiyatlari jumladan, bunday yoshda agressiv bo‘lish ko‘pincha“kuchli bo‘lish yoki shunday tuyulish” ni anglatishi bilan izohlanadi.

4.O‘smirlar agressivligidagi jins tafovutlarida aniqlanishicha 7-infdagi o‘g‘il bolalarda jismoniy agressiya va aybdorlik hissi (autogressiya) qizlarga qaraganda yuqori bo‘lsa, bilvosita agressiyada 7- sinf qizlari bevosita emas balki, bilvosita agressiya ko‘rinishlari–arazlash, gina saqlash, ortidan gapirish, chaqimchilik, g‘iybat kabi holatlarni namoyon etadilar.

5. Agressivlik shakllari bilan ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning interkorrelyatsion bog‘lanishlaridan ma’lum bo‘ldiki, “qabul qilish” va“kooperatsiya” munosabatlari agressivlik shakllaridan jismoniy agressiya, shubhalanuvchanlik, aybdorlik hissi va agressiyaning umumiy ko‘rsatkichlarini oshiradi, va aksincha, “avtoritar giperijtimoiy” tarbiya uslubida jismoniy agressiya, shubhalanuvchanlik, aybdorlik hissi, dushmanlik munosabati kabi ko‘rsatkichlarning kamaytiradi.

6. O‘smirlardagi agressiv xulq-atvorni korreksiya qilish maqsadida ishlab chiqilgan“Xulq-atvorni modifikatsiyalash treningi” dasturiga kiritilgan korreksion texnikalar va agressiv hulq-atvorni bosqichma-bosqich o‘zgartirish modeli ya’ni, shaxsning o‘zini-o‘zi va o‘z histuyg‘ularini anglash, o‘z shaxsini qayta baholash, hissiyotlar ustida ishlash, agressiv xulq-atvorni anglash, shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklar, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barkamollikka intilish, ota-ona va pedagoglar bilan ishlash kabi mashg‘ulotlar majmui qo‘llanildi.

7. O‘smirlar bilan amalga oshirilgan korreksion taktikasi samaradorligi bilan e’tiborga loyiq. Amaliyot natijasida eksperimental guruhda agressivlikning pasayishi kuzatilgani, matematik statistik tahlilda tajriba guruhida yuqori darajadagi ahamiyatli ko‘rsatkichlar namoyon bo‘lgani, nazorat guruhida olingan tahlil natijalarida esa ahamiyatsiz ko‘r

Adabiyotlar:

1. Barnett O., Miller-Perrin C.L. (1997). Family violence across the lifespan.
2. Thousand Oaks, CA: Sage., Buss A. The psychology of aggression.– N.Y.– 1961.132r.;

O’SMIRLIK DAVRIDAGI TAJOVUZKOR XATTI-HARAKATLARNING XUSUSIYATLARI

Nizomova Muxlisa
23-2 PEP guruh talabasi
CHDPU

Ilmiy rahbar: **Burteshova Aliya**
CHDPU

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola pedagogik faoliyatda bolalar agressiyani boshqarishning psixologik xususiyatlari tahlil qilib berilgan. Pedagoglar tomonidan bolalardagi agressiyasi darajasini aniqlashda uni keltirib chiqaradigan omillarni chuqur tahlil qilish orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, bolada stressning paydo bo‘lish sabablari va ularni ularni bartaraf etish bo‘yicha psixologik tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: agressiya, stress, pedagog, oilaviy muhit, pedagogik jamoa.

Inson qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat’iy nazar u kasbiy faoliyat bilan bog‘liq stressogen omillarga to‘qnash keladi. Pedagog kasbi esa “insoninson” tizimidagi faoliyat sohasi bo‘lganligi bois kasbiy stressorga boydir. Stress turli xildagi psixik buzilishlarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotganligini, natijada xodimlarning ish qobiliyati susayib, ish samaradorligi pasayib ketayotganligini ko‘rsatmoqda. Xalqaro stressni boshqarish assosatsiyasi mutaxassislari tomonidan ish jarayonida yuzaga keladigan negativ psixik zo‘riqishlar, bolalardagi agressiya, ishchixodimlarda kasbiy charchoq, surunkali toliqish, emotsional-irodaviy jarayonlardagi buzilishlar aynan kasbiy stresslarni keltirib chiqaruvchi omil ekanligi asoslanilgan. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Maktabgacha davr – bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bola barkamol shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor qo‘yiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va tarbiyasi – bir butun va uzluksiz jarayon bo‘lib, u doimo pedagog va ota-onalarning diqqat- e’tiborida bo‘lishi zarur. Bola qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanayotganligi, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini egallash jarayonida qanday to‘siqlar uchrashi mumkinligini oldindan tushunish malakaviy yondashishni talab etadi [1]. Shaxs rivojlanish jarayonida turli o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazadi. Turli xarakterga ega bo‘lgan ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida, xususan maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvorida o‘zgarishlar, jumladan agressiv holatlar kuzatiladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, pedagoglar tomonidan bolalardagi agressiya va uning psixologik jihatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda “agressiya”ga (lotin. aggressio – hujum) “yo‘naltirilgan salbiy xulq- atvor, ijtimoiy muhitdagi qoidalar, normalarga amal qilmaslik, insonlarga jismoniy va ruhiy zarar keltirish” deya ta’rif beriladi [2]. “Bolalar agressiyasi – bolalarga xos tajovuzkorona xatti-harakat. U bolalar alam yoki g‘azab tuyg‘ularini boshlaridan kechirib, ularni izhor etishning ijtimoiy maqbul usullarini topa olmagan yoki kattalarga taqlidan yo‘l tutgan paytlarda namoyon bo‘ladi. Bola o‘z qo‘rquvini yashirishga intilgan holatlarda psixologik jihatdan o‘zini himoyalash reaksiyasi bo‘lishi ham mumkin”.

Agressivlik holati ko‘pchilik kichik yoshdagi bolalarga xos bo‘lib, ko‘p hollarda agressiv xatti-harakat o‘tish davrida kuzatiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro‘baro‘ bo‘ladi, natijada uning xattiharakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlanadi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o‘tishi qiyin kechadi.

Agressiv bolalarning xususiyatlari:

- har bir vaziyatda xavf-xatar sezish;
- o‘ziga nisbatan salbiy munosabatni his etish;
- atrofdagilarni salbiy idrok qilish;

- o‘zini nazorat qila olmaslik;
- salbiy xatti-harakatlarning oqibatlarini o‘ylamaslik;
- insonlar va hayvonlarga nisbatan bag‘ritoshlik;
- agressiyadan zavqlanish, u yordamida kuchli bo‘laman, deb o‘ylash.

Agressiv xatti-harakatlar:
- boshqalarga (og‘zaki, imo-ishoralar orqali) tahdid;
- jismoniy zo‘ravonlik;
- zo‘ravonlik qilishda buyumlardan foydalanish, zarar keltirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xatti- harakatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Nosog‘lom oila muhiti:
- oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi;
- oilada o‘zini ortiqcha, keraksiz his etish;
- hissiyotlariga nisbatan befarqlikni sezish;
- oiladagi notinchlik, urish, janjallar.

2. Kattalarning munosabatlari:
- bolalar bilan negativ muloqot;
- ko‘p buyruq berish, ayblov va tahdidlar;
- bolani tanqid va haqorat qilish;
- bolaning xohish-istaklariga qarshi chiqish, hisobga olmaslik. Bu holat bolalarda qasosni rivojlantiradi.

3. Televidenie:
- jangari filmlar;
- multfilmlar.

4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaning tengdoshlari bilan munosabati:
- guruhdagi o‘rni;
- tengdoshlarining munosabatlaridan qoniqmasligi.

Yuqoridagi holatlardan shu ma’lum bo‘ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi.

Bolalardagi agressiv munosabatlar, xatti-harakatlarni bartaraf etishni avvalo oiladagi munosabatlarni o‘rganish, ota- onalar bilan hamkorlik qilishdan boshlash lozim. Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishlash qiyin jarayon. Buning asosiy sababi o‘sha ota-onalar ham o‘z vaqtida agressiv farzand bo‘lgan. Ruhiy qiyinchiliklar esa farzandlarga ham o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasasi psixologi ishni ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishdan boshlashi tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasasida psixolog, tarbiyachi va oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, mehribonlik, g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lsa, agressiv xatti-harakatlarini kamaytirish va yengib o‘tishiga imkoniyat yaratiladi.

Mashhur oilaviy terapevt Virdjiniya Satir bolani kuniga bir necha marotaba quchoqlashni tavsiya etadi. Uning fikricha, 4 marotaba bag‘rga bosish har bir insonga faqatgina yashash uchun kerak ekan, yaxshi kayfiyat uchun esa kuniga 8 marotaba bag‘rga bosish kerak ekan! Bola intellektual rivojlanishi uchun esa kuniga 12 marotaba uni quchoqlash kerak! Va shuni bilingki, bu nafaqat bolaga, kattalarga ham kerak. Bola ota-onasi uni doim tushunishlari va nima bo‘lganda ham qabul qilishlarini his etishi kerak. Bolaga ushbu narsalar o‘sayotgan organizmga ovqat kerak bo‘lganidek judayam zarur. Ular bolani psixologik rivojlantirib, hissiy oziqlantiradi. Agar bola shu qo‘llab- quvvatlashni olmasa, hissiy muammolar, xulqida kamchiliklar, agressiv harakatlar kuzatiladi, hattoki, asab-psixik kasalliklar vujudga keladi. Shu sababli agressiv bola bilan ishlash jarayoni – ota-onalar va pedagoglardan sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvni talab qiladi. To‘g‘ri yo‘sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola o‘zini nazorat qilish, atrofidagi insonlarga mehrli munosabatda bo‘lishni o‘rganadi, ruhiy jihatdan sog‘lom o‘sadi, mustaqil fikr yuritadi va katta hayotga dadil qadam qo‘yishga tayyorlanadi.

Adabiyotlar:
1. Barnett O., Miller-Perrin C.L. (1997). Family violence across the lifespan.
2. Thousand Oaks, CA: Sage., Buss A. The psychology of aggression.– N.Y.– 1961.132r.;

TALABALARDA PEDAGOGIK EMPATIYANI RIVOJLANTIRISHDA YOSH BOSQICHLARINING AHAMIYATI

Tashanova Farida Zoirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi o‘qiyuvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
talabalari :**Do‘styorova Aziza Orif qizi**
Ergasheva Nozima Alim qizi
Mengilova Gulbahor Abduqodir qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada empatiya, empatiyaning nazariy jihati, talabalarda pedagogik empatiyaning psixologik xususiyatlari asoslab berilgan. Bunda talabalar shaxsida pedagogik empatiya shakllanmagan bo‘lib, yosh davrlariga, kurs bosqichlariga ko’ra o‘ziga xosdir: 18-19 yoshli talabalarda emotsiyanallik bilan identifikatsiyalashuv; 20- 21 yoshli talabalarda esa emotsiyanallik bilan sidqidillik; 22-23 yoshli talabalarda identifikatsiyalashuv, intuitivlik; 24-25 yoshli talabalarda esa emotsiyaga muvofiqlashuv, identifikatsiya kanallari va ratsionallik shakllanganligi aniqlangan.

Kalit so’zlar: talaba, emotsionallik, kamolot, sidqidillik, intuitivlik, ratsionallik, identifikatsiya, pedagogik empatiya

Аннотация: В статье раскрыты эмпатия, теортический аспект эмпатия, психологические особенности педагогической эмпатии у студентов. Педагогическая эмпатия не формеруется в личности студенов и специфична в зависимости от возрастных периодов и этапов обучения. Эмоционалная идентификация у студентов 18-19 лет; у тедентов 20-21 года серьезность и эмочионалность; идентификация, интуитивность у студентов 22-23лет; у студентов 24-25 лет выявлено формированиеэмоциональной координации, каналов идентификации и рационалности.

Ключевые слова: студент, эмоциональность, зрелость, серьезность, интуиция, рационалность, идентификация, педагогическая эмпатия

Bir qator tadqiqotchilar empatiyada o'zi boshdan kechirayotgan his-tuyg'ular aloqa sherigi his-tuyg'ularining aksi ekanligini bilishini ta'kidlaydi. Agar bu sodir bo'lmasa, unda bunday jarayon, ularning nuqtai nazari bo'yicha, empatiya emas, balki suhbatdosh bilan identifikatsiya qilishdir. Bu hozirgi his-tuyg'ular boshqa odamning holatini aks ettirishini tushunish qobiliyatidir, bu shaxsga sherikni yaxshiroq tushunish uchun ushbu qobiliyatdan foydalanishga imkon beradi va ularning individual his-tuyg'ulari va sherikning his-tuyg'ulariga javoban paydo bo'lgan his-tuyg'ularni farqlash imkonini beradi.

Endi empatiyaning ta'rifi yaxshi tasdiqlangan deb hisoblanadi, bu odamning boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunish, uning his-tuyg'ulariga hissiy jihatdan javob berish qobiliyatini tavsiflaydi. Binobarin, empatiya nafaqat odamlarga, balki barcha tirik mavjudotlarga nisbatan nozik his qilish, xayrixohlik, hamdardlik bildirish qobiliyatidir.Bu qobiliyat boshqa odamning ruhiy sohasida sodir bo'layotgan voqealarni to'g'ri tasavvur qilish, uning kechinmalarini tushunish, shuningdek, tashqi dunyo va ichki sezgilarni baholash qobiliyatiga asoslanadi.

Muloqotda namoyon bo'lish samaradorligi nuqtai nazaridan insonning empatiyasi ba'zi xususiyatlarga ega. Shu munosabat bilan tadqiqotchilar muayyan shakl va turlarni ajratadilar. Olimlarning muhim qismi, xususan, Gippenreiter Yu.B., Karyagina T.D., Kozlova E.N., empatiyani oddiy, murakkab va yuqori shakllarga bo'lish mumkin, deb o'ylashadi.[31] Oddiy shakl - "infektsiya". Bu shakl boshqa

odamning his-tuyg'ularini to'g'ridan-to'g'ri va beixtiyor takrorlashni o'z ichiga oladi. Tuyg'u bilan xuddi shunday "infektsiya" olomonda, kontsert zalida va hokazolarda kuzatiladi. Yuqumlilik - bu shaxsning ma'lum ruhiy holatlarga ongsiz, beixtiyor moyilligi. Shu nuqtai nazardan, infektsiya o'z-o'zidan namoyon bo'ladigan inson xatti-harakatlarining tabiiy, dasturlashtirilgan adaptiv ichki mexanizmining shakli sifatida ishlaydi. Ijtimoiy-psixologik infektsiya mexanizmi bir-biri bilan muloqotda bo'lgan odamlarning hissiy ta'sirini ko'p marta o'zaro kuchaytirish ta'siriga kamayadi.

Boshqa odamning salbiy hissiy tajribalari (qayg'u, alam) ijobiy (masalan, quvonch yoki zavq) ga qaraganda osonroq hamdardlikni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy tashkilotlarga kelsak, odamlar uchun empatiya shakllari shaxslararo munosabatlarning turi va tabiatiga bog'liq bo'lishi xarakterlidir. V.N.Myasishchev nuqtai nazaridan shaxslararo munosabatlar - bu sub'ektiv ravishda tajribaga ega bo'lgan, shuningdek, birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida odamlarning bir-biriga nisbatan o'zaro ta'sir qilish tabiati va usullarida ob'ektiv ravishda namoyon bo'ladigan odamlar o'rtasidagi munosabatlar. Ushbu munosabatlar odamlar bir-birini idrok etish va baholash uchun munosabatlar, yo'nalishlar, kutishlar, stereotiplar va boshqa moyilliklar tizimi sifatida ifodalanishi mumkin.

V.V.Boykoning ”Empatik qobiliyatlilik darajasi diagnostikasi” metodikasi jami 36 ta savoldan tashkil topgan.

Ushbu metodika empatiyani quyidagicha aniqlashga qaratilgan:

1. Empatiyaning ratsional kanali kishining e’tiborini, tafakkurini, o‘zga kishining holatini, muammolari va xulqini tushunishga qanchalar moyilligni ko‘rsatadi.
2. Empatiyaning emotsional kanalida shaxsning atrofidagilarni hissiy qabul qilishi, ularning kechinma va tuyg‘ularini his etishi va dardiga sherik bo‘lishi, qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini aks ettiradi.
3. Empatiyaning intuitiv kanali insonning o‘z sherigining xulq-atvori va xatti-harakatlarini prognozlash qobiliyatini ifodalaydi.
4. Empatiyani qo‘zg‘atuvchi yoki susaytiruvchi sharoitlari (shakllantiruvchi). Agar inson boshqalardan o‘zini olib qochsa, odamlar bilan suhbatlashishdan o‘zini chetga olsa va ularga bee’tibor bo‘lsa, boshqalarning muammolariga befarq qarasa, empatiyaning samaradorligi kamayadi.
5. Empatiya holatiga kirishish qobiliyati inson uchun muhim bo‘lib, uning kommunikativ xususiyatlari odamlarda erkinlik, ishonuvchanlik va mehr hissini shakllantiradi.
6. Identifikatsiyalash – empatiyaning muhim sharti hisoblanib, u insonni o‘zga kishilarning dardini o‘zida kechirish va ularga hamdard bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi.

Har bir shkala bo‘yicha baholar asosiy ko‘rsatkich bo‘lmish empatiya darajasini tavsiflashda ko‘makchi vazifasini o‘taydi.[32]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalarning turli yosh bosqichlarida empatiyaga qobiliyatlilik bir tekisda rivojlanmagan bo‘lib, barcha bosqichlarda o‘ziga xosdir: 18- 19 yoshli talabalarda emotsioanllik bilan identifikatsiyalashuv; 20- 21 yoshli talabalarda esa emotsionallik bilan sidqidillik; 22-23 yoshli talabalarda ratsionallik, intuitivlik va identifikatsiyalashuv; 24-25 yoshli talabalarda esa ratsionallik, emotsiyaga muvofiqlashuv va identifikatsiya kanallarini shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]На начальном этапе разработки данной тематики в отечественной психологии более распространенным было понятие «идентификация» (Авдеева, 1975; Кричевский, 1981;Петровский, 1973).

[2]. Avlaev, O. U., & Mamatkulova, Z. G. (2019). The interpersonal relationship of the dynamic components of social intelligence of students. Science and education today, (12 (47)).

[3].Avlaev O., Butaeva U. determinant of personal Psychological development. Scientific-methodical journal of public education. 2021. № 6 pages 87-92.
[4]. Gippenreyter Yu.B., Karyagina T.D., Kozlova Ye.N. Fenomen kongruentnoy empatii // Voprosы psixologii. 1993. № 4. S. 61-68.
[5]. Myasiщev V.N. Psixologiya otnosheniy / Pod red. A. A. Bodaleva. M.: Nauka, 1995. S. 12- 17.
[6]. Legkaya U.A. K voprosu opredeleniya fenomena empatii // V sbornike: Sovremennыy vzglyad na nauku i obrazovanie. Sbornik nauchnыx statey. Moskva, 2020. S. 125-128.

TALABALARDA PEDAGOGIK EMPATIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY XUSUSIYATLARI

Tashanova Farida Zoirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
talabalari: **Turdiyev Umidbek Meyli o‘g’li**
Utegenova Aynur Janibek qizi
Rembayeva Mahliyo Umidbek qizi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada empatiya haqida ,empatiya turlari, empatiyaning yuqori yoki past bo‘lishi genetika, atrof-muhit bilan bog‘liqligi, insonlarda empatiyaning turli darajada ekanligining psixologik sabablari keltirilgan. Pedagogik empatiya va uning yo’qligi yoki pastligi talaba shaxsiga va ta’lim sifatiga zarar keltirishi mumkinligi, empatiyaning pedagogik sohada ahamiyati yoritilgan bo’lib, talabalarda pedagogik empatiyani shakllantirish usullari haqida ham aytib o’tilgan.

Tayanch tushunchalar: empatiya, pedagogik empatiya, talaba, psixologik sabablar, pedagogik muloqot, pedagogik hamkorlik, kognitiv, hissiy, predikativ, empatiya darajalari, empatiya turlari

Аннотация: В этой статье говорится об эмпатии, типах эмпатии, о том, связана ли высокая или низкая эмпатия с генетикой, окружающей средой, психологическими причинами, по которым люди имеют разные уровни эмпатии у студентов. Педагогическая эмпатия и то, что ее отсутствие или низкий уровень могут нанести вред личности ученика и качеству образования, подчеркивается значение эмпатии у студентов.

Основные понятия: эмпатия, педагогическая эмпатия, студент, психологическая причины, педагогигическое общение, когнитивная, эмоциональная, предикат уровни эмпатии, виды эмпатии, кооперация

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga e’ tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Respublikamizda ta’lim sifatini oshirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasi ta'lim borasida ham rivojlangan, zamonaviy mamlakatlar qatoriga chiqishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yar ekan, ta’lim sifatiga doir muammolarni bartaraf etishni taqazo etadi. Bo’lajak pedagoglarda pedagogik qobiliyatlar bilan birga pedagogik empatiyani ham shakllantirish hamda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu har bir pedagogik oliy o’quv yurtlarining ta’lim faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda namoyon bo'lish samaradorligi nuqtai nazaridan insonning empatiyasi ba'zi xususiyatlarga ega. Shu munosabat bilan tadqiqotchilar muayyan shakl va turlarni ajratadilar. Olimlarning muhim qismi, xususan, Gippenreiter Yu.B., Karyagina T.D., Kozlova E.N., empatiyani oddiy, murakkab va yuqori shakllarga bo'lish mumkin, deb o'ylashadi va empatiya borasida ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Empatiya - bu boshqa odamlarning ruhiy holatini his qilish qobiliyati, shuningdek, ularning fikrlash tarzini qabul qilish va haqiqatni o'z nuqtai nazaridan ko'rish qobiliyati.

Yunoncha "empatheia" so'zi "azob" degan ma'noni anglatadi. Psixologiyada empatiya atamasi boshqa odamlarning hissiy holatlarini idrok etish va ularga empatiya qilish qobiliyatini anglatadi. Empatiyani hamdardlik bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Rahmdillik bizni hamdardlik qiladigan odamdan bir oz yuqoriroq joylashtiradi **empatiya** bu o'zingizni boshqa odamning o'rniga qo'yish qobiliyatidir.

Amalda empatiya juda muhim ijtimoiy mahoratdir. Muhim empatik qobiliyatga ega bo'lgan odam o'z his-tuyg'ularini tushunadi va boshqa odamlardagi hissiy holatlarni aniq taniy oladi. Bu ijtimoiy qaramlik va shaxslararo munosabatlarni tushunishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. **Empatik odamlar** ular boshqa odamlarning his-tuyg'ularini bilishadi, o'z qadriyatlarining asosini ko'rishadi va muayyan vaziyatlarga hamdard bo'lishga qodir. Dunyoni bunday idrok etish o'z qarashlarimizni tekshirish va xatolarni tan olish, shuningdek, tajovuzkor xatti-harakatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Ijtimoiy kontekstda empatiyaning yo'qligi salbiy hodisadir, chunki u befarqlikka, nizolarni hal qilishda va kuchli yechimlarga erishishda qiyinchiliklarga olib keladi.Empatiya Maslouning mashhur ehtiyojlar piramidasining markazida joylashgan tegishlilik ehtiyojini qondirishga imkon beradi.

Odamlarda empatiyaning turli darajada ekanligiga bir qancha sabablar mavjud. Psixologiya sabablarning uchta guruhini ajratadi: biologik, psixologik va ekologik moyillik.

1. Biologik moyillik ajdodlarimizdan olingan materialdir. Biz empatiyaning ma'lum bir darajasiga dasturlashtirilgan holda tug'ilganmiz va olimlarning ta'kidlashicha, biologik moyillik bizning empatiya darajamiz uchun 50 foizga javob beradi.
2. Psixologik moyillik - bu biz bolalikda qabul qilingan naqshlar va yaqinlarimiz o'rtasida hukmronlik qilgan va hukmron bo'lgan munosabatlardir. Psixologlarning ta'kidlashicha, empatik odamlar boshqa odam uchun mas'uliyat hissi bilan birga o'z harakatlarining oqibatlarini ham anglab etishgan. Empatiya darajasi past bo'lgan odamlar odatda jazosiz va boshqalar uchun mas'uliyatning yetishmasligi hissi bilan o'sgan.
3. Atrof-muhitga moyillik bizning hayotimiz davomida bizni shakllantiradigan omillardir. Psixologiyaning ta'kidlashicha, empatiya darajasi yoshga qarab o'zgaradi va biz yashayotgan muhit va unda hukmron bo'lgan xatti-harakatlarning qabul qilingan namunalari empatiya darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Empatiya tarbiyasi quyidagi fikrlarga asoslanishga arziydi:

1. Diqqatni o'rgatish - vaziyatni kuzatish, uning rivojlanishini kuzatish;
2. Tinglash amaliyoti - eshitilayotgan narsani tushunish, boshqa odam tomonidan his-tuyg'ularning chaqiruviga sezgir bo'lish, u etkazmoqchi bo'lgan narsaga e'tibor berish;
3. O'z-o'zini anglashni o'rgatish - o'z his-tuyg'ularingizni tan olish va ularni nomlashni o'rganish;
4. muloqot mashqlari - o'z his-tuyg'ularingizni etkazish va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini nomlash.

Empatiya yo'q yoki past darajadagi holatning sabablari bolalik davrida, bolaning jamiyatda tabiiy moslashuviga olib keladigan to'g'ri jarayonlar buzilganida ildiz otadi. Bu yerda og'ir oilaviy vaziyat etarli, jumladan tez-tez nizolar, xavfsizlik hissi yo'qligi, ota-onalar yoki vasiylarning bolaga e'tibor bermasligi. Noto'g'ri hissiy rivojlanish har xil turdagi patologik vaziyatlar, travmalar, shuningdek, atrof-muhitning noqulay ta'siridan kelib chiqadi. Ba'zida atrof-muhit omillari faqat empatiyaning rivojlanishini cheklaydi, ammo keyinchalik hayotda bu qobiliyat, agar biz kognitiv jarayonlarimizni rivojlantirsak va tegishli tajribaga ega bo'lsak, baribir rivojlanishi mumkin. Empatiyaning yo'qligi, shuningdek, shaxsiyatning buzilishi, jumladan, narsisistik va psixopatik shaxsiyat buzilishlarining belgilaridan biridir. Bu ruhiy kasalliklar, ya'ni rivojlanmagan empatiya ham genetik moyillik bilan bog'liq. Bachadonda miya rivojlanishiga ham ta'sir qiladigan asoratlari bo'lgan odamlar ham antisosyal kasalliklar xavfi ostida.

Pedagogikada empatiya muhim ahamiyatga ega. Pedagogik empatiya - muallimning tushunish qobiliyatidir va ba'zi hollarda bolaning ruhiy holati va hissiy hissiyotini taxmin qiladi. Bu o'qituvchi talabani his qilishga yordam beradigan vaziyatda muhimdir. Tabiiyki, siz o'qituvchi va talaba o'rtasida o'rnatilgan chegaralarni bosa olmaysiz . Ortiqcha hissiylik yoki empatiya ta'lim jarayoniga zarar yetkazishi mumkin, biroq kam empatiklik ham o’quvchi yoki talabani ta’limdan bezdirishga, o’qituvchi

va talaba munosabatlarini salbiylashtirishga olib kelishi mumkin. Pedagogik muloqotning muhim vazifalaridan yana biri – pedagog va talabalarning o‘zaro hamdard bo‘la olishlari (pedagogik empatiyaga egaliklari) sanaladi. Pedagogik hamdardlik – pedagog tomonidan talabalar, ota-onalar va hamkasblarining xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minlash. Pedagogik hamdardlik asosida pedagog talaba shaxsi, uning istaklarini tushunish va u orqali talabalarga samarali ta’sir etish zarurligini anglaydi. Pedagogik muloqotni tashkil etishda pedagog yordamiga muhtoj talabalarga alohida e’tibor berish, har bir talabada turli o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga qiziqtirish usullarini, hamkorlik, ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o‘ylab qo‘yish lozim.

Odatda empatiyaning namoyishi uch guruhga bo'linishi mumkin:

- Kognitiv - intellektual jarayonlarni o'z ichiga oladi - o'xshashlik yoki taqqoslash;
- Hissiy - bu odamning ba'zi reaktsiyalariga taqlid qilishdan iborat;
- Predikativ - bu sodir bo'lgan narsalarga turli xil reaktsiyalarni kiritish mumkin bo'lgan xususiyat.

Talabalarda qanday qilib pedagogik empatiyani rivojlantirish mumkin? Talabalarga quyidagi maslahat-yo’riqnomasi beriladi.

1. Boshqalarni tinglash - bu usul his-tuyg'ularni uyg'otishga va yaxshiroq tushunilishiga yordam beradi.
2. Turli vaziyatlarda atrofdagilarga e'tibor berish va ularning fikrlarini tushunishga harakat qiling, ular qanday ish joylari, ular qaysi mintaqaviy pozitsiyaga tegishli.
3. Siz bilmaydigan odamlar bilan suhbatni boshlang: poezdda yoki metroda sayohat qilib, yolg'iz sayohatchisi bilan minibüste. Qiziqish - empati rivojlanishining vositalaridan biri.
4. Boshqa tomondan har qanday muammolarni ko'rib chiqish uchun o'zingizni boshqa odamning o'rniga qo'ying. Qabul qilish uchun masala sifatida, qahramonlar umidsiz vaziyatda bo'lgan psixologik filmlarga murojaat qilish mumkin.
5. O'z his-tuyg'ularingizni va his-tuyg'ularingizni aniqlash qobiliyatlarini rivojlantiring, hissiy xotiralarni rivojlantirishga harakat qiling.

Talabaning empatik tuyg'usini rivojlantirishda talaba shaxsni o'rganish - uning xulq-atvori, his-tuyg'ulari, har xil omillarga reaktsiyalarini tahlil qilish kerak. Empatiyani shakllantirish va rivojlantirish har qanday bo‘lajak o'qituvchi- talaba uchun juda muhim jarayondir. Talabalarning bolalar rivojlanishi va ta’limini tushunishi ularning o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlariga qanday ta’sir qilishini, shuningdek, bu ular yaratgan ijtimoiy va jismoniy muhitga qanday ta’sir qilishini bilishi muhim. Talaba- bo’lajak zamonaviy o'qituvchi ommaviy ta'lim sharoitida rivojlanish va ta'lim muammolari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lishi, bolani har tomonlama psixologik-pedagogik o'rganishga qodir bo'lishi, maqsad, vazifalarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tuzatish ishlarining yo'nalishlari, umumiy ta'lim maktabida bolaning shaxsiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik faoliyatni bashorat qilish, loyihalash, qurish, rejalashtirish, tashkil etish, aks ettirish, o’quvchilar uchun individual ta'lim traektoriyasini loyihalash va amalga oshirish shartlari haqida xabardor bo’lishi va amalda qo’llay olishi darkor. Empatiya psixologik to'siqlarni yengishga yordam beradi. Empatik o‘qituvchi o‘quvchida birinchi navbatda shaxsni, ta’lim jarayonining hammuallifini ko‘radi. Empatiya o‘qituvchining kasbiy faoliyat darajasini belgilaydi. Talaba uchun pedagogik empatiyani rivojlantirishga erishish, ta'lim muassasasining ta'lim maydonini tarbiyalash va rivojlantirish uchun uni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish muhimdir. Lopanova E.V. tomonidan aniqlangan empatik fikrlashni shakllantirish darajalarining mazmuniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, biz talabalarning aksariyati o'rtacha pedagogik empatiya darajasiga ega ekanligini aniqladik (67%), amaliy muammolarni direktiv yechimlari bilan tavsiflanadi, ziddiyatli. vaziyatlar va mustaqillik uchun to'g'ri bolani tan olish qobiliyati. So'rovda qatnashgan talabalarning 10 foizida pedagogik empatiyaning yuqori darajasi qayd etilgan. Ular barcha talabalarga hurmat bilan munosabatda bo'ladilar va ular bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlari asosida munosabatda bo'lishadi. Pedagogik empatiyaning past darajasi respondentlarning atigi 23 foizida topilgan, ular pedagogik vaziyatlarni birinchi navbatda avtoritar tarzda, bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan hal qilish

Xulosalar

Biz "empatiya" tushunchasi ma'nosining asosiy jihatlarini tahlil qildik va uni ko'rib chiqishning asosiy kontekstiga qarab ikkita asosiy an'anani ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

• empatiya bilish hodisasi sifatida – boshqa shaxsning his-tuyg'ularini tajribalarini tushunish shakli;

• empatiya aloqa hodisasi sifatida, odamlar o'rtasidagi munosabatlar - boshqa shaxsning his-tuyg'ulariga tajribalariga javob berish shakli.

Shunday qilib, munosabatlar va bilish asosiy kategoriyalar bo'lib, ular bilan bog'liq holda empatiya tushunchasi aniqlanadi. Shuning uchun biz ushbu an'analarni tushunchalarning asosiy turlari sifatida tasniflaymiz yoki "empatiya" tushunchasi ma'nosining gnoseologik va axloqiy konnotatsiyalari haqida gapiramiz.

Pedagogik empatiya bu- pedagog o'quvchini tushunishning maxsus usuli sifatida aniqlanadi. Bunday holda, tushunish usuli sifatida empatiyaning o'ziga xosligining turli manbalarini ta'kidlab, quyidagi variantlar mumkin:

1) tushunishning maxsus sub'ekti - empatiya ob'ektining his-tuyg'ulari tajribasi;

2) tushunishning maxsus manbai - empatiya sub'ektining his-tuyg'ulari birgalikdagi tajribasi;

3) tushunishning o'ziga xos xususiyati - ta'sirchan rangli, bo'lmagan ratsional, intellektual bo'lmagan yoki yaxlit, noyob intellektual emas, nafaqat oqilona;

4) tushunishning maxsus usuli - empatiya sub'ekti tomonidan empatiya ob'ektining his-tuyg'ularini go'yo o'zinikidek yoki o'z tajribasi orqali tushunish, ya'ni boshqasi bilan birgalikda tajribaga ega bo'lish;

5) tushunishning maxsus konteksti - ichki fenomenologik boshqa odamning nuqtai nazari.

Shunday qilib pedagogikada empatiya muhim ahamiyatga ega .Pedagogik empatiya - muallimning tushunish qobiliyatidir va ba'zi hollarda bolaning ruhiy holati va hissiy hissiyotini taxmin qiladi. Bu o'qituvchi talabani his qilishga yordam beradigan vaziyatda muhimdir. Tabiiyki, siz o'qituvchi va talaba o'rtasida o'rnatilgan chegaralarni bosa olmaysiz . Ortiqcha hissiylik yoki empatiya ta'lim jarayoniga zarar yetkazishi mumkin, biroq kam empatiklik ham o'quvchi yoki talabani ta'limdan bezdirishga, o'qituvchi va talaba munosabatlarini salbiylashtirishga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.

2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.

3. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012.

"Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitid

4.[1]. Avlaev, O. U., & Mamatkulova, Z. G. (2019). The interpersonal relationship of the dynamic components of social intelligence of students. Science and education today, (12 (47)).

5.[2].Avlaev O., Butaeva U. determinant of personal Psychological development. Scientific-methodical journal of public education. 2021. № 6 pages 87-92.

Internet saytlari

11. http://www.school.edu.ru.

12. http://www.inter-pedagogika.ru

13. www.newhorizons.org.

14. http://www.pharmax.m/articles.

15. http://www.pravoteka.ru.

O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SIFATLARINI BAHOLASH OMILLARI

Xusinova Saodat
CHDPU talabasi

Ilmiy rahbar: **Mirkosimova Hulkar Mirabidovna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ sifatlarini baholash, demokratik, avtoritar va liberal uslublarini o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kommunikativ sifatlarini baholash va to‘plangan tadqiqot ishlari natijalarining psixologik tahlili keltirilgan.
Kalit so‘zlar: pedagogik muloqot, demokratik, avtoritar, liberal, kommunikativlik, tashkilotchilik.

Abstract: The article examines the influence of the guiding communicative qualities of primary school teachers on the development of a democratic, authoritarian and liberal service personality. Psychologist of research work on ensuring the communicative qualities of primary school students.
Key words: pedagogical communication, democratic, authoritarian, liberal, communicative, organization.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchiga o‘zining ta’sirini o‘tkazish orqali unda mustaqillik va onglilik kabi shaxs sifatlarini tarkib toptirishi, bunda o‘z-o‘zini boshqarish “o‘qituvchi-o‘quvchi” modeli tarzida namoyon bo‘lishi, o‘qituvchi bu o‘rinda “axborotchi”, o‘quvchi esa “qabul qiluvchi” rolida maydonga chiqib, o‘quvchi tashqi qabul qilishdan o‘z faoliyatini mustaqil uyushtirishga o‘sib o‘tishini ko‘rsatib bergan. O‘quvchida boshqarish uquvi ma’lum tizimdagi usullarni egallagandan so‘ng vujudga keladi. Demak, kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu shaxsning uyg‘un tarzda taraqqiy etishiga ijobiy ta’sir qiladi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quv faoliyatini rejalashtirishga, mantiqiy fikr yuritishga iroda sifatlarini takomillashtirishga, bilishga qiziqishni idora qilishga, kitob bilan ishlash uquvini tarkib toptirishga, jamoa qidiruv faoliyatiga rahbarlik qilishga, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam faoliyatini uyushtirishga, mustaqil faoliyatni tashkil etishga ko‘maklashishga harakat qilmog‘i, shundagina ularda shaxsiy, axloqiy hamda aqliy faoliyatlarini ongli boshqarish malakasi vujudga kelishi mumkinligini alohida qayd etadi.

“O‘qituvchi-o‘quvchi” munosabat tizimi samaradorligida o‘qituvchining muloqot uslubidagi o‘ziga xoslikni o‘qituvchining asosiy vazifalarini amalga oshirish jarayonida kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifalari o‘quvchilarning zarur darajadagi bilimlarni o‘zlashtirishiga, ko‘nikmalarni shakllantirishiga yordam berish, ijtimoiy voqelik to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirishga, ularni tahlil etishga o‘rgatish, taqqoslash va umumlashtirishlariga ko‘maklashish; yaxshi inson bo‘lib yetishishlariga turtki berish; ularni axloqiy va ma’naviy kamol topishga yo‘naltirish, jamiyat talablariga javob beradigan inson sifatida kamol topishiga yordamlashishdan iborat. Biz o‘qituvchi timsoliga o‘quvchilar tomonidan berilgan baholarni tahlil etganimizda, ustozlariga nisbatan o‘quvchining muhabbati cheksiz ekanligi va ulardan o‘zi uchun zarur fazilatlarni o‘zlashtirishga xayrixoh ekanligining guvohi bo‘ldik. O‘qituvchilarning o‘zlari bu talablarga qanchalik tayyor ekanliklarini ularning pedagogik muloqotdagi yondashuvi, uslublari va taktlari orqali baholash muhim deb hisobladik va buni tadqiq etishga kirishdik.

Pedagog tomonidan o‘quvchilar jamoasi bilan muloqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma’lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida o‘quvchilar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo‘layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi.

O‘qituvchining pedagogik faoliyati va boshqa faoliyati ma’lum o‘z uslubiga ega. Bu uning faoliyatining asosiy qirralarini, uning individual - psixologik xususiyatlarini o‘zida ifodalaydi. O‘qituvchining faoliyat uslubida o‘zini o‘zi boshqarishi, boshqalarga ta’sir ko‘rsatishi va individual tajribalari yakuni aks etgan bo‘ladi. Shu sababli ham o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan munosabatini kuzatish asnosida ularning avtoritar, demokratik, beparvolikka asoslangan pedagogik uslublarini tadqiq etdik.

Tadqiqotda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan munosabatidagi pedagogik uslubini uning shaxsiy fazilatlari bilan uyg‘unlikda o‘rganishni ham e’tiborga oldik. Buning uchun o‘qituvchining pedagogik uslublarini taqqoslash orqali o‘rganishni lozim topdik. Bunda L.P. Kalininskiyning “Shaxsning

tashkilotchilik va kommunikativ sifatlarini baholash" metodikasidan foydalandik (ilovaga qarang). Bunda asosan umumiy o‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tashkilotchilik va kommunikativ sifatlarini baholashga erishdik.

Avtoritar va liberal uslubdagi o‘qituvchilarning tashkilotchilik va kommunikativ sifatlarini taqqoslaganda ishonchlilik farqlari deyarli kuzatilmadi. Shu sababli ularning natijalaridagi ayrim holatlar to‘g‘risida so‘z yuritishimiz mumkin. Umuman olganda test natijalariga ko‘ra demokratik uslubda ish olib borayotgan pedagoglarning natijalari avtoritar o‘qituvchilarga qaraganda anchagina yuqori bo‘ldi. Demokratik uslubdagi o‘qituvchilarning kommunikativlik imkoniyatlari anchagina yuqori ekan. Bu esa ularning ishchanlik, o‘ziga ishonganlik, talabchanlik va psixologik takt bilan bog‘liq sifatlarida kuzatildi (1 – jadval).

1 – jadval

Avtoritar va demokratik pedagogik uslubdagi o‘qituvchilar natijalarining qiyosiy ko‘rsatkichlari

№	Sifatlar	Avtoritar	Demokratik	R
1	Yo‘nalganlik	4,9 ± 0,46	7,1 ± 1,12	**0,75**
2	Tashkilotchilik ishiga psixologik tayyorgarligi	7,3 ± 0,71	9,8 ± 0,87	**0,82**
3	Hukmronlikka intilishi	8,90 ± 0,52	4,4 ± 0,82	**0,7**
4	O‘ziga ishonch	4,7 ± 0,61	5,5 ± 0,68	**0,32**
5	Talabchanlik	3,5 ± 0,57	4,9 ± 0,83	**0,69**
6	Qaysarlik	3,3 ± 0,78	4,6 ± 0,8	**-**
7	Ko‘ngilchanlik	5,3 ± 1,32	6,8 ± 1,49	**0,43**
8	Tobelik	5 ± 1,21	5,7 ± 1,35	**0**
9	Psixologik takt	7,1. ± 0,66	8,92 ± 1,25	**0,88**
10	**Hamdardlik hissi**	**5,7 ± 1,34**	**7,7 ± 1,11**	**0,91**

Demokratik uslubda ish olib borayotgan o‘qituvchilarning yo‘nalganlik shkalasi (0,75) natijalari avtoritar o‘qituvchilarnikiga qaraganda ancha farq qildi. Ularning o‘rta qiymatlaridagi farqlar demokratik uslubda ish olib boradigan o‘qituvchilarning, intellekti, dunyoqarashi, jamoaning umumiy maqsadlariga erishishga intilishida o‘z aksini topgan. Ularning ehtiyojlari umumiy jamoa maqsadlari bilan uyg‘unlashgan. Avtoritar uslubda ishlaydigan o‘qituvchilarda bu shkalaga aloqador natijalar esa anchagina past.

Adabiyotlar

1. Avlaev, O. U. (2021). O‘qituvchining boshqaruvchanlik uslublari. Academic research in educational sciences, 2(10), 1239-1246.

2. Jabborov A.M. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. –
Toshkent: ”Zarqalam”, 2006. - 48 b

3. Kolominskiy Ya.L. Pedagogicheskaya diagnostika v shkole. – Moskva,
1987. - 223 s.

4. G‘oziev E.G‘. Muomala psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2001.-140 b.

5. G‘oziev E.G‘. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 1988. - 102 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIVLIGINI OSHIRISH TAMOYILLARI

Begmatova Oyzoda

CHDPU talabasi

Ilmiy rahbar**: Mirkosimova Hulkar Mirabidovna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ sifatlarini baholash, demokratik, avtoritar va liberal uslublarini o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kommunikativ sifatlarini baholash va to‘plangan tadqiqot ishlari natijalarining psixologik tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik muloqot, demokratik, avtoritar, liberal, kommunikativlik, tashkilotchilik.

Ishchanlik shkalasi bo‘yicha ham natijalar orasida bir muncha farq kuzatildi (0,82). O‘ylaymizki, bu sifat o‘qituvchilar uchun muhimdir. Ushbu sifat demokratik ish uslubiga ega o‘qituvchilarda bir oz yuqori bo‘lsa-da, ammo avtoritar o‘qituvchilarda ham bu holda o‘ziga xos ko‘lamga ega ekan. Natijalarning ijobiy tus olishi ishchanlik va tashkilotchilik sifatlarini rivojlantirishga intilishdan dalolat beradi

Demokratik faoliyat uslubiga ega o‘qituvchilarda hukmronlik shkalasidagi natijalarning yuqori bo‘lishi kishini taajjubga soluvchi faktlardan deyish mumkin. Ularning natijalari avtoritar o‘qituvchilarnikidan farqlanishi kuzatildi (0,7). O‘rtacha qiymatga ko‘ra birinchi guruhga nisbatan ikkinchi guruhdagilarda farq kuzatildi. Natijalarning bunday tus olganiga sabab sifatida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan iborat tanlanma o‘rganilganligi sababli, ta’limning bu bosqichi uchun demokratik ish uslubining bir muncha boshlang‘ich darajasini o‘zi bo‘lishi yetarlidir. Shu sababli ham ushbu shkala natijalari unchalik yuqori ko‘rinish olmagan. Buni liderlikka, hokimiyatga intilish pastligi bilan izohlashimiz mumkin.

Har ikki toifa o‘qituvchilarning talabchanlik shkalalarida ham tafovut kuzatildi (0,69). Bu shkala demokratik uslubdagi o‘qituvchilarda o‘rtachadan yuqori natijani namoyon etgan bo‘lsa-da, ammo ularning natijalari potensial rivojlanish zonasida emas. Shunga ko‘ra, demokratik uslubdagi o‘qituvchilar talabchan inson sifatida, maqsadlariga erishishda qat’iyatli ekanliklarini aytib o‘tish mumkin.

Psixologik takt shkalasi bo‘yicha ham avtoritar va demokratik uslubdagi o‘qituvchilarning natijalarida farqlar kuzatildi (0,88). O‘qituvchilarning bu shkala bo‘yicha ko‘rsatkichlari ancha yuqoriligi bilan ajralib turibdi. Albatta, demokratik uslubdagi o‘qituvchilarda psixologik taktning yuqori bo‘lishi tabiiy. Ularda aniqlik bor. O‘quvchilari bilan munosabatda esa muloqot me’yori va maromi mavjud. Ular atrofdagilarga ham ta’sir ko‘rsata oladi va ularning individual xususiyatlariga ko‘ra munosabat o‘rnatadi. Bolalar bilan munosabatda zarur muloqot tonini topa oladi. U xushmuomala va muloyim, tabiiy murojaatlarga nisbatan hozirjavob. Barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shunday sifat bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun muhim sifat hisoblanadi. Afsuski, bunday sifat sohiblarini hamma yerda uchratish qiyin. Ammo o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kamoloti jarayonida psixologik taktga xos sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirish muhim deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham psixokorreksion dasturimizda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi munosabatni maromga solish bo‘yicha ularning hamkorlikdagi ishtiroki ham inobatga olingan. Aslida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat uslublari masalasi yangi bir tadqiqot muammosi predmeti bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra ayrim **xulosalar** chiqarishimiz mumkin:

- Avtoritar va demokratik muloqot uslubi egalarida farqlar mavjud bo‘lib, ular: a) demokratik uslubdagi o‘qituvchilarning kommunikativlik imkoniyatlari ancha yuqori ekanligida, o‘ziga ishonganlik, ishchanlik, talabchanlik va psixologik taktga egaliklarida gavdalandi. Bu bilan ushbu uslub egalari samarali kommunikator deyish mumkin.

Avtoritar pedagogda esa muloqotdagi vaziyatlardan chetlanish kuzatildi. Ularda mustaqillik, hozirjavoblikdan o‘zlarini olib qochish, yon bermaslik mujassamlashgan va kommunikatorlik imkoniyatlari ancha past.

- Demokratik va avtoritar o‘qituvchilarning muloqot uslubini xarakterlovchi shaxs xislatlari ham farq qiladi. Demokratlar uchun emotsional barqarorlik, ishonuvchanlik, sezgirlik, mas’uliyatlilik va o‘zini nazorat qilishga e’tiborlilikda o‘z aksini topgan desak, avtoritarlarda esa reaktiv muvozanatlashganlik, jur’atlilik, xarakterdagi keskinlik, o‘ziga ortiqcha ishonch, shubhalanuvchanlikda aks etgan.

- Avtoritar va demokratik uslubdagi o‘qituvchilarning muloqotdagi farqlari ularning emotsional sohasi bilan bog‘liq . Demokratik uslubda noqulaylik alomatlarini kuzatish mumkin. Bu o‘qituvchilar o‘zlarini namoyon eta olishlarini va ehtiyojlari qondirilishini his etadilar. O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati ishga layoqatlilik va kutilayotgan natijaga erishishni taqozo etadi. O‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchanlik, ishchanlik, ishga yo‘nalganlik, demokratik ish uslubiga ega o‘qituvchilarning emotsional sohasini tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. Avlaev, O. U. (2021). O‘qituvchining boshqaruvchanlik uslublari. Academic research in educational sciences, 2(10), 1239-1246.
2. Jabborov A.M. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. –
Toshkent: ”Zarqalam”, 2006. - 48 b
3. Kolominskiy Ya.L. Pedagogicheskaya diagnostika v shkole. – Moskva,
1987. - 223 s.
4. G‘oziev E.G‘. Muomala psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2001.-140 b.
5. G‘oziev E.G‘. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 1988. - 102 b.

TALABANING KASBIY MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY TAJRIBALAR VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING O‘RNI

Yuldasheva Saodat Mamasaxatovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi
saodatyuldasheva1234@gmail.com

Xayitmatova X.
Muxammadova Z.
Zoxidova A.
Pedagogika va psixologiya 3 kurs

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika yo‘nalishi talabalari va ularning malakasi, bilimi va shaxsiy fazilatlari bilan bog'liq turli omillarni baholashini o‘z ichiga olgan murakkab vazifa ekanligi keng yoritib berilgan. Shu sababli, akademik ko‘rsatkich qimmatli ko‘rsatkich bo‘lsa-da, talabalarning qobiliyatlari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarining ko‘p jihatlarini hisobga olgan holda yaxlit baholash ularning umumiy kasbiy qobiliyatini to‘g'ri prognoz qilish uchun zarurdir,ularning tanlagan kasbida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yanada ko‘proq tushunish imkonini berishi ko’rsatilgan.

Kalit so‘zlar: talabalar, kasbiy qobiliyat, prognozlash, akademik samaradorlik, talabalarning potensiali.

Аннотация. В этой статье широко объясняется, что педагогика представляет собой комплексную задачу, которая включает в себя оценку различных факторов, связанных с учащимися и их навыками, знаниями и личными качествами. Таким образом, несмотря на то, что академическая успеваемость является ценным показателем, комплексная оценка, учитывающая многие аспекты способностей, опыта и личных качеств учащихся, необходима для точного прогнозирования их общих профессиональных способностей, что, как было показано, обеспечивает лучшее понимание их шансов на успех в выбранной ими профессии.

Ключевые слова: студенты, профессиональные способности, прогнозирование, академическая эффективность, студенческий потенциал.

Annotation . In this article, it is widely explained that pedagogy is a complex task that involves the assessment of various factors related to students and their skills, knowledge, and personal qualities. Therefore, while academic performance is a valuable indicator, a holistic assessment that takes into account many aspects of students' abilities, experiences and personal qualities is necessary to accurately predict their overall professional ability, which has been shown to provide a greater understanding of their chances of success in their chosen profession.

Keywords: students, professional ability, forecasting, academic efficiency, student potential.

Shaxsning kelajakdagi kasbiy qobiliyati haqida aniq bashorat qilish qiyin bo‘lsa-da, ularning o‘qituvchi sifatidagi potentsial muvaffaqiyati haqida tushuncha beradigan bir qancha ko‘rsatkichlar va strategiyalar mavjud. Pedagogik talabalarning kasbiy qobiliyatini bashorat qilishda quyidagi asosiy fikrlarni keltiramiz:

Akademik samaradorlik: Akademik natijalar talabaning potentsial kasbiy qobiliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Ularning baholarini, kurs ishlarini va umumiy ilmiy yutuqlarini baholash ularning fidoyiligi, bilimlarni egallashi va akademik standartlarga javob berish qobiliyati haqida tushuncha beradi. Ta'lim, psixologiya va bola rivojlanishi kabi tegishli fanlarda doimiy yuqori ko‘rsatkichlar kelajakdagi muvaffaqiyat uchun mustahkam poydevor bo‘lishi mumkin. Ha, o‘quv samaradorligi haqiqatan ham talabaning potentsial kasbiy qobiliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. O‘quv faoliyati talabaning o‘quv dasturida o‘rgatilgan bilim va ko‘nikmalarni egallashi va qo‘llash qobiliyatini aks ettiradi. Bu ularning fidoyiligi, ish odob-axloqi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va kasbiy martaba muvaffaqiyatining muhim omillari bo‘lgan mavzuga oid kompetentsiyalari haqida tushuncha beradi.

Kuchli akademik ko‘rsatkichlar talabaning o‘z ta'lim sohasidagi asosiy tushunchalar va nazariyalarni yaxshi tushunishidan dalolat beradi. Bu ularning ma'lumotni o‘zlashtirish va saqlash, tanqidiy tahlil qilish va bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini namoyish etadi. Tegishli fanlar bo‘yicha doimiy yuqori baholar va yutuqlar kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlar uchun tramplin bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan kuchli ilmiy poydevordan dalolat beradi.

Bundan tashqari, akademik samaradorlik ko‘pincha intizom, vaqtni boshqarish va kuchli ish axloqi kabi fazilatlar bilan bog'liq. Ushbu xususiyatlarni doimiy ravishda namoyon etadigan talabalar o‘zlarining kasbiy faoliyatida o‘xshash fazilatlarni namoyon etishlari mumkin. Bu atributlar ish joyida yuqori baholanadi, chunki ular mahsuldorlikka, ishonchlilikka va belgilangan muddatlarni bajarish va maqsadlarga erishish qobiliyatiga hissa qo‘shadi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, akademik ko‘rsatkichlar kasbiy qobiliyatning yagona omili emas. Talabaning kasbiy malakasini shakllantirishda amaliy tajribalar, shaxslararo munosabatlar, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va chidamlilik, moslashuvchanlik va etakchilik kabi shaxsiy fazilatlar kabi boshqa omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Nazariy bilimlarni real sharoitlarda qo‘llash, samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati professional qobiliyatning bir xil darajada muhim jihatlari bo‘lib, ular faqat akademik natijalarda aks etmasligi mumkin.

Shu sababli, akademik ko‘rsatkich qimmatli ko‘rsatkich bo‘lsa-da, talabalarning qobiliyatlari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarining ko‘p jihatlarini hisobga olgan holda yaxlit baholash ularning umumiy kasbiy qobiliyatini to‘g'ri prognoz qilish uchun zarurdir. Ushbu kengroq istiqbol ularning tanlagan kasbida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yanada k o‘proq tushunish imkonini beradi.

O‘qitish amaliyoti va amaliyot: O‘qitish amaliyoti yoki amaliyot orqali olingan amaliy tajribalar talabaning kasbiy qobiliyatini baholash uchun bebahodir. Tajribali o‘qituvchilar va murabbiylarning kuzatishlari, baholashlari va fikr-mulohazalari ularning o‘qitish mahorati, sinfni boshqarish qobiliyatlari va o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlari haqida tushuncha berishi mumkin. Ijobiy fikr-mulohazalar, moslashuvchanlik va amaliy tajribalardan o‘rganishga tayyorlik kelajakdagi muvaffaqiyatning ijobiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Darhaqiqat, o‘qituvchilik amaliyoti yoki amaliyot orqali olingan amaliy tajribalar talabaning kasbiy qobiliyatini baholashda bebahodir. O‘quv faoliyati nazariy bilimlarning asosini tashkil etsa-da, amaliy tajribalar talabalarga ushbu bilimlarni real sharoitlarda qo‘llash va o‘qituvchilik kasbi uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Amaliyot yoki amaliyot tajribasini o‘qitish professional qobiliyatlarni baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ba'zi sabablar:

Bilimlarni qo‘llash- Amaliy tajribalar talabalarga o‘rgangan tushunchalar, nazariyalar va o‘quv strategiyalarini o‘zlarining akademik kurslarida qo‘llash imkonini beradi. Bu ularga nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish va haqiqiy sinf sharoitida turli xil o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z bilimlarini qanday moslashtirishni tushunish imkoniyatini beradi.

Sinfni boshqarish- Sinfni boshqarish samarali o‘qitishning muhim jihati hisoblanadi. O‘qitish amaliyoti yoki amaliyot orqali talabalar sinfni boshqarish, tartiblarni o‘rnatish, intizom strategiyalarini amalga oshirish va ijobiy o‘quv muhitini yaratishni kuzatish va mashq qilish imkoniyatiga ega. Ushbu tajribalar ularning tartibni saqlash, talabalarni jalb qilish va o‘rganish uchun qulay muhit yaratish qobiliyatini baholashga yordam beradi.

Ta'lim berish- Amaliy tajribalar talabalarga ta'lim berish qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi. Ular darslarni loyihalash va o‘tkazish, muhokamalarni osonlashtirish, fikr-mulohazalarni bildirish va talabalarning o‘rganishini baholash imkoniyatiga ega. Ularning ma’lumotlar bilan samarali muloqot qilish, o‘quvchilarni jalb qilish va o‘qitish usullarini talaba ehtiyojlari va fikr-mulohazalari asosida moslashtirish qobiliyatini baholash ularning kasbiy qobiliyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Shaxslararo ko‘nikmalar- O‘qitish kuchli shaxslararo ko‘nikmalarni talab qiladi, jumladan samarali muloqot, hamdardlik va talabalar, hamkasblar va ota-onalar bilan munosabatlarni o‘rnatish. Amaliy tajribalar orqali talabalar talabalar bilan aloqa o‘rnatish, o‘zaro munosabat o‘rnatish, faol tinglash va o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va kelib chiqishini hal qilish qobiliyatlarini namoyish etishlari mumkin. Ularning shaxslararo munosabatlarini baholash ularning ta'lim hamjamiyatida ijobiy munosabatlar o‘rnatish imkoniyatlari haqida tushuncha beradi.

Reflektiv amaliyot- Reflektsiya professional o‘sish va rivojlanish uchun kuchli vositadir. O‘qitish amaliyoti yoki amaliyot tajribasi orqali talabalar reflektiv amaliyot bilan shug'ullanish, o‘qitish samaradorligini tanqidiy baholash va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash imkoniyatiga ega. Ularning o‘qitish amaliyoti haqida fikr yuritish va fikr-mulohazalar va o‘z-o‘zini baholash asosida tuzatishlar kiritish qobiliyatini baholash ularning kasbiy qobiliyatlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Moslashuvchanlik va muammolarni hal qilish- O‘qituvchilik kasbi ko‘pincha kutilmagan muammolarni hal qilish yoki turli xil o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun moslashish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini talab qiladi. Amaliy tajribalar talabalarga sinfdagi turli vaziyatlarga duch kelish va ularning oyoqqa turib fikrlash, qaror qabul qilish va shunga mos ravishda ta’lim strategiyalarini o‘zgartirish qobiliyatini baholash imkoniyatini beradi. Ularning moslashuvchanlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini baholash ularning professional qobiliyatlarini real sharoitlarda baholashga yordam beradi.

Muloqot va shaxslararo ko‘nikmalar- Samarali muloqot va shaxslararo ko‘nikmalar pedagogik mutaxassislar uchun juda muhimdir. Talabaning fikrlarini aniq ifodalash, faol tinglash va turli manfaatdor tomonlar, jumladan, talabalar, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqot qilish qobiliyatini baholash ularning ijobiy munosabatlar o‘rnatish va qulay o‘quv muhitini yaratish imkoniyatlarini ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qitish amaliyoti yoki amaliyot tajribasi talabalarning bilimlarni qo‘llashi, sinfni boshqarish ko‘nikmalari, o‘qitishni o‘tkazish, shaxslararo munosabatlar, reflektiv amaliyot, moslashuvchanlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholash orqali uning kasbiy qobiliyatlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Ushbu amaliy tajribalar akademik natijalarni to‘ldiradi va o‘quvchining samarali va malakali o‘qituvchi sifatidagi salohiyatini yanada to‘liqroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyot

1. Avlaev, O. (2023). SOME CONSIDERATIONS ON SOCIAL INTELLIGENCE. Science and innovation, 2(B3), 99-102.

2. Baxtiyarovna S. D. B. D. et al. KASB TA'LIM METODIKASINING ZAMONAVIY METODLARI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 417-420.

3.Mamasakhatovna Y.S, Bakhtiyorqizi AM The Role of Our Religious and Spiritual Heritage in The Formation of a Sense of Proud in Young People //International Journal on Integrated Education. - 2021.- Т. 4.- no.1. - S. 36-38.

4. Mamasakhatovna Y.S The Education-Science System Is a Factor That Accelerates the Development of Society and Increases Its Efficiency // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. - 2021. - Т . 2. - no. 2. - S. 97-98.

5. Mamasakhatovna Y.S The role of teachers in building the foundation of a new development period of Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2021. - Т . 11. - no. 10. - S. 941-943.

6. Yuldasheva S.M. THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL TRAINING IN HUMAN DEVELOPMENT IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION QUALITIES // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). - 2022. - Т . 2. - no. 1. - S. 350-353.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ДЕЗАДАПТАЦИЯСИ ҲАҚИҚИЙ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Турсунбоев Санжар Бахтиярович
ЧДПУ Педагогика ва психология мутахассислиги
2-босқич магистранти
mr.taxi.uz@mail.ru

Мактаб ўқувчиларининг ўқув фаолиятидаги ҳар қандай оғишлар мактабнинг дезадаптация тушунчаси билан боғлиқ. Ушбу руҳий соғлом болаларда ва турли хил психологик касалликларга чалинган болаларда пайдо бўлиши мумкин (лекин жисмоний нуқсонлари, органик касалликлари, олигофрения ва бошқалар бўлган болаларда емас.). Мактабнинг дезадаптация, илмий таърифга кўра, боланинг мактабга мослашиши учун етарли бўлмаган механизмларнинг шаклланиши бўлиб, улар таълим фаолияти, хулқ-атвор, синфдошлар ва катталар билан зиддиятли муносабатларнинг бузилиши, ташвиш даражасининг ошиши, шахсий ривожланишнинг бузилиши ва бошқалар шаклида намоён бўлади. Ўқитувчилар ва ота-оналар еътибор берадиган одатий ташқи кўринишлар-бу ўқишга қизиқишнинг пасайиши, мактабга боришни истамаслик, академик кўрсаткичларнинг ёмонлашиши, ўрганишнинг секин суръати, дисорганизация, еътиборсизлик, секинлик ёки гиперактивлик, ўзига шубҳа, зиддият ва бошқалар. Мактабнинг дезадаптациясини шакллантиришга ёрдам берадиган асосий омиллардан бири бу Марказий асаб тизимининг бузилиши.

Одатда мактабда дезадаптациянинг 3 та асосий тури мавжуд:

Мактабнинг дезадаптациянинг когнитив компоненти-бу боланинг қобилиятига мос келадиган дастурларга мувофиқ, шу жумладан сурункали академик қобилияцизлик, такрорланувчанлик ва етишмовчилик ва умумий таълим маълумотлари, тизимсиз билим ва таълим кўникмалари кўринишидаги сифат белгилари каби расмий белгилар.

Мактаб дезадаптациясининг ҳиссий-баҳоловчи, шахсий компоненти-бу алоҳида фанларга ва умуман ўрганишга, ўқитувчиларга, таълим билан боғлиқ ҳаёт нуқтаи назарига ҳиссий-шахсий муносабатнинг доимий бузилиши, масалан, бефарқ бефарқ, пассив салбий, норозилик, намойишкорона рад етиш ва таълимнинг бошқа муҳим шакллари. оғиш фаол намоён бўлади бола ва ўсмир томонидан.

Мактаб дезадаптациянинг хулқ-атвор компоненти мактаб таълими ва мактаб муҳитида мунтазам равишда такрорланадиган хатти-ҳаракатларнинг бузилишидир. Контакциз ва пассив-рад етиш реакциялари, шу жумладан мактабга боришни тўлиқ рад етиш; оппозицион, оппозицион-девиант хатти-ҳаракатларнинг доимий интизомга қарши хатти-ҳаракатлари, шу жумладан

курсдошлар, ўқитувчиларга фаол қаршилик кўрсатиш, мактаб ҳаёти қоидаларига намойишкорона еътибор бермаслик, мактаб вандализми ҳолатлари .

Мактабда ўқиш жараёнида боланинг учта бурилиш нуқтаси бор: биринчи синфга қабул қилиш, бошланғич мактабдан ўрта мактабга ўтиш (5 синф) ва ўрта мактабдан катта (10 синф) га ўтиш.

Кўпгина нотўғри болаларда ушбу таркибий қисмларнинг барчаси 3 ни аниқ кузатиш мумкин, аммо уларнинг бир ёки бир нечтасининг мактабда дезадаптациянинг намоён бўлиши орасида устунлик, бир томондан, шахсий ривожланишнинг ёши ва босқичларига, бошқа томондан - мактабнинг шаклланишига асосланган сабабларга боғлиқ дезадаптация

(Вийгоцкий Л. С. Педагогик психология). Турли муаллифларнинг маълумотларига кўра, мактаб ўқувчиларининг 10-12 фоизида (Беседина М. В. Мактабга ташриф буюриш.), мактаб ўқувчиларининг 35-45 фоизида дезадаптация қайд етилган. Кўпгина мактаб ўқувчилари учун ўқишдаги нуқсонлар соматик ёки нейропсикиятрик саломатлик билан боғлиқ мавжуд муаммолар фонида, шунингдек, ушбу муаммолар натижасида юзага келади. Мактаб ҳаётининг бир неча босқичларини кўриб чиқайлик.

Боланинг мактабга мослашиш даври 2-3 ҳафтадан олти ойгача давом етиши мумкин, бу кўплаб омилларга боғлиқ: боланинг индивидуал хусусиятлари, бошқалар билан муносабатларнинг табиати, таълим муассасасининг тури (ва шунинг учун таълим дастурининг мураккаблиги даражаси) ва тайёргарлик даражаси мактаб ҳаёти учун боланинг. Муҳим омил - бу катталар-оналар, дадалар, бобо ва бувиларнинг қўллаб-қувватлаши. Ушбу жараёнда ҳар томонлама ёрдам кўрсатадиган катталар қанчалик кўп бўлса, бола янги шароитларга шунчалик муваффақиятли мослашади.

Мактаб ҳаётидаги иккинчи инқироз босқичи-бошланғич мактабдан ўрта мактабга ўтиш. 5-синф ўқувчиси учун енг қийин нарса-бу битта, таниш ўқитувчидан бир нечта фан талабалари билан ўзаро муносабатларга ўтиш. Боланинг одатий стереотиплари ва ўзини ўзи қадрлаши бузилмоқда - чунки енди у битта ўқитувчи томонидан емас, балки бир нечта томонидан баҳоланади. Ўқитувчиларнинг ҳаракатлари мувофиқлаштирилса яхши бўлади ва болалар учун янги муносабатлар тизимига, турли фанлардаги талабларнинг хилма-хиллигига кўникиш қийин бўлмайди. Бошланғич мактаб ўқитувчиси синф ўқитувчисига маълум бир боланинг хусусиятлари ҳақида батафсил айтиб берса жуда яхши. Лекин бу ҳамма мактабларда ҳам шундай емас. Шунинг учун, бу босқичда ота-оналарнинг вазифаси сизнинг синфингизда ишлайдиган барча ўқитувчилар билан танишиш, бу ёшдаги болалар учун ҳам академик, ҳам дарсдан ташқари машғулотларда қийинчилик туғдириши мумкин бўлган масалалар доирасини тушунишга ҳаракат қилишдир. Ушбу босқичда қанча кўп маълумот олсангиз, болангизга ёрдам бериш сиз учун осонроқ бўлади.

Бошланғич мактабдан ўрта мактабга ўтишни амалга оширадиган бундай "афзалликларни" аниқлаш мумкин. Аввало, болалар ўзларининг кучли ва заиф томонларини ўрганадилар, ўзларига турли одамларнинг кўзлари билан қарашни ўрганадилар, вазиятга ва улар билан мулоқот қиладиган одамга қараб хатти-ҳаракатларини мослашувчан тарзда созлайдилар. Шу билан бирга, ушбу даврнинг асосий хавфи ўқитишнинг шахсий маъносини ўзгартириш, таълим фаолиятига қизиқишнинг аста-секин пасайиши омилидир. Кўпгина ота-оналар боланинг ўқишни истамаслигидан, у "учлик" га "сирғалиб" кетганидан ва ҳеч нарсага аҳамият бермаслигидан шикоят қиладилар. Ўсмирлик биринчи навбатда алоқаларнинг интенсив кенгайиши билан боғлиқ бўлиб, уларнинг "мен" ни ижтимоий жиҳатдан егаллаш билан болалар атрофдаги ҳақиқатни синф ва мактаб остонасидан ташқарида ўзлаштирадилар.

Албатта, болани, айниқса ўрта мактабнинг дастлабки 1-2 ойида кузатиб бориш керак. Аммо шунга қарамай, ҳеч қандай ҳолатда "яхши талаба" ва "яхши одам" тушунчаларини аралаштириб юбормаслик керак, ўсмирнинг шахсий ютуқларини фақат ўқув ютуқлари билан баҳоламанг. Агар болада академик кўрсаткичлар билан боғлиқ муаммолар бўлса ва уни одатдаги даражада ушлаб туриш қийин бўлса, унга бу даврда ўзини бошқа нарсада ифода етиш имкониятини беришга ҳаракат қилинг. У дўстлари олдида фахрланиши мумкин бўлган нарса. Таълим муаммоларига

кучли фиксация, "иккилик" билан боғлиқ жанжалларни қўзғатиш кўп ҳолларда ўспиринни бегоналаштиришга олиб келади ва фақат сизнинг муносабатингизни ёмонлаштиради.

Ва талаба таълим муассасасида ўқиш жараёнида ўтадиган сўнгги муҳим босқич-бу ўрта мактаб ўқувчиси мақомига ўтиш. Агар фарзандингиз бошқа мактабга (рақобатбардош тўплам билан) бориши керак бўлса, унда биз биринчи синф ўқувчиларининг ота-оналари учун берган барча маслаҳатлар сиз учун долзарб бўлади. Агар у фақат ўз мактабида 10-синфга борадиган бўлса, унда янги мақомга мослашиш жараёни осонроқ бўлади. Биринчидан, баъзи болалар (афтидан, ҳали кўп емас) аллақачон ўзларининг касбий имтиёзлари тўғрисида қарор қабул қилганликлари каби хусусиятларни ҳисобга олиш керак, гарчи психологлар касб танлаш ривожланаётган жараён еканлигига алоҳида еътибор беришади.узоқ вақт давомида содир бўлади (Жангчилар В. В. Болаларнинг мактаб шароитларига мослашуви муваффақиятини психофизиологик баҳолаш муаммоси тўғрисида).

Бу жараён бир қатор "оралиқ қарорлар" ни ўз ичига олади, уларнинг умумийлиги якуний танловга олиб келади. Бироқ, ўрта мактаб ўқувчилари ҳар доим ҳам бу танловни онгли равишда амалга оширмайдилар ва кўпинча ҳозирги таъсир остида келажакдаги ишларнинг афзал кўрган соҳаси тўғрисида қарор қабул қилишади. Бинобарин, улар объектларни "фойдали" ва "кераксиз" га аниқ ажратадилар, бу еса иккинчисини еътиборсиз қолдиришга олиб келади.

Шундай қилиб, мослашиш тушунчаси барча психологик тизимларда сезиларли стресс билан боғлиқ бўлган узоқ жараённи англатади, дезадаптация боланинг ижтимоий-психологик ва психофизиологик ҳолати мактаб ҳолати талабларига жавоб бермаслигини кўрсатадиган психологик касалликлар тўпламини англатади, уларнинг маҳорати бир қатор сабабларга кўра бўлади. қийин.

Адабиётлар рўйхати

[1]. Беседина М. В. Мактабга ташриф буюриш: нима учун ёш ўқувчилар учун мактаб шароитларига мослашиш қийин. Мактаб психологи, 2000 йил, 34-сон.

[2]. Г. В. Бурменская, Е. И. Захаров, О. А. Карабанова ва бошқалар. Болалар ва ўспиринларга маслаҳат беришда ёшга боғлиқ психологик ёндашув: олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Таълим муассасалари: - Москва: Академия, 2002. -416 с.

[3].Жангчилар В. В. Болаларнинг мактаб шароитларига мослашуви муваффақиятини психофизиологик баҳолаш муаммоси тўғрисида. Психология дунёси. - 2002. - № 1.

[4]. Вийгоцкий Л. С. Педагогик психология. - М.: Педагогика, 1991. - 480с.

DARS JARAYONIDA KOMPYUTERDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN PSIXOLOGIK MASHQLAR

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi mudiri
Psixologiya fanlari nomzodi dotsent
Samarova Shoxista Rabidjanovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va tillar kafedrasi
Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 23/3 guruh talabasi
Kamilova Latofat Bobir qizi

Annotatsiya: Dars jarayonida kompyuterdan foydalanuvchilar uchun psixologik mashqlarni o‘rni haqida yoritib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: dars, o‘qituvchi, o‘quvchi axborotkommunikatsiya, AKT , aql- idrok, xotira, tasavvur, hissiyot- emotsiyalarni

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayoniga alohida o‘zgarishlar kiritdi va pedagogning mas’uliyatli vazifalari doirasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bugungi kunda

o‘qituvchining yetuk mutaxassis shaxs sifatida shakllanishi uchun zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalana bilishi, haqiqiy axborot madaniyatini egallashi juda zarur.

Yangi avlod pedagoglari o‘zlari dars o‘tadigan aniq bir fan mazmuni va maqsadlariga to‘la mos bilimni egallashlaridan tashqari, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni barkamol rivojlantirishlariga yordam beruvchi texnologiyalarni to‘g‘ri tanlab va qo‘llashni bilishlari kerak.

Mana shu vazifani bajarish uchun dastlabki qadamni amalga oshirish, yani — kompyuterda ishlashni o‘rganish, uning va internet taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanib, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga o‘rganishlari zarur. Ushbu birinchi qadam odatda, maxsus kurslarda amalga oshiriladi. Ba’zi pedagoglar uchun bu qiyin ish emas, ammo ko‘pchilik uchun bu ma’lum emotsional hayajonlanish holatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchiga o‘quv materialini an’anaviy tarzda o‘zlashtirish, odatlangan hayot tarzini o‘zgartirishni istamaslik, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik xususiyatdagi muammolarni hal qilishda yordam ko‘rsatish zarur. Bunda jamiyatdagi yangi axborot kommunikatsiya texnikasi va texnologiyalari(AKT) hamda internet tarmog‘idagi axborotlarga qarama-qarshi munosabatlar, inson salomatligiga kompyuterning ta’siri va shu kabilar bilan bog‘liq ayrim fikrlar ham ma’lum rol o‘ynaydi. Ammo asosiy psixologik to‘siq pedagogning, ayniqsa, katta yoshdagi o‘z kasbining egasi bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy mutaxassislik yondashuvi — yangi bilimlar sohasini o‘zlashtirishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan cho‘chish holati deb hisoblanadi.

Hatto ba’zan ruhiy zo‘riqish holatlarining fiziologik belgilari ham paydo bo‘lishi mumkin. Bu holda albatta, psixologik hissiyotlar ta’sirini susaytirishni istagan himoya mexanizmlari ishga tushadi: AKTdan foydalanuvchining motivatsiyasi pasayadi, diqqatini jamlashda qiyinchilik yuzaga keladi. Bularning barchasi ta’lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ruhiy zo‘riqish holatining fiziologik belgilaridan quyidagi: uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, yurakning tez urishi, bel, oshqozon, yurakdagi og‘riqlar, siqilish holatlari yuzaga keladi.

Ruhiy zo‘riqish holatlarining psixologik belgilari: parishonxotirlik, xotira buzilishi, xavotirlanish, yig‘loqilik, ortiqcha xavotirlanish, sababsiz qo‘rquv, jizzakilikdan iborat. Bu o‘ziga ishonchni yo‘qotishga olib keladi. Ta’lim olishga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, shu sababdan ham ruhiy zo‘riqish holatini tezroq yo‘qotish kerak!

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarni o‘zlashtirish pedagog shaxsining individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda yangi axborot texnologiyalarini o‘rganishni va dars jarayoniga joriy etishni istagan pedagoglar, uning imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish niyatidagi talaba yoshlar va o‘quvchilarga bu jarayonni yengillatish hamda kun bo‘yi kompyuter bilan muloqotda bo‘ladiganlar uchun yordam berish maqsadida guruhda va individual bajarilishi mumkin bo‘lgan quyidagi mashqlarni taklif etamiz.

1- mashqi Guruhda o‘tkaziladigan tajriba-eksperiment mashqi:

Mashqni o‘tkazishdan maqsad — ruhiy zo‘riqish holatlarida o‘zini tuta bilishga o‘rgatish, bundan tashqari, ushbu mashq diqqatni jamlashda ham yordam beradi.

O‘tkazish texnikasi: guruhda matnli varaqchalar tarqatiladi va 45 soniya mobaynida quyidagi matnni o‘qish topshirig‘i beriladi: «TEPAliklaRDAOQ, marvaRID, YorqinbinafSHAVAKUmuSHRanGLI BOychechaklAR OSmonDAsochilib yotGANYulduzLARni eslaTADI.Ular atayino‘stirILGANSUn’iy, nimJonGUllaRDAnkO‘ra bahorGAKO‘prOQ MosKEladi.Mazkurko‘klaMningilKCHechaGI, YALang keNGLIklarGA AjibbIR CHIroyBAXsh eTAdI. OChilibsochILIBYOTGangULlAR POyidaQO‘ShiqlaRDAMAdhetilGANvaafSONalarGAAYLangAN MUHabbattariXI YAshiringAN».

2- mashqi O‘zingga o‘zing yordam ko‘rsat mashqi:

Ko‘zlar charchasa quyidagi mashqlarni bajarish foydali bo‘ladi:

• navbat bilan yuqoriga pastga (25 soniya), chapga o‘ngga (15 soniya) qarang;

• navbat bilan uzoqdagi predmetga (10 soniya), keyin oldingizdagi qog‘oz varag‘iga (10 soniya) qarang.

3- mashqi

Idrok etish qobiliyatlarini kuchaytirish

Katta va ko‘rsatkich barmoqlar bilan boshqa qo‘lning har bir barmog‘ini uchidan boshlab, avval orqa tomonini, keyin barmoqlar orasi tekisligini kuch bilan bosib chiqish lozim. Keyin qo‘l harakatlarini almashtiramiz.

4- mashqi Keskinlikni yo‘qotish uchun nafas olish mashqlari

Qulay joylashib o‘tirish lozim.

Burun bilan chuqur nafas olish lozim (4-6 soniya).

Nafasni ushlab turish (2-3 soniya), nafas chiqarish.

5- mashqi Salbiy emotsiyalarni yumshatish

Katta barmoqni ichiga bukib, qo‘lni musht qilish lozim. Xotirjamlik bilan, shoshilmasdan nafas chiqarib, mushtni siqish lozim. Keyin mushtni bo‘shashtirib nafas olish kerak. Mashqni 5 marta takrorlang. Mashq jarayonida ko‘zlar yumilganda samara- dorligi ortadi.

6- mashqi Jimjiloq uchini yengil massaj qilish lozim.

Verbal o‘zini ishontirish metodidan foydalanish kerak.

Erta tongda o‘rindan turishdan avval, organizmingiz uyg‘onib, ammo hali to‘la tetiklashish holatida bo‘lmagan o‘ziga xos «o‘tish» holatida bo‘lgan paytda ikkita asosiy formulalarni o‘qish lozim. Ushbu formulalarni uxlashdan avval ham takrorlash mumkin. O‘ziga buyruq berish formulasi matnini o‘ylab topish yoki quyida taklif etilganlardan foydalanish mumkin. Bir necha bor takrorlash mumkin.

7- mashqi O‘ziga ishonch

• «Men dovyurak va o‘ziga ishonuvchi odamman. Men xohlaganimni qilaman, barchasiga qodirman va hech narsadan qo‘rqmayman. Kompyuterda ishlash menga yoqadi»

8- mashqi Kurslarda o‘qishga muhabbat

• «Men o‘z o‘qituvchilarimni yoqtiraman. Ular bilan uchrashishdan doim xursandman. Kompyuterda ishlash va AKT’dan foydalanishni o‘rganib olaman»

Mashg‘ulotlar davomidagi formulalar

• «Mashg‘ulotlarimdan quvonaman. O‘z ishimni yaxshi ko‘raman. Bugungi kun men uchun oliy mazmunga ega»

• Xotirjamlik, barqarorlik

9- mashqi «Men xotirjam va barqaror bo‘lishni istayman. Men o‘zimga ishonchli bo‘lishni istayman» mashqi

Psixologiya va informatika fanini uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning atrof-muhitni yanada to‘la anglab yetishlariga yordam beruvchi, global fikrlashni rivojlantiruvchi, asosiy malakalarini (kommunikativ, informatsion, tashkiliy va shu kabilar) shakllantirish uchun sharoit yaratuvchi uchta dars ishlanmalarini taqdim etamiz.

10- mashqi

Hozirgi kunda zamonaviy inson axborot olamidan foydalana bilishi kerak. Kompyuterdan muloqot vositasi sifatida foydalanish — XXI asrning zarur shartidir. Lekin biz (hayotda va virtual — bevosita va vositalar yordamida) foydalanishni bilamizmi? Maktab bitiruvchisiga talablardan biri — kommunikativ ko‘nikma va malakalarga egaligi hisoblanadi.

«Munosabatda bo‘lishni bilish» degani nimani anglatadi? Bu birinchi navbatda, o‘zini, boshqalarni tushunish, o‘zi eshitishni va boshqalar tomonidan eshitilishini bilish, ammo ba’zan shunchaki muloqot madaniyati yetishmaydi. Ushbu birlashtirilgan dars g‘oyasi paydo bo‘ldi.

11- mashqi

Rang o‘z o‘zidan nimanidir ifoda etadi — buni rad etish mumkin emas. Bundan foydalanish kerak.

Insonning muvaffaqiyatliligi muloqot qilishni bilishiga 80 foiz bog‘liq bo‘ladi. Qanday qilib, o‘zining takrorlanmas obrazini yaratish mumkin? Qanday qilib, ishontirishga, omma oldida so‘zga chiqqanda auditoriyaga ta’sir ko‘rsatishni o‘rganish mumkin? Bu boradagi usullardan biri — ranglar va multimediali taqdimotlardan to‘g‘ri foydalanish. Mana shunga o‘rgatish — ushbu darsning maqsadi.

12- mashqi

O‘ziga yoqadigan ishni topish qanchalik muhim? Mamlakatdagi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat maktab, oliy ta’lim muassasalari (OTM) bitiruvchilariga qator o‘ziga xos talablar qo‘yadi, ular orasida — mobillik, epchillik, doimiy o‘zini rivojlantirishga qodirlik asosiy o‘rinni egallaydi. Inson hatto ishlab turgan paytida ham ish qidirish bilan band bo‘ladi. Ushbu darsning maqsadi — katta sinf o‘quvchilarini kasbiy yo‘naltirish uchun va ommaviy axborot vositalaridan, Internet tarmog‘idan foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

13- mashqi Alohida shaxslar uchun «Kim o‘zini barchadan yaxshi maqtaydi?» mashqi

Mashqni o‘tkazishdan maqsad — o‘zi to‘g‘risida ichki ijobiy fikrlar shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish; shaxsning o‘ziga beradigan bahosini oshirishdan iborat.

O‘tkazish texnikasi: Insonda ba’zan hech bir ishni yaxshi bajara olmayotgandek tuyulganida siqilish holati yuzaga keladi. Mana shunday holatda barcha o‘z yutuqlari, erishilgan g‘alabalari, qobiliyati, quvonchli hodisalar yoddan chiqadi. Aslida har bir inson hayotida g‘ururlanishiga arziydigan yutuqlari mavjud. Ana shu yutuqlar, alohida qobiliyat hisoblangan shaxsiy xususiyatlarni sanab o‘tish lozim. Matnda quyidagi jihatlar ifodalanishi zarur:

- mening yaxshi sifatlarim
- mening yaxshi xususiyatlarim
- mening qobiliyatlarim va iste’dodim
- mening yutuqlarim

Har kimning shaxsida o‘ziga yoqadigan kuchli tomoni va xarakter xislatlari yoki xususiyatlari mavjud. Aynan g‘ururlanishga sabab bo‘ladigan har qanday sohadagi qobiliyat va iste’dodlar haqida varaqchada yozish zarur. Unda har qanday sohadagi yutuqlarni bayon etish lozim.

Biror yangilikni o‘zlashtirishda o‘z qobiliyatlariga shubha tug‘ilganda mazkur matnni olib o‘qish kerak. Bu shaaxsga o‘zini munosib baholashiga imkon beradi.

14 -«Yomg‘ir» mashqi

Mazkur mashqni guruhda o‘tkazish samaraliroq bo‘ladi. Kompyuterda uzoq shug‘ullangan shaxs yoki darsdan tanaffusga chiqqan paytida o‘quvchi yoshlar mustaqil ravishda, ushbu mashqni o‘tkazishlari mumkin.

Mashqni o‘tkazishdan maqsad — bo‘yin, umurtqa pog‘onasi atrofidagi muskullar siqilish holatini bartaraf etish, tanaga xotirjamlik baxsh etishdan iborat.

O‘tkazish texnikasi: birgalikda zich qator bo‘lib, doira hosil qilib turish kerak. Ochiq dalada bo‘lib qoldik deb tasavvur qilish lozim. Ob-havo avvaliga juda yaxshi va issiq bo‘lib, quyosh charaqlaydi. Ammo yengil shabada esa boshlaydi, oldinda turgan kishi orqasidagi sherigiga qo‘l bilan tegadi va yengil harakat bajaradi. Shamol kuchayadi (orqaga bosim oshadi). Dovul boshlanadi (qattiq aylana harakatlar amalga oshiriladi). Keyin yomg‘ir yog‘a boshlaydi (orqaga yengil urish harakati bajariladi). Jala quyadi (barmoqlar bilan yuqoriga pastga harakatlar bajariladi). Do‘l yog‘a boshlaydi (barcha barmoqlar bilan qattiq taqillatish harakatlari bajariladi). Yomg‘ir yog‘adi, mayda yomg‘ir yog‘adi, dovul bo‘lib o‘tadi, qattiq shamol bo‘ladi, keyin u sekinlashadi va tabiat tinchlanadi. Yana quyosh chiqadi. Keyin 180 gradusga burilib, mashqni davom ettirish lozim.

Bundan tashqari, kuchli aqliy va emotsional mehhat davrida ovqatlanishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda: ko‘proq yong‘oq, sut mahsulotlari, baliq, go‘sht, meva va sabzavotlar, shokolad iste’mol qilish zarur. Mehnat sharoitini tashkil etishda ish stoliga sariq yoki binafsha rangli predmetlar yoki kartina qo‘yish kerak, chunki ushbu ranglar intellektual faollikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

2. M.J.Davletshin “Yosh davrlar psixologiyasi” 238-bet.

3. Samarova SH.R, Avlaev O.U, Mirzayeva S.R. “Ta’lim klasteri muhtida bolalar bilish jarayonlarini ART orqali rivojlantirish”. 66-68 betlar.

4. Avlaev O.U, Samarova SH.R, Mirzayeva S.R. “Psixologiya nazariyasi va tarixi”. 190-95 betlar.

5. Avlaev O.U, Samarova SH.R, Mirzayeva S.R. “Umumiy psixologiya” 128-134betlar.

6.Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktum A.I. Shcherbakov tahrir ostida T.: o‘qituvchi 1991yil. 36-37 betlar

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI DAVRDA SHAXSNING RIVOJLANISHI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi mudiri
Psixologiya fanlari nomzodi dotsent
Samarova Shoxista Rabidjanovna

Ta’lim yo’nalishi psixologiya(faoliyat turlari buyicha)
1-bosqich talabasi **Abdakimova Mamlakat Abdusamad qizi**
Ta’lim yo’nalishi psixologiya(faoliyat turlari buyicha)
1-bosqich talabasi **Pardaboyeva Madina Farhod qizi**
Ta’lim yo’nalishi psixologiya(faoliyat turlari buyicha)
1-bosqich talabasi **Yoqubjonova Sevinch Muzaffar qizi**

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi davrda shaxsning rivojlanishi haqida yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar:maktab, ta’lim,sinf, o’quvchi, tarbiya,qobiliyat, iste’dod.

Maktab bola hayotida burilish nuqtasi hisoblanadi va uning shaxs sifatida rivojlanishida keskin ta’sir etuvchi turtki vazifasini o‘taydi. Ta’lim jarayoni o‘qituvchilar va sinfdoshlari bilan yangicha xususiyatga ega bo‘lgan munosabatni keltirib chiqaradi. Bola butun bir katta jamao tizimiga qo‘shiladi: maktab, sinf, to‘garaklar va boshqalar. Ta’lim uning oldiga bir qator zaruriy talablarni qo‘yadi, natijada u o‘quvchining burchi, hayot va faoliyat tarzi, qonun- qoida, kun tartibi kabilarga so‘zsiz bo‘ysunishga olib keladi. Ta’lim-tarbiya tizimi mohiyati o‘quvchilarda xarakterni, irodani shakllantiradi, qiziqishlar doirasini kengaytiradi, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptiradi, qobiliyat, iste’dod, intilishni taraqqiy ettira boshlaydi.O‘quvchi tomonidan axloqiy meyorlarni , xatti-harakat qoidalarini o‘zlashtirish axloqiy xatti –harakat negizini vujudga keltiradi, ongli intizom va ongli munosabatni keltirib chiqaradi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning shaxs xususiyatlari, sifat va fazilatlari, ularning onglilik darajasi I sinfdan IY sinfgacha bo‘lgan davr mobaynida muhim o‘zgarishlarni boshidan kechiradi. Mazkur yosh davrida axloqiy bilim, ko‘nikma, tasavvur, mulohazalar sezilarli darajada boyiydi, ongli darajasi ortadi, turlicha shakl va mohiyatni o‘zida aks ettiradi, ko‘pgina holatlar umumlashmalar bosqichiga o‘sib o‘tadi.

Birinchi va ikkinchi sinflarda o‘quvchilarning ahloqiy mulohazalari o‘z xatti –harakati tajribasiga va o‘qituvchilar, ota-onalar ko‘rsatmalariga asoslansa, uchinchi va to‘rtinchi sinflarda esa bu narsa shaxsiy tajriba, ko‘rsatma bilan birga, o‘zgalar xulq –atvori tahlili, ibrati, namunasi negiziga quriladi. Bu jarayonda kinofilmlar, badiiy adabiyot muhim rol o‘ynaydi hamda ijobiy qahramonlar namunasi kuchli ta’sir o‘tkazadi.

Ushbu yoshdagi o‘quvchilarda xarakter xislatlari, xatti-harakatlari beqarorligi, qarama-qarshiligi bilan bir-biridan tafovutlanib turadi.Xarakterologik xususiyatlar birinchi sinf o‘quvchilarida ko‘pincha tashqi ifodaga ega bo‘lishi ko‘zga tashlanadi. Yiriq sobiq sovet psixologi N.D.Levitovning ko‘rsatishicha, Birinchi sinf o‘quvchisi sinfda ibratli, matonatli deb baholanib kelgan, lekin yangi topshiriqni berilishi bilanoq u ishni oxiriga yetkaza olmagan. Muallifning fikricha, bu xarakter xislati o‘tkinchi, beqaror xususiyatga egadir. Qat’iylik, matonatning kuchsizligi muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan. Demak, tasodifiy holatlar uni izdan chiqargan.

Bu davrda o‘quvchilar xatti-harakatlarida oliy nerv faoliyatining tipologik xususiyatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Ba’zan xatti-harakatlar niqoblangan holda yuzaga kelishi kuzatiladi. Jumladan, o‘quvchilardagi uyatchanlik, tortinchoqlik, nerv sistemasi kuchsizligi, o‘zini idora qila olmaslik, impulsivlik tormozlanishning zaifligini bildiradi. Ulardagi reaksiyaning bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko‘chishining sustligi harakatchanlikning zaifligini anglatib keladi. Bunday holat tarbiya jarayonida uzluksiz ravishda ta’sir o‘tkazishni taqozo qiladi, ta’sirlanish uquvi vujudga kelishini ta’minlaydi. Xarakterdagi impulsivlik (beixtiyoriylik), o‘quvchilarning o‘ylamasdan o‘z fe’l – atvorini ko‘rsatishga , oqibatni hisobga olmaslikka, bevosita mayllar, favquloddagi sabablar, tasodifiy voqelik ta’sirida harakat qilishga moyillikni namoyish qiladi.Ularda uchraydigan eng keng tarqalgan kamchiliklar bu injiqlik va qaysarlikdir. O‘quvchilarda irodaning yetishmasligi oqibatida bu yoshda injiqlik, qaysarlik illatlari paydo bo‘ladi va maktab tomonidan qo‘yilgan qat’iy talablarga nisbatan norozilik shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Zaruriy ish bilan shaxsiy xohish o‘rtasidagi qarama-qarshilik shunga o‘xshash kamchiliklarni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilarning xarakateriga xos xususiyatlari, ko‘pincha ularning mehribonligi, bilim chanqoqligi, qiziquvchanligi, rostgo‘yligi, samimiyligi, ishonuvchanligi kabi ijobiy fazilatlar, xislatlar, sifatlar ko‘zga tashlanadi. O‘quvchilarning eng muhim xususiyatlaridan biri- bu taqlidchanlikdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar katta yoshdagi odamlarga, sinfdoshlariga, asar yoki film qahramonlariga taqlid qiladilar. Bu psixologik hodisa, bir tomondan, shaxsiy namuna orqali ijtimoiy qimmatli xislatlarni shakllantirsa, ikkinchi tomondan, salbiy jihatlarning tarkib topishiga zamin hozirlaydi. Xuddi shu bois, ularda eng ibratli fazilatlar, nojo‘ya qiliqlar vujudga keladi, ba’zi hollarda xatti-harakat ko‘rinishlari, so‘zlash uslublari umuminsoniy talablarga sira javob bermasligi mumkin, chunonchi, qo‘rslik, beso‘naqay qiliqlar, oliftanoma gerdayish kabilar.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari serhayajon va his- tuyg‘ularga beriluvchandirlar. Birinchidan, ularning idroklari, kuzatishlari, xayollari, aqliy faoliyatlari, xohish-irodalar odatda hissiy bo‘yoqlarga boy bo‘ladi. Ikkinchidan, 1 va 2- sinf o‘quvchilari o‘z hissiyotlarini boshqara olmaydilar, natijada ular ko‘pincha hissiyotning namoyon bo‘lishini nazorat qilishni uddasidan chiqmaydilar hamda o‘zlarini tiyib tura bilmaydilar. Shunga qaramasdan, ular o‘z his- tuyg‘ularini, tashvish va g‘ussalarini, qo‘rquv va qanoat tuyg‘ularini namoyishkorona izhor qila oladilar. Uchinchidan, ular o‘zlarning emotsional beqarorliklari, kayfiyatlarining qat’iy emasligi, stress va jazava holatlariga moyilliklarini namoyon etadilar.Ulardagi hissiy kechinmalar qisqa muddatli, jo‘shqin kechishi bilan boshqa yoshdagi o‘quvchilardan ajralib turadilar. Yoshlari ulg‘aygan sari o‘quvchilarda o‘z hissiyotlarini boshqarish, baholash, nazorat qilish, ung‘aysizlik, yoqimsizlik holatlarining namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uquvi takomillashib boradi. Ijtimoiy qonun – qoidalar mezoniga asoslanib, o‘z xatti –harakatlarini idora qilishga o‘rgana boradilar, bu jarayonda ularni tashqaridan baholash muhim ahamiyat kasb etadi, obro‘, nufuz egallash tuyg‘usi hamma narsadan ustunlik qiladi.

Kichik maktab yoshidagi davr xarakterning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yarata oladi. Ularning barcha narsalarga, holatlarga tez ko‘nikuvchanligi, ta’sirchan, ishonuvchan, taqlidchanligi, bir qator voqeliklar mohiyatiga moyilligi, o‘qituvchi obro‘siga cheksiz sadoqatliligi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida hisobga olishni taqozo etadi. Uchinchi sinfdan boshlab talablar doirasining kengayishi, ta’sir o‘tkazishning oqilona yo‘li qo‘llanganligi tufayli ularda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, intizomlilik, tartiblilik kabi xislatlar tarkib topadi. O‘quvchilarda asta-sekinlik bilan shaxsiy xatti- harakat va aqliy faoliyatni irodaviy zo‘r berish yo‘li bilan boshqarish uquvi rivojlana boradi.O‘zini tuta bilish, nazorat qilish, baholash, beixtiyor (impulsiv) holatlarga berilmaslik malakasi yuzaga keladi, qat’iylik, qiyinchilik yengish tobora kuchayadi. III va IV sinf o‘quvchilari sabab

kurashi natijasida burchining (farzandlik, o‘quvchilik, shaxsiy va ijtimoiy) sabablari boshqalardan ustunligiga erishadilar. Ba’zan past darajadagi sabablar ham ustunlik qilish mumkin, chunonchi, qanoat hosil qilish, loqaydlik, beparvolik ko‘rinishlari g‘alabasi shular jumlasidadir. Ayrim hollarda kerakli ishlardan, mashg‘ulotlardan uzoqlashish sodir bo‘ladi, buning oldini olish zarur, albatta.

Odatda III va IV sinflardan boshlab o‘quvchilarda burch hissini anglash sezilarli ravishda namoyon bo‘ladi, biroq ularda hali yetarli darajada barqaror va batamom mustahkam bo‘lmaydi. Mazkur sohada tadqiqot olib borgan N.B.Andrianova, P.P.Zimin,V.A.Tokareva, M.SH.Rasuleva, J.Y.Polmonov kabilarning ilmiy asarlarida buning o‘ziga xos qonuniyatlari, mexanizmlari mavjud ekanligi isbotlab berilgan. Yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun maktab va oilaning o‘zaro uyg‘unlikdagi harakati orqali tarkib toptirish mumkin.Hamkorlikning dasturiy asosga qurilishi esa yuqori samaralar beradi, eng (senzitiv) davr imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga sharoit yaratadi.

Psixologik tadqiqotlarda ta’kidlanishiga qaraganda, o‘quvchilarda dastavval ayrim hodisalarga tashqi o‘ziga jalb etuvchi narsa va hodisalarga nisbatan qiziqishlar paydo bo‘ladi. Bu ayniqsa, I-II sinf o‘quvchilarida ommaviylik xususiyatiga ega. Muayyan davr, muddat o‘tishi bilan sabablar, qonuniyatlar, hodisalar o‘rtasidagi ichki bog‘lanish, aloqa, o‘zaro ta’sirga oid bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishlar vujudga keladi. Ushbu holat ayniqsa, III-IVsinflarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda(I vaII sinflarda) savollar tug‘iladi. Bu yoshda o‘qish va yozish malakasini shakllana boshlashi, ko‘p narsalarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Qiziqish o‘qish faoliyatidan zarurroq boshqa sohalarga ham tarqala boradi. O‘g‘il va qiz bolalarning qiziqishida farqlar vujudga keladi va uning ko‘lami ijtimoiy turmushdan boshlab to texnikacha kengayib boradi. III va IV sinflarda esa, hatto qishloq xo‘jaligi, xalqaro holatlarga nisbatan qiziqish tug‘ila boshlaydi. Qiziqishning rivojlanishi ko‘p jihatdan ta’lim mazmuni va uni tashkil qilish usullari, vositalariga bog‘liq. Shuningdek, qiziqish doirasining kengayishi oilaviy muhit, axborotlar ko‘lami va uning nisbatan boshqa a’zolarning munosabati maromiga, barqarorlik darajasiga uzviy aloqadordir. O‘quvchilarda faollikning vujudga kelishi, harakatlarning kattalar tomonidan oqilona baholanishi qiziqishni barqarorlashtiradi, o‘qishda, mehnatda muvaffaqiyat, yutuqlarga sabab bo‘ladi. Mazkur hissiy holatlarni to‘g‘ri anglash, tushunish, payqash hissiyot yetukligini ta’minlaydi, ularda turg‘un qiziqishlar shakllanishini vujudga keltiradi. Ayrim ko‘rinishlardagina qiziqish tor ma’noga ega bo‘lishi mumkin, chunki aksariyat hollarda barcha narsalarga qiziqish ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. E.G’oziyev. **“**Umumiy psixologiya**”** 40-45 betlar.

2. M.J.Davletshin “Yosh davrlar psixologiyasi” 238-bet.

3. Samarova SH.R, Avlaev O.U, Mirzayeva S.R. “Ta’lim klasteri muhtida bolalar bilish jarayonlarini ART orqali rivojlantirish”. 66-68 betlar.

4. Avlaev O.U, Samarova SH.R, Mirzayeva S.R. “Psixologiya nazariyasi va tarixi”. 190-95 betlar.

5. Avlaev O.U, Samarova SH.R, Mirzayeva S.R. “Umumiy psixologiya” 128-134betlar.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA BILISH JARAYONINING O‘ZIGA XOSLIGI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi mudiri
Psixologiya fanlari nomzodi dotsent
Samarova Shoxista Rabidjanovna

Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya yo’nalishi
3-kurs talabasi **Toshpo’latov Abdulaziz Quvondiq o’g’li**
Pedagogika va psixologiya yo’nalishi 3-kurs talabasi
Abdualimova Zilola Farxod qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilish jarayonining o‘ziga

xosligi haqida yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar:aql-idrok,tafakkur, sezgi, idrok, xotira, xayol, tasavvur.

Maqsadga muvofiq uyushtirilgan o‘qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aql – idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvchanligi, esda olib qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart- sharoitlar yaratadi, ularda o‘qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi.Bundan tashqari, mazkur ta’lim jarayonida ularning bilimlari ko‘lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mahsuldorligi vujudga keladi, aqliy imkoniyatini ishga solish kuchayadi, o‘quv fanlariga ijobiy munosabat, qat’iy shug‘ullanish niyati, jamotchilik oldida mas’uliyatni his etish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg‘ulari tarkib topa boradi. Quyida mazkur yoshdagi o‘quvchilardagi sezgi , idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlari va ularning rivojlanishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz.

Mazkur yoshdagi o‘quvchilar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o‘tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadilar. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatida birinchi signal sistemasining ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi har bir jism, obekt, subekt va voqelikdagi yangilikni aniq idrok qilishga intiladi, uni atrof- muhitning sirli olami, sehri, jilovlanishi, jozibasi, nozik tomonlari o‘ziga tortadi. Lekin ta’limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari, uning qamrovi, ko‘lami,torligi bevosita ko‘zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar idrokining salbiy xususiyati obektlar (jismlar)ni bir-biridan farqlashdagi zaiflikdir. Ular ko‘pincha o‘rganiladigan materiallarni noaniq, hatto, noto‘g‘ri idrok qiladilar, buning oqibatida aynan o‘xshash harflar, so‘zlar, narsalar, jismlar tasviri, shakli, hajmi, fazoviy joylashuvining farqini to‘la tasavvur qila olmaydilar. Masalan, “q” bilan “k” harflarini,“o‘qish” bilan “uqish” so‘zlarini, “aylana” bilan “doira” shakllarini, “ kesma” bilan “to‘g‘ri chiziq” alomatlarini bir-biridan farqlamaydilar. Ba’zan esa ular kattalarning idrok ko‘lami qamrab ololmaydigan narsalarni payqaydilar, jumladan, subsensor, subseptiv kabi idrokning yuksak darajalarini egallagan bo‘ladilar.

O‘quvchilarda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ular ta’lim jarayonida ko‘pincha xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib, tasodifiy, ikkilamchi belgilarga e’tibor beradilar. Bu borada tadqiqot ishlarini olib borgan psixolog N.F.Dobrinin tasviriy san’at darsida o‘quvchilarga rangli qilib ishlangan olmaxonning rasmini ko‘rsatgan, so‘ng uni chizishni tavsiya qilgan. Surat olib qo‘yilgandan keyin ularda olmaxonning mo‘ylovi, ko‘zi, mo‘ynasining rangi to‘g‘risida qator savollar paydo bo‘lgan. Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda predmetlarni yaxlit, aniq idrok qilish imkoniyati juda cheklangandir.Bunday misollar boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham ko‘plab topiladi.

Mazkur yoshdagi o‘quvchining idroki uning xatti –harakati, o‘yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Qandaydir narsani idrok qilish o‘sha narsa bilan mashg‘ul bo‘lishni anglatib keladi. O‘quvchi o‘zining ehtiyoji, mayli, qiziqishi, intilishi, g‘oyasi va turmush faoliyatiga mos, shuningdek, o‘qituvchi tavsiya etgan narsalarni,ya’ni muayyan ko‘rsatma negizida bo‘lsagina idrok qiladi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xilma-xil, yorqin bo‘yoqli tasvirlar, his –tuyg‘u uyg‘otadigan narsa va hodisalarni oson idrok qiladilar. Ana shu sababli ramziy va shartli belgilar, chizmalar, geometrik shakliga ko‘ra, jonli, “jozibador” tasvirlar yorqin his-tuyg‘ular tarzida aks etadi. Yirik jahon psixologlarining fikriga qaraganda, yorqin, rangli tasvirlarni idrok qilish vaqtincha ramziy va shartli chizmalarni idrok qilishni to‘xtatib qo‘yadi yoki ularning mohiyatini chalkashtirib yuboradi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf darslarining juda ko‘p suratlar bilan bezatilishi ham ma’qul emas. Chunki bunda o‘qish sur’ati sekinlashadi, xatolar miqdori ko‘payadi, suratlarning ko‘pligi o‘quvchilarni matndan chalg‘itadi, diqqatni zaiflashtiradi, mavhum fikrlashga keskin zarar keltiradi. O‘quvchida muayayn o‘qish malakalari hosil bo‘lgandan keyin kitob varaqlarini suratlar bilan bezash esa uning nutqining o‘sishiga, mavzu va fanga nisbatan qiziqishi ortishiga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchining idroki maqsadga muvofiq boshqariladigan perseptiv faoliyat darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida o‘z shaxsiy

idrokini shakllantirish, o‘z oldiga vazifa qo‘yish, idrok mahsulini nazorat etish va hokazolarni o‘rgana boradi. U ta’limning dastlabki bosqichida oqilona idrok etish uchun, o‘sha narsani yaxlit tasavvur qilishga harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad bo‘lsa, harakat qilish, ichdan intilish esa idrokning sharti hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq perseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada o‘quvchida kuzatish, nazorat qilish, jismlar va holatlarni farqlash imkoniyati oshadi. Shu sababli birinchi sinfda so‘z biror narsani atash bilan cheklangan va chegaralangan bo‘lsa, keyinchalik u o‘rganilayotgan obektning umumiy ma’nosini anglata boshlaydi.

Idrokning takomillashuvi o‘qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshadi: u o‘quvchilarga perseptiv faoliyatni omilkorlik bilan tashkil etishni, obektlarning muhim va nomuhim belgilarini ajratish, diqqatni to‘plash va taqsimlash, o‘quv materiallarini rejali va tartibli tahlil qilishni o‘rgatadi. Buning uchun o‘quvchilarni sayrga olib chiqadi, ko‘rsatmali qurollardan foydalanadi, jismoniy va aqliy mehnat jarayonlarini taqqoslash, kuzatish malakalarini shakllantiradi. Idrokni rivojlantiradigan muhim vositalarning biri - o‘quvchilarda narsa va hodisalarning o‘xshash va farqli alomatlarini ajratish uquvini tarkib toptirishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining perseptiv faoliyatida fazo, vaqt va harakatni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki o‘quvchilarda hayot tajribasining yetishmasligi, bilim saviyasining qashshoqligi, tasavvur obrazlarining zaifligi tufayli idrokning mazkur shakllari juda cheklangan bo‘ladi. Ular kundalik turmushda qo‘llaniladigan oddiy fazoviy tushunchalar bilan cheklaganligi sababli ilmiy -fazoviy atamalarni, masalan, tog‘larning balandligi, fazo bilan yer o‘rtasidagi masofa, dengiz va ko‘llarning hajmi va boshqalarni idrok etishda qiynaladilar. Katta fazoviy tushunchalarni anglamaslik ularda “yulduzlarning oralig‘i necha kilometr”, osmonga sharda uchib borsa bo‘ladimi, samolyotda-chi? kabi savolar hosil qiladi.O‘quvchilarda vaqtni idrok qilish ham tor ma’nodagi tushunchalardan iborat bo‘ladi va ular “asr”, “eramizdan avvalgi davr” kabi atamalarning nimaligini tushunmaydilar.

Harakat deganda, ko‘pincha jismoniy, mexanik harakatlarni nazarda tutadi, lekin uning biologik, ijtimoiy, kimyoviy jihatdan muayayn bilimga ega bo‘lishi to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas.O‘quvchi, hatto samolyot, qush, raketa va o‘qning tezligini ham noto‘g‘ri idrok qiladi. Masalan, u tabiatshunoslik fanida qirilib bitgan bahaybat kaltakesaklar haqida ma’lumotlarni eshitgan bo‘lsa, uyga kelib buvisidan uni ko‘rgan yoki ko‘rmaganligini so‘raydi. Ta’lim jarayonida va katta yoshdagi odamlarning yordami bilan turmush tajribasining ortishi tufayli o‘quvchilarda fazo, vaqt va harakatni idrok qilish ko‘lami kengayadi, ular vujudga kelgan savollarga javob topa boradilar. Ularning nazariy bilimlari amalda sinab ko‘rish orqali ham boyib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va favqulodda vaziyatga moslashish imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi, ya’ni kutilmagan holatlarda nisbatan ko‘nikish, moslashish uquvi juda zaifdir. Buning asosiy sababi- ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Shu bilan birga, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, ongli diqqati o‘qish sababi bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ular uzoqni ko‘zlagan va muayyan maqsad bilan bog‘liq sabab bo‘lib, agar yuqori sinf o‘quvchilarining bilim olish sababi anglashilgan sabab turiga kirsa, boshlang‘ich sinf bolalariniki esa voqelikka va reallikka bog‘liq sabab turkumiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Samarova SH.R, Avlaev O.U, Mirzayeva S.R. “Ta’lim klasteri muhtida bolalar bilish jarayonlarini ART orqali rivojlantirish”. 66-68 betlar.

2. Avlaev O.U, Samarova SH.R, Mirzayeva S.R. “Psixologiya nazariyasi va tarixi”. 190-95 betlar.

3. Avlaev O.U, Samarova SH.R, Mirzayeva S.R. “Umumiy psixologiya” 128-134betlar.

4.E.G’oziyev. **“**Umumiy psixologiya**”** 40-45 betlar.

5. M.J.Davletshin “Umumiy psixologiya” 238-bet.

TEMURIYLAR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA DINIY UNVONLAR XUSUSIDA

Irgashov Xusniddin Nuridin o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti,
tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar – t.f.f.d.(PhD) dots., **O.M.Normatov**

Bizning tariximizda Amir Temurdek ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu o‘gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muoammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q [1]. Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug‘lash – tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir. Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada o’zoqni ko‘zlab, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq ibratli fazilatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklari” asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan. Amir Temur saltanati boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlariga baho berishdan avval XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida to‘xtalib o‘tish joiz. Mazkur davrda mintaqa murakkab vaziyatda qolgan bo‘lib, buning bir necha sabablari bor edi. Birinchidan, mamlakatda bir yarim asr avval bostirib kelgan mo‘g‘ullar zulmi davom etayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, mahalliy hukmdorlarning o‘zboshimchaligi va boshboshdoqliklari xalqning ahvolini og‘irlashtirayotgan edi. Boz ustiga, xalq ham ajnabiy, ham mahalliy hukmdorlarga keragidan ortiq soliqlar to‘lashi oqibatida kundan-kunga iqtisodiy tanglik kuchayib borar edi [2].

Bu davrda Movarounnahrda murakkab vaziyat hukmron bo‘lishiga qaramay, yagona davlat tuzishga ham imkoniyat mavjud edi. Sababi, mo‘g‘ullar ichki nizo va urushlar oqibatida zaiflashib qolgandi. Qolaversa, mayda hokimlar ham o‘zaro birbirlari bilan kurashar, xalq, uning yuqori va pastki qatlamlari esa mamlakatning yagona davlatga birlashishidan manfaatdor edi. Yuqorida keltirilgan omillar mustaqillikni davr talabiga aylantirib qo‘ygan edi. Sarbadorlar bu ehtiyojni amalga oshirishga — mamlakatni mo‘g‘ullar va o‘zboshicha mahalliy ma’murlardan tozalashga intilib XIV asrning 60-yillarida ozodlik harakatini boshlagandilar. Ular Samarqanddan mo‘g‘ul bosqinchilari va mahalliy ma’murlarni haydab, bu shaxarni o‘zlariga qarorgoh qilib olganlar. O‘z davrining talab va ehtiyojlarini yaxshi bilgan Amir Temur XIV asrning 60-yillarida siyosiy maydonga chiqdi, vaziyatdan foydalanib Movarounnahrni yagona davlatga aylantirish chora-tadbirlarini ko‘ra boshladi [3].

Amir Temur davlatni boshqarishda ikki toifa kishilar - forsiy va chig‘atoylarning mavqeyi, bilim va tajribalaridan foydalangan, ayni damda, ularning kuch va imkoniyatlarini cheklashga intilgan. Bu esa barcha sohalar ustidan nazorat o‘rnatishga imkon bergan. Turli boshqaruv an’analaridan yaxlit boshqaruv tizimini yaratgani, hokimiyatni markazlashtirishga intilgani Amir Temur boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir desak adashmagan bo‘lamiz. Shuningdek, Sohibqiron o‘z davlatining mafkuraviy, ma’naviy va axloqiy asosini kuchaytirishda shariat qoidalariga tayangan. X.Mamatov Amir Temur islom mafkurasidan davlat boshqaruvini takomillashtirishda xalq bilan davlatni birlashtiruvchi kuch sifatida foydalanganini alohida ta’kidlab o‘tgan. Mo‘g‘ullar davrida zaiflashib qolgan islomning ta’sirini tiklash va kuchaytirish, o‘z qo‘l ostidagi xalqlarning tinchligi, iqtisodiy barqarorligi, qonuniylik va adolatni ta’minlash uning asosiy g‘oyalaridan edi. Nizomiddin Shomiy Amir Temurga shunday baho beradi: “U bir komil zot bo‘lib, uning lutfu qahri har bir zamon talabiga ko‘ra olam ahliga namoyon bo‘lib turadi. Uning xayrli ishlari, rasm-rusumlari, fe’l-atvori va so‘zlarining ta’siri faqat yillar emas, ko‘p asrlar davomida zamona sahifasida boqiy qoladi, nabirachabiralari, do‘stlari va yaqinlari o‘sha yo‘ldan

yuradilar, uning fe'li harakati va nufuzli hukmlariga erishadilar. Bu davoning shohidi va bu ma'noning nishoni adolatli, eng himmatli ulug' amir Sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning vujudi shariflaridir. Uning adolatli siyosati jazog, qahri esa lutfga aralashdir". Demak, Amir Temur saltanatining iqtisodiy. ijtimoiy, g'oyaviy vazifalari o'rtasida muvofiq mavjud bo'lib, bu omillar davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun zamin yaratgan. Amir Temur davlatining mudofaa tizimi mukammal darajada tashkillashtirilgan, mamlakat butunligi, tinchligi va barqarorligiga rahna soluvchi ichki va tashqi xavflar, ularning paydo bo'lish sabablari o'rganildi va shunga monand mudofaa tizimining vazifalari belgilandi. Bu davrda qo'shin tuzilishi, mutaxassislarni to'g'ri tanlash va ularning ishini samarali tashkillashtirish, jang, mudofaa usullari o'z davri imkoniyatlaridan o'zib ketdi, harbiy soha yuqori darajaga ko'tarildi.

Temuriylar davridagi diniy unvonlarning har biriga alohida to'xtalgan holda tahlil qilmoqchimiz. Chunki ma'lum bir unvon yoki martabadagi, davlat xizmatidagi shaxs bilan xalq orasida ma'lum dinga oid laqab bilan chaqiriluvchi, ma'lum diniy ijtimoiy guruhga oid shaxs o'rtasida farq bor, albatta. Mana shunga asoslangan holda unvonlarni alohida tahlil qilishga qaror qildik.

Shayxulislom- mamlakat va har bir tobe hududlarda islom ahlini nojo'ya xatti-harakatlardan saqlash, nazorat qilish, ularni savob ishlarga undash bo'yicha mas'ul shaxs. Manbalarda shayx, shayxulislomi a'zam, janob shayxulislomi a'zam shaklida ham uchragan.

Sadrlar- asosan sayyidlar jamoasidan chiqqan shaxslar bo'lib, ularning muhim vazifalaridan biri vaqf mulklarini nazorat qilish va suyurg'olni belgilab bergan. Ular ahli islomga boshchilik qilgan. Manbalarida sadri a'zam, sadri qozi shakldagisi ham uchraydi.

Mudarris- madrasalarda diniy masalalar, shariat, tafsir, hadis va fiqh maalalarda dars beruvchi shaxs.

Baxshiy- bu unvon butparastlarning ruhoniylari va kohinlariga berilgan.

Imomlar- arab tilidan ''yetakchi'' deb tarjima qilinadi. Islom hayotda jamoat namozining rahbariga **Imomlar** deyilgan. Masjid imomi, madrasa va honaqoh imomi turlari manbalarda uchradi.

Muazzinlar - jamoat namozlarida azon chaqiruvchi vazifasidagi shaxs shunday atalgan. Masjid muazzini va xonaqoh muazzini turlari manbalarda uchraydi.

Muvojirlar - ziyoratgoh joyda muqim yashab ishlovchi kishilar. Manbalarda Muqaddas haram [Kaba]da Rasuli akram Muhammad[s.a.v] ning qabri hodimlari ham shunday atalgan.

Xatib- xutba o'quvchi kishi. Juma namozlari va diniy marosimlarni o'qigan va o'tqazgan, imom, voiz, va'zxon va notiq hisoblangan. U yoki bu hukmdorning hukmronlik mavqeyi tanilishi, uning nomi xutbaga kiritilishi yoki kiritilmasligini xatib xutba o'qib belgilab bergan [4].

G'assollar – o'lik yuvuvchilar yani murdasho'ylar.

Jorubkashlar - masjid, madrasa, xonaqoh va mozorlarni supuruvchi xizmatkorlar.

Ustod- ustoz muallim diniy rahnamo.

Mavlono taj ash-sharia - ushbu faxriy unvonning aniq keltirilgan izohi topilmadi.

Muhaddislar- hadis yig'uvchilar.

Muftiy- fatvo beruvchi diniy-huquqiy masalalarni izohlash talqin qilish, shariatni tadbiq etish bo'yicha huquqqa ega bo'lgan shaxs. Uning fikr-u qarorlari musulmon jamoasining qo'llanmasi hisoblangan.

Mavoliy- xo'jas, janob, valiyning manodoshi hisoblanadi [5].

Endiki bo'limda xalq orasida yashovchi ijtimoiy guruhga, din-u diyonatda boshqalardan ajralib turadigan shaxslarga xalq tomonidan berilgan, ammo hukumat oldida hech bir vazifa bajarmagan ammo e'tiborga molik diniy laqablarni sanab tahlil qilib o'tamiz[6].

Qori- Qur'on o'quvchilar. "Tuzuklar'' da qurandoz deb, Navoiy asarlarida muqriy degan ko'rinishda uchraydi.

Hoji- Haj ziyoratidan qaytgan dindorlarga nisbatan qo'llanilgan laqab.

Vali/valiy- oddiy xalq aziz-u avliyo deb bilgan, ayrim bashoratlari bilan tanilgan zotlarga shunday atagan.

Hofiz- qorilar manosida ham qo'llangan.

Toib- dindor darveshlarga berilgan faxriy laqab.

Shunday qilib din ulamolari, tasavvuf vakillari Temuriylar davlati va jamiyati diniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol ishtirok etgan. Ta'lim tizimi, diniy mafkura ishlaridan tashqari davlat boshqaruvi va hatto, tashqi diplomatik munosabatlarda ham katta o'rin tutgan. Hukmdorlar ulardan din ishlaridan tashqari, davlat boshqaruvi masalalarida ham tayanch din ulamolari bo'lgan. Shamsiddin Kulol — shayx. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida bergan ma'lumotiga ko'ra, Amir Tarag'oyning piri. "U qadrli shayx Shamsuddin Kulolga sidqidildan ixlos qilardi va uning muborak kabriga (ziyorat uchun) tez-tez borib turardi", deb yozadi Ali Yazdiy. Shamsiddin Kulol tasavvufda suhravardiylik tariqatiga mansub bo'lgan. Ayni paytda u xojagon tariqatiga qam hurmat bilan qaragan. Sohibqiron Amir Temurning ham unga nisbatan ixlosi juda kuchli bo'lgan, saltanatni boshqargan chog'larida xam Shamsiddin Kulol qabrini ziyorat qilib turgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlatining madaniy siyosati biz uchun alohida ahamiyatga ega. Sohibqironning tavalludiga bag'ishlab e'lon qilingan davlat hujjatlarida Amir Temur, fan va madaniyat taraqqiyoti – jamiyatning ma'naviy asosi ekanligini anglab, mamlakatda madrasalar, maktablar barpo ettirdi, ilm-fan sohiblariga nafaqalar tayinladi, qulay maishiy-turmush sharoitlarni yaratib berdi. Sharq dunyosining qaysi shahriga borsa, u yerlik olimu-fozillar bilan suhbat qilib, bahslashib, ularni Samarqandga taklif etadi. Shuning uchun ham Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand firdavsmonand Mavlono Abdumaliq Sayyid Sharif Jurjoniy, xoja Muhammad Zohid Buxoriy, Mavlono Ahmad, Abdulqodir Marog'iy, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Ibn Arabshoh, Ibn Xoldun kabi o'nlab quvvai hofizali aql-zakovat sohiblari qo'nim topib, ijod qilganlar. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida faxr bilan bayon qilinganidek "tarix, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun bu tabiiy hol edi, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov.,- "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"., Toshkent.: "Ma'naviyat". 2008. 47-bet.
2. O'ljaeva Sh. "Amir Temur davlat boshqaruvi"., Toshkent.: "Akademnashr"., 2017., - 17-b.
3. Mamatov X.T. "Temur tuzuklari"da davlat va huquq masalasi": Yu.f. n. diss. - Toshkent: IIV akademiyasi, 2002. – 156-b.
4. O'ljaeva Sh. "Amir Temur davlat boshqaruvi"., Toshkent.: "Akademnashr"., 2017., - 97-b.
5. Keren JL, Saidov A. "Amir Temur va Fransiya"., - Toshkent.: "Adolat"., 1996. – 78-b.
6. O'ljaeva Sh. "Amir Temur davlat boshqaruvi"., Toshkent.: "Akademnashr"., 2017., 102-b.

TURKISTON ASSRDA OLIY TA'LIM

Mohinura Misaboyeva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Gumanitar fanlar" fakulteti
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar – t.f.f.d.(PhD) dots., **O.M.Normatov**

XX asr boshlarida jadid ma'rifatparrvarlarimining sa'y-harakatlari bilan aholi orasida milliy ozodlik tuyg'usi keng yoyila boshladi. Jadidlar ushbu maqsad yo'lida ta'limdan ustalik bilan foydalana boshladilar. Va bu o'z natijasini bera boshladi. Bu holat o'lkada Rossiya imperiyasining hukmronligiga rahna solishi mumkin edi.

Ushbu va'ziyatda rus mustamlakachilari inglizlardan o'rnak olgan holda, o'lkada rus universiteti ochishga qaror qilishdi. Tayyorgarlik ishlari ham jamoatchilik, ham muzofot ma'muriyati tomonidan olib borildi. Toshkentda universitet ochish uchun smeta va boshqa zarur hujjatlar 1914 yilga kelib tayyor holatga keltirildi. Biroq, Birinchi jahon urushining boshlanishi bu rejani amalga oshirishni ortga surdi.

Imperiya qulagach, hokimiyatga kelgan bolsheviklar ushbu masalaga yana qaytishdi. 1917-yil 15-22-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston Sovetlarining III o'lka qurultoyi bu yerda oliy o'quv yurti ochish to'g'risida qaror qabul qildi. 1918-yil 9-martda Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti Xalq ta'limi komissarligiga bo'ysungan holda xalq universiteti tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi.

Universitet harbiy maktab binosi va buyuk knyaz N.K. Romanov saroyida joylashtirilishi belgilandi. Bolsheviklar hukmronligini mustahkamlash uchun mablag'larni ayamas edi.Tashkiliy xarajatlar uchun 2 million rubl ajratildi. Bu qaror Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 16-martdagi buyrug'i bilan e'lon qilingan edi.

1918-yil 11-martda Turkiston universiteti kengashi tuzilib, 1918-yil 5-apreldagi yig'ilishda uning rahbarlari saylandi. Universitet direktori Rossiya xalq ta'limining ko'zga ko'ringan arbobi A.V.Popov saylandi. U dastlab, Petrograd gimnaziyalaridan birida o'qituvchi, Oliy xotin-qizlar kurslarida xususiy o'qituvchi bo'lib ishlagan.

Shundan so'ng universitetda o'qish istagida bo'lganlarni ro'yxatga olish boshlandi. O'qituvchilar jamoasi shakllantirilib, 1918-yil 21-aprelda Turkiston xalq universitetining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu yerda dastlab tahsil olayotgan talabalar soni 1200 nafar edi.

U universitet tipidagi ikkala yo'nalishdagi fakultetlarni o'z ichiga oldi: 1. Oliy ta'lim turidagi tabiiy-matematik, qishloq xo'jaligi, texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va adabiy-falsafiy (1918 yil kuzida tarixiy-filologik nomi o'zgartirildi) fakuletlar, hamda, turli kurslar: elektromontyorlar, o'rmon xo'jaligi texniklari, yer-suv instruktorlari. qo'mitalari, avtomobilsozlik, temir yo'l, chizmachilik, kooperativ, pedagogika, chet tillari, maktabgacha ta'lim, kesish va tikuvchilik, poyabzal tikish va boshqalar. Har kimga, ta'lim darajasidan qat'iy nazar, universitetda kurslarga ruxsat berildi.

Turkiston xalq universitetining beshta fakultetida 1918/19 o'quv yilida jami 60 ta professor-o'qituvchi ishlagan, 500 ga yaqin talaba tahsil olgan. Darslar rus tilida olib borilgani sababli, universitetga tahsil olgan talabalarning aksariyati (agar mutloq ko'pchiligi bo'lmasa) ruslar yoki rusiyzabonlar edi. Mahalliy musulmon millat vakillari rus tilini bilmaganligi sababli bu universitetdan bahramand bo'la olmadilar. Universietda tahsil olish uchun rus tilini bilish "hayotiy zaruriyat" edi.

Sovet hukumati ularning manfaati va xohish-istagini e'tiborga olmadi.

Shu sababli, Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan 1918 yil 12 mayda Turkiston xalq universiteti tarkibida mustaqil faoliyat yurituvchi tashkilot sifatida Musulmon xalq dorilfununi tashkil etilgan. Samarqand, Farg'ona, Andijon, Ashxobod va boshqa shaharlarda universitet shu'ba (filial)lari ochilgan. Musulmon xalq dorilfununining mavqe'yi borgan sari oshib borib, bolsheviklar hukmronligiga "rahna sola boshladi". Shu tufayli, 1918 yil kuzda Musulmon xalq dorulfununi 2-darajali tashkilot sifatida tugatilgan.

Turkiston xalq universitetini to'la ma'nodagi oliy o'quv yurti deb bo'lmasdi. 1919 yil dekabrda u haqiqiy davlat universiteti maqomini oldi va Turkiston davlat universiteti deb nomlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent. Sharq – 2000. B.- 67 [1]

M. Misaboyeva. Turkiston o'lkasida bolsheviklar hokimiyatining o'rnatilishi. O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida 2023-yil 18-maydagi «Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 15-kitob. Bet – 272[2]

O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Mohinura Misaboyeva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Gumanitar fanlar" fakulteti
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar – t.f.f.d.(PhD) dots. v.b., **Sh.B.Jumaeva**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholini ijtimoiy himoya qilishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab oldi. Bu esa olib borilayotgan islohotlarning avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishining yorqin dalili ekanligini isbotlaydi. Dunyo e'tirof etgan bozor

iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyilning aynan biri ham kuchli ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan. Shu maqsadda har yili ijtimoiy himoya tizimiga ajratiladigan saramoyalarning ko‘lami ortib bormoqda. Masalan, 2006-yilda byudjet mablag‘larining 51,9%, 2008-yil Ijtimoiy himoya yili Davlat dasturi doirasida aholining ijtimoiy himoyasiga 484 mlrd, so‘mdan ortiq (53,8%), “Yoshlar yili”da 1,5 trln. so‘mdan ortiq (54,6%), mablag‘ ajratildi. 2016-yil – Sog‘lom ona va bola yilida mamlakatimiz tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 80 million dollar qiymatidagi kredit va grant mablag‘lari yo‘naltirildi, farzand ko‘rish yoshidagi ayollar va bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, sog‘lomlashtirildi.

Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinib turganidek aholining ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilgan mablag‘larning miqdori yildan-yilga ortib bormoqda va bu boshqa sohalarga nisbatan ham ko‘pni tashkil qiladi.

Aholining kam ta’minlangan qatlamlarining davlat tomonidan moddiy ta’minlash doimiy ravishda takomillashtirilib borildi. 1997-yil sentabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi kam ta’minlangan oilalarning boshlangich sinflarda o’qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo’lga qo’yildi. Kam ta’minlangan oilalarga 1998-yilda to’langan nafaqalarning umumiy miqdori 3 mlrd. so‘mni tashkil qildi, 16 yoshgacha bo‘lgan farzandli oilalarga to‘langan nafaqalar - 15,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvardagi “Uy-joylar qurishni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli Dasturlarini samarali amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3480-sonli qaroriga asosan 2018-yil Dasturiga 22145 ta yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurilishi belgilangan. 2019-yillarda nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan xotin-qizlarga jami 3 mingta uy berilishi rejalashtirilgan, shundan 1 ming 640 tasi sentabr oyigacha berilishi mo‘ljallangan bo‘lib, shu kungacha jami 1 ming 691 nafar uy-joyga muhtoj, nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarga uy-joy ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uylarni berish to‘g‘risida”gi 285-son qaroriga muvofiq, Xotin-qizlar qo‘mitasi qoshidagi Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab quvvatlash jamoat fondi orqali 2020-yilning 1-yanvar holatiga 1207 nafar uy-joyga muhtoj, og‘ir turmush sharoitidagi va nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar uchun jami 47,7 mlrd. so‘mlik boshlang‘ich to‘lov miqdori to‘lab berildi. Umumiy qilib olganda, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning kompleks tizimi yaratildi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sur’ati tubdan o‘zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o‘tdi. Amalga oshirilgan barcha islohotlar - Inson manfaatlari va farovonligi hamma narsadan ustun degan tamoyilga asoslandi. Bu borada, eng avvalo, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, qat’iy pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta’minlash, soliq-budjet islohotlarini olib borishga asosiy e’tibor qaratildi. Valyuta bozorini liberallashtirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi va 2017-yil 5-sentabrdan milliy valyutamiz – so‘mning erkin ayirboshlanishi ta’minlandi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘z valyuta resurslarini erkin tasarruf etishlari yo‘lidagi barcha sun’iy to‘siqlar bartaraf etildi va ular tomonidan valyuta tushumlarini sotish majburiyatlari bekor qilindi. Yuridik shaxslar uchun mahsulotlarni import qilishda chet el valyutasini erkin xarid qilish va chet el investorlarining foydani erkin olib chiqish imkoniyati yaratildi. Fuqarolarga chet elda ta’lim olish yoki davolanish, turizm, biznes va boshqa maqsadlar uchun valyuta mablag‘larini hech qanday to‘siqlarsiz qonuniy sotib olishi va sotish imkoniyati yaratildi. Mazkur islohotlar dunyoning yetakchi moliya institutlari, shu jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Osiyo tarraqiyot banki tomonidan e’tirof etildi. Inflyatsiya darajasi hamda ichki bozorda iste’mol tovarlar narxlarining barqarorligini nazorat qilish kuchaytirildi. Ushbu maqsadda, resurs bazasi 100 million dollarga teng ichki iste’mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirish jamg‘armasi tashkil etildi. Hayot uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlarni sotib olish uchun qo‘shimcha 70 million dollar ajratildi. Tashqi savdoni liberallashtirish va samarador bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida bojxona to‘lovlari stavkalari ikki baravar pasaytirildi. Ichki bozor uchun

zarur bo‘lgan 8 ming turdan ziyod import tovarlari uchun bojxona to‘lovlari keskin pasaytirildi, jumladan, import boji bo‘yicha 3 550 ta va aksiz solig‘i bo‘yicha 1 122 ta mahsulotlarga nisbatan nol darajali stavkalar belgilandi. Xalqaro andozalarga mos ravishda, hukumat, barcha vazirlik va idoralar hamda Markaziy bank tomonidan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, davlat budjeti ijrosi, pul muomalasi va oltin-valyuta zaxiralari holati to‘g‘risidagi barcha statistik va tahliliy ma’lumotlarni doimiy ravishda ochiq chop etib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning yana bir o‘ziga xos ustuvor yo‘nalishi, bu davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning o‘rni va ahamiyatini oshirishdir. Bunda, eng avvalo, xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat mulkini boshqarish uslublari tamoman o‘zgartirilib, quyidagi ijobiy natijalarga erishildi: birinchidan, korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi qo‘llab-quvvatlashning yangi amaliyoti joriy etildi, ishlamayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklash bo‘yicha investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda davlat tomonidan ko‘maklashish yo‘lga qo‘yildi. Tadbirkorlik sub’ektlariga faoliyat yuritmayotgan va to‘liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalar maydonlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyati berildi. Bu esa, yuqori qiymatdagi investitsiyalarni o‘zlashtirish va minglab ish o‘rinlarini tashkil etish imkoniyatini berdi. Ushbu loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish maxsus jamg‘armasi tashkil etildi va ushbu jamg‘arma tomonidan tegishli kredit liniyalari ochildi.

Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo‘l qurilishi, qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta’minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o‘tgan yili iqtisodiy o‘sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport 28 foizga ko‘paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019-yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi.

Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, kichik sanoat hududlarining tashkil qilinishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilish, yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil qilish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy omili bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan dasturlarni qabul qilish maqsadida 2017-yilning o‘tgan davri mobaynida respublikaning barcha mintaqalariga, ayrimlariga esa takror tashrif buyurdilar. Har bir tashrif natijasi bo‘yicha har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish mamlakat eksport hajmini baoqarorligini oshirish va uning tarkibida ijobiy o‘zgarishlarga erishish muhim omilga aylanib, eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha dasturda - Sanoatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yangicha yondashuv chora tadbirlari belgilab berilgan. Birinchidan, hamkor mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlardagi yondashuv o‘zgartirildi. Oliy darajadagi tashriflar chog‘ida, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, AQSH, Koreya, Turkiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar imzolandi. Yevropa tiklanish va tarraqqiyot banki bilan to‘laqonli munosabatlar tiklandi, bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka 190 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Turli yo‘nalishlarda 20 dan ortiq loyihalar ishlab chiqildi. Yevropa investitsiya banki, Fransiya rivojlanish agentligi bilan hamkorlik o‘rnatildi. O‘zbekiston yangi tuzilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining teng huquqli a’zosiga aylandi. Ikkinchidan, tashqi savdo faoliyatidagi barcha sun’iy to‘siqlar olib tashlandi. Xususan, oldindan to‘lovlarsiz va kafolat majburiyatlarisiz eksport qilish tartibi joriy etildi. Ortiqcha va eskirgan ruxsat beruvchi talablar bekor qilindi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish mexanizmlari soddalashtirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida eksport hajmi 11,3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va oldingi yil shu davr ko‘rsatkichiga nisbatan 126 foizga oshdi. Tashqi savdo saldosi 519,5 million dollarni tashkil etdi. MDH

davlatlari ichida mahsulot eksport qilinadigan eng yirik davlatlar qatoriga Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston hamda uzoq xorijiy mamlakatlar – Xitoy, Turkiya, Afg‘oniston, Eron, Koreya Respublikasi va Fransiya davlatlarini kiritish mumkin. Barcha qayd etib o‘tilgan mamlakatlar bo‘yicha eksportning o‘sish dinamikasiga erishildi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (2017 йил 22 декабрь). – Т: Ўзбекистон, 2018.

3.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (2018 йил 29 декабрь). –Т: Ўзбекистон, 2019.

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MATBUOTI SAHIFALARIDA XOTIN-QIZLAR MASALASI

Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Gumanitar fanlar” fakulteti
1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar – t.f.f.d.(PhD) dots., **O.M.Normatov**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o`lkasining, nafaqat Turkiston balki butun Musulmon Sharqining hal etishi kerak bo`lgan eng muhim masalalardan biri – bu ayollarning jamiyatdagi o`rni, ularni o`qitib, savodli qilish, ular orqali jamiyatga ziyo urug`ini sochish masalasi edi. Bu masala o`sha davrdagi ko`plab milliy nashrlarda o`rin egallagan.

Turkiston ma`rifatparvarlari milliy matbuot sahifalarida ayollar va ularning savodli bo`lishi masalasini ko‘targan qator maqolalar e`lon qilishgan. Turkiston jadidlari ayol ta`lim olishi haqida fikr yuritar ekanlar, ular asosan, zamonaviy ilm emas ko`proq shariatga murojaat qilishni lozim ko`rishgan. Jadidlar faoliyatiga qarshi bo`lgan konservativ kuchlar – qadimchilar esa ularning bu harakatlariga doimo qarshi bo`lishgan. Ular jadidlarning barcha qarashlariga qarshi bo`lishgan. Ayollar masalasida ham o`zlarining mavqelarini ko`rsatishga harakat qilishgan. Bu masalada “Turkiston viloyatining gazeti”dan foydalanishgan. Gazetada noma’lum muallifning e’lon qilingan bir maqolasida ayolning erkak bilan teng huquqli bo‘lishi kerakligiga raddiya beriladi. Muallif maqolada ayol qozi masalasini ko‘taradi va shariat qonunlari hamda “Hidoya” kitobidan iqtiboslar keltirib, ayol kishi qozi bo‘lishi mumkin emas, degan xulosa beradi.[1] Bu maqola nashridan yana bir oz vaqtdan so‘ng gazetada “Bir musulmon” imzosi bilan salmoqli bir maqola chop qildi. Bu maqola muallifi ham shariat qonunlariga muvofiq ayol erkak bilan teng huquqli bo‘lmasligini isbotlashga harakat qiladi.[2] Turkiston o`lkasining rasmiy gazetasidagi bunday maqolalar ma`rifatparvarlar bilan qadimchilar o`rtasidagi kurashni olovlantirib turgan. Bularning barchasi sovet hokimiyatining o`lka xalqlarini shariat qo`rquvi asosida ushlashga harakat qilganining isbotidir.

Bilamizki, istiqbol egalari bo`lgan yosh avlod tarbiyasi asosan onalarga bog`liq. Shuning uchun ham bugungi kunda yurtimizda ayollarning ta`lim olishlariga keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Bu masala Turkiston jadidlarining ham doimiy e`tibor markazida bo`lgan. XX asrda Turkistonda tashkil etilgan qator milliy nashrlarda ham shu masalani hal etishga e`tibor qaratildi. Ushbu nashrlarda chop etilgan maqolalardan xabardor bo`lgan ayollar o`z orzu-istaklarini yozib, gazetalarda chop ettiradilar. Masalan, “Sadoi Turkiston” gazetasida “Poshshoxonum” imzosida: “Ey musulmon qardoshlarim! Shuncha vaqt ilm va maorufdan mahrum jaholat zindonida yotganimiz yetadi. Bitsun jaholat va g`aflat, bitsun oramizdagi rasm va odat”[3], - degan da`vat e`lon qilinadi.

Gazetasi millatning taraqqiyotga erishishiga to’siq bo’layotgan turli bid’atlar va o`rinsiz isrofgarchiliklarga xotin-qizlarimizning o’quvsizligini sabab qilib ko`rsatib: “Bir millatning har jihatdan taraqqiy qilmog’i va madaniylashmog’i xotun - qizlarining ilmi, axloqi va fikri jihatlaridan taraqqiy va

madaniylashmog'iga muvofiqdur", deya yozadi. "Oramizda bo'lg'on ko'p isrof va bid'atlarg'a va ko'p boylarimizning bankurot bo'lub qarzdor va abgor bo'lmoqlariga shul xotin - qizlarimizning jaholat va odatlari va to'y masalalarida erlarining o'z hollarini qo'ymasdan turli isroflarga majbur etganliklari sabab bo'lmakdadur[4]",- deb yozadi. XX asr boshlarida chop etilgan ushbu maqola nafaqat o`sha davr uchun, balki bugungi kunimiz uchun ham o`ta dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bugun ham yurtimizda mana shunday o`rinsiz isrofgarchilik va dabdababozliklar afsuski ko`plab uchrab turmoqda. Toshkandlik bir muallimaning imzosi bilan chiqqan "Turkiston musulmonlari tarafidan bir sado" maqolasida esa mana shunday dabdababozliklarni tugatish kerak ekanligi ta`kidlanadi:"Bitsun bunday ahamiyatsiz ziynat asboblari!… Endi bizni o'qiturg'a g'ayrat qilingiz, g'ayrat!!!" [5]- degan chaqiriq bilan muallima millatga xotin-qizlarni o`qitish kerakligi da`vosi bilan chiqadi.

Bundan tashqari gazetada otalarnining qizlariga qo`sha-qo`sha ziynat, tilla taqinchoqlar olib berishdan ko`ra, ularni o`qitib, ilmli qilishga chorlaydi. Sora Muzaffariyaning "Ayb o'zimizda" nomli maqolasida: "Bizda iste'dod ham bor, qobiliyat ham bor. Ong va fikr ham bor. Bir uy ichigina emas, ba'zi erlar ham o'rniga keltira olmaydigan mamlakatlar idora qiladurg'on quvvat ham bor"[6]- deya xotin-qizlarning katta-katta qobiliyatlar egasi ekanligini ta`kidlaydi.

Tadqiqotchi Nodira Mustafoyeva o`zining "Ayol yuksalturur bashariyatni" sarlavhasi ostidagi maqolasida o`sha davrda "Sadoi Turkiston" sahifalarida Layloxonim, Nozimaxonim kabi shoiralar she`rlarining chop etilishini gazeta ayollarga katta umid bilan qaraganidan dalolat ekanligini yozadi. Turkistonning so`z yuritilayotgan davrdagi faol bo`lgan mualliflaridan biri Rauf Muzaffarzoda "Yangi yildan eski tilaklar"[8]nomli maqolasida xotin-qizlarni dunyoviy bilimlardan xabardor bo`lish orqali hayotning ilg`orlari safida bo`lishga chaqiradi. Gazeta sahifalarida bunday maqolalarning tez-tez chop etilishi ko`plab xotin-qizlarni ilhomlantiradi va ular tahririyatga ko`plab maktublar yozishadi. Hatto Toshkentning Sebzor dahasi, Taxtapul mahallasida istiqomat qilaytgan 15 nafar qizning ilm darajasini aniqlash uchun imtihon joriy qilinadi. Bu haqda gazeta xursandchilik bilan: "Bu qizlar imtihoni butun Turkiston musulmonlarining ilm maoruf yo'liga birinchi urinishlari bo'lib, mundan so'ngra maktablarimizning adadlarini ko'paytirmog'ini janob haqdan so'rab qolurmiz[9] ", - deb yozadi. Bularning barchasi gazetaning ayollar va ularning ilmli bo`lishlari yo`lida tinmay harakat qilganligini ko`rsatadi.

Jumladan, gazetasining "Xotun qizlarimizga bir nazar"sarlavhali maqolasida: "Yosh bolalarimizning ibtidoiy tarbiyalari onalar qo'linda o'ldig'indan onalar bo'ladurg'on qizlarimizni o'qitmoq, onalar uchun xususiy maktablar solmoq, muallima va murabbiyalar va tarbiya af'oliga oshino bo'lgan onalar yetishturmak masalasi birinchi darajada muhim masalalardandur[10]",- deb yozib, qizlarning bir kun ona bo`lishlari va o`z farzandlariga ta`lim va tarbiya berishi kerak ekanligi, buning uchun esa ularning o`zini o`qitib savodli qilmoq kerakligi yoziladi.

Ayollar masalasiga Jadidchilik faoliyatining asoschisi bo`lmish Ismoilbek Gaspirali ham alohida e`tibor berib, o`zi muharrirlik qilgan "Tarjimon" gazetasining birinchi sonidan boshlab asosiy o`rinlarni egallaydi. "Tarjimon" gazetasi o'zining sahifalarida musulmolarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalari bilan birgalikda sovet hukumatining ta'lim sohasidagi ishlarini ham tahlil qiladi. Xususan, Gasprinskiy "Tarjimon" sahifalarida musulmon ayolining jamiyatdagi o`rnini ochib berishga harakat qiladi, ayollarning ilm olish va uni tarqatishdagi ishtiroki jamiyatida juda muhim ekanligini doim ta`kidlab turgan. Xatto, u gazetaga ayollar tomonidan yuborilgan maktublarni o'zining sharhlari bilan chop etadi, tashabbuslarini doim qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, "Bu muhtarama musulmon qizi Toshkent gimnaziyasida ta'lim olgan va uning o'z bilimini xalq orasida yoyishga bo'lgan samimiy ishtiyoqi bizni juda xursand qildi va bu ishda unga muvaffaqiyat tilaymiz"[11], - deb u musulmon qizning maktubiga sharh beradi.

Gasprinskiy "Tarjimon" sahifalarida ayollar masalasiga oid qator muhim ma`lumotlar ham berib borgan. Masalan, general gubernator Chernyayevning Toshkentda mahalliy ayollar uchun kasalxona ochish haqidagi farmoni; [12:44-bet} Turkiston temir yo'lidagi har poyezdda muslima ayollar uchun alohida bir vagon ajratilgani haqida; [12:137-bet] Toshkent dumasidagi rus vakillari musulmon ayollarini chechak kasaliga qarshi emlashga bepul o'qitilishi haqida qaror qilgan, lekin musulmon vakillari bizni ayollar buni qilmaydi, deb rozi bo'lmagani haqida; [12:193-bet] Ashxobod pochtasi ma'murligiga Bibi

Gulshot xonim tayinlangan, musulmon ayollaridan birinchi pochta ma’muri chiqqanligi [12:154-bet] haqidagi ma`lumotlar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, jadidlar ayollar masalasiga doimo diqqat qilib kelishgan. Ular nafaqat matbuot sahifalarida va maqolalarida, balki o`z asarlarida ham bu masalani doimiy yoritib borishgan. Masalan, Abdurauf Fitrat o`zining “Oila” nomli risolasida ayollar masalasiga oid o`zining qarashlarini yozadi. Asarda yozuvchi Buxorodagi ayollar masalasini, ularning haq-huquqlari, jamiyatda tutgan o`rnini ham, shubhasiz, maktab bilan o`zaro bog`liq holda qo`ygan. [13] Bularning barchasidan ko`rinib turibdiki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda nafaqat Turkistonda balki butun Sovet davlatida aholini, avvalo, xotin-qizlarni savodli qilish, ularni o`qitib, tarbiyalash o`ta dolzarb vazifa hisoblangan. Shuning uchun ham o`sha davrda yashagan ma`rifatparvarlar matbuot sahifalarida ayollarni bilimli qilish, o`qitish kerakligiga alohida urg`u berishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

[1] Mozhet li zhenshhina byt’ kaziem // Туркистон вилоятининг газетаси, 1912, № 54.
[2] Женшина не равна с мужчиной // Туркистон вилоятининг газетаси, 1912, № 72.
[3] “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1914, 3-iyun
[4] Xalimova S.A. Ubaydulla Asadullaxo`jayev va “Sadoi Turkiston”. Monografiya. –T.: “Universitet”, 2021. 58-bet
[5] “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1914, 20 may.
[6] “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1914, 23 avgust.
[7] Tafakkur, 2000, 1-son. –B. 19-20.
[8] “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1915, 6 yanvar.
[9] “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1914, 18 iyul
[10] “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1914, 3-iyun
[11] Batırşina, Amina. Müsülman qızden mektub // Tarjimon gazetasi, 1892, № 17.
[12] Abdirashidov Z. Tarjimon (1883-1917) gazetasidagi Turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi Sayı / Number: 22
[13] Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. Toshtent. “O`qituvchi”. 2002. 11-bet

QADIMIY DABUSIYA QAL’ASI TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Boymurodova Muborak
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti,
tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar – t.f.f.d.(PhD) dots., **O.M.Normatov**

Zarafshon daryosi sohilida bir muqaddas joy bor. Bilganlar uni e’zozlab, «Avliyo Ota» deb ulug‘laydi. Uni Dabus, Dabusiya qal’asi, Dabus, Dabusqal’a, Dahbusqal’a deb ham atashadi. Aytishlaricha, qadimda bu yerda ulkan shahar bo‘lgan. Ammo bugungi kunda bu yerda na shahar bor, na odamlar yashaydi. Keng hududdan iborat maydonda son-sanoqsiz qabrlar mavjud. Vayronaga aylangan shahar tuproq ostida qolgan. Dabusqal’a deb nom olgan ulug‘ shaharning bisotida yolg‘iz yodgorligi – Imom Bahra Ota maqbarasi bor.

Samarqand viloyati Paxtachi tumanda qadimiy maskanlaridan biri Dabus qal'adir. Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘idan 30 m balandlikda joylashgan Abu Bakr Muhammad Ibn Jafar ibn Zakrit ibn Xattob ibn Sharqiyning aytishicha, hali Buxoro shahri vujudga kelmagan lekin qishloqlardan ba’zilari paydo bo‘lgan edi. Podshoh turadigan katta qishloq Poykand edi. Shahar qal’ai Dabusiy - Dabusiy qal’asi, ya’ni shahar deb atashar edi. IX asrda yashagan Al Yaqubiy Dabusiy qal’asini "dushman tig‘i o‘tmagan mustahkam va mashhur shahar deb ta’riflaydi. Tarixchi olim Buryakov qal’a maydonidagi xarobalaridan topilgan so‘nggi antik davrga mansub sopol bo‘laklari asosida tahlil qilib shaharning yoshi mil. avv. III asrga taqalishi milodiy I asrda keng maydon o‘troq aholi tomonidan egallanganligi to’g’risida fikr

bildiradi. Tabariy, arablar bosqini davrida 722-yil Dabusiyada 10 ming sarboz turganligini haqida ma'lumot beradi. Hamma zamonlar geograflarning ulug'i deb nom olgan Muqaddasiy Samarqandga tegishli shaharlardan biri ekanligi Dabusiydan Robinson va Tavovisgacha bo'lgan masofa bir manzil ekanligi haqida yozadi. Shuningdek Muqaddasiy Dabusiyda ishlab chiqarilgan sifatli sanoat mollari butun olamga mashhur bo'lganligini hikoya qiladi. Dabusiy va Vadordan yaxlit qilib to'qilgan Vador matolari, men ularni Bog'doddagi sultonlardan biri Xuroson parchasi deb ataganini eshitganman deb yozadi. Buyuk ipak yo'lidan joylashgan Dabusiya qal'asi Xl-Xll asrlarda rivojlanib gullab yashnagan. Ayniqsa katta hududda tashkil etilgan bozor doim gavjum bo'lgan va jahonning uzoq davlatlarini bir-biri bilan bog'lab turgan. Shahar har jihatdan taraqqiy etgan Dabusiy shahrida mis, kumush, oltin tangalar zarb etilgan. Hokimiyatni egallagan Qoraxoniylar davrida tanga zarb qiladigan 40 dan ortiq zarb xonalar bilan Dabusiya qal'asida ham zarb xona bo'lib u yerda mis, kumush tangalar zarb qilingan XII asrdan boshlab bu yerda oltindan ham tangalar zarb qilina boshladi. Tangalardagi yozuvlar to'rtburchak shaklida arab alifbosida yozilgan Dabusiya qal'asida zarb qilingan tangalar dirxamlar kundalik ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanilgan. Oltin tangalar esa yirik savdo bitimlari tuzishda hamda xalqaro savdoda keng foydalanilgan. Mirzo Ulug'bek, Tarixi arbai ulus, (turt ulus tarixi) asarida yozishicha Chingizxon Movarounnahr mamlakatini bosib olish uchun mo'ru-malaxdek sanoqsiz sipohlarga farmon bergan Samarqand sari otlangan Chingizxon, Buxoro va uning atrofi aholisidan katta qo'shin jamladi. Yo'l asnosida ularning bir tudasi Dabus va Saripul qalasining muxofazasi uchun qoldirdi. Uzi katta jadillik bilan yo'lga tushdi deb yozadi.

X asrda qal'a rabot qismi 70 gektar Shahriston esa 22-23 gektar bo'lgan. Dabusiya qal'asida Imom Bahra ota ziyoratgohi joylashgan. Bu insonni 1520-1594 yillarda yashaganligi haqida ma'lumotlar bor. Bu kishi imom bo'lgan deb aytishadi. Bu ziyoratgohini Shayboniy sultonlardan Abdullaxon tomonidan qurilgan deb ataladi. Uni 1817 yil Amir Haydar qayta tamirlatgan.

Imom Bahra ota hayoti haqida mufassal ma'lumot yo'q u haqida ma'lumotlar kam uchraydi. Imom Bahra ota qabri tepasida ikkita ustida ramziy belgilar mavjud bu nima uchun osilgan, nima maqsadda qo'yilganligi ma'lum emas. Dabusiya qalasiga suv janubdagi tog'lardan kelgan buni isboti bu yerdan suv quvurlarining topilishi buni isbotlaydi. Bu shaharni dushman suv bilan uzib qo'ya olmagan shu sababli dushman bosib ololmagan daryo shahardan pastda joylashgan. Ziyoratgohni yonidagi yo'ldan to'g'riga yurilsa Zarafshon daryosiga boriladi. Bu daryodan qayiq yordamida daryoning narigi tomoniga o'tilsa besh panja ko'rinib turadi xalq orasida buni Hazrati Alining muborak panjasining izlari deb hisoblaydi. Shu uchun bu yerni daryo suvi yuvib ketmaydi. Mana necha asrlar o'tdi hamki xaqiqatdan xam bu yerni suv yuvib ketmaydi. Daryoga olib boradigan yo'lning yonida tepalik bor ushbu tepalikning bir qismida g'or mavjud. Bu g'or ichkarisi juda qorang'u bo'lib mahalliy aholi vakillari 4-5 metrdan o'ta olmagan bu g'or qayerga olib chiqishi ma'lum emas. Chunki uning oxirigacha hech kim bora olmagan. Bu boshqa shahar bilan bog'laydigan yer osti yo'li ham bo'lishi ham mumkin. Bir necha yillar avval o'zbek va yapon arxeologlari qazishmalar olib boradi. Hamda bu joyning dengiz sathidan balandligi 2590 metrligi aniqlandi. B.Kushinov bu yerdan Qadimiy tangalarni topdi. Bu tangalarga "at Dabusiy" "qutlug' o'rda" deb yozilgan ma'nosi ulug' shahar, qutlug' shahar ma'nosini anglatadi. Bu ziyoratgohdan topilgan topilmalar Samarqand viloyati Paxtachi tumandagi muzeyda saqlanadi. Muzey 1970-yil tashkil topgan. 1985-yil esa Sodiq Eshniyozov tomonidan ishga tushirilib, shundan buyon Dabusiya qal'asi haqida ma'lumotlar muzey zalida saqlanadi. Rivoyat qilishlaricha Dabusiya qo'shni joylar bilan bog'laydigan yashirin yer osti yo'li bo'lib ular maxfiy tutilgan. Dushman hujumidan himoya qilishda Dabusiyaliklarga bu juda qo'l kelgan. Bu qal'a haqida ma'lumotlar mufassal o'rganilmagan. Bu ziyoratgoh haqida ma'lumotlar oz o'rganilgan shuningdek Imom Bahra ota haqida ham to'liq ma'lumot yo'q. Ziyoratgoh Oltin meros xalqaro jamg'armasi tasarrufida 2019-yili Vazirlar mahkamasi qaroriga ko'ra milliy-madaniy meroslar ro'yxatiga kiritilgan. Bu yerda ziyoratchilar uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Masalan, ichkarida ayvonlar, tashqarida stol-stullar va manzara uchun kichik hovuzchalar mavjud. Mahalliy ziyoratchlar qadami uzilmaydi. So'ngi yillarda muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish borasida prezidentimiz tashabbuslari bilan keng ko'lamli ishlar olib borildi. Jumladan, Ziyoratgoh ham qayta ta'mirlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
1. Исмат Санаев. Зиёвуддин тарихи. Шарқ нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, - Тошкент: 1995.
2. Исмат Санаев. Самарқанд, бу- Самарқанд. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, - Тошкент: 2007.
3.Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Тошкент шаҳри.-Т:”UZBEKISTON TODAY” 2016.
4. https://paxtachi.uz/ru/node/211

TOG‘AY MUROD IJODIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTLAR

Olimjonova Fazilatxon Orifjon qizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zga tilli guruhlarda rus tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
Gumanitar fanlar fakulteti
“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolani yoritish jarayonida asarlardagi dialektlar va uning bugungi kundagi mohiyati tahlil qilindi. Shu bilan birga asarlardagi dialektlarning shakllanish masalalari yoritib berilgan.

АБСТРАКТНЫЙ: В процессе освещения данной статьи были проанализированы диалекты в произведениях и их значение сегодня, а также освещены вопросы формирования диалектов в произведениях.

ANNOTATION: In the process of covering this article, the dialects in the works and their meaning today were analyzed. At the same time, the issues of the formation of dialects in the works were highlighted.

KALIT SO‘ZLAR: Dialekt, maqola, adabiyot, roman, ijtimoiy, yozuvchi, dunyo, asar, adib
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Диалект, статья, литература, роман, социальный, писатель, мир, произведение, писатель
KEYS WORDS: Dialect, article, literature, novel, social, writer, world, work, writer

KIRISH:

Adabiyotshunoslarga ko‘ra, xotirasi abadiylashtirilishi lozim bo‘lgan yozuvchilardan yana biri bu Tog’ay Muroddir. Elimiz suygan adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murod o‘zining betakror asarlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan.

Tog‘ay Murod (Mengnorov Tog‘aymurod) 1948 yil 3 fevralda Surxondaryo viloyatining Denov tumaniga qarashli Xo‘jasoat qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1999). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan

(1972). Birinchi yirik qissasi — «Yulduzlar mangu yonadi» (1976). «Ot kishnagan oqshom» (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo Yer qo‘shig‘i» (1985) kabi qissalari nashr etilgan. «Otamdan kyulgan dalalar» (1993, ushbu asar asosida badiiy film yaratilgan, 2001), «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» (2001) romanlari muallifi. Jek Londonning «Boyning qizi» dramasi va hikoyalarini, E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo‘rg‘a» qissasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Yozuvchi 2003 yil 27 mayda Toshkent shahrida vafot etgan. Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1994).

Dastlab kichik hikoyalari, ocherklari e’lon qilingan. *1976-yilda* bosilgan „Yulduzlar mangu yonadi“ nomli ilk qissasi bilan yaxshi yozuvchi sifatida tanildi. *1979-yilda* „Ot kishnagan oqshom“, *1980-yilda* „Oydinda yurgan odamlar“, *1985-yilda* yozuvchining „Momo yer qo‘shig‘i“ qissalari chop etildi. Keyingi qissasi uchun yozuvchi Oybek nomidagi mukofot bilan

taqdirlandi. Ularda halol, oqko‘ngil, to‘g‘riso‘z, mard o‘zbek kishilarining betakror obrazlari yaratilgan. O‘zbek adabiyotining yutug‘i sifatida e’tirof etilgan bu qissalar tilining shoirona jozibadorligi, xarakterlarning yorqinligi, milliy ruhi bilan ajralib turadi. Tog‘ay Murod o‘zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi an’analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan.

Romanlari[tahrir | manbasini tahrirlash]

„Otamdan qolgan dalalar“ (1993) romanida O‘zbekistonning mustamlakaga aylanishi va tunu kun mehnat qilib, yashayotgan o‘zbek dehqonlarining mustabid tuzum yillaridagi og‘ir hayoti, iztiroblari hayotiy lavhalarda haqqoniy chizib berilgan. Asardagi Dehqonqul o‘zbek mehnatkashlarining umumlashgan obrazi darajasiga ko‘tarilgan. U boshiga yog‘ilgan minglab musibatlarga chidab yashashga majbur bo‘lsada, o‘z insoniy sha’ni, qadr-qimmatini baland tutadi, mustamlakachilarning yugurdaklarini ayovsiz fosh etadi. Asar asosida badiiy film yaratilgan (2001). „Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi“ romanida ham o‘z ijodiy mezonlariga sodiq qolib, yolg‘on e’tiqodlar, soxta shiorlarga aldanib, hayotini yelga sovurgan sobiqfirqa rahbarlarining majoziy obrazlarini hajviy bo‘yoqlarda tasvirlagan. *1993-yilda* „Yoshlik“ jurnalida „Otamdan qolgan dalalar“ romani chop etildi. Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotiga betakror xarakterlarni, avval uchramagan uslubni olib kirdi. *1999-yilda* „O‘zbekiston xalq yozuvchisi“ unvoni berildi. *2001-yilda* yozuvchining „Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi“ romani bosildi.

"Ot kishnagan oqshom", "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", "Oydinda yurgan odamlar" kabi asarlari bilan tanilgan.

Togay Murodga o‘zbek Sovet adabiyoti qolipini parchalagan, adabiyot ruhini va matnni milliylikka qaytargan yozuvchi sifatida baho beriladi.Fikrlarga kora Tog’ay Murod ozbek adabiyotidagi yangilanishni aynan milliylikka asoslanib yaratgani bilan ham ajralib turadi.Adib 1986–1991 yillarda “Otamdan qolgan dalalar” romanini yaratdi. 1994 yili unga mazkur asari uchun Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti berildi. “Otamdan qolgan dalalar” – ijtimoiy roman. U nafaqat adib ijodida, balki o‘tgan asrning 90-yillar adabiyotida katta voqea bo‘ldi. Unda mustabid tuzumning qattol siyosati, o‘zbek dehqonining og‘ir, mashaqqatli mehnati va nursiz hayoti real bo‘yoqlarda ochib tashlangan. Yozuvchi Luqmon Bo’rixonning aytishicha, ehtimol o’zbek adabiy jamoatchiligi, rahbarlar Tog’ay Murodning nomini abadiylashtirishni o’ylab korar.

“Adabiyot nuqtai nazaridan qaraganimizda, u kishi rasmiy tomondan qaysidir ma’noda unutilganiga qaramasdan, o’quvchilar orasida oz asarlaridagi milliy ruh bilan kezib yuribdi. Biz bugun yosh yozuvchilarni asarlarini o’qir ekanmiz, beixtiyor uning ta’sirini qidiramiz. Chunki osha ruh, osha ohang hamisha bizga kerak. Xohlaymizmi yo’qmi, agar o’zbekligimizni anglamoqchi bo’lsak, asarlarimizga ana shu ruhni singdirishimiz kerak”, - deydi Bo’rixon.O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari asosida ikki qismdan iborat badiiy film yaratildi.

MUHOKAMA MATNI:

“O‘zbek dialektologiyasi” o‘zbek shevalarini o‘rganadigan fandir. "Dialektologiya" so‘zi grek tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'grisidagi bilim degan ma’noni bildiradi. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalishi chegaralarini o‘rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz I.A. Karimovning: "jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singad.Ona tili - bu millatning ruhidir”- degan sc'zlarini eslash o‘rinlidir. Dialektologiyada ikki xildagi dialekt to'grisida ham fikr yuritiladi, ya'ni mahalliy dialektlar va Ijtimoiy dialektlardir. Mahalliy dialekt umumhalq (milliy) tilining muayyan territoriyaga oid ko'rinishi, o‘ziga xos namoyon bo'lishidir. O‘zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so‘zlarga o‘z manfaatlaridan kelib chiqib o‘zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan soha, kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o‘zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ular biror sheva yoki dialekt xususiyatiga ega emas. Ijtimoiy dialektda shevaga oid so'zlar ham ba'zan qatnashishi mumkin.

O‘zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o‘rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar tili sotsiolingvistikaning ob'yektidir.

Tog‘ay Murodning "Ot kishnagan oqshom"asarida ko‘plab dialektlarni uchratishimiz mumkin. Masalan,avradi-onamiz aldab-avradi.[2- bet],mayna qilmoq-meni mayna qilayotganday tuyuladi [3-bet], kalovlandi-men qayerga o‘tirishimni bilmay kalovlandim.[10-bet],abzal-omborxonadan ot abzalini olib keldim[13- bet], tag‘in - men tag‘in ko‘zimni yumdim[18- bet], inga-ingaladi –

uyimizda chaqaloq inga-ingaladi.[26- bet], eb-ey-eb eey!-dedi.[35- bet], manavi - manavi yerimga urdi...- dedi.[35-bet], xo‘rak- onamiz bilan ayolimiz xo‘rak olib keldi.[36- bet] va shu kabi dialektlarga duch kelamiz.

Ushbu dialektlarning asarda qo‘llanishi asardagi o‘ziga xos ma'nolarni ochib bergan. Jumladan,avradi-aldamoq,

mayna qilmoq-ustidan kulmoq,
ming‘illadi-gapirmoq,
kalovlanib-og‘zi ochilgan,
abzal-asbob, tag‘in-yana,
inga-ingaladi - yig‘lamoq,
Eb-ey- voy voy demoq,
manavi - mana bu,
xo‘rak - taom kabi dialektlar shu ma'nolarni anglatadi.Tog‘ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asari dialektlarga juda ham boy bo‘lgan asar hisoblanadi. Chunki bu asar hayotiy tarzda keng yoritilgan.

XULOSA:

Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llanilgan dialektlar mavzusidagi maqolamning xulosasi shundan iboratki, maqolamda asarlarda uchraydigan turfa xil dialektlarning ko‘rinishi, shakllari ularning ma'nolari xususida so‘z yuritganman. Maqolada ko‘rsatilgan asarlardagi dialektlarning mazmuni ochib berilganligi bu asarlarning mavzu ko‘lamini ochilishiga ham yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Tog‘ay Murod " Ot kishnagan oqshom".
2.Samixon Ashirboyev.(O‘zbek dialektalogiyasi).
3.w.w.w.amerikaovozi.com.

O‘QUV FANLARINI INTEGRATSION O‘QITISHNING RAQAMLI TIZIMI

Tashpulatova Dilorom Mukimovna
ChDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o‘quv fanlarini integratsion o‘qitishning raqamli tizimi to‘g‘risida fikr yuritilgan va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitish, ta’lim, fan, integratsiya, raqamlashtirish, yondashuv, ko‘nikma, bilim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi”da boshlang‘ich ta’limni raqamlashtirish vazifasi qo‘yilgan[1]. Bunda 2026- yilga qadar “Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperement tariqasida barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim planshetlari bilan ta’minlash, kelgusida mazkur tajriba Respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilishi” belgilangan. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli texnologiya asosida o‘qitish jarayoni kuchayadi. Buning uchun o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish masalasiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quv fanlarini integratsion o‘qitishning raqamli tizimi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini integratsion o‘qitishda raqamli tizimga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quv darsliklarining elektron nusxalarini yaratish va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining umumiy kompyuter bog‘lanmasini yo‘lga qo‘yish;

2) umumiy o‘rta ta’lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining integratsion shaklda mashg‘ulotlarini onlayn shaklda tashkil etish;

3) amaliy faoliyatdagi tajribali o‘qituvchilarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini biriktirib qo‘yish.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini integratsion o‘qitishning raqamli tizimini yuzaga keltiradi. Shu sababli raqamli tizim vositasida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘linadi [2]. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kompyuter, planshet kabi o‘quv-texnik vositalar bilan ishlashga qiziqishadi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, xorijiy mamlakatlarda raqamli texnologiya asosida o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish bo‘yicha o‘ziga xos tajriba mavjud. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasining Moskva davlat universiteti professor-o‘qituvchilarining har biri individual mashg‘ulot dasturiga ega va uning vositasida masofadan turib umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun integratsion mashg‘ulotlar tashkil qiladi[3]. Bunday tajribalardan foydalangan holda mamlakatimizda har bir professor-o‘qituvchining raqamli texnologiyalarga asoslangan integratsion o‘qitish darslarini tashkil etish muhim amaliy samarani beradi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari raqamli texnologiya asosi bo‘lgan kompyuter savodxonligiga ega. Chunki 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinflarda Informatika o‘quv fani o‘qitila boshlandi. Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish muhim va kutilgan samarani beradi.

O‘quv fanlarini raqamli tizim asosida o‘qitishni tashkil etish. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini raqamli tizim asosida o‘qitishni tashkil etish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun bizning yondashuvmizga ko‘ra, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

a) oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli texnologiya asosida o‘qitish metodikasi bilan qurollantirish;

b) amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyadan foydalanish malakasini hududlardagi Pedagoglarni yangi metodikaga o‘rgatish markazlari vositasida kuchaytirish;

v) Abdula Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot institutining o‘quv fanlarini integratsion shaklda raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish dasturini yaratish va uning o‘quv materiallarini muntazam boyitib borish;

g) o‘quv fanlari darsliklarining elektron nusxalarini umumiy o‘rta ta’lim maktablariga taqdim etish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini raqamli texnologiya asosida integratsion o‘qitish jarayoni kuchayadi.

Eslatib o‘tish lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning barcha umuiy o‘rta ta’lim maktablari zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan va ularni yangilash ishlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, yangi qurilayotgan barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablari kompyuterli sinflar va labaratoriyalar bilan jihozlanagan. Bunday imkoniyatlar boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini integratsion shaklda raqamli texnologiya asosida o‘qitish jarayonini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish metodikasi asoslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yaratish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda ayniqsa, kompyuterli dastur asosida o‘quv fanlarini o‘qitishning boshlang‘ich ta’lim xususiyatlariga mos metodikasini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli 2026-yilga qadar boshlang‘ich ta’lim to‘liq raqamlashtirilishi vazifasi qo‘yilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini raqamli texnologiya asosida integratsion o‘qitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini kuchaytiradi. Chunki axborot-kommunikatsion vositalar va texnikalarga asoslangan darslarning ma’lumotlar bazasini tezkor yangilab borish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘quvchilar bilan kompyuterli dastur vositasida individual ishlash kutilgan samarani beradi.

Bizning kuzatishimizga ko‘ra, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kompyuter bilan ishlash ko‘nikmasiga ega. Shu sabali boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini integratsiyalash va ularni raqamli texnologiya asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish jolzarb bo‘lib turibdi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda o‘quv fanlarini interatsion o‘qitishning raqamli tizimiga asoslanish ta’lim sifatiga erishishdagi eng muhim asoslardan biridan.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. //www.gogle/ uz.
2. Bardovskaya N. Pedagogika.-Moskva, 2018
3. Tashpulatova D. Boshlang‘ich ta’limda klaster yondashuv asosida o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish.-Toshkent, 2023

INTEGRATIV DASTURIY TA’MINOT MODIFIKATSIYASI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

Mirzaalimov Avazbek Alisherovich
Andijon davlat pedagogika instituti
Fizika va texnologik talim kafedrasi dotsenti
E-mail: avazbek.mirzaalimov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada integrativ dasturiy ta’minotni modifikatsiyalash orqali talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish masalalari yoritilgan. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilib, integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, dasturiy ta’minot, modifikatsiya, kasbiy faoliyat, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, metodik model

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan asosiy talab – bu raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvni joriy etish va dasturiy ta’minotni modifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ dasturiy vositalardan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bilimlarni tizimli o‘zlashtirish va amaliy faoliyatga tayyorlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada aynan shu jarayonning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Integrativ yondashuv zamonaviy pedagogikaning muhim metodologik tamoyillaridan biri bo‘lib, u turli fanlar, bilimlar va faoliyat turlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida ta’lim jarayoni fragmentar emas, balki yaxlit tizim sifatida tashkil etiladi. Integratsiya o‘quvchilarda (talabalarda) tizimli fikrlashni rivojlantiradi, bilimlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni anglashga yordam beradi hamda ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi.

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni qo‘llash natijasida o‘quv materiallari mazmuni boyitiladi, o‘quv faoliyati mazmunan kengayadi va chuqurlashadi. Ayniqsa, kasbiy ta’limda integratsiya nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, integrativ yondashuv individual va differensial ta’limni tashkil etishga ham imkon yaratadi. Chunki turli bilim sohalarini birlashtirish orqali o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlariga moslashgan o‘quv muhitini shakllantirish mumkin.

Dasturiy ta’minotni modifikatsiyalash – bu mavjud raqamli o‘quv vositalarini ta’lim maqsadlariga mos ravishda o‘zgartirish, takomillashtirish va adaptatsiya qilish jarayonidir. Uning nazariy asoslari bir necha pedagogik va axborot texnologik konsepsiyalarga tayanadi: adaptiv ta’lim nazariyasi, konstruktivizm, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda raqamli pedagogika.

Adaptiv ta’lim nazariyasiga ko‘ra, o‘quv vositalari o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashishi lozim. Shu sababli dasturiy ta’minotni modifikatsiyalash jarayonida kontent darajasi, topshiriqlar murakkabligi, vizual elementlar va interfeys dizayni qayta ishlab chiqiladi. Bu ayniqsa alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstruktivizm nuqtai nazaridan, bilimlar o‘quvchi tomonidan faol o‘zlashtiriladi. Shuning uchun modifikatsiyalangan dasturiy vositalar interfaol, muammoli vaziyatlarga asoslangan va o‘quvchini faol ishtirok etishga undovchi bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, modifikatsiya jarayoni didaktik tamoyillarga (ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ko‘rgazmalilik, moslashuvchanlik) asoslanadi. Natijada, dasturiy vositalar nafaqat texnik jihatdan, balki pedagogik jihatdan ham mukammallashtiriladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning kasbiy tayyorgarligini samarali shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda ta’lim mazmunini yangilash, uni integrativ yondashuv asosida tashkil etish va dasturiy ta’minot imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish modeli yaxlit pedagogik tizim sifatida ishlab chiqilib, u maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natijalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Mazmuniy komponent integrativ o‘quv materiallari asosida tashkil etilib, unda fanlararo bog‘liqlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalarda bilimlarning tizimliligini ta’minlab, ularni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quv mazmunining integrativligi talabalarning analitik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Jarayon komponenti esa ta’limni tashkil etish shakl va usullarini o‘z ichiga oladi. Unda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar hamda modifikatsiyalangan dasturiy vositalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Aynan shu vositalar orqali o‘quv jarayoni individuallashtiriladi, differensial yondashuv ta’minlanadi va talabalar faol o‘quv subyekti sifatida jalb etiladi. Shu bilan birga, raqamli vositalar yordamida o‘quv jarayonini monitoring qilish va tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Natijaviy komponent modelning samaradorligini ifodalaydi. U talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi orqali baholanadi. Mazkur modelni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, qaror qabul qilish hamda kasbiy faoliyatga moslashish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

Integrativ dasturiy vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini samarali shakllantirish ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon muayyan pedagogik shart-sharoitlar va puxta ishlab chiqilgan metodik ta’minotni talab etadi. Mazkur shart-sharoitlar ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lib, ular o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quv muhitining moslashuvchanligi ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar, interfaol platformalar va modifikatsiyalangan dasturiy vositalardan foydalanish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday muhit talabalarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘zlashtirish darajasiga mos ravishda ta’limni tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Pedagog integrativ yondashuv mohiyatini chuqur anglab, o‘quv jarayonini ilmiy asosda loyihalashi, samarali metod va vositalarni tanlay olishi hamda raqamli resurslardan oqilona foydalanishi zarur. Bu esa o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, innovatsion fikrlash va uzluksiz o‘z ustida ishlashni talab etadi.

Ta’lim mazmunining integrativligi ta’minlanishi lozim. Fanlararo bog‘liqlik asosida ishlab chiqilgan o‘quv materiallari talabalarning bilimlarini tizimli ravishda shakllantiradi, ularning mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Mazkur pedagogik shart-sharoitlar metodik ta’minot bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Metodik ta’minot tarkibiga integrativ o‘quv dasturlari, modifikatsiyalangan elektron resurslar, interfaol topshiriqlar va testlar, shuningdek baholash mezonlari va monitoring tizimi kiradi. Ayniqsa, monitoring va baholash tizimi o‘quv jarayonining natijadorligini aniqlash, talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, integrativ dasturiy vositalarga asoslangan ta’lim jarayonida samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish va mukammal metodik ta’minotni ishlab chiqish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Integrativ dasturiy ta’minot modifikatsiyasi asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning bilimlarini tizimli o‘zlashtirish, ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения. – М.: РАО, 1999. – 120 с.
2. G‘afforov Ya.X. Raqamli didaktika: muammo va yechimlar. – T.: Universitet, 2021. – 180 b.
3. Xalikov A.A. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. – T.: TDPU, 2015. – 210 b.
4. Xudoyqulov X.J. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari // Zamonaviy ta’lim. – 2017. – № 5. – B. 12-18.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYA FANIDA EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Kamaladin Kuronboyevich Matyaqubov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
komolodinmatyakubov87@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda umumta'lim maktablarida tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda empatiya kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik usullari, ularning tarbiyaviy ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Аннотация. В статье представлены педагогические методы формирования эмпатии у учащихся в процессе преподавания учебного предмета «Воспитание» (нравственное воспитание) в общеобразовательных школах, рассматривается их воспитательное значение, а также анализируются возможности использования современных образовательных технологий.

Abstract. This paper outlines the pedagogical methods for fostering empathy competence in students during the teaching of the "Upbringing" (moral education) subject in general education schools, discusses their educational significance, and explores opportunities for utilizing modern educational technologies.

Kalit so‘zlar: empatiya, tarbiya fani, o‘quvchi, emotsional intellekt, pedagogik texnologiya, hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, refleksiya.

Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday fazilatlardan biri empatiya bo‘lib, u insonning boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga hamdard bo‘lish va mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, tarbiya fanini o‘qitish jarayonida empatiyani rivojlantirish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va jamoada ishlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tarbiya darslarida empatiyani shakllantirishning samarali usullaridan biri interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishdir. Jumladan, "Rol o‘ynash", "Keys-stadi", "Aqliy hujum", "Munozara", "Vaziyatli topshiriqlar" va "Bahs-munozara" metodlari o‘quvchilarning boshqalarning nuqtai nazarini tushunish, muammolarga turli yondashuvlar asosida yechim topish hamda hamkorlikda faoliyat olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1. Rol o‘ynash metodi

Rol o‘ynash metodi o‘quvchilarning turli hayotiy vaziyatlarni amaliy tarzda boshdan kechirishiga asoslangan interfaol metod hisoblanadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar ma'lum bir shaxs rolini bajarish jarayonida uning his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va muammolarini tushunishga harakat qiladilar. Natijada

boshqalarga hamdardlik bildirish, ularning nuqtai nazarini qabul qilish va muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Misol: "Sinfdagi yangi o‘quvchini kutib olish", "Nogironligi bo‘lgan tengdoshga yordam berish", "Do‘stlar o‘rtasidagi nizoni hal qilish" kabi vaziyatlar sahnalashtiriladi. Dars yakunida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ulari va xulosalarini muhokama qiladilar.

2. Keys-stadi (Case Study) metodi

Keys-stadi metodi real yoki hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish asosida muammoga yechim topishga qaratilgan metoddir. O‘quvchilar berilgan vaziyatni tahlil qilib, voqea ishtirokchilarining hissiy holatini baholaydi, muammoning sabablarini aniqlaydi va eng maqbul yechimni taklif etadi.

Misol: O‘quvchi sinfdoshi ustidan kulganligi sababli uning ruhiy holati yomonlashgan vaziyat tahlil qilinadi. O‘quvchilar "Siz uning o‘rnida bo‘lsangiz nima his qilardingiz?" yoki "Muammoni qanday hal qilish mumkin?" kabi savollarga javob beradilar.

3. Aqliy hujum (Brainstorming) metodi

Aqliy hujum metodi muayyan muammo bo‘yicha o‘quvchilarning erkin va ijodiy fikrlarini yig‘ishga xizmat qiladi. Ushbu metodda barcha fikrlar qadrlanadi, tanqid qilinmaydi va keyinchalik tahlil qilinadi. Bu o‘quvchilarda boshqalarning fikrini hurmat qilish, tinglash va hamkorlikda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Misol: "Empatiyali inson qanday fazilatlarga ega?", "Sinfda mehr-oqibat muhitini qanday yaratish mumkin?" mavzularida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bildiradilar.

4. Munozara metodi

Munozara metodi o‘quvchilarning muayyan mavzu bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni ilmiy va madaniy asosda himoya qilishiga xizmat qiladi. Munozara davomida o‘quvchilar qarama-qarshi fikrlarni tinglash, hurmat qilish va dalillar asosida fikr bildirishni o‘rganadilar. Bu esa empatik tinglash va tolerantlikni rivojlantiradi.

Misol: "Kechirish kuchlilikmi yoki zaiflikmi?", "Har doim haqiqatni aytish kerakmi?" kabi mavzular yuzasidan guruhlar o‘z fikrlarini asoslaydilar.

5. Vaziyatli topshiriqlar metodi

Vaziyatli topshiriqlar metodi o‘quvchilarni muayyan axloqiy yoki ijtimoiy vaziyatga qo‘yish orqali ularda muammoni hal qilish va empatik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchi vaziyatni baholaydi, ishtirokchilarning hissiy holatini tahlil qiladi va eng maqbul yechimni tanlaydi.

Misol: "Sinfdoshingiz imtihondan past baho olib yig‘lab turibdi. Siz qanday yo‘l tutasiz?", "Do‘stingizni kamsitishayotganini ko‘rdingiz. Nima qilasiz?" kabi topshiriqlar beriladi.

6. Bahs-munozara metodi

Bahs-munozara metodi ikki yoki undan ortiq guruhning qarama-qarshi fikrlarni dalillar asosida himoya qilishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu metod o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash bilan birga boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, sabr bilan tinglash va madaniyatli muloqot olib borish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Misol: "Ijtimoiy tarmoqlar insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradimi yoki uzoqlashtiradimi?", "Qattiqqo‘llik tarbiyada samaralimi?" kabi mavzular bo‘yicha guruhlar dalillar keltirib bahs olib boradilar.

Empatiyani rivojlantirishda reflektiv mashqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dars yakunida o‘quvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilishi, sinfdoshlarining fikrlarini tinglashi va ularga nisbatan munosabatini baholashi shaxsiy refleksiya hamda emotsional ongni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, badiiy asarlar, hayotiy voqealar, videolavhalar va ijtimoiy vaziyatlar tahlili asosida tashkil etilgan muhokamalar o‘quvchilarning hissiy idrokini boyitadi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar qahramonlarning his-tuyg‘ularini tahlil qiladi, ularning xatti-harakatlariga baho beradi hamda o‘z xulq-atvorini tanqidiy baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Guruhli loyihalar va kooperativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham empatiya rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Birgalikda faoliyat yuritish jarayonida o‘quvchilar o‘zaro yordam, mas'uliyat, bag‘rikenglik va hurmat tamoyillarini amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fanida empatiyani shakllantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, reflektiv faoliyat va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitini yaratish

orqali samarali amalga oshiriladi. Natijada o‘quvchilarda emotsional intellekt, ijtimoiy kompetensiyalar hamda yuksak insoniy qadriyatlar rivojlanadi. Bu esa barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goleman D. *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books, 1995.
2. Rogers C. *A Way of Being*. Boston: Houghton Mifflin, 1980.
3. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence // *Imagination, Cognition and Personality*. 1990. Vol. 9(3).
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. *Tarbiya* fani o‘quv dasturi. Toshkent, 2023.

BELBOG‘LI KURASHDA TALABA SPORTCHILARGA KO‘KRAKDAN OSHIRIB TASHLASH USULI TEXNIKASINI O‘RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIK BOSQICHLARI

Sotvoldiyev Jasurbek Baxtiyor o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i.

Annotatsiya*:* Ushbu maqolada, talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar va yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan usullar ko‘rib chiqiladi. O‘qitish jarayonida individual yondashuv, amaliy mashg‘ulotlar va nazariy tushunchalarni birlashtirish orqali sportchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsad qilinadi. Shuningdek, metodik yondashuvlar va natijalarni baholash mexanizmlari ham muhokama qilinadi. Bu, kelajakda muvaffaqiyatli kurashchilarning tayyorlanishida muhim rol o‘ynaydi. Kalit so‘zlar: belbog‘li kurash, talaba sportchilar, ko‘krakdan oshirilib tashlash, texnika, o‘qitish jarayoni, amaliy mashg‘ulotlar, nazariy tushunchalar, individual yondashuv, texnik ko‘nikmalar, metodik yondashuv, natijalarni baholash, kurash mahorati.

Аннотация: В этой статье будут рассмотрены методы, направленные на совершенствование методов и подходов, используемых студентами-спортсменами при изучении метода увеличения груди. Обучение направлено на развитие технических навыков спортсменов за счет индивидуального подхода, сочетания практических занятий и теоретических концепций. Также обсуждаются методологические подходы и механизмы оценки результатов. Это, в свою очередь, играет важную роль в обучении будущих успешных борцов. Ключевые слова: борьба на поясах, студенты-спортсмены, отжимания от груди, техника, процесс обучения, практические занятия, теоретические концепции, индивидуальный подход, технические навыки, методический подход, оценка результатов, навыки борьбы.

Annotation: this article examines techniques aimed at improving the techniques and approaches used to student athletes in the study of breast augmentation. In the process of training, the goal is to develop the technical skills of athletes by combining an individual approach, practical training and theoretical concepts. Methodological approaches and mechanisms for evaluating results are also discussed. This will play an important role in the preparation of successful wrestlers in the future. Keywords: belt wrestling, student athletes, breast augmentation, technique, training process, practical training, theoretical concepts, individual approach, technical skills, methodological approach, evaluation of results, wrestling skills.

Kirish. Belbog‘li kurash, o‘zining jozibadorligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu sport turi nafaqat jismoniy kuch, balki taktik fikrlashni ham talab etadi. Talaba sportchilarning o‘qitilishi va ularning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish, muvaffaqiyatli kurashchilarning tayyorlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada, talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usuli texnikasini o‘rganish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan takliflar keltiriladi.

Usulning ahamiyati. Ko‘krakdan oshirilib tashlash, kurashning asosiy usullaridan biri bo‘lib, raqibni nazorat qilish va pozitsiyani o‘zgartirish imkonini beradi. Bu usulni to‘g‘ri o‘rganish, sportchilarga raqibni samarali ravishda boshqarishga yordam beradi va kurash jarayonida muhim afzallik yaratadi.

Nazariya va amaliyot. Sportchilarni o‘qitish jarayoni nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olishi kerak. Nazariy bo‘limda ko‘krakdan oshirilib tashlash usulining mohiyati, foydasi va to‘g‘ri bajarilishi haqida tushuncha berish zarur. Amaliyotda esa, sportchilar o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam mashq qilishlari lozim.

Videotahlil. Sportchilarga o‘z texnikasini takomillashtirishda videotahlil yordam beradi. Mashg‘ulotlar davomida olingan videolarni tahlil qilib, xatolarni aniqlash va to‘g‘ri bajarish usullarini o‘rganish mumkin.

Individual yondashuv. Har bir sportchining qobiliyatlari va zaif tomonlari har xil. Shuning uchun, o‘qitish jarayonida individual yondashuvni qo‘llash muhimdir. Sportchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularning ehtiyojlariga mos trening dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Mashg‘ulotlar tuzilishi:

Qizg‘in harakatlar. Mashg‘ulotlar davomida ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish uchun avval qizg‘in harakatlar o‘tkazilishi kerak. Bu, sportchilarning mushaklarini tayyorlash va ularni zarur harakatlarga moslashtirishda yordam beradi.

Texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish. Asosiy mashqlarni o‘rgatishdan tashqari, sportchilarni ko‘krakdan oshirilib tashlashni to‘g‘ri bajarishlari uchun alohida ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur. Bu, harakatni to‘g‘ri bajarish va raqibga nisbatan strategik yondashuvni shakllantirishda yordam beradi.

Natijalarni baholash. Talaba sportchilarining muvaffaqiyatini baholash uchun muntazam ravishda testlar va musobaqalar o‘tkazish lozim. Bu, sportchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasini aniqlash va ularning o‘sishini kuzatishga imkon beradi.

Belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish jarayonini takomillashtirish, ularning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tezkor mashg‘ulotlar, individual yondashuv va videotahlil yordamida sportchilar o‘z salohiyatini maksimal darajada oshirishi mumkin. Bu esa, ularning kurashdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi va kelajakda o‘z mahoratlarini oshirishlariga zamin yaratadi.

Belbog‘li kurash, o‘zining dinamik va mahorat talab qiluvchi xarakteri bilan ajralib turadi. Ushbu sport turi nafaqat jismoniy kuch, balki texnik va taktika asosida ham rivojlanishni talab etadi. Talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usuli texnikasini o‘rgatish, ularning kurash mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul, raqibni nazorat qilish va kurash jarayonida muvaffaqiyatli strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Belbog‘li kurash - o‘ziga xos texnikalar va strategiyalarni talab qiluvchi murakkab sport turi. Ushbu sportda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilar nafaqat jismoniy kuch, balki yuqori darajadagi texnik mahoratga ham ega bo‘lishlari zarur. Ko‘krakdan oshirilib tashlash usuli, belbog‘li kurashda muhim rol o‘ynaydi, chunki bu usul raqibni nazorat qilish va samarali zarbalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Talaba sportchilarga ushbu usulni o‘rgatish jarayonida, nafaqat amaliy mashg‘ulotlar, balki nazariy bilimlarni ham o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv zarur. Bu maqolada ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish jarayonini takomillashtirish, sportchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qitish metodlarini yangilashga qaratilgan takliflar ko‘rib chiqiladi. Bu orqali sportchilar o‘z mahoratini oshirib, belbog‘li kurashda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Belbog‘li kurashda ko‘krakdan oshirilib tashlash usuli texnikasini o‘rganish va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu bo‘limda, mavjud ilmiy manbalar, metodik qo‘llanmalar va amaliy tajribalar tahlil qilinadi.

Texnikalar va metodik yondashuvlar.O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi va xalqaro kurash federatsiyalarining metodik qo‘llanmalari, belbog‘li kurash texnikalarini o‘rgatishda qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qo‘llanmalarda ko‘krakdan oshirilib tashlash usulining nazariy va amaliy jihatlari batafsil bayon etilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulotlar

davomida sportchilarga usulning asosiy tamoyillari va harakatlarini tushuntirish, ularni amaliyotda bajarish muhimdir.

Amaliy tadqiqotlar. Bir qator tadqiqotlar, talaba sportchilarning ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish jarayonida to‘g‘ri texnikani o‘zlashtirishda videotahlilning ahamiyatini ta’kidlaydi. Videomateriallardan foydalanish orqali sportchilar o‘z xatolarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi va harakatlarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni oladilar. Shuningdek, amaliy tadqiqotlar, mashg‘ulotlarda individual yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi.

Trening dasturlari. Mavjud adabiyotlar, ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish uchun mo‘ljallangan turli xil trening dasturlarini taklif etadi. Ushbu dasturlar, sportchilarning jismoniy tayyorgarligini va texnik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam trening va amaliyotlar orqali ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘zlashtirish tezlashadi.

Sport psixologiyasi. Ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini muvaffaqiyatli o‘rganish jarayonida sport psixologiyasining o‘rni ham muhimdir. Psixologik holat, raqibga nisbatan strategik fikrlash va stressni boshqarish qobiliyatlari sportchining natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotlar, psixologik tayyorgarlik va o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Umuman olganda, belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish jarayonini takomillashtirish uchun mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar muhim asosni taqdim etadi. Nazariy bilimlar, amaliy tajribalar va psixologik yondashuvlar birlashganda, sportchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu esa, kelajakda muvaffaqiyatli kurashchilarning tayyorlanishida o‘z aksini topadi.

Metodologiya

1. **Maqsad va vazifalar:** Talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini samarali o‘rgatish orqali ularning texnik ko‘nikmalarini oshirish.

Vazifalar:

⎪Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash.

⎪ Teorik bilimlarni oshirish.

⎪Amaliy mashg‘ulotlar va trening dasturlarini ishlab chiqish.

⎪Natijalarni baholash va tahlil qilish.

2. O‘qitish jarayoni.

Nazariy tayyorgarlik

⎪Ko‘krakdan oshirilib tashlash usulining nazariy asoslari va muhim tamoyillari.

Usulning taktik jihatlari va raqibni nazorat qilishning ahamiyati.

Amaliy tayyorgarlik

⎪O‘quv mashg‘ulotlarida dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish.

⎪Harakatlar ketma-ketligini o‘rganish va takrorlash.

⎪Mashg‘ulotlarda videotahlil va refleksiya orqali xatolarni aniqlash.

3. Trening dasturlari

Mashg‘ulotlar tuzilishi

⎪Qizg‘in harakatlar: mushaklarni tayyorlash uchun harakatlar.

⎪Texnik ko‘nikmalar: ko‘krakdan oshirilib tashlash usuli, uning bajarilishi va variantlari.

Individual yondashuv

⎪Har bir sportchining qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos trening dasturlarini ishlab chiqish.

⎪Baholash va tahlil

Natijalarni baholash

⎪Sportchilarning ko‘nikmalarini baholash uchun muntazam testlar va musobaqalar o‘tkazish.

⎪Videotahlil orqali harakatlarni tahlil qilish va takomillashtirish.

O‘sish va rivojlanish

⎪Sportchilarning o‘zgarishini kuzatish va trening jarayonini moslashtirish.

5. Psixologik tayyorgarlik

⎪ Psixologik yondashuvlar: stressni boshqarish va raqibga qarshi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

⎪ Motivatsiyani oshirish va sportchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonlarini qo‘llash.

Ushbu metodologiya, belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganishda kompleks yondashuvni taqdim etadi. Nazariy va amaliy tayyorgarlik, individual yondashuv, va psixologik tayyorgarlikni birlashtirish orqali sportchilarning muvaffaqiyatini oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu jarayon, kelajakda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar. Belbog‘li kurash - o‘zining murakkabligi va texnik jihatlari bilan ajralib turadigan sport turi. Ushbu sportda ko‘krakdan oshirilib tashlash usuli muhim ahamiyatga ega, chunki bu raqibni nazorat qilish va kurash jarayonida ustunlikni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Talaba sportchilarga ushbu usulni o‘rgatishda ko‘plab jihatlarni hisobga olish zarur. 1.Ta’lim jarayonining strukturasi - o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish uchun, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan birlashtirish muhimdir. Sportchilar nazariy asoslarni yaxshi o‘zlashtirib, ularni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashlari kerak. Bu jarayonda usulning asosiy tamoyillari, harakatlar ketma-ketligi va taktik jihatlarini tushuntirish zarur.

2.Amaliy mashg‘ulotlar - davomida, ko‘krakdan oshirilib tashlash usulining texnikasini to‘g‘ri o‘rganish uchun qat’iy reja tuzish kerak.

Mashg‘ulotlarda:

- Harakatlar ketma-ketligini takrorlash.
- Har xil sharoitlarda usulni qo‘llash (mushak kuchi, tezlik va moslashuvchanlik).
- Videotahlil orqali sportchilarning o‘z xatolarini ko‘rishi va tahlil qilishlari uchun imkoniyat yaratish.

3. Individual yondashuv- har bir sportchining o‘ziga xos qobiliyatlari va zaif tomonlari bor. Shuning uchun, o‘qitishda individual yondashuvni qo‘llash muhimdir. Har bir sportchi uchun individual trening dasturlari ishlab chiqish, ularning ehtiyojlarini hisobga olish orqali natijalarni oshirish mumkin.

4. Psixologik tayyorgarlik - ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganishda psixologik tayyorgarlik ham muhim o‘rin tutadi. Sportchilarni raqibga nisbatan strategik fikrlash va stressni boshqarish qobiliyatlari bilan ta’minlash, ularning muvaffaqiyatli kurashishiga yordam beradi.

5. Natijalarni baholash - mashg‘ulotlar jarayonida va oxirida natijalarni baholash va tahlil qilish, sportchilarning o‘sish darajasini aniqlash uchun muhimdir. Muntazam testlar va musobaqalar orqali sportchilarning texnik ko‘nikmalari baholanadi va kerakli o‘zgarishlar kiritiladi. Belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganishni takomillashtirish, ularning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Nazariy va amaliy yondashuvlar, individual tayyorgarlik va psixologik jihatlarni birlashtirish orqali sportchilar o‘z mahoratlarini oshirib, kurashda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Bu jarayon, o‘z navbatida, kelajakda muvaffaqiyatli kurashchilar tayyorlashga xizmat qiladi.

Belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish jarayoni bir qator ijobiy natijalarga olib keldi. Ushbu natijalar, o‘qitish metodologiyasi va amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini ko‘rsatadi.

1. Texnik ko‘nikmalarni oshirish - sportchilar ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganish jarayonida, ularning texnik ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Videotahlil orqali harakatlar tahlil qilinishi natijasida, sportchilar o‘z xatolarini aniqlab, to‘g‘ri bajarish usullarini o‘rgandilar. Natijada, usulni bajarishdagi samaradorlik oshdi.

2. Jismoniy tayyorgarlik - o‘qitish jarayonida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi ham yaxshilandi. Muntazam mashg‘ulotlar va qizg‘in harakatlar orqali mushak kuchi, moslashuvchanlik va tezlik darajasi oshdi. Bu esa kurash jarayonida sportchilarga qo‘shimcha ustunlik berdi.

3. Psixologik barqarorlik - sportchilarning psixologik tayyorgarligi ham muhim natijalarga erishdi. Raqibga nisbatan strategik fikrlash qobiliyati rivojlandi, stressni boshqarish va musobaqalarda o‘zini tutish qobiliyati yaxshilandi. Bu, sportchilarning kurash jarayonida o‘zlarini ishonchli his qilishlariga yordam berdi. 4. Muvaffaqiyatlar - o‘qitish jarayoni davomida sportchilar o‘z natijalarini yaxshilashdi. Muntazam ravishda o‘tkazilgan testlar va musobaqalar natijasida, ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini

samarali qo‘llay oladigan sportchilarning soni oshdi. Bu, o‘qitishning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

5. Individual yondashuv - individual yondashuv orqali har bir sportchining ehtiyojlari va qobiliyatlari hisobga olindi. Bu yondashuv, sportchilarning o‘z salohiyatini to‘liq ochishlariga va ularni o‘z maqsadlariga erishishlariga yordam berdi. Belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganishni takomillashtirish jarayoni, texnik ko‘nikmalar, jismoniy tayyorgarlik, psixologik barqarorlik va muvaffaqiyatlar sohasida ijobiy natijalarga olib keldi. Bu jarayon, kelajakda kurashchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi va sportda yuqori natijalarga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa. Belbog‘li kurashda talaba sportchilarga ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini o‘rganishni takomillashtirish jarayoni, ularning texnik ko‘nikmalarini, jismoniy tayyorgarligini va psixologik barqarorligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘qitish jarayonida nazariy bilimlar va amaliy mashg‘ulotlarni birlashtirish, individual yondashuvni qo‘llash va videotahlil kabi metodlarni ishlatish sportchilarning o‘z mahoratlarini oshirishiga yordam berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, muntazam mashg‘ulotlar va psixologik tayyorgarlik orqali sportchilar o‘z salohiyatlarini to‘liq ochish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ularning ko‘krakdan oshirilib tashlash usulini to‘g‘ri va samarali bajarish qobiliyatlari oshdi, bu esa musobaqalarda muvaffaqiyat qozonishga olib keldi. Kelajakda ushbu metodologiyani davom ettirish, yangi yondashuvlar va texnikalarni qo‘llash orqali belbog‘li kurashda talaba sportchilarni yanada samarali tayyorlash imkoniyatlari yaratiladi. Bu, o‘z navbatida, sportchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va sportdagi yuqori natijalariga erishishiga zamin tayyorlaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Sport Vazirligi. (2020). Belbog‘li kurash: metodik qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston Sport Universiteti.

2. Khalilov, A. (2018). Kurash texnikalari va taktikasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy Tarbiya va Sport Fakulteti.

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSIYAVIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Tolipova Baxtigul Farxodovna
Xalqaro Nordik universiteti doktoranti, PhD
ORCID: 0000-0003-1675-6825
b.tolipova@nordicuniversity.org

Annotatsiya: Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etishda kapital resurslarini oqilona taqsimlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda qiymat zanjiri bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash alohida ahamiyatga ega.

Investitsiyaviy faoliyat natijadorligini oshirishga ta’sir etuvchi reproduktiv, texnologik, bozor, institutsional-moliyaviy va strategik omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Kapital qo‘yilmalarining samaradorligini baholashda nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki ishlab chiqarish unumdorligi, resurslardan foydalanish darajasi, logistika samaradorligi va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini aks ettiruvchi mezonlardan foydalanish zarurligi asoslanadi. Investitsiya resurslarini qiymat zanjiri bo‘yicha samarali yo‘naltirish oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: investitsiyaviy faoliyat, investitsiya samaradorligi, kapital qo‘yilmalar, oziq-ovqat sanoati, qiymat zanjiri, texnologik modernizatsiya, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishi, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishi va raqobatbardoshligini ta’minlashi bevosita investitsiyaviy faoliyat samaradorligiga bog‘liq hisoblanadi. Ayniqsa, oziq-ovqat sanoati kabi strategik tarmoqlarda investitsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik yangilash, mahsulot sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda ichki bozor barqarorligini ta’minlashda muhim iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Investitsiyaviy faoliyat korxonada mavjud kapital yetishmovchiligini bartaraf etish bilangina chegaralanmaydi. U asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish hamda uzoq muddatli strategik rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan murakkab boshqaruv jarayonidir. Shu sababli investitsiya samaradorligini baholashda faqat moliyaviy natijalarga asoslangan yondashuv yetarli hisoblanmaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda investitsiyaviy faoliyat samaradorligi ko‘pincha foyda, rentabellik, kapital qaytimi va pul oqimlari kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Biroq oziq-ovqat sanoati korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari investitsiya natijalarini kengroq mezonlar asosida o‘rganishni talab etadi. Chunki mazkur sohada kapital qo‘yilmalari xomashyo yetkazib berish, qayta ishlash, saqlash, logistika, sifat nazorati va mahsulotni iste’molchiga yetkazish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu jihatdan oziq-ovqat sanoatida investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish kapital hajmini ko‘paytirishdan tashqari, uni qiymat zanjirining muhim bo‘g‘inlariga to‘g‘ri yo‘naltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor talablariga moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish hamda zamonaviy ilmiy konsepsiyalar asosida investitsiya qarorlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligini baholash bo‘yicha mavjud ilmiy konsepsiyalarni tizimli o‘rganish va ularni umumlashtirishga asoslangan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy baholash, iqtisodiy guruhlash va ko‘p mezonli yondashuv usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar investitsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, kapital taqsimoti va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash imkonini beradi.

Investitsiyaviy faoliyat samaradorligini tahlil qilishda qiymatga asoslangan baholash, endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi, institutsional yondashuv va qiymat zanjiri konsepsiyalari asosiy metodologik yo‘nalish sifatida tanlandi. Qiymatga asoslangan yondashuv investitsiya loyihalarining moliyaviy natijadorligini kapital qiymati, kutilayotgan pul oqimlari va tavakkalchilik darajasi orqali baholash imkonini beradi. Endogen o‘sish nazariyasi investitsiyalarning texnologik yangilanish, innovatsiyalar va bilimlarni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini izohlaydi.

Institutsional yondashuv esa investitsiya qarorlarining shakllanishida moliyalashtirish imkoniyatlari, huquqiy muhit, shartnomalar barqarorligi va boshqaruv tizimining rolini aniqlashga xizmat qiladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ushbu yondashuvlarni integratsiyalash investitsiya samaradorligini faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki ishlab chiqarish, texnologik va strategik ko‘rsatkichlar asosida ham baholash imkonini beradi.

Shu sababli tadqiqotda investitsiya jarayoni “investitsiya ehtiyoji – kapital manbasi – investitsiya yo‘nalishi – iqtisodiy natija” ketma-ketligi asosida o‘rganildi.

1-jadval. Investitsiyaviy faoliyat samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari

Yondashuv nomi	Mazmuni	Baholash mezonlari
Qiymatga asoslangan yondashuv	Investitsiya loyihalarining kapital qiymati va pul oqimlari orqali baholanishi	Rentabellik, sof iqtisodiy qiymat, kapital qaytimi
Endogen o‘sish nazariyasi	Innovatsiya va texnologik rivojlanish orqali samaradorlikni oshirish	Mehnat unumdorligi, texnologik yangilanish

Institutsional yondashuv	Investitsiya muhitining huquqiy va moliyaviy sharoitlarini hisobga olish	Kapitalga kirish, xavflarni kamaytirish
Qiymat zanjiri yondashuvi	Ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo‘lgan jarayonlarni kompleks baholash	Logistika, sifat, ishlab chiqarish samaradorligi

Natijalar va tahlil

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligi bir nechta iqtisodiy, texnologik va institutsional omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Kapital qo‘yilmalarining yakuniy natijasi faqat investitsiya hajmi bilan emas, balki ushbu resurslarning qaysi ishlab chiqarish yo‘nalishlariga ajratilishi, boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi hamda bozor talablariga moslashuv darajasi bilan belgilanadi.

Oziq-ovqat sanoatida investitsiyalarning samarali yo‘naltirilishi birinchi navbatda mavjud ishlab chiqarish cheklovlarini aniqlashni talab qiladi. Eskirgan asosiy vositalarni yangilash, avtomatlashtirilgan texnologiyalarni joriy etish, energiya tejamkor uskunalardan foydalanish va mahsulot sifatini nazorat qilish tizimlarini rivojlantirish investitsiya natijadorligini oshiruvchi asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shuningdek, investitsiyaviy faoliyat samaradorligida qiymat zanjiri bo‘g‘inlarining mutanosib rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Faqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar yetarli natija bermasligi mumkin. Chunki qayta ishlash, saqlash, transport-logistika va mahsulotni bozorga yetkazish jarayonlaridagi mavjud cheklovlar umumiy samaradorlikka ta’sir qiladi.

Tahlillar asosida investitsiyaviy qarorlarni shakllantiruvchi asosiy omillar beshta guruhga ajratildi: reproduktiv, texnologik, bozor, institutsional-moliyaviy hamda strategik ta’minot omillari. Ushbu omillar korxonaning investitsiya ehtiyojini aniqlash, kapital taqsimoti yo‘nalishlarini belgilash va iqtisodiy natijalarni baholashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

2-jadval. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar tizimi

Omillar guruhi	Investitsiyaga ta’siri	Kutiladigan iqtisodiy natija
Reproduktiv omillar	Asosiy vositalarni yangilash va ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash	Texnik yo‘qotishlar kamayadi, ishlab chiqarish barqarorlashadi
Texnologik omillar	Innovatsion uskunalar va avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish	Mehnat unumdorligi oshadi, resurs sarfi kamayadi
Bozor omillari	Talab o‘zgarishi va raqobatga moslashish	Mahsulot sifati va bozor ulushi ortadi
Institutsional-moliyaviy omillar	Kapitalga kirish imkoniyati va moliyalashtirish sharoitlarini yaxshilash	Investitsiya xavflari kamayadi
Strategik ta’minot omillari	Xomashyo, saqlash va logistika tizimini rivojlantirish	Qiymat zanjiri samaradorligi oshadi

Olingan natijalar investitsiyaviy faoliyatni boshqarishda ko‘p mezonli yondashuvdan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda moliyaviy samaradorlik bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonlari, innovatsion rivojlanish va strategik barqarorlik ko‘rsatkichlari ham hisobga olinishi lozim.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy sharoitda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Investitsiya faoliyati faqat moliyaviy resurslarni jalb qilish yoki ishlab chiqarishga qo‘shimcha kapital kiritish bilan chegaralanmaydi, balki korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, investitsiyaviy faoliyat samaradorligi kapital resurslarining miqdoriga emas, balki ularning oqilona taqsimlanishi, ustuvor yo‘nalishlarga safarbar etilishi va kutilayotgan iqtisodiy natijalar bilan bog‘liqligiga bog‘liqdir. Shu sababli investitsiya qarorlarini qabul

qilishda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda texnologik rivojlanish, ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi, bozor talablariga moslashuv va qiymat zanjiri barqarorligi kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirish darajasini oshirish, energiya va material resurslaridan samarali foydalanish hamda logistika tizimini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va korxonalarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, investitsiyaviy faoliyatni rivojlantirishda institutsional-moliyaviy muhitning barqarorligi muhim o‘rin tutadi. Kapitalga kirish imkoniyatining kengayishi, investitsion xavflarning kamayishi, moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashuvi korxonalarning yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi.

Umuman olganda, oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish uchun qiymat zanjiriga asoslangan kompleks boshqaruv yondashuvini shakllantirish zarur. Bunda investitsiya ehtiyoji, kapital manbalari, texnologik imkoniyatlar va yakuniy iqtisodiy natijalar yagona tizim sifatida baholanishi lozim. Mazkur yondashuv korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, innovatsion salohiyatini oshirish va uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 12th edition. – New York: McGraw-Hill Education, 2017.
2. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2012.
3. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol.70. – №1. – P.65–94.
4. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol.98. – №5. – P.71–102.
5. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
6. Aramyan L.H., Oude Lansink A.G.J.M., Van der Vorst J.G.A.J. Performance Measurement in Agri-Food Supply Chains // Supply Chain Management: An International Journal. – 2007. – Vol.12(4). – P.304–315.
7. FAO, UNIDO. Developing Sustainable Food Value Chains: Practical Guidance for Systems-Based Analysis and Design. – Rome: FAO, 2024.
8. World Bank. Uzbekistan: Agri-Food Job Diagnostic. – Washington DC: World Bank, 2020.

NEYROPEDAGOGIK TAHLILLARNI O‘TKAZISHDA NUTQIY TAFAKKURGA OID MASALALAR

Temirbekova A.O.
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti.(PhD).

Annotatsiya. Mazkur maqolada neyropedagogik tahlillar doirasida nutq tafakkurining vazifalari va muammolari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Nutq tafakkurining neyrokognitiv mexanizmlari, uning xotira, hissiyot va boshqa kognitiv jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shu bilan birga, nutq tafakkurini neyropedagogik tahlil qilishda uchraydigan metodologik, madaniy, axloqiy va fanlararo muammolar yoritilib, ularni bartaraf etishning ilmiy asoslari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, nutq tafakkuri, neyrokognitiv jarayonlar, neyrolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistik dasturlash, kognitiv rivojlanish, diagnostika, muammoli ta’lim, matn tahlili, fanlararo yondashuv, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье в рамках нейропедагогического анализа рассматриваются теоретические и практические аспекты задач и проблем речевого мышления. Освещены нейрокогнитивные механизмы речевого мышления, а также их взаимосвязь с памятью, эмоциями и другими когнитивными процессами. Кроме того, проанализированы методологические, культурные, этические и междисциплинарные проблемы, возникающие при нейропедагогическом анализе речевого мышления, и представлены научно обоснованные подходы к их решению.

Ключевые слова: нейропедагогика, речевое мышление, нейрокогнитивные процессы, нейролингвистика, психолингвистика, нейролингвистическое программирование, когнитивное развитие, диагностика, проблемное обучение, анализ текста, междисциплинарный подход, образовательные технологии.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the tasks and challenges of speech thinking within the framework of neuropedagogical analysis. It explores the neurocognitive mechanisms underlying speech thinking and their relationship with memory, emotions, and other cognitive processes. In addition, the study discusses the methodological, cultural, ethical, and interdisciplinary challenges encountered in the neuropedagogical analysis of speech thinking and presents scientifically grounded approaches to addressing these issues.

Keywords: neuropedagogy, speech thinking, neurocognitive processes, neurolinguistics, psycholinguistics, Neuro-Linguistic Programming (NLP), cognitive development, diagnostics, problem-based learning, text analysis, interdisciplinary approach, educational technologies.

Neyropedagogik tahlillarni o‘tkazishda nutq tafakkurining vazifalari va muammolari psixolingvistika, nevrologiya, pedagogika va kognitiv psixologiya chorrahasida joylashgan zamonaviy ilmiy talablar doirasida muhim o‘rin tutadi. Nutq tafakkuri intellektual faoliyatning maxsus shakli sifatida til nafaqat ifoda vositasi, balki fikrni shakllantirish va tuzish vositasi sifatida ham harakat qiladigan jarayondir. Neyropedagogika sharoitida uning tahlili - o‘rganish mexanizmlarini, ayniqsa tilni rivojlantirish sohasida chuqurroq tushunishga imkon beradi. Asosiy vazifalardan biri nutqiy tafakkur asosidagi neyrokognitiv mexanizmlarni aniqlashdir. Bu miyaning lingvistik ma’lumotni qanday qayta ishlashini, semantik tuzilmalar qanday shakllanishini va ichki nutqdan tashqi gapga o‘tish qanday sodir bo‘lishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu yerda neyroegiluvchanlik muhim rol o‘ynaydi, bu mashg‘ulot va amaliyot davomida nutqiy tafakkur jarayonlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Neyropedagogik texnologiyalarning amaliy mexanizmlari ta’lim jarayonida talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar orqali talabalar axborotni qayta ishlash, tahlil qilish, yodda saqlash va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Simulyatsiya, kognitiv mashqlar va neyrotrenajyorlar yordamida amaliy jarayonda talabalarning faolligi va qiziqishi oshadi, ular real hayotiy vaziyatlarda tezkor va asosli qaror qabul qilishga qodir bo‘ladilar [4].

Neyropedagogik tahlil doirasida o‘quvchilarda nutq tafakkurining rivojlanish darajasini tashxislashga alohida e’tibor beriladi. Bunga nutqning uyg‘unligi, isbotlash operatsiyalari, murakkab g‘oyalarni ifodalash uchun lingvistik vositalarni umumlashtirish va ulardan foydalanish qobiliyati kabi parametrlarni baholash kiradi. Bunday tashxis individual xususiyatlar va qiyinchiliklarni aniqlashi mumkin, bu shaxsiylashtirilgan ta’lim strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, hozirgi kunga qadar pedagogikada vositalar asosan o‘qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, talaba o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonida foydalanishi mumkin bo‘lgan vositalarni ishlab chiqishga deyarli ye’tibor berilmadi. Talabaning ob’ektdan ta’lim predmetiga o‘tishi aynan shunday vositalarni topish zarurligini belgilaydi. Ta’limda psixoterapiyaning turli sohalaridagi ba’zi texnika va texnologiyalar ham bolaga odamlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish va har qanday faoliyatda samarali bo‘lishga yordam beradigan vosita sifatida qaraladi (A.V. Gerasimov, C.B. Kovalyov, S.V. Kolyada, L.D. Lebedeva, M.A. Panfilova, A.A. Pligin, G.N. Sartan, Ye.A. Sayapina va boshqalar). Ushbu sohalardan biri neyro-lingvistik dasturlash (NLD) bo‘lib hisoblanadi (J.Anderson, K.Andreas, S. Andreas, R.Bendler, J.Grinder, M.Grinder, M.F. Vilgsuort, R.Dils, M.V. Kitaeva, S.V. Kovalyov, I.M. Kroxina, A.L. Krupenin, L.Loyd, L.Kamerun-Bendler, D.O‘konnor, M.A. Pavlova va boshqalar) .

Yana bir muhim vazifa - nutqiy tafakkur va xotira, hissiyot va tasavvur kabi boshqa kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash lozim. Neyropedagogika o‘rganishni miyaning turli funksiyalari o‘zaro ta’sir qiladigan va bir-birini mustahkamlaydigan yaxlit jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Masalan, so‘z boyligini rivojlantirish mavhum tafakkur va ma’lumotni tahlil qilish qobiliyatini yaxshilash bilan bevosita bog‘liqdir.

Nutq tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish muhim sohadir. Bunga muammoli topshiriqlar, munozaralar, matn tahlili va ijodiy mashqlar kiradi. Neyropedagogika nuqtai nazaridan bunday usullar miyaning turli qismlari faoliyatini rag‘batlantiradi va barqaror neyron aloqalarni shakllantirishga yordam beradi.

Biroq, nutq tafakkurining neyropedagogik tahlillarini o‘tkazish bir qator jiddiy muammolar bilan birga keladi. Ulardan biri ichki nutqni ob’ektiv baholashning qiyinligi bo‘lib, u o‘z tabiatiga ko‘ra yashirin va o‘lchashi murakkab bo‘lgan jarayondir. Neyrotexnologiyaning rivojlanishiga qaramay, aqliy jarayonlarni bevosita kuzatish cheklanganligicha qolmoqda va ma’lumotlarni talqin qilish bir oz ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Professor N.A. Shermuhamedova ta’kidicha, “Yangi fanlar paydo bo‘lishi bilan, bir tomondan fanlarning differensiatsiyasi, har biri alohida turdagi hodisalarni o‘rganuvchi tarmoqlarga bo‘linishi yuz beradi. Boshqa tomondan, qarama-qarshi jarayon – ayrim fanlar turli yo‘llar bilan birikib, bilimlarning yaxlit majmualarini hosil qiladi va fanlarning integratsiyalashuvi ham yuz beradi. “Tutash” ilmiy fanlar paydo bo‘lishi, qo‘llanish sohasi keng bo‘lgan qudratli ilmiy metodlar topilishi, metodlar bir fandan boshqa fanlarga o‘tkazilishi, umumlashtiruvchi, sintetik ilmiy konsepsiyalar yaratilishi natijasida ilmiy bilishning bir-biridan uzoq tarmoqlarining yagonaligi va yaxlitligi aniqlanmoqda” [3].

Yana bir muammo - madaniy va lingvistik xususiyatlarga qarab nutq tafakkurining o‘zgaruvchanligi mavjud jarayondir. Turli tillar haqiqatni har xil yo‘llar bilan tuzadi, bu tafakkur va fikrlarni ifoda etish usullariga ta’sir qiladi. Bu universal tahlil usullarini ishlab chiqishda qiyinchiliklar tug‘diradi va ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olishni talab qiladi. Bunda reduksion muammoni ham ta’kidlash kerak, ya’ni, nutqni tafakkurning murakkab jarayonlarini faqat neyrofiziologik mexanizmlarga qisqartirish istagi bo‘lishi lozim. Ushbu yondashuv tilning ijtimoiy mohiyatini va tafakkurni shakllantirishdagi muloqotning rolini hissiyotsiz qoldirishi mumkin. Aslida, nutq tafakkuri boshqa odamlar bilan muloqot qilish jarayonida rivojlanadi va miyaning fiziologik jarayonlari orqali to‘liq tushuntirib bo‘lmaydi.

Mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham muhimdir. Yuqori sifatli neyropedagogik tahlilni o‘tkazish bir vaqtning o‘zida bir nechta sohalarda bilimlarni talab qiladi, bu esa fanlararo ta’limni rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Bu holda, ilmiy ma’lumotlarni yuzaki tushunish va noto‘g‘ri ishlatish xavfi ham mavjud bo‘ladi [2].

Mazkur jarayonlarda axloqiy masalalar ham muhim rol o‘ynaydi. Nutqiy tafakkurni tahlil qilish o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga, ularning rivojlanish darajasiga va kognitiv qobiliyatlariga ta’sir qilishi mumkin. Bu maxfiylik, to‘g‘rilik va stigmatizatsiyadan qochish tamoyillariga hurmatni talab etadi.

Shunday qilib, neyropedagogik tahlillarda nutq tafakkurining vazifalari uning mexanizmlarini o‘rganish, diagnostika, rivojlantirish va o‘quv jarayoniga qo‘shilish bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, ushbu sohada yuzaga keladigan muammolar nutqiy tafakkur hodisasining murakkabligini integratsiyalashgan, fanlararo yondashuv zarurligini aks ettiradi. Ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, analitik usullarni takomillashtirish va nazariya hamda o‘quv amaliyoti o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik bilan yaqin ekanligini nazarda tutish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalmirzayev M.A. Neyropedagogika zamonaviy talim tizimida // Евразийский журнал академический исследований (EJAR, Vol. 5, Number 9, special Issue, 2025. – 418-421 p.). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.17289065.

2. Барбитова А.Д. Возможности использования нейро-лингвистического программирования как средства личностного ориентированного воспитания страшеклассников: Автореф. дисс… канд. пед. наук. – Ульяновск, 2004. – 22 с.[1] Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 512 б.

3. Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 512 б.
4. Qo‘ldoshev, N.A. Ekolingvistika: o‘zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2021. – 138 b.
5. Qodirov, Q.B., Sattorova, D.Dj. Yunogogika. Darslik. – Termiz: «Abdulaziz Duyorbek» nashriyot markazi, 2025. – 240 b.

BO‘LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARDA FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sultonov Muxammadali Fayzulla o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
sultonovmuhammadalifayzulloogli@cspu.uz

Annotatsiya: Tezisda raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish konseptual modeli va uning pedagogik shart-sharoitlari asoslanadi. Model maqsadli, konseptual, mazmuniy, adaptiv-didaktik, kommunikativ-faoliyatli, raqamli-texnologik va diagnostik-natijaviy bloklardan tashkil topadi. Tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, aksiologik, inson huquqlariga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan, inklyuziv, Universal Design for Learning hamda raqamli-didaktik yondashuvlar o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Modelning amaliy mexanizmi dastlabki diagnostika, individual maqsad, foydalanish imkoniyati ta’minlangan mikrokontent, fuqarolik-inklyuziv keys, raqamli debat, jamiyatga xizmat qilishga yo‘naltirilgan loyiha, ko‘p manbali teskari aloqa, elektron portfolio va korreksion topshiriq siklida ifodalanadi. Oltita pedagogik shart-sharoitning mexanizmi, platformadagi ifodasi va kuzatiladigan belgisi tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: faol fuqarolik kompetensiyasi, bo‘lajak maxsus pedagog, konseptual model, dasturiy-didaktik ta’minot, pedagogik shart-sharoit, adaptiv ta’lim, Universal Design for Learning, elektron portfolio

Kirish

Faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish uchun alohida dars, raqamli vosita yoki ijtimoiy tadbirning o‘zi yetarli emas. Kompetensiya huquqiy bilim, inklyuziv qadriyat, mas’uliyatli ishtirok, raqamli muloqot va kasbiy refleksiya bir vaqtda ishga tushadigan vaziyatlarda shakllanadi. Shu sababli maqsad, mazmun, faoliyat, texnologiya, diagnostika, teskari aloqa va korreksiya yagona dasturiy-didaktik tizimda boshqarilishi kerak. Pedagogik model real jarayonni soddalashtirilgan rangli bloklar majmuasi sifatida emas, elementlarning vazifasi, o‘zaro ta’siri, boshqaruv konturi va natija hosil qilish mexanizmini ko‘rsatuvchi ilmiy konstruksiya sifatida quriladi. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan modelda har bir blok aniq o‘quv faoliyati, raqamli vosita, baholash dalili va qayta aloqa yo‘liga ega bo‘lishi zarur [1, 2]. Tezisning maqsadi bo‘lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasini raqamli muhitda rivojlantirish konseptual modelining tarkibi, ishlash sikli va pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot nazariy tahlil, pedagogik modellashtirish, funksional dekompozitsiya va dizayn muvofiqligi usullariga tayandi.

Modelning metodologik asoslari

Tizimli yondashuv faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishni maqsad, mazmun, metod, vosita, subyekt, diagnostika va natijaning o‘zaro bog‘langan jarayoni sifatida ko‘radi. Kompetensiyaviy yondashuv natijani talabaning real kasbiy-inklyuziv vaziyatdagi kuzatiladigan qarori va harakati orqali ifodalaydi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv bilimni keys, debat, loyiha, raqamli mahsulot va refleksiya davomida egallashga xizmat qiladi. Aksiologik va inson huquqlariga asoslangan yondashuvlar qadr-qimmat, tenglik, kamsitmaslik, ovoz, tanlov va javobgarlikni qaror mezoniga aylantiradi [3, 12]. Shaxsga yo‘naltirilgan va adaptiv yondashuvlar talabaning boshlang‘ich profili, ehtiyoji va rivojlanish maqsadiga mos ko‘makni belgilaydi. Inklyuziv yondashuv va UDL ta’lim mazmuni, faoliyat va baholashda ko‘p usulli kirish va ifodani ta’minlaydi [5, 6]. Raqamli-didaktik yondashuv platformani kontent ombori emas, diagnostika, faoliyat, dalil, teskari aloqa va korreksiyani boshqaruvchi vosita

sifatida talqin qiladi. Yondashuvlardan quyidagi tamoyillar chiqariladi: inson huquqlari va qadr-qimmat; kamsitmaslik; foydalanish imkoniyati; shaxsiylashtirish, biroq umumiy natijalarni pasaytirmaslik; faol ishtirok; hamkorlik va dialog; dalillilik; shaffof adaptatsiya; maxfiylik va raqamli etika; muntazam teskari aloqa va refleksiya.

Konseptual modelning tarkibiy bloklari

Maqsadli blokning integral natijasi bo‘lajak maxsus pedagogning fuqarolik-huquqiy, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-ishtirokiy, raqamli-kommunikativ va refleksiv-professional komponentlarni kasbiy vaziyatda uyg‘un qo‘llashidir. Konseptual blok metodologik yondashuvlar, tamoyillar va pedagogik shartlarni birlashtiradi. Mazmuniy blok huquq va tenglik, qadr-qimmat va stereotip, fuqarolik ishtiroki, raqamli fuqarolik, inklyuziv muloqot, jamoatchilik bilan hamkorlik, loyiha va refleksiyani ketma-ket joylashtiradi. Adaptiv-didaktik blok dastlabki va joriy diagnostika, individual maqsad, kontent formati, topshiriq murakkabligi, scaffold miqdori, qayta urinish va transfer vazifasini boshqaradi [7]. Kommunikativ-faoliyatli blok fuqarolik-inklyuziv keys, raqamli debat, hamkorlik, jamiyatga xizmat qilishga yo‘naltirilgan loyiha va real yoki virtual tashabbusni tashkil etadi. Raqamli-texnologik blok platforma rollari, foydalanish imkoniyati ta’minlangan kontent, topshiriq va loyiha moduli, forum, elektron portfolio, analitika, hodisalar jurnali va ma’lumotlarni himoya qilish vositalarini qamrab oladi. Diagnostik-natijaviy blok komponent, mezon, indikator, to‘rt darajali rubrika, bilim va vaziyatli topshiriq, loyiha va raqamli mahsulot, hamkorlikdagi individual hissa, elektron portfolio, refleksiya va platforma jarayon ma’lumotlarini birlashtiradi. Natija faqat ball sifatida emas, besh komponentli profil, kritik indikatorlar holati, kuchli dalil, aniq bo‘shliq va keyingi qadam shaklida taqdim etiladi.

1-jadval

Konseptual model bloklari, mexanizmlari va natijalari

Blok	**Asosiy mexanizm**	**Kutiladigan natija**
Maqsadli	Integral kompetensiya va besh komponent bo‘yicha kutiladigan natijani belgilash.	Kompetensiya profili, umumiy va individual maqsad.
Konseptual	Yondashuv, tamoyil va pedagogik shart-sharoitlarni muvofiqlashtirish.	Modelning ilmiy va etik me’yorlari.
Mazmuniy	Huquq – qadriyat – ishtirok – raqamli muloqot – refleksiya mantiqidagi modullar.	Kasbiy-inklyuziv mazmun tizimi.
Adaptiv-didaktik	Diagnostika asosida ko‘mak, format, murakkablik, qayta urinish va transferni moslashtirish.	Shaffof individual trayektoriya va korreksion yo‘l.
Kommunikativ-faoliyatli	Keys, debat, loyiha, hamkorlik va fuqarolik tashabbusini tashkil etish.	Mas’uliyatli ishtirok, mahsulot va ijtimoiy ta’sir.
Raqamli-texnologik	Foydalanish imkoniyati ta’minlangan platforma, portfolio, analitika, xavfsizlik va audit.	Raqamli faoliyat va dalillarni boshqarish muhiti.
Diagnostik-natijaviy	Ko‘p dalilli baholash, komponent profili, feedback va qayta kalibrlash.	Rivojlanish darajasi, kritik indikator va keyingi qadam.

Modelning pedagogik shart-sharoitlari

Birinchi shart – faol fuqarolik natijalarini kuzatiladigan kasbiy indikator va autentik topshiriqlar orqali ifodalash. Har bir modulda talaba nima bilishi emas, qaysi vaziyatda qanday qaror, muloqot, mahsulot va refleksiya namoyon qilishi aniq belgilanadi.

Ikkinchi shart – raqamli kontent, topshiriq, muloqot va baholashni foydalanish imkoniyati hamda UDL asosida loyihalash. Alt-matn, subtitr, klaviatura navigatsiyasi, tushunarli tuzilma, muqobil format va moslashuvchan javob usuli yakuniy texnik tekshiruv emas, dastlabki didaktik talablardir [5, 6].

Uchinchi shart – ko‘p manbali diagnostika va shaffof adaptiv trayektoriya. Tavsiya bilim testi, vaziyatli topshiriq, o‘zini baholash, o‘qituvchi kuzatuvi, portfolio va mazmunli platforma jarayon ma’lumotlariga tayanadi. Talaba tavsiya sababini ko‘rishi, o‘qituvchi esa uni o‘zgartirishi mumkin.

To‘rtinchi shart – faol ishtirok va hamkorlikni majburiy pedagogik mexanizm sifatida tashkil etish. Keysda ta’lim oluvchi ovozi, debatda qarshi dalilni tinglash, loyihada stakeholder bilan aloqa va individual hissa qayd etiladi. Guruh mahsuli individual kompetensiyani yashirmasligi kerak.

Beshinchi shart – ko‘p dalilli formativ baholash, elektron portfolio va korreksion feedback. Teskari aloqa kuchli dalil, aniq bo‘shliq, bajariladigan keyingi qadam, yakun mezoni va refleksiya savolini o‘z ichiga oladi [8–10]. Talaba mahsulotni qayta topshirib, fikr-mulohazani qanday ishlatganini izohlaydi.

Oltinchi shart – o‘qituvchi orkestratsiyasi, ma’lumotlar etikasi va inson nazorati. Analitika va avtomatik tavsiya pedagogik hukmni almashtirmaydi. Minimal ma’lumot yig‘ish, maqsadni ochiq tushuntirish, rolga asoslangan kirish, rozilik, anonimlashtirish, audit va alternativ yo‘l ta’minlanadi [11, 12].

Qayta aloqa va boshqaruv sikli

Model ‘dastlabki diagnostika – individual maqsad – foydalanish imkoniyati ta’minlangan mikrokontent – kasbiy-inklyuziv keys – raqamli debat – loyiha – ko‘p manbali baholash – portfolio refleksiyasi – korreksion topshiriq – yangilangan profil’ siklida ishlaydi. Diagnostika talabaning doimiy yorlig‘i emas, keyingi samarali faoliyatni tanlash uchun vaqtinchalik dalildir. Platforma takrorlanuvchi yoki texnik jihatdan aniq xatolarga tezkor teskari aloqa berishi, o‘qituvchi esa kontekst, qadriyat, xavf, originality va kasbiy asoslanganlikni baholashi mumkin. Tengdosh bahosi dalilning tushunarliligi va hamkorlikni ko‘rsatadi. Talaba barcha fikrlarni avtomatik qabul qilmaydi; qaysi tavsiyani nima sababdan qo‘llagan yoki rad etganini asoslaydi.

Korreksiya ayni savolni qayta yechish bilan cheklanmaydi. Talaba indikatorni o‘zgartirilgan vaziyatda namoyon qilishi kerak. Masalan, raqamli mahsulotda alt-matn yo‘q bo‘lsa, uni shunchaki qo‘shish bilan birga auditoriya ehtiyojini izohlash, foydalanuvchi sinovidan o‘tkazish va keyingi mahsulot uchun qoida chiqarish talab qilinadi. Shu tariqa feedback xatoni yopishdan kompetensiyani transfer qilishga o‘tadi.

Xulosa

Bo‘lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish konseptual modeli maqsadli, konseptual, mazmuniy, adaptiv-didaktik, kommunikativ-faoliyatli, raqamli-texnologik va diagnostik-natijaviy bloklarning siklik birligidan tashkil topadi.

Modelning samarali ishlashi autentik kasbiy-inklyuziv topshiriqlar, foydalanish imkoniyati va UDL, ko‘p manbali diagnostika va shaffof adaptatsiya, tuzilmali hamkorlik, ko‘p dalilli formativ baholash va elektron portfolio, shuningdek inson nazoratiga asoslangan ma’lumotlar etikasi bilan belgilanadi.

Taklif etilgan model raqamli platformani oddiy kurslar va fayllar omboridan diagnostika, faoliyat, dalil, feedback va korreksiyani birlashtiruvchi dasturiy-didaktik tizimga aylantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi bosqichda model ekspert bahosi, foydalanuvchi va foydalanish imkoniyati sinovi, pilot topshiriqlar hamda pedagogik tajriba orqali validatsiya qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.

2. Laurillard D. Teaching as a Design Science. London: Routledge, 2012.

3. Pantić N., Florian L. Developing Teachers as Agents of Inclusion and Social Justice // Education Inquiry. 2015. Vol. 6, No. 3. Article 27311. DOI: 10.3402/edui.v6.27311.

4. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: 10.2760/159770.

5. CAST. Universal Design for Learning Guidelines, Version 3.0. Wakefield, MA: CAST, 2024.

6. World Wide Web Consortium. Web Content Accessibility Guidelines (WCAG) 2.2. W3C Recommendation. 2023.

7. Brusilovsky P. Adaptive Hypermedia // User Modeling and User-Adapted Interaction. 2001. Vol. 11. P. 87–110. DOI: 10.1023/A:1011143116306.

8. Shute V.J. Focus on Formative Feedback // Review of Educational Research. 2008. Vol. 78, No. 1. P. 153–189. DOI: 10.3102/0034654307313795.

9. Boud D., Molloy E. Rethinking Models of Feedback for Learning // Assessment & Evaluation in Higher Education. 2013. Vol. 38, No. 6. P. 698–712. DOI: 10.1080/02602938.2012.691462.
10. Eynon B., Gambino L.M. High-Impact ePortfolio Practice. Sterling, VA: Stylus Publishing, 2017.
11. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges // International Journal of Technology Enhanced Learning. 2012. Vol. 4, No. 5/6. P. 304–317. DOI: 10.1504/IJTEL.2012.051816.
12. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2015.

IKKINCHI JAHON URUSHI XOTIRALARDA

Мадиев Отамурод Бобомуродович
Xalqaro inovasion universitet rektori

Anotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi voqealari hamda O'zbekistonning ikkinchi Jahon urushidagi o'rni va uning xotiralari muhokama qilinadi. Shuningdek urushda qo'llanilgan usullar, ushbu usullardan olingan natijalar va ularning oqibatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Bugungi kun imkoniyatlari hamda urush davridagi qiyinchiliklar solishtirib o`tilgan. Maqola ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar uchun xulosalar va takliflarni taqdim etish bilan yakunlanadi.
Kalit so'zlar: O'zbekiston, ikkinchi Jahon urushi, xotiralar, usullar, natijalar, natijalar.
Anotation. This article discusses Uzbekistan's role in World War II and its memories. The study gives an overview of the methods used in warfare, the results obtained from these methods, and their consequences. The article concludes with a presentation of conclusions and suggestions for future research in the field.
Keywords: Uzbekistan, World War II, Memories, methods, results, results.
Аннотация. В этой статье рвссмвтривабтся события Второй Мировой Войне. Тагже даны общие сведения методах, применявшихся на войне, полученных от этих методов результатах и их последствиях. Сравниваются сегодняшние возможности и трудности военного времени. Статья завершается выводами и предложениями для будущих исследований в этой области.
Ключевые слова: Узбекистан, Вторая Мировая война, воспоминания, методы, результаты, результаты.

Ikkinchi jahon urushi butun dunyo uchun eng katta talofatlarni, yo`qotishlarni shu bilan birga insoniyatning ruhiyatiga, hissiy emotsional holatiga kuchli zarba berdi desak mubolag`a bo`lmaydi. Chunki bu urush ayolni ham yoshi ulug` va yosh bolalarni ham tanimasdan barchani beshavqat jazoladi. Ushbu urushda bizning davlatimiz ham eng katta jasoratni ko`rsatgan holda urush yillarida SSSR tarkibida mardlarcha kurash olib bordi. O'zbekiston ikkinchi Jahon urushida, ham strategik joy, ham sovet Ittifoqi uchun ishchi kuchi va resurs manbai sifatida muhim rol o'ynadi. Urush paytida O'zbekistonda bir nechta harbiy bazalar joylashgan bo'lib, ko'plab o'zbek askarlari frontda jang qilishgan. Ushbu askarlar tarkibini yoshining ahamiyati bo`lmagan tarzdagi kimlarningdir o`g`li, kimlarningdir otasi, turmush o`rtog`i tashkil qilardi. Tarixdan bizga ma`lumki urush hechkimni ayamaydi, hechkimni tanimaydi. Bu jasoratli hamyurtlarimiz so`nggi kuchi qolguncha yurt farovonligi, yurt erki uchun mardonavor jang qilishdi. Shuningdek, O'zbekiston Sharqiy frontga materiallar va qo'shinlarni tashish uchun asosiy tranzit punkti bo'lib xizmat qildi. Urush davrida O'zbekiston o'zining harbiy hissalaridan tashqari, o'z jamiyati va madaniyatini shakllantirishda davom etayotgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ham boshdan kechirdi. Front ortida xizmat qilayotganlar ichida nafaqat erkaklar balki ko`ksida qalqon bog`lagan ayollar ham mardonavor kurash olib bordilar. Dala maydonlarida og`ir mehnatlarni amalga oshirib hosillarni erkaklar o`rniga o`zlari yetishtirib o`zlari yig`dilar. Shuningdek bizning bolajon xalqimiz hattoki urush paytida ham askarlar ruhiyatini ko`tarib turish maqsadida madaniy chiqishlari bilan askarlarimiz kayfiyatini ko`tarish hamda ularga ruhiy madad berib turdilar.

O'zbekistonning ikkinchi Jahon urushidagi rolini o'rganish tarixiy tadqiqotlar, arxiv tahlili va og'zaki tarix intervyularini o'z ichiga olgan bir qator usullarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar O'zbekistonning

urush davridagi tajribalarini qayta tiklash uchun bir qator manbalarni, jumladan, rasmiy hujjatlar, shaxsiy kundaliklar va xotiralarni o'rganib chiqdilar. Urush faxriylari va omon qolganlar bilan og'zaki tarixiy suhbatlar, shuningdek, ushbu davrni boshdan kechirganlarning xotiralari va istiqbollarini aks ettirish uchun o'tkazildi.

Ikkinchi jahon urushi dunyoga va u orqali yashagan odamlarga katta ta'sir ko'rsatgan monumental voqea edi. O'zbekistonda urush jamiyat va madaniyatga doimiy ta'sir ko'rsatdi, kelajak avlodlar uchun o'z xalqining xotiralari va tajribalarini shakllantirdi.

Urush davrida O'zbekiston sovet Ittifoqi uchun strategik joy, ishchi kuchi va resurs manbai sifatida muhim rol o'ynadi. Ko'plab o'zbek askarlari frontda jang qilishdi, ba'zilari Stalingradni himoya qilishda muhim rol o'ynagan mashhur O'rta Osiyo diviziyasida xizmat qilishdi. Shuningdek, O'zbekiston Sharqiy frontga materiallar va qo'shinlarni tashish uchun asosiy tranzit punkti bo'lib xizmat qildi. Urush O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, chunki urush harakatlari uchun resurslar safarbar qilindi va aholi me'yorlash va boshqa cheklovlarga duch keldi.

Urushning ko'plab qiyinchiliklari va qurbonliklariga qaramay, O'zbekiston Sovet Ittifoqining fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabasiga asosiy hissa qo'shdi. Ushbu g'alaba katta xarajatlarga olib keldi, ko'plab odamlarning hayoti yo'qoldi va mamlakatga katta vayronagarchiliklar etkazildi. Urush o'zbek xalqining xotirasi va kechinmalarida chuqur iz qoldirdi, ularning o'tmish haqidagi tushunchalarini, o'ziga xoslik va daxldorlik tuyg'usini shakllantirdi.

Urushdan keyingi davrda O'zbekiston muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi, chunki mamlakat qayta qurish va modernizatsiya qilishga intildi. Urush an'anaviy hayot va mehnat namunalarini buzdi va ko'plab o'zbeklar yangi sharoit va imkoniyatlarga moslashishga majbur bo'ldilar. Urush merosi O'zbekistonning siyosiy va madaniy landshaftining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi, hukumat milliy o'zlikni his qilishni va mamlakatning urush harakatlariga qo'shgan hissasi bilan faxrlanishni targ'ib qilishga intildi.

Bugungi kunda ikkinchi Jahon urushi xotiralari O'zbekistonning madaniy va siyosiy manzarasini shakllantirishda davom etmoqda. Har yili 9-May kuni o'tkaziladigan g'alaba kuni tantanalari o'zbek xalqining fashizmga qarshi kurashda qilgan qurbonliklarini eslatadi. Urushda halok bo'lgan yodgorliklar va yodgorliklarni butun mamlakat bo'ylab topish mumkin, bu mamlakat o'z tarixi va kelajagiga sodiqligining kuchli ramzi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi Jahon urushi o'zbek xalqining xotiralari va tajribalariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Urush mamlakat tarixida uning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini shakllantirgan va madaniy va siyosiy manzarasiga ta'sir ko'rsatadigan hal qiluvchi lahza bo'lib xizmat qildi. Urushning ko'plab qiyinchiliklari va qurbonliklariga qaramay, O'zbekiston Sovet Ittifoqining fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabasiga asosiy hissa qo'shdi va bu g'alabaning merosi mamlakatning o'ziga xosligi va maqsad tuyg'usini shakllantirishda davom etmoqda.

O'zbekistonning ikkinchi Jahon urushidagi rolini o'rganish bir qancha muhim natijalarni berdi. Tadqiqotchilar O'zbekistonning urush harakatlariga, jumladan, bir qancha harbiy bo'linmalar tuzish va urush materiallari ishlab chiqarishga qo'shgan harbiy hissalarini hujjatlashtirdilar. Shuningdek, urush davrida O'zbekistonda yuz bergan mehnat va resurslarni safarbar etish, urushning ayollar va bolalarga ta'siri kabi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'rganildi. Og'zaki tarixiy intervyular urushni boshdan kechirganlarning shaxsiy tajribalari va xotiralari haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etdi.

Muhokama:

Ikkinchi Jahon urushida O'zbekistonni o'rganish tarixning ushbu davrini tushunishimizga bir qancha ta'sir ko'rsatadi. Bu mojaroning global mohiyatini va turli xil aholining urush harakatlariga qo'shgan hissasini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu urushning O'zbekiston ijtimoiy va madaniy matosiga doimiy ta'siri hamda uning geosiyosiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Va nihoyat, tadqiqot urushning axloqiy oqibatlari va o'tmish haqidagi tushunchamizni shakllantirishda xotira va xotiraning o'rni haqida muhim savollarni tug'diradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Ikkinchi Jahon urushida O'zbekistonni o'rganish tarixning ushbu davrida turli aholining turli tajribalari va hissalarini yoritib beradigan muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Bu urushning ijtimoiy

va madaniy o'zgarishlarga ta'sirini, shuningdek uning keng geosiyosiy ta'sirini tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar o'tmish va uning hozirgi kun uchun doimiy ahamiyati haqidagi tushunchamizni shakllantirishda xotira va xotiraning rolini o'rganishni davom ettirishi kerak. Bu turli xil auditoriyalarni ushbu murakkab tarixni o'rganish va talqin qilishga jalb qilish uchun raqamli texnologiyalar va multimedia platformalari kabi yangi usullardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Umuman olganda, ikkinchi Jahon urushidagi O'zbekistonni o'rganish tarixiy voqealarning to'liq murakkabligini va ularning bugungi kunda dunyoga ta'sirini tushunish muhimligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston tarixi (1917-1991) 2-kitob. -T.:O'zbekiston, 2019
2. Sirojev O. Fashizm ustidan erishilgan g'alabada Buxoroliklarning roli. - T.: O'zbekiston, 1996. -B. 337-338.
3. Surxondaryo tarixi Tursunov S, Qobilov E, Murtazoev B, Pardayev T. - T.: Sharq, 2004.
4. Vatan sharafi uchun. 1944-yil 16- yanvar. N-3. (193). Tuzuvchilar: Shamsutdinov R. To'plam. Ikkinchi jahon urushi fronti va gazetalari. II jild. -T.: Akademnashr, 2017. - B.26
5. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. - T.: Fan, 1975. - B. 32.

ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSINING TALABALARDA KARTOGRAFIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Kazakbaeva Muxabbat Turabaevna
Toshkent davlat transport universiteti
Katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Sharq Uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimlaridan biri Abu Rayhon Beruniy nafaqat tabiiy va aniq fanlar rivojiga, balki ta’lim-tarbiya nazariyasining shakllanishiga ham ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. Uning ilmiy merosida ilm olish, bilish jarayoni, ilmiy tafakkurni rivojlantirish, kuzatish va tajribaga asoslangan o‘qitish metodlari hamda shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti bilan bog‘liq qarashlar alohida o‘rin egallaydi. Beruniy ilmni inson taraqqiyotining asosiy omili deb bilib, ta’lim jarayonida kuzatish, tajriba, taqqoslash, mantiqiy tahlil va amaliy faoliyatga tayanish zarurligini asoslab bergan.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, Sharq Uyg‘onish davri, pedagogik qarashlar, ilmiy meros, kartografik kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kartografik ta’lim, geografik ta’lim, fazoviy tafakkur, geografik axborot tizimlari (GIS), ilmiy tafakkur, kuzatish va tajriba, fanlararo integratsiya, oliy ta’lim, didaktik tamoyillar.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislar tayyorlashda buyuk mutafakkirlar ilmiy merosidan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Beruniyning pedagogik qarashlarini tahlil qilish, undagi ilmiy-bilish tamoyillari va didaktik g‘oyalarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Beruniy merosi nafaqat Sharq ilm-fani taraqqiyotining muhim bosqichi, balki talabalarning kasbiy, ilmiy va kartografik kompetentligini rivojlantirish uchun ham boy nazariy-metodik manba hisoblanadi. Uning qarashlariga ko‘ra, bilim olish faqat ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, voqelikni ilmiy tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Mazkur yondashuv kartografik kompetentlikning mazmuni bilan to‘liq uyg‘unlashadi.

Sharq mutafakkirlari, jumladan Beruniy ta’limni insonning intellektual, ma’naviy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin etgan. Bu qarashlar bugungi kunda geografiya, kartografiya, geodeziya, geografik axborot tizimlari (GIS) hamda fazoviy tahlil fanlarini o‘qitishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Beruniyning ilmiy faoliyatida kuzatish, o‘lchash, taqqoslash, umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish asosiy tadqiqot metodlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur metodlar bugungi kartografik ta’limda fazoviy tafakkur, xaritalarni o‘qish va tahlil qilish, koordinatalar tizimi, masshtab, relyef hamda hududiy qonuniyatlarni anglash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning ilmiy yondashuvining asosiy ustunligi nazariy bilimlarni amaliy kuzatuv va hisob-kitob bilan uyg‘unlashtira olganidadir.

Beruniy ilmni insonning axloqiy va intellektual kamolotiga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, bilimning haqiqiy qadri uning amaliy foydasi, tafakkurni boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Mazkur tamoyillar kartografik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ham dolzarb bo‘lib, xarita va fazoviy ma’lumotlar bilan ishlashda aniqlik, tahliliy fikrlash, ilmiy halollik va mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Beruniy ta’lim va tarbiyani o‘zaro bog‘liq jarayon deb hisoblaydi hamda ilmiy bilim ma’naviy yetuklik bilan uyg‘unlashgandagina yuqori natija berishini ta’kidlaydi. Shu sababli uning pedagogik qarashlari asosida kartografik kompetentlikni rivojlantirish talabalarda nafaqat xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini, balki ekologik madaniyat, hududiy jarayonlarni ilmiy tahlil qilish, tabiat va jamiyatga mas’uliyatli munosabatni ham shakllantiradi.

Abu Rayhon Beruniy astronomiya, matematika, geografiya, geologiya, mineralogiya, tarix, etnografiya, falsafa va tibbiyot kabi ko‘plab fan sohalarida fundamental ilmiy meros yaratgan. Ayniqsa, uning geografik va astronomik tadqiqotlari kartografiya fanining ilmiy asoslarini boyitgan. Yerning shakli va o‘lchamlarini aniqlash, geografik koordinatalarni hisoblash, osmon jismlarining harakatini kuzatish kabi masalalar kartografik tafakkurning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Beruniy fanlararo integratsiyaga alohida e’tibor qaratgan. Uning asarlarida matematika, astronomiya, geografiya va tarix o‘zaro uzviy bog‘liq holda yoritiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy kartografik ta’limda ham muhim metodik ahamiyatga ega bo‘lib, matematika masshtab va koordinatalarni hisoblashga, geografiya hududiy tahlilga, tarix madaniy landshaftlarni tushunishga, axborot texnologiyalari esa raqamli xaritalar va GIS dasturlari bilan ishlashga xizmat qiladi.

Beruniyning **"Qonuniy Mas’udiy"** asari astronomiya va matematikaga oid eng muhim manbalardan biri bo‘lib, unda Yerning sharsimonligi, sayyoralar harakati hamda Quyosh va Oy tutilishlari ilmiy asosda izohlangan. Ushbu ilmiy yondashuv kartografiyada geografik kenglik va uzunlikni aniqlash, koordinatalar tizimi, masofa va yo‘nalishlarni hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

"At-Tafhim li Avoyli Sinoat at-Tanjim" asarida esa astronomik va matematik hisoblashlarning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Mazkur asar kartografik ta’limda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan integratsiyalash, xaritalar tuzish va fazoviy obyektlarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Beruniyning geografiya va geologiyaga oid tadqiqotlari hududiy tahlil, tabiiy obyektlarni kuzatish, relyef shakllarini o‘rganish hamda tabiiy resurslarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, **"Hindiston" ("Kitob at-Tahqiq ma li-l-Hind")** asarida mamlakatning tabiati, aholisi, madaniyati va geografik xususiyatlari ilmiy kuzatuvlarga asoslangan holda bayon etilgan. Bu esa kartografik materiallarni tabiiy-geografik, tarixiy va madaniy axborot manbai sifatida o‘rganish imkonini yaratadi.

"Minerallar haqidagi qomusiy asar"da minerallar va qimmatbaho toshlarning xossalari hamda ularning shakllanish jarayonlari yoritilgan. Ushbu ilmiy meros geologik xaritalar, foydali qazilmalar tarqalishi va tabiiy resurslarni kartografik tahlil qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Beruniyning **"Kitob as-Saydana"** asarida dorivor o‘simliklar, minerallar va tabiiy resurslar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Mazkur asardagi hududiy tasniflash tamoyillari ekologik va resurs xaritalarini yaratishda metodik ahamiyatga ega. Shuningdek, **"Kitob at-Tabohir"** asarida tajriba, kuzatish va ilmiy tasniflash metodlarining ustuvorligi ko‘rsatib berilgan.

Mutafakkirning falsafiy va axloqiy qarashlari ham kartografik kompetentlikni rivojlantirishda muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. **"Fanlar haqidagi bahslar"** asarida ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ilmiy tafakkurning ahamiyati va bilimning axloqiy mezonlari yoritilgan. **"Al-Asar**

al-boqiya" asarida esa turli xalqlarning tarixiy va madaniy merosi tahlil qilinib, ilmiy xolislik hamda bag‘rikenglik tamoyillari ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning kartografik kompetentligini rivojlantirish uchun muhim nazariy va metodik asos hisoblanadi. Uning kuzatish, tajriba, tahlil, fanlararo integratsiya va ilmiy xolislikka asoslangan pedagogik qarashlari kartografiya ta’limini takomillashtirish, fazoviy tafakkurni rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda keng pedagogik imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov U.I. Abu Rayhon Beruniy va uning ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy hayoti va ilmiy faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
3. Xayrullayev M.M. Sharq Uyg‘onish davri va Abu Rayhon Beruniy falsafasi. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

SIYOSIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA QOLIPLASHGAN BIRIKMALAR VA ULARNING STRUKTURAVIY-SEMANTIK TALQINI

G’ofurjonova Zilola Nodir qizi
ISFI insituti 2-kurs arab tili filologiyasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri — siyosiy va diplomatik diskurs matnlarini o‘zbek tiliga o‘girish muammolari tadqiq etiladi. Tadqiqotning bosh obyekti sifatida siyosiy matnlarning asosi hisoblangan qoliplashgan birikmalar (siyosiy klishelar) va turg‘un iboralar tanlab olingan. Siyosiy diskurs o‘zining qat’iy rasmiyligi, nominativ aniqligi va xalqaro miqyosda standartlashgan terminologiyasi bilan boshqa funksional uslublardan keskin ajralib turadi. Maqolada xalqaro munosabatlar, rasmiy bayonotlar va davlat rahbarlarining nutqlarida tez-tez qo‘llaniladigan qoliplashgan strukturalarning leksik-semantik hamda stilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tillardagi (ingliz va rus) siyosiy andozalarni o‘zbek tiliga o‘girishda yuzaga keladigan transformatsiyalar, so’zma-so’z ko’chirish xavfi va milliylashtirish tamoyillari aniq amaliy misollar yordamida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *siyosiy matn, tarjima mahorati, qoliplashgan birikmalar, diplomatik diskurs, leksik muqobillik, stilistik transformatsiya, kalka, evfemizm, xalqaro munosabatlar.*

Kirish (Introduction)

XXI asrning uchinchi o‘n yilligiga kelib, globallashuv jarayonlari, xalqaro integratsiya va davlatlararo ko‘p tomonlama munosabatlar misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus oldi. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, xalqaro tashkilotlar (BMT, ShHT, MDH, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqalar) doirasidagi faol tashqi siyosati publisistik va diplomatik matnlarni xorijiy tillardan o‘zbek tiliga va aksincha yo‘nalishda sifatli tarjima qilishni taqozo etmoqda.

Siyosiy muloqot va diplomatik yozishmalar o‘ziga xos murakkab lisoniy tizim bo‘lib, u nafaqat shunchaki axborot uzatish, balki davlatlarning tashqi siyosiy irodasini ifodalash, strategik maqsadlarni bayon etish va xalqaro auditoriyaga mafkuraviy-psixologik ta’sir o‘tkazish quroli hisoblanadi. Shuning uchun ham siyosiy diskursda so‘z tanlash, gap qurish va fikrni shakllantirish alohida lingvistik qoidalarga bo‘ysunadi.

Siyosiy matnlarning eng asosiy uslubiy xususiyatlaridan biri — unda qoliplashgan birikmalar (siyosiy klishelar), shtamplar va stereotipik lisoniy vositalarning haddan tashqari yuqori zichlikda qo‘llanilishidir. Diplomatik tilda har bir so‘z ortiqcha emotsionallikdan xoli, muvozanatlashgan va

oldindan belgilangan standart andozalar asosida bo‘lishi shart. Chunki noto‘g‘ri qo‘llanilgan yoki noto‘g‘ri o‘girilgan bitta so‘z yoki ibora davlatlararo munosabatlarda tushunmovchiliklarga, hatto diplomatik inqirozlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqolaning dolzarbligi siyosiy matnlardagi xalqaro andozalarni o‘zbek tiliga o‘girishda tilning o‘ziga xos ichki imkoniyatlarini to‘g‘ri yuzaga chiqarish, milliy leksikografik bazani boyitish hamda tarjima jarayonidagi tipik xatolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Siyosiy Klishe (Qoliplashgan Birikma) Tushunchasi va Lisoniy Tabiati

Tilshunoslikda qoliplashgan birikmalar yoki klishelar (fransuzcha cliché – matbaa qolipi) deganda, muayyan nutqiy vaziyatlarda ko‘p marotaba takrorlanishi natijasida barqarorlashgan va jamiyat a’zolari tomonidan tayyor lisoniy model sifatida qabul qilinadigan iboralar tushuniladi. Siyosiy diskursda bunday andozalar nutqiy tejamkorlikni ta’minlaydi va axborotni tezkor qayta ishlashga yordam beradi.

Siyosiy matnlarni tahlil qilish jarayonida klishelarning bir nechta fundamental vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Rasmiylik va Neytrallik: Siyosiy hujjatlar shaxsiy subyektivlikdan xoli bo‘lishi kerak. Qoliplar matnga obektivlik va institutsional tus beradi.

Axborotni Standartlashtirish: Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar dunyoning qaysi tiliga tarjima qilinishidan qat’i nazar, bir xil huquqiy va siyosiy kuchga ega bo‘lishi lozim. Bunga faqat qoliplashgan terminologiya orqali erishiladi.

Manipulyativlik va Ritorik Ta’sir: Siyosiy nutqlarda ommaga ta’sir o‘tkazish, ularni ma’lum bir g‘oya atrofida birlashtirish uchun vizual va semantik jihatdan kuchli barqaror birikmalardan foydalaniladi.

Tarjimashunos Piter Nyumark (Peter Newmark) o‘zining ilmiy ishlarida qayd etganidek, klishelar va institutsional atamalarni tarjima qilishda erkinlikka mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Tarjimon individual ijodkorlikni chetga surib, maqsad tildagi (target language) tayyor, qoliplashgan muqobil variantlarni qidirib topishi shart.

Qoliplashgan Birikmalarning Strukturaviy-Mavzuviy Tasnifi va Tarjima Tahlili

Siyosiy matnlardagi qoliplarni o‘zbek tiliga o‘girish xususiyatlarini chuqurroq anglash uchun ularni funktsional va mavzuviy jihatdan bir nechta asosiy guruhlarga ajratib tahlil qilamiz.

Diplomatik Munosabatlar va Protokol Qoliplari

Ushbu guruhga davlat rahbarlarining uchrashuvlari, safarlari, muzokaralari va rasmiy bayonotlarini ifodalovchi qat’iy qoliplar kiradi. Bu erda har bir so‘z xalqaro protokol qoidalariga bo‘ysunadi.

Xalqaro Andoza (Inglizcha / Ruscha)	**O‘zbek Tilidagi Muqobili**	**Kontekstual Tahlili**
To pay an official visit (Находиться с официальным визитом)	Rasmiy tashrif bilan bo‘lmoq / kelmoq	O‘zbek tilida "tashrif buyurmoq" variantidan ko‘ra, rasmiy hujjatlarda "tashrif bilan bo‘lmoq" qolipi ko‘proq qo‘llaniladi.
To hold talks behind closed doors (Провести переговоры за закрытыми дверями)	Yopiq eshiklar ortida muzokaralar o‘tkazmoq	Bu yerda metaforik qolip saqlab qolinadi, chunki mazkur ibora o‘zbek publisistikasida to‘liq o‘zlashgan.

Exchange of views on matters of mutual interest (Обмен мнениями по вопросам, представляющим взаимный интерес)	O‘zaro manfaatli masalalar yuzasidan fikr almashish	Sintaktik jihatdan o‘zbek tili grammatik qoidalariga moslab, gapning oxiriga fe’l qo‘yilishi orqali transformatsiya qilinadi.
High-level/Top-level meeting (Встреча на высшем уровне)	Oliy darajadagi uchrashuv (Sammit)	"Высший" so‘zi "eng yuqori" deb emas, siyosiy tilda qat’iy ravishda "oliy" deb o‘giriladi.
To express deep concern over... (Выразить глубокую озабоченность в связи с...)	...yuzasidan chuqur xavotir bildirish	Diplomatik tilda norozilik yoki tashvishni ifodalashning eng yumshoq va andozaviy shakli.

Xalqaro Hamkorlik va Tashqi Siyosiy Strategiyalar Qoliplari

Ikki tomonlama munosabatlarning istiqbollari, imzolangan shartnomalar va kelishuvlarni xarakterlash uchun qo‘llaniladigan barqaror birikmalar:

"To attach great importance to the development of relations" (Придавать большое значение развитию отношений) → O‘zbek tilida bu qolip

"Munosabatlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratmoq" yoki "ustuvor ahamiyat bermoq" shaklida beriladi.

"In the interests of peace and stability" (В интересах мира и стабильности)

→ "Tinchlik va barqarorlik manfaatlari yo‘lida". Bu birikma xalqaro hujjatlarning preambula (kirish) qismida majburiy qolip hisoblanadi.

"Mutually beneficial cooperation" (Взаимовыгодное сотрудничество) → "O‘zaro manfaatli hamkorlik".

"Strategic partnership and alliance" (Стратегическое партнерство и союзничество) → "Strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari".

Siyosiy Matnlarni O‘zbek Tiliga O‘girishda Lisoniy va Stilistik Muammolar

Tarjima jarayoni shunchaki mexanik harakat emas. Siyosiy matnlar ustida ishlashda o‘zbek tili tarjimonlari bir qator konseptual muammorga duch kelishadi. Ularni to‘g‘ri bartaraf etish tarjima sifatini belgilaydi.

Kalka (So‘zma-so‘z) Tarjima va Uslubiy G‘alizlik xavfi

Ingliz va rus tillaridagi siyosiy matnlar ko‘pincha passiv konstruksiyalarga (majhul nisbat) boy bo‘ladi. O‘zbek tili tabiati esa ko‘proq faol (aniq) nisbatni afzal ko‘radi.

Salbiy namuna (Kalka): "Qaror BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilindi, unda sanksiyalarni kuchaytirish ko‘zda tutilgan edi." (Ruscha: Решение было принято Советом Безопасности...).

Ijobiy namuna (Stilistik ishlov berilgan): "BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyalarni kuchaytirishni ko‘zda tutuvchi qarorni qabul qildi."

Ko‘rinib turibdiki, ikkinchi variant o‘zbek tili sintaksisiga to‘liq mos keladi va o‘quvchi tomonidan oson qabul qilinadi.

Siyosiy Evfemizmlar va Ularning Semantik Translyatsiyasi

Siyosat va diplomatiyada keskinlikni yumshatish, salbiy voqeliklarni yashirish yoki ijobiy bo‘yoq berish uchun evfemizmlardan keng foydalaniladi. Tarjimon ushbu evfemistik zanjirni buzmasligi kerak.

"Collateral damage" (Сопутствующий ущерб) → So‘zma-so‘z: "Yondosh zarar". Siyosiy ma’nosi: Harbiy harakatlar paytida tinch aholining halok bo‘lishi yoki fuqarolik obyektlarining vayron etilishi. O‘zbek tilida rasmiy ravishda "bilvosita talafotlar / zararlar" deb yoziladi.

"Non-traditional methods of interrogation" → Siyosiy tilda bu ibora qamoqxonalardagi qiynoqlarni yashirish uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida uni "so‘roq qilishning noodatiy usullari" deb diplomatik qolipda qoldirish lozim.

"Low-income segments of the population" (Малообеспеченные слои населения) → "Aholining kam ta’minlangan qatlamlari" (Muhtojlar yoki kambag‘allar so‘zini ishlatmaslik uchun qoliplashgan evfemizm).

Siyosiy Metaforalarning Kontekstual Muqobilligi

Ko‘plab siyosiy metaforalar vaqt o‘tishi bilan qoliplashgan iboralarga aylangan. Ularni o‘girishda o‘zbek tilidagi tayyor frazeologik yoki publisistik fonddan foydalaniladi:


"To lose ground" (Терять почву под ногами) → "Mavqeini boy bermoq" (yoki "oyog‘i ostidagi zaminni yo‘qotmoq").

"Stumbling block" (Камень преткновения) → "To‘g‘anoq / Asosiy to‘siq" (yoki "baxslashuv mavzusi").

"Political arena" (Политическая арена) → "Siyosiy maydon".

Eksperimental-Tahliliy Qism va Tarjima Metodologiyasi

Siyosiy matnlarni tahlil qilish va ularni o‘zbek tilida muqobillashtirish jarayonida tarjimonlar asosan uchta universal uslubiy transformatsiyaga tayanadilar. Buni quyidagi sxematik model orqali ko‘rishimiz mumkin:



Leksik Muqobillik usuli: Agar o‘zbek tilining milliy-siyosiy lug‘atida xalqaro birikmaning tayyor ekvivalenti shakllanib bo‘lgan bo‘lsa, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri olinadi. Masalan: Double standards → Ikki yoqlama standartlar; Veto power → Veto huquqi.

Kontekstual o‘zgarish usuli: Matnning umumiy mazmuni va o‘zbek tili sintaksisidan kelib chiqib, gap bo‘laklarining o‘rni o‘zgartiriladi, faol va nofaol shakllar almashtiriladi.

Tavsifiy (Descriptive) tarjima usuli: Yangi paydo bo‘lgan siyosiy konseptlar (masalan, Brinkmanship – "urush yoqasida siyosat yuritish" yoki Soft power – "yumshoq kuch" siyosati) o‘zbek tilida bir so‘z bilan ifodalab bo‘lmagani uchun, ularning mohiyati tushuntirish orqali beriladi.

Tadqiqotchi xulosasi va Tavsiya: Zamonaviy o‘zbek siyosiy tarjimashunosligida eng katta xato — O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi (TIV) va rasmiy davlat axborot agentliklari (masalan, O‘zA, "Dunyo" AA) tomonidan qabul qilingan rasmiy terminologiyadan chetga chiqishdir. Har bir tarjimon o‘z matnini davlatning rasmiy axborot diskursiga muvofiqlishtirishi shart.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, siyosiy matnlarni o‘zbek tilida qayta yaratish tarjimondan nafaqat yuksak lingvistik mahoratni, balki xalqaro munosabatlar, geosiyosat va diplomatiya tarixidan chuqur xabardorlikni talab etadi. Qoliplashgan birikmalar va siyosiy klishelar matnning shunchaki bezagi emas, balki uning g‘oyaviy va huquqiy asosini (karkasini) tashkil etadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘zbek tili xalqaro diplomatik andozalarni qabul qilish va ularning milliy leksik-semantik muqobillarini yaratish borasida ulkan imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlamoqda. Biroq, jahon siyosiy arenasida sodir bo‘layotgan yangi o‘zgarishlar tufayli tilimizga muttasil ravishda yangi terminologik qoliplar kirib kelmoqda. Bu esa tilshunos olimlar va amaliyotchi tarjimonlar oldiga lug‘aviy bazani muntazam yangilab borish, neologizm va klishelarning o‘zbekcha muqobillarini standartlashtirish kabi muhim vazifalarni qo‘yadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati (References)

1. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 288 b.
2. Salimov X. Siyosiy publisistika janrlarining leksik-stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018. – 164 b.
3. Muminov S. Nutq madaniyati va diplomatik muloqot asoslari. – Farg‘ona, 2015. – 210 b.
4. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti (mfa.uz) materiallari.
6. O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi (uza.uz) siyosiy sharhlar arxivi.

УДК 08.00.13

СИНДРОМ ОТКЛАДЫВАНИЯ, ХРОНОМЕТРАЖ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВРЕМЕНИ: ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В УПРАВЛЕНИИ ВРЕМЕНЕМ

Мирвосикий Х.Х.

Аннотация*: В современном мире, где скорость принятия решений и объем задач неуклонно растут, синдром откладывания (прокрастинация) становится одной из ключевых проблем, приводящих к низкой эффективности и нарушению баланса времени. Хронометраж, как один из рациональных инструментов управления временем, позволяет четко оценить затраченные ресурсы и выявить основные проблемные зоны. В данной статье мы рассмотрим синдром откладывания, анализируемый с помощью хронометража, и поиск инновационных решений для ее преодоления.*

Особое внимание уделяется синтезу классических подходов тайм-менеджмента и современных технологий, включая цифровые трекеры, методы и поведенческое проектирование. Рассматриваются примеры внедрения хронометража в образовательной и профессиональной среде, а также возможности индивидуализации инструментов контроля времени с учетом когнитивных и эмоциональных особенностей личности. В статье мы предлагаем комплексный взгляд на проблему прокрастинации как на многослойный феномен и раскрывает потенциал инновационного подхода как эффективного способа ее преодоления в условиях возрастающей информационной нагрузки и требований к саморегуляции.

Ключевые слова: *прокрастинация, синдром откладывания, время, хронометраж, тайм-менеджмент, инновация.*

Введение. Для того, чтобы понять роль хронометража в выявлении и анализе временных потерь, разберемся с самим понятием хронометража. Хронометраж — это инструмент, позволяющий отслеживать и фиксировать время, затрачиваемое на выполнение различных задач [1]. Его основная цель заключается в выявлении временных потерь и повышение эффективности использования рабочего времени.

Рассмотрим в следующей таблице (см. Таб.1) преимущества хронометража, что позволит лучше понять его роль в повседневной жизни человека:

Таблица 1

Преимущества хронометража

Преимущество	**Описание**

Осознание реальной картины времени	Хронометраж позволяет увидеть, как фактически распределяется рабочее время.
Выявление «поглотителей времени»	Это частые отвлечения, неструктурированные совещания, проверка электронной почты и т.д.
Анализ продуктивности	Определение периодов наибольшей и наименьшей эффективности в течение дня.
Оптимизация процессов	Внедрение улучшений: автоматизация, перераспределение задач, устранение лишних этапов.

Перечисленные выше преимущества работают, как и в личной, так и в профессиональной сферах, баланс между которыми нельзя недооценивать. Для эффективности вышеописанных преимуществ важно уметь правильно вести учет времени. Для лучшего понимания, можно привести пример, когда компании, занимающиеся проектной деятельностью, активно используют хронометраж для оценки времени, необходимого на выполнение типовых задач. Например, если дизайнер регулярно фиксирует, сколько времени уходит на создание макета, это помогает точнее планировать сроки выполнения заказов.

Далее собранные данные позволяют выделить основные области временных затрат и определить, какие из них являются оправданными, а какие можно оптимизировать. Например, если анализ хронометража показал, что сотрудник тратит 20% рабочего времени на обработку входящих писем, это может указывать на необходимость введения правил фильтрации почты или использования автоматизированных инструментов для ответов [2].

Почему инновации необходимы для решения этих проблем? Стоит начать с того, что инновации играют ключевую роль в борьбе с временными потерями. Современные технологии предлагают не только инструменты для фиксации времени, но и решения, позволяющие минимизировать или вовсе исключить, так называемые, «поглотители времени».

В следующей таблице (см. Таб.2) мы рассмотрим основные причины, почему инновации необходимы для решения проблем с учетом времени:

Таблица 2

Причины, почему инновации необходимы

Причина	**Примеры**
Автоматизация процессов	ИИ и автоматизированные системы помогают с рутинными задачами, например, генерацией отчетов.
Снижение отвлечений	Приложения вроде Freedom помогают блокировать отвлекающие сайты.
Гибкость управления временем	Использование технологий удаленной связи позволяет работать в наиболее продуктивные часы.
Аналитика больших данных	Платформы вроде Time Doctor анализируют поведенческие данные и дают рекомендации по оптимизации.

Инновации в сфере управления временем играют ключевую роль в повышении личной и профессиональной эффективности. Они позволяют не только автоматизировать рутинные задачи, но и минимизировать отвлекающие факторы, предоставляют гибкость в организации рабочего процесса и обеспечивают основанную на данных обратную связь для принятия более обоснованных решений. Таким образом, внедрение технологических решений становится не просто дополнительным ресурсом, а необходимым элементом современного тайм-менеджмента.

Рассмотрим примеры самых последних инноваций, которые помогут вести правильный учет и анализ времени:

Таблица 3

Примеры инноваций

Инновация	Пример
Приложения на основе ИИ	Microsoft Viva [3] использует ИИ для анализа рабочего времени и рекомендаций по тайм-менеджменту.
Технологии дополненной реальности (AR) [4]	В производственных процессах AR ускоряет обучение и минимизирует временные потери.

Важно отметить влияние инноваций на продуктивность. Инновации позволяют не только экономить время, но и повышать мотивацию сотрудников. Когда сотрудник видит, что рутинные задачи автоматизированы, а рабочие процессы упрощены, он может сосредоточиться на более важных и творческих аспектах своей работы [5].

Но несмотря на инновации в сфере тайм-менеджмента, каждый человек в большей или меньшей степени сталкивался с, так называемым, синдромом откладывания, когда важные дела откладываются на потом и заменяются более приятными, но менее результативными действиями. Основой такого поведения считается неосознанная уверенность человека в том, что он не живет в данный момент настоящую жизнь, а проживает лишь этап подготовки в ней[6]. Иными словами, синдром откладывания, или прокрастинация, — это стойкое желание откладывать дела на потом. Кто-то называет её ленью, кто-то – отсутствием мотивации[7]. Это явление является одной из ключевых проблем современного общества, затрагивая как личную, так и профессиональную жизнь.

Таблица 4

Причины прокрастинации [8]

Причина	Описание
Страх неудачи	Избегание сложных задач из-за боязни потерпеть неудачу или сделать ошибку.
Перфекционизм	Постоянное стремление выполнить задачу идеально может привести к её откладыванию.
Лень и отсутствие мотивации	Недостаток интереса или энергии для начала работы над задачей.
Нехватка навыков тайм-менеджмента	Отсутствие структуры и планирования препятствует эффективному выполнению задач.

Как видно из Таб. 4 причины прокрастинации могут разные, но последствия постоянного откладывания дел сводятся к одному знаменателю – снижение продуктивности. Предлагаем вам рассмотреть последствия прокрастинации и примеры, к чему это может привести человека в его повседневной жизни:

Таблица 5

Последствия синдрома откладывания [9]

Последствие	Пример
Снижение профессиональной эффективности	Невыполнение задач в срок приводит к ухудшению карьерных перспектив.
Негативное влияние на психическое здоровье	Прокрастинация вызывает чувство вины, стресса и снижает уверенность в себе.
Социальные последствия	Откладывание выполнения обещаний ухудшает взаимоотношения с коллегами и близкими.

Синдром откладывания оказывает комплексное негативное воздействие как на профессиональную деятельность, так и на личную жизнь человека. Он снижает результативность труда, способствует формированию хронического стресса и подрывает психологическое благополучие. Кроме того, прокрастинация нарушает социальные связи, подрывая доверие в

межличностных отношениях. Таким образом, своевременное выявление и преодоление этого синдрома имеет не только индивидуальное, но и социальное значение.

Прокрастинация значительно влияет на продуктивность, как в личной жизни, так и на профессиональном уровне. Например, откладывание домашних обязанностей приводит к накоплению нерешённых проблем. Что касается профессиональной сферы человека, то несвоевременное выполнение рабочих задач приводит к пропущенным дедлайнам и ухудшению репутации. Более того, прокрастинация мешает достижению образовательных, карьерных и финансовых целей, что в сумме снижает качество жизни человека и, соответственно, качество жизни всего общества, когда это становится проблемой не одного индивида, а целой группы людей.

Рассматривая **хронометраж как инструмент анализа времени**, приведем основные методики, по которым можно вести учет и анализ времени, что в, свою очередь, позволит в первую очередь решить проблему прокрастинации путем оптимизации, распределения и правильного планирования времени, затрачиваемое на повседневные дела. Методика хронометража зависит от цели анализа времени и используемых инструментов.

Таблица 6

Ключевые методики хронометража и их основные характеристики

Метод	Процесс	Преимущества	Недостатки	Кому подходит
Бумажный метод	Запись действий в блокноте или на бланке.	Простота, отсутствие необходимости в технике.	Требует дисциплины, возможна потеря точности.	Новички в хронометраже.
Метод диктофона	Проговаривание действий, запись на диктофон с последующим анализом.	Не отвлекает на записи во время работы.	Затраты времени на анализ записей, нужен диктофон или приложение.	Люди с насыщенным графиком.
Мобильные приложения	Использование приложений (“Toggl”, “Clockify”).	Автоматизация, удобство анализа, графики и статистика.	Зависимость от техники, возможны отвлекающие уведомления.	Занятые люди, предпочитающие цифровые инструменты.
Онлайн-сервисы	Работа через веб-сервисы (“Hubstaff”, “Harvest”).	Доступ из любого места, расширенные аналитические функции.	Требует интернета, подписка может быть дорогой.	Команды и организации.
Интервальный метод	Фиксация действий через равные временные промежутки (например, 30 мин).	Экономия времени, общий обзор.	Менее точный, не отражает краткосрочные потери.	Для быстрого анализа продуктивности.
Фото- и видеофиксация	Съемка действий для последующего анализа.	Максимальная точность, возможность хранения данных.	Затраты на анализ, необходимость места для хранения файлов.	Люди, нуждающиеся в детальном анализе временных затрат.

Системы видеонаблюдения	Использование камер для анализа рабочего времени.	Объективные данные, возможность анализа групповой работы.	Дороговизна, возможный дискомфорт у сотрудников.	Организации и производственные компании.

Существуют разнообразные методики хронометража, каждая из которых обладает своими особенностями и наилучшим образом подходит определённым категориям пользователей. Бумажный и диктофонный методы удобны для индивидуального использования и не требуют сложной техники, но требуют самодисциплины. Цифровые решения — мобильные приложения и онлайн-сервисы — обеспечивают удобство, автоматизацию и аналитику, однако зависят от технических ресурсов. Интервальный метод и фотофиксация позволяют быстро или детально оценить временные затраты, в зависимости от цели анализа. В условиях командной или производственной работы особенно эффективны видеонаблюдение и онлайн-сервисы. Выбор методики зависит от целей, условий работы и уровня технической готовности пользователя.

Методики хронометража позволяют работать с данными о затрачиваемом времени для анализа и оптимизации распределения дел. После завершения хронометража можно проанализировать собранные данные, распределив задачи по четырем квадрантам матрицы Эйзенхауэра, т.е. классифицировать поставленные задачи по матрице Эйзенхауэра [10].

Важно и срочно	**Важно, но не срочно**
Не важно, но срочно	**Не важно, не срочно**

Рис. 1. Матрица Эйзензауэра

Важно отметить, что матрица Эйзенхауэра является одной из ключевых моделей в области тайм-менеджмента, которая позволяет классифицировать задачи по двум параметрам: важность и срочность. Она широко используется для расстановки приоритетов, а также для определения наиболее продуктивного подхода к управлению временем.

Основной принцип матрицы Эйзенхауэра заключается в разделении задач на четыре категории:

1. Важные и срочные задачи, требующие немедленного выполнения.

2.Важные, но не срочные задачи, которые можно планировать на долгосрочную перспективу.

3. Срочные, но не важные задачи, которые следует делегировать.

4.Неважные и несрочные задачи, от которых можно отказаться или минимизировать их выполнение.

Однако матрица Эйзенхауэра, несмотря на её универсальность, имеет определённые ограничения. Например, она не учитывает такие аспекты, как сложность задачи и её влияние на распределение ресурсов. В современных условиях, когда задачи становятся всё более многоаспектными, появилась необходимость дополнить модель новыми параметрами.

На основе базового принципа матрицы Эйзенхауэра нами была разработана формула для оценки эффективности задач. Помимо **важности (W)** и **срочности (U)**, в расчёт добавлен ещё один ключевой параметр — **сложность задачи (C)**, который учитывает, сколько времени, усилий или ресурсов потребуется для её выполнения.

Формула оценки задачи[33]:

[33] Авторская разработка

T=0.5·W+0.3·U+0.2·C,

Где T – общий вес задачи (приоритет выполнения);

W – важность задачи;

U – срочность;

C – сложность.

Данная адаптация базовых принципов приоритизации задач, согласуется с принципами, изложенными в работах Стивена Кови, Брайана Трейси и Дэвида Аллена. В данных книгах нет строгой формулы, но описываются ключевые критерии (важность, срочность, сложность), которые мы попытались систематизировать в формулу для удобства анализа.

В предложенной формуле мы стремились обобщить существующие подходы к оценке задач, присваивая каждому фактору коэффициент в зависимости от его значимости. Коэффициенты (0,5; 0,3; 0,2) отражают приоритетность: важность (W) имеет наибольший вес, поскольку именно она определяет стратегическую значимость задачи в долгосрочной перспективе. Стивен Кови в книге «7 навыков высокоэффективных людей» подчеркивает необходимость сосредоточения на важных, но не срочных задачах для достижения долгосрочных целей и повышения эффективности [11]. Срочность (U) занимает второе место, указывая на необходимость оперативного реагирования. Брайан Трейси в работе «Съешьте лягушку!» акцентирует внимание на необходимости выполнения срочных задач, но при этом предостерегает от ловушки постоянной занятости срочными, но не важными делами [12]. Сложность (C) учитывается в меньшей степени, поскольку трудоёмкие задачи могут быть делегированы или разбиты на подзадачи для оптимизации исполнения. Дэвид Аллен в книге «Как привести дела в порядок» рассматривает сложность задач как фактор, влияющий на планирование и выполнение, предлагая методы разбивки сложных задач на более управляемые части [13].

Методологически данная модель опирается на концепцию матрицы Эйзенхауэра, предложенной в работах Стивена Кови, согласно которой все задачи распределяются по критериям «важность/срочность» [14]. Как подчёркивает Кови: «*Эффективное управление временем основывается на осознании важности задачи и выделении времени на то, что действительно важно*» [15]. Предлагаемая формула расширяет этот подход за счёт включения третьего параметра — сложности, что позволяет более точно оценивать приоритет выполнения задач в условиях ограниченных ресурсов и высокой нагрузки.

Таким образом, представленная формула является авторским развитием классических моделей тайм-менеджмента и может быть использована в качестве инструмента количественной оценки приоритета задач на этапе планирования.

Например, если задача имеет высокую важность (W=1.0), среднюю срочность (U=0.8) и умеренную сложность (C=0.6), общий вес рассчитывается как:

T=0.5·1.0+0.3·0.8+0.2·0.6=0.91, т.е. это значит, что задача имеет высокий приоритет.

Для эффективного управления временем и приоритизации задач важно опираться не только на интуитивные ощущения, но и на объективные критерии оценки. Объединённая система коэффициентов позволяет количественно оценить ключевые параметры каждой задачи — её важность, срочность и сложность. Такая модель способствует более взвешенному распределению ресурсов, помогает определить порядок выполнения дел и минимизировать риск потери времени на незначительные или несвоевременные действия. Ниже представлена таблица с описанием каждого коэффициента, шкалой оценки и примерами, иллюстрирующими принцип применения.

Таблица 7

Объединённая таблица для анализа коэффициентов задач с объяснениями[34]

Коэффициент	Шкала оценки	Критерии оценки	Пример
Важность (W)	0.1 - 1.0	Влияние задачи на стратегические и тактические цели:	Если задача — составление еженедельного отчета,

[34] Авторская разработка

		- Долгосрочные выгоды. - Связь с ключевыми целями. - Ресурсы, инвестиции.	который будет анализироваться руководством, её важность может быть W = 0.7
Срочность (U)	0.1 - 1.0	Необходимость выполнения задачи в определённый срок: - Дедлайн задачи. - Риск несвоевременного выполнения. - Приоритеты дня/недели.	Подготовка материалов к встрече с клиентом завтра может иметь срочность U = 0.9
Сложность (C)	0.1 - 1.0	Уровень трудоёмкости задачи: - Объём требуемых ресурсов. - Время, необходимое для выполнения. -Необходимость специфических знаний.	Если задача — аналитический расчёт или составление подробного плана, сложность может составить C = 0.8

Объяснение шкал[35]:

• 0.1: Задача практически не влияет на цели/не срочная/простая.

• 0.3: Второстепенная, но необходимая.

• 0.5: Средний уровень значимости или срочности.

• 0.7: Важная, срочная, сложная задача.

• 1.0: критически важная, немедленная или очень сложная.

Разработанные и описанные в статье формулы эффективности, потерь времени и общей оценки задачи основываются на классических подходах, таких как матрица Эйзенхауэра и методология анализа задач Стивена Кови. Эти методы адаптированы к современным реалиям, включая цифровизацию рабочих процессов, что позволяет проводить более точный анализ за счёт использования таких параметров, как важность, срочность и сложность задачи.

Хронометраж, как часть системы учета времени, служит незаменимым инструментом для анализа распределения ресурсов. Он обеспечивает прозрачность временных затрат, выявляет слабые места в планировании и помогает внедрять более эффективные подходы к управлению временем. Применение хронометража в сочетании с представленными формулами позволяет:

1. Выявлять и минимизировать временные потери.
2. Повышать уровень дисциплины сотрудников и улучшать организационную культуру.
3. Определять приоритеты задач с учётом их влияния на цели компании.
4. Внедрять более точное и обоснованное распределение обязанностей и ресурсов.

Практическая значимость данного исследования заключается в возможности применения его результатов в различных сферах деятельности, где требуется эффективное управление временем, борьба с прокрастинацией и повышение личной продуктивности. А также практическая значимость заключённых в статье подходов состоит в их гибкости и универсальности. Используемые коэффициенты и формулы могут быть адаптированы для разных уровней управления и сфер деятельности, а цифровые инструменты, доступные на русском языке, делают процесс ещё более доступным и удобным.

Разработанные теоретические положения и выводы могут быть использованы:

– в образовательной среде для формирования у студентов навыков саморегуляции, самоанализа и осознанного планирования своего времени;

– в корпоративной практике при разработке программ по повышению эффективности персонала, внедрении технологий хронометража и инновационного тайм-менеджмента;

[35] Авторская разработка

– в системе личностного развития, психологического консультирования и коучинга как инструмент диагностики временных потерь и неэффективных поведенческих стратегий;

– в разработке мобильных приложений и цифровых сервисов, направленных на оптимизацию повседневной деятельности и формирование привычек продуктивности.

Кроме того, предложенные подходы и методики могут стать основой для создания тренингов и обучающих программ, направленных на профилактику прокрастинации, повышение мотивации и формирование культуры рационального использования времени в условиях цифровой трансформации и информационной перегрузки.

Таким образом, результаты исследования обладают высокой прикладной ценностью и могут быть адаптированы к потребностям как отдельных индивидов, так и организаций, заинтересованных в повышении эффективности и устойчивом развитии.

Заключение. Анализ, предложенный в данном исследовании, позволяет выстроить индивидуальную стратегию управления временем, основанную на реальных данных, а не на субъективных ощущениях. Например, если вы видите, что в первой половине дня вы наиболее продуктивны, имеет смысл запланировать на это время важные и требующие концентрации задачи. На менее продуктивные периоды — рутину и менее значимые дела.

Хронометраж — это не просто метод учёта времени, а важнейший инструмент самодиагностики и управления ресурсом, который у нас ограничен — временем. Он помогает:

- понять, куда уходит время;
- выявить и устранить временные потери;
- повысить эффективность деятельности;
- бороться с прокрастинацией;
- внедрять инновационные технологии для автоматизации и улучшения рабочих процессов;
- повышать мотивацию и качество жизни как на личном, так и на профессиональном уровне.

Таким образом, хронометраж выступает не просто инструментом учета времени, а мощным средством самопознания и стратегического планирования. Его грамотное применение позволяет не только выявить и устранить временные потери, но и повысить общую осознанность в повседневной жизни. В сочетании с инновационными технологиями и вниманием к психологическим аспектам, таким как прокрастинация, хронометраж становится важным звеном в построении современной культуры эффективного времени — как на уровне отдельного человека, так и в масштабах целых организаций.

Дальнейшие исследования могут быть направлены на разработку специализированных программ, которые автоматически интегрируют данные хронометража и анализа задач, предоставляя руководителям готовые рекомендации для оптимизации их работы.

Литература

1.https://ru.wikipedia.org/wiki/Хронометраж

2. Трейси Б. Тайм-менеджмент: проверенные методы эффективного использования времени / Б. Трейси. — Нью-Йорк: AMACOM, 2014. — 124 с. — (The Brian Tracy Success Library). — ISBN 978-0-8144-3343-0.

3. https://www.microsoft.com/ru-ru/microsoft-viva

4. https://skillbox.ru/media/management/kak-rabotaet-tekhnologiya-dopolnennoy-realnosti-ar-i-chem-ona-polezna-biznesu/

5.Томас М. Сибел. Цифровая трансформация. Как выжить и преуспеть в новую эпоху, — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2021, стр: 33-78

6.https://ru.wikipedia.org/wiki/Синдром_отложенной_жизни

7.https://www.ranepa.ru/blog/obrazovanie-i-samorazvitie/prokrastinatsiya-chto-eto-prostymi-slovami-i-kak-s-neyu-borotsya/?utm_source=yandex.ru&utm_medium=organic&utm_campaign=yandex.ru&utm_referrer=yandex.ru

8.Джейн Б. Бурка, Ленора М. Юэн Procrastination: Why You Do It, What to Do About It Now, — M.: Da Capo Lifelong Books, 2024, 50-61

9.Пирс Стил Победи прокрастинацию! Как перестать откладывать дела на завтра, — М.: Альпина Паблишер 2025, стр. 132-189

10. Кови С. 7 навыков высокоэффективных людей: мощные инструменты развития личности / пер. с англ. — 30-е юбилейное изд. — М.: Альпина Паблишер, 2020, стр. 56–78

11. Кови, С. Р. 7 навыков высокоэффективных людей: мощные инструменты развития личности / пер. с англ. — 30-е юбилейное изд. — М.: Альпина Паблишер, 2020. — 464 с.

12. Трейси, Б. Съешьте лягушку! 21 способ научиться успевать / пер. с англ. — М.: Альпина Паблишер, 2009. — 160 с.

13. Аллен, Д. Как привести дела в порядок: искусство продуктивности без стресса / пер. с англ. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Альпина Паблишер, 2015. — 352 с.

14. Кови С.Р. 7 навыков высокоэффективных людей: Мощные инструменты развития личности. — М.: Альпина Паблишер, 2020. — 384 с.

15. Кови С.Р. 7 навыков высокоэффективных людей: Мощные инструменты развития личности. — М.: Альпина Паблишер, 2020. — 161 с.

13–14 YOSHLI FUTBOLCHILARDA MUSOBAQA FAOLIYATI SAMARADORLIGINING PASAYISHI: PSIXOFIZIOLOGIK CHARCHOQ VA QAROR QABUL QILISH SIFATI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Ermetov Dilmurod Nazarmatovich
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Aniq va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada 13–14 yoshli futbolchilarning rasmiy musobaqa faoliyatida qayd etilgan texnik-taktik harakatlar (310 ta to‘p uzatish, 89 ta to‘p yo‘qotish, 440–480 ta jami harakat) sport psixologiyasi nuqtai nazaridan qayta tahlil qilinadi. Pedagogik kuzatuv ma’lumotlari asosida to‘rtta hosila ko‘rsatkich — xatolik indeksi, o‘yin progressivligi ulushi, “xavfsiz o‘yin” koeffitsiyenti va zonal kognitiv yuklama gradiyenti hisoblab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ikkinchi taymda harakatlar hajmi 22,9% ga kamaygan holda xatolik indeksi 22,3% dan 37,0% gacha, ya’ni nisbiy hisobda 66,2% ga oshgan. Hajm va sifat dinamikasi o‘rtasidagi bunday nomutanosiblik pasayishni faqat periferik (mushak) charchog‘i bilan izohlab bo‘lmasligini, unda markaziy — kognitiv charchoq va diqqat resurslarining tugashi omili muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. To‘p yo‘qotishlarning zonalar bo‘yicha taqsimlanishi (I zona — 16,8%, II zona — 36,0%, III zona — 42,4%) qaror qabul qilish vaqti qisqarishi bilan xatolik ehtimoli ortishi haqidagi psixologik qonuniyatni tasdiqlaydi. Uzatishlarning 67,7% ini orqaga va yonga yo‘naltirilgan “xavfsiz” uzatishlar tashkil etgani xatodan qo‘rqish motivatsiyasi va ego-yo‘naltirilgan motivatsion iqlim bilan izohlanadi. Maqolada yosh futbolchilar tayyorgarligiga psixologik komponentni integratsiya qilishning amaliy modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: yosh futbolchilar, sport psixologiyasi, psixofiziologik charchoq, kognitiv charchoq, diqqat resurslari, qaror qabul qilish, texnik-taktik harakat, xatodan qo‘rqish, o‘z-o‘ziga ishonch, motivatsion iqlim.

Аннотация. В статье данные педагогического наблюдения за соревновательной деятельностью футболистов 13–14 лет (310 передач, 89 потерь мяча, 440–480 технико-тактических действий) подвергаются вторичному анализу с позиций психологии спорта. Показано, что во втором тайме объём действий снижается на 22,9%, тогда как индекс ошибок возрастает с 22,3% до 37,0% (относительный прирост 66,2%). Такая диспропорция указывает на ведущую роль центрального (когнитивного) утомления и истощения ресурсов внимания. Распределение потерь по зонам поля (16,8% / 36,0% / 42,4%) подтверждает зависимость точности решения от дефицита времени. Преобладание «безопасных» передач назад и поперёк (67,7%) интерпретируется как

проявление мотивации избегания неудачи и эго-ориентированного мотивационного климата. Предложена модель интеграции психологического компонента в подготовку юных футболистов.

Ключевые слова: юные футболисты, психология спорта, когнитивное утомление, ресурсы внимания, принятие решений, технико-тактические действия, страх неудачи, самоэффективность, мотивационный климат.

Abstract. The paper presents a secondary, sport-psychological analysis of pedagogical observation data on the competitive activity of 13–14-year-old football players (310 passes, 89 ball losses, 440–480 technical-tactical actions per match). Four derived indices were computed: error index, progressive-play share, “safe play” coefficient and zonal cognitive-load gradient. In the second half the volume of actions decreased by 22.9%, whereas the error index rose from 22.3% to 37.0% (a relative increase of 66.2%). This dissociation between quantity and quality indicates that the decline cannot be attributed to peripheral muscular fatigue alone: central (mental) fatigue and depletion of attentional resources play a substantial role. The zonal distribution of losses (16.8% / 36.0% / 42.4%) supports the time-pressure account of decision errors. The predominance of backward and lateral passes (67.7%) is interpreted through fear of failure and an ego-involving motivational climate. A practical model for integrating a psychological component into youth football preparation is proposed.

Keywords: youth football, sport psychology, mental fatigue, attentional resources, decision-making, technical-tactical actions, fear of failure, self-efficacy, motivational climate.

Kirish

Zamonaviy futbol o‘yinchidan nafaqat yuqori jismoniy tayyorgarlikni, balki vaqt tanqisligi sharoitida axborotni tez qayta ishlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etadi. Yosh futbolchilar tayyorgarligi metodikasiga bag‘ishlangan mahalliy tadqiqotlarda (R.A. Akramov, M.A. Godik, I.A. Koshbaxtiyev, A.I. Talipjanov, K.B. Muxammadiyev) asosiy e’tibor jismoniy va texnik-taktik komponentlarga qaratilgan bo‘lib, o‘yin faoliyatining psixologik determinantlari amalda tadqiq etilmagan.

Ayni paytda musobaqa faoliyatining ikkinchi taymda pasayishi an’anaviy tarzda faqat jismoniy charchoq bilan izohlanadi. Sport psixologiyasida esa charchoqning ikki turi ajratiladi: periferik (mushak) charchoq va markaziy, ya’ni kognitiv (mental) charchoq. S.M. Marcora va hammualliflarining tadqiqotlari kognitiv charchoq maksimal kuch ko‘rsatkichlarini o‘zgartirmagan holda ish bajarishga tayyorlikni pasaytirishini ko‘rsatdi. M.R. Smith va hammualliflari esa kognitiv charchoq futbolga xos qaror qabul qilish aniqligini va tezligini sezilarli darajada yomonlashtirishini aniqladilar. J. Van Cutsem va hammualliflarining tizimli sharhi kognitiv charchoqning texnik ko‘nikmalarga ta’siri jismoniy ko‘rsatkichlarga ta’siridan kuchliroq ekanini tasdiqladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy muammo shakllanadi: agar o‘yin davomida harakatlar hajmining kamayishi va xatolar ulushining ortishi bir xil sur’atda kechsa, bu periferik charchoqning ta’siri deb qaraladi; agar xatolar ulushi hajm pasayishidan sezilarli darajada tez o‘ssa, bu kognitiv komponentning ustunligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning maqsadi — 13–14 yoshli futbolchilarning musobaqa faoliyati bo‘yicha to‘plangan pedagogik kuzatuv ma’lumotlarini sport psixologiyasi nuqtai nazaridan qayta tahlil qilish va texnik-taktik harakatlar samaradorligining psixologik determinantlarini aniqlash.

Ilmiy faraz. Yosh futbolchilarda o‘yinning ikkinchi yarmida kuzatiladigan samaradorlik pasayishi hajm-sifat dissotsiatsiyasi bilan tavsiflanadi; to‘p yo‘qotishlar kognitiv yuklama yuqori bo‘lgan zonalarda to‘planadi; uzatishlarning yo‘nalish tuzilishi esa xatodan qochish motivatsiyasini aks ettiradi.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqot kontingenti. Toshkent viloyati umumiy o‘rta ta’lim maktablari qoshidagi futbol to‘garaklarining boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlarida shug‘ullanuvchi 13–14 yoshli o‘g‘il bolalar. Pedagogik tajriba ikki bosqichda (2022–2023 va 2023–2024 o‘quv yillari) tajriba va nazorat guruhlari ishtirokida tashkil etildi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashda qo‘shimcha ravishda 16 yoshli futbolchilar jamoasi (n=15) ma’lumotlari qiyosiy material sifatida jalb qilindi.

Metodlar. Ilmiy-adabiy manbalarni nazariy tahlil qilish; pedagogik kuzatish (L.V. Volkov va V.P. Klimin tomonidan ishlab chiqilgan bayonnoma asosida); pedagogik testlash; pedagogik tajriba;

matematik-statistik qayta ishlash (o‘rtacha arifmetik qiymat, standart og‘ish, o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti, proporsiya usulida foiz o‘sish).

Kuzatuv predmeti sifatida quyidagi texnik-taktik harakatlar qayd etildi: to‘p uzatishlar (yo‘nalishi bo‘yicha — orqaga, yonga, oldinga, oldinga harakatlanayotgan sherikka; bajarilish usuli bo‘yicha — yerdan va havodan), to‘pni olib yurish, aldash harakatlari, to‘pni olib qo‘yish, bosh bilan o‘ynash, darvoza tomon zarba berish, jarima to‘plaridan foydalanish. Maydon shartli ravishda uch zonaga (I — himoya, II — markaz, III — hujum) bo‘lindi.

Psixologik talqin uchun hosila ko‘rsatkichlar. Birlamchi kuzatuv ma’lumotlari asosida quyidagi indekslar hisoblab chiqildi: (1) xatolik indeksi — to‘p yo‘qotishlar sonining uzatishlar soniga nisbati (%); (2) o‘yin progressivligi ulushi — oldinga yo‘naltirilgan uzatishlarning umumiy uzatishlardagi ulushi (%); (3) “xavfsiz o‘yin” koeffitsiyenti — orqaga va yonga uzatishlar ulushi (%); (4) zonal kognitiv yuklama gradiyenti — xatolik indeksining zonalar kesimidagi o‘zgarishi.

Cheklovlar. Ushbu ishda psixologik konstruktlar bevosita psixodiagnostik metodikalar orqali emas, balki xulq-atvor markerlari (behavioural markers) orqali bilvosita baholangan. Bu talqinning ehtimoliy xususiyatini belgilaydi va keyingi bosqichda standartlashtirilgan so‘rovnomalar bilan validatsiya qilishni talab etadi.

Natijalar

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, 13–14 yoshli futbolchi bitta o‘yin davomida o‘rtacha 440–480 ta texnik-taktik harakat bajaradi va ularning yarmidan ko‘pini turli xarakterdagi to‘p uzatishlar tashkil etadi. Uzatishlarning taymlar kesimidagi tuzilishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

To‘p uzatishlarning taymlar kesimidagi hajmi va tuzilishi

Uzatish turi	I taym	II taym	Jami	II/I o‘zgarish, %
Orqaga	58	48	106	−17,2
Yonga	62	42	104	−32,3
Oldinga	42	34	76	−19,0
Oldinga harakatdagi sherikka	13	11	24	−15,4
Yerdan	111	78	189	−29,7
Havodan	64	57	121	−10,9
JAMI	**175**	**135**	**310**	**−22,9**

Uzatishlarning umumiy hajmi ikkinchi taymda 22,9% ga kamaydi. Ayni paytda yo‘nalish tuzilishi barqaror bo‘lib qoldi: butun o‘yin davomida orqaga va yonga yo‘naltirilgan uzatishlar 210 tani, ya’ni umumiy hajmning 67,7% ini tashkil etdi, oldinga yo‘naltirilgan progressiv uzatishlar esa atigi 32,3% ni tashkil qildi.

2-jadval

To‘p yo‘qotishlar va xatolik indeksining taymlar bo‘yicha dinamikasi

Ko‘rsatkich	I taym	II taym	Jami	Nisbiy o‘zgarish, %
Uzatishlar soni	175	135	310	−22,9
To‘p yo‘qotishlar soni	39	50	89	+28,2
Xatolik indeksi, %	**22,3**	**37,0**	**28,7**	**+66,2**

2-jadval ma’lumotlari tadqiqotning markaziy natijasini ochib beradi: harakatlar hajmi 22,9% ga qisqargan holda xatolik indeksi nisbiy hisobda 66,2% ga oshgan. Boshqacha aytganda, ikkinchi taymda futbolchi kamroq harakat qiladi, lekin har bir harakatning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli sezilarli darajada ortadi.

3-jadval

Uzatishlar va to‘p yo‘qotishlarning maydon zonalari bo‘yicha taqsimlanishi

Zona	Uzatishlar	Ulushi, %	Yo‘qotishlar	Xatolik indeksi, %
I (himoya)	137	44,2	23	16,8
II (markaz)	114	36,8	41	36,0
III (hujum)	59	19,0	25	42,4
Jami	**310**	**100**	**89**	**28,7**

Zonal taqsimot aniq gradiyentni ko‘rsatadi: o‘z himoya zonasidan hujum zonasi tomon xatolik indeksi 16,8% dan 42,4% gacha, ya’ni 2,5 barobar oshadi. Shu bilan birga uzatishlar hajmi teskari yo‘nalishda — 44,2% dan 19,0% gacha kamayadi.

4-jadval

Texnik harakatlarni bajarishdagi xatolar ulushi (o‘yin o‘rni kesimida, tajribadan oldin), %

Texnik harakat	Himoyachilar	Yarim himoyachilar	Hujumchilar	Jamoa bo‘yicha
Uzoq masofaga uzatish	38	37–38	46–47	—
To‘pni olib qo‘yish	40	—	34–41	—
Bosh bilan o‘ynash	59	36–40	—	65
Raqibni aldab o‘tish	47	44	—	75
Darvozaga zarba berish	—	47–51	53–66	—

Eng yuqori muvaffaqiyatsizlik darajasi ikki toifadagi harakatlarda qayd etildi: raqibni aldab o‘tish (75% samarasiz) va bosh bilan o‘ynash (65% samarasiz). Ikkala harakat ham bevosita kontakt, raqib bilan yakkama-yakka kurash va jismoniy zarba olish ehtimoli bilan bog‘liqdir.

Pedagogik tajriba yakunida ishlab chiqilgan metodika samaradorligi baholandi. Darvoza tomon berilgan zarbalarning samaradorlik koeffitsiyenti nazorat guruhida 0,44 ni, tajriba guruhida esa 0,56 ni tashkil etdi, ya’ni nisbiy o‘sish 27,3% ni tashkil qildi. Tajriba guruhida qanotlardan va markazdan tashkillashtirilgan hujumlar soni va texnik samaradorligi bo‘yicha ham guruhlararo asosli farq qayd etildi.

Muhokama

1. Hajm–sifat dissotsiatsiyasi va markaziy charchoq. Agar ikkinchi taymdagi pasayish faqat mushak charchog‘i bilan bog‘liq bo‘lsa, harakatlar hajmi va ularning aniqligi taxminan bir xil sur’atda pasayishi kutilar edi. Bizning ma’lumotlarimizda esa hajm 22,9% ga kamaygan holda xatolik indeksi 66,2% ga oshdi — bu deyarli uch barobar farq. Bunday nomutanosiblik sport psixologiyasida markaziy (kognitiv) charchoq deb ataladigan holat bilan izohlanadi: diqqatning taqsimlanishi, ish xotirasi va ijro etuvchi nazorat resurslari tugaydi, natijada motor bajarilish emas, balki qaror qabul qilishning o‘zi buziladi. M.R. Smith va hammualliflari aynan futbolga xos vaziyatlarda kognitiv charchoq qaror aniqligini pasaytirishini eksperimental tarzda ko‘rsatgan edilar.

2. Zonal gradiyent va vaqt tanqisligi. Xatolik indeksining I zonadan III zonaga qarab 2,5 barobar oshishi tasodifiy emas. Hujum zonasida o‘yinchi ixtiyoridagi qaror vaqti eng qisqa, muqobil variantlar soni eng ko‘p, raqib bosimi eng yuqori bo‘ladi. Xik–Xayman qonuniga ko‘ra, muqobillar soni ortishi bilan reaksiya vaqti logarifmik ravishda uzayadi; vaqt cheklangan sharoitda esa bu bevosita xato sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, 13–14 yosh — miya peshona bo‘lagi va ijro etuvchi funksiyalar hali shakllanish bosqichida bo‘lgan davr, shu sababli diqqatning keng-tashqi va tor-tashqi turlari o‘rtasida tez almashinish (R.M. Nideffer modeli) yosh futbolchilarda kattalarga nisbatan ancha qiyin kechadi.

3. “Xavfsiz o‘yin” va xatodan qo‘rqish motivatsiyasi. Uzatishlarning 67,7% i orqaga va yonga yo‘naltirilgani sof taktik qaror emas, balki motivatsion tanlovdir. Xatodan qo‘rqish (fear of failure) konstruksiyasi D.E. Conroy tadqiqotlarida sportchining muvaffaqiyatsizlik oqibatlarini — obro‘ yo‘qotish, murabbiy va sheriklar bahosining pasayishi — kutishi bilan bog‘lanadi. J. Nicholls va C. Ames ishlab chiqqan motivatsion iqlim nazariyasiga ko‘ra, ego-yo‘naltirilgan iqlimda (xato uchun jazolash, faqat natija bo‘yicha baholash) sportchi eng past tavakkalchilik darajasidagi harakatni tanlaydi. Aynan shunday iqlim yosh futbolchida progressiv uzatish, aldab o‘tish va nostandart yechim ko‘nikmalarining shakllanishini to‘xtatib qo‘yadi — D. Memmert ta’kidlaganidek, taktik ijodkorlik faqat xatoga bag‘rikeng muhitda rivojlanadi.

4. Kontaktli harakatlar va o‘z-o‘ziga ishonch. Aldab o‘tishda 75%, bosh bilan o‘ynashda 65% samarasizlik ko‘rsatkichi faqat texnik nuqson emas. A. Bandura nazariyasiga ko‘ra, o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) to‘rtta manbadan shakllanadi: shaxsiy muvaffaqiyat tajribasi, kuzatuv orqali o‘rganish, og‘zaki ishontirish va fiziologik-emotsional holat. Muntazam muvaffaqiyatsizlik tajribasi teskari halqa hosil qiladi: past ishonch → harakatdan qochish → tajriba to‘planmasligi → yanada past ishonch. Bosh bilan o‘ynashda bunga antitsipator xavotir — to‘p bilan to‘qnashuvdan oldingi bosh va ko‘zni himoya qilish refleksi qo‘shiladi, bu esa to‘g‘ri texnikani (peshona bilan urish, ko‘zni ochiq saqlash) bajarishga to‘sqinlik qiladi.

5. Tajriba guruhidagi o‘sishning psixologik mexanizmi. Tajriba guruhida qo‘llanilgan metodikaning asosiy xususiyati — musobaqa tizimini aks ettiruvchi mashqlardan foydalanish edi. Psixologik nuqtai nazardan bu stressga bosqichma-bosqich ko‘niktirish (stress inoculation) modeliga mos keladi: mashg‘ulotda musobaqa sharoitiga yaqin emotsional va kognitiv yuklama yaratiladi, natijada musobaqada vaziyat “notanish” bo‘lmay qoladi va xavotir darajasi pasayadi. Zarba samaradorligining 0,44 dan 0,56 gacha o‘sishini shu sababli faqat jismoniy adaptatsiya emas, balki psixologik adaptatsiya natijasi sifatida ham talqin qilish o‘rinlidir.

Amaliy tavsiyalar

Olingan natijalar asosida yosh futbolchilar tayyorgarligiga psixologik komponentni integratsiya qilishning quyidagi modeli taklif etiladi:

— charchoq sharoitida qaror qabul qilishni mashq qilish — kichik maydonchali o‘yinlarni (3×3, 4×4) mashg‘ulotning yakuniy qismida, yuklamadan keyin o‘tkazish, bu markaziy charchoqqa nisbatan chidamlilikni shakllantiradi;

— vazifaga yo‘naltirilgan motivatsion iqlim (TARGET modeli) — progressiv uzatishga urinishni natijadan qat’i nazar rag‘batlantirish, xatoni jazolash o‘rniga tahlil qilish;

— musobaqa oldi va zarba oldi ritual harakatlar (pre-performance routine) hamda ijobiy o‘z-o‘ziga murojaat (self-talk) ko‘nikmalarini shakllantirish;

— diqqatni almashtirish mashqlari (Nideffer modeli asosida) — kalit so‘zlar orqali diqqat hajmini kengaytirish va toraytirishga o‘rgatish;

— ideomotor mashqlar (imagery) — bosh bilan o‘ynash va aldab o‘tish harakatlarini haftasiga 3 marta 3–5 daqiqadan xayolan takrorlash;

— bosqichma-bosqich muvaffaqiyat tajribasini shakllantirish — bosh bilan o‘ynashni yengil, sekin to‘pdan boshlab murakkablashtirib borish;

— taymlararo tanaffusda nafas olishni tartibga solish va emotsional qayta sozlash protokolini joriy etish;

— psixodiagnostik monitoring — musobaqa xavotiri (CSAI-2R), charchoq va tiklanish (RESTQ-Sport), motivatsion yo‘nalganlik (TEOSQ) metodikalari orqali mavsumiy kuzatuv.

Xulosa

1. 13–14 yoshli futbolchilarda o‘yinning ikkinchi yarmida harakatlar hajmi 22,9% ga kamaygan holda xatolik indeksi 22,3% dan 37,0% gacha (nisbiy hisobda 66,2% ga) oshadi. Bu nomutanosiblik pasayishning sabablari orasida markaziy (kognitiv) charchoq va diqqat resurslarining tugashi muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

2. To‘p yo‘qotishlarning zonal taqsimoti aniq gradiyent hosil qiladi (16,8% → 36,0% → 42,4%), bu qaror qabul qilish vaqtining qisqarishi va axborot yuklamasining ortishi bilan bog‘liq.

3. Uzatishlarning 67,7% ini orqaga va yonga yo‘naltirilgan “xavfsiz” uzatishlar tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich xatodan qochish motivatsiyasi va ego-yo‘naltirilgan motivatsion iqlim mavjudligining xulq-atvor markeri sifatida talqin qilinadi.

4. Kontaktli texnik harakatlarning yuqori samarasizligi (aldab o‘tish — 75%, bosh bilan o‘ynash — 65%) past o‘z-o‘ziga ishonch va antitsipator xavotir bilan bog‘liq bo‘lib, faqat texnik mashq bilan bartaraf etilmaydi.

5. Musobaqa sharoitini modellashtiruvchi mashqlar qo‘llanilgan tajriba guruhida zarba samaradorligi koeffitsiyenti 0,56 ni tashkil etdi (nazorat guruhida — 0,44), bu jismoniy adaptatsiya bilan bir qatorda psixologik adaptatsiya samarasidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermatov D.N. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: magistrlik dissertatsiyasi. — Toshkent: Alfraganus University, 2024. — 73 b.

2. Akramov R.A. Futbol: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2000.

3. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. — М.: Терра-Спорт, 2006. — 272 с.

4. Родионов А.В. Психология физического воспитания и спорта. — М.: Академический проект, 2004. — 576 с.

5. Ильин Е.П. Психология спорта. — СПб.: Питер, 2008. — 352 с.

6. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. — New York: W.H. Freeman, 1997. — 604 p.

7. Nicholls J.G. The Competitive Ethos and Democratic Education. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. — 251 p.

8. Ames C. Classrooms: Goals, structures, and student motivation // Journal of Educational Psychology. — 1992. — Vol. 84, № 3. — P. 261–271.

9. Conroy D.E., Willow J.P., Metzler J.N. Multidimensional fear of failure measurement: The Performance Failure Appraisal Inventory // Journal of Applied Sport Psychology. — 2002. — Vol. 14, № 2. — P. 76–90.

10. Marcora S.M., Staiano W., Manning V. Mental fatigue impairs physical performance in humans // Journal of Applied Physiology. — 2009. — Vol. 106, № 3. — P. 857–864.

11. Smith M.R., Zeuwts L., Lenoir M. et al. Mental fatigue impairs soccer-specific decision-making skill // Journal of Sports Sciences. — 2016. — Vol. 34, № 14. — P. 1297–1304.

12. Van Cutsem J., Marcora S., De Pauw K. et al. The effects of mental fatigue on physical and cognitive performance: A systematic review // Sports Medicine. — 2017. — Vol. 47, № 8. — P. 1569–1588.

13. Nideffer R.M. Test of attentional and interpersonal style // Journal of Personality and Social Psychology. — 1976. — Vol. 34, № 3. — P. 394–404.

14. Memmert D. Teaching Tactical Creativity in Sport: Research and Practice. — London: Routledge, 2015. — 168 p.

15. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. — 7th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. — 656 p.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARNI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Izzatullayeva Niginabonu Xasanovna
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi
Yurisprudensiya yo'nalishi 102-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari, ularni amalga oshirish va himoya qilishning huquqiy, institutsional hamda sud mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning bevosita amal qilishi, mutanosiblik prinsipi, qonun oldida tenglik, sud orqali himoyalanish, davlat organlari faoliyatining inson huquqlariga yo‘naltirilganligi kabi zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda mehnat va ijtimoiy munosabatlar sohasida inson huquqlarini ta’minlashning o‘ziga xos jihatlariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari, huquq va erkinliklar, huquqiy kafolat, sud himoyasi, konstitutsiyaviy nazorat, mutanosiblik prinsipi, tenglik, ijtimoiy himoya, mehnat huquqlari, davlat organlari, huquqiy mexanizmlar.

Kirish: Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida insonning huquq va erkinliklarini ishonchli ta’minlash davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiya inson huquqlarining huquqiy asoslarini belgilabgina qolmay, ularni amalga oshirish, himoya qilish va tiklashning fundamental mexanizmlarini ham shakllantiradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, davlat organlari faoliyatining inson huquqlariga yo‘naltirilishi, huquqiy ta’sir choralarining mutanosiblik prinsipiga asoslanishi hamda qonunchilikdagi ziddiyat va noaniqliklarning inson foydasiga talqin qilinishi kabi muhim qoidalar mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlash masalasi ayniqsa mehnat va ijtimoiy munosabatlar sohasi uchun katta ahamiyatga ega. Chunki shaxsning mehnat qilish, munosib mehnat sharoitlariga ega bo‘lish, ijtimoiy ta’minotdan foydalanish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya olish kabi huquqlari uning munosib hayot kechirishi bilan bevosita bog‘liq. Huquqlarni faqat normativ-huquqiy hujjatlarda e’tirof etish yetarli bo‘lmay, ularni amalda ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan samarali institutsional va protsessual mexanizmlarning mavjudligi ham zarur. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy tizimda davlat organlari, sudlar, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda har bir shaxsning huquqiy faolligi o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism: Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlash mexanizmi deganda shaxsga tegishli huquqlarni e’tirof etish, ularni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish, buzilgan huquqlarni tiklash va huquqiy himoyani kafolatlashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, institutsional va protsessual vositalar tizimi tushuniladi. Mazkur mexanizmning samaradorligi faqat huquqiy normalarning mavjudligi bilan emas, balki ularning real hayotda qanday ishlashi bilan belgilanadi. Shu sababli zamonaviy konstitutsiyaviyizmda huquq va erkinliklarni ta’minlash masalasi “huquqni e’lon qilish”dan “huquqni amalda kafolatlash” bosqichiga o‘tish bilan tavsiflanadi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlashning birinchi muhim mexanizmi ularning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishidir. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga muvofiq e’tirof etilishi va kafolatlanishi belgilangan. Shuningdek, inson huquqlari tug‘ilganidan boshlab unga tegishli ekanligi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi va huquq hamda erkinliklarning daxlsizligi konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlangan. Bunday normalar davlatning inson oldidagi konstitutsiyaviy majburiyatlarini belgilab, huquq va erkinliklarni davlat hokimiyati faoliyatining asosiy mezoniga aylantiradi.

Zamonaviy mexanizmlarning yana bir muhim jihati huquq va erkinliklarning bevosita amal qilishidir. Bu prinsipga ko‘ra, shaxs o‘z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanish uchun har doim

qo‘shimcha normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishini kutishi shart emas. Konstitutsiyaviy norma davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini baholashda bevosita huquqiy mezon sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, mehnat va ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mehnatga oid huquqlarni amalga oshirishda qonunchilikdagi noaniqliklar shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash uchun asossiz sababga aylanishi mumkin emas.

Huquqlarni ta’minlashning muhim kafolatlaridan biri sud orqali himoyalanish mexanizmidir. Konstitutsiyada har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi, shuningdek sud orqali himoyalanish huquqi kafolatlangan. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyati huquqiy davlatning muhim belgilaridan biridir. Shu sababli sud hokimiyatining mustaqilligi, xolisligi va fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatining real ta’minlanishi konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qilishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Mehnat va ijtimoiy munosabatlarda sud himoyasi alohida ahamiyatga ega. Mehnat shartnomasi bilan bog‘liq nizolar, ish haqi va mehnat sharoitlari, ishga qabul qilish yoki ishdan bo‘shatish, mehnat ta’tili, ijtimoiy to‘lovlar va boshqa masalalarda shaxsning huquqlari buzilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda huquqni faqat nazariy jihatdan tan olish emas, balki buzilgan huquqni tezkor va samarali tiklash mexanizmining mavjudligi muhimdir. Sud organlarining huquqni tiklashga yo‘naltirilgan faoliyati konstitutsiyaviy kafolatlarning amaliy mazmunini ochib beradi.

Huquq va erkinliklarni ta’minlashda mutanosiblik prinsipi ham zamonaviy mexanizmlarning muhim elementi hisoblanadi. Davlat organlari tomonidan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun zarur va yetarli bo‘lishi lozim. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini cheklash faqat qonunga muvofiq, muayyan konstitutsiyaviy maqsadlarni ko‘zlagan holda va zarur doirada amalga oshirilishi belgilangan. Bu qoida davlat hokimiyati vakolatlarini huquq va erkinliklarni cheklashda mutlaq vositaga aylantirib yuborishning oldini olishga xizmat qiladi.

Huquq va erkinliklarni ta’minlash mexanizmida inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning o‘rni ham tobora ortib bormoqda. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy aloqalarni mustahkamlash, inson huquqlariga rioya etilishi holatini monitoring qilish, huquqiy madaniyatni oshirish va buzilgan huquqlarni himoya qilishga ko‘maklashadi. Konstitutsiyada bunday institutlarning huquq va erkinliklarni himoya qilishning mavjud shakl va vositalarini to‘ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi belgilangan.

Akademik adabiyotlarda ham inson huquqlarini ta’minlash masalasi huquqiy, institutsional va xalqaro mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida tahlil qilinadi. A.X. Saidovning inson huquqlari bo‘yicha tadqiqotlarida xalqaro standartlar va milliy huquqiy tizimning o‘zaro aloqasi muhim ilmiy yo‘nalish sifatida qaraladi. A.R. Mo‘minov va M.A. Tillabayevning ishlarida esa inson huquqlarining umumiy nazariyasi, xalqaro standartlar hamda ularning milliy qonunchilikka implementatsiyasi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlashda davlat organlarining mas’uliyati alohida o‘rin tutadi. Davlatning huquqiy siyosati inson manfaatlarini ustuvor qo‘ygan holda shakllantirilishi, davlat xizmatlari fuqarolarning huquqlaridan foydalanishini osonlashtirishi, ma’muriy qarorlar esa qonuniylik va mutanosiblik talablariga javob berishi lozim. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligi ham huquqlarni ta’minlashning zamonaviy vositalaridan biridir. Fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish, axborot olish va davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarining kengayishi davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Raqamlashtirish jarayoni ham konstitutsiyaviy huquqlarni ta’minlash mexanizmlariga yangi imkoniyatlarni olib kirmoqda. Elektron davlat xizmatlari, raqamli murojaatlar, sud tizimining axborot texnologiyalari bilan ta’minlanishi va huquqiy axborotdan masofadan foydalanish imkoniyatlari fuqarolarning huquqiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli muhitda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi, raqamli tengsizlik va algoritmik qarorlarning shaffofligi kabi yangi masalalar ham yuzaga kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy konstitutsiyaviy mexanizm an’anaviy huquqiy kafolatlar bilan bir qatorda raqamli huquqlarni himoya qilish vositalarini ham qamrab olishi zarur.

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan zamonaviy mexanizmlarning samaradorligi ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarning huquqlarini himoya qilish darajasi bilan ham belgilanadi. Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilangan. Davlat bunday toifalarning jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratishi nazarda tutilgan. Mazkur yondashuv ijtimoiy davlat prinsipining amaliy mazmunini ifodalaydi.

Shuningdek, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlash faqat davlat organlarining vazifasi sifatida qaralmasligi kerak. Fuqarolik jamiyati institutlari, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va professional huquqiy hamjamiyatlar ham ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, mehnat munosabatlarida xodimlarning huquq va manfaatlarini ifodalash, mehnat nizolarining oldini olish va huquqiy maslahatlar berish mexanizmlarining rivojlanganligi ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Huquq va erkinliklarni amalda ta’minlash uchun aholining huquqiy madaniyatini oshirish ham muhimdir. Shaxs o‘z huquqini bilmasa, mavjud kafolatlardan samarali foydalana olmaydi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida, xususan, mehnat va ijtimoiy munosabatlar yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun konstitutsiyaviy huquqlarni amaliy vaziyatlar asosida o‘rganish muhim pedagogik va huquqiy vazifa hisoblanadi. Talabalarda huquqiy tafakkur, huquqiy mas’uliyat, nizolarni qonuniy yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmasi va inson huquqlariga hurmatni shakllantirish kelajakdagi mutaxassislarning professional kompetentligini oshiradi.

Xulosa: Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari huquqiy normalar, davlat organlari faoliyati, sud himoyasi, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari va huquqiy madaniyatning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, ularning daxlsizligi, qonun oldida tenglik, mutanosiblik va sud orqali himoyalanish kabi fundamental kafolatlarning mustahkamlanishi mazkur tizimning huquqiy asoslarini yanada kuchaytirgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlashda asosiy e’tibor huquqlarni formal ravishda e’tirof etishdan ularni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish va buzilgan taqdirda samarali tiklashga qaratilishi lozim. Ayniqsa, mehnat va ijtimoiy munosabatlar sohasida shaxsning huquqiy himoyasi, ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarning manfaatlarini kafolatlash, mehnat nizolarini qonuniy va adolatli hal etish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida huquq va erkinliklarni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, sud himoyasining qulayligi va tezkorligini oshirish, huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirish hamda davlat organlarining inson huquqlari bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv konstitutsiyaviy normalarning real ijtimoiy munosabatlarda samarali ishlashini ta’minlab, insonning huquq va erkinliklarini davlat siyosati va huquqni qo‘llash amaliyotining markaziy mezoniga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq: darslik. – Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2006.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. Mo‘minov A.R., Tillabayev M.A. Inson huquqlari: darslik. 2-nashr. – Toshkent: Adolat, 2013.
4. Odilqoriyev X.T., Hakimov R., Muxamedov X.T. va boshqalar. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.
5. Smith R. International Human Rights Law. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TEZLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Egamberganova Dinara Jumanazarovna
O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida talabalarning tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Tezlik qobiliyati sport faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning rivojlanganlik darajasi qisqa masofaga yugurish, tezkor harakatlanish, yo'nalishni o'zgartirish, sport o'yinlaridagi texnik harakatlarni bajarish hamda musobaqaviy faoliyat natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda raqamli videokuzatuv, mobil ilovalar, elektron taymerlar, yurak urish chastotasini monitoring qilish vositalari, sensorli qurilmalar va elektron natijalar bazasidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Raqamli vositalar yordamida mashqlar natijalarini aniq qayd etish, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish, yuklamani boshqarish va talabalarga tezkor teskari aloqa berish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni an'anaviy jismoniy mashqlar bilan uyg'unlashtirish talabalarning mashg'ulotga qiziqishi va faolligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada tezlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli monitoring asosidagi metodik yondashuvning asosiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tezlik qobiliyati, jismoniy tarbiya, raqamli texnologiyalar, raqamli monitoring, sport ta'limi, mobil ilovalar, videokuzatuv, elektron taymer, jismoniy tayyorgarlik, pedagogik nazorat.

Kirish: Zamonaviy oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida talabalarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish, mashg'ulot samaradorligini muntazam baholash va ta'lim natijalarini obyektiv monitoring qilish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, sport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Tezlik insonning harakatni qisqa vaqt ichida bajarish qobiliyati bo'lib, u oddiy reaksiya tezligi, yakka harakat tezligi, harakat chastotasi va murakkab harakat vaziyatlarida tezkor qaror qabul qilish kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Jismoniy tarbiya darslarida ushbu sifatni rivojlantirish uchun qisqa masofalarga yugurish, maksimal tezlikda takroriy yugurish, start mashqlari, estafetalar, tezkor harakatli o'yinlar va maxsus tayyorgarlik mashqlaridan foydalaniladi.

An'anaviy nazorat usullarida natijalarni sekundomer yordamida o'lchash va o'qituvchi tomonidan qayd etish asosiy o'rin tutadi. Bunday yondashuv amaliy jihatdan qulay bo'lsa-da, mashq texnikasi, harakatlar chastotasi, tezlanish dinamikasi va individual o'zgarishlarni kompleks tarzda aniqlash imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli raqamli texnologiyalardan foydalanish jismoniy tarbiya jarayonining diagnostik va metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. M.Abdullayev tomonidan jismoniy sifatlarni rivojlantirishni nazorat qilish, pedagogik tahlil, xronometraj va pulsometriyaning jismoniy tarbiya jarayonidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. K.Mahkamdjanovning jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasiga oid ishlarida ham jismoniy tarbiya jarayonining nazariy va metodik asoslari yoritilgan.

Bugungi raqamli ta'lim muhiti ushbu nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, mobil qurilmalardagi maxsus ilovalar orqali yugurish vaqti, masofa, tezlik hamda mashg'ulot davomiyligini qayd etish mumkin. Videokamera orqali bajarilgan harakatni qayta ko'rib chiqish, start va finish bosqichlarini tahlil qilish, texnik xatolarni aniqlash va talabaning oldingi natijalari bilan taqqoslash imkoniyati paydo bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalarni jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish nafaqat nazoratni avtomatlashtirish, balki tezlik qobiliyatlarini rivojlantirishning individual va differensial metodikasini shakllantirish uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Asosiy qism: Tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining maqsadi, talabalarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi, sport ixtisosligi va individual funksional imkoniyatlariga muvofiq tashkil etilishi lozim. Sport oliy ta'lim muassasalarida ushbu jarayonni tashkil etishda tezlikni faqat bir martalik natija sifatida emas, balki vaqt davomida o'zgarib boruvchi dinamik

ko‘rsatkich sifatida baholash maqsadga muvofiq. Bunda raqamli texnologiyalar o‘qituvchiga katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va pedagogik tahlil qilish imkonini beradi.

Tezlik qobiliyatini baholashda 30 metrga yugurish, 60 metrga yugurish, 10–20 metrga tezlanish, takroriy sprint, reaksiya tezligini aniqlash va yo‘nalishni tez o‘zgartirishga asoslangan testlardan foydalanish mumkin. An’anaviy sekundomer bilan o‘lchashda inson omili sababli kichik xatoliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Elektron taymer va fotofinish tizimlaridan foydalanish esa vaqt ko‘rsatkichlarini aniqroq qayd etishga yordam beradi. Natijalarni elektron jadvalga kiritish orqali talabaning boshlang‘ich, oraliq va yakuniy ko‘rsatkichlarini taqqoslash, o‘sish sur’atlarini aniqlash va individual mashg‘ulot yuklamasini belgilash mumkin.

Raqamli videokuzatuv tezlik qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida metodik ahamiyatga ega. Talabaning yugurish texnikasi videoga olinib, keyinchalik sekinlashtirilgan rejimda ko‘rib chiqilishi mumkin. Bunda gavdaning holati, qo‘l va oyoqlarning muvofiqlashtirilishi, qadam uzunligi, qadam chastotasi, startdan chiqish texnikasi va finish bosqichidagi harakatlar tahlil qilinadi. O‘qituvchi videomaterial asosida talabaning xatolarini aniq ko‘rsatib berishi, talaba esa o‘z harakatini bevosita kuzatib, texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilgan namuna bilan taqqoslashi mumkin. Bu jarayon vizual teskari aloqani kuchaytiradi va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Mobil ilovalardan foydalanish ham mashg‘ulot samaradorligini oshirishning muhim vositasidir. Bunday ilovalar yordamida yugurish tezligi, masofa, vaqt, mashg‘ulot davomiyligi va ayrim hollarda yurak urish chastotasi kabi ko‘rsatkichlarni kuzatish mumkin. Mazkur ma’lumotlarning muntazam yig‘ilishi talabaning individual rivojlanish profilini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, birinchi haftada 30 metrga yugurish natijasi 5,2 soniyani tashkil etgan talaba bir necha haftalik mashg‘ulotlardan keyin 4,9 soniyaga erishsa, raqamli monitoring ushbu o‘zgarishni aniq ko‘rsatib beradi. Natijaning bunday ko‘rinishda taqdim etilishi talabaning o‘z faoliyatini obyektiv baholashiga va mashg‘ulot motivatsiyasini oshirishiga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar mashg‘ulot yuklamasini individuallashtirish imkoniyatini ham kengaytiradi. Tezlikni rivojlantirish mashqlarida yuqori intensivlik va yetarli tiklanish oralig‘ining to‘g‘ri nisbatini ta’minlash muhimdir. Agar mashqlar orasidagi tiklanish yetarli bo‘lmasa, keyingi takrorlarda maksimal tezlikni saqlab qolish qiyinlashadi va mashqning asosiy maqsadi pasayadi. Shu sababli elektron taymerlar yordamida ish va dam olish intervallarini aniq boshqarish mumkin. O‘qituvchi belgilangan vaqt oralig‘ini raqamli taymer orqali boshqarib, guruhdagi barcha talabalar uchun mashg‘ulot ritmini muvofiqlashtiradi.

Yurak urish chastotasini monitoring qilish vositalari ham jismoniy yuklamani nazorat qilishda foydalidir. Bunday qurilmalar mashg‘ulot davomida organizmning funksional javobini kuzatish imkonini beradi. Tezlik mashqlari qisqa davom etishi sababli yurak urish chastotasi bo‘yicha ma’lumotni mashqdan oldin, mashqdan keyin va tiklanish davrida taqqoslash maqsadga muvofiq. Bu orqali o‘qituvchi talabaning yuklamaga moslashish darajasini baholashi va keyingi mashg‘ulotlarda yuklama hajmini individual ravishda tuzatishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish ham samarali natija berishi mumkin. Masalan, talabalar o‘rtasida natijalarni elektron jadvalda qayd etish, shaxsiy rekordlar dinamikasini ko‘rsatish yoki mashg‘ulot bosqichlarini raqamli topshiriqlar shaklida tashkil etish raqobat va qiziqishni oshiradi. Biroq bunday yondashuvda asosiy maqsad faqat yuqori natija ko‘rsatgan talabalarni ajratib ko‘rsatish emas, balki har bir talabaning o‘z avvalgi natijasiga nisbatan rivojlanishini baholashdan iborat bo‘lishi kerak. Bu differensial pedagogik yondashuvning muhim sharti hisoblanadi.

Raqamli monitoring asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarni shartli ravishda uch bosqichda amalga oshirish mumkin. Birinchi bosqichda talabaning boshlang‘ich tezlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi va elektron ma’lumotlar bazasiga kiritiladi. Ikkinchi bosqichda mashg‘ulotlar jarayonida natijalar muntazam qayd etilib, texnik harakatlar videokuzatuv orqali tahlil qilinadi. Uchinchi bosqichda dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar qiyoslanib, tezlik qobiliyatining rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Ushbu jarayon o‘qituvchiga mashg‘ulot dasturining samaradorligini baholash va zarur metodik o‘zgartirishlarni kiritish imkonini beradi.

F.Tashpulatovning jismoniy tarbiya va sportga oid o‘quv qo‘llanmasida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil etish, yengil atletika hamda sport o‘yinlari bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. J.K.Komilov esa jismoniy sifatlarni, jumladan tezkorlikni tarbiyalash metodikasi, pedagogik nazorat, xronometraj va pulsometriya masalalariga e’tibor qaratgan. Ushbu metodik yondashuvlarni raqamli monitoring vositalari bilan birlashtirish jismoniy tarbiya darslarining diagnostik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida pedagogik maqsad va vosita o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur. Texnologiya jismoniy mashqning o‘rnini bosmasligi, balki uning samaradorligini nazorat qilish va boshqarish vositasi sifatida xizmat qilishi kerak. Dars vaqtining katta qismini qurilmalarni sozlashga sarflash maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun foydalaniladigan texnologiyalar sodda, tezkor, ishonchli va ta’lim maqsadlariga mos bo‘lishi lozim. O‘qituvchi raqamli ma’lumotlarni faqat yig‘ib qolmasdan, ularni pedagogik qaror qabul qilish uchun tahlil qila olishi kerak.

Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishda ma’lumotlarning aniqligi va xavfsizligini ta’minlash masalasi ham muhimdir. Talabalarning jismoniy ko‘rsatkichlari shaxsiy ma’lumotlar sifatida ehtiyotkorlik bilan saqlanishi, ulardan faqat ta’limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanilishi kerak. Elektron monitoring natijalarini baholashda texnik qurilmaning o‘lchash xatoligi, sensorlarning joylashuvi, videokamera burchagi va boshqa metodik omillar ham hisobga olinishi zarur.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini aniqroq, individualroq va tahliliyroq tashkil etish imkonini beradi. Elektron vaqt o‘lchash, videokuzatuv, mobil ilovalar, yurak urish chastotasini monitoring qilish va raqamli ma’lumotlar bazasidan foydalanish orqali o‘qituvchi talabaning rivojlanishini muntazam kuzatib boradi. Bunday yondashuv jismoniy tarbiya darslarini zamonaviylashtirish bilan birga, bo‘lajak sport mutaxassislarida o‘z-o‘zini nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish va mashg‘ulot jarayonini ongli boshqarish kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Xulosa: Jismoniy tarbiya darslarida tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy sport ta’limining istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli vositalar yordamida tezlik ko‘rsatkichlarini aniq o‘lchash, mashqlar bajarilish sifatini videokuzatuv orqali tahlil qilish, mashg‘ulot yuklamasini nazorat qilish va talabaning individual rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, elektron taymerlar, mobil ilovalar, videomonitoring vositalari va yurak urish chastotasini qayd etuvchi qurilmalar an’anaviy pedagogik nazoratni sezilarli darajada takomillashtirishi mumkin.

Raqamli monitoringning eng muhim afzalligi shundaki, u talabaning faqat yakuniy natijasini emas, balki natijaga olib keluvchi jarayonni ham tahlil qilish imkonini beradi. Shu asosda o‘qituvchi mashqlar intensivligi, takrorlar soni, dam olish oralig‘i va texnik topshiriqlarni individual ravishda moslashtirishi mumkin. Natijada tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni yanada boshqariladigan va ilmiy-metodik jihatdan asoslangan tus oladi.

Sport oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Talaba o‘z natijalarini mustaqil tahlil qilish, raqamli ma’lumotlardan foydalanish, mashg‘ulot samaradorligini baholash va individual rivojlanish strategiyasini belgilash ko‘nikmalarini egallaydi. Shu sababli raqamli texnologiyalarni jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish oddiy texnik yangilik sifatida emas, balki sport ta’limining diagnostik, metodik va pedagogik imkoniyatlarini kengaytiruvchi kompleks yondashuv sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tashpulatov F.A. Jismoniy tarbiya va sport. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2019. 200 b.
2. Komilov J.K. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-press, 2019.
3. Mahkamdjanov K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Toshkent: Toshkent nashriyoti, 2008. 184 b.
4. Abdullayev M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2020.

THE ROLE OF GREEN LOANS IN PROMOTING CIRCULAR ECONOMY IN UZBEKISTAN

Murodov Abdul Majid Dilshod o‘g‘li
Iqtisodiyot 01 24

Annotatsiya. Ushbu maqola, O'zbekistonda davriy iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim rol o'ynovchi yashil kreditlar haqida ma'lumot beradi. Yashil kreditlar, atrof-muhitni muhofaza qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada O'zbekistondagi yashil kreditlar turlari, ularni taklif etuvchi banklar va kredit olish shartlari ko'rib chiqiladi. Davriy iqtisodiyot, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlab, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi va bu YaIMga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yashil kreditlar, davriy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, moliyaviy institutlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается важная роль зеленых кредитов в переходе к циклической экономике в Узбекистане. Зеленые кредиты служат важным финансовым инструментом для финансирования экологически чистых проектов. Обсуждаются виды зеленых кредитов, банки, их предлагающие, и условия получения. Циклическая экономика способствует эффективному использованию ресурсов, созданию новых экономических возможностей и положительно влияет на ВВП страны.

Ключевые слова: Зеленые кредиты, циклическая экономика, устойчивое развитие, финансовые институты.

Annotation. This article discusses the critical role of green loans in the transition to a circular economy in Uzbekistan. Green loans serve as a vital financial tool for funding environmentally friendly projects. It explores the types of green loans available, the banks offering them, and the conditions for obtaining these loans. The circular economy enhances resource efficiency, creates new economic opportunities, and positively impacts GDP.

Keywords: Green loans, circular economy, sustainable development, financial institutions.

Introduction. The transition to a circular economy is essential for sustainable development, particularly in developing countries like Uzbekistan. Green loans serve as a vital financial tool to facilitate this transition by supporting environmentally friendly projects. This article explores the types of green loans available in Uzbekistan, the banks offering them, and the conditions for obtaining these loans. The circular economy can significantly impact GDP by promoting sustainable growth, enhancing resource efficiency, and creating new economic opportunities. By maximizing resource use and minimizing waste, businesses can lower their material costs. This efficiency can lead to increased profit margins and economic growth. On top of that companies that adopt circular practices often experience lower operational costs, which can boost their competitiveness and contribute to GDP growth.

The shift to a circular economy encourages innovation in product design, recycling, and service delivery. This can lead to the emergence of new industries and business models. Jobs are created in sectors such as recycling, refurbishment, and sustainable product development, contributing to overall employment and economic activity. Transitioning to a circular economy often requires investment in new technologies and infrastructure, which can stimulate economic growth. Government initiatives to support circular economy projects can lead to increased public spending and private investment, further enhancing GDP. As countries and consumers increasingly prioritize sustainability, there is growing demand for products and services aligned with circular economy principles. This can enhance exports and positively affect GDP. By minimizing waste and pollution, a circular economy can lower environmental cleanup costs and health-related expenditures, indirectly benefiting the economy. A circular economy promotes long-term sustainable growth rather than short-term gains, contributing to a more stable economic environment.

Methodology. The study utilizes a qualitative methodology to gain a comprehensive understanding of green loans in Uzbekistan. This approach allows for an in-depth exploration of the financial products

available and their impact on sustainable practices. Existing literature on green financing, circular economy principles, and sustainable development was reviewed. Relevant academic articles, government reports, and publications from international organizations (e.g., World Bank, Asian Development Bank) were examined to gather background information and context

Literature review. Relationship between the circular economy and GDP, drawing on insights has been researched in many works during the previous decades.

The Circular Economy is a new sustainability paradigm. The conceptual framework of the circular economy and its potential to enhance sustainability. Circular economy practices can lead to greater resource efficiency, ultimately contributing to GDP growth by reducing costs and creating new market opportunities [1]. Circular economy principles align with sustainable development goals (SDGs). They emphasize that by reducing waste and promoting sustainable resource use, the circular economy can stimulate economic growth, thereby positively impacting GDP [2]. Product design and business model strategies for a circular economy has also become one of most developing aspects in green economy. Innovative design and business models facilitate circular practices. Businesses adopting these models often experience lower costs and increased revenues, which contribute to overall economic growth and GDP enhancement [3]. Circular business models is becoming an economic perspective [4] Linder and Williander discuss various circular business models and their economic implications. These models can create new revenue streams and reduce dependency on finite resources, leading to sustainable economic growth and a positive impact on GDP. Wyns et al. (2020) - "The economic case for circular economy: A review of the evidence [6] Wyns provide a comprehensive review of the economic benefits of the circular economy. They assert that implementing circular practices can lead to significant GDP growth by enhancing productivity and reducing environmental costs. Circular economy and its effect on economic resilience also one of most interesting issues among researchers. The economies adopting circular principles are better equipped to withstand economic shocks, which can lead to stable GDP growth over time [7].

After determining the effect of circular economy assessing comes to the centre of research in this field. Evaluating the economic impact of circular economy policies analyze the economic impact of specific circular economy policies in various countries [8]. Findings suggest that these policies can lead to substantial economic benefits, including increased GDP, through improved resource efficiency and job creation[8].

Circular practices can lead to resource conservation, job creation, and ultimately, GDP growth. Literature consistently indicates that the circular economy has significant potential to enhance GDP through various mechanisms, including resource efficiency, job creation, and the promotion of innovative business models. As countries and businesses increasingly adopt circular economy principles, their economic growth is likely to be positively impacted, contributing to a more sustainable and resilient economic future.

Results and discussions. Green loans represent a crucial financial mechanism for promoting sustainable development and transitioning to a circular economy in Uzbekistan. This discussion focuses on the current landscape, benefits, challenges, and future prospects of green loans in the country.

Uzbekistan has increasingly recognized the importance of sustainable finance in addressing environmental issues and promoting economic growth. Various financial institutions, including state-owned banks, have begun to offer green loans specifically designed to fund projects related to renewable energy, waste management, and resource efficiency.

Benefits of Green Loans:

1. Environmental Impact: Green loans support initiatives that reduce greenhouse gas emissions and promote the use of renewable resources. By financing projects such as solar and wind energy installations, these loans contribute to mitigating climate change.
2. Economic Growth: By fostering sustainable business practices, green loans can stimulate economic growth. Investments in green technologies often lead to job creation and increased productivity, benefiting the overall economy.

3. Enhanced Resource Efficiency: Green loans encourage businesses to adopt practices that maximize resource efficiency, reducing waste and lowering operational costs. This not only helps the environment but also enhances the competitive advantage of businesses.

4. International Collaboration: Uzbekistan's partnerships with international organizations, like the World Bank and the Asian Development Bank, have facilitated access to funding and technical expertise for green projects, further enhancing the viability of green loans.

Challenges:

1. Limited Awareness: Many SMEs are not fully aware of the availability and benefits of green loans. This lack of awareness can hinder their ability to access necessary funding for sustainable projects.

2. Bureaucratic Processes: The loan application process can be cumbersome, involving extensive documentation and lengthy approval times. This complexity may discourage businesses from pursuing green financing.

3. High Interest Rates: While green loans may offer lower rates compared to conventional loans, they can still be considered high for some borrowers, especially in a market where traditional financing options may be more accessible.

4. Infrastructure Gaps: Insufficient infrastructure for renewable energy and waste management poses a significant barrier to the implementation of projects funded by green loans. Without the necessary facilities, the effectiveness of these loans is limited.

5. Economic Uncertainty: Fluctuating economic conditions can affect the repayment capacity of borrowers, creating hesitancy among lenders to issue green loans.

The future of green loans in Uzbekistan appears promising but requires concerted efforts from various stakeholders. Key recommendations for enhancing the effectiveness and reach of green loans include:

- Conducting targeted outreach programs to educate SMEs about green financing options and their benefits. It will influence raising awareness.
- Simplifying application procedures to make it easier for businesses to access green loans, thereby increasing uptake.
- Expanding subsidies and guarantees to make green loans more attractive and reduce perceived risks for lenders.
- Investing in the necessary infrastructure to support renewable energy projects and waste management systems will create a conducive environment for green financing. It will ensure to developing infrastructure:
- Offering training programs for businesses to enhance their understanding of sustainable practices and technologies, ensuring they are well-equipped to utilize green loans effectively.

Today several bank in Uzbekistan offering green loans on different rates. Each bank has different focus and requirements of green loans. National Bank of Foreign Economic Activity (NBU) mostly focus on areas as renewable energy, energy efficiency, and environmental protection projects. Asaka Bank offers special programs tailored loan products for projects focused on waste management and recycling initiatives. Turonbank’s target audience is specifically for SMEs that emphasize sustainable practices and resource efficiency. Uzpromstroybank focuses on modernization financing. They offer loans aimed at upgrading production processes with a focus on sustainability.

General Conditions for Obtaining Green Loans are lower than market rates, typically ranging from 7% to 12%, making them more appealing for businesses.

Terms of loans usually between 3 to 10 years, depending on the nature and scope of the project being financed. Required Documentation for these loans are

- Business Plan: A comprehensive outline of the project, including its objectives, financial projections, and operational plans.
- Environmental Assessment: An evaluation of the project's potential environmental impacts and sustainability benefits.

- Loan Usage Confirmation: Documentation that verifies the intended use of the loan, ensuring it aligns with green financing principles.

Government support mechanisms are often available to reduce investment risks, making it easier for businesses to secure financing for their projects.

Analyzing the opportunities and challenges it is relevant to illustrate in SWOT analysis.

SWOT Analysis of Green Loans in Uzbekistan

Strengths	Weaknesses
- Government support and incentives	- Limited awareness among SMEs about available loans
- Diverse financial products tailored for sustainability	- High interest rates compared to traditional loans
- Collaboration with international organizations	- Insufficient infrastructure for renewable energy
- Encouragement of innovation and sustainable practices	- Bureaucratic hurdles in loan application processes

Opportunities	Threats
- Growing demand for sustainable projects	- Economic instability affecting loan repayment
- International funding and partnerships	- Competition from traditional financing options
- Increasing global focus on climate change	- Regulatory changes that may impact financing
- Potential for job creation in green sectors	- Lack of skilled workforce in green technologies

On base of SWOT analysis some difficulties were defined. For instance, many small and medium enterprises (SMEs) are unaware of the green loan options available to them, which hinders their ability to adopt sustainable practices. On top that the loan application process can be complex and time-consuming, discouraging businesses from pursuing green financing. Moreover, while green loans often have lower rates than conventional loans, they can still be higher than the rates offered by traditional financing, making them less attractive. Other difficulties can be counted as the lack of developed infrastructure for renewable energy and waste management systems can limit the types of projects that can be funded. Fluctuations in the economy can affect repayment capabilities, making lenders hesitant to issue green loans.

The result of SWOT analysis can play important role in forming recommendations for future trends. These recommendations are:

1. **Awareness Campaigns**: Implement educational programs and marketing campaigns to raise awareness among SMEs about the benefits and availability of green loans.
2. **Streamlined Processes**: Simplify the loan application process by reducing bureaucratic steps and providing clear guidelines for borrowers.
3. **Incentive Structures**: Introduce additional government incentives, such as lower interest rates or grants, to make green loans more attractive to businesses.
4. **Infrastructure Development**: Invest in the necessary infrastructure for renewable energy and waste management to support projects funded by green loans.
5. **Training and Development**: Offer training programs for businesses to build capacity in green technologies and practices, ensuring they can effectively utilize the funds from green loans.
6. **Partnerships with Financial Institutions**: Collaborate with banks and international organizations to create tailored financial products that meet the specific needs of local businesses while promoting sustainability.

REFERENCES

1. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2018). The Circular Economy – A new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production, 143, 757-768. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.12.048
2. Kirkby, C., Awan, F. H., & Rauf, A. (2020). The role of the circular economy in sustainable development. Sustainability, 12(15), 6132. https://doi.org/10.3390/su12156132
3. Bocken, N. M. P., Short, S. W., Rana, P., & Evans, S. (2016). Product design and business model strategies for a circular economy. Journal of Industrial and Production Engineering, 33(5), 308-320. https://doi.org/10.1080/21681015.2016.1161068
4. Linder, M., & Williander, M. (2017). Circular business models: an economic perspective. Journal of Business Models, 5(1), 78-97. https://doi.org/10.5278/ojs.jbm.v5i1.1918
5. Wyns, A., & Hennemann, M. (2020). The economic case for circular economy: A review of the evidence. Ecological Economics, 169, 106473. https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2019.106473\
6. Rogers, D. S., & Hudson, C. (2021). Circular economy and its effect on economic resilience. Sustainable Development, 29(3), 441-454. https://doi.org/10.1002/sd.2202
7. Jiang, Y., Liu, W., & Chen, H. (2021). Evaluating the economic impact of circular economy policies. Resources, Conservation and Recycling, 164, 105161. https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2020.105161
8. www.nbu.uz
9. www.asakabank.uz
10. www.turonbank.uz
11. www.uzpromstroybank.uz
12. www.mineconomy.uz
13. www.adb.org

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: iraxon030981@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0008-5090-8398
Tel:+99899 443-21-81

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda multimedia texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari, virtual ekskursiyalar hamda interaktiv platformalarning o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ekologik bilimlarni rivojlantirishning samarali mexanizmlari tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, ekologik bilim, ekologik kompetensiya, ekologik madaniyat, raqamli ta’lim vositalari, multimedia texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar, ekologik tarbiya.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atmosfera havosining ifloslanishi, ichimlik suvi tanqisligi, biologik xilma-xillikning kamayishi, iqlim o‘zgarishi kabi muammolar yosh avlodda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois ekologik ta’lim va tarbiya masalalari zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining muhim davri bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan munosabati, ekologik qarashlari va qadriyatlari shakllanadi. Shu sababli

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilimlarni rivojlantirish, ularda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissini tarbiyalash pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ta’limning raqamlashtirilishi ekologik ta’limni tashkil etish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Zamonaviy raqamli vositalar yordamida ekologik mazmundagi mavzularni o‘quvchilarga qiziqarli, tushunarli va samarali tarzda yetkazish imkoniyati yaratildi.

Raqamli ta’lim vositalarining ekologik ta’limdagi o‘rni

Raqamli ta’lim vositalari ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv materiallarini taqdim etish va bilimlarni nazorat qilishning zamonaviy shakllarini o‘z ichiga oladi. Ularga elektron darsliklar, multimedia taqdimotlari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv o‘yinlar kiradi.

Ekologik ta’lim jarayonida ushbu vositalardan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

ekologik hodisalarni vizual ko‘rinishda namoyish etish;

murakkab jarayonlarni soddalashtirib tushuntirish;

o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish;

mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

ekologik muammolarni real hayot bilan bog‘lash;

ekologik kompetensiyalarni shakllantirish.

Masalan, "Suvni asraylik", "Chiqindilarni saralash", "Tabiatni muhofaza qilish", "Atmosfera ifloslanishi" kabi mavzular videoroliklar va animatsiyalar yordamida tushuntirilganda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi sezilarli ravishda ortadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axborotni asosan ko‘rish va eshitish orqali samarali qabul qiladilar.

Ekologik bilimlarni shakllantirishda interaktiv texnologiyalarning ahamiyati

Interaktiv texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilar nafaqat tayyor ma’lumotni qabul qiladilar, balki mustaqil fikrlash, izlanish va muammolarni hal etish faoliyatida ham ishtirok etadilar.

Ekologik ta’limda quyidagi interaktiv usullardan samarali foydalanish mumkin:

virtual ekologik sayohatlar;

ekologik viktorinalar;

raqamli krossvordlar;

interaktiv xaritalar;

ekologik o‘yinlar;

elektron testlar;

QR-kodli topshiriqlar.

Mazkur texnologiyalar o‘quvchilarning ekologik muammolarga oid bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularda ekologik mas’uliyat hissini ham rivojlantiradi.

Ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirish quyidagi mexanizmlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchidan, ekologik mazmundagi mavzularni "Tarbiya" fanining barcha bo‘limlariga integratsiya qilish zarur. Bu o‘quvchilarda ekologik bilimlarning uzviy va tizimli shakllanishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, ekologik mazmundagi multimedia resurslarini yaratish va ulardan muntazam foydalanish lozim. Chunki vizual materiallar bolalarning qiziqishini oshiradi va mavzularni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Uchinchidan, raqamli platformalar orqali ekologik loyihalar va tadqiqot topshiriqlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, ekologik ta’limda ota-onalar va mahalla hamkorligini raqamli texnologiyalar orqali kuchaytirish zarur. Bunda onlayn tanlovlar, ekologik aksiyalar va virtual uchrashuvlar samarali natija beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Pedagogik kuzatishlar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar asosida tashkil etilgan ekologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ekologik savodxonligi, ekologik madaniyati va ekologik mas’uliyat darajasi sezilarli ravishda ortadi.

Raqamli vositalar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar:

ekologik tushunchalarni tezroq o‘zlashtiradilar;

tabiatga nisbatan ijobiy munosabat bildiradilar;

ekologik muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini egallaydilar;

ekologik vaziyatlarga nisbatan ongli qaror qabul qilishga o‘rganadilar.

Shuningdek, raqamli vositalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, dars samaradorligini kuchaytirish va bilimlarni uzoq muddat saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik bilimlarni shakllantirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish ekologik ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Multimedia texnologiyalari, interaktiv platformalar va elektron resurslar o‘quvchilarning ekologik savodxonligi, ekologik tafakkuri va ekologik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ekologik ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish hamda ekologik mazmundagi elektron ta’lim resurslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid farmon va qarorlari.

3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2017.

4. To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

5. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2022.

6 .Ishmuhamedov R., Yo‘ldoshev M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2021.

7. Musurmonova O. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2021.

ДОНИДА ТЕМИР ТЎПЛАШ ХУСУСИЯТИ ЮҚОРИ ДОНОР НАВНИ ТАНЛАШ

Хўжақулова С.Р.

Тошкент давлат аграр университети ”Селекция ва уруғчилик” кафедраси мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мамлакатимизнинг суғориладиган ерларида экиш учун кузги юмшоқ буғдойнинг навлари юқори ҳосилдорлик хусусиятига эга бўлсада, аммо донининг сифат кўрсаткичлари айниқса ундаги темирнинг фоиз улушлари давлат андозалари талаби даражасида эмаслиги кузатилмоқда.Мақолада муаллиф томонидан темир тўплаш ҳусусияти юқори бўлган янги селекцион генотипларни яратиш бўйича олиб борилган илмий тадқиқотлари давомида донор навлар ва синтетик буғдой тизмаларини дала шароитида тажрибалари ташкил этилиб, нав ва тизмаларни ўсиши ва ривожланиши, маҳсулдорлик кўрсаткичлари баҳоланиши ҳақида маълумотлар ёритилган.

Kalit so‘zlar: донор нав, юмшоқ буғдой, донда темир миқдори, нав,тизма,бошоқлаш фазаси,бошоқ узунлиги,дон вазни,дон натураси

Аннотация. В нашей стране в настоящее время многие сорта мягкой озимой пшеницы возделываемые на орошаемых землях, имеют высокую урожайность, но в тоже время, качественные показатели зерна, особенно процентное содержание железа в них, не соответствуют требованиям государственных стандартов. В данной статье освещены результаты проведенных автором полевых опытов донорских и синтетических сортов пшеницы, о ее росте и развитии, выполнена оценка показателей продуктивности.

Ключевые слова: мягкая пшеница, содержание железа в зерне, сорт, фаза колошения, длина зерна, натура зерна, масса зерна

Abstract. Currently, many varieties of soft winter wheat cultivated on the irrigated lands of our republic have a high yield, but at the same time, the quality indicators of grain, especially the percentage of iron in them, do not meet the requirements of state standards. This article highlights the results of field experiments conducted by the author of donor and synthetic varieties of wheat, its growth and development, and an assessment of productivity indicators.

Keywords: soft wheat, iron content in grain, variety, earing phase, grain length, grain size, grain weight

Юмшоқ буғдойнинг янги навларини яратишда дурагайлаш учун донор навларни тўғри танлаб олиш селекция жараёнининг муваффақиятли бўлишлигини таъмин этади. Донор навларни танлаб олишда асосан мақсадга мувофиқ шаклларни олиш учун кутилаётган дурагай ҳусусиятларининг айримлари қайсидир донор навларда доминант ҳолда бўлишига катта эътибор қаратилади. Донор навларни танлаб олиш селекция йўналишларига қараб турли хил бўлиши мўмкин. Масалан, ҳосилдорлиги ва донида темир моддаси юқори бўлган навларни яратишда донор навларни мақсаддан келиб чиқиб танлаш талаб этилади.

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти Қарши бўлими Я.Омонов ҳудудидаги марказий тажриба участкасига 100 та нав ва тизмалардан донор навлар кўчатзори ташкил этилди. Ушбу нав ва тизмалар географик келиб чиқиши турли бўлган минтақалардан ҳисобланиб, сунги йиллардаги селекция ишлари мобайнида танлаб олинган. Нав ва тизмалар пайкалча экин майдони 1 $м^2$, қайтариқсиз экилди ва дурагайлаш билан бир қаторда нав ва тизмаларнинг хусусиятларига ҳам баҳо берилди.

Нав ва тизмаларнинг униб чиқиш даври об – ҳавога боғлиқ ҳолда 17-18 ноябрь саналарига тўғри келганлиги қайд қилинди.

Ўсимликларнинг туплаш фазасига тўлиқ ўтиши 17-22 ноябр кунларига тўғри келди. Найчалаш фазасига ўтиши эса нав ва тизмаларнинг биологик ҳусусиятига кўра, 15 январдан 19 феврал кунлари оралиғига тўғри келганлиги қайд қилинди. 200/50/Бунёдкор, КР11-010 /Жайхун, КР11-010, Эломон/Санзар-8 каби тизмалар эрта муддатда найчалаш фазасига ўтганлиги кузатилди.

Оддий дурагайлаш усулида янги навлар яратиш ҳозирги кунда жудаям мушкул ҳисобланиб, бунда дурагайлаш учун танлаб олинаётган навларда кўпроқ қимматли ҳусусиятлар бўлиши талаб этилади. Яъни, донор сифатида олинаётган иккала навлар ҳам биотик ва абиотик омилларга чидамли, барқарор юқори ҳосилли, ётиб қолишга чидамли ҳамда дон сифати юқори бўлиши талаб этилади. Бу қимматли ҳусусиятлар жамланмаси битта навда бўлмаса, мураккаб дурагайлаш ўтказишга тўғри келади.

Тажрибада бошоқлаш фазасигага 2-17 апрел кунларида тўғри келганлиги қайд қилинди. Андижон-1, Насафий, Шукрона, Турон, Ёғду навлари эртапишарлик ҳусусиятига эга бўлиб, донор навлар сифатида танлаб олинди ва дурагайлаш ишларида қўлланилди.

Униб чиқиш-бошоқлаш даври 167-184 кунни ташкил қилиб, бошоқлаш пишиш даври қисқа бўлган нав ва тизмалар донор навлар сифатида танлаб олиниб, дурагайлаш ишларида ота ва она формалар сифатида фойдаланилди.

Нав ва тизмаларнинг тўлиқ пишиш фазасига ўтиши 24 май – 3 июн кунларида қайд қилинди. Вегетатсия даври эса 219 – 232 кунни ташкил қилганлиги кузатилди. Олинган натижаларга кўра, Шукрона, Турон,

1-жадвал

Ўсув даври қисқа бўлган донор нав ва тизмалар

Т/н	Нав номи	Униб чиқиш, сана	Тупланш, сана	Найчаланш, сана	Бошоқланш, сана	Бошоқлашгача бўлган кун	Тўлиқ пишиш, сана	Пишишгача бўлган кун
7	Андижон-1	18.окт	22.ноя	19.фев	02.апр	167	25.май	220
18	Насафий	17.окт	20.ноя	04.фев	10.апр	176	24.май	220
24	Шукрона	18.окт	20.ноя	10.фев	10.апр	175	24.май	219
29	Турон	18.окт	20.ноя	28.янв	06.апр	171	24.май	219
30	Ёғду	17.окт	20.ноя	29.янв	07.апр	173	24.май	220
58	УКР-ОД 1530.94/АЕ. СҚУАРРОСА(310)	18.окт	19.ноя	24.янв	10.апр	175	24.май	219
70	ҲИСОРАК/БУНЁДКОР	17.окт	17.ноя	01.фев	09.апр	175	24.май	220
75	200/48/Хисорак	18.окт	20.ноя	26.янв	07.апр	172	24.май	219
79	САРВАР	18.окт	20.ноя	20.янв	07.апр	172	25.май	220
86	Д-12 / Бунёдкор Х Бунёдкор	18.окт	20.ноя	22.янв	11.апр	176	24.май	219
88	КР15-НАЗОРАТ-77-67	17.окт	22.ноя	20.янв	10.апр	176	24.май	220
90	РСК/СА8055// ЧАМ6/4/HWT/3/ТАСТ/ СПРW//TAW12399.75/ НОРОС	18.окт	19.ноя	17.янв	09.апр	174	25.май	220
93	КР11-010	17.окт	20.ноя	15.янв	09.апр	175	24.май	220
96	АС 2000-134-2/200/48	18.окт	18.ноя	19.янв	02.апр	167	25.май	220
100	WБЛЛ1*2/КУРУКУ// ҲЕИЛО/ФАРОВОН	18.окт	17.ноя	23.янв	06.апр	171	25.май	220

УКР-ОД 1530.94/АЕ.СҚУАРРОСА(310), 200/48/Хисорак, Д-12 / Бунёдкор Х Бунёдкор каби нав ва тизмалар эртапишар навлар сифатида дурагайлаш ишларига танлаб олинди.

Нав ва тизмаларнинг биометрик кўрсаткичлари аниқланилди. Ўсмилик бўйи, бошоқ узунлиги, бир бошоқдаги бошоқчалар сони каби кўрсаткичлари ҳам аниқланиб ҳосилдорлик ва маҳсулдорлик кўрсаткичларига боғлиқлиги ўрганилди.

Илмий мақолаларда таъкидлашича ўсимлик бўйининг ҳаддан ташқари узун бўлиши ётиб қолишга мойилликни келтириб чиқарада ва ҳосилдорликни кескин пасайиб кетишига олиб келади. Тажрибада ўлчов натижаларига кўра, ўсимлик бўйи 83-135 см узунликда бўлганлиги аниқланди. Калта бўйли нав ва тизмалар сони (80-90 см) 5 тани, ўрта бўйли (91-110 см) 77 тани, узун бўйли 111 смдан юқори бўлган нав ва тизмалар сони 18 тани ташкил этганлиги аниқланди.

Бу тизмаларда ҳосилдорлик кўрсаткичлари бироз паст бўлсада, ташқи муҳитнинг ноқулай омилларига бардошлилик хусусияти юқори эканлиги аниқланган. Бундай тизмаларни маҳаллий шароитда яратилган навлар билан чатиштириб мақсадга мувофиқ абиотик омилларга чидамли, ҳосилдор навлар яратиш мумкин бўлади. Нав ва тизмаларнинг охирги бўғин узунлиги 36-61 смни ташкил қилди. Нав ва тизмаларнинг бошоқ узунлиги кўрсаткичи 8-16 смни ташкил қилган бўлса, бир бошоқдаги бошоқчалар сони 12-23 тани ташкил этганлиги аниқланди. Ушбу

донор нав ва тизмаларнинг дон ҳосилдорлиги аниқланилганда 12,8– 99,2 ц/га ни ташкил этганлиги аниқланди. ЛАНГДОН/ИГ 48042, Турон, Ҳисорак, Ғозғон, Дўстлик, КР11-010/Памят ва Бунёдкор нав ва тизмалари юқори ҳосилдорликни кўрсатди ва донор навлар сифатида фойдаланишга тавсия қилинди.

Ҳозирги кунда юқори ҳосилли навлар яратиш билан бир қаторда унинг дон сифатини ҳам яхшилаш алоҳида вазифалардан бири сифатида қўйилмоқда. Донор навлар кўчатзорида нав ва тизмаларнинг дон сифат кўрсаткичлари баҳоланиб сифати юқори нав ва тизмалар ажратиб олинди.

Юмшоқ буғдойнинг 1000 та дон вазни юқорилиги уруғ сифатини яхшилаш билан бир қаторда дон ҳосилдорлигини оширишдаги муҳим белгилардан бири ҳисобланади. Донор навларни танлаш кўчатзорида нав ва тизмаларнинг 1000 та дон вазни 20,6 – 53 г ни ташкил этди. 1000 та дон вазни 45 г дан юқори бўлган нав ва тизмалар сони 27 та ни ташкил этган бўлса, 40 – 45 г бўлган нав ва тизмалар 40 тани ва ташкил этди.

Дон таркибидаги оқсил ва клейковина миқдори дон сифатини белгиловчи асосий кўрсаткичлардир. Етиштирилган дон сифати 1 – 2 синфга талабларини қондириш учун дон таркибида оқсил миқдори 14 фоиз, клейковина миқдори 28 фоиздан кам бўлмаслиги талаб этилади.

Доннинг технологик сифат кўрсаткичларини аниқлаш лабораториясида дон таркибидаги оқсил миқдори 12,3 – 18,7 фоизни ташкил этган бўлса, клейковина миқдори 20,2 – 31,7 фоиз ни ташкил этганлиги аниқланди. Олинган натижаларга кўра, оқсил миқдори 14 фоиздан юқори бўлган 84 та, клейковина миқдори 28 фоиздан юқори бўлган 56 та нав ва тизмалар борлиги аниқланди ва донор навлар сифатида танлаб олинди.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, дуругайлаш учун донорлар танлаш кўчатзорида эртапишарлик ҳусусиятига кўра, Чиллаки нави билан бир хил кунда пишган 15 та, ҳосилдорлиги 70 ц/га дан юқори бўлган 8 та, дон сифати кучли буғдой талабларига мос 35 та нав ва тизмалар танлаб олинди ва дурагайлаш ишларида фойдаланишга тавсия этилди.

Адабиётлар рўйхати

1.Ahmadi, J.; Pour-Aboughadareh, A.; Ourang, S.F.; Mehrabi, A.A.; Siddique, K.H.M. Wild relatives of wheat: Aegilops–Triticum accessions disclose differential antioxidative and physiological responses to water stress. Acta Physiol. Plant. 2018, 40, 1–14.

2.Arora, S.; Cheema, J.; Poland, J.; Uauy, C.; Chhuneja, P. Genome-Wide Association Mapping of Grain Micronutriyents Concentration in Aegilops tauschii. Front. Plant Sci. **2019**, 10, 54.

3.Balyan, H.S.; Gupta, P.K.; Kumar, S.; Dhariwal, R.; Jaiswal, V.; Tyagi, S.; Agarwal, P.; Gahlaut, V.; Kumari, S. Genetic improvement of grain protein content and other health-related constituents of wheat grain. Plant Breed. **2013**, 132, 446–457.

4.Cronin SJF, Woolf CJ, Weiss G, and Penninger JM (2019), The role of iron regulation in immuno-metabolism and immune-related disease, Front. Mol. Biosci. 6: 116. DOI: org/10.3389/fmolb.2019.00116.

5.Crossa, J.; Pérez-Rodríguez, P.; Cuyevas, J.; Montesinos-López, O.; Jarquín, D.; de los Campos, G.; Burgueño, J.; González-Camacho, J.M.;

Pérez-Elizalde, S.; Beene, Y.; et al. Genomic selection in plant breeding: Methods, models, and perspectives. Trends Plant Sci. 2017, 22, 961–975.

6.De Briyer N, Gomand SV, Donner E et al. (2016) Element distribu-tion and iron speciation in mature wheat grains (Triticum aestivum L.) using synchrotron X-ray fluorescence near-edge struc-ture (XANES) imaging. Plant Cell and Environment 39: 1835–47.

7.Eagling T, Neal AL, McGrath SP et al. (2014a) Distribution and speciation of iron and zinc in grain of two wheat genotypes. Jour-nal of Agricultural and Food Chemistry 62: 708–16.

LAVANDULA ANGUSTIFOLIA EFIR MOYI VA FENOLIK BIRIKMALARINING KIMYOVIY TARKIBI, BIOLOGIK FAOLLIGI HAMDA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARINI KOMPLEKS TADQIQ ETISH

Abdilaxatov Elzod Ergashbayevich
O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Tezisda ingichka bargli lavanda (*Lavandula angustifolia* Mill.) efir moyi va qutbli ekstraktlaridagi fenolik birikmalarning tarkibi hamda biologik va farmakologik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Efir moyida linalool va linalil asetat, fenolik majmuada esa rozmarin, xlorogen va kofe kislotalari hamda flavonoidlar asosiy o'rin tutishi ko'rsatildi. Mahalliy xomashyoni xromatografik usullar asosida standartlashtirish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: *Lavandula angustifolia, efir moyi, linalool, linalil asetat, fenolik kislotalar, flavonoidlar, antioksidant faollik, fitopreparat.*

Kirish

Dorivor o'simlik xomashyosidan olinadigan biologik faol moddalarni chuqur o'rganish zamonaviy farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston sharoitida introduksiya qilinayotgan efir moyli o'simliklar orasida Lavandula angustifolia Mill. nafaqat agrobiologik moslashuvchanligi, balki ko'p komponentli kimyoviy tarkibi bilan ham e'tiborga molik. Mahalliy tadqiqotlarda lavandaning respublika hududlarida o'sishi, gullash biologiyasi va dala sharoitida yetishtirish imkoniyatlari qayd etilgan [4; 5]. Bu holat o'simlikni faqat manzarali yoki parfyumeriya xomashyosi sifatida emas, balki farmatsevtik manba sifatida baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Lavandaning farmakologik qiymati ikki asosiy fitokimyoviy majmua - uchuvchan terpenoidlarga boy efir moyi va qutbli erituvchilar yordamida ajratiladigan fenolik birikmalar bilan belgilanadi. Ularning birinchisi hujayra membranalari bilan faol o'zaro ta'sirlashsa, ikkinchisi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'simlikning ta'sirini bitta komponentga bog'lab qo'yishdan ko'ra, efir moyi va fenolik fraksiyaning birgalikdagi xususiyatlarini baholash ilmiy jihatdan to'g'riroqdir.

Tadqiqotning maqsadi Lavandula angustifolia efir moyi va fenolik birikmalarining kimyoviy tarkibini tizimlashtirish, ushbu tarkib bilan biologik faollik o'rtasidagi bog'lanishni ochib berish hamda mahalliy xomashyo asosida farmakologik mahsulot yaratish istiqbollarini belgilashdan iborat. Ishda farmakognoziya bo'yicha o'zbek tilidagi darsliklar, O'zbekistonda bajarilgan lavandaga oid tadqiqotlar, xalqaro ilmiy maqolalar va Yevropa dori vositalari agentligi monografiyasi qiyosiy-tahliliy usulda o'rganildi. Kimyoviy tahlilning maqbul yo'llari sifatida efir moyi uchun gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriya (GC-MS), fenolik fraksiya uchun yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) hamda umumiy fenollarni spektrofotometrik aniqlash usullari tahlil qilindi [1; 7; 8].

Adabiyot ma'lumotlarining qiyosiy tahlili Lavandula angustifolia efir moyida kislorod saqlovchi monoterpenlar ustunligini ko'rsatdi. Linalool va linalil asetat asosiy marker birikmalar bo'lib, ularga lavandulol, lavandulil asetat, terpinen-4-ol, 1,8-sineol, borneol, β-kariofillen va kamfora hamrohlik qiladi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar keltirgan GC-MS natijasida lavanda turkumiga mansub namunaning efir moyida linalool 28,44 foiz, linalil asetat 17,12 foiz miqdorda aniqlangan [7]. Ushbu ko'rsatkichlar o'simlik turi va navi, vegetatsiya bosqichi, tuproq-iqlim omillari, yig'ish vaqti, quritish rejimi hamda gidrodistillash davomiyligiga qarab o'zgaradi. Demak, farmatsevtik xomashyoni baholashda "lavanda moyi" degan umumiy nomning o'zi yetarli emas; xromatografik profil va marker komponentlarning miqdoriy chegaralari ko'rsatilishi lozim.

Fenolik fraksiya efir moyidan tarkib va ta'sir mexanizmi bilan farq qiladi. Lavanda gullari va yer ustki qismidan olingan suvli yoki suv-spirtli ajratmalarda rozmarin, xlorogen, kofe, ferul va gall kislotalari, shuningdek, luteolin, apigenin va kversetin hosilalari uchrashi ilmiy manbalarda qayd etilgan [3; 8]. Mazkur moddalarning gidroksil guruhlari erkin radikallarga elektron yoki vodorod atomi berib, ularni barqaror shaklga o'tkazadi. Shu sababli fenolik moddalarning umumiy miqdori bilan DPPH, ABTS va FRAP sinovlarida aniqlanadigan antioksidant faollik o'rtasida muayyan bog'liqlik kuzatiladi.

Efir moyining antimikrob ta’siri, avvalo, linalool va boshqa lipofil terpenoidlarning mikroorganizmlar sitoplazmatik membranasiga kirishi, uning o‘tkazuvchanligini o‘zgartirishi va hujayra ichki muvozanatini buzishi bilan izohlanadi. Fenolik kislotalar esa oksidlovchi jarayonlarni cheklashi va ayrim mikrob ferment tizimlariga ta’sir qilishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, lavanda preparatlarining barcha bakteriyalarga bir xil ta’sir ko‘rsatishi haqidagi umumlashtirish ilmiy jihatdan asossiz: faollik shtamm, ekstrakt turi, erituvchi, konsentratsiya va tajriba usuliga bevosita bog‘liq. Shu bois keyingi tajribalarda minimal ingibirlovchi va minimal bakteritsid konsentratsiyalarni standart shtammlarda alohida aniqlash talab qilinadi.

Lavandaning yallig‘lanishga qarshi xususiyati terpenoid va fenolik komponentlarning bir-birini to‘ldiruvchi ta’siri bilan bog‘liq. Linalool, linalil asetat va β-kariofillen yallig‘lanish mediatorlari hosil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatishi, fenolik birikmalar esa reaktiv kislorod shakllarini zararsizlantirishi mumkin. Natijada oksidlovchi stress va yallig‘lanish o‘rtasidagi patologik zanjirning bir necha bo‘g‘iniga bir paytda ta’sir etish ehtimoli yuzaga keladi. Aynan shu ko‘p nishonli xususiyat lavanda asosidagi mahalliy surtma, gel, inhalatsion va aromaterapevtik vositalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘la oladi.

Markaziy asab tizimiga ta’sir masalasida linalool va linalil asetatning o‘rni alohida. Eksperimental ma’lumotlarda lavanda efir moyining glutamatergik signal uzatilishi va serotonin almashinuviga ta’sir qilishi ehtimoli ko‘rsatilgan [9]. Yevropa dori vositalari agentligi lavanda moyidan yengil ruhiy zo‘riqish va uyqu buzilishlarini kamaytirishda an’anaviy foydalanishni tan oladi, biroq klinik dalillarni baholashda preparat shakli, doza va qo‘llash yo‘li bir xil emasligini hisobga olish zarur [10]. Mahalliy adabiyotlarda ham lavandaning tinchlantiruvchi, stressga qarshi va yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga bilvosita ijobiy ta’siri qayd etilgan [6]. Biroq bu ma’lumotlar lavanda moyini yurak kasalliklarini mustaqil davolovchi vosita sifatida talqin qilishga asos bermaydi; u standart davolashni almashtirmaydigan yordamchi fitovosita sifatida baholanishi kerak.

Kompleks tahlil natijasida mahalliy Lavandula angustifolia xomashyosini standartlashtirishning uch bosqichli yondashuvi maqsadga muvofiq deb topildi: birinchidan, xomashyoning botanik haqiqiyligi va namlik, kul, begona aralashmalar kabi farmakognostik ko‘rsatkichlarini aniqlash; ikkinchidan, efir moyining chiqishi va GC-MS profilini, fenolik ajratmaning esa umumiy fenollar miqdori hamda HPLC markerlarini belgilash; uchinchidan, antioksidant, antimikrob va yallig‘lanishga qarshi faollikni standart biologik modellarda solishtirish. Bunday yondashuv kimyoviy tarkibni farmakologik ta’sir bilan bog‘lash va turli hududlarda yetishtirilgan xomashyo sifatini obyektiv qiyoslash imkonini beradi.

Lavandula angustifolia efir moyi va fenolik birikmalari kimyoviy tabiati turlicha, ammo biologik ta’siri o‘zaro to‘ldiruvchi bo‘lgan majmualardir. Linalool va linalil asetat efir moyining asosiy sifat markerlari sifatida antimikrob, yallig‘lanishga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyatlarda ishtirok etadi; rozmarin va boshqa fenolik kislotalar hamda flavonoidlar esa antioksidant himoyani kuchaytiradi. O‘zbekiston sharoitida yetishtirilgan lavanda xomashyosini GC-MS va HPLC asosida kimyoviy pasportlash, so‘ng biologik faollik bilan qiyoslash ilmiy va amaliy jihatdan istiqbollidir. Bu yo‘nalish mahalliy xomashyodan standart tarkibli fitopreparatlar yaratish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turini kengaytirish va ularning xavfsiz qo‘llanish mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmatov H.X., Ahmedov O‘.A. Farmakognoziya. 1-qism: darslik. - Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. - 284 b.

2. Hojimatov Q.H., Yo‘ldoshev K.Y., Shog‘ulomov U.Sh., Hojimatov O.Q. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham (Fitoterapiya). - Toshkent, 1995.

3. Jo‘rayeva M.A. Dorivor o‘simliklar atlasi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2019.

4. Qurbonova M.U., Xo‘janazarov O‘.E. Introduksiya sharoitida lavanda (Lavandula angustifolia Mill.)ning bioekologik xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. - 2023.

5. Yo‘ldoshxo‘jayeva U.X. Dala sharoitida dorivor lavanda (Lavandula angustifolia Mill.) o‘simligini yetishtirish agrotexnikasi // Modern Education and Development. - 2024. - B. 111-118.

6. Obidov U.M., Jalilova S.T. Lavanda (Lavandula angustifolia) o‘simligining yurak-qon tomir kasalliklarida qo‘llanilishi // Universal xalqaro ilmiy jurnal. - 2025. - 2(4.5). - B. 642-644.

TADQIQOTLAR O‘TKAZILGAN DALA TUPROG‘INING MORFOLOGIK BELGILARI

To‘xtayeva Gulshan Po‘lotovna
TDAU mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22002973

Kirish G‘o‘za navlaridan yuqori va sifatli paxta hosilini yetishtirishda sug‘orish tartiblari va oziqa me’yorlarini turli me’yorlarda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar muhim sanaladi. Sug‘oriladigan maydonlarning ma’lum bir qismini egallagan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida g‘o‘za navlarining sug‘orish tartibini oziqlantirish me’yorlariga bog‘liqligi o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib, g‘o‘za yetishtirishda yuqori agrotexnologiyalarni o‘z vaqtida joriy etish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari Tuproq o‘simliklarning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan mineral va organik moddalardan tashkil topgan tabiiy muhit hisoblanadi. Tuproqning unumdorligi va qishloq xo‘jaligida foydalanish imkoniyatini aniqlashda morfologik belgilari hamda fizik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Tuproqning morfologik belgilari uning tashqi ko‘rinishi, qatlamlari, rangi, strukturasi va mexanik tarkibini**,** fizik xususiyatlari esa zichligi, g‘ovakligi, suv va havo rejimi hamda issiqlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarni o‘rganish tuproq unumdorligini baholash, ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish va samarali agrotexnik tadbirlarni belgilash uchun muhimdir.

Tuproqning 0-30 sm chuqurlikdagi ustki qatlami o‘simliklarning ildiz tizimi rivojlanishi, organik moddalarning to‘planishi va biologik jarayonlarning kechishi muhim morfologik qatlam hisoblanadi. Mazkur qatlamning morfologik va fizik xususiyatlarini baholashda uning rangi, strukturaviy holati, agregatlarning shakli va o‘lchami, g‘ovakligi, ildizlarning tarqalishi hamda o‘simlik qoldiqlari mavjud.

0-30 sm qatlam quruq holatda nisbatan zichlashgan ko‘rinishga ega bo‘lib, tuproq rangi och kulrang tusda namoyon bo‘ladi. Qatlamning mexanik tarkibi o‘rtacha qumoq bo‘lib, morfologik jihatdan mayda changsimon va uvalanuvchan agregatlar ustunlik qiladi. Agregatlarning nisbatan yaxshi shakllanganligi tuproq zarrachalarining bir-biri bilan bog‘langanligini va ular orasida ma’lum darajada g‘ovaklar tizimi mavjud. 0-30 sm qatlamda yirik agregatlar oralig‘ida va agregatlarning ichki qismida g‘ovaklarning mavjudligi kuzatildi. 0-30 sm qatlamda g‘o‘za va begona o‘tlarning ildiz qoldiqlari uchrashi mazkur qatlamda biologik jarayonlarning faol kechayotganligi kuzatildi. Ildiz qoldiqlarining parchalanishi natijasida tuproqqa organik moddalar tushadi va ular mikrobiologik jarayonlar ta’sirida o‘zgarib, tuproq organik moddasi zaxirasining shakllanishida ishtirok etadi. Organik modda tuproq agregatlarining barqarorligini oshirish, hajmiy zichlikni kamaytirish, suvni ushlab turish qobiliyatini yaxshilash va oziqa elementlarining aylanishida muhim rol o‘ynaydi.

Tuproqning 30-50 sm chuqurlikdan pastki qatlamlarida gumus miqdorining me’yoridan pastligi tuproq unumdorligining pasayganligini ko‘rsatadi. Gumus tuproqning asosiy organik tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘simliklar uchun oziqa elementlarining manbai, tuproq strukturasini shakllantiruvchi hamda namlikni ushlab turuvchi muhim omil hisoblanadi. Uning kamayishi tuproqning biologik faolligi va oziqa elementlarini saqlash qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

30-50 sm chuqurlikdagi tuproq qatlamining kulrang tusga ega bo‘lishi tuproqning morfologik xususiyatlarini ifodalaydi. Rangning shakllanishida organik moddalar miqdori, mineral tarkib, namlik sharoiti va oksidlanish-qaytarilish jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Tuproqning o‘rtacha qumoq mexanik tarkibi qum, chang va loy fraksiyalarining nisbatan muvozanatli nisbatini anglatadi. Bunday tuproqlar, suv va oziqa elementlarini ushlab turish hamda o‘simlik ildizlarining rivojlanishi uchun nisbatan qulay fizik xususiyatlarga ega. Ushbu qatlamning sezilarli darajada zichlashganligi uning fizik holati noqulay ekanini ko‘rsatadi. Zichlashish natijasida tuproq g‘ovakligi kamayadi, havo almashinuvi yomonlashadi, suvning infiltratsiyasi va ildizlarning tuproq qatlamlariga kirib borishi qiyinlashadi.

30-50 sm tuproqda g‘o‘za va begona o‘tlarning ildiz qoldiqlarining uchrashi ushbu qatlamda o‘simlik ildiz tizimining rivojlanganligini va organik qoldiqlar to‘planishini ko‘rsatdi. Ushbu qoldiqlar parchalanishi natijasida tuproqqa organik modda qaytadi va gumus hosil bo‘lish jarayoniga hissa qo‘shadi. Shu sababli o‘simlik qoldiqlarini saqlash va ularning tuproqqa qaytarilishi tuproq unumdorligini

tiklashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tuproq qatlamida karbonatli yoki gipsli dog‘lar esa tuproqning karbonat yoki gips to‘planadigan qatlamlari bilan bog‘liq.

Tuproqning 50-100 sm chuqurlikdagi qatlamida ildiz qoldiqlarining miqdori yuqori qatlamlarga nisbatan sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Bu holat, avvalo, tuproq profilida organik moddalarning vertikal taqsimlanishi hamda o‘simlik ildiz tizimining asosiy qismi yuqoriroq qatlamlarda joylashishi bilan izohlanadi. Chuqurlik ortishi bilan tuproqqa yangi organik qoldiqlarning tushishi kamayadi, natijada ildiz qoldiqlari va boshqa organik komponentlarning miqdori ham pasayib boradi. Shu sababli ushbu qatlamda tuproq rangi yuqori gorizontlarga nisbatan ochroq, kulrang-qo‘ng‘ir tusda namoyon bo‘ladi.

50-100 sm chuqurlikdagi qatlamning granulometrik tarkibida o‘rta qum fraksiyasi va mayda agregatlarning uchrashi tuproqning suv-fizik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 50-100 sm qatlamda karbonat dog‘lari kuzatildi. Bunday karbonatli to‘planishlar, ayniqsa, quruq va yarim quruq iqlim sharoitida tuproq hosil bo‘lish jarayonlarining muhim morfologik belgilaridan hisoblanadi.

Xulosa 0-30 sm qatlamning o‘rtacha qumoq mexanik tarkibga ega bo‘lishi, agregatlarning mavjudligi, g‘ovaklar tizimining shakllanganligi hamda o‘simlik ildiz qoldiqlarining uchrashi ushbu qatlamning fizik-biologik faol qatlam sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatdi.

30-50 sm dan pastki tuproq qatlamining holati gumus miqdorining pastligi, zichlashishning kuchayganligi va namlikning yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

50-100 sm qatlamning kulrang-qo‘ng‘ir rangi, ildiz qoldiqlarining kamayishi, o‘rta qum va mayda agregatlarning mavjudligi hamda karbonat dog‘lari va organik moddalarning kamayishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nurmatov Sh, Mirzajonov Q, Avliyoqulov A, Bezborodov G. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Uslubiy qo‘llanma, O‘zPITIda nashrga tayyorlandi va chop etildi, O‘zPITI. 2007., B-63.
2. Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (PSUEAITI). “Buxoro viloyati tuproq iqlim sharoitida g‘o‘za navlaridan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha” tavsiyalar, Toshkent, 2019., 13-20-B.
3. Namozov F, Tog‘aev S, Tog‘aev Sh. Porloq-1 g‘o‘za navining sug‘orish tartiblari va ko‘chat qalinliklariga bog‘liq holda oziqa moddalarga talabi. // Agro ilm. Toshkent, 2019., №3. B-19-20.
4. Rajabov N.Q. G‘o‘zadan yuqori hosil olish agrotexnologiyasi. Monografiya. Toshkent, 2019., B-12-20.

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA TALABALAR KASBIY MOBILLIGINI TA’MINLASHDA KOPING MOSLASHUVCHANLIGINING PSIXOLOGIK FUNKSIYALARI

Eshnayev N.J.
Fanning predmeti "Chet tili" - bu nafaqat til birliklarining (fonetik, morfemik, leksik, morfologik va sintaktik darajalar), balki og'zaki ravishda namoyon bo'ladigan paralingvistik tartibdagi hodisalarning (an'analar va odob-axloq, tushunchalar va voqeliklar, ya'ni hamma narsa) ochiq va doimiy ravishda kengayib borayotgan tizimidir. O‘rganilayotgan til mamlakatlari ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti sohalarini bildiradi). Bunday hajmdagi ma'lumotlarni samarali o'zlashtirish "Chet tili" fanining lingvistik va madaniy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan materialni o'rganish va o'zlashtirish bo'yicha shaxsning uzoq muddatli, umrbod va shuning uchun asosan mustaqil ishlashini nazarda tutmaydi.. "O'z-o'zini tarbiyalash" tushunchasi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi va u bilan birga kechayotgan globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy faol shaxs nafaqat o'zining bevosita mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirish nuqtai nazaridan, balki u yoki bu darajada kundalik va kasbiy faoliyatiga integratsiyalashgan turli xil fanlar va texnologiyalar bilan bog'liq holda zamon bilan hamnafas bo'lish zarurligini tushunadi.

“Chet tili” fanining yangilangan ish dasturlarida talabalarning darsdan tashqari mustaqil ishlari uchun katta hajmdagi akademik soatlar ajratilgan. Ta'riflarning o'zi allaqachon mustaqil va darsdan tashqari talaba o'quv jarayonining sub'ekti sifatida faol bo'ladigan va o'qituvchi funktsiyalarining bir qismini (xususan, rejalashtirish, tashkil etish, baholash) o'z zimmasiga oladigan ta'lim faoliyatining ushbu turi uchun sharoitlarni ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'qituvchi ta'lim faoliyatini umumiy strategik tashkil etish va uni pedagogik ta'minlashni amalga oshiradi. Ta’limda o’quv tili portfeli talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning istiqbolli texnologiyasi bo'lib tuyuladi.

Til pasport uslubi va tuzilishiga ko'ra rasmiy hujjatlar to'plamiga o'xshaydi. Portfelning ushbu komponenti pasport egasi u yoki bu darajada gapiradigan tillar ro'yxatini, turli vaqtlarda ko'rsatilgan tillarning har birida rivojlangan ko'nikma va ko'nikmalarni o'z-o'zini baholash natijalarini o'z ichiga oladi.

Til biografiyasi bu kundalikning o'ziga xos turi bo'lib, unda uning egasi chet tilini o'qitishning butun jarayoni tarixini erkin tasvirlab beradi: motivatsiyalar, shartlar, o'quv qo'llanmalari, o'quv ishidagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar, shakllangan chet tili kompetensiyalarini amalda qo'llash tajribasi.

Til dosyesi chet tili bo'yicha olingan bilim va rivojlangan ko'nikmalardan uning egasi tomonidan amaliy foydalanish namunalari to'plamidir. Bunday misollar chet tilidan foydalangan holda yaratilgan avtobiografiyalar, hisobotlar, PowerPoint taqdimotlari va boshqalar bo'lishi mumkin - portfel egasi saqlamoqchi bo'lgan hamma narsani (avval o'qituvchiga, keyin esa potentsial ish beruvchiga) shaxsiy

yutug'i sifatida ko'rsatish. Taxminlarga ko'ra, ma'lumotlarning mazmuni uning egasi tomonidan doimiy ravishda yangilanib turadi, chunki uning chet tilini bilishi yaxshilanadi.

Ta'limda o‘quv tili portfelining asosiy g'oyalaridan biri bu uning egasining chet tilini o'qitish jarayonida erishgan muvaffaqiyatlari va yutuqlarini ma'lum mezonlar asosida qayd etish va namoyish etish imkoniyatidir. Talaba o‘z portfeliga o‘rganilayotgan til bo‘yicha o‘zining eng yaxshi asarlarini, ishlab chiqilayotgan chet tili loyihalari materiallarini, shuningdek, “Chet tili” fanini o‘zlashtirishda erishgan yutuqlarini tasdiqlovchi diplom va boshqa rasmiy hujjatlarni tanlab oladi va o‘z portfeliga kiritadi.

Shu jumladan til portfelining tuzilishi shaklga o'z-o'zini baholash shkalasini kiritishni o'z ichiga oladi.

1. Chet tili bo'yicha o'quv ma'lumotlari (grammatika, fonetika, lug'at va boshqalar bo'yicha eslatmalar) to'plami bo'lgan "Kollektor" joriy Internet manbalariga havolalar, lingvistik, ijtimoiy-madaniy va kasbiy mavzulardagi haqiqiy matnlar.
2. Talabaning asosiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mustaqil ishiga misollar ko'rinishidagi "ishchi materiallar": fonetika, grammatika, lug'at bo'yicha bajarilgan mashqlar (shu jumladan kasbiy terminologiyadan foydalanish bo'yicha vazifalar), haqiqiy ijtimoiy-madaniy va kasbiy yo'naltirilgan parchalarning yozma tarjimalari va badiiy matnlar.

– portfelga ma'lumotlarni matnlar, grafikalar, audio va videolar ko'rinishidagi keng formatdagi va ularning turli kombinatsiyalarida kiritish;

– to‘plangan ma’lumotlar asosida o‘z ishlaringizni (ma’ruza va taqdimotlaringizni) yaratish, ularni zaruratga qarab to‘g‘rilash va to‘ldirish, auditoriyada ko‘rsatish va internet platformalariga joylashtirish;

Bundan tashqari asosiy papka – “Mening portfelim” (o‘rganilayotgan chet tilini ko‘rsatgan holda) – birinchi darajali bo‘ysunuvchi papkalarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlar banki (chet tilidagi material to‘plangan), “Mening chet tilidagi material bilan ishim” va “Mening dosyem” (o‘z ichiga olgan papka) va fayllar "Mening tarjimai holim", "To'ldirilgan anketalar va o'z-o'zini baholash shkalasi", "Chet tili" fanidan mening diplom va sertifikatlarim"). Xulosa qilib aytib o‘tish joizki, talabalarning o‘z ta’lim faoliyat natijalarini ob’ektiv o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini egallashiga samarali yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Luferov D. Til portfeli “Chet tili” fanini o‘rganayotgan talabalarning tashkil etish texnologiyasi sifatida.// Moskva davlat mintaqaviy universitetining xabarnomasi. Seriya: Pedagogika. 2017. N 4 P..DOI: 10.18384/2310-7219-2017-4.152-163
2. Azimov E.G., Shchukin A.N. Uslubiy atama va tushunchalarning yangi lug'ati (tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti): ilmiy metod. M., 2010. 448 b.
3. Koryakovtseva N.F. Chet tilini o'rganuvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari: o'qituvchilar uchun qo'llanma. M., 2002. 173 b.
4. Koryakovtseva N.F. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va samarali ta'lim texnologiyalari: darslik. M., 2010. 192 b.
5. Sirina T.A. Portfolio texnologiyasi “Chet tili” fani doirasida nolingvistik universitetlar talabalarini baholashning innovatsion vositasi sifatida. XXI asr intellekti: fan va ta’limni rivojlantirish muammolari va istiqbollari: To‘plam: ilmiy-amaliy konferensiyalari va kasbiy pedagogik kurslar materiallari. (kirish sanasi: 10/08/2017).

PEDAGOGIK OLIY TA’LIMDA "TASVIRIY FAOLIYATGA O‘RGATISH" MODULINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI

Boliyeva Lola Shukurovna
Lecturer, Department of Pedagogy Preschool Education,
Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, 111700, Uzbekistan
e-mail: boliyevalola1974@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-0939-5877

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik oliy ta’limda "tasviriy faoliyatga o‘rgatish" modulini steam yondashuvi asosida o‘qitishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqot ishida tasviriy faoliyatga o‘rgatish orqali talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish, tasviriy faoliyatga o‘rgatish modulini o‘qitishda STEAM-integratsiyalashgan ta’lim vositasi sifatida, talabalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning metodik tizimi ishlab chiqilgan. STEAM yondashuvi asosida “Tasviriy faoliyatga o‘rgatish” modulining didaktik imkoniyatlari belgilanib, uning pedagogik modeli amaliyotga joriy etilgan. Ishlab chiqilgan metodik tizim fanlarni talqin qilish va adabiy asarlarni tahlil qilishga qaratilgan art-laboratoriya tarkibiga fanlarni integratsiyalash asosida takomillashtirilgan. Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali metod va texnologiyalari integrativ fikrlash, texnologik kreativlik va didaktik moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi yondashuvlarni amaliy qo‘llashga yo‘naltirish asosida modernizatsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: Art-injiniring, art-laboratoriya, eksperimental rangshunoslik, konstruktiv plastika, dizayn-fikrlash, integrativ imkoniyatlar.

Bugungi kunda ta’lim sohasida ko‘plab innovatsiyalar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Ularning ayrimlari ijobiy samara bermoqda, boshqalari esa kutilgan natijani bermayapti. Ayniqsa, tasviriy san’at ta’limi ham hozirgi kunda yechim talab qiladigan ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Shulardan biri — ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish masalasidir. O‘qituvchilarning tegishli o‘qitish strategiyalari, metodlari va faoliyat turlaridan foydalanishi o‘quvchilar ijodkorligini umumiy jihatdan ham, tasviriy san’at sohasida ham oshirishga xizmat qiladigan muhim omil sifatida qaraladi.

Zamonaviy ta’limda bilimlarni ijodiy usullar orqali o‘rganish ularni faqat tayyor ma’lumot sifatida qabul qilishga qaraganda yanada samaraliroq va iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo‘lishi mumkin. Ijodkorlik original g‘oyalar yaratish, muammolarga boshqacha nuqtai nazardan qarash yoki ularni hal qilishning yangi usullarini topish sifatida talqin qilinadi. Ijodkorlik noma’lum tomonga muvaffaqiyatli qadam qo‘yish, odatiy yo‘ldan chetga chiqish, qolipdan chiqish, yangi tajribalarga ochiq bo‘lish, bir g‘oyadan boshqasini keltirib chiqarish, qayta birlashtirish yoki ular o‘rtasidagi yangi bog‘lanishlarni ko‘ra olish qobiliyati sifatida ham izohlanadi. Ijodkorlik haqida so‘z yuritilganda qiziqish (qiziquvchanlik), tasavvur, kashfiyot, innovatsiya va ixtiro kabi tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi. Agar ijodkorlik mahsulot sifatida talqin qilinsa, u holda jarayon natijalari ixtiro, ilmiy nazariya, takomillashtirilgan mahsulot, adabiy asar, musiqiy kompozitsiya, yangi dizayn va shunga o‘xshash shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu qarash shundan kelib chiqqanki, fantaziya faoliyati ustidan olib borilgan ko‘plab kuzatishlar ana shunday xulosaga kelishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Biroq faqat 1980-yillarga kelibgina tizimli va taqsimlangan ijodkorlik konsepsiyalari keng tarqala boshladi. Inson miyasi avvalgi tajribani saqlab qoluvchi va uni qayta tiklashni osonlashtiruvchi organ ekanligi ayon bo‘ladi. Biroq agar miya faoliyati faqatgina o‘tmish tajribasini saqlash bilangina cheklanganida edi, inson asosan odatlangan, barqaror muhit sharoitlariga moslasha oladigan mavjudot bo‘lib qolgan bo‘lardi.

L.Vigotskiyning fikricha, miyaning kombinatsiyalash qobiliyatiga asoslangan ushbu ijodiy faoliyatni psixologiya fanida tasavvur yoki fantaziya deb ataladi. Odatda kundalik hayotda tasavvur yoki fantaziya deganda haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, real bo‘lmagan va amaliy jihatdan jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmagan narsalar tushuniladi. Ammo ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, tasavvur-har qanday ijodiy faoliyatning asosi bo‘lib, u madaniy hayotning barcha jabhalarida birdek namoyon bo‘ladi va badiiy, ilmiy hamda texnik ijodkorlikni paydo qiladi [1]. Ijodiy tasavvur faoliyati nihoyatda murakkab bo‘lib, turli-tuman omillarning butun bir majmuasiga bog‘liq. Shuning uchun ham shaxs rivojlanishining har bir

bosqichida ijodiy tasavvur o‘ziga xos tarzda ishlaydi va u aynan bola turgan rivojlanish pog‘onasiga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

N.Vershininaning izlanishlarida tasviriy faoliyatni ham psixologik, ham pedagogik jihatdan asoslashda empirik ma’lumotlar ustuvor ekanligi asoslangan. Biroq ta’lim oluvchini tasviriy faoliyatga jalb etishga oid kuzatishlar, tayyor qoidalar, maslahatlar va tavsiyalar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni birlashtiruvchi yagona nuqtai nazar mavjud emas edi. Bu ma’lumotlar asosida mukammal nazariy tuzilmalarni yaratish imkoni bo‘lmagan. Shu sababli tasviriy faoliyatga o‘rgatish uchun metodologik asoslarni izlash zarurati tug‘ildi.

A.Bespalko tasviriy san’at vositalari orqali estetik tarbiyalash nazariyasi va amaliyotining evolyusiyasi, rasm chizish, loydan narsa yasash, applikatsiyaga o‘rgatish metodikasiga oid asosiy ilmiy ma’lumotlarni jamlagan. Bular esa maktabgacha pedagogika tarixi bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va xrestomatiyalarda jamlangan [68].

R.Kazakova va N.Sakulina ishlarida rasm chizish, loydan yasash, applikatsiya va konstruksiyalashga o‘qitish mahsuldor (produktiv) faoliyatni shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan. Badiiy rivojlanishda tasviriy faoliyat turlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslab bergan [2]. Darhaqiqat Tadqiqot ishimizda tasviriy faoliyatga o‘rgatishda fanlararo integratsiya muammosini xal etish ko‘zda tutilgan. STEAM yondashuvi, ifodaviy vositalardan foydalanish, tasviriy faoliyatning talabalarda badiiy did va estetik idrokni shakllantirishdagi ahamiyatini oshiradi.

T.Komarova rasm chizish texnikasini o‘rgatish orqali ta’lim oluvchilarni ijod olamiga olib kirish, ularning erkin ijod qilishiga sharoit yaratish zarurligini ta’kidlagan [3].

A.Bikovskaya esa, san’atdagi texnika tushunchasiga badiiy asarni bajarish ko‘nikmalari, usullari, uslublari, shuningdek, ko‘z o‘lchami va qo‘l motorikasini rivojlantirishni kiritadi. Bu jihat talabalarning har tomonlama rivojlanishining muhim omilidir, chunki bu ko‘nikmalar nafaqat rasm chizish metodikasini o‘zlashtirishga, balki universal xarakterga ega bo‘lib, kasbga tayyorgarlik uchun asos yaratadi.

Amerikalik pedagog L.Tedd ham rasm chizish texnikasini o‘zlashtirish nafaqat tasvirni yetkazish, balki ko‘plab faoliyat turlari uchun zarur bo‘lgan umumiy qo‘l mahoratini shakllantirish uchun ham zarurligini ta’kidlagan. U qo‘lning rasm chizish harakatlarini rivojlantirish tizimida geometrik shakllarni chizishga emas, balki tabiat elementlarini chizishga tayanishni tavsiya qiladi, bu bir vaqtning o‘zida muvofiqlashtirish, harakatlarning silliqligini, ko‘z o‘lchamini, kuzatish qobiliyati va estetik hislarni rivojlantiradi [4]. Psixolog olimlarning tadqiqotlarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni juda erta yoshdan, ya’ni bolalar miyasining eng yuqori plastiklikka ega bo‘lgan davridan boshlash zarurligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bolaga xos bo‘lgan qiziquvchanlik va atrof-muhitni bilishga bo‘lgan intilish tufayli maktabgacha yosh davri ijodiy qobiliyatlar va tasavvurni rivojlantirish uchun eng maqbul vaqt ekanligini ta’kidlaydilar.

Rasm chizish jarayonida bolalar nafaqat ko‘rgan narsalarini tasvirlaydilar, balki o‘z tasavvurlarini ham faol namoyon etadilar; bu yesa ularning abstrakt fikrlashi va fazoviy tasavvurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan talabalarni oliy ta’lim jarayonida tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi bilan qurollantirish, bu borada STEAM texnologiyasidan foydalanish taqozo etiladi. Badiiy ijod jarayonida talabalarning aqliy qobiliyatlari shakllanadi, xotirasi mustahkamlanadi hamda qo‘l motorikasi rivojlanadi. Ular rasm chizishning qiziqarli va ijodiy tashkil etish malakasini egallaydi. Kelgusi pedagogik faoliyatida bolalarni ongli ravishda fikrlashga, tushunishga, solishtirishga va tasvirlangan obektlarni atrof-muhit bilan uyg‘unlashtirishga o‘rgatadi. Bu esa ularning tahlil qilish, tasavvur etish va fantaziya qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ijodiy faoliyatning mohiyati tashqi harakat emas, balki ichki yaratish akti-ijodiy jarayondir. Agar talabalar o‘z tajribalariga tayangan holda ijodiy jarayonlarining ham ijobiy, ham muvaffaqiyatsiz natijalarini chuqur tahlil qilsalar, ularning ijodiy faoliyati yanada samarali bo‘ladi. Ijodiy jarayonni muntazam tahlil qilish talabalarga ijodiy faoliyatning eng yuqori bosqichi-ijodkorlik darajasiga yetish imkonini beradi.

“Tasviriy faoliyatga o‘rgatish” o‘quv modulini o‘qitishda ijodiy faoliyat uchun ko‘p imkoniyatlar yaratish quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin (Qarang: 2.3-rasm).



2.3-rasm. Ijodiy faoliyat uchun usullar

Tahlilar asosida ijodkorlikka **mualliflik ta’rifini** keltiramiz: “**ijodkorlik**- bu qaysi soha yoki fanga taalluqli bo‘lishidan qat’i nazar, qimmatli va original g‘oyalarni yaratish hamda ularni amalda qo‘llash jarayonidir. Bu jarayon muayyan bir sohagina bilan cheklanmaydi.” Ijodkorlik badiiy ifoda, ixtirochilik, matematika, muhandislik, tabiiy, ijtimoiy va biologik fanlar kabi turli sohalarda namoyon bo‘ladi”.

Integratsiya pedagogikaga mustaqil ilmiy tushuncha va didaktikaning muhim kategoriyasi sifatida XX asr 80-yillarining boshida kirib keldi. Dastlab pedagoglar bu tushunchaga falsafiy jihatdan yondashib, uni dunyoni anglashda yaxlitlikni ta'minlovchi yagona dunyoqarash sifatida talqin qildilar. Fanlarning dastlabki integratsiyalashuv davri fanlar o‘rtasida «ko‘priklar» hosil bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon didaktikada umumiy fanlar turkumi doirasida alohida fanlar o‘rtasidagi aloqalarni ishlab chiqishda o‘z aksini topadi. Keyinchalik, ta'lim mazmuni tizimi elementlari o‘rtasida integrativ aloqalarni o‘rnatish zarurligi haqidagi fikr u yoki bu davrning etakchi olimlari tomonidan doimiy ravishda ta'kidlab kelingan.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun) so‘zidan olingan bo`lib, ta'lim jarayonida bu ma'no alohida fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni ma`nosida qo'llaniladi. Bu o'zaro ta'sir, o'zaro ifodalash va o'zaro amalga oshirish jarayonida, ya'ni voqelikni tabaqalashtirilgan ko'rishdan yaxlit ko'rinishga o'tish jarayonida sodir bo'ladi. Integratsiya qilinishi kerak bo‘lgan fanlar soni bo‘yicha bahslarga qaramay, STEM mashg‘ulotlari talabalarni murakkab loyihalarga jalb etadi. Bu loyihalar bir vaqtning o‘zida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashni talab qiladi, bu esa talabalarning kelajakdagi kundalik hayotida o‘z qobiliyatlaridan foydalanish tarziga juda yaqindir. Integratsiya asosan san'at turlari o‘rtasidagi tuzilma yoki mazmundagi o‘xshashliklarni tan olish darajasida qolib, AQShdagi Milliy asosiy san'at standartlarida ko‘zda tutilganidek, o‘quv maqsadlarini chuqur integratsiyalash darajasiga etmagan. Haqiqiy integratsiya davri XIX asr oxiridan hozirgacha davom etmoqda.

Leonardo da Vinchi san'at va fanni, estetika va muhandislikni birlashtirib, insoniyat bilimlari oqimini o‘zgartirib yubordi; kelgusi avlod ijodkor STEM mutaxassislari uchun aynan shunday polimatik (ko‘p qirrali) fanlar uyg‘unligi zarur [5]. Integratsiyalashgan STEAM ta'limining nazariy asoslari sezilarli darajada ilgarilagan bo‘lsa-da, ilmiy bilimlar ishlab chiqarish tabiatini tushunish uchun dolzarb bo‘lishiga qaramay, ayniqsa, epistemologik (bilish nazariyasi) nuqtai nazardan hali ham kamchiliklar mavjud.

Integratsiyalashgan STEAM ta'limi o‘zidan oldingi STEM yondashuviga qaraganda yaxlidroq va muvozanatliroq yondashuv ekanligi ta'kidlanadi. STEM ta'limidan kelib chiqqan. Biroq, XXI asr davomida muammolarni hal qilish faqat STEM fanlari bilan cheklanib qolmasligi ayon bo‘ldi. Shu bosqichda, STEAM ta'limi san'at va gumanitar fanlarni o‘ziga singdirish, fanlararo hamkorlikni

rag‘batlantirish va talabalarga muammolar hamda ularning yechimlari haqida yaxlidroq tushuncha berish orqali STEM yondashuvini kengaytirdi.

D.Dyui ijtimoiy tuzilmalar misolida ishlab chiqilgan metod va ma'nolar boshqa sohalarning bazaviy elementlariga qanday ta'sir qilishini ko‘rsatib bergan. Bu konsepsiya sof bilimga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan ta'lim uchun juda muhimdir. Olimning iborasi bilan aytganda, talabalar funksional savodxonlikka erishishlari lozim. D.Dyui nazariyasidagi yana bir muhim tamoyil - mashhur “bajarish orqali o‘rganish” (learning by doing) hisoblanadi. U o‘rganishni tadqiqot bilan qiyoslaydi, bu esa o‘z navbatida talabani tanqidiy fikrlashga undaydigan tajribaga aylanadi. Bu STEAM ta'limi sari tashlangan ilk qadamlardir.

STEM qisqartmasi ilk bor 2001-yilda NSF (Milliy fan jamg‘armasi)ning Ta'lim va inson resurslari bo‘limi sobiq direktori J.A. Ramali tomonidan fan, texnologiya, muhandislik va matematika o‘quv dasturiga nisbatan ishlatilgan. NSF STEM sohalarini keng ta'riflaydi: u nafaqat matematika, tabiiy fanlar, muhandislik va kompyuter fanlarini, balki psixologiya, iqtisodiyot, sosiologiya va siyosashunoslik kabi ijtimoiy va xulq-atvor fanlarini ham o‘z ichiga oladi. O‘shandan beri STEM atamasi ta'lim islohoti va AQShning global raqobatbardoshligini tiklashning muhim omili sifatida milliy va mahalliy darajadagi ko‘plab dasturlar tomonidan qabul qilindi. San'at STEAMda nafaqat akademik natijalarni yaxshilash vositasi, balki muammolarni hal qilishning o‘ziga xos yo‘li sifatida ham ko‘riladi. Uning ichki va chuqur qiymati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Emotsional jalb qilinganlik. Talabaning darsga mehr qo‘yishi.
2. Yangicha nigoh. Ob'ekt va hodisalarga yangicha nuqtai nazar bilan qarash.
3. Hayrat va kashfiyot. G‘oya va materiallar bilan erkin eksperiment qilish [6]

Tajriba-sinov davrida ikkinchi bosqich talabalariga “Tasviriy faoliyatga o`rgatish metodikasi” o`quv modulini o`qitish jarayonida STEAM texnologiyasi asosida mashg`ulotlar tashkil etildi.

Talabalar predmetning shakli va tuzilishini tasvirlashga, ularning qismlarini o'zaro proportsiyalashni ko'rsatib berishga, harakat natijasida ulardagi o'zgartishlarga o'rgatiladi. Ular tasvirini obrazli, yorqin qiladigan ba’zi bir xarakterli detallarni tasvirlashga yo‘naltiriladi. Predmetning rangi, uning mazmuni va obraz xarakterini o'zaro birlashtirish zarur. Bo'yoq, rangli qalam va boshqa materiallar bilan chizishda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Tajriba-sinov davrida ikkinchi bosqich talabalariga “Tasviriy faoliyatga o`rgatish metodikasi” o`quv modulini o`qitish jarayonida STEAM texnologiyasi asosida mashg`ulotlar tashkil etildi.

Mavzu: Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarni rasm chizishga o‘rgatish mavzusi *Storytelling* texnologiyasi asosida joriy etildi.

Maqsad: Talabalarga “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi asosida “Ko‘chmanchi qushlar” hafta mavzusi bo`yicha mashg`ulot ishlanmasi va ko`rgazmalarini tayyorlashni STEAM yondoshuvi asosida o`rgatish.

Kerakli jihozlar: Turli formatdagi rasm chizish uchun qog‘ozlar, karton, qaychi, guash, rangli bo‘yoqlar, akvarel, tarqatma materiallar.

Darsning borishi.


1-qadam. *Storytelling (Kirish va motivatsiyion qism).*O‘qituvchi talabalarga: Siz o`zingizni mahoratli tarbiyachi kabi his etgan holda tarbiyalanuvchi bolajonlaringizga rasm chizishni a`lo darajada o`rgatish uchun mashg`ulotingizni qanday tashkil etgan bo`lardingiz? Degan savol bilan murojaat qiladi.

2-qadam. Talabalar beshta kichik guruhlarga bo‘linadi. O`qituvchi talabalarga mashg`ulotning texnologik xaritasini tarqatadi (2-ilova). Topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini tushuntiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o‘rgatishning metodik bosqichlari hamda tasviriy faoliyatning o‘ziga xos pedagogik jihatlari haqida savol-javob o`tkazadi.

Har bir guruhga STEAM texnologiyasi asosida quyidagi topshiriqlarni bajarish taklif etiladi:

1-bosqich. *Science.. (**Vizuallashtirish sketching)*** O`qituvchi talabalarga qushlarning xomaki tasvirini shakli va tuzilishini tasvirlashni bosqichma-bosqich tarzda ularni qismlarga ajratib tasvirlashni ko‘rsatib beradi. Qarg`a tasvirini bo`yashda ranglardan foydalanishni va uning ilmiy asosini o`rgatadi. Ranglar spektri haqida fizika faniga oid tushunchalarni shakllantiradi. Och va to`q ranglarni qanday hosil

qilishni o`rgatadi. Asosiy ranglar asosida boshqa ranglarni keltirib chiqarishni qanday amalga oshirishni o`rganadi.





Tabiatda yorug`likni yutish va qaytarish xossasiga ko`ra ikki xil ranglar mavjud bo`lib, ular axromatik va xromatik ranglarga ajratiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang, qora ranglar kiradi. Xromatik ranglarga qizil, zangori, sariq, binafsha, zarg`aldoq va h.k. Asosan uchta rang mavjud, zangori, sariq, qizil.Shu ranglarni bir-biriga qo`shish orqali boshqa ranglar hosil qilinadi. Talabalar ushbu ma`lumotni amalda sinab ko`radilar ranglarni o`zaro aralashtirib boshqa ranglarni hosil qiladilar.

2-bosqich. *Technology*. (*Skeching)*Talabalar taumotrop uchun shablon tayyorlaydilar. Rasm chizishni osonlashtirish va bu jarayon bolalar uchun qiziqarli bo`lishi uchun turli material va jihozlardan foydalanib noan`anaviy usullarda (art-pedagogik) rasm chizish texnologiyalarini o`rganadilar va mashg`ulot jarayonida qo`llashni bilib oladi. Qog`ozdan qirqilgan dumaloq shakl ichiga mini rasmlar chizadilar.

Bolalarga rasm chizish jarayonida yanada ijodkorliklari va qiziqishlarini oshirish uchun animatsiyaning eng sodda namunasi bo`lgan -Taumatrop yasashni o`rgatadilar

3-bosqich. *Engineering.* Asosi kartondan yasalgan, ikki yoqlama tasvir chizilgan qog`oz shablon hamda aylantirish uchun arqonchadan iborat qurilma- Taumatropni namuna asosida yasaydilar. Yasalish bosqichlarini o`qituvchi tushuntiradi, talabalar bajaradilar. Taumatrop arqonchasi aylantirilganda bolalar uchun qiziqarli optik illyuziali tasvir hosil bo`ladi. Talabalar taumatrop shablonlarini yaratadilar.





4-bosqich. ***Art.*** *(Dizayn-fikrlash)* Talabalar taumotrop yasash uchun turli shablonlar ichiga tasvirlar chizish jarayonida akvarel bo‘yog‘i, guash, rangli qalam va boshqa materiallar bilan bo`yashni amalga oshiradi.


5-bosqich. *Mathematics.* Talabalar chizilgan qarg‘a rasmini simmetriyasi va fazoviy joylashuvini bilishi zarur. Tasvirda ishlatilgan geometrik shakllar haqida munozara yuritadilar.

(*Tizimli tahlil*).Har bir guruh o`z a`zolari bilan hamkorlikda yaratgan mashg`ulot ishlanmasini bosqichma-bosqich ishlab chiqadilar. Mashg`ulot jarayonida qaysi rasm chizish usullari bolalar uchun metodik jihatdan foydali, qiziqarli va kreativ bol`ganligini tahlil qiladi.

3-qadam. Kichik guruhlardan bir nafar talaba mashg’ulot so’ngida tayyorlagan rasmlar va tarqatmalarni taqdim etadi. O’qituvchi talabalarning ishlarini baholaydi.

4-qadam. Uyga vazifa. “Ilk qadam” dasturidagi mavzu bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasi tayyorlash.

Tajriba-sinov davrida STEAM yondashuvi asosida tasviriy faoliyatga o‘rgatishning metodik tizimi takomillashtirildi (Qarang: 2.9-rasm). Bunda mutaxassislik fanlarni interpretatsiya qilish, adabiy asarlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan Art-laboratoriya negizida ta'limiy faoliyat tashkil etildi.



2.9-rasm. STEAM yondashuvi asosida tasviriy faoliyatga o‘rgatishning metodik tizimi

Ushbu metodik tizim asosida talabalarda tanqidiy fikrlash va kreativlik bir vaqtda rivojlanadi. Ular shunchaki “chizuvchi” emas, balki “ijodkor-tadqiqotchi” rolini ijro etadi. Talabalar tomonidan yaratilgan rasmlar estetik, badiiy ham ilmiy qiymatga ega bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida talabalarning ijodiy faoliyati nafaqat bilimlarni uzatish, balki ularning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Talabaning ijodkorligi noma’lum tomonga muvaffaqiyatli qadam qo‘yish, odatiy yo‘ldan chetga chiqish, qolipdan chiqish, yangi tajribalarga ochiq bo‘lish, bir g‘oyadan boshqasini keltirib chiqarish, qayta birlashtirish yoki ular o‘rtasidagi yangi bog‘lanishlarni ko‘ra olish qobiliyati sifatida ham izohlanadi. STEAM yondashuvi aynan ijodiy g‘oyalar yaratish, muammolarga nostandart yechim topish va ularni hal qilishning yangi usullarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydi.

Integratsiyalashgan mashg`ulotda turli faoliyatlardagi bilimlar birlashtiriladi. Talabalar o'rganayotgan masalani amaliy yo'naltirilgan holda yaxlit idrok etishga yordam beradi. Tasviriy faoliyat jarayonidagi integratsiya bir qator vazifalarni bajarishga asoslanadi va atrofdagi borliq haqida yaxlit nuqtai nazarlarni san’at orqali ifodalash ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.Н. Воображение и творчество в детском возрасте.- СПб.: М, 1997. – 96- с
2. Казакова Т.Г. Теория и методика развития детского изобразительного творчества. М. 2006-255 с
3. Комарова. Т.С. Детское художественное творчество. Методическое пособие. М.:2006 -118 с
4. Tadd Liberty. New Methods in Education: Art, Real Manual Training, Nature Study.Nyu-York.1899
5. Da Vinci, L. (1890). Trattato della pittura di Leonardo da Vinci, condotto sul cod. Vaticano Urbinate 1270. Roma: Unione cooperative editrice. Retrieved from https://archive.org/details/trattatodellapit00leon
6. Remali J.A. A practical handbook on effective development and implementation of steam teaching at school https://web.htk.tlu.ee/STEAM/handbook/chapter/steam-and-other-derivations/

SUYUQLIKLARDA YORUG‘LIKNING SOCHILISHINI NAZARIY VA AMALIY TADQIQ QILISH

Ortiqova Maftuna Jasurbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22827565

Annotatsiya. Ushbu ishda suyuqliklarda yorug‘likning sochilish jarayoni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinadi. Yorug‘likning suyuqlik molekulalari va muhitdagi mikroskopik zichlik fluktuatsiyalari bilan o‘zaro ta’siri, sochilish mexanizmlari hamda sochilgan nurlanishning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yorug‘likning elastik va kombinatsion sochilishi o‘rtasidagi farqlar ko‘rib chiqilib, sochilgan nurlanish chastotasining o‘zgarishiga olib keluvchi omillar yoritiladi. Nazariy natijalarni tajribaviy kuzatishlar bilan taqqoslash orqali suyuqliklarning optik xususiyatlarini baholash imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari suyuqliklarning molekulyar tuzilishi va optik xossalarini o‘rganishda yorug‘lik sochilishi usulining ahamiyatini ochib beradi.

Аннотация. Аннотация. В работе исследуется рассеяние света в жидкостях с теоретической и практической точек зрения. Рассматривается взаимодействие светового излучения с молекулами жидкости и микроскопическими флуктуациями плотности среды, а также анализируются основные механизмы и характеристики рассеянного излучения. Особое внимание уделяется различиям между упругим и комбинационным рассеянием света и факторам, приводящим к изменению частоты рассеянного излучения. Теоретические положения сопоставляются с результатами экспериментальных наблюдений, что позволяет оценить возможности применения рассеяния света для исследования оптических свойств жидкостей. Полученные результаты показывают значимость метода рассеяния света для изучения молекулярной структуры и оптических характеристик жидких сред.

Abstract. This study investigates light scattering in liquids from both theoretical and experimental perspectives. The interaction of light with liquid molecules and microscopic fluctuations of the medium density is considered, and the main mechanisms and characteristics of scattered radiation are analyzed. Particular attention is given to the differences between elastic and Raman scattering and to the factors responsible for changes in the frequency of scattered light. Theoretical considerations are compared with experimental observations to evaluate the applicability of light scattering for investigating the optical properties of liquid media. The results demonstrate the significance of light-scattering methods for studying the molecular structure and optical characteristics of liquids.
Kalit so‘zlar: yorug‘likning sochilishi, suyuqliklar, kombinatsion sochilish, elastik sochilish, yorug‘likning molekulalar bilan o‘zaro ta’siri, zichlik fluktuatsiyasi, sochilgan yorug‘lik, optik xususiyatlar, Raman sochilishi, molekulyar tuzilish.

Ключевые слова: рассеяние света, жидкости, комбинационное рассеяние, упругое рассеяние, взаимодействие света с молекулами, флуктуации плотности, рассеянное излучение, оптические свойства, комбинационное рассеяние Рамана, молекулярная структура.

Keywords: light scattering, liquids, Raman scattering, elastic scattering, light–molecule interaction, density fluctuations, scattered radiation, optical properties, Raman effect, molecular structure.

Yorug‘likning kombinatsion sochilishi muhit molekulalarining xususiyatlarini o‘rganishda muhim usul hisoblanadi. Odatda sochilgan yorug‘lik chastotasi tushayotgan yorug‘lik chastotasiga teng bo‘ladi. Ammo muhitdagi zarrachalar tebranma harakat qilsa, ular sochilgan yorug‘lik amplitudasini davriy ravishda o‘zgartiradi. Natijada yorug‘lik modulyatsiyalanadi va uning chastotasi o‘zgaradi. Shu hodisa kombinatsion sochilish deb ataladi. Haqiqatdan, $x = a\ cos\ 2\pi\nu_0 t$ tebranishda amplituda a ning o‘zi $a = a_0\ cos\ 2\pi\nu' t$ qonun asosida davriy ravishda o‘zgarib turadi deylik, bu holda:


$$x = a_0\ cos\ 2\pi\nu' t \cdot cos\ 2\pi\nu_0 t = \frac{a_0}{2} cos2\pi(\nu_0 + \nu') + \frac{a_0}{2} cos2\pi(\nu_0 - \nu') \quad (1.1.1)$$

Bu tenglik modullangan tebranishning $\nu = \nu_0 \pm \nu'$ chastotali ikkita garmonik tebranishga ajralishini ko‘rsatadi. Shu sababli sochib yuborilgan nurlarning amplitudasini davriy ravishda o‘zgartiruvchi

markazlardan sochilgan v_0 chastotali yorug‘lik ham o‘z chastotasini o‘zgartirishi kerak. Natijada dastlabki chastotasi v_0 bo‘lgan nurlar o‘rniga ikki xil $v = v_0 \pm v'$ chastotali nurlar hosil bo‘ladi[1].Ayni zamonda hind fiziklari Raman va Krishnan ham yorug‘likning suyuqliklardan sochilishida xuddi shunday hodisani kuzatganlar. Yorug‘likning kombinatsion sochilishi Raman hodisasi deb ham ataladi.

Nazariy xulosalar bilan tajribadan olingan ma’lumotlarni qiyos qilinganda, yo‘ldosh chiziqlarning asosiy chiziqdan qancha uzoqlikda joylashuvini ko‘rsatuvchi v', v'', v''',... chastotalar ionlarning kristallardagi xususiy tebranish chastotalari bilan bir xil bo‘lishi kerakligi ayon bo‘ladi. Xuddi shunday tebranishlar infraqizil nurlarning yutilishida ham sodir bo‘lishi mumkin. Kombinatsion sochilishdagi yo‘ldosh chiziqlarning joylashishini o‘lchashlar natijasida aniqlangan v', v'', v''',...

Kombinatsion sochilishning klassik nazariya asosida yuqoridagicha tushuntirilishi yetarli darajada to‘liq emas. Klassik nazariya ko‘pgina faktlarni, masalan, nima uchun „Antistoks" va „Stoks" yo‘ldosh chiziqlarning intensivligi har xil bo‘lishini aytib bera olmaydi. Haqiqatda kombinatsion sochilish ham, yorug‘likning modda bilan o‘zaro ta’siriga bog‘liq bo‘lgan boshqa hodisalar singari, kvantlanish xarakteriga egadir [6]. Tebranish chastotalarning chiqarilishi va yutilishi molekulaning bir energetik holatdan ikkinchi energetik holatga o‘tishi bilan bog‘liqdir. Molekula W_0, W_1, ... W_i, ... energiyali tebranish energetik holatlaridan birida bo‘la oladi, deb faraz qilaylik. U, eng kam W_0 energiyali holatda normal holda bo‘lsin. Molekula $\varepsilon_0 = h\nu_0$ energiyali foton bilan o‘zaro ta’sir natijasida W_i energiyali yuqoriroq energetik sathga o‘tishi mumkin (1.-*a* rasm); molekulani bu sathga o‘tkazish uchun $\Delta W = W_i - W_0$ energiya talab qilinadi.



1.-rasm. “Stoks” (*a*) va “Antistoks” (*b*) chiziqlarning hosil bo‘lishi

Shu sababli fotonning energiyasi ΔW miqdorida kamayib, yangi (sochilgan) foton hosil bo‘ladi. Bu yangi fotonning energiyasi

$$\varepsilon = h\nu = h\nu_0 - \Delta W \qquad (1.1.2)$$

bo‘ladi.

Bu tenglikdan sochilgan fotonlarning chastotasi

$$\nu = \nu_0 - \frac{\Delta W}{h} \qquad (1.1.3)$$

ekani kelib chiqadi, ammo $\frac{\Delta W}{h}$ ifoda molekulaning W_0 va W_i energetik holatlarning biridan ikkinchisiga o‘tishiga mos chastotadir.

$\frac{\Delta W}{h}$ ning bu qiymatidan foydalansak,

$$\nu = \nu_0 - \nu' ; \qquad (1)$$

bu esa kombinatsion sochilish spektrida stoks chiziqning paydo bo‘lishiga mos keladi. Kombinatsion sochilish spektrida „antistoks" yo‘ldosh chiziqning paydo bo‘lishi molekulalarning bir qismi boshda W_i energiyali uyg‘otilgan holatda bo‘lishidan keladi deyish mumkin (1.1.2.-*b* rasm). Bu holda molekula unga tushayotgan foton ta’sirida W_i energiyali holatdan kamroq W_0 energiyali holatga o‘tadi. Natijada dastlabki fotonning $\varepsilon_0 = h\nu_0$ energiyasiga ΔW energiya qo‘shilib,

$$\varepsilon = h\nu = h\nu_0 + \Delta W \qquad (2)$$

energiyali sochilgan foton hosil bo‘ladi. Bundan „antistoks" chiziqning chastotasi uchun quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$\nu = \nu_0 + \nu' \qquad (3)$$

Xulosa qilib aytganda W_i energiyali uyg‘otilgan holatdagi molekulalar soni W_0 energiyali normal holatdagi molekulalar sonidan hamma vaqt kam bo‘ladi. Shu sababli antistoks chiziqlarning intensivligi stoks chiziqlarning intensivligiga qaraganda kuchsizroq bo‘ladi. T temperatura oshgan sari W_i energiyali uyg‘otilgan holatdagi molekulalar soni N_i Bolsmanning quyidagi qonuniga muvofiq oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. С.Е.Фриш А.В.Тиморева “*Оптика Атомная Физика*” Государственное издательство физико-математической литературы Москва 1961 г. в.3 Р 493-498
2. Г.С.Ландсберг “*Оптика*” М. Физматлит 2003 г. Р 524-530
3. Raman C.V. Krishnan K.S. *Molecular spectra in extreme inferred. Rotation of molecules induced by light* II Nature. 1928. V. 122. P.278, P. 882.
4. Dake Wang, Kathryn Mittauer, and Nicholas *ReynoldsRaman scattering of carbon disulfide: The temperature effect* Am. J. Phys., Vol. 77, No. 12, December 2009 doi: 10.1119/1.3226562
5. Shelton D.P. *Long-range orientation correlation in dipolar liquids probed by hyper-Rayleigh scattering* Hi. Chem. Phys. 2015. V. 143. P. 134503-1-6
6. Bjarnason J.6., Hudson B.S., Andersen H.C. *Quantum theory of line shapes in coherent Raman spectroscopy of gases and liquids* //J. Chem. Phys. 1979. V.70. N. 9. P. 4130-4148.
7. Eshchanov B. *The role of molecular structure in temperature effects of light scattering in liquids* II Journal of Scientific and Engineering Research. 2017. Vol.4. N.12. P.445-449
8. Eshchanov B., Otajonov Sh., Isamatov A. *Study of molecular dynamics of condensed states of a substance by spectroscopy* //Ukraine Journal of Physics. 2014. V.59. N.3. P.254-256.

INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYALARI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nurova Malika Abduzairovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22827569

Annotatsiya. Maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligini individual ta’lim trayektoriyalari asosida rivojlantirish metodikasi yoritiladi. Talabaning boshlang‘ich tayyorgarligini aniqlash, kasbiy maqsadlarini belgilash, mos o‘quv faoliyatini tanlash va natijalarni muntazam baholash o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyot, ustoz bilan hamkorlik, raqamli portfolio va refleksiyaning bo‘lajak o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.
Kalit so‘zlar: individual ta’lim trayektoriyasi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik amaliyot, refleksiya, raqamli portfolio.

Kirish. Pedagogika oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar bir xil o‘quv dasturini o‘zlashtirsalar ham, ularning avvalgi bilimlari, qiziqishlari, amaliy tajribasi va kasbiy maqsadlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli barcha talabadan ayni vaqtda bir xil natijani kutish ularning imkoniyatlarini to‘liq ochishga yetarli emas. Individual ta’lim trayektoriyasi talabaga umumiy kasbiy talablar doirasida o‘z rivojlanish yo‘lini ustoz bilan birga rejalashtirish imkonini beradi. Bunda fanlarni o‘zlashtirish pedagogik amaliyot, mustaqil izlanish va o‘z faoliyatini tahlil qilish bilan uzviy bog‘lanadi. O‘zbekistondagi pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun bunday yondashuv ayniqsa dolzarb: bo‘lajak o‘qituvchi turli tayyorgarlik darajasiga ega o‘quvchilar bilan ishlashni, darsni moslashtirishni va natijaga qarab qaror qabul qilishni o‘rganishi zarur. Individual trayektoriya shu ko‘nikmalarni talabaning o‘z ta’lim tajribasida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan izchil metodik tartibni tavsiflashdir. Uning asosida talabaning tanlovi, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi yordami va kasbiy natijalarga qo‘yilgan aniq talablar yotadi.

Asosiy qism. Individual ta’lim trayektoriyasi talabaning xohishiga ko‘ra topshiriqlarni erkin tanlash bilangina cheklanmaydi. U belgilangan kasbiy kompetensiyalarga erishish uchun maqsad, o‘quv faoliyati, muddat, yordam manbalari va baholash mezonlari oldindan kelishib olinadigan rivojlanish yo‘lidir. Pedagogika yo‘nalishida bunday kompetensiyalar qatoriga darsni loyihalash, o‘quvchi ehtiyojini aniqlash, o‘qitish usulini tanlash, sinfni boshqarish, baholash va ota-onalar bilan muloqot qilish kiradi. Talaba ushbu umumiy natijalarga erishishi shart, biroq unga olib boradigan mashqlar va loyihalar uning ehtiyojiga qarab farqlanishi mumkin.

Metodika dastlabki tashxisdan boshlanadi. Semestr boshida talaba o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholaydi, pedagog esa qisqa suhbat, amaliy vazifa hamda avvalgi ishlar tahlili orqali bu bahoning asoslanganligini tekshiradi. Masalan, talaba dars rejasini tuza olsa-yu, o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga mos topshiriqlar ishlab chiqishda qiynalsa, uning trayektoriyasida aynan shu ko‘nikmaga ko‘proq e’tibor beriladi. Tashxis talabalarga yorliq qo‘yish uchun emas, keyingi o‘sishni kuzatish mumkin bo‘lgan boshlang‘ich holatni belgilash uchun xizmat qiladi. Natija talaba bilan ochiq muhokama qilinishi, uning qiziqishi va kasbiy niyati ham inobatga olinishi lozim.

Keyingi bosqichda talaba va pedagog aniq, kuzatiladigan maqsadlarni kelishib oladi. “Dars o‘tishni yaxshilash” kabi umumiy niyat o‘rniga, masalan, “olti hafta ichida boshlang‘ich sinf uchun turli murakkablikdagi uch xil topshiriq tayyorlash, ularni amaliyotda sinab ko‘rish va natijasini tahlil qilish” maqsadi belgilanadi. Rejada qaysi fan mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar, kuzatuvlar va amaliy vazifalar shu maqsadga xizmat qilishi yoziladi. Talabaga tanlov imkoniyati beriladi: u bir mavzuni mikrodars, o‘quv materiali yaratish yoki maktabdagi vaziyatni tahlil qilish orqali o‘zlashtirishi mumkin. Barcha variantlar bir xil kasbiy natijaga yo‘naltiriladi.

Trayektoriyani amalga oshirishda nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talaba oliy ta’lim muassasasida o‘rgangan usulini maktabdagi kuzatuv yoki pedagogik amaliyot davomida qo‘llab ko‘radi. Shundan so‘ng ustoz o‘qituvchi bilan birga darsning qaysi jihati ishlagani, qaysi topshiriq o‘quvchilarga qiyin bo‘lgani va nima sababdan shunday natija yuz berganini muhokama qiladi. Masalan, savol-javobda faqat faol o‘quvchilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi dars uchun har bir o‘quvchini jalb qiladigan kichik guruh topshirig‘i rejalashtiriladi. Shu tarzda trayektoriya qog‘ozdagi rejadan amaliy qarorlar ketma-ketligiga aylanadi.

Raqamli portfolio talabaning rivojlanishini ko‘rishga yordam beradi. Unda dars ishlanmalari, tayyorlangan materiallar, amaliyot rahbarining fikri, talabaning qisqa tahlili va qayta ishlangan ish namunalari jamlanadi. Portfolio faqat bajarilgan topshiriqlar yig‘indisi bo‘lib qolmasligi kerak: unda dastlabki va keyingi ishlarni taqqoslash orqali o‘sish ko‘rinishi zarur. O‘qituvchi har bir ish yuzasidan qisqa va aniq fikr bildiradi, talaba esa bu fikr asosida keyingi qadamini belgilaydi. Raqamli vositalardan foydalanish imkoniyati cheklangan joylarda xuddi shu vazifani tartibli qog‘oz portfolio ham bajarishi mumkin.

Baholash jarayonida tayyor mahsulot bilan birga talabaning uni qanday yaratgani ham hisobga olinadi. Dars rejasi uchun maqsadning aniqligi, usullarning o‘quvchi ehtiyojiga mosligi, baholash vositasining o‘rinliligi va amaliyotdan keyingi xulosa mezon bo‘lishi mumkin. Mezondan talaba ishni boshlashidan oldin xabardor bo‘lsa, u o‘z faoliyatini mustaqil nazorat qila oladi. Semestr davomida kamida bir necha marta talaba va ustoz trayektoriyani ko‘rib chiqib, bajarilgan ishlarni dalillar asosida muhokama qiladi. Maqsad muddatidan oldin bajarilsa, vazifa murakkablashtiriladi; qiyinchilik davom etsa, qo‘shimcha mashq yoki ustoz yordami belgilanadi. Bunday tuzatishlar trayektoriyaning tabiiy qismidir.

Metodikani joriy etishda pedagogning maslahatchi sifatidagi roli muhim. U talaba o‘rniga barcha qarorlarni qabul qilmaydi, balki asosli tanlov qilishiga ko‘maklashadi. Guruhdagi har bir talaba uchun mutlaqo boshqa o‘quv dasturi tuzish shart emas. Umumiy mashg‘ulotlar saqlangan holda vazifaning murakkabligi, bajarish usuli, amaliyot mavzusi yoki qo‘shimcha resurslar moslashtiriladi. Bu pedagogning ishini tashkil etishga ham yordam beradi: umumiy baholash mezonlari barcha talabaga tatbiq etiladi, shaxsiy rivojlanish maqsadlari esa individual maslahatlarda aniqlashtiriladi. Natijada talaba kasbiy tayyorgarligi uchun mas’uliyatni asta-sekin o‘z zimmasiga olishni o‘rganadi.

Xulosa. Individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan metodika bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini uning shaxsiy ehtiyojlari va pedagogik faoliyatga qo‘yiladigan umumiy talablar bilan bog‘lash imkonini beradi. Metodikaning izchilligi dastlabki tashxis, aniq maqsad, moslashtirilgan o‘quv faoliyati, maktab amaliyoti, muntazam fikr almashish va natijalarni qayta ko‘rib chiqish orqali ta’minlanadi. Ayniqsa, talabaning o‘z darsini tahlil qilishi va olingan xulosani keyingi mashg‘ulotda qo‘llashi kasbiy o‘sish uchun muhimdir. Bunday ishni samarali tashkil etish uchun pedagogika oliy ta’lim muassasasi ustozlar maslahatiga vaqt ajratishi, amaliyot maktablari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi va baholash mezonlarini talabalarga tushunarli shaklda taqdim etishi lozim. Trayektoriya bir marta tuzilib, o‘zgarmay qoladigan hujjat emas; u talabaning erishgan natijasi va yuzaga kelgan ehtiyojiga qarab yangilanadi. Shu shartlar bajarilganda individual yondashuv talabaning mustaqilligini kuchaytiradi hamda uni turli o‘quvchilar bilan ishlashga puxtaroq tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafoyeva M. O. Talabalarni induvidual ta’lim trayektoriyasi orqali o‘qitishning samaradorligi. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlar: dolzarb muammolar va rivojlanish tendensiyalari, 2022, 88–90-betlar.

2. Sheraliyeva M. B. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy shakllanish individual trayektoriyasini loyihalash metodikasi. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2026.

3. Boymurodova Sh. M. Zamonaviy o‘qituvchining individual ta’lim trayektoriyasi tuzilmasi. Eurasian Journal of Academic Research, 2021, 1(9), 395–407-betlar.

4. Sadikova I. I. Oliy ta’limda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish. Prospects and Main Trends in Modern Science, 2026, 3(29).

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Umarova Gulhayo Mirodiljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
